






YUSUF MAHMUDOV

BOTANIKADAN 8930 SAVOLGA JAVOB

1-KITOB



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

T. N. QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

YUSUF MAHMUDOV

BOTANIKADAN 8 9 3 0 SAVOLGA JAVOB

Birinchi kitob

TOSHKENT
«YANGI NASHR»
2017

UO'K: 54 (079.1)
KBK: 24ya2
M 37

T. N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti ning 2015-yil 25-dekabrdagi 13-sonli bayonnomasiga asosan ilmiy kengashi nashr etishga tavsiya qilgan

Mahmudov, Yusuf

M 37 Botanikadan 8930 savolga javob: Yu. Mahmudov. – Toshkent: «Yangi nashr», 2017. – 528 b.

KBK: 24ya2

ISBN 978-9943-22-276-2

Mas'ul muharrirlar

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, biologiya fanlari doktori, professor Sh. Y. Xurramov; pedagogika fanlari doktori, professor H. T. Omonov.

Taqrizchilar

biologiya fanlari doktori, professor H. Ch. Bo'riyev; biologiya fanlari nomzodi, dotsent E. Zaripov; Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi biologiya o'qituvchisi M. X. Xolmirzayeva.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada o'simliklarning sistematikasi, geologik davrlar mobaynida rivojlanishi (evolyutsiya) va urug'doshlarning aloqalari (filogeniya), o'simliklarning butun Yer yuzida tarqalishidagi o'rnashi va hozirgi qonuniyatlar (o'simliklar geografiyasi), muhit bilan aloqasi (o'simliklar ekologiyasi), o'simlik qoplamining tuzilishi (fitotsenologiya yoki geobotanika), o'simliklardan xo'jalikda foydalanish yo'llari va imkoniyatlari (iqtisodiy botanika)ga oid 8930 ta savolga faqat bitta to'g'ri javob berilgan.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma uzluksiz ta'lim tizimi o'quvchi-talabalariga, magistrantlarga, ilmiy izlanuvchilarga, professor-o'qituvchilarga va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Shuningdek, undan abiturientlar ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-22-276-2

© "Yangi nashr", 2017

Sinchkovligimizning nihoyasi yo'q, idrokning qanoatlana boshlashi uning chetlanganligi yoxud tofiqqanligining alomatidir.

M. Monten

SO'ZBOSHI

Tasavvur qilingki, tabiatda, hayvonot olamining vakillari bo'lmasin... Bu holda tirik tabiat naqadar g'arib bo'lib qolardi.

Suv havzalarida baliqlar g'ujg'on o'ynamasa, baqalarning jo'rovozligi eshitilmasa, bog'u gulzorlarda bulbullar xonishi quloqqa chalinmasa, osmonni to'ldirib qushlar galasi uchmasa – ko'chmasa, savannalarda "yuruvchi minoralar", ya'ni jirafalar saylat to'kmasa, hayvonlar shohi – sherlar o'kirmasa, kolibri uchа turib, gulsharbat so'rmasa, qo'y, echki, sigirlar sut, yog', go'sht va jun "hadya" etmasa, tuya – qimrondek chanqovbosdi ichimlikning xomashyosi bo'lmish o'z sutini bizga in'om etmasa, vafodor "do'stimiz" – itlar hovli-joy va otarlarni qo'riqlamasa, yumronqoziqlar tinimsiz ravishda yer osti yo'lini uzaytirib, tuproqning tabiiy aeratsiyasini ta'minlamasa, tabiatning sanitarlari (quzg'unlar, chumolilar, arilar, yirtqichlar va boshqalar) faoliyat ko'rsatmasa, dahshatli vaziyatga ro'baro' kelar edik.

Shukronalar bo'lsinki, donishmand tabiat flora va mikroolam vakillari yoniga hayvonot olami (fauna) individlarini kamarbasta qilib yaratib qo'ygan. Hayvonlar bo'lmasa, o'simliklar changlanmas, eng zaruriy va asosiy biogen elementlar, organik va anorganik birikmalarning tabiatdagi migratsiyasi sodir bo'lmasdi, hosildorlik va mahsuldorlik tushunchalari mavhumligicha qolar edi.

Ovqatlanish tarzi bo'yicha o'txo'r bo'ladimi yoki go'shtxo'r bo'ladimi, baribir hayvonlar o'simliklarning evaziga yashay oladilar, xolos. Har qanday go'shtxo'r yirtqichning nasibasi – o'txo'r o'ljalar.

Lekin hayvonot olamining vakillari ham "hayot bo'stoni"ning kemtiklarini munosib ravishda to'ldirib turadi. Seleksiya va urug'chilik, o'simlikshunoslik va chorvachilik, dehqonchilik va bog'dorchilik, parrandachilik va asalarichilik, genetika va biotexnologiya, hujayra va gen injenerligi, meditsina va veteri-

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 30651

nariya, gidrobiologiya va ekologiya, ixtiologiya (baliqchilik) va entomologiya (hasharotchilik), ornitologiya (qushchilik) va mamalogiya (sut emizuvchilar zoologiyasi) yutuqlari evaziga duragay va gibrid turlar, zot va xillar yaratilmoqda. Hayvonlarning maqsadga muvofiq naslchiligi yo'lga qo'yilmoqda.

Insonni hayot bo'stonining gultoji deb ta'riflashadi va jonli hamda jonsiz tabiatning barcha vakillari faqat odamga, insoniyat manfaatiga xizmat qilishi lozim, deb hisoblashadi.

Biroq insonning atrof-muhitga ko'rsatgan va ko'rsatayotgan antropogen va texnogen ta'siri evaziga minglab biologik tur vakillari qirilib bitdi, millionga yaqin ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'ldi (irsiy va kasbiy kasalliklar ko'paydi, ekologik kataklizmlar soni ortdi, tugab boruvchi resurslar tagi ko'rinib qoldi, kosmik fazo va atmosfera hamda tuproq va suv sferasi yaroqsizlanmoqda, kantserogen (rak hosil qiluvchi) va psixotrop (aqliy faoliyatga ta'sir etuvchi) moddalarning soni ortib bormoqda va h.k.

Hayvonlar dunyosidagi ahvol tangligicha qolmoqda. Ularning yashash maskanlari qisqarmoqda, tabiiy yashash sharoitlari salbiy tomonga tez o'zgarib bormoqda. O'simliklar olamining aksariyat vakillari o'troq tarzda hayot kechirishsa, hayvonot olamida esa olis va yaqin masofalarga ko'chish, siljish va mavsumiy joy o'zgartirish keng tarqalgan.

Shuning uchun hayvonot dunyosida tabiatga faol ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Birgina inson qadamining yerning yagona tabiiy yo'ldoshi – Oyga etganligi va geosentrik orbitada insoniyat aql-zakovati bilan yaratilgan ob'ektlarning minglab, balki millionlab vakillaridan iborat kosmik chiqitlarning uchib yurganligi bunga misol bo'la oladi.

Yer yuzasida insonning iste'molchilik manfaatini qondirish maqsadida hosil qilingan son-sanoqsiz "chandiq"larni, bo'shab qolgan neft va gaz konlarining huvillagan shaxta va havzalarini, qirib bitirilgan o'rmonlar o'rnida hosil bo'lgan "yalangbosh" hududlarni, dunyo ummoni yuzasida suzib yurgan millionlab hatto milliardlab sondagi sanoat va turmush chiqindilarini ham bu qatorga qo'shish mumkin.

Odam va olam munosabatlari o'zining keskinlik apogeyiga ko'tarilgan bugungi kunda aql-idrok bilan ish yuritish, tejamkorlik va xushyorlik bilan xo'jalik hoshqarish dolzarb masalaga

aylanib qolmoqda. Tiriklikni va ona-Zaminni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashdan boshqa optimal yo'l yo'q, oldimizda.

Insoniyat hamjamiyati uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon, sog'likni saqlash, energiya ta'minoti, qurilish va transport, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi umumbashariy muammolarning ijobiy yechimini topish ham tirik materiya vakillarining barcha individlari o'rtasida oqilona va mutanosib dialektik munosabatlarning o'rnatilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Qo'llanmada qamrab olingan xilma-xil ma'lumotlar, qiziqarli fakt va raqamlar zoologik kaleydoskopning beqiyos rang-barangligini tasdiqlaydi. Biologik xilma-xillik ko'zgusida fauna vakillarining o'rni hamda mavqei naqadar katta ekanligiga qo'llanmada keltirilgan materiallar yorqin va yaqqol isbotlovchi omil bo'la oladi. Demak, jamlangan ko'p sonli va turfa komponentli jamg'arma hayvonot olamining sir-sinoatiga qiziquvchilar uchun maroqli va sermazmun manba bo'lib xizmat qiladi, albatta.

Buyuk fizik A. Eynshteyin "Fan-tafakkurining dunyodagi biz bilgan hamma hodisalarni ma'lum uslub vositasida bir yerga jamlash yo'lida ko'p asrlik xormay-tolmay qilgan mehnatidir" deganidek, mazkur qo'llanma yaxshigina ilmiy-ma'rifiy, ilmiy-ommabop va maxsus vosita bo'lishi lozim. Buning uchun muallifning mashaqqatli va mardona mehnati evaziga yaratilgan bu kitobni o'qiganlar, albatta, o'zlari uchun manfaatli ish qilgan bo'ladilar.

Shu o'rinda taniqli adiblarimizdan birining "Kitob – boylik, faqat sotib olingani emas, balki o'qilgani", degan purma'no iborasini muhtaram kitobxonlarga eslatib qo'ymoqchimiz, xolos.

Buyuk matematik, astronom va astrolog, shoir va faylasuf Umar Xayyom (1048 – 1131) yozganidek,

Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aql ko'zining qorasi – javhari ham biz.
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz uning ko'zi – gavhari ham biz!

Uzukning ham, uning gavharining ham omon qolishi ko'p jihatdan o'zimizga, ya'ni Homo sapiens vakillarining sa'y-harakatlariga bog'liq ekanligini bir lahza ham unutmasligimiz lozim va shart.

BOTANIK QASIDA

Dostoyevskiy – taniqli adib,
"Olamni go'zallik qutqaradi", deb
Yuz yil ilgariroq maqtanib qo'yib,
O'zining shiorin qo'ygandi osib

Bir qoshiq qonimdan kechilsa, zora,
Ulug' adib fikrin qo'ysam tuzatib
Yashilliksiz olam bo'lardi jora,
Havosiz o'lardi oyoq uzatib

O'simlik bo'lmasa hayot bo'lmasdi,
Dasturxonlar rizqu ro'zga to'lmasdi.
Hosildor dalalar mo'l bo'lganida,
Ne-ne zotlar ochdan o'lmasdi.

Ey, xandon pistani xush ko'ruvchilar,
Archa to'sin, ustun ila uy quruvchilar.
Qo'zni oching, may va choy ichuvchilar,
Tolbeshikda arg'imchoq uchuvchilar!

Guldek nozaninga gul beruvchilar,
Chanoqdan oq oltin-dur teruvchilar
Devzira palovu tok oshlariga,
To'ymasa alamdan qosh keruvchilar!

Nabotot bo'lmasa holimiz xarob,
Aljirab-valjirab ichmasdik sharob
Shirmoy kulcha tushga kirib chiqardi,
Ochlikdan toliqib , bo'lardik betob.

Ot uloq chopmasdi arpa bo'lmasa,
Bo'rdoqi bo'lmasdi oxur to'lmasa
Tariqsiz chumchuq chirqillamasdi,
Filning qorni o'tsiz dirkillamasdi

Bulbulning xonishi bog'siz so'nardi,
Qaldirg'och vayrona uzra qo'nardi
Ketmon, belkuraklar dastasiz qolib,
Teshalar yog'ochmas, toshni yo'nardi

Nayning sasi o'char bambuk, qamishsiz,
Tish so'rib duradgor qolardi ishsiz.
Dunyo yasamasdi birorta beshik,
Olam g'arib bo'lar gulu ra'nosiz.

Yurmasdik quloqqa rayhonlar taqib,
Isinmasdik ulkan gulxanlar yoqib.
Gulzor, chamanzorlar bo'lmaganida,
Bolari sharbati turmasdi oqib.

Qovunni maqtasak tarvuz mung'ayar,
Handalakning rangi bevaqt sarg'ayar.
Maqtovdan oshqovoq, suvqovoq, nosqovoq,
Tomoshaqovoqlar noxush taltayar.

Yashil borliq filtr atmosferaga,
Mangu darmon berar biosferaga
Beminnat dastyordir ushbu saltanat,
Kislorod purkaydi troposferaga

Maymunlar holiga yig'lardi Majnun,
Ochlikdan eshak ham bo'lar edi xun.
Shukrona aytguvchi bitta zot – Inson,
O'simlik dunyosi borligi uchun.

Ortiqcha olqishdan taltaymang, biroq,
Qora bor makonda mavjud erur oq.
Tamaki, ko'knori, nasha bo'lmasa,
Odamlar jismiga kirmasdi titroq.

Bu yorug', bug'uhor ona zamında,
Shundayin farahbaxsh, to'kin zamonda
Bor bo'libon Quyosh, suv, havo, tuproq,
Odamga omad yor bo'lsin jahonda!

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, biologiya fanlari doktori, professor Shukur Xurramovich Xurramov; pedagogika fanlari doktori, professor Hojiqul Tovboevich Omonov.

1. Abu Ali ibn Sino qaysi o'simlikni "Qoplon o'ldiruvchi", "Bo'ri o'ldiruvchi" deb atagan? **Parpi-akonit o'simligini.**

1. Abu Ali ibn Sino anjirning quyuq shirasi bilan qaysi kasalliklarni davolagan? **Surunkali yo'tal va ko'krak og'rig'ini, o'pka o'smasi hamda o'pka yo'llarini davolagan.**

2. Abu Ali ibn Sino qaysi kasallikni anjir bargining damlamasini xantal ko'pigi bilan aralashtirib davolashni tavsiya qilgan? **Qichima kasalligini davolashni tavsiya qilgan.**

3. Abu Ali ibn Sino anjir yog'ochining kulini qanday yaralarni davolashda ishlatgan? **Bitmaydigan yaralarni davolashda ishlatgan.**

4. Abu Ali ibn Sino kovul ildizi bilan qaysi kasalliklarni davolagan? **Podagra, bo'g'im og'riqlari va radikulitni davolagan.**

5. Abu Ali ibn Sinoning "Javdiya" (1005 – 1010 yy.) kitobida yozishicha, anjir mevasining nimasidan tayyorlangan qaynatma yo'tal, dam qisma va jinsiy zaiflik kasalliklarini davolashda foydalanilgan? **Qoqisidan tayyorlangan qaynatma.**

6. Abu Ali ibn Sino gulxayri o'simligining urug'lari va barglaridan tayyorlangan qaynatmani qanday kasalliklarda dori sifatida foydalangan? **Siydik (peshob) qiyinlashib qolganida va qovuqda toshlar paydo bo'lganida siydik haydovchi dori sifatida foydalangan.**

7. Abu Ali ibn Sino gulxayri o'simligining preparatlari balg'am ko'chiradigan, yumshatadigan va yallig'lanishga qarshi ko'rsatishi uning tarkibidagi qanday moddalar borligiga bog'liq deb aytgan? **Shilimshiq moddalar, kraxmal kolloid xarakteridagi boshqa moddalar borligiga bog'liq.**

8. Abu Rayhon Beruniy o'zining qaysi kitobida "parpi o'simligining zahari qoplon, cho'chqa, it, bo'rilarning ovqatiga qo'shib berilsa, ularni halok qiladi. Agar bu o'simlikka chayon yaqinlashsa, uning zahri ham, o'zi ham zaiflashadi" deb yozgan edi? **"Dorishunoslik" kitobida.**

9. Abujahl tarvuzi qaysi oilaga mansub yo'g'on, tuganaksimon ildizli necha yillik o't? **Qovoqdoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o't.**

10. Abujahl tarvuzi qayerlarda uchraydi? **O'rta Osiyo (jumladan, O'zbekiston), Yevropa, Kavkaz, Eron va Skandinaviyada uchraydi.**

11. Abujahl tarvuzi ildizida qanday moddalar borligi aniqlangan? **Ildizida glikozidlar, kraxmal, oshlovchi modda, smola, mochevina, olma kislotaning tuzlari borligi aniqlangan.**

12. Abujahl tarvuzi ildizining spirtdagi eritmasi xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Og'riqni qoldirish, jarohat, yaralarni davolash, yo'talni qoldirish hamda bod og'rig'ini yo'qotish uchun ishlatiladi.**

13. Abujahl tarvuzining changchili gullari nechtadan? **5 – 12 tadan.**

14. Abujahl tarvuzining changchili gullari o'simlikning qaysi qismida joylashgan? **Pastki qismida.**

15. Abujahl tarvuzi o'simligining uzunligi necha m? **2 – 4 m.**

16. Abujahl tarvuzi qanday o'simlik? **Dorivor o'simlik.**

17. Abujahl tarvuzi o'simligining mevasi qanday rangli? **Qora yoki qo'ng'ir rangli.**

18. Abujahl tarvuzi o'simligining mevasi qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

19. Abujahl tarvuzi o'simligining diametri necha mm? **7 – 8 mm.**

20. Abujahl tarvuzining urug'i qanday shakida? **Yassi – tuxumsimon shaklda.**

21. Abujahl tarvuzi qaysi oylarda gullaydi? **May – iyul oylarida gullaydi.**

22. Abujahl tarvuzining palagi barglari, asosan, qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

23. Abujahl tarvuzining palagi barglari chetlari qanday? **O'yilgan.**

24. Abujahl tarvuzining palagi gulları rangi qanday? **Sarg'ish-oq.**

25. Abujahl tarvuzining palagi gullamasdan qazib olingan yangi ildizidan tayerlangan esseptsiya qaerda qo'llaniladi? **Gomeopatiyada qo'llaniladi.**

26. Abuxanif Dinovari (815 – 895 yy.) isiriq tomiri damlamasi bilan surunkali qaysi kasallikni davolagan? **Tutqanoq kasalligini davolagan.**

27. Abeliya – shilvidoshlarning qaysi turi O'rta Osiyoda uchraydi? **Butalar turi uchraydi.**

28. Abeliya qaysi oilaga mansub butalar turkumi (urug'i)? **Shilvidoshlar (uchqatlilar) oilasiga mansub.**

29. Abeliya butasining O'rta Osiyoda qancha turi bor? **30 dan ortiq turi bor.**

30. Abeliya butasining changchisi nechta? **4 ta.**
31. Abeliya butasining mevasi qanday? **Quruq.**
32. Abeliya butasining mevasi necha chanoqli? **Bir chanoqli.**
33. Abeliya butasining mevasi qanday urug'li? **Yakka urug'li.**
34. Abeliya butasining guli qanday? **Yirik, bir oz qiyshiq (zigomorf).**
35. Abeliya butasining guli kosachasi naychasi nima bilan tutashgan? **Tuguncha bilan tutashgan.**
36. Abeliya butasining O'rta Osiyoda qanday turi uchraydi? **Aso-muso (A. corymlosa) turi uchraydi.**
37. Avokado, alligator noki qaysilarga mansub doim yashil o'simliklar (daraxtlar) turkumi? **Lavrdoshlarga mansub.**
38. Avokado, alligator noki o'simligi qayerlarda o'sadi? **Subtropik zonada, jumladan, Qora dengiz atroflarida o'sadi. O'zbekistonda hozirgacha ekilmagan.**
39. Avokado, alligator noki o'simligi tarkibida necha foizgacha qanday moddalar bor? **30 foizgacha moy, 1,5 – 4 foizgacha oqsil moddasi bor.**
40. Avokado daraxtining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**
41. Avokado daraxtining gullari qanday rangli? **Oq rangli.**
42. Avokado daraxtining mevasi necha urug'li? **Bir urug'li.**
43. Avokado daraxtining mevasi og'irligi qancha g? **250 – 600 g**
44. Avokado o'simligining mevasi necha urug'li? **Bir urug'li.**
45. Avokado o'simligining mevasi rangi qanday? **To'q yashil yoki ko'kimtir – qizil.**
46. Avokado o'simligining mevasi qanday holda isteъmol qilinadi? **Yangi uzilgan holda isteъmol qilinadi.**
47. Avran, safroo't qaysi oilaga mansub o'tlar turkumi? **Sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub.**
48. Avran, safro o'tning nechta turi bor? **24 ta turi bor.**
49. Avran o'simligi qayerda foydalanib kelingan? **Xalq tabobatida foydalanib kelingan.**
50. Avran o'simligining ayrim turlari ildizida qanday xususiyatga ega moddalar bor? **Ich suruvchi, qustiruvchi, siydik haydovchi hususiyatiga ega moddalar bor.**
51. Avran qanday o'simlik? **Zaharli o'simlik.**
52. Avran o'simligi, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Asosan, Yevropa, Kichik Osiyo, Sibir va Shimoliy Amerikaning botiq yerlarida tarqalgan.**

53. Avran o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatlarida uchraydi? **Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi.**
54. Avrikula o'simligi qaysi gulning xushmanzara turlaridan biri? **Navro'zgulning.**
55. Avrikula o'simligi qaysi tog'larda o'sadi? **G'arbiy Yevropa tog'larida o'sadi.**
56. Avrikula o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi tog'larda uchraydi? **Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi tog'larda uchraydi.**
57. Avstraliya g'o'zasi qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**
58. Avstraliya g'o'zasini birinchi marta qaysi olim nechanchi yilda ta'riflab bergan? **F. Myuller 1858-yilda.**
59. Avstraliya g'o'zasi qayerda keng tarqalgan? **Avstraliyada keng tarqalgan.**
60. Avstraliya g'o'zasi necha yillik buta? **Ko'p yillik buta.**
61. Avstraliya g'o'zasining bo'yi necha m gacha? **1 – 1,5 m gacha.**
62. Avstraliya g'o'zasining poyasi qanday (yo'g'onmi yoki mgichkami)? **Ingichka.**
63. Avstraliya g'o'zasining poyasi qanday (uzunmi yoki kaltami) tuklar bilan qoplangan? **Kalta tuklar bilan qoplangan.**
64. Avstraliya g'o'zasining ko'saklari diametri necha sm gacha? **1 sm gacha.**
65. Avstraliya g'o'zasining ko'saklari sirti qanday? **Silliq.**
66. Avstraliya g'o'zasining ko'saklari qanday shaklda? **Teskari tuxumsimon shaklda.**
67. Avstraliya g'o'zasi necha chanoqli? **3 – 4 chanoqli.**
68. Avstraliya g'o'zasi qanday pishar hisoblanadi? **Eng tezpishar hisoblanadi.**
69. Avstraliya g'o'zasining ko'sagi necha kunda pishib yetiladi? **30 kunda pishib yetiladi.**
70. Avstraliya g'o'zasi nimalarga chidamli? **O'rgimchakkana va shiraga chidamli.**
71. Avtopoliploidiya o'simliklar ontogenezida, shuningdek, o'simliklar filogenezida qanday ahamiyatga ega? **Muhim ahamiyatga ega.**

72. Agava qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi (urug'i)? **Chuchmomadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi (urug'i).**

73. Agava qanday o'simlik? **Monokarp o'simlik.**

74. Agava o'simligi butun hayoti davomida necha marta gullaydi? **Faqat bir marta (6 – 15 yilda, oranjereyalarda esa 20 – 30 yildan keyin) gullab, uzun (12 m gacha) generativ poya chiqaradi, unda 17 mingga qadar gul bo'ladi.**

75. Agava o'simligining vatani qayer? **O'rta va Janubiy Amerika.**

76. Agava o'simligining qancha turi qayerlarda yovvoyi holda o'sadi? **300 dan ortiq turi Meksika va unga yondosh o'lkalarda yovvoyi holda o'sadi.**

77. Agava o'simligi qayerlarda ekiladi? **Yevropa va Osiyoda, xususan, O'rta Osiyo, Qrim va Kavkazda ekiladi.**

78. Agava o'simligining gullari urug'lanib bo'lgandan so'ng nima bo'ladi? **Quriydi (o'ladi).**

79. Adonis qaysi oilaga mansub o'tlar turkumi? **Ayiqtovondoshlar oilasiga mansub.**

80. Adonis o'tning qancha bir yillik va ko'p yillik turi bor? **20 ga yaqin turi bor.**

81. Adonis o't qayerlarda o'sadi? **O'rta Osiyo, Sibir va Yevropa tog'larida o'sadi.**

82. Adonis o'tning O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi yaylovlarda nechta turi uchraydi? Ular qaysilar? **Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi yaylovlarda. 4 ta turi. Ular: A. parviflora, A. turkestanisa, A. leiosepala, A. chrysocyathus turlari.**

83. Adonis o'tning qaysi turlaridan yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladigan adonizid olinadi? **A. turkestanica va A. vernalis turlaridan.**

84. Adonis o't qaysi oylarda gullaydi? **Aprel-may oylarida gullaydi.**

85. Adonis o'tning gulkosasi nechta ko'k kosachabargdan iborat? **5 ta.**

86. Adonis o'tning gultoji nechta sariq gulbarglardan iborat? **5-20 ta.**

87. Adonis o'tning changchi va urug'chilari ozmi yoki ko'pmi? **Ko'p.**

88. Adonis o'tning gulo'rni qanday shaklda? **Konussimon shaklda.**

89. Adonis o'tdan odamning qaysi a'zolariga ta'sir qiladigan moddalar (kardenolidlar) – strofaptidin, tsimarin, K – strofintin va kopvalotoksin, shuningdek, kumarinlar, flavonoidlar, saponinlar va karotin ajratib olinadi? **Yurakka ta'sir qiladigan.**

90. Adonis o'tdan tayyorlangan damlama xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo qilish uchun qo'llaniladi? **Isitma, hansirash, qaltirash vaqtida terlatadigan, siydik haydaydigan vosita tariqasida, shuningdek, sariq kasalligi bilan nafas a'zolari kasalliklariga.**

91. Adonis o'tdan qayerda qalqonsimon bez o'smasiga davo qilish uchun foydalaniladi? **Angliyada.**

92. Adonis o'tdan tayyorlangan ekstraktlar nimalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi? **Bakteriyalarga qarshi.**

93. Adonis o'tdan tayyorlanadigan galen va novogalen preparatlar (damlama, ekstrakti, tink turalar) nimaning bir qadar engil xillarida qo'llaniladi? **Qon aylanishi xronik etishmovchiligining.**

94. Adriatika oq anjiri necha yoshidan hosilga kiradi? **3 – 4 yoshidan hosilga kiradi.**

95. Adriatika oq anjirining bargi necha bo'lakli? **3 – 5 – 7 bo'lakli.**

96. Adriatika oq anjiridan necha foizgacha yuqori sifatli qoqi tushadi? **35 foizgacha yuqori sifatli qoqi tushadi.**

97. Adriatika oq anjiri necha yoshida mo'l hosil beradi? **6 – 7 yoshida mo'l hosil beradi.**

98. Adriatika oq anjirining bir tupidan qancha kg hosil olinadi? **35 – 40 kg hosil olinadi.**

99. Adriatika oq anjiri qanday meva shaklida? **Nok shaklida.**

100. Adriatika oq anjirining bargi rangi qanday? **Yashil.**

101. Adriatika oq anjirining mevasi yirik bo'lib, og'irligi qancha g? **40 – 50 g.**

102. Adriatika oq anjirining ta'mi qanday? **Shirin.**

103. Adriatika oq anjiri O'zbekistonning janubiy rayonlarida qaysi oyda pishadi? **Sentabr oyida pishadi.**

104. Ajdargul, itog'iz qaysi oilaga mansub bir va ko'p yillik o'tlar turkumi? **Sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub.**

105. Ajdargul o't qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Shimoliy Amerikada, qisman Osiyoda tarqalgan.**

106. Ajdargul o'tning nechta turi O'rta Osiyoda xushmanzara o'simlik sifatida o'stiriladi? **Bir turi - yirik ajdargul (A. majus L.).**

107. Ajdargul o'tning qancha turi bor? **40 ga yaqin turi bor.**

108. Ajdargul o'tning yirik ajdargul (A. majus L.) turining poyasi necha sm? **30 – 60 sm.**

109. Ajdargul o'tning gullari necha labli? **Ikki labli.**

110. Ajdargul o'tning gullari ikki labli bo'lib, labi qanday (ochiqmi yoki yumuqmi)? **Yumuq.**

111. Ajdargul o'tning gullari qayerga yig'ilgan? **Shingil to'pgullarga yig'ilgan.**

112. Ajdargul o'tning qanday rangli xillari uchraydi? **Qizil, pushti, sariq yoki oq gulli xillari uchraydi.**

113. Ajdargul o'tning changchilari nechta? **To'rtta.**

114. Ajdargul o'tning gulkosachasi necha bargchali? **Besh bargchali.**

115. Ajdargul o'tning mevasi qanday? **Ko'sakcha.**

116. Ajriq qaysi oilaga mansub ko'p yillik begona o't? **Boshoqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik begona o't.**

117. Ajriq begona o'tning barglari qanday shaklda? **Tasma (lenta)simon shaklda.**

118. Ajriq begona o'tning barglari chetlari qanday? **O'tkir-g'idirish.**

119. Ajriq begona o't qachondan qachongacha gullab meva tugadi? **Iyundan to kech kuzgacha.**

120. Ajriq begona o't ko'proq qayerlarda o'sadi? **Ariq yoqalarida, sernam o'tloqlarda va ekinlar orasida o'sadi.**

121. Ajriq begona o'tning to'pguli shakli qanday? **Panjasimon.**

122. Ajriq begona o'tning qayerida gul beruvchi poya o'sadi? **Barg qo'ltig'idan.**

123. Ajriq begona o'tning ildizpoyalari qanday (qisqami yoki uzunmi)? **Uzun.**

124. Ajriq begona o't nimani jipslashtirib turadi? **Tuproqni.**

125. Ajriq begona o'tdan qayerlarda foydalaniladi? **Ariq va zovurlarning qirg'oqlarini mustahkamlashda va suv bog'lash (quloqqa chim bosish)da foydalaniladi.**

126. Ajriq begona o'tning yer osti ildizpoyalari qanday joylashgan navdalar hosil qiladi? **Gorizontal yoki qiyshiq joylashgan.**

127. Ajriq begona o't O'zbekistonning qayerida tarqalgan? **Hamma yerida tarqalgan.**

128. Azola qaysi o'simliklar turkumi? **Qirqquloqdoshlarga mansub, suvda o'sadigan, sporali ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

129. Azola o'simligining nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

130. Azola o'simligining qazilma turlari soni qancha? **50 ga yaqin.**

131. Azola o'simligi qaysi oilaga mansub? **Qirqquloqdoshlar oilasiga mansub.**

132. Azola o'simligining ba'zilari qayerlarda keng tarqalgan? **Janubiy Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Avstraliyaning tropik joylarida keng tarqalgan.**

133. Azola o'simligi qaysi kimyoviy elementga ega bo'lganligi sababli undan tuproq unumdorligini oshirishda foydalaniladi? **Azot elementiga ega bo'lganligi sababli.**

134. Azola o'simligi qayerda o'sadi? **Suvda o'sadi.**

135. Azola o'simligining qazilma turlari soni nechta? **10 ta.**

136. Azola o'simligining nechta turi bor? **40 ga yaqin turi bor.**

137. Azot birikmalari kam bo'lgan tuproqda qaysi o'simliklar yaxshi o'sadi? **Dukkakdoshlar yaxshi o'sadi.**

138. Azot to'plovchilarga dukkakli o'simliklar ildizida uchraydigan Bacterium radiciola va ko'k-yashil suvo'tlardan qaysi kiradi? **Amorphonostoc punetiforme, Strafonostoc linckia, Anabaena variabilis, Cylindrogpermum majus kiradi.**

139. Ayiqmurut, xirsmurut qaysi oilaga mansub past bo'yli daraxt? **Ra'nodoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub past bo'yli daraxt.**

140. Ayiqmurut daraxti qayerlarda uchraydi? **O'rta Osiyo (G'arbiy Tyanshan, Pomir-Olay)da uchraydi.**

141. Ayiqmurut daraxti O'zbekistonning qaysi viloyatlarida o'sadi? **Toshkent, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o'sadi.**

142. Ayiqmurut daraxti qayerlarda ko'karadi? **Ayiqmurut noqulay, suvsiz, toshloq sharoitda, quruq tog' yon bag'irlarida va hatto qoyalarning yoriqlarida ham ko'karadi.**

143. Ayiqmurut daraxti qaysi oyda gullab, qaysi oyning oxiri va qaysi oyning boshlarida pishadi? **Aprelda gullab, avgustning oxiri va sentabr boshlarida pishadi.**

144. Ayiqmurut daraxtining mevasi qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

145. Ayiqmurut daraxtining mevasi qanday? **Qattiq.**

146. Ayiqmurut daraxtining mevasi diametri necha sm? **2 – 3 sm.**

147. Ayiqmurut daraxtining mevasi qachon iste'mol qilinadi? **Yumshab shira tortganidan so'ng.**

148. Ayiqmurut daraxti mevasining qaynatmasidan qanday maqsadda foydalaniladi? **Tomoq og'rig'ini davolash va yuqumli kasalliklarning oldini olishda foydalaniladi.**

149. Ayiqmurut daraxti chiroyli, sadasimon, quyosh yog'dusida tovlanib turuvchi patsimon bargli xushmanzara o'simlik bo'lgani uchun uni qayerlarga ekish mumkin? **Dam olish va istirohat bog'lari, xiyobon va yo'l yoqalariga ekish mumkin.**

150. Ayiqtovonlar qaysi oilaga mansub ko'p yillik (ba'zi turlari bir yillik) o'simliklar turkumi? **Ayiqtovondoshlarga (ayiqtovongullilar) oilasiga mansub.**

151. Ayiqtovonlarning yer yuzida qancha turi bor? **600 ga yaqin.**

152. Ayiqtovonlarning O'rta Osiyoda nechta turi bor? **65 ta turi bor.**

153. Ayiqtovonlar ko'proq qanday yerlarda o'sadi? **Sernam yerlarda o'sadi.**

154. Ayiqtovonlar O'rta Osiyoning qayerlarida ham o'sadi? **Cho'l va adirlarida ham o'sadi.**

155. Ayiqtovonlarning O'zbekistonda nechta turi o'sadi? Ko'proq qaysi turlari o'sadi? **32 ta turi. Ko'proq R. pinnatisectus, R. linerilobus, R. severtzovii turlari o'sadi.**

156. Ayiqtovonlarning tarkibida qanday zaharli modda bo'lgani uchun ayiqtovonli o'tloqlarda mol boqish xavfli? **Anemonol moddasi bo'lgani uchun.**

157. Ayiqtovonlarning gullari qanday rangda? **Sariq rangda.**

158. Ayiqtovonlar qanday gulqo'rg'onli? **Qo'sh gulqo'rg'onli.**

159. Ayiqtovonlarning gulkosasi va gultoji necha bargli? **5 bargli.**

160. Ayiqtovonlar poyasining uzunligi necha sm? **15 – 60 sm, ba'zan 80 sm ga boradi.**

161. Ayiqtovonlarning gullari qanday gulqo'rg'onli? **Qo'sh gulqo'rg'onli.**

162. Ayiqtovonlarning bargları qanday? **Panjasimon o'yma.**

163. Ayiqtovonlarning mevasi qanday? **Apokarp va quruq.**

164. Ayiqtovonlarning har bir tojbargi tagida qipiqsimon o'simta bilan yopilib turadigan qanday bez bor? **Shira bezi bor.**

165. Ayiqtovondoshlar qaysi sinfga mansub o'simliklar oilasi? **Ikkipallalilar sinfining ayritojlilar kenja sinfiga mansub.**

166. Ayiqtovondoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

167. Ayiqtovondoshlarning gullari qanday gulqo'rg'onli? **Qo'sh gulqo'rg'onli.**

168. Ayiqtovondoshlarning gullari qanday rangli? **Sariq rangli.**

169. Ayiqtovondoshlarning gulkosa va gultojisi necha bargli? **5 bargli.**

170. Ayiqtovondoshlarning nimalari ko'p? **Changchi va urug'chilari ko'p.**

171. Ayiqtovondoshlarning gulo'rni ba'zi turlarida qanday? Boshqalarida-chi? **Tuksiz. Sertuk.**

172. Ayiqtovondoshlarning poyasi uzunligi necha sm ga boradi? **15 – 60 sm, ba'zan 80 sm ga boradi.**

173. Ayiqtovondoshlarning qancha turi bor? **1500 ga yaqin** turi bor.

174. Ayiqtovondoshlarning Markaziy Osiyoda qancha turi, nechta turkumi bor? **200 dan ziyod turi, 25 ta turkumi** bor.

175. Ayiqtovondoshlarning qaysi turkumlariga mansub turlari tarkibida qanday zaharli moddalar bor? **Ayiqtovon, parpi singari turkumlariga mansub turlari tarkibida alkaloid va glikozidlar bor.**

176. Ayiqtovondoshlarning O'zbekistonda qaysi turkumlarga mansub turlari o'sadi? **Ayiqtovondoshlarning ayiqtovon, isfarak, po'fanak (Anemone), adonis (Adonis), suvyig'ar kabi turkumlarga mansub juda ko'p turlari o'sadi.**

177. Ayiqtovondoshlarning O'zbekistonda ko'proq qaysi turlari o'sadi? **R. pinnatisectus, R. tinerlobus, R. severtzovii va boshq.**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM № 30653

178. Ayiqtovondoshlarning O'zbekistonda nechta turi o'sadi? **32 ta turi o'sadi.**

179. Ayiqtovondoshlarning ba'zi turlari qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi.**

180. Ayiqtovondoshlarning qaysilari xushmanzara o'simlik? **Sallagul, isfarak, suvyig'ar xushmanzara o'simlik**

181. Ayiqtovondoshlarning qaysilari dorivor o'simlik? **Adonis, ayiqtovon, parpilar.**

182. Ayiqtovondoshlar o'sgan o'tloqlarda nima uchun mol boqish xavfli? **Chunki ayiqtovondoshlarning ayiqtovon, parpi singari turkumlariga mansub turlari tarkibida zaharli moddalar (alkaloid va glikozidlar) bor.**

183. Ayiqtovondoshlar qachon zaharsizlanadi? **O'rib quritilganda.**

184. Ayiqtovondoshlarning bargları qanday shaklda? **Panjasimon shaklda.**

185. Ayiqtovondoshlar poyaning pastidan yuqorisiga tomon qandaylashib boradi? **Maydalashib boradi.**

186. Ayiqtovondoshlarning mevasi qanday? **Avokarp va quruq.**

187. Ayiqo't qaysi oilaga mansub tuganakli ko'p yillik o'simlik? **Sutlamadoshlar (sutlamagullilar) oilasiga mansub.**

188. Ayiqo't o'simligining quritib maydalangan yer osti qismi (tuganagi) xalq tabobatida qaysi kasallikni davolashda va nima sifatida ishlatiladi? **Sil kasalligini davolashda, shuningdek, surgi sifatida ishlatiladi.**

189. Ayiqo't o'simligining tuganaklarida necha foiz qanday moddalar bor? **5 foizgacha smola, 0,5 – 0,6 foiz kauchuk bo'lib, smola tarkibida uchuvchan zaharli modda bor.**

190. Ayiqo't o'simligining bo'yi necha sm? **8 – 25 sm.**

191. Ayiqo't o'simligining poyasi qanday? Qanday shaklda? **Yakka. Silindrsimon shaklda.**

192. Ayiqo't o'simligining mevasi (ko'sagi) uzunligi necha mm? **4 – 5 mm.**

193. Ayiqo't o'simligining mevasi qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

194. Aylant, sassiq daraxt qaysi oilaga mansub daraxtlar turkumi? **Simarubdoshlar (simarubgullilar) oilasiga mansub daraxtlar turkumi.**

195. Aylant o'simligining qancha turi ma'lum? **10 tacha turi ma'lum.**

196. Aylant o'simligi qayerlarda ko'proq tarqalgan? **Sharqiy Osiyo va Hindistonda.**

197. Aylantning qaysi turi xushmanzara o'simlik sifatida qayerlarda o'stiriladi? **Ukraina, Qrim, Shimoliy Kavkaz, Belorussiya va O'rta Osiyoda novcha aylant yoki Xitoy zaranggi (A. altissima) degan bir turi o'stiriladi.**

198. Aylant o'simligining gulları necha jinsli? **Ikki jinsli.**

199. Aylant o'simligining bargları qanday? **Yirik, patsimon murakkab, badbo'y.**

200. Aylant o'simligining deyarli barcha turlari qayerlarda ishlatiladi? **Qurilish materiali sifatida, bugomalar yasashda hamda mebel va qog'oz tayyorlashda.**

201. Aylant o'simligining bargi bilan qaysi davlatda ipak qurti boqiladi? **Xitoyda.**

202. Ayrim yashil suvo'tlarda hujayra ichida oddiy bo'linish yo'li bilan paydo bo'lgan yosh hujayralar (harakatchan sporalar) ga nima deyiladi? **Avtosporalar deyiladi.**

203. Ayrim sporali o'simliklarda sporalar kamdan-kam paydo bo'lib, ular, asosan, qanday yo'l bilan ko'payadi? **Ular , asosan, tanasining bo'laklarga bo'linish yo'li bilan ko'payadi.**

204. Ayrim lishaynıklardan qaysi sanoatda, qanday moddalar tayyorlashda foydalaniladi? **Parfyumeriya sanoatida, lakmus va bo'yoq tayyorlashda foydalaniladi.**

205. Ayritojlilar necha pallalilarga mansub kenja sinf? **Ikki pallalilarga mansub.**

206. Ayritojlilarning qancha oilasi bor? **200 ga yaqin oilasi (ra'nodoshlar, sutlamadoshlar, tokdoshlar, gulxayridoshlar, gunafshadoshlar, ziradoshlar va hokazo) bor.**

207. Ayritojlilarning kenja sinfiga kiradigan o'simliklarning gulbarg (tojbarg)lari qanday bo'ladi? **Tutashmagan bo'ladi.**

208. Akatsiya qaysi oilaga mansub daraxt? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub daraxt.**

209. Akatsiya daraxti qayerlarda tarqalgan? **Qisman Afrika va Arabiston yarim orolida tarqalgan.**

210. Akatsiya daraxtining ba'zi turlari keyingi vaqtda qaysi dengiz sohillarida iqlimlashtirilgan? **Qora dengiz sohillarida iqlimlashtirilgan.**

211. Akatsiya daraxtining nechta turi bor? **500 ta turi bor.**

212. Akatsiya daraxtining qancha turi Avstraliyada bor? **250 dan ortiq turi bor.**

213. Akatsiya daraxtining chin akatsiya turlari mevasi va yog'ochida qanday moddalar bor? **Oshlovchi va yelim moddalar bor.**

214. Akatsiya yog'ochidan nima ishlab chiqarishda foydalaniladi? **Mebel ishlab chiqarishda foydalaniladi.**

215. Akvilegiya (lot. aquilegia - suvyig'ar) qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Ayiqtovondoshlar (ayiqtovongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik.**

216. Akvilegiya qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo va Amerikada (o'rmon chetlari, daryo bo'ylari va tog'larda) tarqalgan.**

217. Akvilegiya mevasi qanday to'da urug'chibarglardan iborat? **O'zaro tutashmagan to'da.**

218. Akvilegiya o'simligi ko'proq qayerlarda uchraydi? **O'rta Osiyo, qisman Sibir va Uzoq Sharqda uchraydi.**

219. Akvilegiya o'simligining gul kosasi necha bargli? **5 bargli.**

220. Akvilegiya o'simligining poyasi qanday (tikkami yoki yotiqmi)? **Tikka.**

221. Akvilegiya o'simligining poyasi uzunligi necha sm? **25 – 70 sm.**

222. Akvilegiya o'simligining gullari qanday pixli? **Uzun pixli.**

223. Akvilegiya o'simligining gullari rangi qanday? **Ko'k, binafsha, qizil yoki och qizil.**

224. Akvilegiya o'simligining mevasi o'zaro tutashmagan qanday urug'chibarglardan iborat? **To'da urug'chibarglardan iborat.**

225. Akvilegiya o'simligining qaysi yangi turi gulzorlarga ekiladi? **A. vulgaris degan turi gulzorlarga ekiladi.**

226. Akvilegiya o'simligining qancha turi bor? **50 ga yaqin.**

227. Akvilegiya o'simligining nechta turi yovvoyi holda o'sadi? **2 ta turi yovvoyi holda o'sadi.**

228. Akvilegiyaning nechta turi ko'proq Markaziy Osiyo, qisman Sibir va Uzoq Sharqda uchraydi? **9 ta turi.**

229. Akvilegiya o'simligining nechta turi Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi tog'larda qanday holda o'sadi? **Ikki turi yovvoyi holda o'sadi.**

230. Aktinidiya-aktinidiyadoshlarga mansub lianalar nimasi? **Turkumi.**

231. Aktinidiyaning qancha turi bor? **30 dan ortiq turi bor.**

232. Aktinidiyaning Rossiya Federatsiyasida – Uzoq Sharqda nechta turi uchraydi? **5 ta turi uchraydi.**

233. Aktinidiya-aktinidiyadoshlarga mansub lianalar qayerlarda keng tarqalgan? **Osiyoning janubi-sharqida, ayniqsa, Xitoy va Yaponiyada keng tarqalgan.**

234. Aktinidiyaning qaysi turlari mevalari tarkibida qaysi vitamin ko'p? **A. kolomicta, A. arguta turlari mevalari tarkibida C vitamini ko'p.**

235. Aktinidiyada necha foizgacha qand, organik kislotalar va boshqa moddalar bor? **9,8 foizgacha.**

236. Aktinidiya mevalari hidi, mazasi qanday? **Xushbo'y, shirin va juda yoqimli.**

237. Aktinidiya mevalari qanday taom sifatida iste'mol qilinadi? **Parhez taom sifatida.**

238. Aktinidiya mevalaridan qaysi sanoatda nimalar tayyorlanadi? **Oziq-ovqat sanoatida murabbo va sharbat tayyorlanadi.**

239. Aktinidiyaning meva sharbati va murabbosi tabobatda qaysi kasallikni davolashda va uning oldini olishda, shuningdek, qaysi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Lavsha kasalligini, shuningdek, sil, ko'kyo'tal, tish og'rig'i kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.**

240. Akonit qaysi oilaga mansub ko'p yillik o'simlik? **Ayiqtovondoshlar (ayiqtovongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

241. Albilo o'rtapishar qaysi o'simlik navi? **Uzum navi.**

242. Albilo navli uzum O'zbekistonga qaysi davlatdan keltirilgan? **Ispaniyadan keltirilgan.**

243. Albilo navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

244. Albilo navli uzumning tarkibida qand necha foiz? **23 – 25 foiz.**

245. Albilo navli uzumning bargi necha bo'lakchali? **3 – 5 bo'lakchali.**

246. Albilo navli uzumning boshi og'irligi o'rtacha qancha g? **125 – 150 g.**

247. Albilo navli uzumning boshi shakli qanday? **Silindr-konussimon.**

248. Albilo navli uzum g'ujumining rangi qanday? **Sarg'ish-yashil.**

249. Albilo navli uzumning eti qanday? **Sershira.**

250. Albilo navli uzumning po'sti qanday? **Yupqa.**

251. Albilo navli uzumning ustida (sirtida) mayda qanday rang dog'lar bor? **Jigar rang.**

252. Albilo navli uzum qaysi oyda pishadi? **Avgust oyida pishadi.**

253. Albilo navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **150 – 200 s/ga.**

254. Albilo navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida o'stiriladi? **Hamma viloyatlarida.**

255. Albitstsiya qaysi qabilaning mimozadoshlarga mansub daraxt va butalar turkumi? **Dukkakdoshlar qabilasining mimozadoshlarga mansub daraxt va butalar turkumi.**

256. Albitstsiya daraxti, asosan, qaysi hududlarda qanday holda uchraydi? **Asosan, tropik va subtropik hududlar (Eron, Hindiston, Efiopiya, Zakavkaze)da yovvoyi holda uchraydi.**

257. Albitstsiya qaysi oilaga mansub daraxt va butalar turkumi? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub.**

258. Albitstsiya daraxtining qancha turi bor? **50 ga yaqin turi bor.**

259. Albitstsiya daraxtining O'zbekistonda qaysi xushmanzara turi o'sadi? **A. julibrissin xushmanzara turi.**

260. Albitstsiya daraxtining A. julibrissin xushmanzara turi yovvoyi holda Ozarbayjondagi Tolish tog'i o'rmonlarida tarqalgan bo'lib, qanday nom bilan Kavkazning boshqa joylarida, Qrim va O'rta Osiyoda ham ekiladi? **"Ipak akatsiya" nomi bilan ham ekiladi.**

261. Aldrovanda qaysilarga mansub hasharotxo'r suv o'simligi? **Drozyeradoshlarga mansub hasharotxo'r suv o'simligi.**

262. Aldrovanda o'simligining bo'yi necha sm? **5 – 10 sm.**

263. Aldrovanda drozeradoshlarga mansub hasharotxo'r suv o'simligining bo'g'im orasi necha mm? **3 mm.**

264. Aldrovanda o'simligining nechta yaprog'i bor? **6 – 9 ta yaprog'i bor.**

265. Aldrovanda o'simligi yaprog'ining ikki yonida nimalari bor? **Tuklari (5 mm) bor.**

266. Aldrovanda o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyul-avgust oylarida gullaydi.**

267. Aldrovanda o'simligining guli rangi qanday? **Oq.**

268. Aldrovanda o'simligi qaysi a'zosiz bo'lib, suv beti (sirti) da suzib yuradi? **Ildizsiz bo'lib.**

269. Aldrovanda o'simligi vaqti kelgan mayda jonivor (daftuya, koloviratka va hasharotlarni qanday olib, qaysi a'zolari yordamida hazm qiladi? **Bezlari yordamida.**

270. Aldrovanda o'simligi, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Yevropa, Janubiy-sharqiy Osiyo va Avstraliyada tarqalgan.**

271. Aldrovanda o'simligi qayerlarda uchraydi? **Rossiyaning janubida va Yevropa qismining g'arbida. Uzoq Sharqda uchraydi.**

272. Aldrovanda o'simligi Markaziy Osiyoda qaysi ko'lda va daryolarning deltalarida topilgan? **Zayson ko'lida, Amudaryo va Ili daryolarining deltalarida topilgan.**

273. Aldrovanda o'simligi qayerlardagi suvlarda ham bor? **Belorussiya, Ukraina, Kavkaz va Volga suvlarida ham bor.**

274. Aleatiko, Aleatiko pero, Uva liatika qaysi mevali o'simlik navi? **Vinobop uzum navi.**

275. Aleatiko Navli uzum nechanchi yilda Italiyadan Qrimga keltirilgan? **1830-yilda Italiyadan Qrimga keltirilgan.**

276. Aleatiko navli uzum O'zbekistonga qachon keltirilgan? **XIX asrning 2-yarmida keltirilgan.**

277. Aleatiko navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

278. Aleatiko navli uzum tupi qanday o'sadi? **O'rtacha o'sadi.**

279. Aleatiko navli uzum bargi bir oz qanday? **Cho'ziq.**

280. Aleatiko navli uzum bargi qanday tishli? **Arra tishli.**

281. Aleatiko navli uzum boshi qanday shaklda? **Silindr-konussimon shaklda.**

282. Aleatiko navli uzum boshining og'irligi qancha g? **140 – 150 g.**

283. Aleatiko navli uzum g'ujumining shakli, rangi qanday? **Dumaloq, qizg'ish-ko'k.**

284. Aleatiko navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **90 – 100 s/ga.**

285. Aleatiko navli uzum qanday tuproqlarda yaxshi o'sadi? **O'tloqi va soz tuproqlarda yaxshi o'sadi.**

286. Aleatiko, Uva Iratika navli uzumning tarkibida qand necha foiz? **25 – 26 foiz.**

287. Aleatiko, Uva Iratika navli uzum necha kunda pishadi? **140 – 160 kunda pishadi.**

288. Aleatiko navli uzumning hosili faol harorat qancha°C bo'lganda necha kunda pishib yetiladi? **2800° C – 3200° C bo'lganda 140 – 160 kunda pishib yetiladi.**

289. Aleksandriya muskati xo'raki, o'rtapishar qaysi mevali o'simlik navi? **Mayizbop va vinobop uzum navi.**

290. Aleksandriya navli uzumning vatani qaysi yarim orol? **Arabiston yarim oroli.**

291. Aleksandriya navli uzum qayerlarda keng tarqalgan? **Qrim va Gruziyada keng tarqalgan.**

292. Aleksandriya navli uzumning bargi necha bo'lakli? **Besh bo'lakli.**

293. Aleksandriya navli uzumning cheti qanday tishli? **Arra tishli.**

294. Aleksandriya navli uzumning tarkibida qand necha foiz? **24 – 26 foiz.**

295. Aleksandriya navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

296. Aleksandriya navli uzumning pishishi uchun faol harorat yig'indisi qancha ° C? **2800° C – 2900° C.**

297. Aleksandriya navli uzum necha kunda pishadi? **140 – 150 kunda (sentabr oxirlarida) pishadi.**

298. Aleksandriya navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **150 – 180 s/ga.**

299. Aleksandriya navli uzum O'zbekistonning qayerlarida o'stiriladi? **Toshkent, Xorazm viloyatlarida va Qoraqapog'iston Respublikasida o'stiriladi.**

300. Aleksandriya navli uzumning bir boshi og'irligi qancha g gacha? **280 g gacha.**

301. Aligote o'rtapishar, qaysi mevali o'simlik navi? **Vinobop uzum navi.**

302. Aligote navli uzum qayerda yaratilgan? **Fransiya xalq seleksiyasida yaratilgan.**

303. Aligote navli uzum bargi qanday shaklda? **To'garak shaklda.**

304. Aligote navli uzum bargi necha bo'lakchali? **Uch bo'lakchali.**

305. Aligote navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

306. Aligote navli uzumning tarkibida necha foiz qand bor? **25 foiz qand bor.**

307. Aligote navli uzumning kurtaklari yozilganidan to hosili pishguncha vegetatsiya davri necha kun davom etadi? **130 – 150 kun davom etadi.**

308. Aligote navli uzum uchun faol harorat yig'indisi qancha ° C? **2600° C – 2850° C.**

309. Aligote navli uzum qachon pishadi? **Avgustning oxirida pishadi.**

310. Aligote navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **100 – 150 s/ga.**

311. Aligote navli uzumdan qanday ichimliklar tayyorlanadi? **Shampan, vinolar, konyak uchun spirt tayyorlanadi.**

312. Aligote navli uzum O'zbekistonga qaysi davlatdan keltirilgan? **Fransiyadan keltirilgan.**

313. Aligote navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatida ekiladi? **Hamma viloyatida ekiladi.**

314. Alkanna, hujo'ba – kamparchopondoshlarga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi (urug'i) Sharq tabobatida qanday nomlar bilan ma'lum? **Hujo'ba va Oxujo'ba nomlari bilan ma'lum.**

315. Alkanna o'tining qayerlarda, qancha turi bor? **O'rta dengiz atroflarida, Kichik Osiyo, Suriya va Eronda 40 ga yaqin turi bor.**

316. Alkanna o'tining ildizi va qobig'idan qanday rangli bo'yoq olinadi? **Qo'ng'ir-binafsha rangli bo'yoq olinadi.**

317. Alkor, tog'zira o'simligi qaysilarga mansub qanday ildizli necha yillik rezavor o'simlik? **Soyabonguldoshlarga mansub o'qildizli ko'p yillik rezavor o'simlik.**

318. Alkor, tog'zira o'simligining bo'yi necha m? **2 m.**

319. Alkor, tog'zira o'simligi yoshiga qarab har yili nechtadan nechtagacha poya chiqaradi? **1 – 15 tagacha poya chiqaradi.**

320. Alkor, tog'zira o'simligi O'rta Osiyo florasi uchun nima hisoblanadi? **Endemik hisoblanadi.**

321. Alkor, tog'zira o'simligi O'zbekistonning necha m balandlikdagi tog' yon bag'irlarida o'sadi? **1500 – 2800 m balandlikdagi.**

322. Alkor o'simligining urug'i, guli va barglari xushbo'y qaysi moylarga nihoyatda boy? **Efir moylariga nihoyatda boy.**

323. Alkor o'simligining mevasi, guli va barglarida xushbo'y efir moyi necha foiz? **1,67 foiz.**

324. Alkor, tog'zira o'simligining har bir soyabonchasida nechtagacha gul bo'ladi? **20 tagacha gul bo'ladi.**

325. Alkor, tog'zira o'simligi qayerdan boshqa yerda uchramaydi? **O'rta Osiyodan boshqa yerda uchramaydi.**

326. Alqor o'simligining bargları qanday? **Murakkab, qalin.**

327. Alqor o'simligining soyabon to'pgulları poyaning qaysi qismida joylashgan? **Tepa qismida joylashgan.**

328. Alqor o'simligining ildizi qanday (ingichkami yoki yo'g'onmi)? **Yo'g'on.**

329. Alqor o'simligining urug'i (mevasi) qanday (maydami yoki yirikmi)? **Mayda.**

330. Alqor o'simligining urug'i shakli qanday? **Tuxumsimon.**

331. Alqor o'simligining urug'i uzunligi necha mm? **4 – 6 mm.**

332. Alqor o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

333. Alqor o'simligining mevasi qaysi oylarda pishadi? **Avgust – sentabr oylarida pishadi.**

334. Alqor o'simligi O'zbekistonning qayerida keng tarqalgan? **Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida keng tarqalgan.**

335. Alqor o'simligini mahalliy aholi qanday o'simlik sifatida nimaga ishlatadi? **Rezavor o'simlik sifatida taomga ishlatadi.**

336. Alqor o'simligi qo'shilgan sut mahsulotları uzoq vaqt (15 – 20 kun)gacha nima qilmaydi? **Ochilmaydi.**

337. Alqor o'simligining soyada yoki oftobda quritilgan bargi va to'pgul (to'pmeva)lari nimalarni tuzlashda ishlatiladi? **Bodring, pomidor, karam, olma, qovun, tarvuz kabilarni tuzlashda ishlatiladi.**

338. Alqor o'simligi boshqa rezavorlardan nimasi bilan afzal? **O'ziga xos xushbo'y isini uzoq saqlashi bilan afzal.**

339. Alomatchoy qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Ra'noguldoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

340. Alomatchoy o'simligining nechta turi ma'lum? **10 ta turi ma'lum.**

341. Alomatchoy o'simligining O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **Bitta turi uchraydi.**

342. Alomatchoy o'simligi qanday bargli? **Patsimon bargli.**

343. Alomatchoy o'simligi qanday rangli gulli? **Sariq gulli.**

344. Alomatchoy o'simligi qanday (kamtuklimi yoki sertuklimi) o'simlik? **Sertuk o'simlik.**

345. Alomatchoy tarkibida qanday vitaminlar, necha foizgacha oshlovchi va boshqa moddalar bor? **C va K vitaminlari, 18 foizgacha oshlovchi va boshqa moddalar bor.**

346. Alomatchoy qaynatmasi tabobatda qanday kasalliklarni davolash va nima ketishini to'xtatish uchun ishlatiladi? **Me'da-ichak, bod, istisqo kasalliklarini davolash va ichak hamda bavosilda qon ketishini to'xtatish uchun ishlatiladi.**

347. Alomatchoy o'simligining bo'yi necha sm gacha? **130 sm gacha.**

348. Alomatchoy necha yillik o'simlik? **Ko'p yillik o'simlik.**

349. Alomatchoy o'simligining barglari qanday qirqilgan bo'lib, qanday joylashgan? **Patsimon qirqilgan bo'lib, navbatma-navbat joylashgan.**

350. Alomatchoy o'simligining gulları qanday rangda bo'lib, necha qismdan iborat? **Sariq bo'lib, 5 qismdan iborat.**

351. Alomatchoy o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May–iyun oylarida gullaydi.**

352. Alomatchoy o'simligining mevalari qaysi oylarda pishadi? **Iyul – avgust oylarida pishadi.**

353. Alomatchoy o'simligining ustki qismida qanday moddalar bor? **Flavonoidlar (rutin, giperozid), qand moddalari, efir moylari, ursolat kislota, saponinlar bor.**

354. Alomatchoy o'simligining yer ostki qismlari quruq o'simligidan tayyorlangan qaynatmalar qanday kasalliklarda ishlatiladi? **Revmatizm, isitma, istisqo paytida birlashtiruvchi va siydik haydovchi vosita sifatida, shuningdek, og'iz chayish uchun (stomatit, gingivitda) ishlatiladi.**

355. Alomatchoy o'simligining gullaridan tayyorlangan qaynatmani qaysi kasalliklarga buyuriladi? **Bavosilda, badanga toshma toshganda buyuriladi.**

356. Alomatchoy o'simligining gullaridan tayyorlangan qaynatma nima to'xtatish uchun ishlatiladi? **Qon to'xtatish uchun.**

357. Alomatchoy o'simligidan tayyorlangan qaynatmalarni Xitoy xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo sifatida tavsiya etiladi? **Jigar, o't pufagi kasalliklari, aftoz stomatitga davo sifatida tavsiya etiladi.**

358. Alomatchoy o'simligining qaynatmasi va suyuq ekstraktining zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarga ta'siri borligi isbotlangan? **Qon to'xtatuvchi va siydik haydovchi ta'siri borligi isbotlangan.**

359. Alomatchoy o'simligining qaynatmasi qaysi jonivorlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi? **Gijjalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi.**

360. Alomatchoy o'simligining qaynatmasi qaysi a'zo muskullari qisqarishini kuchaytiradi? **Bachadon muskullari qisqarishini kuchaytiradi.**

361. Alomatchoy o'simligining gullaridan tayyorlangan qaynatma qaysi kasallikka tavsiya etiladi? **Bavosil kasalligiga tavsiya etiladi.**

362. Alomatchoy o'simligining gullaridan tayyorlangan damlama qanday kasalliklarda va qaysi a'zolarni chayish uchun ishlatish mumkin? **Laringit, stomatit, gingivit kasalliklarida, og'iz va tomoqni chayish uchun ishlatish mumkin.**

363. Alp qo'qonguli (A. alpnus) qayerlarda ekiladi? **Oltoy va Kavkazda ekiladi.**

364. Aloe qaysi oilaga mansub doim qanday, necha yillik o'tlar (ba'zan daraxtlar) turkumi? **Loladoshlar oilasiga mansub doim yashil, ko'p yillik o'tlar turkumi.**

365. Aloe o'simligining nechta turi ma'lum? **180 ta turi.**

366. Aloe o'simligi qayerlarda o'sadi? **Tropik va subtropik mintaqalarda o'sadi.**

367. Aloe o'simligi barglarida qanday moddalar mavjud? **Glikozidlar, antratsen birikmalari, achchiq moddalar, vitaminlar va fitontsidlar mavjud.**

368. Aloe daraxtsimon ko'p yillik o'simlik bo'lib, vatanida uning bo'yi necha m gacha boradi? **10 m gacha boradi.**

369. Aloe o'simligi barglaridan olinadigan sabur tarkibida qanday moddalar bor? **Antratsen hosilalari (aloin, nataloin, izoemodin) smolalar, efir modda va boshqa moddalar bor.**

370. Aloe o'simligi linimenti va sharbati qanday kasalliklarni davolashlarda ishlatiladi? **Kuyganga, turli yaralarga (tropik, yuqumli, yiringli va boshqa) quruq va ho'l epidermitlarga, nur bilan davolash paytida 1 – 2-darajali kuyganga ishlatiladi. Sharbati gastrit, enterokolit, kolloid va qabziyatda ichiladi.**

371. Aloe o'simligi bargidan olinib, quritiladigan shuraning nomi nima? **Sabur.**

372. Aloe o'simligining tarkibida qanday moddalar bor? **Antraglikozid moddalari bor.**

373. Aloe o'simligi tabobatda qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Surgi, biogen stimulyator sifatida, shuningdek, jarohatlarni davolashda ishlatiladi.**

374. Ambeliya o'simligining changchisi nechta? **4 ta.**

375. Ambeliya o'simligi necha urug'li? **1 urug'li.**

376. Ambroziya qaysi oilaga mansub bir va ko'p yillik o'tlar turkumi? **Qoqidoshlar oilasiga mansub.**

377. Ambroziya o'tning vatani qayer? **Amerika.**

378. Ambroziya o'tning qancha turi bor? **30 ga yaqin turi bor.**

379. Ambroziyaning qayerlardagi bir qancha turlari zararkunanda begona o't hisoblanadi? **Qozog'iston, Shimoliy Kavkaz, Ukraina va Rossiyadagi turlari.**

380. Ambroziya mitselliysi qaysi jonivorlar uchun ovqat bo'ladi? **Qo'ng'izlar uchun.**

381. Ambroziya bilan qo'ng'izlar o'rtasidagi munosabat qanday yashashga misol bo'ladi? Nima uchun? **Simbioz yashashga. Chunki ambroziya faqat daraxt yog'ochi bilan emas, balki qo'ng'izlarning axlati hisobidan ham ovqatlanadi.**

382. Ambroziya nima hosil qiladi? **Spora hosil qiladi, maxsus hujayralari urg'ochi po'stloqxo'r qo'ng'izlar ichagi orqali boshqa sog'lom daraxtlarga o'tadi.**

383. Ambroziya o't qayerlarda tarqalgan? **Amerika, Osiyo, Yevropa, Afrika va Avstraliya hamda Tinch va Atlantika okeanlaridagi ko'pgina orollarda tarqalgan.**

384. Amerika va Afrikada Qizil daraxtning qaysi turi o'sadi? **Maxagoniya turi o'sadi.**

385. Amiri turiga barcha yozda pishadigan qovunning qaysi turlari kiradi? **Davlatboy, Toshloqi, Dahbedi turlari kiradi.**

386. Amiri qaysi poliz ekini navi? Qovunning o'rtapishar navi

387. Amiri navli qovunning tarkibida qand necha foizgacha? **12 foizgacha.**

388. Amiri navli qovun necha kunda pishadi? **80 – 90 kunda pishadi.**

389. Amiri navli qovunning og'irligi qancha kg? **3 – 4 kg.**

390. Amiri navli qovunning usti qanday? **Yo'l-yo'l.**

391. Amiri navli qovunning rangi qanday? **Och yoki to'q yashil.**

392. Amiri navli qovunning eti necha sm qalinlikda? **4 – 5 sm qalinlikda.**

393. Amiri navli qovunning tarkibida qand necha foizgacha? **12 foizgacha.**

394. Amiri navli qovunning urug'i qanday? **Yirik, cho'ziq, och sariq.**

395. Amiri navli qovun, asosan, qayerlarda ekiladi? **Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qoraqalpog'istonda ekiladi.**

396. Amiri navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **300 – 350 s/ga.**

397. Amiri navli qovun uzoqqa yuborishga va saqlashga qanday? **Chidamsiz.**

398. Amirkon navli paxta qachon qayerdan keltirib ekilgan o'rta tolali meksika g'o'zasi navlari paxtasining mahalliy nomi? **XIX asr oxirlarida Amerikadan keltirib ekilgan, hozir ekilmaydi.**

399. Amsden ertapishar qaysi mevali o'simlik navi? **Shaftoli navi.**

400. Amsden navli shaftoli necha yoshda hosilga kiradi? **3 – 4 yoshida hosilga kiradi.**

401. Amsden navli shaftolining bir tupi qancha kg hosil beradi? **40 – 80 kg hosil beradi.**

402. Amur baxmali qaysi oilaga mansub daraxt? **Rutadoshlar (rutagullilar) oilasiga mansub daraxt.**

403. Anabazin alkaloidi nima uchun tabobatda ishlatilmaydi? **Chunki u juda zaharli bo'lganligi uchun tabobatda ishlatilmaydi.**

404. Anabazis qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar va chala buta o'simliklar turkumi? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub ko'p yillik.**

405. Anabena qaysi o'tlarga mansub o'simliklar turkumi? **Ko'k-yashil suvo'tlarga mansub o'simliklar turkumi.**

406. Anabena o'simligi ko'pincha qayerlarda o'sadi? **Ko'pincha chuchuk suv va tuproqda o'sadi.**

407. Anabena o'simligining O'rta Osiyo suv havzalari va tuproqlarida qancha turi bor? **60 ga yaqin turi bor.**

408. Anabena o'simligining bir necha turi havodagi erkin qaysi kimyoviy elementni o'zlashtirib, turli murakkab organik birikmalar hosil qiladi? **Erkin azot elementini**

409. Anabena o'simligidan qanday maqsadda foydalaniladi? **Tuproq unumdorligini oshirish maqsadida foydalaniladi.**

410. Anabena o'simligi qulay sharoitda tez ko'payib, suvning "nima bo'lishi"ga sabab bo'ladi? **"Gullashi"ga sabab bo'ladi.**

411. Ananas qaysi oilaga mansub o'tlar turkumi (urug'i)? **Ananasdoshlar oilasiga mansub.**

412. Ananas o'tning qancha turi ma'lum? **5 – 6 turi ma'lum.**

413. Ananas o't, asosan, qayerlarda o'sadi? **Amerika qit'asining tropik hududlarida va Osiyoning Filippin, Tayvan orollarida o'sadi.**

414. Ananas o't qanday holida iste'mol qilinadi? **Ho'l meva yoki konserva holida iste'mol qilinadi.**

415. Ananas o'tning ba'zi turlari barglaridan qanday tolalar olinadi? **Ipaksimon nozik tolalar.**

416. Ananas o'tning har bir mevasi og'irligi qancha kg? **2 – 5 kg.**

417. Ananas o'tning rangi, mazasi qanday? **Sarg'ish, xushxo'r.**

418. Ananas o'tning bargları qanday? **Qalin, uzun.**

419. Ananas o'tning bargları shakli qanday? **Xanjarsimon.**

420. Anvoyi gullar qachondan qanchagacha gullaydi? **Ular birin-ketin bir-ikki oy muddat bilan aprelning boshidan to noyabr o'rtalarigacha gullaydi.**

421. Angishvonagul, o'ymoqgul qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub ikki va ko'p yillik o'tlar turkumi.**

422. Angishvonagul o'tning qayerlarda qancha turi bor? **Yevropa va Osiyoda 25 ga yaqin turi bor.**

423. Angishvonagul o'tning lotincha nomi nima? **Digitalis (Digitalis).**

424. Angishvonagul o'tning boshqa turlaridan qaysi preparat olinadi? **Abitsin preparati olinadi.**

425. Angishvonagul o'tning gullaridan olinadigan preparatlar, masalan, abitsin qaysi kasalliklarda ishlatiladi? **Abitsin yurak kasalliklarda ishlatiladi.**

426. Angishvonagul o'tning hamma turi qanday? **Zaharli.**

427. Angishvonagul o'tning poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

428. Angishvonagul o'tning poyasi uzunligi necha sm? **40 – 150 sm.**

429. Angishvonagul o'tning bargları qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

430. Angishvonagul o'tning barg cheti qanday shaklda? **Arrasimon shaklda.**

431. Angishvonagul o't barglari poyaning ostidan uchiga tomon qandaylashib boradi? **Maydalashib boradi.**

432. Angishvonagul o'tning gullari qayerga yig'ilgan? **Shingil to'pgulga yig'ilgan.**

433. Angishvonagul o'tning gultoji nimaga o'xshash? **Qo'ng'iroq yoki angishvonaga o'xshash (nomi shundan olingan).**

434. Angishvonagul o'tning ba'zi xillari O'zbekistonda qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi.**

435. Angliya ertapishar olchasi – serhosil olcha navi bo'lib, ko'chati nechanchi yili hosil beradi? **Uchinchi yili hosil beradi.**

436. Angliya ertapishar olchasi tupidan qancha kg hosil olinadi? **25 – 30 kg hosil olinadi.**

437. Angliya ertapishar olchasi daraxtining bargi qanday? **Yirik, qalin.**

438. Angliya ertapishar olchasi daraxtining bargi rangi qanday? **To'q yashil.**

439. Angliya ertapishar olchasi daraxtining bargi cheti qanday tishli? **Mayda arra tishli.**

440. Angliya ertapishar olchasi daraxtining mevasi shakli, ta'mi qanday? **Dumaloq, nordon-shirin.**

441. Angliya ertapishar olchasi sharbati nima ochadi? **Ishtaha ochadi.**

442. Angliya ertapishar olchasi daraxtining mevasi qaysi oyda pishadi? **Iyun oyida pishadi.**

443. Angliya ertapishar olchasi O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Hamma viloyatlarida ekiladi.**

444. Angliyada XIX asrda qaysi o'simlikning turli navlari yaratilib, ulardan qop-qora rangli navi faust, och-havo rangisi Margarita, to'q-qizil moy rangisi mefistofel deb atalgan? **Binafsha o'simligining.**

445. Anguri siyoh o'rtapishar, xo'raki qaysi mevali o'simlik navi? **Uzum navi.**

446. Anguri siyoh navli uzumning bargi necha bo'lakli? **Besh bo'lakli.**

447. Anguri siyoh navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

448. Anguri siyoh navli uzum bargining rangi qanday? **To'q yashil.**

449. Anguri siyoh navli uzum bargining cheti qanday tishli? **Arra tishli.**

450. Anguri siyoh navli uzum bargining orqasi nimalar bilan qanday qoplangan? **Tuklar bilan siyrak qoplangan.**

451. Anguri siyoh navli uzum boshining shakli qanday? **Konussimon.**

452. Anguri siyoh navli uzum boshining bo'yi necha sm? **20 sm.**

453. Anguri siyoh navli uzum boshining eni necha sm? **17 sm.**

454. Anguri siyoh navli uzum boshining og'irligi qancha g? **300-350 g.**

455. Anguri siyoh navli uzum g'ujumining rangi qanday? **Qora, havo rang mumg'ubori bor.**

456. Anguri siyoh navli uzumning po'sti qanday? **Qalin.**

457. Anguri siyoh navli uzum qachon pishadi? **20 – 25 sentabrda.**

458. Anguri siyoh navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **120 – 150 s/ga.**

459. Anguri navli uzum sharbatida necha foizgacha qand, kislota bor? **26,2 foizgacha qand, 6,1 foiz kislota bor.**

460. Anguri navli uzum qanday tuproqli yerlarda yaxshi o'sadi? **Bo'z tuproqli yerlarda yaxshi o'sadi.**

461. And mumli palmalarning tanasi qanday modda bilan qoplanganidan oppoq? **Mum bilan qoplanganidan oppoq.**

462. And mumli palmalarning bo'yi necha m? **30 m.**
463. And mumli palmalar bargining uzunligi necha m? **6 – 7 m.**
464. And mumli palmalar qayerlarda, dengiz sathidan qancha m balandlikda o'sadi? **Kolumbiyada And tog'larining yon bag'irlaridagi o'rmonlarda, dengiz sathidan 2500 m balandlikda o'sadi.**
465. Andijon qora uzum o'rtapishar nima navi? **Uzum navi.**
466. Andijon qora uzum qayerda yaratilgan o'rtapishar xo'raki va mayizbop uzum navi? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**
467. Andijon qora uzum – o'rtapishar, xo'raki va mayizbop uzum navi bo'lib, bargi shakli qanday? **To'garak.**
468. Andijon qora uzumning bargi diametri necha sm? **16 sm.**
469. Andijon qora uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**
470. Andijon qora uzumning bargi necha bo'lakchali? **Besh bo'lakchali.**
471. Andijon qora uzumning bargi cheti qanday tishli? **Arra tishli.**
472. Andijon qora uzumning boshi shakli qanday? **Konussimon.**
473. Andijon qora uzumning boshi bo'yi necha sm? **19 – 24 sm.**
474. Andijon qora uzumning boshi og'irligi qancha g? **250 – 300 g.**
475. Andijon qora uzumning g'ujumi shakli qanday? **Tuxumsimon.**
476. Andijon qora uzum tarkibida necha foiz qand, organik kislota bor? **23 – 25 foiz qand, 5 – 7 mg foiz organik kislota bor.**
477. Andijon qora uzum qaysi oyda pishadi? **Avgust oyida pishadi.**
478. Andijon qora uzum necha kunda pishib yetiladi? **128 – 140 kunda (avgust oxirida) pishib yetiladi.**
479. Andijon qora uzumning hosildorligi qancha s/ga? **150 – 200 s/ga.**
480. Andijon qora uzumning mayizi tarkibida necha foizgacha qand, qancha mg foizgacha organik kislota bor? **84,3 foizgacha qand, 1,7 mg foizgacha organik kislota bo'ladi.**
481. Andijon qora uzum hosili uchun faol harorat qancha ° C? **2700° C – 2750° C.**
482. Andijon qora uzum qaysi viloyatlarda keng tarqalgan? **Andijon, Farg'ona viloyatlarida keng tarqalgan.**

483. Andiz qaysi oilaga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi? **Qoqidoshlar oilasiga mansub.**
484. Andiz o'tning qancha turi bor? **100 ga yaqin turi bor.**
485. Andiz o'tning nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **9 ta turi.**
486. Andiz o't, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Yevropa, Osiyo va Afrikada tarqalgan.**
487. Andiz o'tning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**
488. Andiz o'tning guli rangi qanday? **Sariq.**
489. Andiz o'tning qaysi turlari ko'proq tarqalgan? **Bo'ydor andiz (qora andiz – I. helenium va suriq andiz I. grandis) turlari ko'proq tarqalgan.**
490. Andiz o't qaysi oyning oxiridan qaysi oygacha gullaydi? **Iyun oyining oxiridan sentabr oyigacha gullaydi.**
491. Andiz o't adir va tog'larda necha m gacha balandlikda o'sadi? **500 – 2000 m gacha balandlikda.**
492. Anemiya qirqquloqdoshlarga mansub necha yillik sporali o'simliklar turkumi (urug'i)? **Ko'p yillik sporali o'simliklar turkumi (urug'i).**
493. Anemiya qirqquloqdoshlarga mansub ko'p yillik sporali o'simliklar turkumi bo'lib, qancha turi bor? **140 dan ortiq turi bor.**
494. Anemiya o'simligining nechta turi Hindistonda o'sadi? **Bitta turi o'sadi.**
495. Anemiya o'simligining qancha turi qanday holda uchraydi? **50 ga yaqin turi qazilma holda uchraydi.**
496. Anemiya o'simligining sporasiz barglari shakli qanday? **Patsimon.**
497. Anemiya o'simligining sporali barglari yaproqlari nima qilgan? **Qisqargan, o'qildizi esa uzaygan.**
498. Anemiya o'simligining sporalari bargining faqat eng pastidagi necha juft yaproqchalarida joylashgan? **Bir juft yaproqchalarida joylashgan.**
499. Anemiya o'simligining O'zbekistonda nechtacha qazilma turi ma'lum? **10 tacha qazilma turi ma'lum.**
500. Anemiya o'simligining qancha turi Amerika, Afrika va Madagaskarning tropik yerlarida keng tarqalgan? **96 ga yaqin turi keng tarqalgan.**

501. Anemiya o'simligining changchi va barg izlari qaysi joylarning yura va, asosan, bo'r qatlamlaridan ko'plab topilgan? **Turkiston va boshq. joylarning yura va, asosan, bo'r qatlamlaridan ko'plab topilgan.**

502. Anemiya o'simligining ko'pchiligi qayerlar depressiyasining yura va bo'r qatlamlaridan topilgan? **Hisor tog'lari, Farg'ona vodiysining janubiy rayonlari, Farg'ona tog'larining shimoliy qismi, Buxoro, Xiva depressiyasining yura va bo'r qatlamlaridan topilgan.**

503. Anjabor o'simligi O'zbekistonning qayerlarida o'sadi? **Tog'larida o'sadi.**

504. Anjabor qaysi turkumga mansub bir-biriga yaqin bir qancha turlardan iborat ko'p yillik o'tlar? **Yoronguldoshlar oilasining geranlar turkumiga mansub.**

505. Anjabor o'simligining tarkibida necha foiz qanday modda bor? **23 – 54 foiz tannin (oshlovchi) moddasi bor.**

506. Anjabor o'simligi qayerda qo'llaniladi? **Teri oshlashda qo'llaniladi.**

507. Anjabor o'simligining bargi qanday to'garak? **Keng to'garak.**

508. Anjabor o'simligining bargi qanday shaklda bo'laklarga bo'lingan? **Rombsimon shaklda bo'laklarga bo'lingan.**

509. Anjabor o'simligining guli qanday rangda? **Ko'kish-pushti rangda.**

510. Anjabor o'simligi O'zbekistonning qayerlarida o'sadi? **Tog'larida o'sadi.**

511. Anjabor o'simligi ildizining qaynatmasidan tabobatda qaysi kasalliklarni davolashda foydalaniladi? **Ichdan qon ketishini to'xtatish, og'riqni qoldirish va me'da kasalliklarini davolashda, teri oshlashda ham qo'llaniladi.**

512. Anjabor necha yillik o'simlik? **Ko'p yillik o'simlik.**

513. Anjabor o'simligining bo'yi necha sm gacha? **65 sm gacha.**

514. Anjabor o'simligining mevasi necha qirrali? **Uch qirrali.**

515. Anjabor o'simligi qaysi oylarda gullab, meva tugadi? **Iyun-iyul oylarida gullab, meva tugadi.**

516. Anjabor o'simligining qaysi a'zosi tabobatda ishlatiladi? **Ildiz poyasi tabobatda ishlatiladi.**

517. Anjabor o'simligining yer ostki a'zolarida necha foiz oshlovchi moddalar, necha foiz ekstraktiv moddalar va oksimotil-antroxinanlar bor? **12, 1 – 12, 7, 28, 4 – 32, 2 foiz bor.**

518. Anjabor o'simligidan tayyorlangan galen preparatlari xalq tabobatida qanday kasalliklarda qo'llaniladi? **Siydik va o't – tosh kasalligida, enteritlar, kolitlar, stomatitlar, furunkulyozlarda, shuningdek, turli ichak a'zolaridan qon ketayotgan paytda qo'llaniladi.**

519. Anjabor o'simligidan spirtda tayyorlangan ekstraktning zamonaviy tabobatda qaysi tayoqchasiga qarshi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan? **Sil tayoqchasiga qarshi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.**

520. Anjabor o'simligidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstrakt ilmiy tabobatda qanday vosita sifatida ishlatiladi? **Birlashtiruvchi, qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.**

521. Anjabor o'simligidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstraktdan qanday kasalliklarga davo qilish uchun foydalaniladi? **Turli gastritlar, me'da va o'n ikki barmoqli ichak, yara kasalligi, stomatit, gingivit kasalliklarga davo qilish uchun foydalaniladi.**

522. Anjir qaysi oilaga mansub subtropik o'simlik turi? **Tutdoshlar (anjirgullilar) oilasiga mansub.**

523. Anjir o'simligi necha yoshdan necha yoshgacha hosil beradi? **2 – 3 yoshdan 50 – 60 yoshgacha hosil beradi.**

524. Anjir o'simligi necha yilgacha yashaydi? **200 yilgacha yashaydi.**

525. Anjir o'simligining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

526. Anjir o'simligi bir yilda necha marta gullaydi? **2 – 3 marta gullaydi.**

527. Anjir o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Aprel – may, iyun-iyul, avgust oylarida gullaydi.**

528. Anjir o'simligi yiliga necha marta hosil beradi? **4 marta hosil beradi.**

529. Anjir tarkibida qanday vitaminlar va moddalar ko'p? **A, B_1, B_2, C, PP, E vitaminlari, tuzlar, fruktoza, saxaroza va glyukoza ko'p.**

530. Anjir o'simligi xalq amaliyotida qayerdarda ishlatiladi? **Bargi uzum va mevalarni quritishda ishqor sifatida, "Suti"**

teri kasalliklarini (kal, so'gal, temiratki), chayon va ari chaqqan joylarni davolashda ishlatiladi.

531. Anjir o'simligining bir tupi qancha kg hosil beradi? **45 – 50 kg hosil beradi.**

532. Anjir o'simligining mevasidan necha foiz qoqi tushadi? **30 foiz qoqi tushadi.**

533. Anjir qoqisining tarkibida necha foiz qand bo'ladi? **71 – 72 foiz qand bo'ladi.**

534. Anjir nahorda yong'oq va bodom bilan qo'shib iste'mol qilinsa, qaysi kasalliklarni davolaydi? **Jigar va taloqdagi tiqinni ochadi, buyrak va siydik qopidagi toshlarni haydaydi, pishmagan yarani pishiradi, turli qattiq shishlarni davolaydi.**

535. Anjir o'simligi damlamasi bilan og'izda nimalar paydo bo'lsa, og'iz chayiladi? **Shishlar paydo bo'lsa, og'iz chayiladi.**

536. Anjir o'simligining bargi va xom mevasi yuzdagi nimalarga sepilsa, ularni ketkazadi? **Dog'larga sepilsa.**

537. Anjir o'simligining bargi nimalarni davolaydi? **Qazg'oqni, qichimani davolaydi.**

538. Anjir o'simligining bargi necha bo'lmali? **3 – 7 bo'lmali.**

539. Anjir o'simligining nimasi chayon va qoraqurt chaqqan joyga surtilsa, kasalning sog'ayishiga yordam beradi? **Shirasi yordam beradi.**

540. Anjir nimani kamaytirib, qaysi a'zo ishini yaxshilaydi? **Terlashni kamaytirib, yurak ishini yaxshilaydi.**

541. Anjir qanday xususiyatlarga ega? **Suyultiruvchi va erituvchi xususiyatlarga ega.**

542. Anjir o'simligining mevasida necha foiz qand, pektin moddalar, kletchatka, organik kislotalar, qanday modda va kimyoviy elementlar va boshq. bor? **20 – 24 foiz qand, 0,5 – 4,2 foiz pektin moddalar, 3,4 – 7,4 foiz kletchatka, 0,1 foiz organik kislotalar, karotin moddasi, kalsiy, temir, fosfor va boshq. bor.**

543. Anjir o'simligining mevalari tarkibida qanday kislotalar bor? **Organik kislotalar (oksalat, limon, olma, sirka kislotalar) bor.**

544. Anjir o'simligining mevalari tarkibida qanday moddalar bor? **Oqsillar, o'simlik fermentlari – fiqin, amilaza, proteaza moddalari bor.**

545. Anjir o'simligining qaysi qismida furokumarinlar – psoralen va berganten, glikozidlar bo'ladi? **Hamma qismlarida bo'ladi.**

546. Anjir o'simligining mevalari urug'larida necha foiz moy bor? **29,4 foiz moy bor.**

547. Anjir o'simligining quritilgan barglari va ildizlaridan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida qanday kasalliklarda tavsiya etiladi? **Me'da-ichak yo'lining ishi buzilgan paytlarda va kamqonlikda tavsiya etiladi.**

548. Anjir o'simligining yangi mevalari nimalarni bitiradigan vosita sifatida ishlatiladi? **Jarohatlarni bitiradigan vosita sifatida ishlatiladi.**

549. Anjir o'simligining mevalari qaynatmasi qaysi kasalliklarga shifo bo'ladi? **Sistit va nefrit kasalliklariga shifo bo'ladi.**

550. Anjir o'simligining mevalari odamning qaysi a'zosi qotib yuradigan paytlarda qanday kasalliklarga vosita sifatida tavsiya etiladi? **Ichi qotib yuraligan paytlarda siydik haydaydigan, balg'am ko'chiradigan vosita sifatida tavsiya etiladi.**

551. Anjir o'simligining mevalarini sutda qaynatib eyish qanday kasalliklarga tavsiya etiladi? **Yuqori nafas yo'llarining o'tkir yallig'lanish kasalliklariga tavsiya etiladi.**

552. Anjir o'simligining mevalari qadimgi hakimlarning fikriga qaraganda, qanday kasalliklar mahalida foydali? **Odam darmonsizlanib yuradigan paytda, yuragi o'ynaganida, ko'kragi og'irganida, shuningdek, bronxial astma va yo'tal mahalida foydali.**

553. Anjir o'simligining mevalari qaysi a'zolar faoliyatini joyiga keltirib, odamning qaysi a'zosini tiniqlashtiradi? **Buyrak va qovuq faoliyatini joyiga keltirib, odamning rangini tiniqlashtiradi.**

554. Anjir o'simligining mevalari zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarda qo'llaniladi? **Yurak, qon-tomir sistemasi kasalliklari, trombozlarda, kamqonlik mahalida va yengilgina surgi sifatida qo'llaniladi.**

555. Anjirning tarkibida nima degan ferment bor? **Fitsin degan ferment bor.**

556. Anjirning tarkibida qaysi kimyoviy element bo'lganligidan bu element yurak-tomirlar yetishmovchiligiga uchragan

kasalliklarga qo'l keladi? **Kaliy elementi bo'lganligidan bu element yurak-tomirlar etishmovchiligiga uchragan kasalliklarga qo'l keladi.**

557. Anjir o'simligining barglaridan qaysi kasallikka davo qilish uchun ishlatiladigan psobergan (furalen) degan preparat olinadi? **Pes kasalligiga davo qilish uchun.**

558. Anjirning qanday xossalari borligi ko'pchilikka ma'lum? **Siydik haydaydigan, terlatadigan,haroratni tushiradigan xossalari borligi.**

559. Anjir o'simligining mevasini yeyish qanday kasalliklar vaqtida to'g'ri kelmaydi? **Qandli diabet bilan og'rigan kasalliklar vaqtida to'g'ri kelmaydi.**

560. Anjir shaftolining vatani qayer? **O'zbekiston.**

561. Anjir shaftoli O'zbekistonning qaysi joylarida ekiladi? **Barcha viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida ekiladi.**

562. Anjir shaftoli qaysi davlatlarda ham uchraydi? **Eron, Afg'oniston va Xitoyda ham uchraydi.**

563. Anjir shaftoli, yangi anjir shaftoli o'simligi qayerda yaratilgan? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**

564. Anjir shaftoli o'simligining tarkibida necha foiz qand, kislota bor? **14,7 foiz qand, 0,26 foiz kislota bor.**

565. Anjir shaftolidan nimalar qilinadi? **Konserva, qoqi qilinadi.**

566. Anjir shaftoli o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

567. Anjir shaftoli o'simligi qanday changlanuvchi nav? **O'zidan changlanuvchi nav.**

568. Anjir shaftoli ko'chati ekilgandan keyin nechanchi yili mevaga kiradi? **2 – 3-yili.**

569. Anjir shaftoli o'simligi nechanchi yili yuqori hosil beradi? **6 – 8-yili hosil beradi.**

570. Anjir shaftoli o'simligi yaxshi agrofonda necha yilgacha hosil beradi? **16 yilgacha hosil beradi.**

571. Anjir shaftoli o'simligining bir tupidan qancha kg meva olish mumkin? **70 – 80 kg meva olish mumkin.**

572. Anjir shaftoli o'simligi gulining necha foizini tutadi? **20 – 25 foizini tutadi.**

573. Anzob o'simligi qayerda qaysi navlarni chatishtirib yaratilgan? **Tojikiston dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida**

Kattaqo'rg'on, Aleksandriya muskati va sultoniy navlarini chatishtirib yaratilgan (A. D. Savchenko, I. F. Kirilov).

574. Anzob qaysi mevali o'simlik navi? **Kechpishar uzum navi.**

575. Anzob navli kechpishar uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

576. Anomozamit qaysi oilaga mansub qadimiy o'simliklar turkumi? **Bennettitlar oilasiga mansub qadimiy o'simliklar turkumi.**

577. Anomozamit qadimiy o'simliklar turkumining hozirgi vaqtda faqat nima qoldiqlari (qazilma holda) uchraydi? **Barg qoldiqlari uchraydi.**

578. Anomozamit qadimiy o'simliklar turkumining qancha turi aniqlangan? **20 dan ortiq turi aniqlangan.**

579. Anomozamit o'simliklarining 20 dan ortiq turi qayerlarning qaysi qatlamlaridan topilgan? **Pomir, Zarafshon tog'lari, Farg'ona vodiysining janubiy, shimoliy, sharqiy hududlari, Hisor tog'lari, Turkmaniston, Qoratov, Mang'ishloq, Janubiy Qozog'iston, Issiqko'l va boshq. joylarning yura hamda Shimoliy Germaniya, Shpitsbergen, Grenlandiyaning bo'r qatlamlaridan topilgan.**

580. Anomozamit o'simliklarining barglari qanday? **Yirik va patsimon.**

581. Anomozamit o'simliklari yaprog'ining o'rta qismi nimalarga bo'lingan? **Segmentlarga bo'lingan.**

582. Anor o'simligining vatani qayer? **Tunis hududining Karfagen degan joyi.**

583. Anor o'simligi qaysi oilaga mansub? **Anordoshlar (anorgullilar) oilasiga mansub.**

584. Anor o'simligining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

585. Anorning bir donasi og'irligi qancha g? **250 – 1000 g.**

586. Anor o'simligining bo'yi necha m gacha? **5 m gacha.**

587. Anor o'simligining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

588. Anor o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May – avgust oylarida gullaydi.**

589. Anor o'simligining mevasi qaysi oylarda pishadi? **Sentabr – oktabr oylarida pishadi.**

590. Anordan qayerlarda keng foydalaniladi? **Konditer sanoatida va tibbiyotda keng foydalaniladi.**

591. Anor o'simligining gullaridan, mevasi po'stidan va donidan nimalar tayyorlanadi? **Bo'yoq, sharbat tayyorlanadi.**

592. Anor o'simligi yovvoyi holda qayerlarda o'sadi? **Kavkazorti, O'rta dengiz atroflari, Kichik Osiyo, Afg'oniston va Eronda yovvoyi holda o'sadi.**

593. Anor o'simligining ildizlari, tanasi va shoxlarining po'stida necha foizgacha har xil alkaloidlar bo'lib, ulardan qanday alkaloidlar ajratib olinadi? **Pelterin, izopelterin alkaloidlari ajratib olinadi.**

594. Anor o'simligining tanasi po'stlog'ida necha foiz betulinat kislota bor? **0,15 foiz.**

595. Anor o'simligining barglarida necha foiz betulinat kislota bor? **0,2 foiz.**

596. Anor o'simligining mevalari po'sti va barglarida qanday kislota bor? **Ursolat kislota bor.**

597. Anor o'simligining mevalari po'stida necha foizgacha oshlovchi moddalar bor? **28 foizgacha oshlovchi moddalar bor.**

598. Anor o'simligining mevalari po'stida qanday moddalar bor? **Oshlovchi moddalar.**

599. Anor o'simligining tarkibida necha foiz qanday modda va kislota bor? **14 – 21 foiz qand, 6,9 – 3 foiz organik kislota bor.**

600. Anor po'sti (qurug'i) yoki mevasidan kolitlar va enterokolitlarda ovqatdan oldin ikki osh qoshiqdan kuniga ichiladigan dori qanday tayyorlanadi? **20 g quruq anor po'sti yoki 50 g anor mevasi 200 ml suv quyilib, past olovda 30 minut davomida qaynatiladi, suzib olib, suvini kolitlar va enterokolitlarda ovqatdan oldin ikki osh qoshiqdan kuniga ikki mahal ichiladi.**

601. Anor o'simligining po'stlog'i bilan mevasi po'stining qaynatmasi, gulining damlamasi qanday maqsadda ishlatiladi? **Ich ketishi, sariq kasalliklarini, qutirishni davolashda hamda qon oqishini to'xtatishda (qon tupurganda, milkdan qon oqqanda, siydik va gijja haydashda, og'riq qoldirishda) ishlatiladi.**

602. Anor o'simligining mevasi, uning po'sti va gullari xalq tabobatida qanday kasalliklarda qadimdan ishlatiladi? **Sariq, is-**

tisqo, gijja, qo'tir, lavsha, ichak kasalliklarida, shuningdek, ishtaha pastligida, badan lat yeb, suyaklar singanda va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qadimdan ishlatiladi.

603. Anor o'simligining gullaridan Abu Ali ibn Sino qanday kasalliklarda foydalangan? **Ichak kasalliklari, qon tuflash, qon ketishga davo qilishda, shuningdek, me'da-ichak yo'llari, jigarning, taloqning yallig'lanish kasalliklarida foydalangan.**

604. Anor o'simligining gullaridan Abu Ali ibn Sino qanday kasalliklarda vosita sifatida tavsiya etgan? **Jarohatlarni bitiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida.**

605. Anor o'simligining mevasi urug'lari asalga qorshitirilib, qanday yaralarga qo'yiladi? **Hadeganda bitavermaydigan yaralarga qo'yiladi.**

606. Anor o'simligining mevasi urug'lari asalga qorishtirilib, qaysi a'zolar og'rig'iga qarshi ishlatiladi? **Tish va quloq og'rig'iga qarshi ishlatiladi.**

607. Anor o'simligi mevalarini qaysi hakim ichburuq va turli jarohatlarga davo uchun tavsiya etgan? **Gippokrat tavsiya etgan.**

608. Anor o'simligining mevasi sharbati va qaynatib, quyuqlashtirilgan suvi qaysi a'zo og'rig'iga davo bo'ladi? **Bosh og'rig'iga davo bo'ladi.**

609. Anorning shirini qaysi a'zoni tozalaydi? **Ichni tozalaydi.**

610. Anorning nordoni qanday kasalliklarda foyda beradi? **Me'da kasalliklari, isitmada foyda beradi.**

611. Anor po'stining zamonaviy tabobatda peleterin alkaloidi tannin hamda sulfat kislota bilan birikkan holda peleterin sulfat ko'rinishida, shuningdek, anor po'stidan olinadigan ekstrakt qanday gijjaga ishlatiladi? **Tasmasimon gijjaga qarshi ishlatiladi.**

612. Anor mevasi po'stidan tayyorlangan preparatlar qanday kasalliklarda burishtiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi? **Gastritlar, enteritlar va kolit kasalliklarda.**

613. Anor o'simligining barglaridan tayyorlanadigan tinktura qanday bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi? **Gramm musbat bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi.**

614. Anor o'simligining gullari damlamasidan qaysi mamlakatda ichburug', paradontozga davo qilish uchun foydalaniladi? **Xitoyda foydalaniladi.**

615. Anor o'simligining gullarini quritib, qaysi davlatda turli jarohatlarga sepiladi? **Xitoyda.**

616. Anorning shirini suvi qanday kasalliklarda qaysi davlatda tavsiya etiladi? **Gastritlar, buyrak sanchiqlarida Xitoyda tavsiya etiladi.**

617. Anorning nordoni suvi qaysi kasallikda qaysi kasallikda qaysi davlatda tavsiya qilinadi? **Qandli diabetda Xitoyda tavsiya qilinadi.**

618. Anorning quyuqlashtirilgan suvi qaysi davlatda qanday kasalliklarga vosita sifatida ishlatiladi? **Xitoyda lavsha, bavosil, kon yunktivitlarda ishlatiladi, ishtaha ochish uchun, shuningdek, jarohatlarni bitiruvchi, istmani tushiruvchi, chanqoq bosuvchi vosita sifatida ishlatiladi.**

619. Anordoshlar qaysi urug'lilar bo'limiga mansub o'simliklar oilasi? **Yopiq urug'lilar bo'limiga mansub o'simliklar oilasi.**

620. Anordoshlarning tojbargları nechta? **5 – 9 ta.**

621. Anordoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

622. Anordoshlarning O'zbekistonda nechta yovvoyi turi o'sadi? **Bitta yovvoyi turi (P. granatum L.) o'sadi.**

623. Anordoshlarning kosachasi qanday shaklda? **Qo'ng'iroqsimon shaklda.**

624. Anordoshlarning shox va novdaları qanday? **Tikanli.**

625. Anordoshlarning faqat bir turkumi qaysi o'simlik bor? **Anor o'simligi bor.**

626. Anordoshlarning changchilari ko'pmi yoki ozmi? **Ko'p.**

627. Anordoshlarning barglari qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

628. Apelsin, o'rtaxol qaysi oilaning sitruslar turkumiga mansub doim yashil daraxt va buta? **Rutadoshlar (apelsingulli)lar oilasining sitruslar turkumiga mansub doim yashil daraxt va buta.**

629. Apelsinning vatani qaysi davlatlar? **Birma va Janubiy, G'arbiy Xitoy.**

630. Apelsinning tarkibida qand, limon kislota, oqsil, A, B, C vitaminlari va efir moyi necha foiz? **Qand 12 foiz, limon kislota 1 – 2 foiz, oqsil, A, B, C vitaminlari va efir moyi 0,9 foiz.**

631. Apelsin o'simligining bo'yi necha m? **6 – 12 m.**

632. Apelsin o'simligining shox va novdalarida ingichka nimalar bor? **Tikanlar bor.**

633. Apelsin o'simligining bargi qanday shaklda? **Tuxum shaklida.**

634. Apelsin o'simligining hosili, asosan, qaysi oylarida pishadi? **Noyabr – dekabr oylarida pishadi.**

635. Apelsin o'simligining mevasi qanday? **Dumaloq yoki tuxumsimon.**

636. Apelsin o'simligining mevasi (1 donasi) og'irligi qancha g? **300 – 400 g.**

637. Apelsin o'simligining mevasi ta'mi qanday? **Nordon.**

638. Apelsin qanday holda iste'mol qilinadi? **Ho'l meva holida iste'mol qilinadi.**

639. Apelsindan nimalar tayyorlanadi? **Sharbat, kompot, qiyom va murabbo tayyorlanadi.**

640. Apelsin po'stidan qanday modda olinadi? **Moy moddasi olinadi.**

641. Apelsin po'stidan olingan moy modda qaysi sanoatda qo'llaniladi? **Atir-upa va konditer sanoatida qo'llaniladi.**

642. Apelsin o'simligining qancha navi bor? **300 ga yaqin navi bor.**

643. Apelsin o'simligining hosildorligi qancha s/ga gacha boradi? **200 – 250 s/ga gacha boradi.**

644. Apelsin o'simligining qaysi navlari ko'p ekiladi? **Vashington navel, Silliqpo'st, Korolyok 100 va boshq. navlari.**

645. Apelsin o'simligi ekilgandan so'ng nechanchi yilda hosilga kiradi? **3 – 4-yilda hosilga kiradi.**

646. Apelsin o'simligi qulay sharoitlarda qancha yil yashaydi va hosil beradi? **75 yildan ortiq yashaydi va hosil beradi.**

647. Apelsin o'simligi qaysi davlatlarda ko'p yetishtiriladi? **AQSh, Ispaniya, Italiya, Xitoy, Turkiyada hamda Gruziyaning g'arbida ko'p yetishtiriladi.**

648. Apelsin o'simligi O'zbekiston va Tojikistonda qayerlarda o'stiriladi? **Usti yopiladigan maxsus uzun o'ra (transher)larda, issiqxonalarda o'stiriladi.**

649. Apelsin qanday holda uchramaydi? **Yovvoyi holda uchramaydi.**

650. Apelsin qanday mamlakatlarda qachondan madaniylashtirilgan? **Tropik va subtropik mamlakatlarda qadimdan**

madaniylashtirilgan (Xitoyda 2 ming yildan beri, Janubiy Yevropada XV asrda, Kavkazning Qora dengiz bo'ylarida XI asrdan).

651. Apelsin daraxtining bo'yi necha m? 6 – 12 m.

652. Apelsin daraxtining bo'yi qanday shaklda? **Dumaloq yoki tuxumsimon shaklda.**

653. Apelsin daraxti nimalarni sevadi? **Issiq va namni.**

654. Apelsin daraxti qulay sharoitlarda necha yildan ortiq yashaydi va hosil beradi? **75 yildan ortiq yashaydi va hosil beradi.**

655. Apelsin ko'chati qaysi mahalliy navlar urug'laridan chiqqan nihollarga payvand qilinadi? **Trifoliat, bigardiya, mahalliy navlar urug'laridan chiqqan nihollarga payvand qilinadi.**

656. Apelsin ko'chati qanday sxemada ekiladi? **4x2,5 m^2 sxemada ekiladi.**

657. Ar-ar terak yog'ochi va taxtasi qadimdan qayerda ishlatiladigan daraxt? **O'ymakorlikda ishlatiladigan daraxt.**

658. Ar-ar terak yog'ochi va taxtasi daraxti nima uchun o'ymakorlikda ishlatiladi? **Chunki tekis, yumshoq, ishlatishga qulay.**

659. Arab mamlakatlarida finik palmasidan kamida necha xil ovqat tayyorlanadi? **100 xil.**

660. Arabiston, Rim va Gretsiyada valeriana (asorun) o'simligi nima deb atalgan? **"Nard" yoki "sunbul" deb atalgan.**

661. Arabiston g'o'zasi, areyzian g'o'zasi qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**

662. Arabiston g'o'zasini birinchi marta qaysi olim ta'riflab bergan? **M. A. Deflers ta'riflab bergan.**

663. Arabiston g'o'zasi nechanchi yildan o'rganilmoqda? **1953-yildan o'rganilmoqda.**

664. Arabiston g'o'zasi qayerlarda tarqalgan? **Arabiston yarim orolining janubiy qismi, xususan, Yamanda (issiq joylardagi dara va jarliklarning toshloq yoqalarida o'sadi) tarqalgan.**

665. Arabiston g'o'zasi qanday o'suvchi monopodial qanday o'simlik? **Tik o'suvchi monopodial buta.**

666. Arabiston g'o'zasining bo'yi necha m gacha yetadi? **3 m gacha yetadi.**

667. Arabiston g'o'zasining ko'sagi qanday? **Mayda, dumaloq.**

668. Arabiston g'o'zasining ko'sagi uchi qanday? **Uchi o'tkir.**

669. Arabiston g'o'zasining ko'sagi necha chanoqli? **Uch chanoqli.**

670. Arabiston g'o'zasi pishib yetilishi bilan nima bo'ladi? **To'kilib ketadi.**

671. Arabiston g'o'zasining har bir chanog'ida nechtadan chigit bo'ladi? **2 – 3 tadan chigit bo'ladi.**

672. Arabiston g'o'zasi chigiti uzunchoq bo'lib, necha mm gacha uzunlikdagi kulrang mayin tuklar bilan qoplangan? **9 – 1 mm gacha.**

673. Arabiston g'o'zasi qurg'oqchilikka qanday? **Chidamli.**

674. Arabiston g'o'zasi dengiz sathidan necha m balandlikdagi juda issiq joylarda o'sadi? **700 – 2000 m balandlikdagi juda issiq joylarda o'sadi.**

675. Aravakash o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

676. Aravakash navli o'rtapishar qovunning sirti qanday, yoppasiga qanday to'r bilan qoplangan? **Tekis, yoppasiga mayda va nozik to'r bilan qoplangan.**

677. Aravakash navli o'rtapishar qovunning og'irligi qancha kg? **8 – 17 kg.**

678. Aravakash navli o'rtapishar qovunning uzunligi necha sm? **40 – 50 sm.**

679. Aravakash navli o'rtapishar qovun etining rangi qanday? **Oq.**

680. Aravakash navli o'rtapishar qovunning eti qalinligi necha sm? **5 – 6 sm.**

681. Aravakash navli o'rtapishar qovun eti qanday? **Sershira, shirin.**

682. Aravakash navli o'rtapishar qovunning urug'xonasi, rangi qanday? **Katta, urug'i o'rtacha, sariq.**

683. Aravakash navli o'rtapishar qovunning tarkibida necha foizgacha qand bor? **10 foizgacha qand bor.**

684. Aravakash navli o'rtapishar qovun urug'i ekilganidan keyin necha kunda hosili pishadi? **95 – 100 kunda hosili pishadi.**

685. Aravakash navli o'rtapishar qovunning hosildorligi qancha s/ga? **300 – 350 s/ga, yuqori agrotexnikada 500 – 600 s/ga ga boradi.**

686. Aravakash navli o'rtapishar qovun qaysi viloyatda ekiladi? **Toshkent viloyatida ekiladi.**

687. Araliyadoshlar qanday urug'li o'simliklarning ikkipallalilar sinfiga mansub oila? **Yopiqurug'li o'simliklarning ikkipallalilar sinfiga mansub oila.**

688. Araliyadoshlar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Asosan, Shimoliy Amerika, Janubiy – Sharqiy Osiyo va Avstraliyada tarqalgan.**

689. Araliyadoshlar, araliyalarning nechta turkumi, qancha turi bor? **65 ta turkumi, 800 ga yaqin turi bor.**

690. Araliyadoshlarning nechta turkumi Uzoq Sharq va Kavkazda uchraydi? **7 ta turkumi uchraydi.**

691. Araliyadoshlarning qaysi xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi? **Araliya, plyushch turlari ekiladi.**

692. Araliyadoshlarning qaysi turi dorivor? **Jen – shen turi.**

693. Araliyadoshlarning ildizida qanday moddalar bor? **Saponin, efir moyi va boshqa birikmalar bor.**

694. Araliyadoshlarning nastoykasi organizmning nimasini ko'tarish uchun qo'llaniladi? **Nastoykasi organizmning tonusini ko'tarish uchun qo'llaniladi.**

695. Araukariyadoshlar, araukariyalar qaysi o'simliklarga mansub baland bo'yli daraxtlar oilasi? **Ochiq urug'li o'simliklarga mansub baland bo'yli daraxtlar oilasi.**

696. Araukariyadoshlar, araukariyalarning nechta turkumi bor? Ular qaysilar? **Ikkita turkumi bor. Ular: Agathis, Araucaria.**

697. Araukariyadoshlarning qancha turi bor? **40 ga yaqin turi bor.**

698. Araukariyadoshlarning novdalari qanday shaklda joylashgan? **Doira shaklida joylashgan.**

699. Araukariyadoshlarning nina bargi qanday? **Yassi.**

700. Araukariyadoshlarning mevasi qanday? **Yirik qubba.**

701. Araukariyadoshlarlarning nimasi xomligicha yoki qovurilib va quritilib, shuningdek, un qilib iste'mol qilinadi? **Urug'i iste'mol qilinadi.**

702. Araukariyadoshlarning yog'ochidan qayerda foydalaniladi? **Qurilishda foydalaniladi.**

703. Araukariyadoshlarning ba'zi turlari qanday daraxt sifatida ekiladi? **Xushmanzara daraxt sifatida ekiladi.**

704. Araukariyadoshlarning changi, yog'ochi va shoxchalarining izi O'zbekiston hududida qanday holda topilgan? **Qazilma holda topilgan.**

705. Araukariyadoshlar, xususan, O'zbekistonning qayerlarida qaysi davrlar qatlamlarida uchraydi? **Farg'ona vodiysining janubiy hududlari va Qurama tog'larining qarbon, yura qatlamlarida uchraydi.**

706. Araukariyadoshlar, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Asosan, Janubiy Amerika, Janubi – Sharqiy Osiyo, Malakka va Filippin orollarida tarqalgan.**

707. Arevshat xo'raki o'rtapishar qaysi mevali o'simlik navi? **Uzum navi.**

708. Arevshat navli xo'raki o'rtapishar uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

709. Arevshat navli xo'raki o'rtapishar uzumning hosili kurtak yozilishidan faol harorat yig'indisi qancha °C? **2800° C – 2900° C.**

710. Arevshat navli xo'raki o'rtapishar uzum necha kunda pishadi? **153 – 158 kunda pishadi.**

711. Arevshat Armaniston Uzumchilik, vinochilik va mevachilik ilmiy tadqiqot institutida qaysi navlar chatishtirib yaratilgan? **Kattaqo'rg'on va Parkent navlari chatishtirib yaratilgan.**

712. Arevshat navli uzum qayerda ekiladi? **Armanistonda ekiladi.**

713. Arevshat navli uzum turi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

714. Arevshat navli uzumning bargi qanday? **O'rtacha.**

715. Arevshat navli uzumning bargi necha bo'lmali? **Besh bo'lmali.**

716. Arevshat navli uzumning boshi qanday? **Yirik.**

717. Arevshat navli uzumning po'sti qanday? **Yupqa.**

718. Arevshat navli uzumning eti qanday? **Sersuv, shirin.**

719. Arevshat navli uzumning kasallik va zararkunandalarga chidami qanday? **O'rtacha.**

720. Arevshat navli uzumning sovuqqa bardoshi qanday? **Past.**

721. Arevshat navli uzum qishda saqlashga qanday? **Chidamli.**

722. Arevshat navli uzum qachon iste'mol etiladi? **Yangiligida iste'mol qilinadi.**

723. Areka o'simligi qaysi o'simliklarning bir turkumi? **Palmadoshlarning bir turkumi.**

724. Areka o'simligining qancha turi qanday holda o'sadi? **55 ga yaqin turi yovvoyi holda o'sadi.**

725. Areka palmadoshlarning katexu nomli turi urug'idan qanday modda olinadi? **Dorivor alkaloid – arenomin moddasi olinadi.**

726. Arzami ertapishar qaysi mevali o'simlik navi? **Xo'raki, turshak va konservabop o'rik navi.**

727. Arzami o'simligi necha yoshida hosilga kiradi? **4 – 5 yoshida hosilga kiradi.**

728. Arzami o'simligi nimalarga chidamli va nimalarga chidamsiz? **Kasalliklarga chidamli, sovuqqa va suvsizlikka chidamsiz.**

729. Arzami o'rigining tarkibida qand, kislota necha foiz? **Qand 11 – 13 foiz, kislota 0,8 foiz.**

730. Arzami qayerda yaratilgan ertapishar o'rik navi? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**

731. Arzami O'rta Osiyo o'rik navlarining qaysi guruhiga kiradi? **Zarafshon guruhiga kiradi.**

732. Arzami navli o'rik daraxti qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

733. Arzami navli o'rik daraxtining guli qanday rangda? **Oq rangda.**

734. Arzami navli o'rik daraxti qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi.**

735. Arzami navli o'rik daraxtining mevasi (bir dona) og'irligi qancha g? **44 – 45 g.**

736. Arzami navli o'rikning eti danagidan qanday ajraladi? **Yaxshi ajraladi.**

737. Arzami navli o'rikning mag'zi qanday? **Shirin.**

738. Arzami navli o'rik daraxti qanday maydonlarda yaxshi hosil beradi? **Nam yetarli maydonlarda yaxshi hosil beradi.**

739. Arzami navli o'rik daraxti qisman qanday yerlarda ham o'sadi? **Sho'rlangan yerlarda ham o'sadi.**

740. Arzami navli o'rik daraxti klyasterosporioz kasalligiga qanday? **Chidamli.**

741. Arzami navli o'rik ko'chati ekilgandan keyin nechanchi yili hosilga kiradi? **5 – 6 yili hosilga kiradi.**

742. Arzami navli o'rik ko'chati nechanchi yildan mo'l hosil beradi? **8-yildan mo'l hosil beradi.**

743. Arzami navli o'rik daraxtining hosildorligi qancha s/ga? **20 – 25 s/ga.**

744. Arzami navli o'rik daraxti qaysi oyning oxirida gullaydi? **Martning oxirida gullaydi.**

745. Arzami navli o'rik daraxtining mevasi qaysi oyning o'rtalarida pishadi? **Iyun oyining o'rtalarida pishadi.**

746. Arzami navli o'rik daraxti O'zbekistonning qaysi zonalarida ekiladi? **Adir va tog' oldi zonalarida ekiladi.**

747. Arilar qatronga o'xshash moddadan qanday modda ishlab chiqaradi? **Propolis (asalari elimi) ishlab chiqaradi.**

748. Aristoloxiyadoshlar, aristoloxiyalar – necha pallalilar sinfiga mansub o't, buta va lakalar oilasi? **Ikki pallalilar sinfiga mansub.**

749. Aristoloxiyadoshlarning qancha turi bor? **400 ga yaqin turi bor.**

750. Aristoloxiyadoshlar, asosan, qaysi yerlarda tarqalgan? **Tropik va subtropik yerlarda.**

751. Aristoloxiyadoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

752. Aristoloxiyadoshlar qanday tojli? **Tutash tojli.**

753. Aristoloxiyadoshlarning gulbarg va changchilari necha qator? **Ikki qator, har qatorda uchtadan joylashgan.**

754. Aristoloxiyadoshlarning mevasi necha chanoqli ko'sakcha? **Olti chanoqli ko'sakcha.**

755. Armanistonda necha yoshli eman daraxti nechanchi yilda qarib, qulab tushgan? **Armanistonda 1523-yilgi eman 1974-yilda qulab tushgan.**

756. Amur g'o'zasining xromosomalar soni nimaga teng? **2n = 26.**

757. Amur g'o'zasi qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**

758. Amur g'o'zasiga nechanchi yilda qaysi olim ta'rif bergan? **1933-yilda T. Kerni ta'rif bergan.**

759. Amur g'o'zasi qayerlarda uchraydi? **San-Markos orolida va Kaliforniya qo'ltig'i sohillarida uchraydi.**

760. Amur g'o'zasi necha yillik va qanday o'sadigan buta? **Ko'p yillik va tarvarqaylab o'sadigan buta.**

761. Amur g'o'zasining bo'yi necha m gacha? **2 m gacha.**

762. Amur g'o'zasi necha chanoqli? **3 – 4 chanoqli.**

763. Amur g'o'zasidagi har bir chanog'ida nechta chigit bo'ladi? **1 – 4 ta chigit bo'ladi.**

764. Amur g'o'zasi nimaga nihoyatda chidamli? **Qurg'oqchilikka chidamli.**

765. Amur g'o'zasi nima bilan kasallanmaydi? **Bakterioz bilan kasallanmaydi.**

766. Amur g'o'za turlari qaysi davlatda olingan? **Argentinada olingan.**

767. Amur g'o'za gulyonbargları qanday to'kilib ketadigan g'o'za navlari yaratishda noyob tur hisoblanadi? **Tabiiy to'kilib ketadigan g'o'za navlari yaratishda noyob tur hisoblanadi.**

768. Amur g'o'zasi fotodavr o'zgarishidan qanday ta'sirlanadi? **Kam ta'sirlanadi.**

769. Amur g'o'zasining qanday shoxlari ko'p? **O'suv shoxlari ko'p.**

770. Arnika qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

771. Arnika o'simligining nechta turi ma'lum? **32 ta turi ma'lum.**

772. Arnika o'simligi O'zbekistonda o'sadimi? **Yo'q, o'smaydi.**

773. Arnika o'simligining gullari qanday savatchada to'planadi? **Sarg'ish-zarhal savatchada.**

774. Arnikaning ivitmasi, qaynatmasi qanday kasalliklarga qarshi ishlatiladi? **Bachadondan qon ketish, to'xtatish, bachadon mushaklarining tonusini, yurak faoliyatini kuchaytirish, safro tushirish va og'riq qoldirish uchun ishlatiladi.**

775. Arpa o'simligining vatani qayer? **Old Osiyo.**

776. Arpa necha yillik o'tsimon o'simlik? **Bir va ko'p yillik.**

777. Arpa o'simligining to'p guli nima deyiladi? **Boshoq deyiladi.**

778. Arpa o'simligining qancha turi Yevrosiyo va Amerikada ma'lum? **30 ga yaqin.**

779. Arpa O'rta Osiyoda mil. avv. nechanchi ming yillikdan ekib kelinadi? **10-12-ming yillikdan.**

780. Arpa biologik xususiyatlariga ko'ra, qaysi turlarga bo'linadi? **Bahori va kuzgi turlarga bo'linadi.**

781. Arpa o'simligining poyasi necha bo'g'imli? **4 – 6 ta bo'g'imli.**

782. Arpa o'simligining bo'yi necha sm dan necha sm gacha? **130 – 134 sm gacha.**

783. Arpa o'simligining 1000 ta doni og'irligi qancha g? **20 – 60 g.**

784. Arpa o'simligining bahorgi vegetatsiya davri necha sutka? **55 – 110 sutka.**

785. Arpa o'simligining kuzgisiniki vegetatsiya davri necha sutka? **180 – 210 sutka (nav xususiyatlari va ekiladigan hududga qarab).**

786. Arpa qayrdan changlanuvchi o'simlik? **O'zidan changlanuvchi o'simlik.**

787. Arpa o'simligi maysalari necha °C haroratda yaxshi rivojlanadi? **220° C haroratda yaxshi rivojlanadi.**

788. Arpa o'simligining bargları qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

789. Arpa o'simligining gullari necha qirrali murakkab boshoq (to'pgul) hosil qiladi? **To'rt yoki olti qirrali murakkab boshoq (to'pgul) hosil qiladi.**

790. Arpa o'simligi boshoq o'zagining har bir pog'onasida nechtadan boshoqcha bo'ladi? **Uchtadan boshoqcha bo'ladi.**

791. Arpa o'simligining doni nima bilan o'ralgan bo'ladi? **Gul qobiqlari bilan o'ralgan bo'ladi.**

792. Arpa o'simligining guli qanday? **Yopiq.**

793. Arpa donida necha foiz qanday moddalar bor? **Kraxmal (45 – 67 foiz), oqsil (7 – 26 foiz), pentozalar (7 – 11 foiz), saxaroza (1,7 – 2 foiz), yog' (2 – 3 foiz), kul (3 – 5 foiz), kletchatka (3,5 – 7 foiz) bor.**

794. Arpa unidan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida qanday kasalliklarga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi? **Yallig'lanishni qaytaradigan, quvvatga kirgizadigan va diabetga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi.**

795. Arpa o'simligining doni yoki yirik qilib tortilgan arpa unidan shilimshiq qilib tayyorlangan qaynatmalarni qanday bemorlarga iste'mol qilish tavsiya qilinadi? **O'tkir me'da-ichak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarga tavsiya qilinadi.**

796. Arpa o'simligi kepagi damlab ichilsa, nima ko'payadi? **Siydik (peshob) ko'payadi.**

797. Arpadan zamonaviy tabobatda qanday taomlar uchun masalliq tariqasida keng foydalaniladi? **Parhez taomlari uchun masalliq tariqasida keng foydalaniladi.**

798. Arpa donidan nimalar tayyorlanadi? **Yorma, pivo va kvas tayyorlanadi.**

799. Arpada odam tanasiga singmaydigan qanday modda ko'p bo'lganligi uchun ortiqcha et qo'ygan kishilar ovqatiga arpani ko'proq ishlatish ularning ozishiga yordam beradi? **Kletchatka moddasi ko'p bo'lganligi uchun ortiqcha et qo'ygan kishilar ovqatiga arpani ko'proq ishlatish ularning ozishiga yordam beradi.**

800. Arpada oson singadigan vitaminlar bo'lganligi uchun arpadan tayyorlanadigan parhez taomlar qanday kasalliklarda foyda beradi? **Yiringli teri kasalliklari psoriaz, gush kasalliklarida foyda beradi.**

801. Arpa uni, yormasidan tayyorlangan taomlar qanday kasalliklarga tavsiya etiladi? **Gastrit, me'da, ichaklarning yara kasalligi, ateroskleroz, gipertoniya, qandli diabet bilan og'rigan kasalliklarga tavsiya etiladi.**

802. Arpabodiyon qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Soyabonguldoshlar (soyabongullilar) oilasiga mansub bir yillik.**

803. Arpabodiyon qanday moyli o'tsimon o'simlik? **Efir moyli o'tsimon o'simlik.**

804. Arpabodiyon o'simligining O'zbekistonda qaysi turi ekiladi? **Oddiy arpabodiyon (A. vulgare) turi ekiladi.**

805. Arpabodiyon o'simligining nechta turi bor? **2 ta turi bor.**

806. Arpabodiyon mevasi va efir moyi qaysi sanoatda ishlatiladi? **Oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi.**

807. Arpabodiyonning mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **3,2 foiz, ba'zan 6 foizgacha efir moyi va 28 foizgacha boshqa moylar, shuningdek, efir moyi tarkibida 90 foizgacha anetol bor.**

808. Arpabodiyon o'tining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

809. Arpabodiyon o'tining guli qanday rangli? **Oq rangli.**

810. Arpabodiyon o'tining gullari nechta gulbargdan iborat? **Beshta gulbargdan iborat.**

811. Arpabodiyon o'tining changchisi nechta? **Beshta.**

812. Arpabodiyon o'tning urug'chasi necha ustunchali? **Ikki ustunchali.**

813. Arpabodiyon o't qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

814. Arpabodiyon o'tining mevalari qaysi oyda pishadi? **Avgust oyida pishadi.**

815. Arpabodiyon o'tining vatani qayer? **Kichik Osiyo.**

816. Arpabodiyon o't qayerlarda ekiladi? **MDH Yevropa qismining O'rta va Janubiy mintaqasida, Qashqadaryo viloyatining ba'zi tumanlarida fermer xo'jaliklari va aholi tomonidan ekiladi.**

817. Arpabodiyon o'tining mevalaridagi efir moyi tarkibida necha foiz metil, xavimol, qanday aldegid va kislota bor? **10 foiz, arpabodiyon aldegidi, arpabodiyon kislotasi bor.**

818. Arpabodiyon o'tidan xalq tabobatida qanday dorilar sifatida foydalaniladi? **Nafas a'zolarining yallig'lanishi kasalliklarida o'tkir respirator kasalliklari, bronxit kasalligi, zotiljon, o'pka silida, balg'am ko'chiradigan vosita sifatida, astma xurujini engillashtiradigan dori sifatida foydalaniladi.**

819. Arpabodiyon o'tidan qanday dori sifatida tavsiya etiladi? **Emizikli ayollar sutini ko'paytirish, chanqoqni qondirish uchun, el haydaydigan dori sifatida tavsiya etiladi.**

820. Arpabodiyon o'tidan qanday kasalliklarda foydalanish tavsiya etiladi? **Ich ketar paytlarida, ichakdan qon ketayotgan paytlarda, og'riqli hayz vaqtida tavsiya etiladi.**

821. Arpabodiyon o'tini tuxum oqiga aralashtirib, qanday joylarga davo qilish uchun ishlatiladi? **Kuygan joylarga davo qilish uchun ishlatiladi.**

822. Arpabodiyon o'tining mevalaridan tayyorlangan damlama va arpabodiyon o'ti moyini zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarda vosita sifatida tavsiya etiladi? **Laringitlar, traxeitlar, bronxoektazlar, o'pka gangrenasi va ko'kyo'talda balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida tavsiya etiladi.**

823. Arpabodiyon o't preparatlari qanday kasalliklarda surgi modda sifatida ishlatiladi? **Gipoatsit gastritlar, meteorizmda surgi modda sifatida ishlatiladi.**

824. Arpabodiyon o't preparatlari nima haydovchi dori sifatida ishlatiladi? **Siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi.**

825. Arpabodiyon o't moyi nima ko'chiradigan miksturalarga qo'shiladi? **Balg'am ko'chiradigan miksturalarga qo'shiladi.**

826. Arpabodiyon o't mevasi va efir moyidan tayyorlangan preparatlar nima sifatida qo'llaniladi? **Balg'am ko'chiruvchi sifatida qo'llaniladi.**

827. Arpabodiyon o'tining mevalari qanday kasalliklarda qo'llaniladigan yig'im dorilar tarkibiga kiradi? **Ichni yumshatadigan va nafas yo'llari kasalliklarida.**

828. Arpabodiyon o'tining mevalaridan qanday sanoatda keng foydalaniladi? **Atir-upa, likyor-aroq sanoatida keng foydalaniladi.**

829. Arpabodiyon o't mevalari ro'zg'orda nima sifatida ishlatiladi? **Ziravor sifatida ishlatiladi.**

830. Arpabodiyon o'tining mevalari hazm yo'li ishiga yaxshi ta'sir ko'rsatishi, balg'am ko'chiradigan, haroratni tushiradigan, dizenfektsiyalaydigan xossalarga ega ekanligi nimalar (odamlar yoki hayvonlarmi) ustida olib borilgan tajribalarda aniqlangan? **Hayvonlar ustida olib borilgan tajribalarda aniqlangan.**

831. Arpag'on qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Boshoqdoshlar (g'alladoshlar, g'allagullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simliklar turkumi.**

832. Arpag'on o'simligi tarkibida necha foizgacha qanday moddalar bor? **12 – 14 foizgacha protein va 24 – 27 foiz kletchatka bor.**

833. Arpag'on o'simligining boshog'i qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

834. Arpag'on o'simligining boshoqchasi necha gulli? **3 – 5 gulli.**

835. Arpag'on o'simligining bo'yi necha sm? **4 – 25 sm.**

836. Arpag'on o'simligining bargi eni necha mm? **3 – 4 mm.**

837. Arpag'on o'simligi, asosan, qayerlarda o'sadi? **Asosan, qumloq va mayda toshli tog' yon bag'irlarida o'sadi.**

838. Arslonquyruq qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tlar turkumi.**

839. Arslonquyruq o'simligining nechta turi ma'lum? **14 ta turi ma'lum.**

840. Arslonquyruq o'simligining ildizpoyasi qanday? **Yog'ochlangan.**

841. Arslonquyruq o'simligining ildizlari qanday? **Qalin.**

842. Arslonquyruq o'simligi qanday o'sadi? **To'g'ri o'sadi.**

843. Arslonquyruq o'simligining gullari qayerlaridan chiqadi? **Barg qo'ltiqchalaridan chiqadi.**

844. Arslonquyruq o'simligining mevasi qanday tusli nechta yong'oqchadan iborat? **To'q jigarrang tusli to'rtta yong'oqchadan iborat.**

845. Arslonquyruq o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

846. Arslonquyruq o'simligi qaysi oylarda meva tugadi? **Iyul-avgust oylarida meva tugadi.**

847. Arslonquyruq o'simligining yer ustki qismida qanday moddalar bor? **Har xil alkaloidlar, efir moyi, oshlovchi moddalar, saponinlar, qatronlar, achchiq moddalar va boshq. bor.**

848. Arslonquyruq o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi tog'li yerlarda nechta turi uchraydi? **Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridagi tog'li yerlarda 2 ta turi uchraydi.**

849. Arslonquyruq o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatida, qayerlarida o'sadi? **Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumani, G'ilon, Hisorak, Xitoy qishloqlari; Yakkabog' tumani, Samoq, Tatar, Toshqo'rg'on qishloqlari atroflarida, Shahrisabz tumani, Tanxozdaryo yoqalarida o'sadi.**

850. Arslonquyruq o'simligidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida qanday kasalliklarda vosita sifatida ishlatiladi? **Nevrozlar, nevrologiyalar, quyonchiq, ortiqcha asabiylik paytida, gipertoniya kasalligining dastlabki paytlarida, ateroskleroz, yurak o'ynoqi, yurak qisishi, miokarditlar, kardioskleroz vaqtida tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.**

851. Arslonquyruq o'simligining galen preparatlari qanday kasalliklarda ishlatiladi? **Sil, kamqonlik, rangparlik kasalliklarida ishlatiladi.**

852. Arslonquyruq o'simligining urug'larini qanday kasallikda siydik haydaydigan vosita sifatida tavsiya etiladi? **Ko'ksuv kasalligida tavsiya etiladi.**

853. Arslonquyruq o'simligi bilan urug'lari ba'zi qanday kasalliklar davosiga ishlatiladi? **Ba'zi teri kasalliklari davosiga ishlatiladi.**

854. Arslonquyruq o'simligi bolgar xalq tabobatida qanday kasalliklarni bir me'yorga keltirishda tavsiya etiladi? **Asabni rostlashda, yurak urushi, yo'tal va hayz ko'rishni bir me'yorga keltirishda tavsiya etiladi.**

855. Arslonquyruq o'simligini rumin xalqi qanday kasalliklarni davolashda ishlatishadi? **Tutqanoq, buqoq, yurak kasalliklarini davolashda ishlatishadi.**

856. Arslonquyruq o'simligini inglizlar qanday kasallikni davolashda ishlatishadi? **Entikish, yurak xastaligi, asab tolalari shamollashida, asab buzilganida va ayniqsa, jazavaga tushish holatlarini hartaraf etishda ishlatishadi.**

857. Arslonquyruq o'simligidan nemis xalq tabobatida qanday kasalliklarda foydalaniladi? **Bosh og'rig'ida, kamqonlik (anemiya)da, nafas qisishida, siydik haydashda, izdan chiqqan hayzni me'yoriga keltirishda foydalaniladi.**

858. Arslonquyruq o'simligidan tayyorlangan galen preparat-lar zamonaviy tabobatda qanday xossalarga ega bo'lib, nima sistemasi faoliyatini valeriana tinkturasiga qaraganda necha barobardan ziyod susaytirishi aniqlangan? **Tinchlantiruvchi xossalarga ega bo'lib, markaziy asab sistemasi faoliyatini 2 – 3 barobardan ziyod susaytirishi aniqlangan.**

859. Arslonquyruq o'simligi tinchlantiruvchi ta'sirdan tashqari, yana qanday ta'sir ko'rsatadi? **Qon bosimini tushiradigan, yuralkni quvvatlaydigan ta'sir ko'rsatadi, shu bois gipertoniya kasalligi, yurak nevrozlari, kardioskleroz, miokardit, yurak poroklari va bosh miya kontuziyalarida, insultda ishlatiladi.**

860. Arton qaysi mevali o'simlik navi? **Olxo'ri navi.**

861. Arton navli olxo'rining vatani qaysi davlat? **Fransiya.**

862. Arton navli olxo'ri ko'chati ekilganidan keyin nechanchi yili hosilga kiradi? **5 – 6-yili hosilga kiradi.**

863. Arton navli olxo'ri necha yoshida har tupi 50 kg gacha hosil beradi? **10 yoshida.**

864. Arton navli olxo'ri daraxti qanday kattalikda? **O'rtacha kattalikda.**

865. Arton navli olxo'ri daraxti qanday o'sadi? **Tarvaqaylamay, tikroq o'sadi.**

866. Arton navli olxo'ri daraxtining guli qanday rangda? **Oq rangda.**

867. Arton navli olxo'ri daraxti qayerdan changlanadi? **O'zidan changlanadi.**

868. Arton navli olxo'ri daraxtining qurg'oqchilikka chidami qanday? **Chidami o'rtacha.**

869. Arton navli olxo'ri daraxti qanday maydonlarda yaxshi hosil beradi? **Sug'oriladigan maydonlarda yaxshi hosil beradi.**

870. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi danagidan qanday ajraladi? **Yaxshi ajraladi.**

871. Arton navli olxo'ri daraxtining bir dona mevasi og'irligi qancha g? **45 – 55 g.**

872. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi sirti qanday? **Silliq.**

873. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi usti nima bilan qoplangan? **G'ubor bilan qoplangan.**

874. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi qanday rangda? **Binafsha-qizil rangda.**

875. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi eti qanday rangda? **Sariq rangda.**

876. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi eti qanday? **Qalin.**

877. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi ta'mi qanday? **Juda shirin.**

878. Arton navli olxo'ri daraxti qachon gullaydi? **Aprel o'rtalarida gullaydi.**

879. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi qachon pishadi? **Iyul oxiri – sentabr boshida pishadi.**

880. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi qachon iste'mol qilinadi? **Ho'lligida iste'mol qilinadi.**

881. Arton navli olxo'ri daraxtining mevasi, asosan, nima solishga mo'ljallangan? **Qoqi solishga mo'ljallangan.**

882. Arton navli olxo'ri O'zbekistonga qayerdan keltirilgan? **G'arbiy Yevropadan keltirilgan.**

883. Arton navli olxo'ri O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Samarqand va Toshkent viloyatlarida ekiladi.**

884. Arton navli olxo'ri o'zidan changlanuvchi bo'lsa ham uni qaysi navlar bilan qo'shib ekkanda mo'l hosil beradi? **Berton, Ispolin navlari bilan qo'shib ekkanda mo'l hosil beradi.**

885. Artishok necha yillik sabzavot ekini? **Bir va ko'p yillik sabzavot ekini.**

886. Artishokning qaysi turi Rossiyaning janubida, Moldaviya va Ukrainada ko'proq ekiladi? **Tikanli artishok (C. scolymus L.) turi ekiladi.**

887. Artishok o'simligining nechta turi O'rta dengiz mamlakatlarida o'sadi? **10 – 11 ta turi o'sadi.**

888. Artishok o'simligi qaysi davlatlarda ekiladi? **Fransiya, Italiya, Hindiston, Jazoir va boshqa mamlakatlarda ekiladi.**

889. Artishok sabzavot, odatda, ko'p yillik ekin tarzida ekilgandan so'ng nechanchi yili gullaydi? **Ikkinchi yili gullaydi.**

890. Artishok o'simligining tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **Qand, oqsil (2,5 – 3 foiz), uglevod (7 – 15 foiz), C (0,4 mg bor, B_1, B_2 vitaminlari karotin; urug'ida 30 foizgacha moy bor.**

891. Artishok gullari qanday rangda? **Ko'k-binafsha rangda.**

892. Artishok ekini qanday to'pgul hosil qiladi? **Yirik to'pgul hosil qiladi.**

893. Artishokning bir to'pguli og'irligi qancha g? **100 – 200 g.**

894. Artishok ekinining nimalari ovqatga ishlatiladi? **Seret gulband va savatcha to'pguli ovqatga ishlatiladi.**

895. Artishok ekinining urug'ida necha foizgacha moy bor? **30 foizgacha moy bor.**

896. Artishok nima bilan iste'mol etiladi? **Sous bilan iste'mol etiladi.**

897. Artishok sabzavot ekini janubiy zonalarda necha yillik. kuchli sovuq zonalarda necha yillik ekin? **Janubiy zonalarda 3-4 yillik, sovuq zonalarda bir yillik ekin.**

898. Artishok sabzavot ekinining hosildorligi qancha s/ga? **50 – 250 s/ga (15 – 50 ming to'pgul).**

899. Artishokdagi uglevodlar tarkibida qaysi kasalliklar uchun foydali bo'lgan qaysi modda bor? **Diabet kasalliklari uchun foydali bo'lgan inulin moddasi bor.**

900. Arho kechpishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

901. Arho navli qovunning tarkibida qand necha foizgacha? **9,1 foizgacha.**

902. Arxarbiyurg'un qaysi oilaga mansub butacha? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub butacha.**

903. Arxarbiyurg'un o'simligining bo'yi necha sm ga boradi? **25 sm ga boradi.**

904. Arxarbiyurg'un o'simligining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

905. Arxarbiyurg'un o'simligi O'rta Osiyoning faqat qaysi qismida tarqalgan? **O'zbekistonning shimoliy qismida tarqalgan.**

906. Arxarbiyurg'un o'simligi qayerlarda o'sadi? **Buxoro viloyatida va Qoraqalpog'iston Respublikasining sho'rlangan qumlarida, nam, sho'rxok yerlarda, shag'alli yerlarda va tog' jinslarida o'sadi.**

907. Arxarbiyurg'un o'simligi nimalar uchun kuzgi va qishki ozuqa hisoblanadi? **Tuya, qo'y, echki va otlar uchun kuzgi va qishki ozuqa hisoblanadi.**

908. Arxarshair qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Ziradoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

909. Arxarshair o'simligining soyabon guli nechta soyabonchadan iborat? Undagi gullari nechta? **15 – 20 ta soyabonchadan iborat. 15 – 20 ta.**

910. Arxarshair o'simligi faqat qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

911. Arxarshair o'simligi O'zbekistondagi qaysi viloyatlarning adir va tog'larida turli ekologik sharoitda o'sadi? **Toshkent va Samarqand viloyatlarining adir va tog'larida turli ekologik sharoitda o'sadi.**

912. Arxarshair o'simligining quritib yanchilgan ildizi xalq tabobatida qanday maqsadda qo'llaniladi? **Yaralarni davolashda qo'llaniladi.**

913. Arxarshair o'simligining bo'yi necha sm? **10 – 55 sm.**

914. Arxarshair o'simligining ildizi necha boshchali? **Bir boshchali.**

915. Arxarshair o'simligining ildizi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

916. Arxarshair o'simligining barglari qanday patsimon? **Murakkab patsimon.**

917. Arxashair o'simligining guli qanday rangli? **Oq rangli.**

918. Arxarshair o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Aprel – may oylarida gullaydi.**

919. Arxarshair o'simligining mevasi qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

920. Arxarshair o'simligining mevasi dumaloq bo'lib, diametri necha mm? **4 mm.**

921. Arxarshair o'simligining mevasi qaysi oylarda pishadi? **May – iyun oylarida pishadi.**

922. Arxaro't qaysi oilaga mansub o'simlik? **Soyabongulдoshlar (soyabongullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

923. Arxaro't o'simligi O'zbekistonning, asosan, qaysi viloyatlari tog'li tumanlarining qayerlarida o'sadi? **Asosan, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari tog'li tumanlarining daryo bo'ylarida, shag'alli va toshli yerlarda o'sadi.**

924. Arxaro't o'simligi yana qayerda uchraydi? **Afg'onistonda ham uchraydi.**

925. Arxaro't qanday o'simlik? **Arxaro't efir moyli o'simlik.**

926. Arxaro't o'simligining yer ustki qismida necha foizgacha efir moyi bo'ladi? **0,65 foizgacha efir moyi bo'ladi.**

927. Arxaro't o'simligining bo'yi necha sm? **35 – 40 sm.**

928. Arxaro't o'simligining barglari qanday? **Murakkab.**

929. Arxaro't o'simligining soyabonlari necha soyabonchali? **7 – 15 soyabonchali.**

930. Arxaro't o'simligining soyabonidagi gullari nechta? **15 – 20 ta.**

931. Arxaro't o'simligining mevasi qanday shaklda? **Ellipssimon shaklda.**

932. Arxaro't o'simligining mevasi uzunligi necha mm? **9 mm.**

933. Arxaro't o'simligining mevasi qaysi oylarda pishadi? **Sentabr – oktabr oylarida pishadi.**

934. Arxeolog olimlar qadimgi insonlar uchun non dastlab g'alladan emas, balki qaysi daraxt mevasidan tayyorlangan deb hisoblashar edi? **Eman daraxti mevasidan tayyorlangan deb hisoblashar edi.**

935. Arximitsetsimonlar nimasi bo'lmagan yoki sust rivojlangan tuban zamburug'lar sinfi? **Gifi (tnasi) bo'lmagan.**

936. Arximitsetsimonlarning qancha turi bor? **350 ga yaqin turi bor.**

937. Arximitsetsimonlar juda mayda, shu bois uni nimada ko'rish mumkin? **Mikroskopda ko'rish mumkin.**

938. Arximitsetsimonlar, asosan, necha hujayrali va yadroli organizmlar? **Bir hujayrali va bir yadroli organizmlar.**

939. Arximitsetsimonlar nima orqali ko'payadi? **Zoospora orqali ko'payadi.**

940. Arximitsetsimonlar sinfiga mansub zamburug'lar, asosan, qayerlarda o'sadigan suvo'tlar va yuksak o'simlik, masalan, kasam, kartoshka va boshq larda parazitlik qiladi? **Suvda yoki nam joylarda o'sadigan suvo'tlar va yuksak o'simlik.**

941. Arximitsetsimonlar o'simliklarning nimalar bo'lishiga sabab bo'ladi? **Kasallanishi va chirishiga sabab bo'ladi.**

942. Archa o'simligining mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **0,5 – 2 foiz efir moyi, 40 foiz qand, organik kislotalar, smola, bo'yoq, piktin va boshqa moddalar bor.**

943. Archa qubbasining dorivor preparatlari tibbiyotda qanday vosita sifatida qo'llaniladi? **Siydik haydovchi va siydik yo'llarini dizenfektsiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda ovqat hazmini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi.**

944. Archa o'simligining bargidan olinadigan efir moyi nimani davolashda ishlatiladi? **Trixomonadli kolitni davolashda ishlatiladi.**

945. Archa o'simligining bug'i bilan qaysi kasalliklarni davolash mumkin? **Poliartrit, bel og'rig'i, revmatizm kasalliklarini davolash mumkin.**

946. Archa o'simligidan olinadigan efir moyining spirtdagi eritmasi qaysi kasallikda tananing og'rigan yeriga surtiladi? **Bod kasalligida tananing og'rigan yeriga surtiladi.**

947. Archa qaysi oilaga mansub doim qanday daraxt va butalar turkumi? **Sarvdoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt va butalar turkumi.**

948. Archa qanday bargli daraxt? **Ignabargli daraxt.**

949. Archa daraxtining qancha turi bor? **70 ga yaqin turi bor.**

950. Archa daraxtining guli necha jinsli? **Bir jinsli.**

951. Archa daraxti necha uyli? **Bir yoki ikki uyli.**

952. Archa daraxti nima yordamida changlanuvchi? **Shamol yordamida changlanuvchi.**

953. Archa daraxtining qubbasi qanday rangli? **Sarg'ish rangli.**

954. Archa daraxtining urg'ochi qubbalari qanday rangda bo'lib, qanday o'rnashgan urug'barg va urug'kurtaklardan iborat? **Yashil bo'lib, qarama-qarshi yoki oldinma-keyin o'rnashgan.**

955. Archa daraxtining qubbalari qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

956. Archa daraxtining qubbalari diametri necha mm? **5 – 20 mm.**

957. Archa daraxtining qubbasi ichida necha dona urug' bor? **1 – 10 dona urug' bor.**

958. Archa daraxti qaysi oylarda gullaydi? **Mart – may oylarida gullaydi.**

959, 950, 951. Archa daraxtining mevasi nechanchi yili qaysi oylarda pishib, qaysi fasllarda to'kiladi? **Ikkinchi yili sentabr – noyabr oylarida pishib, qish yoki bahorda to'kiladi.**

960. Archa daraxtining urug'ini yaxshi undirish uchun uni qachon stratifikatsiya qilib, qachon sepiladi? **Yozda stratifikatsiya qilib, kuzda sepiladi.**

961. Archa daraxtining ko'pchiligi qaysi mintaqalarda o'sadi? **O'rta mintaqalarda o'sadi.**

962. Archa daraxtining necha yoshli ko'chati ekiladi? **2 – 3 yoshli ko'chati ekiladi.**

963. Archa daraxtining ba'zi turlari qaysi hududlardagi tog'larda ham uchraydi? **Tropik hududlardagi tog'larda ham uchraydi.**

964. Archa daraxtining qaysi turlari O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston tog'larida tarqalgan bo'lib, maxsus archazorlarni tashkil qiladi? **I. semiglobosa (covyp A.), I. turkestonica (o'rik A.), I. sabina (qora A.) va I. seravshonica (zarafshon A.) kabi turlari.**

965. Archa daraxtining yog'ochi qayerlarda ishlatiladi? **Me'morchilikda, o'ymakorlikda va qalam tayyorlashda ishlatiladi.**

966. Archa daraxtining ba'zi turlaridan qanday o'simlik sifatida foydalaniladi? **Xushmanzara o'simlik sifatida foydalaniladi.**

967. Archa daraxti qubbalaridan qanday moddalar va kislotalar olinadi? **Efir moyi, qatron, qand, mum va organik kislotalar olinadi.**

968. Archa daraxtining O'rta Osiyodagi turlaridan olinadigan efir moyining sedrol fraksiyasi qanday kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Jarohatni, suyakning teshilib oqishini davolashda qo'llaniladi.**

969. Arqoniy-kechpishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

970. Arqoniy navli qovun shakli qanday? **Ellipssimon.**

971. Arqoniy navli qovunning bo'yi (uzunligi) necha sm? **30 – 35 sm.**

972. Arqoniy navli qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 7 kg.**

973. Arqoniy navli qovunning sirti bir oz nima qilgan? **Burishgan.**

974. Arqoniy navli qovunning po'sti qanday? **Qalin.**

975. Arqoniy navli qovunning eti qalinligi necha sm? **4 – 5 sm.**

976. Arqoniy navli qovunning tarkibida qand necha foizgacha? **9,1 foizgacha.**

977. Arqoniy navli qovunning urug'xonasi qanday (kattami yoki kichikmi)? **Katta.**

978. Arqoniy navli qovunning urug'i ekilganidan keyin necha kunda hosili pishadi? **110 – 120 kunda.**

979. Arqoniy navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **350 s/ga.**

980. Arqoniy navli qovun qaysi viloyatlarda ekiladi? **Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida ekiladi.**

981. Arqoniy navli qovun kuz-qishda asrash va olis joylarga yuborish uchun qanday? **Yaroqli.**

982. Arg'uvon qaysi oilaga mansub daraxtlar turkumi? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi.**

983. Arg'uvon daraxtining qaysi turi qayerlarda tarqalgan? **C. siliguastrum turi Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

984. Arg'uvon daraxtining yovvoyi C. griffithii turi qayerlarda uchraydi? **Afg'onistondagi hamda O'rta Osiyoning Pomir-Olay va G'arbiy Tyanshan tog'larida uchraydi.**

985. Arg'uvon daraxtining yovvoyi C. griffithii turi O'zbekistonning qaysi tog'larida o'sadi? **Qurama va Ugam tog'larida o'sadi.**

986. Asalga qorishtirilgan anor urug'lari qaysi a'zolar og'rig'iga qarshi ishlatiladi? **Bitavermaydigan yaralarga qo'yiladi, tish va quloq og'rig'iga qarshi ishlatiladi.**

987. Asalshirali o'simliklar, nektarli o'simliklar – asalari nektar va gulchangi yig'ib oladigan qanday o'simliklar, asalarilarning asosiy ozuqa bazasi? **Yopiq urug'li o'simliklar, asalarilarning asosiy ozuqa bazasi.**

988. Asalshirali o'simliklar nektarni gultoji yoki gulkosa barglar, tuguncha devori yoki gul o'rnida joylashgan maxsus qaysi a'zolari ishlab chiqaradi? **Nektar bezlari ishlab chiqaradi.**

989. Asalshirali o'simliklarda nektar bezlari qayerda joylashgan? **Barg bandi yoki gulyon barglarida, hatto poyada ham joylashgan.**

990. Asalshirali o'simliklardagi nektar miqdori nimaga bog'liq? **O'simlik turiga bog'liq.**

991. Asalshirali o'simliklarning bitta guli ishlab chiqaradigan nektar og'irligi Coryanthe turkumiga mansub tropik o'simlik – arxideyada qancha g gacha? **Arxedeyada 30 g gacha.**

992. Asalshirali o'simliklarning bitta guli ishlab chiqaradigan nektar og'irligi Coryanthe turkumiga mansub tropik o'simligi – jo'kada qancha mg? **0,15 – 7,46 mg.**

993. Asalshirali o'simliklarning bitta guli ishlab chiqaradigan nektar og'irligi Coryanthe turkumiga mansub tropik o'simligi – qashqarbedada qancha mg? **0,16 mg.**

994. Asalshirali o'simliklarning gulidan yig'ilgan nektar va gul changini asalarilar va asalarisimonlar oilasiga mansub boshqa hasharotlar nimaga aylantiradi? **Asal va pergaga aylantiradi.**

995. Asalshirali o'simliklardan ayrimlari nektar bilan birga nimaga o'xshash modda ham ajratadi? **Qatronga o'xshash modda ham ajratadi.**

996. Asalshirali o'simliklardan jo'ka qancha kg gacha nima ishlab chiqaradi? **1000 kg gacha nektar ishlab chiqaradi.**

997. Asalshirali o'simliklardan ingichka barglı zarang og'irligi qancha kg gacha nima ishlab chiqaradi? **200 kg gacha nektar ishlab chiqaradi.**

998. Asalshirali o'simliklardan tol og'irligi qancha kg gacha nima ishlab chiqaradi? **150 kg gacha nektar ishlab chiqaradi.**

999. Asalshirali o'simliklardan sariq akatsiya qancha kg gacha nima ishlab chiqaradi? **350 kg gacha nektar ishlab chiqaradi.**

1000. Asalshirali o'simliklardan mevali daraxtlar (olma, nok, olxo'ri, olcha, gilos) og'irligi qancha kg nima ishlab chiqariladi? **20 – 30 kg nektar ishlab chiqariladi.**

1001. Asalshirali o'simliklardan rezavor mevalardan smorodina og'irligi qancha kg nima ishlab chiqaradi? **60 kg nektar ishlab chiqaradi.**

1002. Asalshirali o'simliklardan malina og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **200 kg.**

1003. Asalshirali o'simliklardan grechixa og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **60 – 90 kg.**

1004. Asalshirali o'simliklardan kunkaboqar og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **30 – 40 kg.**

1005. Asalshirali o'simliklardan g'o'za og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **30 – 40 kg.**

1006. Asalshirali o'simliklardan esparset (yem-xashak ekini) og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **90 – 400 kg.**

1007. Asalshirali o'simliklardan qashqarbeda og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **300 kg.**

1008. Asalshirali o'simliklardan sebarga og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **100 – 150 kg.**

1009. Asalshirali o'simliklardan beda og'irligi qancha kg nektar ishlab chiqaradi? **100 kg.**

1010. Asati-ertapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun (asad oyida pishadigan qovun navi).**

1011. Asati navli qovunning uzunligi qancha sm? **25 – 27 sm.**

1012. Asati navli qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 7 kg.**

1013. Asati navli qovunning VIR 3806 navi O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Toshkent, Farg'ona, Andijon viloyatlarida ekiladi.**

1014. Asati navli qovunning VIR 3806 navi hosildorligi qancha s/ga? **250 – 300 s/ga.**

1015. Asati navli qovunning shakli qanday? **Tuxumsimon.**

1016. Asati navli qovunning kattaligi qanday? **O'rtacha.**

1017. Asati navli qovunning po'sti qanday? **Yupqa.**

1018. Asati navli qovunning sirti qanday to'rlar bilan qoplangan? **Ingichka va tutash to'rlar bilan qoplangan.**

1019. Asati navli qovun sirtida qanday dog'lar bor? **Yo'l-yo'l tilimli dog'lari bor.**

1020. Asati navli qovunning eti rangi qanday? **Oq.**

1021. Asati navli qovunning eti qalingi necha sm? **5 – 5,5 sm.**

1022. Asati navli qovunning tarkibida qand necha foizgacha? **10 foizgacha.**

1023. Asati navli qovunning urug'i qanday? **Yirik.**

1024. Asati navli qovunning rangi qanday? **Och sariq.**

1025. Asati navli qovunning urug'i ekilganda unib chiqqnidan keyin necha kunda pishadi? **83 – 98 kunda.**

1026. Asati navli qovun yangiligida nima qilinadi va tayyorlanadi? **Iste'mol qilinadi va qovun qoqi tayyorlanadi.**

1027. Askariy - xo'raki va mayizbop uzun navi O'zbekistonning qaysi viloyatida, yana qaysi Respublikalarda o'stiriladi?

Toshkent viloyatida hamda Turkmaniston, Tojikiston va Armaniston Respublikalarida o'stiriladi.

1028. Askariy - xo'raki uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

1029. Askariy qaysi mevali o'simlik navi? **O'rtapishar, mayizbop, urug'siz, xo'raki uzum navi.**

1030. Askariy navli uzumning vatani qayer? **Eron.**

1031. Askariy navli uzum necha kunda yetiladi? **120 – 130 kunda etiladi.**

1032. Askariy navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **59 – 90 s/ga.**

1033. Askariy navli uzumning sovuqqa bardoshi qanday? **Past.**

1034. Askariy navli uzum qanday kasalliklar bilan kasallanadi? **Rag'a va unshudring kasalliklari bilan kasallanadi.**

1035. Askariy navli uzum nima qilinadi va nima olinadi? **Iste'mol qilinadi va mayiz solinadi.**

1036. Asl qora, Kizlyar qorasi, Proskoveysk qorasi qaysi mevali o'simlik navi? **O'rtapishar vinobop uzum navi.**

1037. Asl qora navli uzum, asosan, qayerda rayonlashtirilgan? **Asosan, Shimoliy Kavkazda rayonlashtirilgan.**

1038. Asl qora navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida ekiladi.**

1039. Asl qora navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

1040. Asl qora navli uzumning bargi necha bo'lakchali? **5 bo'lakchali.**

1041. Asl qora navli uzumning bargi qanday tishli? **Arra tishli.**

1042. Asl qora navli uzumning tarkibida necha foiz qand bor? **27 foiz.**

1043. Asl qora navli uzum spirtidan nimalar tayyorlanadi? **Sharbatlar tayyorlanadi.**

1044. Asl qora navli vinobop uzumning tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

1045. Asl qora navli vinobop uzumning bargi qanday kattalikda? **O'rtacha kattalikda.**

1046. Asl qora navli vinobop uzum qanday shaklda? **Silindr-konussimon shaklda.**

1047. Asl qora navli vinobop uzumning bir shingili og'irligi qancha g? **150 – 250 g.**

1048. Asl qora navli vinobop uzumning kattaligi o'rtacha necha mm? **16 – 18 mm.**

1049. Asl qora navli vinobop uzum necha kunda pishadi? **140 kunda pishadi.**

1050. Asl qora navli vinobop uzum kurtak yozgandan boshlab faol harorat yig'indisi qancha ° C ga teng? **2890° C ga teng.**

1051. Asl qora navli vinobop uzumning hosildorligi qancha s/ga? **100 – 120 s/ga.**

1052. Asl qora navli vinobop uzumdan qanday vinolar va sharbatlar tayyorlanadi? **Spirti past qizil vinolar va sharbatlar tayyorlanadi.**

1053. Asli finik palmasi (Ph dastylifera) yoki arab xurmosi turi Shimoliy Afrika, Arabiston yarim oroli, Janubiy Eron, Afg'oniston va Pokistonning qaysi mintaqalarida o'suvchi qadimgi madaniy o'simlik? **Quruq subtropik mintaqalarida o'suvchi qadimgi madaniy o'simlik.**

1054. Asli finik palmasi mevasi yetishtirish bo'yicha qaysi mamlakatlar oldingi o'rinlarda turadi? **Iroq va Shimoliy Afrika mamlakatlari oldingi o'rinlarda turadi.**

1055. Asma, Qrim qora uzum qanday yo'l bilan yaratilgan o'rtapishar xo'raki uzum navi? **Xalq seleksiyasi yo'li bilan yaratilgan o'rtapishar xo'raki uzum navi.**

1056. Asma navli uzum qayerlarda o'stiriladi? **Kuban va Qrimda o'stiriladi.**

1057. Asma navli uzumning hosili uchun faol harorat qancha ° C? **3050° C – 3300° C**

1058. Asma navli uzum necha kunda pishib yetiladi? **160 – 175 kunda pishib yetiladi.**

1059. Asma navli uzumning tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

1060. Asma navli uzumning bargi qanday? **Yirik.**

1061. Asma navli uzumning bargi necha bo'lmali? **Uch bo'lamli.**

1062. Asma navli uzumning boshi qanday? **Yirik.**

1063. Asma navli uzumning shakli qanday? **Dumaloq va cho'ziq.**

1064. Asma navli uzumning g'ujumi qanday? **Yirik.**

1065. Asma navli uzumning rangi qanday? **To'q binafsha-qora.**

1066. Asma navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **80 – 120 s/ga.**

1067. Asma navli uzum kasalliklarga chidami va sovuqqa bardoshi qanday? **Kasalliklarga chidami o'rtacha, sovuqqa bardoshi past.**

1068. Asma navli uzum uzoq saqlash va uzoqqa yuborishga qanday? **Chidamli.**

1069. Asma navli uzum nechanchi yildan O'zbekistonda rayonlashtirilgan? **1995-yildan rayonlashtirilgan.**

1070. Asosan, yerbag'irlab o'suvchi yarimbuta (K. prosrata) nima deb ataladi? **Izen deb ataladi.**

1071. Aso-muso, hassa-muso sershox va serbarg buta qaysi oilaga mansub? **Shilvidoshlar (uchqatgullilar) oilasining abeliya turkumiga mansub.**

1072. Aso-muso o'simligi qayerlarda uchraydi? **Qirg'iztov, Talas, Sharqiy Chatqol, Susamir va Farg'ona tog'lari (Moylisoy, Arslonbob)ning yong'oqzor va archazorlarida uchraydi.**

1073. Aso-muso o'simligining tanasi po'sti qanday rangda? **Kulrangda.**

1074. Aso-muso o'simligining bargları qanday bandli? **Qisqa bandli.**

1075. Aso-muso o'simligining bargları shakli qanday? **Ellipssimon.**

1076. Aso-muso o'simligining gulları bir nechtadan (ko'pincha uchtadan) bo'lib, qayerga yig'ilgan? **To'pgulga yig'ilgan.**

1077. Aso-muso o'simligining tojbargi qanday rangli? **Oqish rangli.**

1078. Aso-muso o'simligining tojbargi necha mm uzunlikda? **10 – 15 mm uzunlikda.**

1079. Aso-muso o'simligining changchilari nechtadan bo'lib, qayerga joylashgan? **To'rttadan bo'lib, toj naychasining ichida joylashgan.**

1080. Aso-muso o'simligining poyasi necha qirrali? **Olti qirrali.**

1081. Aso-muso o'simligining urug'chisi nechta? **Bitta.**

1082. Aso-muso o'simligining urug'chi ustunchasi nimadan bir oz chiqib turadi? **Naychadan bir oz chiqib turadi.**

1083. Aso-muso o'simligining mevasi bir oz qanday? **Cho'ziq va yapaloq (5 – 8 mm uzunlikda).**

1084. Aso-muso o'simligi faqat qayer uchun xos endemik o'simlik? **O'rta Osiyo (Tyanshan tog'lari) uchun.**

1085. Aso-muso o'simligi qayerlarda uchraydi? **Qirg'iztov, Talas, Sharqiy Chatqol, Susamir va Farg'ona tog'lari (Moylisoy, Arslonsoy)ning yong'oqzor va archazorlarida uchraydi.**

1086. Aso-muso o'simligi nima uchun juda qadrlanadi? **Yog'ochi qattiq bo'lgani uchun juda qadrlanadi.**

1087. Aso-muso o'simligining ba'zilari barglari qanday? **Kungurador.**

1088. Asosiy paxta yetishtiruvchi mamlakatlar qaysilar? **Xitoy (3,7 mln ga, 30,6 s/ga, 11,4 mln t), AQSh (5,4 mln ga, 17,5 s/ga, 9,5 mln t), Hindiston (9 mln ga, 6,9 s/ga, 6,2 mln t), Pokiston (2,9 mln ga, 15,3 s/ga, 4,4 mln t).**

1089. Asosiy g'allakor mamlakatlar qaysilar? **Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, AQSh, Hindiston, Kanada.**

1090. Asorun o'tining nechta turi bor? **14 ta turi bor.**

1091. Asorun o'tining guli tarkibida qanday moy bor? **Efir moyi bor.**

1092. Asorun o'tining guli tarkibida qanday moddalar bor? **Glyukozidlar va boshq. birikmalar bor.**

1093. Asorun o'ti tabobatda qanday dori sifatida ishlatiladi? **Balg'am ko'chiruvchi, qustiruvchi, surgi dori sifatida ishlatiladi.**

1094. Asorun o'ti, shuningdek, qanday kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Istisqo va sariq kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

1095. Asorun o't ko'proq qaysi geografik mintaqada tarqalgan? **O'rta geografik mintaqada tarqalgan.**

1096. Asorun o'tining Rossiyaning Yevropa qismida hamda Sibirda nechta turi uchraydi? **3 ta turi uchraydi.**

1097. Aspidistra qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Marvaridguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

1098. Aspidistra o'tlar qayerlarda tarqalgan? **Himolay tog'lari va uning sharqiy tomonlarida tarqalgan.**

1099. Aspidistra o'tlarning turi nechta? **7 ta.**

1100. Aspidistra o'tlarining O'zbekistonda nechta turi o'stiriladi? **Bitta turi uchraydi.**

1101. Astragal qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub.**

1102. Astragal o'simligining nechta turi bor? **1600 ta turi bor.**

1103. Astragal o'simligining O'rta Osiyoda nechta turi o'sadi? **592 ta turi o'sadi.**

1104. Astragal o'simligining nechta turi O'zbekistonda o'sadi? **250 ta turi o'sadi.**

1105. Astragal o'simligining qaysi turlari Kapetdog' va Turkmanistonda o'sadi? **A. piletocladus. A. turmenorum turlari o'sadi.**

1106. Astragal o'simligining Turkmaniston va Kapetdog'da o'sadigan turlari qayerlarda qo'llaniladi? **Tibbiyotda, qandolat sanoatida va texnikada qo'llaniladi.**

1107. Astragal o'simligining gullari qayerda joylashgan? **Kalyak yoki boshoqsimon to'pgulda joylashgan.**

1108. Astragal o'simligining ayrim turlari yer ustki qismi tarkibida qanday moddalar bor? **Glitserizin moddasi, flavonoidlar va mikroelementlar bor.**

1109. Astragal o'simligining mevasi nima? **Dukkak.**

1110. Astragal o'simligining damlamasi qaysi kasallikni davolashda qo'llaniladi? **Gipertoniya kasalligini davolashda qo'llaniladi.**

1111. Astragal qanday o'simliklardan iborat? **O't, chala buta va ba'zi butalardan iborat.**

1112. Astragal o'simligining bargları, odatda, qanday? **Murakkab, toq patsimon.**

1113. Astargal o'simligining qaysi turlari yaxshi yem-xashak hisoblanadi? **No'xatak, singran turlari yaxshi yem-xashak hisoblanadi.**

1114. Asterokalamit qaysi oilaga mansub sporali o'simliklar? **Qirqbo'g'indoshlar oilasiga mansub sporali o'simliklar.**

1115. Asterokalamit o'simligining faqat qanday holda uchraydi? **Qazilma holda uchraydi.**

1116. Asterokalamit o'simligining nechta turi aniqlangan? **5 ta turi aniqlangan.**

1117. Asterokalamit o'simligining tanasi nimalarga bo'lingan? **Bo'g'imlarga bo'lingan.**

1118. Asterokalamit o'simligining bargları qanday? **Ingichka va ko'p bo'lakli.**

1119. Asterokalamit o'simligining shoxchasi, sporasi va yog'ochi qaysi tog'lar va hududlardagi qaysi qatlamlardan topilgan? **Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekistonning Hisor tog'lari va boshq. hudularidagi devon-karbon qatlamlaridan topilgan.**

1120. Asteroteka qaysi oilaga mansub sporali o'simliklar turkumi? **Qirqquloqdoshlar oilasiga mansub sporali o'simliklar turkumi.**

1121. Asteroteka o'simligi faqat qanday holda uchraydi? **Qazilma holda uchraydi.**

1122. Asteroteka o'simligining barglari necha karra patsimon? **Uch karra patsimon.**

1123. Asteroteka o'simligining bargları qanday? **Murakkab va yirik.**

1124. Asteroteka o'simligining qanday yaproqchalarining tuzilishi o'xshash? **Sporali va sporasiz yaproqchalarining tuzilishi o'xshash.**

1125. Asteroteka o'simligining sporali, sporasiz bargları izlari va sporasi qaysi hududlarda topilgan? **O'rta Osiyo (Nurota, Hisor tog'lari) va boshq. hududlarda topilgan.**

1126. Asteroteka o'simligining qancha turi ma'lum? **15 ga yaqin turi ma'lum.**

1127. Atekatlar, antameduzalar – dengiz gidropolipları turkumi bo'lib, qanday bo'lib yashaydi? **Koloniya bo'lib yashaydi.**

1128. Atekatlarning koloniyasi qaysi o'simlikka o'xshash? **Buta o'simligiga o'xshash.**

1129. Atekatlar koloniyasidagi ayrim individlarning himoya g'ilofi – nimasi bo'lmaydi? **Gidrotekti bo'lmaydi.**

1130. Atekatlar juda mayda (1 mm gacha) bo'lib, ayrim vakillari (Tubularia urug'i) bir necha sm dan 70 sm gacha, ba'zan necha m gacha (Branchiocerianthus imperatoz) bo'ladi? **2,3 m gacha bo'ladi.**

1131. Atekatlarning meduzalari juda mayda bo'lib, soyaboshining diametri necha mm dan necha sm gacha? **5 mm dan 3 sm gacha.**

1132. Atekatlar qaysi davrda qanday ko'payadi? **Polip davrida kurtaklanib ko'payadi.**

1133. Atekatlarning meduzalari qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

1134. Atekatlarning qancha turi ma'lum? **200 ga yaqin turi ma'lum.**

1135. Atekatlar qanday dengizlarda uchraydi? **Ochiq dengizlarda uchraydi.**

1136. Atirgul o'simligi xalqda qanday nomlar bilan ma'lum? **Ra'no, na'matak, qirq og'ayni, itburun nomlari bilan ma'lum.**

1137. Atirgul qaysi turkumning xushmanzara o'simlik sifatida ekiladigan bir qancha turiga xalq tomonidan qo'yilgan umumiy nom? **Ra'nodoshlar turkumining.**

1138. Atirgul o'simligi qaysi mamlakatlarda keng tarqalgan? **Osiyo, Yevropa, Amerika mamlakatlarida keng tarqalgan.**

1139. Atirgul o'simligining yer yuzida qancha turi, navi bor? **250-300 turi, 25 mingdan ortiq navi bor.**

1140. Atirgul o'simligining O'zbekistonda nechta turi, qancha navi o'stiriladi? **19 ta turi, 600 dan ortiq navi o'stiriladi.**

1141. Atirgul o'simligining qaysi navlaridan Fransiya, Bolgariya, Turkiya, Italiya va boshq mamlakatlarda qimmatbaho efir moyi olinadi? **Damashq, fransuz navlaridan.**

1142. Atirgul o'simligining tarkibidagi 1 kg efir moyi qancha t gulhargdan olinadi? **2 – 5 t gulbargdan.**

1143. Atirgul o'simligining moyi tarkibiga qancha komponentlar (feniletil spirti, terpen spirtlari – sitronellol, nerol, geraniol, linalool va ularning efirlari, alifatik aldegidlar va boshq.) kiradi? **200 dan ortiq komponentlar kiradi.**

1144. Atirgul navlari qanday xususiyatlari bilan farq qiladi? **Gulining katta-kichikligi, rangi, hidi, poyada o'rnashishi, gullash davri, poyaning tikka yoki ilashib o'sishi kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.**

1145. Atirgulning qanday xillari ko'proq ekiladi? **Fasl bo'yi uzluksiz yoki takroriy gullab turadigan va poyasi ilashib o'sadigan xillari ko'proq ekiladi.**

1146. Atirgul, asosan, qanday ko'paytiriladi? **Payvand qilib, parxishlab va qalamchasini ekib ko'paytiriladi.**

1147. Atirgulni payvand qilish yo'li bilan ko'paytirishda qaysi iyul oyida terilgan na'matak mevalaridan ajratib olingan urug'lar nam joyda saqlanib, qachon ochiq dalaga sepiladi? **Noyabr oxiri – dekabr boshlarida ochiq dalaga sepiladi.**

1148. Atirgul urug'i unib chiqqanidan keyin kelasi yili qaysi oylar davomida necha marta chopiq qilinadi? **Aprel-avgust oylari davomida 4 – 5 marta chopiq qilinadi.**

1149. Atirgul urug'i unib chiqqanidan kelasi yili aprel-avgust oylari davomida necha marta sug'oriladi? **8 – 10 marta sug'oriladi.**

1150. Atirgul navi kurtaklari na'matakka qaysi oylarda payvand qilinadi? **Avgust –sentabr oylarida payvand qilinadi.**

1151. Atirgulning ba'zi navlari gulbarglaridan nimalar qilinadi? **Gulqand, murabbo qilinadi.**

1152. Atirgul O'zbekiston sharoitida ochiq yerlarda qaysi oydan qaysi oyning oxirigacha ochilib turadi? **Apreldan noyabr oyining oxirigacha ochilib turadi.**

1153. Atirgul ko'chatlari gulzorlarga qaysi fasllarda o'tqaziladi? **Kuzda va bahorda o'tqaziladi.**

1154. Atirgul gulzori yoz davomida necha martagacha sug'oriladi? **20 martagacha sug'oriladi.**

1155. Atirqovun qaysi turkumga, oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Qovun turkumiga, qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

1156. Atirqovun o'simligining guli necha jinsli? **Bir yoki ikki jinsli.**

1157. Atirqovun o'simligining bo'yi necha sm? **30 – 80 sm.**

1158. Atirqovun o'simligining bargi qanday shaklda? **To'garak yoki tuxumsimon shaklda.**

1159. Atirqovun o'simligining mevasi qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

1160. Atirqovun o'simligining mevasi diametri necha sm? **5,5 – 6 sm.**

1161. Atirqovun nimasi bilan boshqa qovunlardan ajralib turadi? **Xushbo'yligi bilan boshqa qovunlardan ajralib turadi.**

1162. Atirqovun ekilishiga qarab qaysi oylarda gullaydi? **Iyul – sentabr oylarida gullaydi.**

1163. Atirqovun yer yuzida qanday tarqalgan? **Keng tarqalgan.**

1164. Atirqovunni qayerlarda uchratish mumkin? **O'rta Osiyo, Zakavkaze, Eron, Afg'oniston, Kichik Osiyo, O'rta dengiz bo'yi, Amerika va boshqa yerlarda uchratish mumkin.**

1165. Atirqovun O'zbekistonning ayniqsa, qaysi viloyatlarida qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

1166. Atlas kedrining ignabargi qisqa bo'lib, uzunligi necha sm cha? **2,5 sm cha.**

1167. Atlas kedrining qubbasi qanday shaklda? **Silindrsimon, tuxumsimon shaklda (5 – 7 sm).**

1168. Afrika qit'asida qancha gulli o'simlik turlari bor? **40 mingdan ortiq turlari bor.**

1169. Afrika qo'nog'i qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Qoqidoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

1170. Afrika qo'nog'i o'simligining nechta turi ma'lum? **32 ta turi ma'lum.**

1171. Afrika qo'nog'i o'simligi necha yillik don va yem-xashak ekini? **Bir yillik don va yem-xashak ekini.**

1172. Afrika qo'nog'i o'simligi tashqi ko'rinishidan nimalarga o'xshaydi? **Makkajo'xori va sargo (oqjo'xori, qo'qon jo'xori) ga o'xshaydi.**

1173. Afrika qo'nog'i qayerlarda yetishtiriladi? **Osiyo, Afrika, qisman Janubiy Yevropaning quruq iqlimli zonalarida yetishtiriladi.**

1174. Afrika qo'nog'ining doni nimalarga ishlatiladi? **Oziq-ovqatga va hayvonlarga yem uchun ishlatiladi.**

1175. Afrika qo'nog'i nima sevar va nimaga chidamli? **Issiqsevar, yorug'liksevar va qurg'oqchilikka chidamli.**

1176. Afrika qo'nog'ining hosildorligi ko'k massa bo'yicha qancha s/ga? **80 – 500 s/ga.**

1177. Afrika qo'nog'ining hosildorligi ko'k massa bo'yicha sug'oriladigan maydonlarda qancha s/ga? **800 – 1000 s/ga.**

1178. Afrika qo'nog'ining hosildorligi doni bo'yicha qancha s/ga? **11 – 40 s/ga.**

1179. Afrika qo'nog'ining urug'i 1 ga maydonga qancha kg sarflanadi? **5 – 10 kg.**

1180. Afrika qo'nog'ining urug'i 1 ga maydonga qancha kg sarflanadi? **5 – 10 kg.**

1181. Afrika qo'nog'ining urug'i necha sm chuqurlikka ekiladi? **5 – 6 sm chuqurlikka ekiladi.**

1182. Afrika-Osiyo g'o'zasi, o't g'o'zani nechanchi yilda birinchi marta qaysi olim ta'riflab bergan? **1753-yilda K. Linney ta'riflab bergan.**

1183. Afrika-Osiyo populyatsiyalari O'zbekistonda nechanchi asr oxirigacha ekilgan? **XIX asr oxirigacha ekilgan.**

1184. Afrika-Osiyo g'o'zasining hosil shoxlari necha bo'g'inli? **4 – 5 bo'g'inli.**

1185. Afrika-Osiyo g'o'zasining ko'saklari necha chanoqli? **3 – 4 chanoqli.**

1186. Afrika-Osiyo g'o'zasining tolasi uzunligi necha mm dan necha mm gacha? **15 mm dan 25 mm gacha.**

1187. Afrika va Osiyoning tropik va subtropik mintaqalarining daryolarga yaqin, yer osti suv manbalari bor qirg'oq joylarida, vodiylarda, botqoqliklarda nechta turi o'sadi? **15 ta turi o'sadi.**

1188. Afrikaning janubi-sharqiy qismida o'tsimon qaysi g'o'za madaniylashtirilgan? **Gossipium xorbatssem madaniylashtirilgan.**

1189. Afsonak qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

1190. Afsonak o't, asosan, qayerlarda o'sadi? **Asosan, Osiyo va Shimoliy Amerikada o'sadi.**

1191. Afsonak o'tining O'rta Osiyoda nechta turi bor? **3 ta turi bor.**

1192. Afsonak o'tining ba'zi turlaridan tibbiyotda qanday dori sifatida foydalaniladi? **Balg'am ko'chiruvchi va nafas markazini qo'zg'atuvchi dori sifatida foydalaniladi.**

1193. Afsonak o'tining O'zbekistonda qanday nomli turlari bor? **Th. dolichocarpa va Th. alberniflora nomli turlari bor.**

1194. Afsonak o'tining ko'pchiligi qanday? **Zaharli.**

1195. Afsonak o'tning ba'zi turlari qayerda o'sadi? **Ekinlar orasida o'sadi.**

1196. Afsonak o'tning urug'lari qanday rangli? **Jigarrang, ba'zan ko'kimtir.**

1197. Afsonak o't qaysi faslda gullaydi? **Yozda gullaydi.**

1198. Afrosiyobi ertapishar qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

1199. Afrosiyobi olma ko'chati ekilganidan keyin necha yilda hosilga kiradi? **4 – 5 yilda hosilga kiradi.**

1200. Afrosiyobini qayerda qaysi tadqiqotchilar qaysi navni qaysi nav bilan duragaylab yaratishgan? **R. R. Shreder nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutining Samarqand filialida Landsberg navini Samarqand ertapishar navi bilan duragaylab V. V. Kuznetsov, A. A. Lenpinskiylar yaratishgan.**

1201. Afrosiyobi navli olma qachon pishadi? **Iyul boshida pishadi.**

1202. Afrosiyobi navli olma har yili hosil qiladimi? **Ha, hosil qiladi.**

1203. Afrosiyobi navli olmaning hosildorligi qanday? **O'rtacha.**

1204. Achitqidoshlar, turushdoshlar qaysi sinfning bir hujayrali zamburug'lar oilasi? **Xaltachalilar sinfining.**

1205. Achitqidoshlar qanday urchiydi? **Ko'pchiligi kurtaklanib, ayrimlari bo'linib urchiydi.**

1206. Achitqidoshlarning hujayralari juda mayda bo'lib, faqat nima yordamida ko'rish mumkin? **Mikroskop yordamida ko'rish mumkin.**

1207. Achitqidoshlar qanday sharoitda qand moddasining spirtli achishiga sabab bo'ladi? **Anoerob sharoitda.**

1208. Achitqidoshlar qadimdan nimalar tayyorlashda qo'llanib kelingan? **Xamir, pivo, vino va spirt tayyorlashda qo'llanib kelingan.**

1209. Achitqidoshlar qanday moddalarga boy bo'lganligidan qaysi sanoatda foydalaniladi? **Oqsil, yog' va turli vitaminlarga boy bo'lganligidan oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatida foydalaniladi.**

1210. Achchiqbodom qaysi oilaga mansub qanday daraxt yoki buta? **Ra'nodoshlar oilasiga mansub kichkina daraxt yoki buta.**

1211. Achchiqbodom daraxtining balandligi necha m ga yetadi? **1,5 m ga yaqin.**

1212. Achchiqbodom daraxtining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

1213. Achchiqbodom mag'zida qanday moddalar bor? **50 foiz moy, 2,5 – 4 foiz omigdamin glyukozidi bor.**

1214. Achchiqbodomning tarkibida necha foiz alkaloid bor? **0,5 – 1,12 foiz.**

1215. Achchiqbodom daraxtining tanasi va ildizi po'stida necha foiz bo'yoq modda bo'ladi? **Tanasida 3 – 5 foiz, ildiz po'stida 27 – 30 foiz bo'yoq modda bo'ladi**

1216. Achchiqbodom moyi qaysi kasalliklarga davo? **Yo'tal, istisqo, quloq og'rig'i, zotiljom va buyrak kasalliklariga.**

1217. Achchiqbodom daraxtining barglari qanday shaklda? **Nashtarsimon yoki tuxumsimon shaklda.**

1218. Achchiqbodom daraxtining bargi bo'yi necha sm? **3 – 4 sm.**

1219. Achchiqbodom daraxtining gullari qanday rangli? **Och binafsha rangli.**

1220. Achchiqbodom daraxtining guli bo'yi necha mm? **14 – 19 mm.**

1221. Achchiqbodom daraxtining mevasi, ya'ni bodomi bo'yi necha sm? **20 – 38 mm.**

1222. Achchiqbodom daraxti qaysi oylarda gullaydi? **Mart-aprel oylarida gullaydi.**

1223. Achchiqbodom daraxti qaysi oylarda meva beradi? **Iyun-iyul oylarida meva beradi.**

1224. Achchiqbodom o'daraxtidan shirin mag'izli bodom va shaftoli yetishtirishda nima sifatida va kam suv, shag'alli adir va tog' qoyalarini daraxtzor va mevazorlashtirishda foydalaniladi? **Payvandtag sifatida va kam suv, shag'alli adir va tog' qoyalarini daraxtzor va mevazorlashtirishda foydalaniladi.**

1225. Achchiqbodom daraxti Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlarining dengiz sathida necha m balandlikdagi adir va tog'larida, tosh oralarida va sershag'al tuproqlarda o'sadi? **850 – 2500 m balandlikdagi adir va tog'larida, tosh oralarida va sershag'al tuproqlarda o'sadi.**

1226. Achchiqbodom daraxti ildizi po'stidan aholi matolarni qanday rangga bo'yashda va nima oshlashda foydalaniladi? **Suriq rangga bo'yashda va teri oshlashda foydalaniladi.**

1227. Achchiqbuta qaysi oilaga mansub buta? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub buta.**

1228. Achchiqbutaning bo'yi necha sm? **100 sm.**

1229. Achchiqbutaning tarkibida, ildizida, tanasida, ildiz po'stida necha foiz qanday moddalar bor? **0,5 – 1,12 foiz alkaloid, ildizida 12 – 14 foiz, tanasida 3 – 5 foiz va ildiz po'stida 27 – 30 foiz bo'yoq moddalar bor.**

1230. Achchiqbutaning ildiz qaynatmasi xalq tabobatida qaysi kasallikka qarshi ishlatiladi? **Bod kasalligiga qarshi ishlatiladi.**

1231. Achchiqbuta barglari qanday shaklda? **Patsimon shaklda.**

1232. Achchiqbuta barglarining uzunligi necha sm? **10 – 19 sm.**

1233. Achchiqbuta barglari nima bilan qalin qoplangan? **Tuk bilan qoplangan.**

1234. Achchiqbuta gullari qanday rangli? **Oq rangli.**

1235. Achchiqbuta dukkagi necha urug'li? **1 – 4 urug'li.**

1236. Achchiqbuta urug'i qanday shaklda? **Spiralsimon shaklda.**

1237. Achchiqbuta qaysi oylarda gullaydi? **Aperl-may oylarida gullaydi.**

1238. Achchiqbuta qaysi oylarda urug'laydi? **May-iyun oylarida urug'laydi.**

1239. Achchiqbuta qaysi viloyatlardagi qanday yerlarda o'sadi? **Buxoro va Surxondaryo viloyatlaridagi qumlarda va shag'alli yerlarda o'sadi.**

1240. Achchiq gikori daraxti qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi.**

1241. Achchiqmiya qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

1242. Achchiqmiya o'simligining bo'yi necha sm? **30 – 45 sm.**

1243. Achchiqmiya o'simligining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

1244. Achchiqmiya o'simligining barglari qanday shaklda? **Cho'zinchoq ellips shaklda.**

1245. Achchiqmiya o'simligining guli qaysi jonivor nusxa? **Kapalak nusxa.**

1246. Achchiqmiya o'simligining urug'lari diametri necha mm? **5 – 6 mm.**

1247. Achchiqmiya o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May – iyun oylarida gullaydi.**

1248. Achchiqmiya o'simligining mevalari qaysi oylarda pisha boshlaydi? **Iyul – avgust oylarida pisha boshlaydi.**

1249. Achchiqmiya o'simligi qanday o'simliklar jumlasiga kiradi? **Zaharli o'simliklar jumlasiga kiradi.**

1250. Achchiqmiya o'simligida necha foizgacha har xil alkaloidlar bor? **3 foizgacha har xil alkaloidlar bor.**

1251. Achchiqmiya o'simligining urug'larida necha foizgacha alkaloidlar bor? **4 foizgacha alkaloidlar bor.**

1252. Achchiqmiya o'simligining ildizlarida necha foizgacha alkaloidlar bor? **3 foizgacha alkaloidlar bor.**

1253. Achchiqmiya o'simligining o'zidan, urug'laridan, ildizlaridan qanday alkaloidlar ajratib olingan? **Paxikarpin, sofokarpin, soffamin, paxikarpidin va boshqa alkaloidlar ajratib olingan.**

1254. Achchiqmiya o'simligining urug'i va poyasida necha foiz alkaloid bor? **2,5 – 3 foiz alkaloid (asosan, paxikarnin, sofkarpin, aloperinlar) bor.**

1255. Achchiqmiya o'simligidan qaysi alkaloid olinadi? **Paxikarpin alkaloidi olinadi.**

1256. Achchiqmiya o'simligining urug'larida necha foizgacha moy bor? **5,5 foizgacha moy bor.**

1257. Achchiqmiya o'simligidan necha foizgacha organik kislotalar ajratib olinadi? **12,6 foizgacha organik kislotalar ajratib olinadi.**

1258. Achchiqmiya o'simligidan tayyorlangan galen preparatlarini xalq tabobatida qanday kasalliklarni yaxshilaydigan vosita sifatida ishlatiladi? **Og'riq qoldiradigan, qon bosimini tushiradigan, ovqat hazmini yaxshilaydigan vosita sifatida ishlatiladi.**

1259. Achchiqmiya o'simligidan tayyorlangan galen preparatlarini xalq tabobatida qanday kasallik davosiga tavsiya etiladi? **Gush kasalligi davosiga tavsiya etiladi.**

1260. Achchiqmiya o'simligidan tayyorlanadigan paxikarpin, gidroyodit tabletkalar va ampulalarga solingan eritmalar ko'rinishida zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarga shifo qilish uchun ishlatiladi? **Tug'ruqni tezlashtirish va qon ketishini to'xtatish uchun, gush, gipertoniya kasalliklariga davo qilish uchun ishlatiladi.**

1261. Achchiqmiya o'simligidan tayyorlanadigan paxikarpin qaysi a'zolar sistemalarini susaytirib qo'yadi? **Vegetativ asablar, buyrak usti bezlari, buyrak koptokchalari, shuningdek, skelet muskullarining N – xolinoreaktiv sistemalarini susaytirib qo'yadi.**

1262. Achchiqmiya o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Eron va Afg'onistonda tarqalgan.**

1263. Achchiqmiya o'simligidan olinadigan paxikarpin alkaloidi tibbiyotda qaysi kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladi? **Qon va teri kasalliklarini davolashda keng qo'llaniladi.**

1264. Achchiqtarvuz o'simligi qaysi oilaga mansub? **Qovoqdoshlarga mansub.**

1265. Achchiqtarvuz o'simligining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

1266. Achchiqtarvuz o'simligining vatani qayer? **Shimoli-Sharqiy Afrika.**

1267. Achchiqtarvuz o'simligi mevasining tarkibida qanday modda bor? **Glikozid moddasi bor.**

1268. Achchiqtarvuz o'simligi mevasidan nima sifatida foydalaniladi? **Surgi sifatida foydalaniladi**

1269. Achchiqtarvuz o'simligi palagining uzunligi necha m? **1 – 2 m.**

1270. Achchiqtarvuz o'simligining bargları qanday shaklda? **Uchburchak shaklda.**

1271. Achchiqtarvuz o'simligining mevasi qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

1272. Achchiqtarvuz o'simligi mevasining ta'mi qanday? **Achchiq.**

1273. Achchiqtarvuz o'simligining mevasi diametri necha sm? **7 – 12 sm.**

1274. Achchiqtarvuz o'simligining mevasi dastlab qanday rangli? **Och yashil rangli.**

1275. Achchiqtarvuz o'simligining mevasi pishishiga yaqin qanday rang bo'ladi? **Sarg'ish va qoramtir rangli bo'ladi.**

1276. Achchiqtarvuz o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Avgust-sentabr oylarida gullaydi.**

1277. Achchiqtarvuz o'simligi qaysi oylarda hosil beradi? **Oktabr-noyabr oylarida hosil beradi.**

1278. Achchiqtarvuz O'zbekistonda qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Dorivor o'simlik sifatida ekiladi.**

1279. Achchiqo't o'simligi qaysi oilaga mansub? **Sutlamadoshlar oilasiga mansub.**

1280. Achchiqo't o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi qum uyumlarida tarqalgan.**

1281. Achchiqo't necha yillik o't? **Bir yillik o't.**

1282. Achchiqo't o'simligining bo'yi necha sm? **8 – 15 sm.**

1283. Achchiqo't o'simligidan tibbiyotda qanday dori sifatida foydalaniladi? **Surgi dori sifatida foydalaniladi.**

1284. Achchiqo't o'simligining bargları qanday shaklda? **Tuxumsimon yoki to'garak shaklda.**

1285. Achchiqo't o'simligi barglarining bo'yi necha sm? **2,3 – 3 sm.**

1286. Achchiqo't o'simligi mevasi (ko'sagi)ning bo'yi necha mm? **4 – 4,5 mm.**

1287. Achchiqo't o'simligi urug'ining bo'yi necha mm? **3 – 3,5 mm.**

1288. Achchiqo't o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Aprel – iyul oylarida gullaydi.**

1289. Achchiqo't o'simligi qayerlarda o'sadi? **O'rta Osiyo va Orol bo'yi tekisliklarida o'sadi.**

1290. Ashersoniya qanday zamburug'lar avlodi? **Takomillashgan zamburug'lar avlodi.**

1291. Ashersoniya zamburug'i qaysi oilaga mansub zararkunanda hasharotlarning tabiiy kushandasi? **Oqqanotlar oilasiga mansub zararkunanda hasharotlarning kushandasi.**

1292. Ashersoniya zamburug'i zararkunanda hasharotlarning necha yoshdagi lichinkalarini shikastlaydi? **1 – 3 yoshdagi lichinkalarini shikastlaydi.**

1293. Ashersoniya zamburug'ining oqqanotlarga qarshi qo'llaniladigan juda ko'p nimalari mavjud? **Shakllari mavjud, masalan: vetnam qizil va sariq ashersoniyasi, kuba zarg'aldoq va qizil ashersoniyasi, yaponiya, hindiston ashersoniyasi va boshq. mavjud.**

1294. Ayan qarag'ayi qaysi dengizning shimoli-g'arbiy sohilidagi tog'larda o'sadi? **Oxota dengizining shimoli-g'arbiy sohilidagi Jugjur tog'lari (Rossiya Federatsiyasining Xabarovsk o'lkasi)da o'sadi.**

1295. Aqoqiyo, arab yelimi, gummiarabik, asosan, qayerlarda o'sadigan qaysi o'simlikdan olinadi? **Afrika va Arabistonda o'sadigan aktsiyadan olinadi.**

1296. Aqoqiyo Sharq tabobatida, jumladan, O'rta Osiyo tabobatida juda qadimdan nima sifatida ishlatilgan? **Dori sifatida ishlatiladi.**

1297. Aqoqiyo tibbiyotda, sanoatda nimalar tayyorlashda qo'llaniladi? **Emulsiya, tabletka, hobdori; sanoatda gazlamalarni ohorlash, turli bo'yoqlar tayyorlashda qo'llaniladi.**

1298. AQShning qaysi shtati makkajo'xori shtati deb ataladi? **Ayova shtati.**

1299. Ahroriy, Xo'ja Ahroriy qayerda yaratilgan ertapishar o'rik navi? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**

1300. Ahroriy navli o'rik tarkibida necha foiz qand, kislota bor? **12,3 foiz qand, 0,8 foiz kislota bor.**

1301. Ahroriy navli o'rik ko'chati ekilgandan keyin nechanchi yili hosilga kiradi? **5 – 6-yili hosilga kiradi.**

1302. Ahroriy navli o'rik daraxti 20 – 25 yoshida qancha kg meva beradi? **60 – 70 kg.**

1303. Ahroriy navli o'rik qachon pishadi? **Iyun oyining o'rtalarida pishadi.**

1304. Ahroriy navli o'rik daraxtining tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

1305. Ahroriy navli o'rik daraxti qanday shox-shabbali? **Keng shox-shabbali.**

1306. Ahroriy navli o'rik daraxtining bargi qanday? **Yirik.**

1307. Ahroriy navli o'rik daraxtining guli qanday rangda? **Oq rangda.**

1308. Ahroriy navli o'rik daraxtining 1 dona mevasi og'irligi qancha g? **40 – 45 g.**

1309. Ahroriy navli o'rik daraxtining mevasi qanday rangli? **Och sariq, qizil, ba'zan zarg'aldoq rangli.**

1310. Ahroriy navli o'rik daraxtining mevasi eti qanday? **Qalin, sershira.**

1311. Ahroriy navli o'rikning mag'zi mazasi qanday? **Shirin.**

1312. Ahroriy navli o'rik daraxti qanday joylarda ham o'sadi? **Sho'rlangan va yer osti suvlari yuzaroq joylarda ham o'sadi.**

1313. Ahroriy navli o'rik qachon iste'mol qilinadi? **Ho'lligida.**

1314. Badan, mo'g'ul choyi qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Toshyorarlar (toshyorargullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

1315. Badan choyi o'simligining O'rta Osiyoda qancha turi bor? **Bir necha turi bor.**

1316. Badan, mo'g'ul choyi o'simligining nechta turi Rossiya Federatsiyasida o'sadi? Ular qaysilar? **Uchta turi. Ular: Tinch okean badani, Gorbukov badani va yo'g'on bargli badan o'sadi.**

1317. Badan, mo'g'ul choyi o'simligining qaysi turi O'zbekistonning qaysi viloyati tog'larida uchraydi? **Surxondaryo viloyati tog'larida B. hissarica turi uchraydi.**

1318. Badan, mo'g'ul choyi o'simligining gullari qanday? **Chiroyli.**

1319. Badan, mo'g'ul choyi o'simligining gullari rangi qanday? **Qizil yoki binafsha.**

1320. Badan, mo'g'ul choyi o'simligining ildizi va poyasida necha foizgacha oshlovchi moddalar bor? **28 foizgacha oshlovchi moddalar bor.**

1321. Badan, mo'g'ul choyi o'simligida qanday moddalar bor? **Arbutin, glyukozali va bo'yoq moddalar bor.**

1322. Badan, mo'g'ul choyi o'simligining ildizi va poyasida qanday moddalar bor? **Arbutin glyukozidi va bo'yoq moddalar bor.**

1323. Badan, mo'g'ul choyi o'simligi qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

1324. Badan, mo'g'ul choyi o'simligining ildizpoyasidan nimalar olinadi va qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Ildizpoyasidan olinadigan ekstrakt stomatit, kolit, enterokolit va ginekologik kasalliklarni davolashda ishlatiladi.**

1325. Badyagalar – chuchuk suv bulutlarining bir nimasi? **Oilasi.**

1326. Badyagalar qanday shakllarda suv ostidagi narsalarga yopishib yashaydi? **Shoxcha, po'stloq va boshq. shakllarda suv ostidagi narsalarga yopishib yashaydi.**

1327. Badyagalarning rangi qanday? **Sariq, yashil yoki qizg'ish.**

1328. Badyagalarning skeleti qaysi kimyoviy elementdan tuzilgan necha o'qli igna shaklida bo'lib, organik modda – spongin bilan bir-biriga yopishgan? **Kremniydan tuzilgan bir o'qli igna shaklida.**

1329. Badyagalar qanday yo'llar bilan ko'payadi? **Bo'linish, kurtaklanish va jinsiy yo'llari bilan ko'payadi.**

1330. Badyagalarning ko'pchiligi qaysi faslda mustahkam qobiq bilan o'ralgan ichki kurtaklar – gemmulalar hosil qiladi? **Kuzda.**

1331. Badyagalarning gemmulalari qachon yosh bulutlarga aylanadi? **Qishlab, bahorda.**

1332. Badyagalar qayerlarning daryo va ko'llarida yashaydi? **Yevropa va Osiyoning daryo va ko'llarida yashaydi.**

1333. Badyagalar meditsinada qanday kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Revmatizm, nevrologiya va boshq. kasalliklarni davolashda ishlatiladi.**

1334. Ba'zan butasimon lishayniklar qaysi jonivorlarning asosiy ovqati hisoblanadi? **Bug'ularning asosiy ovqati hisoblanadi.**

1335. Ba'zi suvo'tlarning hujayrasi asosan, nimadan iborat? **Yadrodan iborat.**

1336. Ba'zi xalqlarda uydan ketgan dushmanning boshqa qaytib kelmasligi uchun uning ketidan qaysi o'simlik yoqib tutatilgan? **Archa yoqib tutatilgan.**

1337. Ba'zi qismlarida tabiiy kauchuk hosil bo'ladigan daraxtlar qanday daraxtlar? **Kauchukli daraxtlar.**

1338. Bazidiomitsetlar, bazidiyali zamburug'lar yuksak zamburug'lar sinfi, jinsiy jarayonda maxsus jinsiy ko'payish a'zolari nimalar hosil qilish xususiyatiga ega? **Bazidiyalar hosil qilish xususiyatiga ega.**

1339. Bazidiomitsetlarning ko'pchiligi qanday xususiyatga ega? **Geterotallik xususiyatiga ega.**

1340. Bazidiomitsetlarning qancha turi ma'lum? **30 mingdan ortiq turi ma'lum.**

1341. Bayera qaysi oilaga mansub qadimgi o'simliklar turkumi? **Ginkgodoshlar oilasiga mansub qadimgi o'simliklar turkumi.**

1342. Bayera o'simligining qancha turi ma'lum? **20 ga yaqin turi ma'lum.**

1343. Bayera o'simligidan nechta turi O'zbekistonning qaysi vodiysida o'sganligi isbotlangan? **3 ta turi Farg'ona vodiysida o'sganligi isbotlangan.**

1344. Bayera o'simligining bargi qanday tomirli? **Dixatom tomirli.**

1345. Bayera o'simligining bargi qanday shakida? **Yarim to'garak yoki keng pona shaklida.**

1346. Bayera o'simligining bargi qayerigacha ayrim shoxlanib, necha marta bo'lingan? **Asosigacha, bir necha marta bo'lingan.**

1347. Bayera bargi nimalariga binoan turlarga ajratiladi? **Bo'linishi va tomirlanishiga binoan turlarga ajratiladi.**

1348. Baytqo'rg'oniy-o'rtapishar qovun navining nomi nimani anglatadi? **Toshkent shahri yaqinidagi Baytqo'rg'on qishlog'i nomidan olinganligini anglatadi.**

1349. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning shakli qanday? **Tuxumsimon.**

1350. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning sirti qanday? **Tekis, dag'alroq, yoppasiga to'r bilan qoplangan.**

1351. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning rangi qanday? **Sariq.**

1352. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning po'sti qanday? **Qalin.**

1353. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning eti qanday rangli? **Oq rangli.**

1354. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovun unib chiqqanidan so'ng necha kunda pishadi? **85 – 93 kunda pishadi.**

1355. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning eti qalinligi necha sm? **4,5 – 5 sm.**

1356. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovun tarkibida necha foiz qand bor? **7,3 – 9,4 foiz.**

1357. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning hosildorligi qancha s/ga? **200 – 300 s/ga.**

1358. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning uzunligi necha sm? **30 – 36 sm.**

1359. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 6 kg**

1360. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovun uzoq joylarga yuborishga va saqlashga qanday? **Chidamli.**

1361. Baytqo'rg'oniy navli o'rtapishar qovun qaysi viloyatlarda ekiladi? **Toshkent, Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida ekiladi.**

1362. Bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar kabi tabiatda muhim rol o'ynaydigan mikroorganizmlar haqidagi fanning nomi nima? **Mikrobiologiya.**

1363. Balanoforalar necha pallali o'simliklar tarkibi, o'simliklar ildizida parazitlik qiladigan etdor o'tlar? **Ikki pallali o'simliklar tarkibi, o'simliklar ildizida parazitlik qiladigan etdor o'tlar.**

1364. Balanofora o'simligining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

1365. Balanoforadoshlar oilasiga nechta turkum, qancha tur kiradi? **18 ta turkum, 120 ga yaqin tur kiradi.**

1366. Balanofora o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Tropik va qisman subtropik mintaqalarda, asosan, nam tropik o'rmonlarda tarqalgan.**

1367. Balanofora o'simligining ba'zi turlari sham uchun ishlatiladigan qanday moddaga, boshqalari qanday moddaga boy? **Mumsimon qatronga, boshqalari kraxmalga boy.**

1368. Baliqko'z qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

1369. Baliqko'z o'tning tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **Tarkibida (gullagan paytida) 40 – 50 foiz kul. 10,5 foiz protein, 11,5 foiz kletchatka va 1,5 foiz moy, poya va barglarida esa 1,3 foiz kislota bor.**

1370. Baliqko'z o't qayerda o'sadi? **O'zbekistonda o'sadi.**

1371. Baliqko'z o'tning bo'yi necha sm? **5 – 50 sm.**

1372. Baliqko'z o'tning poyasi qanday? **Tukli.**

1373. Baliqko'z o'tning barglari qanday? **Mayda, etdor.**

1374. Baliqko'z o'tning barglari poyada qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

1375. Baliqko'z o'tning mevasi qizg'ish yoki sarg'ish pardasimon nimalarga ega? **Qanotchalarga ega.**

1376. Baliqko'z o't qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

1377. Baliqko'z o'tning mevasi qaysi oyda pishadi? **Oktabr oyida pishadi.**

1378. Baliqko'z o't O'rta Osiyo hududidagi cho'l mintaqalarida qanday tuproqlarda o'sadi? **Sho'r (taqir) va sho'rxok tuproqlarda o'sadi.**

1379. Baliqko'z o'tining O'zbekistonda qancha turi tarqalgan? **Bir necha turi tarqalgan.**

1380. Balzamli o'simliklar qanday o'simliklar? **Tanasida balzam bo'ladigan o'simliklar.**

1381. Balzamli o'simliklar, asosan, qanday iqlimli mamlakatlarda, qisman qaysi kengliklarda tarqalgan? **Issiq va mo'tadil iqlimli mamlakatlarda, qisman shimoliy va o'rtacha kengliklarda tarqalgan.**

1382. Balzamli o'simliklarning qaysi turlari juda mashhur? **Miroksilon pereiray (myroxylon pereiree), toluifera balzamum (Toyifera balsamum) va kapaifera (Copaifera) kabi turlari juda mashhur.**

1383. Balzamli o'simliklardan mikroksilon pereiray qayerlarda qanday holda o'sadi? **San-Salvadorda va Markaziy Amerikada yovvoyi holda o'sadi.**

1384. Balzamli o'simliklardan mikroksilon pereiray qaysi orolda ekib o'stiriladi? **Shri Lanka orolida ekib o'stiriladi.**

1385. Balzamli o'simliklardan mikroksilon pereiraydan qaysi balzam olinadi? **Peru balzami olinadi.**

1386. Balzamli o'simliklardan toluifera qayerlarda tarqalgan? **Kolumbiya va Venesuelada tarqalgan.**

1387. Balzamli o'simliklardan toluiferadan qanday balzam olinadi? **Poru balzami olinadi.**

1388. Balzamli o'simliklardan kopaifera qayerning issiq mintaqalarida tarqalgan? **Janubiy Amerikaning issiq mintaqalarida tarqalgan.**

1389. Balzamli o'simliklardan kopoiferadan qanday balzam olinadi? **Kopay balzami olinadi.**

1390. Balzamli o'simliklardan qayerda uchraydigan likvidambar yoki stiraks (Ligudambar orientalis) daraxtidan xushbo'y suyuq balzam tiraks olinadi? **Suriyada uchraydigan.**

1391. Balxi tut qaysi oilaga mansub daraxt? **Tutdoshlar (tutsimonlar) oilasiga mansub daraxt.**

1392. Balxi tut daraxtining shox-shabbasi kengligi va balandligi necha m? **18 – 20 m.**

1393. Balxi tut daraxtining har tupidan qancha kg gacha barg olinadi? **12 – 30 kg gacha barg olinadi.**

1394. Balxi tut daraxtining vatani qayer? **Hozirgi Afg'oniston (Balx shahri nomidan).**

1395. Balxi tut daraxti qayerda ko'p? **G'arbiy va Janubiy Osiyoda ko'p.**

1396. Balxi tut daraxti qanday yo'l bilan yaratilgan? **Xalq seleksiyasi yo'li bilan.**

1397. Balxi tut daraxti O'zbekistonda, asosan, nimasi uchun etishtiriladi? **Mevasi uchun.**

1398. Balxi tut daraxti bargidan qaysi jonivorni boqishda ham foydalaniladi? **Ipak qurtini boqishda.**

1399. Balxi tut daraxti bargining to'yimlilik darajasi qanday? **Juda yaxshi (ayniqsa, 4 – 5 yoshlik qurt uchun).**

1400. Balxi tut daraxtining shox-shabbasi qanday o'sadi? **Tarvaqaylab o'sadi.**

1401. Balxi tut daraxtining mevasi qanday? **To'pmeva, oq, shirin, urug'siz.**

1402. Balxi tut daraxtining bargi, rangi qanday? **Seret, silliq, to'q yashil.**

1403. Balxi tut kattaligi o'rtacha bo'lib, bo'yi necha sm? **18 sm.**

1404. Balxi tut daraxtining mevasi qanday hollarda iste'mol qilinadi? **Yangiligida va quritilgan hollarda iste'mol qilinadi.**

1405. Balxi tut daraxti mevasidan nimalar tayyorlanadi? **Tutmayiz, tut holvasi, shinni tayyorlanadi.**

1406. Balxi tut daraxti sovuqqa qanday? **Chidamli.**

1407. Balxi tut daraxti qanday yo'l bilan ko'paytiriladi? **Payvand qilish yo'li bilan ko'paytiriladi.**

1408. Bambuk qaysi oilaga mansub o'simlik? **Boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

1409. Bambuk o'simligining qancha turi ma'lum? **200 dan ortiq turi ma'lum.**

1410. Bambuk o'simligining bo'yi necha m gacha boradi? **40 m gacha boradi.**

1411. Bambuk o'simligining poyasi diametri necha sm gacha? **30 sm gacha.**

1412. Bambuk o'simligining ba'zi turlari necha yilda gullaydi? **Ba'zilari har yili.**

1413. Bambuk o'simligining boshqa turlari necha yilda gullaydi? **Bir necha yilda gullaydi.**

1414. Bambuk o'simligi yer yuzining qanday iqlimli hududlarida o'sadi? **Nam iqlimli tropik hudularida o'sadi.**

1415. Bambuk o'simligining Saxalin va Kuril orollaridagi igna bargli va yaproqli o'rmonlarining soya joylarida nechta turi o'sadi? **6 ta turi o'sadi.**

1416. Bambuk o'simligi tolasidan nima tayyorlanadi? **Qog'oz tayyorlanadi.**

1417. Bambuk o'simligining ayrim turlari shirasidan qanday modda olinadi? **Qand moddasi olinadi.**

1418. Bambuk keyingi vaqtlarda qaysi sohillarda ham ekila boshlangan? **Qora dengizning Kavkaz va Qrim sohillarida ham ekila boshlangan.**

1419. Bamiya, Gambo qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Gulxayridoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

1420. Bamiya, Gambo o'simligi navlari nimalar beradigan guruhlarga bo'linadi? **Sabzavot va tola beradigan guruhlarga bo'linadi.**

1421. Bamiya, Gambo o'simligining tola olinadigan navlari qayerlarda ekiladi? **Hindiston, Afrika va Amerikada ekiladi.**

1422. Bamiya, Gambo o'simligi tashqi ko'rinishi va gullashi bilan qaysi o'simlikka o'xshaydi? **G'o'zaga o'xshaydi.**

1423. Bamiya o'simligining vatani qayer? **Sharqiy Afrika.**

1424. Bamiya, Gambo o'simligining bo'yi necha m gacha? **2,5 m gacha.**

1425. Bamiya, Gambo o'simligining mevasida necha foiz oqsil, yog', uglevodlar bor? **3 foiz oqsil, 0,5 foiz yog', 8 foiz uglevodlar bor.**

1426. Bamiya, Gambo o'simligining pishgan mevasi tarkibida necha foiz moy bor? **18 foiz.**

1427. Bamiya, Gambo o'simligining dumbul mevasi nimalarga solinadi? **Sho'rva, salat, konservaga solinadi.**

1428. Bamiya, Gambo o'simligining poyasidagi dag'al tolalari, urug'i qayerlarda ishlatiladi? **Arqon qilishda, urug'i qovurilgan sun'iy kofe tayyorlashda ishlatiladi.**

1429. Bamiya, Gambo o'simligining mevasini nima qilish mumkin? **Xomligicha yeyish, pishirish, qovurish, konservalash mumkin.**

1430. Bamiya, Gambo o'simligining poyasi qanday tola beradi? **Oq dag'al tola beradi.**

1431. Bamiya o'simligining qovurilgan urug'idan sun'iy nima tayyorlanadi? **Kofe tayyorlanadi.**

1432. Bamiya o'simligi asosan, qayerlarda, sabzavot ekini sifatida yetishtiriladi? **Tropik, subtropik mamlakatlarda, Shimoliy Amerika, Janubiy Yevropa, Zakavkaze, Qrim, Ukrainaning janubi, qisman O'rta Osiyoda yetishtiriladi.**

1433. Banan qaysi oilaga mansub necha yillik tirik o'simlik? **Banansimonlar oilasiga mansub ko'p yillik tirik o'simlik.**

1434. Banan o'simligining vatani qayer? **Afrika va Osiyoning tropik va subtropik zonalari hamda Malayya arxipelagi.**

1435. Banan o'simligi, asosan, qaysi mamlakatlarda o'stiriladi? **Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'stiriladi.**

1436. Banan o'simligining mevasi qanday meva? **Rezavor meva.**

1437. Banan o'simligining bir tupida nechtagacha mevasi bor? **300 tagacha mevasi bor (60 kg gacha).**

1438. Banan o'simligining bo'yi necha m gacha? **15 m gacha.**

1439. Banan o'simligining bargi uzunligi necha m gacha? **4 m gacha.**

1440. Banan o'simligining bir mevasi uzunligi necha sm gacha? **15 sm gacha.**

1441. Banan o'simligining mevasi diametri necha sm? **3 – 4 sm.**

1442. Banan o'simligining mevasi qanday rangli? **Sarg'ish rangli.**

1443. Banan o'simligining mevasi eti rangi, ta'mi qanday? **Oqish, shirin.**

1444. Banan o'simligining qancha turi bor? **40 ga yaqin turi ma'lum.**

1445. Banan etining tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **75 – 76 foiz suv, 15 – 20 foiz qand, 5 – 8 foiz kraxmal, 1,5 foiz oqsil, 0,3 – 0,6 foiz moy bor.**

1446. Banan o'simligi qanday usulda meva hosil qiladi? **Partenokarpiya usulida (otalanmasdan) meva hosil qiladi, shuning uchun urug'i puch.**

1447. Banan o'simligining mevasi qanday holda iste'mol qilinadi? **Ho'lligicha hamda quritilgan holda iste'mol qilinadi.**

1448. Banan o'simligining ko'pchilik turlari mevasi nimaga yaramaydi? **Eyishga yaramaydi.**

1449. Banan o'simligi nimalari yordamida ko'payadi? **Bachkilari yordamida ko'payadi.**

1450. Banan o'simligining ayrim turlaridan qayerda qo'llaniladigan nimalar tayyorlashda ishlatiladigan tola (abaka) olinadi? **Dengizchilikda qo'llaniladigan arqonlar, baliq ovlash to'rlari tayyorlashda ishlatiladigan tola (abaka) olinadi.**

1451. Banan o'simligining xushmanzara daraxt sifatida qayerlarda o'stirilgan turlari ham bor? **Ko'chalar, parklar va uylarda o'stirilgan turlari ham bor, masalan, yapon banani turlari ham bor.**

1452. Bangidevona – Datura L. qaysi oilaga mansub necha yillik o't o'simlik? **Ituzumdoshlar oilasiga mansub bir yillik yoki ko'p yillik o't o'simlik.**

1453. Bangidevona o'simligining bo'yi necha sm gacha? **60-150 sm gacha.**

1454. Bangidevona o'simligi nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

1455. Bangidevona o'simligining mevasi rangi yashil bo'lib, nima bilan qoplangan necha chanoqli tuxumsimon ko'sakcha? **Tikan bilan qoplangan to'rt chanoqli tuxumsimon ko'sakcha.**

1456. Bangidevona o'simligining mevasi uzunligi necha sm gacha? **4,5 sm gacha.**

1457. Banyan, banan qaysi turkumga kiradigan nechta tur daraxtning nomi? **Fukuslar turkumiga kiradigan 2 ta tur daraxtning nomi.**

1458. Banyan daraxtining Kalkutta botanika bog'ida o'sayotgan 150 yoshdagisining shox-shabbasi aylanasi necha m? **300 m.**

1459. Banyan daraxtining Kalkutta botanika bog'ida o'sayotgan 150 yoshdagisining ustunsimon ildizlarining soni qancha? **300 dan ortiq.**

1460. Banyan daraxtining qaysi turi bahaybat bo'lib, shoxlaridan chiqadigan havo ildizlaridan rivojlanadi? **Avliyo fikus (F. religiosa) turi.**

1461. Banyan daraxti qayerda o'sadi? **Hindistonda o'sadi.**

1462. Banyan daraxtining mevasi nima qilinadi? **Yeyiladi.**

1463. Banyan daraxtining yosh navdalarida qimmatbaho qanday modda hosil bo'ladi? **Smola-shellak hosil bo'ladi.**

1464. Banyanning bengal fikusi (Ficus bengalensis) qanday o'sadigan bahaybat daraxt? **Yer bag'irlab o'sadigan bahaybat daraxt.**

1465. Banyan daraxtining bengal fikusi turi urug'ini, odatda, qaysi jonivorlar tarqatadi? **Qushlar tarqatadi.**

1466. Banyan daraxtining ingichka tanasi ko'pdan-ko'p qanday ildizlar hosil qiladi? **Havo ildizlari hosil qiladi.**

1467. Banyan daraxtining ingichka tanasidagi havo ildizlari qayoqqa qarab tez o'sadi va nimaga o'rnashgan qismi shoxlanib ketadi? **Pastga qarab tez o'sadi va tuproqqa o'rnashgan qismi shoxlanib ketadi.**

1468. Banyan daraxti qaysi davlatda o'sadi? **Hindistonda o'sadi.**

1469. Banyan daraxtining shox-shabbasi *juda nima qiladi?* **O'sib ketadi.**

1470. Banyan daraxtining bir dona urug'idan katta nima paydo bo'ladi? **Chakalakzor paydo bo'ladi.**

1471. Banyan daraxtining qaysi a'zolari g'oyat katta shox-shabba uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi? **Ildizlari g'oyat katta shox-shabba uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.**

1472. Baobab daraxti qaysi oilaga mansub? **Bombaksdoshlar (bombakslar) oilasiga mansub.**

1473. Baobab daraxti Afrikaning qayerlarida o'sadi? **Savannalarida o'sadi.**

1474. Baobab daraxtining murakkab bargları shakli qanday? **Panjasimon.**

1475. Baobab daraxtining bargları yilning qanday, qaysi faslida to'kiladi? **Qurg'oq issiq faslida to'kiladi.**

1476. Baobab daraxtining mevaları shakli qanday? **Bodringsimon.**

1477. Baobab daraxtining bodringsimon mevaları yilning qanday paytida pishadi? **Issiq paytida pishadi.**

1478. Baobab daraxtining shox-shabbası katta maydonni egallagan bo'lib, aylanması necha m? **45 m.**

1479. Baobab daraxtining guli qanday? **Yirik.**

1480. Baobab daraxtining rangi qanday? **Oq.**

1481. Baobab daraxtining guli diametri necha sm? **20 sm.**

1482. Baobab daraxtining balandligi necha m? **18 – 20 m.**

1483. Baobab daraxtining tanasi diametri necha m? **4 – 10 m.**

1484. Baobab daraxti necha yil yashaydi? **5000 yil yashaydi.**

1485. Baobab daraxtining po'stlog'i nima eshish, qanday gazlama to'qishda ishlatiladi? **Arqon eshish, dag'al gazlama to'qishda ishlatiladi.**

1486. Barbos g'o'zasi qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**

1487. Barbos g'o'zasi nechanchi yilda qaysi olimlar tomonidan birinchi marta ta'riflab berilgan? **1963-yilda Klement va Fillipslar tomonidan ta'riflab berilgan.**

1488. Barbos g'o'zasining vatani qaysi orollar? **Yashil Burun orollari.**

1489. Barbos g'o'zasi qanday o'sadigan necha yillik buta? **Tik o'sadigan ko'p yillik buta.**

1490. Barbos g'o'zasining bo'yi necha m? **1 – 2 m.**

1491. Barbos g'o'zasining barg plastinkalari qanday? **Kertikli.**

1492. Barbos g'o'zasining bargi necha bo'lmali? **5 – 7 bo'lmali.**

1493. Barbos g'o'zasining bargi qanday shaklda? **Tuxumsimon – oval shaklda.**

1494. Barbos g'o'zasining gulbargları qanday rangli? **Och sariq rangli.**

1495. Barbos g'o'zasining ko'saklari necha chanoqli? **3 – 4 chanoqli.**

1496. Barbos g'o'zasining ko'saklari qanday shaklda? **Uzunchoq shaklda.**

1497. Barbos g'o'zasining ko'saklari qanday bezchalar bilan qoplangan? **Qora smola bezchalar bilan qoplangan.**

1498. Barbos g'o'zasi ko'sagidagi har bir chanog'ida necha mm gacha uzunlikdagi qo'ng'ir tuklar bilan qoplangan nechta mayda chigiti bor? **6 mm gacha, 4 – 6 ta mayda chigiti bor.**

1499. Barg hujayrasi yoki to'qimasining qurib qolishiga nima deyiladi? **Barg nekrozi (yunon. necrosis-o'lik) deyiladi.**

1500. Bargni sovuq yoki oftob (quyosh) urishi, biror sabab bilan jarohatlanishi, kimyoviy moddalar ta'siri, shuningdek, bakteriya va zamburug'larning zararlanishi natijasida barg yaprog'ida qanday dog'lar paydo bo'ladi? **Sariq, qizg'ish va qora dog'lar paydo bo'ladi.**

1501. Barg og'izchasi barg sathining juda oz qismini, hatto og'izchalar katta ochilgan holatda ham necha foizdan ortig'ini egallamaydi? **1 foizdan ortig'ini egallamaydi.**

1502. Barg og'izchasi qanday jarayonlarda muhim rol o'ynaydigan tutashuvchi hujayralarning harakati tufayli ochilib-yumilib turadi? **Gaz almashinishi, transpiratsiya va fotosintez jarayonlarida muhim rol o'ynaydigan tutashuvchi hujayralarning harakati tufayli ochilib-yumilib turadi.**

1503. Barg og'izchasi nimaning o'tishini ta'minlash uchun ochiladi? **Fotosintez ro'y berishi va hujayraga karbonat angidridning o'tishini ta'minlash uchun ochiladi.**

1504. Barg og'izchasi nima uchun yumiladi? **Havo haddan tashqari quruq bo'lganda suv bug'lanishining oldini olish uchun yumiladi.**

1505. Barg og'izchasining ochilishi va yumilishi faol jarayon bo'lib, nima sarf bo'lishi bilan boradi? **ATF sarf bo'lishi bilan boradi.**

1506. Barg og'izchasi qanchalik keng ochilsa, barg qanday moddaga shunchalik yaxshi to'yinadi? **Suvga shunchalik yaxshi to'yinadi.**

1507. Barglar nimani yo'qotishi bilan og'izchalar yumila boshlaydi? Namni yo'qotishi bilan og'izchalar yumila boshlaydi.

1508. Bargizub qaysi oilaga mansub kalta poyali ko'p yillik o't? **Zubturumdoshlar (zubturumgullilar) oilasiga mansub kalta poyali ko'p yillik o't.**

1509. Bargizub o'tining bargi shakli qanday? **Nashtarsimon.**

1510. Bargizub o'tining mevasi necha uyali ko'sakcha? **Ikki uyali.**

1511. Bargizub o't qaysi oydan qaysi oygacha gullab, pesh-ma-pesh urug'laydi? **May oyidan sentabr oyigacha gullab, peshma-pesh urug'laydi.**

1512. Bargizub o't qayerlarda o'sadi? **Yo'l yoqalarida, ariq, kanal, daryo va buloq bo'ylarida, bog'larda va adirlarda o'sadi.**

1513. Bargizub o't urug'ida necha foiz moy va shilimshiq modda bor? **15 – 20 foiz moy va 9,97 foiz shilimshiq modda bor.**

1514. Bargizub o'tining bargida qanday moddalar bor? **Bargida glyukozid, limon kislota, fermentlar, kaliy tuzlari, 9,97 foiz shilimshiliq modda bor.**

1515. Bargizub o'tining bargidan tayyorlangan ekstrakt qaysi jarohatlarni davolashda va nima ketishini to'xtatishda ishlatiladi? **Bargidan tayyorlangan ekstrakt lat egan, kesilgan, ko'kargan va yallig'langan jarohatlarni davolashda va qon ketishini to'xtatishda ishlatiladi.**

1516. Bardi, qiyoq qaysi oilaga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi (urug'i)? **Bardidoshlar (bardigullilar) oilasiga mansub.**

1517. Bardi, qiyoq o'simligi qanday o'sadi? **To'p-to'p holda o'sadi.**

1518. Bardi, qiyoq o'simligining poyasi necha qirrali? **Uch qirrali.**

1519. Bardi, qiyoq o'simligining bargi shakli qanday? **Tasma (lenta)simon.**

1520. Bardi, qiyoq o'simligining bargi nimasiz? **Tilchasiz.**

1521. Bardi, qiyoq o'simligining bargi qanday qirli? **Yopiq qirli.**

1522. Bardi, qiyoq o'simligining bargi qanday (yumshoqmi yoki qattiqmi)? **Qattiq.**

1523. Bardi, qiyoq o'simligining bargi chetlari qanday? **G'adir-budur.**

1524. Bardi, qiyoq o'simligining guli qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

1525. Bardi, qiyoq o'simligining guli rangi qanday? **Rangsiz.**

1526. Bardi, qiyoq o'simligining guli necha jinsli? **Bir yoki ikki jinsli.**

1527. Bardi, qiyoq o'simligi necha uyli? **Ikki uyli.**

1528. Bardi, qiyoq o'simligining guli shakli qanday? **Ro'vaksimon, soyabonsimon.**

1529. Bardi, qiyoq o'simligining mevasi qanday? **Yong'oqcha.**

1530. Bardi, qiyoq o'simligi ko'pincha qanday iqlimli mamlakatlarda o'sadi? **Mo'tadil va sovuq iqlimli mamlakatlarda o'sadi.**

1531. Bardi, qiyoq o'simligining qancha turi bor? **2000 ga yaqin turi bor.**

1532. Bardi, qiyoq o'simligi sobiq Ittifoqning hamma zonalarida qancha turi bo'lgan? **400 ga yaqin turi bo'lgan.**

1533. Bardi, qiyoq o'simligi ko'proq qayerlarda o'sadi? **O'rmonlarda – zax, botqoq yerlarda o'sadi.**

1534. Bardi, qiyoq o'simligining qaysi turi dori sifatida ishlatiladi? **Qumloq bardi turi dori sifatida ishlatiladi.**

1535. Bardi, qiyoq o'simligining mollarga ozuqa qimmati qanday? **Kam.**

1536. Bardi, qiyoq o'simligining ba'zi turlari, masalan, qumloq bardi o'simligi nima sifatida ishlatiladi? **Dori sifatida ishlatiladi.**

1537. Bardidoshlar, bardigullilar necha yillik, necha pallali o'simliklar oilasi? **Ko'p yillik, ba'zan bir yillik, bir pallali o'simliklar oilasi.**

1538. Bardidoshlarga qaysi o'simliklar kiradi? **Bardidoshlarga bardi (qiyoq) salomalaykum, qamish, papirus va boshqalar kiradi.**

1539. Bardidoshlar nechta turkum va turni o'z ichiga oladi? **85 ta turkum (urug'), 3500 ta turni o'z ichiga oladi.**

1540. Bardidoshlar yer sharining qaysi zonalarida uchraydi? **Hamma zonalarida uchraydi.**

1541. Bardidoshlarning bir qancha turi qayerlarda uchraydi? **Asosan, zax, botqoq yerlarda, o'rmon va tundrada, tog' va yaylovlarda uchraydi.**

1542. Bardidoshlarning nechta turkumi (urug'i), turi sobiq Ittifoqda uchragan? **2 ta turkumi (urug'i), 533 ta turi uchragan.**

1543. Barcha hayotiy tsikllari bir vegetatsiya davrida, ya'ni bir yil davomida urug'idan unib chiqib, o'sib, gullaydigan va nasl qoldirib, quriydigan o'simliklar qanday o'simliklar? **Bir yillik o'simliklar.**

1544. Barcha ruderal g'o'zalar polimorfizmning ma'lum darajada qanday jihatlari bilan ajralib turadi? **O'zgaruvchanligi, tezpisharligi, chigitning tuklanishi, katta-kichikligi va h.k. bilan ajralib turadi.**

1545. Bastardo vinobop uzum qaysi davlatdan keltirilgan? **Portugaliyadan keltirilgan.**

1546. Bastardo vinobop uzumning guli necha *jinsli*? **Ikki jinsli.**

1547. Bastardo vinobop uzumning tarkibida qand necha foiz? **28 – 32 foiz.**

1548. Bastardo vinobop uzumning tupi qanday o'sadi? **O'rtacha, ba'zan zaifroq o'sadi.**

1549. Bastardo vinobop uzum boshi qanday shaklda? **Silindrkonussimon shaklda.**

1550. Bastardo vinobop uzum boshining og'irligi qancha g? **90 – 120 g.**

1551. Bastardo vinobop uzum faol harorat yig'indisi qancha °C bo'lganda necha kunda pishadi? **Harorat 2900° C – 3100° C bo'lganda 145 – 150 kunda pishadi.**

1552. Bastardo vinobop uzum qachon yetiladi? **Sentabr oyining 2-yarmida yetiladi.**

1553. Bastardo vinobop uzum hosildorligi qancha s/ga? **100 – 120 s/ga.**

1554. Bastardo vinobop uzum sovuqqa qanday chidamli? **O'rtacha chidamli.**

1555. Batat, shirin kartoshka qaysi oilaga mansub ko'p yillik issiqsevar o'simlik? **Pechakguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik issiqsevar o'simlik.**

1556. Batat, shirin kartoshka qayerlarda o'stiriladi? **Zakavkaze, O'rta Osiyo (Turkmaniston, Tojikiston)da o'stiriladi.**

1557. Batat, shirin kartoshkaning vatani qayer? **Meksika va Markaziy Amerika.**

1558. Batat o'simligi oziq-ovqat sifatida qaysi sanoatda ishlatiladi? **Konserva, kraxmal-qiyom va spirt sanoatida ishlatiladi.**

1559. Batat o'simligi qadimdan qaysi davlatda ekib kelingan? **Xitoyda ekib kelingan.**

1560. Batat o'simligi qaysi davlatlarda ekiladi? **Yaponiya, AQSh, Ispaniya, Hindiston va boshq. davlatlarda ekiladi.**

1561. Batat, shirin kartoshka tuganagi (kartoshkasi) qancha kg? **0,2 – 0,5 kg.**

1562. Batat, shirin kartoshkaning ayrimlari qancha kg gacha? **Ayrimlari 1 – 3 kg gacha.**

1563. Batat, shirin kartoshkaning tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **24 – 28 foiz azotsiz ekstraktiv va 42 foizgacha quruq moddalar bor.**

1564. Batat o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **200 – 300 s/ga.**

1565. Batat o'simligi nimasidan ko'paytiriladi? **Qalamchasidan ko'paytiriladi.**

1566. Batat o'simligi qaysi oylarda issiqxonalarda chiqqan o'simtalardan qalamcha tayyorlab, parniklarda ildiz ottiriladi? **Fevral-mart oylarida issiqxonalarda chiqqan o'simtalardan qalamcha tayyorlab, parniklarda ildiz ottiriladi.**

1567. Batat o'simligi necha marta sug'oriladi? **12 – 14 marta sug'oriladi.**

1568. Batat o'simligining palagi qaysi oylarda o'riladi? **Sentabr-oktabr oylarida o'riladi.**

1569. Batun piyozi necha yillik o'simlik? **Piyoz bosh hosil qilmaydigan ko'p yillik o'simlik.**

1570. Batun piyozining tarkibida qaysi vitamin ko'p? **C vitamini ko'p.**

1571. Batun piyozi bir joyda necha yil o'sadi? **3 – 4 yil o'sadi.**

1572. Batun piyozining vatani qayer? **Vatani – Xitoy va Mo'g'uliston.**

1573. Batun piyozining bargi necha sm ga yetganda yig'ishtirib olinadi? **25 – 30 sm ga yetganda yig'ishtirib olinadi.**

1574. Batun piyozi qanday ko'paytiriladi? **Urug'i va tanasidan ko'paytiriladi.**

1575. Batun piyozining hosildorligi qancha s/ga? **300 s/ga.**

1576. Batun piyozi O'zbekistonda qanday piyoz sifatida ekiladi? **Barra piyoz sifatida ekiladi.**

1577. Baxmal daraxt, po'kak daraxt qaysi oilaga mansub daraxt? **Rutadoshlar oilasiga mansub daraxt.**

1578. Baxmal daraxtining bo'yi necha sm? **25 – 30 sm.**

1579. Baxmal daraxtining tanasi diametri necha sm ga yaqin? **70 – 80 sm ga yaqin.**

1580. Baxmal daraxt qayerlarda o'sadi? **Rossiya Federatsiyasining Sharqiy va Janubiy Saxalin tumanlarida, Yaponiya va Xitoyda o'sadi.**

1581. Baxmal daraxt necha yilgacha yashaydi? **300 yilgacha yashaydi.**

1582. Baxmal daraxt yog'ochi, po'kagi qayerlarda ishlatiladi? **Yog'ochi faner tayyorlashda, po'kagi sanoatda ishlatiladi.**

1583. Baxmal daraxtining po'stlog'i qanday rangli? **Kulrang.**

1584. Baxmal daraxtining ichida och sariq qanday qatlam bor? **Po'kak qatlami bor.**

1585. Baxmal daraxtining bargları hidi qanday? **Ko'lansa.**

1586. Baxmal daraxtining mevasi rangi qanday? **Qora**

1587. Baxmal daraxtining mevasi qanday? **Mayda, hidli.**

1588. Baxmal daraxtining lub qavatidan och sariq nima olinadi? **Bo'yoq olinadi.**

1589. Baxmal daraxtning lub qavatidan oshlovchi qanday moddalar olinadi? **Tannin moddalar olinadi.**

1590. Baxmal daraxt ko'pincha qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi.**

1591. Baxmal daraxt O'zbekistonda ham o'stiriladimi? **Ha, o'stiriladi.**

1592. Baxtiyoriy qaysi o'simlik navi? **Xo'raki hamda vinobop jaydari uzum navi.**

1593. Baxtiyoriy navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

1594. Baxtiyoriy navli uzumning tarkibida qand necha foiz? **18 – 19 foiz.**

1595. Baxtiyoriy navli uzum qaysi viloyatda keng tarqalgan? **Samarqand viloyatida keng tarqalgan.**

1596. Baxtiyoriy navli uzumning tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

1597. Baxtiyoriy navli uzum bargining bo'yi necha sm? **18 – 20 sm.**

1598. Baxtiyoriy navli uzum bargining eni necha sm? **22 – 23 sm.**

1599. Baxtiyoriy navli uzumning bargi qanday shaklda? **To'garak shaklda.**

1600. Baxtiyoriy navli uzumning bargi necha bo'lakchali? **Besh bo'lakchali.**

1601. Baxtiyoriy navli uzumning bargi cheti bir oz qayoqqa qayrilgan? **Yuqoriga qayrilgan.**

1602. Baxtiyoriy navli uzumning bargi qanday tishli? **Mayda arra tishli.**

1603. Baxtiyoriy navli uzumning bargi tuklimi yoki tuksizmi? **Tuksiz.**

1604. Baxtiyoriy navli uzumning boshi qanday shaklda? **Silindr-konussimon shaklda.**

1605. Baxtiyoriy navli uzumning bir boshi og'irligi qancha g? **500 – 600 g.**

1606. Baxtiyoriy navli uzum qachon pishadi? **Sentabr oyining boshlarida pishadi.**

1607. Baxtiyoriy navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **120 – 140 s/ga.**

1608. Baxtiyoriy navli uzum qurg'oqchilikka qanday? **Ancha chidamli.**

1609. Baxtiyoriy navli uzum qanday yerlarda yaxshi o'sadi? **Lalmikor yerlarda yaxshi o'sadi.**

1610. Baxtiyoriy navli uzum sovuqqa qanday? **O'rtacha chidamli.**

1611. Baqa jo'xorisi, terol qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Butguldoshlar (butgullilar) oilasiga mansub.**

1612. Baqa jo'xorisi qanday shoxlanadi? **Sust shoxlanadi.**

1613. Baqa jo'xorisining bo'yi necha sm? **40 – 100 sm.**

1614. Baqa jo'xorisining poyasi qanday? **Qattiq, tuksiz.**

1615. Baqa jo'xorisining bargi qanday? **Oddiy, qalinroq.**

1616. Baqa jo'xorisining bargi shakli qanday? **Cho'ziq.**

1617. Baqa jo'xorisining bargi qanday tishli? **Arra tishli.**

1618. Baqa jo'xorisining to'pguli qanday? **Chochoq.**
1619. Baqa jo'xorisining kosachabarglari rangi qanday? **Qizil, oq.**
1620. Baqa jo'xorisining gullari rangi qanday? **Oq.**
1621. Baqa jo'xorisi qaysi oyda gullaydi? **May oyida gullaydi.**
1622. Baqa jo'xorisining mevasi bandi qanday? **Ingichka.**
1623. Baqa jo'xorisining mevasi qanday? **Qo'zoqcha.**
1624. Baqa jo'xorisining uzunligi necha mm? **1,5 – 2 mm.**
1625. Baqa jo'xorisi qaysi oylarda urug'laydi? **Iyun va sentabrda urug'laydi.**
1626. Baqa jo'xorisi nimalaridan ko'payadi? **Urug'idan va ildiz bachkisidan ko'payadi.**
1627. Baqa jo'xorisi ko'proq qanday yerlarda o'sadi? **Sug'oriladigan yerlarda o'sadi.**
1628. Baqa jo'xorisining gullari qayerga yig'ilgan? **Shoda to'pgulga yig'ilgan.**
1629. Baqa jo'xorisining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**
1630. Baqa jo'xorisining urug'lari qancha °C haroratda unadi? **15° C – 20° C haroratda unadi.**
1631. Baqa jo'xorisi qayerlarda ko'p tarqalgan? **O'rta Osiyo, Rossiyaning Yevropa qismi, Kavkaz va G'arbiy Sibirda ko'p tarqalgan.**
1632. Baqa jo'xorisi o'simligi xalq tabobatida qanday o'simlik sifatida ishlatiladi? **Dorivor o'simlik sifatida ishlatiladi.**
1633. Baqa jo'xorisi O'zbekistonda qayerlarda qanday o't sifatida uchraydi? **G'allazor, bedapoya, paxtazorlarda, ariq bo'ylari, partov yerlar, bog' va dalalarda begona o't sifatida uchraydi.**
1634. Baqaterak qaysi o'simliklarga mansub daraxt? **Toladoshlarga mansub daraxt.**
1635. Baqlajon qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Tomatdoshlar (ituzumgullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**
1636. Baqlajon o'simligining vatani qayer? **Hindiston.**
1637. Baqlajon o'simligi yovvoyi holda qayerlarda o'sadi? **Janubiy Osiyo (Hindiston, Myanma)da o'sadi.**
1638. Baqlajon o'simligi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**
1639. Baqlajon o'simligining bo'yi necha sm? **50 – 100 sm.**
1640. Baqlajon o'simligi qanday shoxli? **Sershox.**

1641. Baqlajon o'simligining guli qanday? **Yakka yoki to'pgul.**
1642. Baqlajon o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**
1643. Baqlajon o'simligi qayerdan changlanadi? **Chetdan yoki o'zidan changlanadi.**
1644. Baqlajon o'simligining bargi shakli qanday? **Tuxumsimon.**
1645. Baqlajon o'simligining bargi uzunligi necha sm? **7 – 15 sm.**
1646. Baqlajon o'simligining bargi eti necha sm? **5 – 10 sm.**
1647. Baqlajon o'simligining gultojbargi necha bo'lakli? **Besh bo'lakli.**
1648. Baqlajon o'simligining mevasi shakli qanday? **Cho'ziq.**
1649. Baqlajon o'simligining mevasi uzunligi necha sm? **15 – 30 sm.**
1650. Baqlajon o'simligining mevasi rangi qanday? **Och sariq, to'q binafsha va qora.**
1651. Baqlajon o'simligining mevasi sirti qanday? **Silliq, yaltiroq.**
1652. Baqlajon o'simligining urug'i sirti qanday? **Mayda Cho'tir.**
1653. Baqlajon o'simligining urug'i rangi qanday? **Sarg'ish.**
1654. Baqlajon o'simligi urug'ining 1000 donasi og'irligi qancha g? **3,8 – 4,4 g.**
1655. Baqlajon o'simligining ekilgan urug'i tuproq harorati qancha °C bo'lgan 20 – 25 kunda, harorat 20° C – 25° C bo'lganda necha kunda unib chiqadi? **13° C – 14° C bo'lganda, 8 – 12 kunda.**
1656. Baqlajon o'simligining urug'i unib chiqqandan birinchi mevasi yetilgunga qadar ertapishar navlarda necha kun, kechpishar larida necha kun va undan ko'p kun talab qiladi? **110 – 120 kun, 140 kun va undan ko'p kun talab qiladi.**
1657. Baqlajon urug'i shimoliy rayonlarda qachon, janubiy rayonlarda qachon sepilib, ko'chati necha kun ichida dalaga o'tqazish uchun tayyor bo'ladi? **15 fevral – 1 martda, 15 – 20 yanvarda sepilib, ko'chati 55 – 60 kun ichida dalaga o'tqazish uchun tayyor bo'ladi.**
1658. Baqlajon o'simligining mevasi qanday bo'lganda uziladi? **Dumbul bo'lganda.**

1659. Baqlajon o'simligining tarkibida qaysi kimyoviy elementlar, tuzlar, vitaminlar, qanday moddalar bor? Kaltsiy, temir, fosfor tuzlari, B_1, B_2, C, P **vitaminlari, oshlovchi moddalar, qand (2,7 – 4 foiz), oqsil (0,6 – 1,4 foiz) va boshq. moddalar bor.**

1660. Baqlajon o'simligining O'zbekistonda o'rtapishar qaysi navlari ekiladi? **Bolgar 87, Donskiy 14, Uzun binafsharang 239, Ispolin 63, kechpishar qora-go'zal va boshq. ekiladi.**

1661. Baqlajon o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **200 – 450 s/ga (parvarish yaxshi bo'lganda 800 s/ga hosil olinadi).**

1662. Baqlajon o'simligi qanday tuproqlarda yaxshi hosil beradi? **Unumdor tuproqlarda yaxshi hosil beradi.**

1663. Baqlajon o'simligi qanday iqlimli mamlakatlarda ekiladi? **Tropik, subtropik va mo'tadil iqlimli juda ko'p mamlakatlarda ekiladi.**

1664. Baqlajon o'simligi nima sevar o'simlik? **Issiqsevar va namsevar o'simlik.**

1665. Baqlajon o'simligining mevasi qanday hollarda iste'mol qilinadi? **Qovurib, pishirib, konserva hollarida iste'mol qilinadi.**

1666. Bahorgi bir yillik o'simliklar qaysi fasllar oylarida o'sib, hayot siklini necha oyda tugatadi? **Bahor va yoz oylarida o'sib, hayot siklini 1 – 5 oyda tugatadi.**

1667. Bahor – ertapishar qaysi mevali o'simlik navi? **Gilos navi.**

1668. Bahor navli gilosning nechanchi yilda qayerda qaysi navlari chatishtirish yo'li bilan yaratilgan? **1952-yilda R. R. Shreder nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutining Samarqand filialida Fransis va Savri Surxon navlarini chatishtirish yo'li bilan yaratilgan.**

1669. Bahor navli gilosning bir donasi og'irligi qancha g? **8 g.**

1670. Bahor navli gilos tarkibida qand miqdori necha foiz? **13,8 foiz.**

1671. Bahor navli gilos ko'chati ekilgandan keyin nechanchi yili hosilga kiradi? **3–4-yili** hosilga kiradi.

1672. Bahor navli gilos daraxti qachon gullaydi? **Aprelning birinchi yarmida gullaydi.**

1673. Bahor navli gilos qachon pishadi? **May oyining o'rtalarida pishadi.**

1674. Bahor navli gilosning mevasi necha kungacha sifati buzilmasdan daraxtda turishi mumkin? **30 kungacha.**

1675. Bahor navli gilos O'zbekistonning qaysi zonasida ekiladi? **Barcha zonalarida ekiladi.**

1676. Bayan Shirey, Banants, Agshirey qaysi o'simlik navi? **Kechpishar vinobop uzum navi.**

1677. Bayan Shirey, Banants uzumi navining vatani qayer? **Ozarbayjon.**

1678. Bayan Shirey navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

1679. Bayan Shirey navli uzumning tarkibida qand necha foiz? **18 – 20 foiz.**

1680. Bayan Shirey navli uzum qaysi navlar guruhiga kiradi? **Sharqiy ekologik-geografik navlar guruhiga kiradi.**

1681. Bayan Shirey navli uzumning tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

1682. Bayan Shirey navli uzumning bargi diametri necha sm? **19 – 22 sm.**

1683. Bayan Shirey navli uzumning bargi qanday shaklda? **To'garak shaklda.**

1684. Bayan Shirey navli uzumning bargi necha bo'lakchali? **Besh bo'lakchali.**

1685. Bayan Shirey navli uzum bargining usti qanday? **Silliq.**

1686. Bayan Shirey navli uzum bargining cheti qanday tishli? **O'tkir arra tishli.**

1687. Bayan Shirey navli uzum boshining og'irligi qancha g? **200 – 250 g.**

1688. Bayan Shirey navli uzumning po'sti qanday qalinlikda? **O'rtacha qalinlikda.**

1689. Bayan Shirey navli uzumning mevasi uchun faol harorat yig'indisi qancha ° C ga teng? **3500° C ga teng.**

1690. Bayan Shirey navli uzum kurtak yozganidan boshlab, necha kunda pishadi? **165 kunda pishadi.**

1691. Bayan Shirey navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **120 – 200 s/ga (yaxshi qaralganda 350 s/ga).**

1692. Bayan Shirey navli uzum kasalliklarga chidami qanday? **O'rtacha.**

1693. Bayan Shirey navli uzum qayerlarda rayonlashtirilgan? **Zakavkaze, O'rta Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Ukrainada rayonlashtirilgan.**

1694. Bayan Shirey navli uzum O'zbekistonning qaysi hududida yaxshi o'sadi? **Hamma hududlarida yaxshi o'sadi.**

1695. Bayan Shirey navli uzum sovuqqa qanday? **Chidamsiz.**

1696. Bayan Shirey navli uzum, asosan, nimalar olish uchun yetishtiriladi? **Asosan, vino mahsulotlari va sharbat olish uchun yetishtiriladi.**

1697. Begoniya qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Begoniyadoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

1698. Begoniya o'simligining qancha turi, asosan, qanday mamlakatlarda (Avstraliyadan tashqari) manzarali o'simlik sifatida bog'larda, ba'zi xonadonlarda o'stiriladi? **800 ga yaqin turi issiq mamlakatlarda.**

1699. Begoniya o'simligi O'zbekistonda qayerlarda o'stiriladi? **Xonadonlarda o'stiriladi.**

1700. Begoniya o'simligining bargi shakli qanday? **Yuraksimon.**

1701. Begoniya o'simligining gullari rangi qanday? **Oq, qizil va pushti.**

1702. Begoniya o'simligi nimalaridan ko'paytiriladi? **Urug'i, bargi yoki qalamchasidan ko'paytiriladi.**

1703. Begona o'tlar tufayli jahon miqyosida hosil nobudgarchiligi necha foizni yoki sarf-xarajat qancha dollarni tashkil etadi? **14,5 foizni yoki 20 mlrd dollarni tashkil etadi.**

1704. Begona o'tlarning qancha turi ma'lum? **Bir necha ming turi ma'lum.**

1705. Begona o'tlarning O'zbekistonda sug'oriladigan dehqonchilik hududida qancha turi uchraydi? **269 ga yaqin turi uchraydi.**

1706. Beda dukkakdoshlarga mansub necha yillik o'simlik? **Bir va ko'p yillik o'simlik.**

1707. Beda o'simligining vatani qayer? **Eron, taxminan 2 – 2,5 ming yil ilgari Yunoniston, qadimgi Rim va Shimoliy Afrikadan olib kelingan.**

1708. Beda o'simligining yaxshi rivojlangan ildiz tizimi 2 – 3 yilda tuproqning 1 ga haydalma qatlamida qancha t go'ngga teng keladigan qancha s ildiz massa hosil qiladi? **30 – 40 t, 80 – 120 s.**

1709. Beda o'simligining nechta turi ma'lum? **100 ta turi ma'lum.**

1710. Beda o'simligining poyasi o'tsimon bo'lib, bo'yi necha sm? **75 – 100 sm.**

1711. Beda o'simligining bargi cho'ziq nechta barg shapalog'idan iborat? **Uchta barg shapalog'idan iborat.**

1712. Beda o'simligi qayerdan changlanadi? **Asosan, chetdan, oz qismi o'zidan changlanadi.**

1713. Beda o'simligining dukkagi necha o'ralgan? **2 – 3 o'ralgan.**

1714. Beda o'simligining urug'i rangi qanday? **Sariq, sariq-qo'ng'ir.**

1715. Beda o'simligining urug'i shakli qanday? **Buyraksimon.**

1716. Beda o'simligining 1000 dona urug'i og'irligi qancha g? **1,5 – 3,5 g.**

1717. Beda o'simligining ildizi shakli qanday? **O'qsimon.**

1718. Beda o'simligining ildizi necha m chuqurlikka taraladi? **5 m va undan ham chuqurlikka taraladi.**

1719. Beda o'simligi qanday moddalarga boy em-xashak ekini? **Vitamin va oqsilga boy em-xashak ekini.**

1720. Beda o'simligining 100 kg ko'k massasi tarkibida qancha ozuqa birligi va qancha kg hazm bo'ladigan protein bor? **21,7 ozuqa birligi va 4,1 kg hazm bo'ladigan protein bor.**

1721. Beda pichanining 100 kg da qancha ozuqa birligi va qancha kg hazm bo'ladigan protein bor? **45,3 ozuqa birligi va 10,3 kg hazm bo'ladigan protein bor.**

1722. Beda pichanining tarkibida necha foiz qaysi kimyoviy elementlar bor? **0,35 – 0,4 foiz fosfor, 0,25 – 0,3 foiz kalsiy va boshq. mikroelementlar bor.**

1723. Beda 2 – 3 yil ichida tuproqqa gektariga qancha kg va undan ko'proq qaysi kimyoviy element to'planadi? **300 – 400 kg va undan ko'proq azot to'planadi.**

1724. Beda bir mavsumdagi o'suv davrida yer ostki va yer ustki massasini hosil qilish uchun o'zidan gektariga qancha m^3 gacha suv bug'latadi? **12 – 15 ming m^3 gacha suv bug'latadi.**

1725. Bedona navli tutning qaysi turi Tojikiston Respublikasida ko'p tarqalgan? **"Xarug'" turi ko'p tarqalgan.**

1726. Bedona navli tutning "Xarug'" turi gektaridan qancha s barg beradi? **50 – 55 s barg beradi.**

1727. Bedona navli tut qaysi oilaga mansub daraxt? **Tutsimonlar oilasiga mansub daraxt.**

1728. Bedana navli tut bargining ipak qurtiga edriladigan qaysi xillari tarqalgan? **"Vodil", "Xorug'" xillari tarqalgan.**

1729. Bedona navli tutning qaysi turi Farg'ona vodiysining tog' etagi tumanlarida (O'sh, Farg'ona, Andijon, Xo'jand va Jalolobodda) o'stiriladi? **"Vodil" turi o'stiriladi.**

1730. Bedona navli– oq navli uzumdan tayyorlanadigan nima turi? **Mayiz turi.**

1731. Bekzodi o'rtapishar qaysi mevali o'simlik navi? **Qovun navi.**

1732. Bekzodi qovunining tarkibida qand necha foiz? **7,1 – 9,3 foiz.**

1733. Bekzodi navli qovunning shakli qanday? **Cho'zinchoq.**

1734. Bekzodi navli qovunning uzunligi necha sm? **30 – 40 sm.**

1735. Bekzodi navli qovunning og'irligi qancha kg? **3 – 5 kg.**

1736. Bekzodi navli qovunning po'sti qalinligi qanday? **O'rtacha.**

1737. Bekzodi navli qovunning eti necha sm? **4 – 5 sm.**

1738. Bekzodi navli qovunning urug'i unib chiqqandan so'ng necha kunda pishadi? **85 – 95 kunda pishadi.**

1739. Bekzodi navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **230 – 250 s/ga.**

1740. Bekzodi navli qovun O'zbekistonning qayerlarida ekiladi? **Buxoro, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida, qisman Farg'ona vodiysida ekiladi.**

1741. Bekzodi navli qovunning sirti qanday? **Tilim-tilim.**

1742. Bekzodi navli qovunning usti qanday? **Oqish-yashil, ba'zan sarg'ish-yashil.**

1743. Bekzodi navli qovunning sirti qanday to'r? **Kam to'r.**

1744. Bekzodi navli qovun urug'idan unib chiqqach, necha kunda pishadi? **85 – 95 kunda pishadi.**

1745. Bekzodi navli qovun shakli qanday? **Duksimon.**

1746. Beklaro't qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Soyabonguldoshlar (soyabongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

1747. Beklaro'tning bo'yi necha sm cha? **50 sm cha.**

1748. Beklaro'tning barglari qanday? **Murakkab.**

1749. Beklaro'tning barglari qanday qirqilgan? **Patsimon qirqilgan.**

1750. Beklaro'tning barglari bandi qanday shaklda? **Tarnovsimon shaklda.**

1751. Beklaro't qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo, Kavkaz, Eron va Kichik Osiyoda tarqalgan.**

1752. Beklaro't qaverlarda o'sadi? **Adirlarda o'sadi.**

1753. Beklaro't qaysi oyda gullaydi? **Iyul oyida gullaydi.**

1754. Beklaro't qaysi oyda meva tugadi? **Avgust oyida meva tugadi.**

1755. Beklaro'tning barglari mayda shoxchalari bilan birga xushbo'y rezavor sifatida nimaga solinadi? **Ovqatga solinadi.**

1756. Bekkrossni o'simliklar seleksiyasiga kimlar, nechanchi yilda kiritgan? **N. V. Xarland va M. N. Rora, 1922-yilda kiritgan.**

1757. Bekkross seleksiyada qanday qo'llaniladi? **Seleksiyada changlanadigan hamda chetdan changlanadigan o'simliklarning navini yaxshilashda, duragay avlodini ota-ona yoki ona nusxalarining kerakli xususiyatlari bilan boyitishda qo'llaniladi.**

1758. Beyken serhosil qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

1759. Beyken ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **6 – 7-yili hosilga kiradi.**

1760. Bekmaniya – boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga kiradigan necha yillik o'simlik? **Ko'p yillik.**

1761. Bekmaniya o'simligining siqiq boshoqchalarida nechtadan gul bor? **Ikkitadan gul bor.**

1762. Bekmaniya o'simligining Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada nechta turi o'sadi? **Ikkita turi o'sadi.**

1763. Bekmaniya qanday o'simlik? **Yem-xashak o'simligi.**

1764. Belladonna qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o't? **Tomatdoshlar (ituzumgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik zaharli o't.**

1765. Belladonna o'tining bo'yi necha m? **0,5 – 1,5 (2) m.**

1766. Belladonna o'tining barglari shakli qanday? **Ellipssimon.**

1767. Belladonna o'tining barglari qanday uchli? **O'tkir uchli.**

1768. Belladonna o'tining barglari qanday bo'lib joylashgan? **Ketma-ket, juft-juft bo'lib joylashgan.**

1769. Belladonna o'tining har juftdagi nechta barg katta bo'ladi? **Bitta barg katta bo'ladi.**

1770. Belladonna o'tining gullari nechtadan yoki qanday holda barg qo'ltig'iga o'rnashgan? **Bittadan yoki juft-juft holda barg qo'ltig'iga o'rnashgan.**

1771. Belladonna o'tining mevasi rangi qanday? **To'q binafsha.**

1772. Belladonna o't necha urug'li ho'l meva? **Ko'p urug'li ho'l meva.**

1773. Belladonna o't qayerlarda o'stiriladi? **Rossiya Federatsiyasining Krasnodar o'lkasi, Poltava va Voronej viloyatlarida o'stiriladi.**

1774. Belladonna o'tining qayerda o'sadigan qaysi turi meditsinada ishlatiladi? **Kavkazda o'sadigan (A. caucasia) turi meditsinada ishlatiladi.**

1775. Belladonna o'tining qaysi qismi alkaloidlarga boy? **Hamma qismi alkaloidlarga boy.**

1776. Belladonna o'tining bargi qaysi kasallikda ichiladigan astmatol poroshogi tarkibiga kiradi? **Astma kasalligida ichiladigan astmatol poroshogi tarkibiga kiradi.**

1777. Belladonna o'tining bargidan tayyorlangan preparatlar (nastoykalar) qaysi kassalliklarni davolashda ishlatiladi? **Atropin alkaloid og'riqni qoldiradigan, ko'z gavharini kengaytiradigan va spazmaga qarshi dori sifatida, me'da, ko'z kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

1778. Belladonna o'tdan qaysi alkaloidlar olinadi? **Atropin, giostsialin, skopolamin va boshqa alkaloidlar olinadi.**

1779. Belladonna zaharli o't bo'lib, u yovvoyi holda qayerlarda o'sadi? **Qrim, Kavkaz, Moldova va G'arbiy Ukraina o'rmonlarida, o'tloqlarida, suv va yo'l yoqalarida o'sadi.**

1780. Belflyor-kechpishar qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

1781. Belflyor navli olma qaysi davlatdan keltirilgan? **AQSh dan keltirilgan.**

1782. Belflyor navli olma O'zbekistonda qachondan keng tarqala boshlagan? **XIX asrning oxirlaridan keng tarqala boshlagan.**

1783. Belflyor navli olma tarkibida necha foiz qand, kislota, kul moddalar bor? **14,4 foiz qand, 0,5 foiz kislota, 0,2 foiz kul moddalari bor.**

1784. Belflyor navli olma daraxti qachon gullaydi? **Erta bahorda (aprel oyining boshlarida) gullaydi.**

1785. Belflyor navli olma mevasi yirik bo'lib, bir donasining og'irligi o'rtacha qancha g? **150 g.**

1786. Belflyor navli olma po'sti qanday? **Yaltiroq, silliq.**

1787. Belflyor navli olma rangi qanday? **Ko'kish-sariq yoki sariq.**

1788. Belflyor navli olma eti rangi qanday? **Och sariq.**

1789. Belflyor navli olma eti qanday? **Muloyim, sersuv.**

1790. Belflyor navli olma ko'chati ekilganidan keyin nechanchi yili hosilga kiradi? **4-yili hosilga kiradi.**

1791. Belflyor navli olma necha yoshida uzluksiz va yaxshi hosil beradi? **12 – 35 yoshida uzluksiz va yaxshi hosil beradi.**

1792. Belflyor navli olma O'zbekistonning qanday tumanlarida ko'p ekiladi? **Tog'li va tog' oldi tumanlarida (Namangan viloyatida) ko'p ekiladi.**

1793. Belflyor navli olmaning sentabr oyida terilganlari qaysi oygacha yaxshi saqlanadi? **Fevral oyigacha yaxshi saqlanadi.**

1794. Bemurug' qaysi poliz ekini navi? **Jaydari qovun navi.**

1795. Bemurug' jaydari qovun urug'idan unib chiqqach, necha kunda pishadi? **88 – 95 kunda pishadi.**

1796. Bemurug' jaydari qovunning tarkibida qand necha foiz? **12 – 12,5 foiz.**

1797. Bere ligelya sovuqqa chidamli qaysi o'simlik navi? **Nok navi.**

1798. Bere ligelya nok navi qayerlarda ekish uchun rayonlashtirilgan? **Kavkaz, Ukraina, Rossiya Federatsiyasi va O'rta Osiyo Respublikalari, shuningdek, O'zbekistonning hamma viloyatlarida ekish uchun rayonlashtirilgan.**

1799. Bere Royal serhosil qaysi mevali o'simlik navi? **Nok navi.**

1800. Bere Royal navli nok O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekish uchun rayonlashtirilgan? **Barcha viloyatlarida ekish uchun rayonlashtirilgan.**

1801. Beresklet ildizining po'stlog'idan necha foiz guttapercha olinadi? **7 foiz.**

1802. Bersim, misr sebargasi qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

1803. Bersim, misr sebargasi qaysi davlatlarda keng tarqalgan? **Misr, Pokiston, Hindiston, AQSh da, shuningdek, O'zbekistonning sholikor hududlarida keng tarqalgan.**

1804. Bersim, misr sebargasi o'simligi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **9,3 foiz protein, 2,4 foiz yog', 46 foiz uglevodlar bor.**

1805. Bersim o'simligi ba'zan nima uchun ham ekiladi? **Ko'kat o'g'it uchun ham ekiladi.**

1806. Bersim o'simligi qanday ildizli o'simlik? **O'qildizli (1 – 1,5 m gacha chuqurlikka kiradi) o'simlik.**

1807. Bersim o'simligining poyasi balandligi necha sm? **80 – 100 sm.**

1808. Bersim o'simligi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

1809. Bersim o'simligining gullari rangi qanday? **Oq, pushti, sarg'ish.**

1810. Bersim o'simligining mevasi necha urug'li dukkak? **Bir urug'li dukkak.**

1811. Bersim o'simligining urug'i rangi qanday? **Yaltiroq, sariq.**

1812. Bersim o'simligining 1000 dona urug'i og'irligi qancha g? **2,8 – 3,5 g.**

1813. Bersim o'simligining urug'i qancha ° C haroratda unib chiqadi? **6° C – 8° C haroratda unib chiqadi.**

1814. Bersim o'simligining pichani qanday? **Yumshoq, xushxo'r.**

1815. Bersim o'simligi qanday maydonlarda yaxshi hosil beradi? **Sug'oriladigan maydonlarda yaxshi hosil beradi.**

1816. Bersim o'simligi qaysi fasllarda ekiladi? **Kuzda yoki bahor fasllarida ekiladi.**

1817. Bersim o'simligining urug'lik ekish me'yori qancha kg/ga? **12 – 16 kg/ga.**

1818. Bersim o'simligi qachon o'riladi? **Gullay boshlaganda o'riladi.**

1819. Bersim o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **70 – 80 s/ga.**

1820. Bersim o'simligi bir yilda necha marta o'riladi? **3 – 4 marta o'riladi.**

1821. Berton-kechki serhosil qaysi mevali o'simlik navi? **Olxo'ri navi.**

1822. Berton olxo'ri o'simligi qayerdan keltirilgan? **Amerikadan keltirilgan.**

1823. Berton olxo'ri o'simligining balandligi necha m? **5 – 6 m.**

1824. Berton olxo'ri o'simligining tarkibida qand necha foiz? **11,5 foiz.**

1825. Berton olxo'ridan nimalar tayyorlanadi? **Sharbatlar, jem, murabbo tayyorlanadi.**

1826. Betaga qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Bug'doydoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

1827. Betaga maysasida necha foiz qanday moddalar bo'ladi? **14,6 foiz protein, 3,3 foiz yog' va 24,6 foiz kletchatka moddalar bo'ladi.**

1828. Betaga boshoq chiqarganda tarkibida necha foiz qanday moddalar bo'ladi? **11,7 foiz protein, 29,6 foiz kletchatka moddalar bo'ladi..**

1829. Betaga o'simligi gullaganda necha foiz qanday moddalar bo'ladi? **9,7 foiz protein, 29,6 foiz kletchatka moddalar bo'ladi.**

1830. Betaga o'simligi urug'langanda necha foiz qanday moddalar bo'ladi? **8,3 foiz protein, 31 foiz kletchatka moddalar bo'ladi.**

1831. Betaga o'simligining bo'yi necha sm? **35 – 45 sm.**

1832. Betaga o'simligi qaysi oyda gullaydi? **Iyun oyida gullaydi.**

1833. Betaga o'simligining urug'i qachon pishadi? **Sentabr oyining birinchi yarmida pishadi.**

1834. Betaga o'simligi qachon ko'karib, qachon maysa bo'ladi? **Kuzgi namlikda ko'karib, qishda maysa bo'ladi.**

1835. Betaga o'simligi nima hosil qiluvchi o'simlik? **Chim hosil qiluvchi o'simlik.**

1836. Betaga o'simligi chimining diametri necha sm ga yetishi mumkin? **70 – 110 sm ga yetishi mumkin.**

1837. Betaga o'simligi qaysi o'simliklarning har xil turlari bilan birga o'ziga xos betagazorlarni yuzaga keltiradi? **Tog'larning o'rta va yuqori qismlaridagi tekisliklar va shimoliy qiyaliklarda shuvoq va chalovlarning har xil turlari bilan.**

1838. Betaga o'simligini qaysi hayvonlar qaysi fasllarda xush ko'rib yeyishadi? **Qo'y, echki, yilqi va qoramol, ayniqsa, bahorda (gullaguncha) va kuzda (namlikda chiqqan yangi barglarini) xush ko'rib yeyishadi.**

1839. Betaga o'simligi havo qanday kelgan yillarda uni pichanga o'rish ham mumkin? **Sernam kelgan yillarda.**

1840. Bex, bix qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Qoramug'doshlar (qoramug'gullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

1841. Bex, bixda saponin moddasi necha foiz? **10 – 30 foiz.**

1842. Beshbarg qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Ra'nodoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

1843. Beshbarg o'ti poyasi, bargi, ildizlarida qanday moddalar bor? **Oshlovchi moddalar bor (toshin), shakar, organik kislotalar va C vitamini, glikozidlar bor.**

1844. Beshbarg o'tining poyasi qanday (yo'g'onmi yoki ingichkami)? **Ingichka, uzun.**

1845. Beshbarg o'tining poyasi qanday o'sadi? **Yotiq o'sadi.**

1846. Beshbarg o'tining bargi necha yaproq? **Besh yaproq.**

1847. Beshbarg o'tining barg bandi qanday? **Uzun.**

1848. Beshbarg o'tining guli rangi qanday? **Sariq.**

1849. Beshbarg o'ti qaysi oydan qaysi oygacha gullab, urug'layveradi? **May oyidan avgust oyigacha gullab, urug'layveradi.**

1850. Beshbarg o'ti O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi qayerlarida o'sadi? **Hamma viloyatlaridagi tog' etaklarida, adirlarda, daryo, kanal va ariq bo'ylarida, sernam yerlarda o'sadi.**

1851. Beshbarg o'ti bargi va ildizpoyasidan tayyorlangan qaynatma va ekstrakt xalq tabobatida qanday dori hisoblanadi? **Ichni qotiruvchi va qonni to'xtatuvchi dori hisoblanadi.**

1852. Beshurug' o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

1853. Beshurug' navli qovunning tarkibida necha foiz qand bor? **12 – 12,5 foiz.**

1854. Beshurug' navli qovunning palagi qanday? **Ingichka.**

1855. Beshurug' navli qovunning shakli qanday? **Tuxumsimon.**

1856. Beshurug' navli qovunning bo'yi necha sm? **16 – 23 sm.**

1857. Beshurug' navli qovunning og'irligi qancha kg? **1,5 – 2,5 kg.**

1858. Beshurug' navli qovunning sirti rangi qanday? **Och yashil.**

1859. Beshurug' navli qovun sirti qanday to'r? **Serto'r.**

1860. Beshurug' navli qovun sirti sal nima? **Tilim-tilim.**

1861. Beshurug' navli qovun hosildorligi qancha s/ga? **180 – 220 s/ga.**

1862. Beshurug' navli qovunning hosil urug'i unib chiqqandan so'ng necha kunda pishadi? **88 – 95 kunda.**

1863. Beshurug' navli qovun qaysi vodiyda ko'proq ekiladi? **Farg'ona vodiysida ko'proq ekiladi.**

1864. Beh o'tining ildizidan tayyorlangan ekstrakt modda xalq tabobatida qanday dori sifatida ishlatiladi? **Yo'talni qoldirib, balg'am ko'chiradigan va jarohatlarni bitiradigan dori sifatida ishlatiladi.**

1865. Beh o'ti ildizidan tayyorlangan ekstrakt modda qaysi sanoatda ishlatiladi? **Qandolatchilik, binokorlik, to'qimachilik sanoatida va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ishlatiladi.**

1866. Behi qaysi oilaga mansub mevali daraxt yoki buta? **Atirgullilar (ra'noguldoshlar) oilasiga mansub mevali daraxt yoki buta.**

1867. Behi daraxtining ildizidan tayyorlangan ekstrakt moddalardan xalq tabobatida qanday dori sifatida foydalaniladi? **Yo'talni qoldirib, balg'am ko'chiradigan va jarohatlarni bitiradigan dori sifatida xalq.**

1868. Behi daraxti ildizidan tayyorlangan ekstrakt modda qayerlarda ishlatiladi? **Qandolatchilik, binokorlik, to'qimachilik sanoatlarida va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ishlatiladi.**

1869. Behi qanday o'simlik? **Behi entomofil (hasharotlar bilan changlanadigan) o'simlik.**

1870. Behi daraxtining balandligi necha m gacha? **2 – 6 m.**

1871. Behi daraxti necha yil yashaydi? **30 – 40 yil yashaydi.**

1872. Behi daraxtining tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **74,7 – 83,5 foiz suv, 8,5 – 15,2 foiz qand, 0,2 – 1,5 foiz kislota bor, shuningdek, oshlovchi moddalar va tosh hujayralar bor.**

1873. Behi daraxtining yovvoyi turlari qayerlarda uchraydi? **Ozarbayjon, Dog'iston, Turkmaniston, Eronda uchraydi.**

1874. Behining asosiy navlari qaysilar? **Ular: non behi, Quva behi, shirin behi, Samarqand yirik behi, Xorazm olmasimon behi.**

1875. Behi daraxti qayerlarda keng tarqalgan? **Kavkaz, O'rta Osiyo, Qrim, Ukrainaning janubi hamda Astraxon viloyatida keng tarqalgan.**

1876. Behi daraxtining qaysi a'zolaridan xalq tabobatida dori xomashyosi sifatida foydalaniladi? **Mevalari, urug'lari, barglari va po'stlog'idan foydalaniladi.**

1877. Behi daraxtining mevalari qanday kasalliklarga dori sifatida qo'llaniladi? **Badanda shish bo'lganda, pielitlar, nefrozo-nefritlarda siydik haydovchi, shuningdek, o't haydaydigan dori sifatida qo'llaniladi.**

1878. Behi daraxtining bargları shoxlarining po'stlog'ini qanday kasalliklarga ishlatish tavsiya etiladi? **Kamqonlik, xronik gastrit, qandli diabet va gipertoniya kasalliklariga ishlatish tavsiya etiladi.**

1879. Behi urug'larining qaynatmasi qanday xossalarga ega? **Ichni yumshatadigan, bujmaytiradigan xossalarga ega.**

1880. Behi urug'lari qaysi davlat xalq tabobatida choyga o'xshatib damlanadi va yo'tal vaqtida ichiladi? **Ozarbayjon xalq tabobatida.**

1881. Behi daraxtining yetilgan mevalari tarkibida qanday kislotalar bor? **Organik kilsotalar (olma, sirka, limon kislotalari) bor.**

1882. Behi daraxtining yetilgan mevalari tarkibida qanday moylar bor? **Efir moylari bor.**

1883. Behi daraxtining mevalari tarkibida qaysi vitamin bor? **C vitamini bor.**

1884. Behi daraxtining mevalari tarkibida qaysi kimyoviy elementlar tuzlari bor? **Temir, mis tuzlari bor.**

1885. Qaysi hakim behi daraxtining mevasi ovqat hazmi buzilganda yaxshi shifo bo'ladi, deb hisoblagan? **Abu Ali ibn Sino.**

1886. Behi suvini asal va sirkaga aralashtirib ichish qaysi a'zolar ishini yaxshilash uchun tavsiya etiladi? **Me'da va jigar shishini yaxshilash uchun tavsiya etiladi.**

1887. Behi daraxtining mevalari damlamasi qanday kasalliklarga ichishga tavsiya qilinadi? **Sil, astma, yara kasalliklariga ichishga tavsiya qilinadi.**

1888. Behi daraxtining mevalari damlamasi qanday kasalliklarga qarshi ichiladi? **Ich dam bo'lganida, odam yo'talib tuflaydigan paytlarda, bachadondan qon ketgan paytlarda ichiladi.**

1889. Behi daraxtining gullari qaysi kasallikka qarshi ishlatiladi? **Xavfli o'smalarga qarshi ishlatiladi.**

1890. Behi daraxtining mevasidan tayyorlangan galen preparatları zamonaviy tabobatda qaysi a'zolar tonusini pasaytirib, qaysi jonivorlarga qarshi ishlatiladi? **Silliq muskulli a'zolar tonusini pasaytirib, gijjalarga qarshi ishlatiladi.**

1891. Behi daraxtining mevalarida qaysi kimyoviy element ko'p bo'lganligi sababli kamqonlikda tavsiya etiladi? **Temir elementi ko'p bo'lganligi sababli kamqonlikda tavsiya etiladi.**

1892. Behi urug'larini suvga damlab, qaysi a'zolar kasalliklarida yallig'lanishga qarshi balg'am ko'chiradigan, antiseptik vosita sifatida ichiladi? **Nafas va hazm a'zolari kasalliklarida yallig'lanishga qarshi balg'am ko'chiradigan, antiseptik vosita sifatida ichiladi.**

1893. Behi urug'larining qaynatmasi qanday kasalliklarda ishlatiladi? **Anginada tomoqni chayish, kan'yunktivitlarda ko'zga qo'yish uchun, shuningdek, badan terisini yumshatadigan vosita sifatida ishlatiladi.**

1894. Behi mevalarida qanday moddalar ko'p bo'lganligidan, ko'p yeyilganida katta yoshli odamlarda va bolalarda qabziyatga sabab bo'lib, qorinni dam qilib turishi mumkin? **Oshlovchi moddalar ko'p bo'lganligidan.**

1895. Behi turk tilida qanday nom bilan yuritilgan? **Ayva nomi bilan yuritilgan.**

1896. Behi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qanday shaklda tilga olingan? **"Ayva" shaklda tilga olingan.**

1897. Behigul o'simligining bo'yi necha m? **1,5 – 2 m.**

1898. Behigul qaysi oilaga mansub buta? **Ra'nodoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub buta.**

1899. Behigul o'simligining vatani qayer? **Yaponiya va Xitoy.**

1900. Behigul o'simligining O'zbekistonda qaysi turi xushmanzara o'simlik sifatida istirohat bog'lariga ekiladi? **Erta baxorda gullaydigan turi xushmanzara o'simlik sifatida istirohat bog'lariga ekiladi.**

1901. Behigul o'simligining bargları qanday shaklda? **To'garak yoki uzunchoq – tuxumsimon shaklda.**

1902. Behigul o'simligi qachon gullaydi? **Erta bahorda barg chiqarmasdan yoki barg chiqarishi bilan gullaydi.**

1903. Behigul o'simligining gullari qanday ranglarda? **Qizil, pushti, ba'zan oq ranglarda.**

1904. Behigul o'simligining gullari to'p bo'lib nechtadan joylashadi? **2 – 6 tadan joylashadi.**

1905. Bigaradiya, achchiq apelsin, qaysi oilaga mansub doimiy yashil o'simlik? **Rutagullilar oilasi (rutadoshlar)ga mansub doimiy yashil o'simlik.**

1906. Bigaradiya o'simligining vatani qayer? **Janubi-Sharqiy Osiyo.**

1907. Bigaradiya o'simligi bargidan qanday moddalar olinadi? **Turli efir moylari olinadi.**

1908. Bigaradiya o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Kavkazning Qora dengiz bo'yida tarqalgan.**

1909. Bigaradiya o'simligining guli qanday jinsli? **Qo'sh jinsli.**

1910. Bigaradiya o'simligining guli qanday? **Yirik.**

1911. Bigaradiya o'simligining guli rangi qanday? **Oq.**

1912. Bigaradiya o'simligining mevasi qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

1913. Bigaradiya o'simligining mevasi uchi shakli qanday? **Bir oz yassi.**

1914. Bigaradiya o'simligining mevasi og'irligi qancha g? **100 – 150 g.**

1915. Bigaradiya o'simligining mevasi qobig'i, rangi qanday? **Qalin, g'adir-budur, och qizil.**

1916. Bigaradiya o'simligining mevasi hidi qanday? **G'oyat xushbo'y.**

1917. Bigaradiya o'simligining mevasi necha pallalik? **10 – 20 pallalik.**

1918. Bigaradiya o'simligining mevasi rangi qanday? **Jigarrang.**

1919. Bigaradiya o'simligining mevasi urug'i qanday (ozmi yoki ko'pmi)? **Ko'p.**

1920. Bigaradiya o'simligining mevasi yeyishga yaraydimi yoki yaramaydimi? **Yaramaydi.**

1921. Bigaradiya o'simligining mevasidan nimalar qilinadi? **Murabbo, kompot qilinadi.**

1922. Bigaradiya o'simligi nimalardan ko'paytiriladi? **Urug'i va qalamchasidan ko'paytiriladi.**

1923. Bigaradiya o'simligi O'zbekistonda qaysi sitrus o'simliklar uchun payvandtag sifatida ishlatiladi yoki manzarali daraxt sifatida tuvaklarda o'stiriladi? **Apelsin, limon va mandarin kabi sitrus o'simliklar uchun payvandtag sifatida ishlatiladi yoki manzarali daraxt sifatida tuvaklarda o'stiriladi.**

1924. Bignoniyadoshlar qaysi oilaga mansub o'simlik? **Sigirquyruqdoshlar (sigirquyruqgullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

1925. Bignoniyadoshlarga qaysi o'simliklar kiradi? **Daraxt, buta, chirmovuq, ba'zan o'tlar kiradi.**

1926. Bignoniyadoshlar necha pallali o'simliklar oilasi? **Ikki pallali o'simliklar oilasi.**

1927. Bignoniyadoshlarning barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi, ba'zan navbatlashib joylashgan.**

1928. Bignoniyadoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

1929. Bignoniyadoshlarning gullari qanday? **Yirik, zigomorf.**

1930. Bignoniyadoshlarning gullari qayerga yig'ilgan? **Ro'vaksimon to'pgullarga yig'ilgan.**

1931. Bignoniyadoshlarning mevasi har xil shakldagi nima? **Ko'sakcha.**

1932. Bignoniyadoshlarning nechtacha turkumi (urug'i) ma'lum? **120 tacha turkumi (urug'i) ma'lum.**

1933. Bignoniyadoshlarning nechtacha turi bor? **800 tacha turi bor.**

1934. Bignoniyadoshlar, asosan, qanday mamlakatlarda o'sadi? **Tropik va subtropik mamlakatlarda o'sadi.**

1935. Bignoniyadoshlarning qayerlarda bir qancha turi qanday holda uchraydi? **Uzoq Sharq va O'rta Osiyoda bir qancha turi yovvoyi holda uchraydi.**

1936. Bignoniyadoshlarning janubda nima degan turi qanday o'simlik sifatida o'stiriladi? **Katalpa degan turi manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.**

1937. Bignoniyadoshlarning ba'zi turlaridan qanday yog'och olinadi? **Qimmatbaho yog'och olinadi.**

1938. Bignoniyadoshlarning ba'zi turlaridan qimmatbaho nima olinadi? **Yog'och olinadi.**

1939. Bik g'o'zasi qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**

1940. Bik g'o'zasini birinchi marta nechanchi yilda qaysi ingliz olimi ta'riflab bergan? **1910-yilda L. Beyli ta'riflab bergan.**

1941. Bik g'o'zasi nechanchi yildan o'rganilmoqda? **1964-yildan.**

1942. Bik g'o'zasi qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Avstraliyaning ayrim shtatlarida.**

1943. Bik g'o'zasi qanday bo'yli buta? **Past bo'yli.**

1944. Bik g'o'zasining qanday shoxlari ko'p? **O'suv shoxlari ko'p.**

1945. Bik g'o'zasining shoxlari zich tutam-tutam nimalar bilan qoplangan? **Tuklar bilan qoplangan.**

1946. Bik g'o'zasining hosil shoxlari qanday (uzunmi yoki kaltami)? **Kalta.**

1947. Bik g'o'zasining hosil shoxlari necha bo'g'imli? **2 – 3 bo'g'imli.**

1948. Bik g'o'zasining poyasi qanday? **Ingichka.**

1949. Bik g'o'zasi qanday o'sadi? **Yer bag'irlab o'sadi.**

1950. Bik g'o'zasining gullari qanday? **Mayda.**

1951. Bik g'o'zasining gullari qanday shaklda? **Naysimon shaklda.**

1952. Bik g'o'zasining gulbargi qanday rangli? **Och binafsha rangli.**

1953. Bik g'o'zasining gulbargi asosida qanday dog' bor? **To'q olcha rang qizg'ish dog'i bor.**

1954. Bik g'o'zasining ko'saklari qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

1955. Bik g'o'zasining ko'saklari qanday shaklda? **Uzunchoq-tuxumsimon shaklda.**

1956. Bik g'o'zasining ko'sakchalarida sayoz nimalari bor? **Chuqurchalari bor.**

1957. Bik g'o'zasining ko'saklari necha chanoqli? **3 – 4 chanoqli.**

1958. Bik g'o'zasi ko'sagining har bir chanog'ida nechtadan mayda malla-yashil tuklar (uzunligi 4 mm) bilan qoplangan chigiti bor? **2 – 4 tadan.**

1959. Biologiya nima haqidagi ta'limot? **Hayot, tirik tabiat haqidagi ta'limot. Biologiya hayot jarayonlari va hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini o'rgatadigan ta'limot.**

1960. Biologiya terminini qayerlik olim, nechanchi yilda fanda ishlatgan? **Fransuz olimi, tabiatshunos J. B. Lamark 1801-yilda ishlatgan.**

1961. Biologiyaning tadqiqot uslub (metod)lari, asosan, nechta? Qaysilar? **To'rtta. Asosan, kuzatish, taqqoslash (qiyos), tajriba (eksperiment) va tarixiy uslublar.**

1962. Biologik hodisalardagi fizik va fizik-kimyoviy qonuniyatlar, yorug'lik, tovush, elektromagnit tebranishlar, radioaktiv nurlar va hokazo omillarning organizmga ta'sir etishi haqidagi fanning nomi nima? **Biofizika.**

1963. Biosferadagi geokimyo tarmog'ining nomi nima? **Biogeokimyo.**

1964. Biosistematika nimani o'rganadi? **Botanikaning bir bo'limi bo'lib, u o'simlik turining toksonomik va populyatsion tuzilishini, morfologik-geografik, ekologik va genetik differensiatsiyasi, kelib chiqishi va evolyutsiyasini o'rgatadi.**

1965. Biosfera haqidagi umumiy ta'limot XX asrning 20 – 30 yillarida qaysi rus akademigi tomonidan yaratilgan? **V. I. Vernadskiy.**

1966. Biota qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Sarvidoshlar (sarvigullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

1967. Biotaning bitta turi bo'lib, uning nomi nima? **Sharq biotasi (Thuja orientalis, Biota orientalis).**

1968. Biota o'simligining bo'yi necha m? **8 – 10 m.**

1969. Biota o'simligi nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

1970. Biota o'simligining vatani qaysi davlatlar? **Xitoy va Koreya.**

1971. Biota qayerlarda manzarali o'simlik sifatida ekiladi? **O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrim va Ukrainaning janubida, shuningdek, Farg'ona vodiysida va Samarqand viloyatining ba'zi joylarida ekiladi.**

1972. Binafsha fialka – Vilola L. turlari qaysi oilaga mansub bir yoki ko'p yillik o't o'simligi? **Binafshadoshlar - Violaseae oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o't o'simligi.**

1973. Binafsha fialkaning bo'yi necha sm gacha? **10-40 sm gacha.**

1974. Binafsha fialkaning poyasi qanday o'sadi? **Tik o'adi.**

1975. Binafsha fialka o'simligidan qaysi kasalliklarni davolashda foydalaniladi? **Raxit, revmatizm, podagra kasalliklarini davolashda foydalaniladi.**

1976. Binafsha, gunafsha – gunafshadoshlarga mansub necha yillik o'tsimon o'simlik? **Ko'p yillik o'tsimon o'simlik.**

1977. Binafsha, gunafsha o'simligi qaysi yarim sharning o'rta mintaqalarida tarqalgan? **Shimoliy yarim sharning o'rta mintaqalarida tarqalgan.**

1978. Binafsha, gunafsha o'simligining qancha turi ma'lum? **500 ga yaqin turi ma'lum.**

1979. Binafsha, gunafsha o'simligining O'zbekistonda nechta yovvoyi turi o'sadi? **14 ta turi o'sadi.**

1980. Binafsha, gunafsha o'simligining O'zbekistonda nechta madaniy turi o'stiriladi? **3 ta turi o'stiriladi.**

1981. Binafsha, gunafsha o'simligining guli qachon ochiladi? **Erta bahorda ochiladi.**

1982. Binafsha, gunafsha o'simligining poyasi qanday o'sadi? **Yer bag'irlab o'sadi.**

1983. Binafsha, gunafsha o'simligining gullari kattaligi, rangi, hidi qanday? **Gullari yirik, to'q safsar, oq, sariq, havorang, xushbo'y hidli.**

1984. Binafsha, gunafsha o'simligi yer tanlaydimi? **Yo'q, tanlamaydi.**

1985. Binafsha, gunafsha o'simligi qayerlarda ham o'sadi? **Salqin joylarda, shuningdek, qishda berk joylarda ham o'sadi.**

1986. Binafsha, gunafsha o'simligi, asosan, nimasidan ko'paytiriladi? **Urug'idan, ayrim turlari ildiz poyasini bo'lib ekish bilan ko'paytiriladi.**

1987. Binafsha, gunafsha o'simligining qaysi turi guli va bargidan necha foiz qanday moy olinadi? **Xushbo'y binafsha (V. odarata) turining guli (0,04 foiz) va bargi (0,05 foiz)dan efir moyi olinadi.**

1988. Binafsha, gunafsha o'simligining V. odarata turi qayerda ko'p ekiladi? **Qrimda ko'p ekiladi.**

1989. Binafshadoshlar, gunafshadoshlar, binafshagullilarning nechta turkumi ma'lum? **16 ta turkumi.**

1990. Binafshadoshlar nechta turdan iborat? **850 ta turdan iborat.**

1991. Binafshadoshlarga necha yillik o'simliklar, qanday bo'yli daraxtlar kiradi? **Bir va ko'p yillik o't, buta, chala buta va past bo'yli daraxtlar kiradi.**

1992. Binafshadoshlarning barglari, asosan, qanday joylashgan? **Butun, navbat bilan joylashgan.**

1993. Binafshadoshlarning gullari nechtadan bo'lib, qayerdan chiqadi? **Bittadan yoki ikkitadan bo'lib, barg qo'litig'idan chiqadi.**

1994. Binafshadoshlarning kosacha va tojbargları nechtadan? **5 tadan.**

1995. Binafshadoshlarning changchisi nechta? **5 ta.**

1996. Binafshadoshlarning urug'chisi nechta? **2 – 5 ta.**

1997. Binafshadoshlarga mansub nechta turkum O'zbekistonda o'sadi? **Bitta turkum O'zbekistonda o'sadi.**

1998. Binafshadoshlarning O'zbekistonda o'sadigani nomi nima? **Binafsha.**

1999. Binafshadoshlarning ayrim turlari qachon ochiladigan qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Bahorda ochiladigan xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi.**

2000. Bir tup tugmagul yiliga necha dona urug' beradi? **300 – 500 dona urug' beradi.**

2001. Bir tup palmadan yiliga qancha kg mum olish mumkin? **10 kg mum olish mumkin.**

2002. Bir tup rami o'simligida qancha poya rivojlanadi? **50 tadan ortiq poya rivojlanadi.**

2003. Bir necha turdan tashkil topgan zubturumdoshlarning litorella (Litorella) turkumi faqat qayerlarda uchraydi? **Yevropa, Azor orollari va Janubiy Amerikada uchraydi.**

2004. Bir turga oid o'simliklarning gullaridagi urug'chi ustunchalarning har xil uzunlikda bo'lishi nima deyiladi? **Geterostimiya, xoterostimiya deyiladi.**

2005. Bir turga oid o'simliklar qaysi o'simliklarda uchraydi? **Grechixa, navro'zgul va boshqa o'simliklarda uchraydi.**

2006. Bir turga mansub o'simliklar hujayralarida xromosomalar to'plami sonining bir necha marta ko'payishidan iborat irsiy o'zgarish nima deyiladi? **Avtopoliploidiya, autopoliploidiya deyiladi.**

2007. Bir yillik o'simliklar orasida butun rivojlanish jarayoni bir necha hafta ichida tugaydigan qanday o'simliklar guruhi ajralib turadi? **Efemer o'simliklar guruhiga ajralib turadi.**

2008. Bir yillik texnika ekinlariga qaysi o'simliklar kiradi? **Zig'ir, g'o'za, kartoshka, kungaboqar o'simliklari kiradi.**

2009. Bir yillik ildizmevalarga qaysi mevali o'simlik kiradi? **Rediska kiradi.**

2010. Bir yillik o'simliklar yilning ko'p davrini nima holida o'tkazadi? **Urug' holida o'tkazadi.**

2011. Bir yillik o'simliklar qanday zonalarda efemerlar, masalan: yulduzo't, qo'ng'irbosh bu vegetatsiya davrida bir necha bo'g'in berishi mumkin? **Namligi yetarli zonalarda efemerlar, masalan: yulduzo't, qo'ng'irbosh bir vegetatsiya davrida bir necha bo'g'in berishi mumkin.**

2012. Bir yillik o'simliklar o'zgarib turuvchi iqlim sharoitiga moslashgan ko'p yillik o'simliklarning qanday jarayonida shakllangan? **Evolyutsiya (tadrijiy) jarayonida shakllangan.**

2013. Bir pallali o'simliklar, bir urug' pallali o'simliklar qanday urug'li o'simliklar sinfi? **Yopiq urug'li o'simliklar sinfi.**

2014. Bir pallali o'simliklar murtagida nechta pallasi borligi bilan tavsiflanadi? **Bitta pallasi borligi bilan tavsiflanadi.**

2015. Bir pallali o'simliklarga qaysi o'simliklar kiradi? **Boshoqdoshlar, palmadoshlar va boshq. kiradi.**

2016. Bir yuz sakkiz-F (108-F) qanday tolali g'o'za navi? **O'rta tolali g'o'za navi.**

2017. Bir gulli o'simliklarning poyasi nimalanmaydi? **Shoxlanmaydi.**

2018. Bir gulli o'simliklar uchidan yolg'iz nima chiqaradi? **O'simliklar uchidan yolg'iz kurtak chiqaradi, masalan: lola, ko'knor, qizg'aldoq, parnossiya va boshq.**

2019. Bir jinsli gul qanday gul? **Faqat urug'chi (onalik)li yoki faqat changchi (otalik)li gul.**

2020. Bir uyli o'simliklarning gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

2021. Birinchi bo'lib qaysi o'simlik tarkibida alkaloidlar mavjudligi aniqlangan? **Parpi o'simligi tarkibida.**

2022. Birinchi marta qaysi rus akad. tomonidan XX asrning 30 – 50-yillarida yumshoq bug'doyni bug'doyiq bilan duragaylab, so'ngra duragaylararo chatishtirish va tanlash yo'li bilan bug'doyning ko'p yillik bug'doy (T. a. ssp. perenne) va bir yillik don – yem-xashak bug'doyi (T. a. ssp. submittans) kenja turlari bo'lgan yangi turi (Triticum agropyrotriticum) yaratilgan? **Akad. I. V. Sitsin tomonidan yaratilgan.**

2023. Bitta jen-shen ildizining og'irligi qancha g? **40 – 50 g.**

2024. Bitta g'uncha chiqarib, bitta gul va bitta meva hosil qiluvchi o'simliklar qanday o'simliklar? **Bir gulli o'simliklar.**

2025. Biyurg'un o'simligi qaysi oilaga mansub past bo'yli (5 – 25 sm) sershox gala buta? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub past bo'yli (5 – 25 sm) sershox gala buta.**

2026. Biyurg'un o'simligi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **1,22 foiz alkaloid, 7 – 9 foiz oksalat kislota, 1,38 foiz sirka kislota, ishqor moddalar bor.**

2027. Biyurg'un o'simligining bo'yi necha sm? **5 – 25 sm.**

2028. Biyurg'un o'simligining barglari mayda bo'lib, uzunligi necha mm? **2 – 5 mm.**

2029. Biyurg'un o'simligi, asosan, qayerlarda o'sadi? **Taqir, sho'r va sho'rok cho'llarda o'sadi.**

2030. Biyurg'un o'simligi qaysi oyda gullaydi? **Iyul oyida gullaydi.**

2031. Biyurg'un o'simligining urug'i qaysi oyda pishadi? **Sentabr oyida pishadi.**

2032. Biyurg'un o'simligi qaysi oylarda qaysi hayvonlar uchun yaxshi ozuqa bo'ladi? **Kech kuz va qish oylarida tuya, qo'y, echki va ot uchun yaxshi ozuqa bo'ladi.**

2033. Bihishti. Behishti o'rtapishar qaysi o'simlik navi? **Vinobop uzum navi.**

2034. Bihishti navli uzumning vatani qayer? **O'rta Osiyo.**

2035. Bihishti navli uzum qaysi viloyatda keng tarqalgan? **Buxoro viloyatida keng tarqalgan.**

2036. Bihishti navli uzumning tarkibida qand necha foiz? **18 – 20 foiz.**

2037. Bihishti navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

2038. Bihishti navli uzumning bargi kattaligi (uzunligi) o'rtacha necha sm? **14 – 17 sm.**

2039. Bihishti navli uzumning bargi shakli qanday? **To'garak yoki tuxumsimon.**

2040. Bihishti navli uzumning bargi necha bo'lakchali? **Uch bo'lakchali.**

2041. Bihishti navli uzum bargining cheti qanday tishli? **Mayda arra tishli.**

2042. Bihishti navli uzum boshining bo'yi necha sm? **20 – 30 sm.**

2043. Bihishti navli uzum boshining eni necha sm? **8 – 12 sm.**

2044. Bihishti navli uzumning boshi shakli qanday? **Silindrsimon.**

2045. Bihishti navli uzum boshining og'irligi qancha g? **200 – 250 g.**

2046. Bihishti navli uzum qachon pishadi? **Sentabr oyining oxirida pishadi.**

2047. Bihishti navli uzumning tarkibida organik kislota necha foiz? **5 – 5,5 foiz.**

2048. Bihishti navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **180-200 s/ga.**

2049. Bodom qaysi oilaga mansub daraxt? **Ra'nodoshlarga (anorgullilar) oilasiga mansub daraxt.**

2050. Bodom daraxtining bo'yi necha m? **8 – 10 m.**

2051. Bodom daraxtining ildizi necha m gacha o'sadi? **4 – 6 m gacha o'sadi.**

2052. Bodom daraxti necha yilgacha yashaydi? **60 yil, hatto 200 yilgacha yashaydi.**

2053. Bodomning bir donasi qancha g? **0,5 – 4 g.**

2054. Bodomning mag'zi necha foizgacha? **12 – 80 foizgacha.**

2055. Bodomning mag'zi tarkibida necha foiz yog', oqsil moddalar, qand, yelimsimon moddalar bor? **35 – 67 foiz yog', 25 foizgacha oqsil moddalar, 5 foiz qand, 3 foiz yelimsimon moddalar bor.**

2056. Bodom daraxtining barglari qanday joylashgan? **Navbat-ma-navbat joylashgan.**

2057. Bodom daraxtining gullari qachon ochiladi? **Hali barg yozmasdan turib ochiladi.**

2058. Bodom daraxtining mevalari qanday shaklda? **Cho'zinchoq tuxumsimon shaklda.**

2059. Bodom daraxtining mevasi bo'yi necha sm gacha? **3 sm gacha.**

2060. Bodom daraxtining mevasi qanday tuklar bilan qoplangan dukkakli meva? **Baxmaldek mayin tuklar bilan qoplangan dukkakli meva.**

2061. Bodom daraxti qaysi oylarda gullaydi? **Fevral – aprel oylarida gullaydi.**

2062. Bodom daraxti mevalari qaysi oylarda pishadi? **Iyun – iyul oylarida pishadi.**

2063. Bodom daraxti qayerlarda yovvoyi holda o'sadi? **Kopetdog', G'arbiy Tyanshan, Ozarbayjon, O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadi.**

2064. Bodom (achchiq va shirin) mag'zida qanday moddalar bor? **Amigdalin glikozidi, gematin, oqsil moddalar, saxaroza, emulsin fermenti bor.**

2065. Bodom (achchiq va shirin) mag'zida qanday vitamin bor? **B_2 vitamini bor.**

2066. Bodom mag'zidan olinadigan moyning necha foizi oleikat kislotadan iborat? **90 foizi.**

2067. Bodom mag'zini va bodom moyini qaysi hakim qanday kasalliklarga ishlatishni tavsiya etgan? **Abu Ali ibn Sino qon tuflash, yo'tal, astmaga qarshi ishlatishni tavsiya etgan.**

2068. Bodom mag'zini va bodom moyini qaysi hakim qanday kasalliklarga tavsiya qilgan? **Plevrit buyrak, qovuq kasalliklariga, siydik yo'llaridagi toshlarni tushirish uchun tavsiya qilgan.**

2069. Bodomning hamma turlari qaysi hakim fikricha, jigar, taloq, me'dani tozalaydi, miyaga yaxshi ta'sir ko'rsatib, ko'z quvvatini oshiradi? **Abu Ali ibn Sino fikricha.**

2070. Bodom (achchiq yoki shirin) mag'zi va moyini tabiblar qanday kasalliklarda tavsiya etishadi? **Me'da-ichak yo'li, o'pka eshituv a'zosining yallig'lanish kasalliklarida, kamqonlik, uyqusizlik, bosh og'rig'i, oyoq-qo'llar uvishishida tavsiya etishadi.**

2071. Bodom moyi zamonaviy tabobatda qanday mahallarda yengil surgi sifatida ishlatiladi? **Qabziyat mahallarida yengil surgi sifatida ishlatiladi.**

2072. Bodom moyidan qaysi sanoatda foydalaniladi? **Atir-upa sanoatida foydalaniladi.**

2073. Bodom moyidan nimalarga qarshi vosita sifatida foydalaniladi? **Antiseptik va yallig'lanishga.**

2074. Bodom (shirin) mag'zidan tayyorlangan emulsiya qanday kasalliklarda foyda beradi? **Giperatsid gastritlar, me'daning yara kasalliklarida foyda beradi.**

2075. Bodom (achchiq) suvini qanday vaqtlarda 10 – 15 tomchidan ichish tavsiya etiladi? **Yo'tal, qorin burab og'rib turgan paytlarda, asab buzilgan vaqtlarda 10 – 15 tomchidan ichish tavsiya etiladi.**

2076. Bodom moyi qaysi a'zoni yumshatish, nimalarni yo'qotish uchun ishlatiladi? **Badan terisini yumshatish, sepkil va husnbuzarlarni yo'qotish uchun ishlatiladi.**

2077. Bodom (achchiq) mag'zining nimasidan achchiq bodom suvi degan rasmiy preparat olish uchun foydalaniladi? **Kunjarasidan foydalaniladi.**

2078. Bodom (achchiq) mag'zining kunjarasidan achchiq bodom suvi degan rasmiy preparat qanday kasalliklarga tinchlantiradigan va og'riqni qoldiradigan vosita sifatida ishlatiladi? **Me'da-ichak yo'li kasalliklariga tinchlantiradigan va og'riqni qoldiradigan vosita sifatida ishlatiladi.**

2079. Bodom (achchiq) mag'zida nima degan zamonaviy modda bor? **Amigdalin glikozid degan zamonaviy modda bor.**

2080. Bodomcha qaysi oilaga mansub qanday buta? **Ra'nodoshlilar (atirgullilar) oilasiga mansub sershox va sertikan buta.**

2081. Bodomcha butasining bo'yi necha m? **1 – 2 m.**

2082. Bodomcha butasining mevasi mag'zi mazasi qanday? **Achchiq.**

2083. Bodomcha butasi qaysi oyda gullaydi? **Mart oyida.**

2084. Bodomcha butasining mevasi qaysi oyda pishadi? **Iyul oyida pishadi.**

2085. Bodomcha butasining bargi qanday? **Mayda, butun, tukli.**

2086. Bodomcha butasi qayerlarda o'sadi? **Janubiy rayonlardagi tog' etaklarida, adirlardagi toshloq yerlarda va qoyalarda o'sadi.**

2087. Bodomcha butasi mevasi qayerlarda ishlatiladi? **Xalq tabobatida va tibbiyotda ishlatiladi.**

2088. Bodomiy serhosil, jaydari nima navi? **O'rik navi.**

2089. Bodomiy o'rigi nimaga o'xshaydi? **Bodomga o'xshaydi.**

2090. Bodomiy o'rigi daraxtining balandligi necha m? **10 – 15 m, hatto undan ham ko'proq yashaydi.**

2091. Bodomiy o'rigi daraxti necha yil yashaydi? **60 – 80 yil.**

2092. Bodomiy o'rigi quritilganda necha foiz bargak tushadi? **21 – 22 foiz bargak tushadi.**

2093. Bodomiy o'rigi qaysi oyning birinchi yarmida pishadi? **Iyulning birinchi yarmida pishadi.**

2094. Bodomiy o'rigi daraxtining tupidan 20 – 25 yoshida qancha kg gacha hosil beradi? **200 kg gacha hosil beradi.**

2095. Bodomiy o'rigi ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosil beradi? **4–5 - yili hosil beradi.**

2096. Bodomiy o'rigi quritilganda necha foiz bargak tushadi? **21 – 22 foiz bargak tushadi.**

2097. Bodrezak, kalina qaysi oilaga mansub daraxt yoki buta? **Shilvidoshlar (uchqatgullilar) oilasiga mansub daraxt yoki buta.**

2098. Bodrezak daraxtining nechtacha turi ma'lum? **125 tacha turi ma'lum.**

2099. Bodrezak daraxtining po'stlog'ida qanday kislotalar va moddalar bor? **Viburnin glikozidi, organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor.**

2100. Bodrezak daraxtining mevasida necha foizgacha qand, qanday vitamin va moddalar bor? **32 foizgacha qand, C vitamini, oshlovchi moddalar bor.**

2101. Bodrezak daraxtining po'stlog'idan tayyorlangan ekstrakt va qaynatma nimani to'xtatadi? **Bachadondan qon ketishni to'xtatadi.**

2102. Bodrezak daraxtining po'stlog'idan tayyorlangan ekstrakt va qaynatma ayollar nima ko'rganda paydo bo'ladigan og'riqni qoldiradi? **Ayollar hayz ko'rganda paydo bo'ladigan og'riqni qoldiradi.**

2103. Bodrezak daraxtining mevasi xalq tabobatida qanday yaraga davo qilishda qo'llaniladi? **Me'da yarasiga.**

2104. Bodrezak daraxtining qaysi turi ko'p tarqalgan? **Chingiz (V. epulus) turi ko'p tarqalgan.**

2105. Bodrezak daraxtining balandligi necha m cha? **5 m cha.**

2106. Bodrezak daraxtining barglari qanday? **Keng.**

2107. Bodrezak daraxtining barglari qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

2108. Bodrezak daraxtining barglari qanday uchli? **O'tkir uchli.**

2109. Bodrezak daraxtining barglari necha bo'lakli? **3 – 5 bo'lakli.**

2110. Bodrezak daraxtining gullari rangi qanday? **Oq.**

2111. Bodrezak daraxtining mevasi rangi qanday? **Qizil.**

2112. Bodrezak daraxtining mevasi danaklimi yoki danaksizmi? **Danakli.**

2113. Bodrezak daraxti qayerlarda o'sadi? **Rossiyaning o'rmon va o'rmon-cho'l zonasida, Kavkaz, Qrim, Sharqiy Qozog'istondagi sernam o'rmonlarda ariq va ko'l yoqalarida; botqoq yerlarda o'sadi.**

2114. Bodrezak O'zbekistonda qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

2115. Bodring qaysi oilaga mansub ko'p yillik o'simlik? **Qovoqgullilar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

2116. Bodring o'simligining vatani qayer? **Hindiston.**

2117. Bodring o'simligi necha uyli? **Bir uyli.**

2118. Bodring o'simligi qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

2119. Bodring o'simligining gultojbargi necha dona? **5 dona.**

2120. Bodring o'simligi mevasida necha foiz qanday moddalar bor? **92,7 – 97,7 foiz suv, 1,1 – 3,7 foiz qand, linseras tuzlari bor.**

2121. Bodring o'simligi mil. avv. nechanchi ming yillikdan beri ma'lum? **3-ming yillikdan beri ma'lum.**

2122. Bodring o'simligining palagi necha m gacha boradi? **1,5 – 2 m gacha.**

2123. Bodring o'simligining mevasi tarkibida qanday moy bor? **Efir moyi bor.**

2124. Bodring o'simligining otalik gullari barg qo'ltig'ida nechtadan, onalik gullari qachon paydo bo'lib, barg qo'ltig'ida nechtadan, tezpishar navlari nechtadan joylashadi? **Bittadan, otalik gullaridan keyinroq paydo bo'lib, bittadan, 2 – 3 tadan joylashadi.**

2125. Bodring qanday o'simlik? **Issiqsevar o'simlik.**

2126. Bodring o'simligining urug'i tuproq harorati qancha °C bo'lganda una boshlaydi? **Harorat 14° C – 15° C bo'lganda una boshlaydi.**

2127. Bodring o'simligi harorat qancha °C bo'lganda yaxshi ko'karadi? **Harorat 25° C – 30° C bo'lganda yaxshi ko'karadi.**

2128. Bodring o'simligining ertapishari ochiq dalaga qachon ekiladi? **Aprelning birinchi yarmida dalaga ekiladi.**

2129. Bodring o'simligining o'rtapishari qachon ekiladi? **May oyining oxirlarida ekiladi.**

2130. Bodring o'simligining kechpishari qachon ekiladi? **Iyunning o'rtasi va iyulning boshida ekiladi.**

2131. Bodring o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May – avgust oylarida gullaydi.**

2132. Bodring o'simligining mevasida qaysi guruh vitaminlari, qaysi vitaminlar bor? **B gurh vitaminlari, C, E, PP vitaminlari bor.**

2133. Bodring o'simligining egat orasi necha sm dan olib, qanday qatorlab yoki necha sm dan olib, qanday qatorlab ekiladi? **120 – 140 sm dan olib, yakka qatorlab yoki 210 – 240 sm dan olib, qo'sh qatorlab ekiladi.**

2134. Bodring o'simligining urug'i har uyaga necha kun ivitib qo'yilgandan so'ng necha dona urug' tashlab ekiladi? **2 – 3 kun ivitib qo'yilgan 5 – 8 dona urug' tashlab ekiladi.**

2135. Bodring o'simligining urug'i qatorlab ekilganda tup oralig'i necha sm, to'g'ri burchakli uyalab ekilganda necha sm qilinadi? **35 – 40 sm. 70 sm qilinadi.**

2136. Bodring o'simligi ko'karib chiqqandan so'ng, ertagisi necha kunda gullaydi? **30 – 40 kunda gullaydi.**

2137. Bodring o'simligi ko'karib chiqqach, kechkisi necha kunda gullaydi? **50 – 60 kunda gullaydi.**

2138. Bodring o'simligining tukkan mevasi necha kunda yetiladi? **8 – 10 kunda etiladi.**

2139. Bodring o'simligi iqlim va tuproq sharoitiga qarab har necha kunda sug'oriladi? **5 – 12 kunda sug'oriladi.**

2140. Bodring o'simligi qanday yerlarda yaxshi o'sadi? **Sho'rlanmagan, sizot suvlari chuqur joylashgan yerlarda yaxshi o'sadi.**

2141. Bodring o'simligining mevasini qancha vaqtda terish kerak? **Har kuni yoki kun oralatib terish kerak.**

2142. Bodring o'simligining mmasi tibbiyotda dori-darmon sifatida ishlatiladi? **Sharbati tibbiyotda dori-darmon sifatida ishlatiladi.**

2143. Bodring o'simligining O'zbekistonda seleksiya yo'li bilan yaxshilangan qaysi navi ekiladi? **Marg'ilon 822 navi ekiladi.**

2144. Bodring o'simligining Marg'ilon 822 navining mevasi bo'yi necha sm? **16 – 18 sm.**

2145. Bodring o'simligining Marg'ilon 822 navining mevasi eni necha sm? **5 – 6 sm.**

2146. Bodring o'simligining Marg'ilon 822 navining bir dona mevasining og'irligi qancha g? **130 – 240 g.**

2147. Bodring o'simligining Marg'ilon 822 navi hosildorligi qancha s/ga? **300 – 350 s/ga.**

2148. Bodring o'simligining O'zbekiston 740 navi mevasi bo'yi necha sm? **10 – 13 sm.**

2149. Bodring o'simligining O'zbekiston 740 navi mevasi eni necha sm? **4 – 5 sm.**

2150. Bodring o'simligining O'zbekiston 740 navining bir dona mevasi og'irligi qancha g? **100 – 180 g.**

2151. Bodring o'simligining O'zbekiston 740 navi hosildorligi qancha s/ga? **340 – 375 s/ga.**

2152. Bodring o'simligining Qo'yliq 262 navi mevasining bo'yi necha sm? **10 – 11 sm.**

2153. Bodring o'simligining Qo'yliq 262 navi mevasining eni necha sm? **3 – 4 sm.**

2154. Bodring o'simligining Qo'yliq 262 navi mevasining og'irligi qancha g? **105 – 110 g.**

2155. Bodring o'simligining Qo'yliq 262 navi ertagi qilib ekilganda hosildorligi qancha s/ga? **330 – 350 s/ga.**

2156. Bodring o'simligining Qo'yliq 262 navi kechki qilib ekilganda hosildorligi qancha s/ga? **120 – 160 s/ga.**

2157. Bodring o'simligining qaysi navlari serhosilligi bilan ajralib turadi? **Ertagi 645, Hisor 132 navlari serhosilligi bilan ajralib turadi.**

2158. Bodring o'simligi issiqxonalarda yetishtirilganda 1 m^2 maydondan qancha kg hosil olinadi? **20 – 35 kg hosil olinadi.**

2159. Bodring o'simligining mevasi xalq tabobatida qanday vosita sifatida qo'llaniladi? **Ishtahu ochadigan, siydik va o't haydaydigan, ichni yumshatadigan vosita sifatida qo'llaniladi.**

2160. Bodring suvi, urug'laridan tayyorlangan emulsiyasi va po'sti qayerlarga qo'yish uchun ishlatiladi? **Husnbuzar, sepkil va boshqa dog'larni yo'qotish, oftob urgan, qontalashgan joylarga qo'yish uchun ishlatiladi.**

2161. Bodring suvini asalga aralashtirib ichilsa, qaysi kasalga davo bo'ladi? **Yo'talga.**

2162. Bodring qaysi hakim fikriga ko'ra, odamning haroratini tushirib, chanqog'ini bosadi, me'dani mustahkamlab, siydik (peshob)ni kuchaytiradi? **Abu Ali ibn Sino fikriga ko'ra.**

2163. Bodring qanday suyuqlikni haydovchi ta'sir ko'rsatadi? **Siydikni haydovchi ta'sir ko'rsatadi.**

2164. Bodring qanday kasalliklarda shifo? **Jigar kasalliklarida, quvuq yallig'lanib qolganida shifo.**

2165. Bodring qaysi a'zolarni tozalaydi? **Tomirlarni tozalaydi.**

2166. Bodringni nima uchun kashnich, ukrop, zira bilan qo'shib yeyish tavsiya qilinadi? **Chunki faqat bodringning o'zi yeyilsa, qorinni dam qilib, sanchiq turishiga sabab bo'lishi mumkin, bodringning bunday nojo'ya ta'sirini yo'qotish uchun kashnich, ukrop, zira bilan qo'shib eyish tavsiya qilinadi.**

2167. Bodringdan zamonaviy tabobatda qanday maqsadlarda foydalaniladi? **Me'da shirasi chiqishini ko'paytirish, o't ajralishini kuchaytirish, me'da-ichaklar harakatini yaxshilash uchun foydalaniladi.**

2168 Bodring qanday kasallik bilan og'rigan bemorlarga foydali deb hisoblanadi? Nima uchun? **Siydik-tosh kasalligi bilan og'rigan bemorlarga foydali deb hisoblanadi. Chunki bodring tarkibida ishqoriy tabiatga ega bo'lgan minerallar ko'p.**

2169 Bodring tarkibida kaliy tuzlari bo'lganidan qanday kasal odamlarga foydali? **Yuragi kasal odamlarga foydali.**

2170. Bodring tarkibidagi yod borligi qanday bemorga foyda beradi? **Qalqonsimon bez ishi susaygan bemorga foyda beradi.**

2171. Boyken serhosil qishki qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

2172. Boyken serhosil qishki olma O'zbekistonda nechanchi asr oxiridan boshlab tarqalgan? **XIX asr oxiridan boshlab tarqalgan.**

2173. Boyken olmasi XX asrning nechanchi yillarigacha ko'p ekilgan? **50-yillargacha ko'p ekilgan.**

2174. Boyken-serhosil qishki olma tupidan qancha kg hosil olinadi? **500 – 550 kg hosil olinadi.**

2175. Boyken olmasi sovuqqa qanday? **Chidamli.**

2176. Boyken olmasining ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **6-7-yili hosilga kiradi.**

2177. Boyken olmasi daraxtining balandligi necha m? **7 – 8 m.**

2178. Boyken olmasi daraxti shox-shabbasining eni necha m? **5 – 6 m.**

2179. Boyken olmasining bir donasi og'irligi qancha g? **250 – 300 g.**

2180. Boyken olmasi O'zbekistonning qaysi viloyatlari uchun rayonlashtirilgan? **O'zbekistonning hamma viloyatlari uchun rayonlashtirilgan.**

2181. Boyken olmasini qaysi oy oxirida uzib, qaysi oygacha saqlash mumkin? **Sentabr oyi oxirida uzib, mart oyigacha saqlash mumkin.**

2182. Boyken olmasi hozir O'zbekistonda qanday (ko'pmi yoki kammi) uchraydi? **Kam uchraydi.**

2183. Boyxalcha qaysi oilaga mansub necha yillik, qanday ildizli o't? **Zirakdoshlar (zirakgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik, tuganak ildizli o't.**

2184. Boyxalcha o'tining poya va barglarida, tuganak ildizida qanday moddalar bor? **Poya va barglarida alkaloidlar, tuganak ildizida saponin moddalari bor.**

2185. Boyxalcha o'tining bo'yi necha sm? **20 – 30 sm.**

2186. Boyxalcha o'tining bargi necha qo'shaloq? **Uch qo'shaloq.**

2187. Boyxalcha o'ti qachon gullaydi? **Yerdan qor ketishi bilan ko'karib chiqib gullaydi.**

2188. Boyxalcha o'ti qayerlarda ko'plab o'sadi? **Tog'li rayonlardagi butazor va daraxtzorlarda ko'plab o'sadi.**

2189. Boychechak o'simligi qanday tuproqli yerlarda o'sadi? **Cho'l va adirlarning soz tuproq, qumloq hamda toshloq tuproqli yerlarida o'sadi.**

2190. Boychechak o'simligi qaysi oilaga mansub necha yilik o't? **Piyozdoshlar oilasiga mansub ko'p yilik o't.**

2191. Boychechak o'simligi qaysi davlatlarda ham uchraydi? **Afg'oniston va Eronda ham uchraydi.**

2192. Boychechak o'simligining changchisi nechta? **6 ta.**

2193. Boychechak o'simligining tuguncha si necha uyali? **3 uyali.**

2194. Boychechak o'simligining bo'yi necha sm? **7-20 sm.**

2195. Boychechak o'simligi qaysi oylarda gullab, meva beradi? **Fevral-mart oylarida gullab, meva beradi.**

2196. Boychechak o'simligi qaysi fasl darakchilaridan biri? **Bahor fasli darakchilaridan biri.**

2197. Boychechak o'simligining gulqo'rg'oni nechta? **6 ta.**

2198. Boychechak o'simligi necha mm uzunlikdagi gulbarglardan tashkil topgan? **5 – 7 mm uzunlikdagi gulbarglardan tashkil topgan.**

2199. Boychechak o'simligi qanday yerlarda o'sadi? **Cho'l va adirlarning soz tuproq, qumoq hamda toshloq tuproqli yerlarida o'sadi.**

2200. Boyqo'rg'on o'rtapishar qovun navi qaysi viloyatlarda ekiladi? **Toshkent, Sirdaryo, Buxoro viloyatlarida ekiladi.**

2201. Bozulbang qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Yalpizdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

2202. Bozulbang o'simligining poyasi va barglaridan tayyorlangan ekstrakt qayerda ishlatiladi? **Tibbiyotda ishlatiladi.**

2203. Bozulbang o'simligi gullash davrida poyasi va barglarida qanday moddalar, kislotalar, vitamin, tuzlar bo'ladi? **Lagoxilin, staxidrin, smola, efir moyi, oshlovchi moddalar, qand, organik kislotalar, flavinglinozidlar, karotin, C vitamini, kalsiy va temir tuzlari bo'ladi.**

2204. Bozulbang o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatlari tog' etaklaridagi soz tuproq yerlarida, toshloq yon bag'irlarida va adirlarda o'sadi? **O'zbekistonning Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari tog' etaklaridagi soz tuproq yerlarida, toshloq yon bag'irlarida va adirlarda o'sadi.**

2205. Bozulbang o'simligining bo'yi necha sm? **20 – 40 sm.**

2206. Bozulbang o'simligining gullari poyaning har bir bo'g'imida nechtadan? **4 – 6 tadan.**

2207. Bozulbang o'simligi qaysi oydan qaysi oygacha gullaydi? **Iyundan avgustgacha gullaydi.**

2208. Bolgar qalampiri, chuchuk garmdori tomatdoshlarga mansub necha yillik sabzavot ekini? **Bir yillik sabzavot ekini.**

2209. Bolgar qalampirining vatani qayer? **Amerika.**

2210. Bolgar qalampiri tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **10 - 11 foiz quruq modda, 2 – 6 foiz qand, kraxmal, 1,5 foiz oqsil, yog', kletchatka, C vitamini (100 g da 800 mg), oz miqdorda B_1 va B_2 vitaminlari, karotin bor.**

2211. Bolgar qalampirining qaysi navlari O'zbekistonda ekiladi? **Bolgar 79, Toshkent sovg'asi, Yirik sariq 903 navlari ekiladi.**

2212. Bolgar qalampiri qayerlarda ko'p ekiladi? **Markaziy Osiyoda, ayniqsa O'zbekistonda ko'p ekiladi.**

2213. Bolgar qalampiri ko'karib chiqqandan keyin mevasi necha kunda yetiladi? **130 – 138 kunda etiladi.**

2214. Bolgar qalampirining bo'yi, eni necha sm? **Bo'yi 10 – 11 sm, eni 5 – 6 sm.**

2215. Bolgar qalampirining gultoj bargları rangi qanday? **Oq.**

2216. Bolgar qalampirining gulkosasi shakli qanday? **Yalpoq.**

2217. Bolgar qalampirining ayrim navlari pishganda qanday rangga kiradi? **Qizil rangga kiradi.**

2218. Bolgar qalampirining urug'i qachon parnik yoki issiqxonaga sepiladi? **Fevral oyining boshida parnik yoki issiqxonaga sepiladi.**

2219. Bolgar qalampirining maysalari necha kunda ko'rinib chiqadi? **8 – 12 kunda ko'rinib chiqadi.**

2220. Bolgar qalampiri dastlab har necha kunda, keyin har necha kunda sug'oriladi? **8 – 10 kunda, 11 – 13 kunda sug'oriladi.**

2221. Bolgar qalampirining qator oralari necha marta yumshatiladi? **4 – 5 marta yumshatiladi.**

2222. Bolgar qalampirining hosildorligi qancha s/ga? **300 s/ga.**

2223. Boldirqora qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Qirqquloqdoshlar (qirqquloqlar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

2224. Boldirqora o'ti qayerlarda o'sadi? **Tog'lardagi g'orlarda, qoyalarda soya va sernam yoriqlarida, buloq yoqasida o'sadi.**

2225. Boldirqora o'tining poyasi hamda barglaridan tayyorlanadigan poroshok va ekstraktlar qanday dori sifatida ishlatiladi? **Safro va siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, ko'krak og'riqlari va nafas qisilishini bosuvchi dori sifatida ishlatiladi.**

2226. Boldirg'on qaysi oilaga mansub o'simlik? **Ra'noguldoshlar oilasiga mansub o'simlik.**

2227. Boltiriq – butguldoshlarga mansub necha yillik begona o't? **Ko'p yillik begona o't.**

2228. Boltiriq o'simligining bo'yi necha sm? **15 – 20 sm.**

2229. Boltiriq o'simligining barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

2230. Boltiriq o'simligining mevasi necha urug'li qo'zoq? **To'rt urug'li qo'zoq.**

2231. Boltiriq o'simligi qaysi oylarda gullaydi va mevalaydi? **Aprel-iyun oylarida gullaydi va mevalaydi.**

2232. Boltiriq o'simligi nimalaridan ko'payadi? **Urug'idan hamda ildiz bachkilaridan ko'payadi.**

2233. Boltiriq o'simligining bir tupi nechtagacha urug' beradi? **3 – 5 mingtagacha urug' beradi.**

2234. Boltiriq o'simligining urug'lari, asosan, nima orqali tarqaladi? **Suv orqali tarqaladi.**

2235. Boltiriq o'simligi qancha ° C haroratda unib chiqadi? **15° C – 20° C haroratda unib chiqadi.**

2236. Boltiriq o'simligining ildizi bo'lib, tuproqqa necha m gacha chuqurlikka kiradi? **1,5 – 2 m gacha chuqurlikka kiradi.**

2237. Boltiriq o'simligi nimalarga chidamli? **Qurg'oqchilik va sho'rga chidamli.**

2238. Boltiriq o'simligi qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

2239. Boltiriq o'simligi qayerlarda uchraydi? **Bedapoyalar, paxtazor, sug'oriladigan va lalmi ekinlar orasida, yo'l yoqalari, tashlandiq yerlar, ariq bo'ylari, bog'-uzumzorlarda uchraydi.**

2240. Bolut qaysi oilaga mansub yirik daraxtlar yoki butalar turkumi? **Qoraqayindoshlar (qoraqayingullilar) oilasiga mansub yirik daraxtlar yoki butalar turkumi.**

2241. Bolqin qaysi oilaga mansub tuksiz chala buta? **Yulg'undoshlar (yulg'unsimonlar) oilasiga mansub tuksiz chala buta.**

2242. Bolqin chala butaning bo'yi necha m cha? **2 m cha.**

2243. Bolqin chala butaning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

2244. Bolqin chala butaning gultoji nechta gultojibargdan iborat? **5 ta.**

2245. Bolqin chala butaning changchilari nechta? **10 ta.**

2246. Bolqin chala buta changchilarining neciatasi uzun? **5 tasi.**

2247. Bolqin chala butaning barglari qanday shaklda? **Tuxumsimon yoki nashtarsimon shaklda.**

2248. Bolqin chala butaning bargları qanday (bandli yoki bandsizmi)? **Bandsiz.**

2249. Bolqin chala butaning barglari uzunligi necha mm? **10-12 mm.**

2250. Bolqin chala butaning ko'sagi qanday (silliqmi yoki notekismi)? **Silliq.**

2251. Bolqin chala buta ko'sagi uzunligi necha mm? **10 mm.**

2252. Bolqin chala buta ko'sagining eni necha mm? **3 mm.**

2253. Bolqin chala buta qaysi oydan qaysi oygacha gullaydi? **May oyidan sentabr oyigacha gullaydi.**

2254. Bolqin chala buta qaysi viloyatlarning tog'li hududlarida o'sadi? **Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining tog'li hududlarida o'sadi.**

2255. Bolquray qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Soyabondoshlar (soyabongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

2256. Bolquray o't qayerlarda o'sadi? **Qizilqumdagi qumloq yerlarda o'sadi.**

2257. Bolquray o'tining poyasi va ildizi qanday? **Poyasi va ildizi sutli.**

2258. Bolquray o'ti sutida qanday moddalar bor? **Sutida efir moyi, smola va kamed (elim) bor.**

2259. Bolquray o'tining ildizi nimaga o'xshab yo'g'onlashgan bo'ladi? **Ildizi turpga o'xshab yo'g'onlashgan bo'ladi.**

2260. Bolquray o'ti qanday dori sifatida ishlatiladi? **Balg'am ko'chiruvchi va siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi.**

2261. Bombaksdoshlar, baobabdoshlar necha pallalilar sinfiga mansub o'simliklar oilasi? **Ikki pallalilar sinfiga mansub o'simliklar oilasi.**

2262. Bombaksdoshlar necha jinsli? **Ikki jinsli.**

2263. Bombaksdoshlarning kosabarg va tojbarglari nechtadan? **5 tadan, ba'zan tojbarglari bo'lmaydi.**

2264. Bombaksdoshlarning changchilari nechta? **5 ta yoki ko'p.**

2265. Bombaksdoshlarning nechta turkumi ma'lum? **28 ta turkumi ma'lum.**

2266. Bombaksdoshlarning qancha turi ma'lum? **190 ga yaqin turi ma'lum.**

2267. Borjoq butasi qaysi oylarda gullab, qaysi oyda urug'laydi? **Aprel-may oylarida gullab, iyul oyida urug'laydi.**

2268. Borjoq qaysi oilaga mansub sershox, doim yashil buta? **Zog'ozadoshlar (qizilchadosh, zog'ozagullilar) oilasiga mansub sershox, doim yashil buta.**

2269. Borjoq butasining bo'yi necha m keladi? **1 – 2 m keladi.**

2270. Borjoq butasining novdalarida qanday modda bor? **Protein moddasi bor.**

2271. Borjoq butasidan ba'zan chorva mollarining qaysi zararkunandasini tushirish

2272. Borjoq butasida qanday alkaloidlar, poyasida qaysi moddalar bor? **Butasida efedrin va psevdoefedrin alkaloidlari, poyasida oshlovchi moddalar (tannin) bor.**

2273. Borjoq butasi qayerlardagi qumtepalarda qaysi o'simliklar bilan birga o'sadi? **Qoraqum va Qizilqum qumtepalarda saksovul, qandim (juzg'un) kabilar bilan birga o'sadi.**

2274. Bosvoldi – o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

2275. Bosvoldi navli o'rtapishar qovun tarkibida qand necha foiz? **7 – 8,6 foiz.**

2276. Bosvoldi navli o'rtapishar qovun tarkibida necha foiz saxaroza, quruq modda bor? **3,5 – 4,5 foiz saxaroza, 8,5 – 10 foiz quruq modda bor.**

2277. Bosvoldi navli o'rtapishar qovun urug'i ekilganda unib chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **85 – 90 kunda pishadi.**

2278. Bosvoldi navli o'rtapishar qovunning hosildorligi qancha s/ga? **170 – 250 s/ga.**

2279. Bosvoldi navli o'rtapishar qovunning 2417 navi qaysi viloyatlarda ekiladi? **Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlarida ekiladi.**

2280. Botanikaning o'simlik changi va sporasini o'rganadigan tarmog'i nima deyiladi? **Polinologiya deyiladi.**

2281. Botanikaning meva va urug'larni o'rganuvchi bo'limiga nima deyiladi? **Karpologiya deyiladi.**

2282. Botrik to'pgul qaysi jihatlari bilan tavsiflanadi? **Botrik to'gul monopodial shoxlanishi va gullarining markazga qarab (pastdan yuqoriga) ochilishi bilan tavsiflanadi.**

2283. Botqoq qirqquloq'ining ildizpoyasi qanday (yo'g'onmi yoki ingichkami)? **Ingichka.**

2284. Botqoq qirqquloq'ining ildizpoyasi rangi qanday? **Qoramtir.**

2285. Botqoq qirqquloq'ining ildizpoyasi nimalar bilan o'ralgan? **Eski barg bandlari bilan o'ralgan.**

2286. Botqoqlik va quruqlikda yashashga moslashgan qadimgi o'simliklar oilasi nima? **Psilofitsimonlar oilasi.**

2287. Bosbog'riqo't qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Qo-**

qidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.

2289. Boshog'riqo'tning guli qanday rangda? **Sariq rangda.**

2290. Boshog'riqo't qaysi oylarda gullab, qaysi oyda urug'laydi? **May-iyul oylarida gullab, avgust oyida urug'laydi.**

2291. Boshog'riqo't poyasi, bargi va guli dan tayyorlanadigan qaynatmadan xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda va nimani to'xtatishda foydalaniladi? **Oshqozon, sil va bavosil kasalliklarini davolashda va qonni to'xtatishda foydalaniladi.**

2292. Boshog'riqo't gul savatchalari poya uchida qalqonsimon murakkab nima hosil qiladi? **To'pgul hosil qiladi.**

2293. Boshog'riqo't qayerlarda tarqalgan? **Tog' etaklari, cho'l va adirlarda tarqalgan.**

2294. Boshog'riqo't qayerlarda o'sadi? **Ariqlar bo'yida, yo'llar yaqinida, shuningdek, begona o't sifatida ekinlar orasida ham o'sadi.**

2295. Boshog'riqo't (qurtilmagan)da necha foiz efir moyi bo'lib, bu moy tarkibida necha foiz sinsol, necha foiz *a* pinen, necha foizga yaqin efir va spirt borligi aniqlangan? **0,056 – 11 foiz efir moyi bo'lib, bu moy tarkibida 53 – 56 foiz kamfora, 15 – 20 foiz sinsol, 10 – 15 foiz *a*-pinen, 20 foizga yaqin efir va spirt borligi aniqlangan.**

2296. Boshog'riqo'tdan qanday modda olish mumkin? **Tabiiy kamfora moddasi olish mumkin.**

2297. Boshoq, asosan, qanday o'simliklarga xos? **Donli o'simliklarga xos.**

2298. Boyalich qaysi oilaga mansub sershox buta? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub sershox buta.**

2299. Boyalich butasi necha yillik o'simlik? **Bir yillik o'simlik.**

2300. Boyalich butasining bo'yi necha sm? **20 – 100 sm.**

2301. Boyalich butasi qaysi oyda gullaydi? **Iyun oyida gullaydi.**

2302. Boyalich butasining urug'i qaysi oyda pishadi? **Sentabr oyida pishadi.**

2303. Boyalich butasi bargi qalami bo'lib, uzunligi necha mm? **5 – 35 mm.**

2304. Boyalich butasi tarkibida qanday moddalar bor? **20,1 foiz kul, 9,1 foiz protein, 1,8 foiz yog', 21,9 foiz kletchatka, 47,9 foiz azotsiz ekstrakt moddalar bor.**

2305. Boyalich o'tining vashil qismida qanday moddalar necha foiz bor? **Boyalishning yashil qismida 1,5 foiz limon kislota, 0,03 foiz alkaloidlar bor.**

2306. Boyalich butasi, asosan, qayerlarda o'sadi? **Cho'llardagi qumloq yerlarda o'sadi.**

2307. Boyalichning butasi bargi va yosh novdalarini qaysi hayvonlar xush ko'radi? **Tuya, qo'y va echkilar xush ko'radi.**

2308. Boqla, burchoq qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Burchoqdoshlar (dukkakdoshlar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

2309. Boqla o'simligining qancha turi bor? **100 ga yaqin turi bor.**

2310. Boqla o'simligining mevasi necha urug'li? **4 – 8 urug'li.**

2311. Boqla o'simligining mevasi urug'i tarkibida necha foiz oqsil bor? **24 – 30 foiz.**

2312. Boqla o'simligining poyasi necha qirrali? **To'rt qirrali.**

2313. Boqla o'simligining gullari qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi.**

2314. Bog' yertutining poyasi qisqa bo'lib, bo'yi necha sm? **10 sm.**

2315. Bog' yertut o'simligi popuk ildizi yer ostida necha sm chuqurlikda joylashgan? **20 – 25 sm, ba'zilari 50 – 60 sm gacha chuqurlikda joylashgan.**

2316. Bog' yertut o'simligining bargi necha bo'lakli? **Uch bo'lakli.**

2317. Bog' yertut o'simligining bargi bandi uzunligi necha sm? **10 – 30 sm.**

2318. Bog' yertut o'simligining qayerda bargi yozin-qishin yashil? **Janubda bargi yozin-qishin yashil.**

2319. Bog' yertut o'simligi qaysi faslda barq urib o'sib, gullaydi? **Bahorda barq urib o'sib, gullaydi.**

2320. Braziliya mumi palmalar yoki karnaubaning bo'yi necha m? **10-12 m.**

2321. Braziliya mumi palmalar yoki karnaubaning bargi qanday shaklda? **Elpig'ichsimon shaklda.**

2322. Braziliya mumi palmalar yoki karnaubaning diametri necha m gacha? **2 m gacha.**

2323. Briologiya nimani o'rganadi? **Botanikadagi yo'sinlarni o'rganadi. Briologiya so'nggi yillarda alohida fan bo'lib tanildi.**

2324. Briologiya qanday jarayonlarni o'rganadi? **Briologiya torf hosil bo'lishi, yo'sinlar o'sgan yerlarda asta-sekin tuproq hosil bo'lishi kabi xo'jalik uchun ahamiyati katta jarayonlarni o'rganadi.**

2325. Briologiyaning hozirgi vaqtda qanday sohalari bor? **Hozirgi vaqtda briologiyaning briotsenologiya, brioskologiya, briogeografiya, briofiziologiya kabi sohalari bor.**

2326. Brioniya nimalarga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi? **Qovoqdoshlarga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

2327. Brioniyaning nechta turi ma'lum? **15 ta turi ma'lum.**

2328. Brioniyaning nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **4 ta turi uchraydi.**

2329. Brioniya qayerlarda o'sadi? **Kavkaz va O'rta Osiyoda o'sadi.**

2330. Brioniya xalq tabobatida qanday qasalliklarni davolashda foydalaniladi? **Xalq tabobatida og'riq qoldiruvchi, qon to'xtatuvchi surgi dori sifatida, yo'tal va yaralarni davolashda foydalaniladi.**

2331. Brioniyaning O'zbekistonda uchraydigan tarvuzpalak (B. dioica) tarkibida qaysi moddalar bor? **Briomarid, briodulkozid va boshqa moddalar bor.**

2332. Brusnika qaysi oilaga mansub doim qanday yarim buta? **Brusnikadoshlar (brusnikagullilar) oilasiga mansub doim yashil yarim buta.**

2333. Brusnika butasining bo'yi necha sm? **25 sm.**

2334. Brusnika butasi bargidan tayyorlangan ekstrakt va qaynatma qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Bargidan tayyorlangan ekstrakt va qaynatma buyrak toshi kasalligi, revmatizm, podagra kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

2335. Brusnika yarim buta o'simligi qayerlarda o'sadi? **Rossiya Federatsiyasining o'rmon va tundra zonalarida hamda Kavkaz tog'larida o'sadi, ammo O'zbekistonda uchramaydi.**

2336. Brusnika yarim butasining mevasi qaysi kasallikka ishlatiladi? **Avitaminoz kasallikka ishlatiladi.**

2337. Brusnika yarim buta bo'lib, uning bargida qanday moddalar bor? **9 foizgacha arbutin glikozidi, gidroxinon, giperozid, oshlovchi va boshqa moddalar bor.**

2338. Brusnika yarim butasi mevasida qanday moddalar bor? **10,33 foiz gacha qand, organik kislotalar, vanitsinin glikozidi bor.**

2339. Bryukva qaysi oilaga mansub ildizmevali necha yillik o't o'simlik? **Butadoshlar oilasiga mansub ikki yillik o't o'simlik.**

2340. Bryukva o'simligining ildizmevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **5 – 10 foiz qand, 0,6 – 2 foiz oqsil, karotin, askorbin (kislota, mineral moddalar, gorchitsa (xantal) moyi bor.**

2341. Bryukva qanday zonada etishtiriladi? **Yevropa, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Rossiyaning noqoratuproq zonasida yetishtiriladi.**

2342. Bryukva ekilgandan keyin birinchi yili qanday barglar hosil qiladi? **Yirik ildizmeva va yirik (uzunligi 60 sm dan ortiq) savatcha barglar hosil qiladi.**

2343. Bryukva o'simligining ildizmevasi qayerlarda ishlatiladi? **Xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda, shuningdek, oziq-ovqatga ishlatiladi.**

2344. Bryukva o'simligining mevasi – urug'li nima? **Qo'zoq.**

2345. Bryukva o'simligining mevasi urug'i qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

2346. Bryukva o'simligi ekilgandan keyin birinchi yili yirik ildizmeva va yirik (uzunligi 60 sm dan ortiq) savatcha barglari hosil qiladi, keyingi yili nimalar chiqaradi? **Gulpoyalar chiqaradi.**

2347. Bryussel karami qaysi oilaga mansub necha yillik sabzavot ekini? **Krestguldoshlar oilasiga mansub ikki yillik sabzavot ekini.**

2348. Bryussel karami tarkibida necha foiz qanday moddalar va vitamin bor? **2 – 5 foiz qand, 5,5 – 7 foiz oqsil, 70 – 290 mg C vitamini bor.**

2349. Bryussel karami qayerda ko'p ekiladi? **G'arbiy Yevropada, ayniqsa, Buyuk Britaniyada ko'p ekiladi.**

2350. Bryussel karamining poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

2351. Bryussel karamining barg qo'ltig'ida diametri necha sm li nechtagacha mevaboshchalari hosil qiladi? **2 – 2,5 sm li 90 tagacha mevaboshchalari hosil qiladi.**

2352. Bryussel karamining boshqa karamlardan farqi nimada? **Hosildor yerni, namni talab qilishi bilan farq qiladi.**

2353. Bryussel karamining sovuqqa, kasalliklarga chidami qanday? **Ancha chidamli.**

2354. Bryussel karamining boshchalari qanday kimyoviy elementli moddalarga boy bo'lib, ovqatga solinganda xushta'm maza beradi? **Azot elementli moddalarga boy bo'lib.**

2355. Bryussel karami qanday iste'mol qilinadi? **Ho'lligicha, qaynatib, qovurib iste'mol qilinadi.**

2356. Bryussel karamidan nimalar tayyorlanadi? **Konservalar tayyorlanadi.**

2357. Buvaki qanday uzum navi? **Xo'raki va vinobop mahalliy uzum navi.**

2358. Buvaki navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

2359. Buvaki navli uzumning qanday nomli xillari bor? **Tosh va Nor buvaki nomli xillari bor.**

2360. Buvaki navli uzumning barglari necha sm? **18 – 22 sm.**

2361. Buvaki navli uzumning bir boshi og'irligi qancha g? **250 – 300 g.**

2362. Buvaki navli uzumning Tosh buvaki xili Nor buvaki xilidan nimasi borligi bilan ajralib turadi? **Tosh buvaki g'ujumining sirtida qoramtir nuqtalar birligi bilan Nor buvakidan ajralib turadi.**

2363. Buvaki navli uzum qachon pishadi? **Sentabr oyining boshlarida pishadi.**

2364. Buvaki navli uzumning tarkibidagi qand miqdori necha foiz? **20 – 22 foiz.**

2365. Buvaki navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **150 – 180 s/ga.**

2366. Buvaki navli uzum sovuqqa qanday (chidamlimi yoki chidamsiz)? **Chidamli.**

2367. Buvaki navli uzum qanday yerlarda yaxshi o'sadi? **Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqli va lalmikor yerlarda yaxshi o'sadi.**

2368. Buvaki navli uzumdan nechanchi yildan O'zbekistonning qaysi viloyatlarida yetishtiriladigan "Buvaki" desert oq markali (navli) vino tayyorlangan, xonadonlarda a'lo sifatli shinni pishirilgan? **1930-yildan Buxoro va Samarqand viloyatlarida.**

2369. Buvaki navli uzum XX asrning nechanchi yillaridan boshlab ekiladigan navlar ro'yxatidan chiqarib yuborilgan? **60-yillaridan boshlab ekiladigan navlar ro'yxatidan chiqarib yuborilgan.**

2370. Buddleya qaysi oilaga mansub buta? **Kuchaladoshlar (kuchalalilar) oilasiga mansub buta.**

2371. Buddleya butasining vatani qaysi davlat? **Xitoy davlati.**

2372. Buddleya butasi qayerlarning qanday iqlimli hududlarida tarqalgan? **Osiyo, Amerika, Janubiy Afrikaning issiq mo'tadil iqlimli hududlarida tarqalgan.**

2373. Buddleya butasining O'zbekiston ko'chatzorlarida nechta turi o'stiriladi? Ular qaysilari? **Ikkita turi. Ular: B. davidil, B. alternifolia turlari o'stiriladi.**

2374. Buddleya butasining birinchisining barglari qanday joylashgan? Ikkinchisiniki-chi? **Birinchisining barglari qarama-qarshi joylashgan. Ikkinchisiniki esa yakkama-yakka joylashgan.**

2375. Buddleya butasining nechta turi ma'lum? **100 ta turi ma'lum.**

2376. Buddleya butasining gullari qanday rangda? **Binafsha.**

2377. Buddleya butasining bo'yi necha m ga boradi? **4 m ga boradi.**

2378. Budeshuri tetri qaysi o'simlik navi? **Xo'raki, vinobop o'rtapishar uzum navi.**

2379. Budeshuri tetri navli uzumning vatani qayer? **Gruziya.**

2380. Budeshuri tetri navli uzum O'zbekistonga qayerdan keltirilgan? **Gruziyadan keltirilgan.**

2381. Budeshuri tetri navli uzumning 1 ga dan qancha s hosil olinadi? **200 – 240 s hosil olinadi.**

2382. Budeshuri tetri navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

2383. Budeshuri tetri navli uzumning hargi qanday tishli? **Arra tishli.**

2384. Budeshuri tetri navli uzumning tarkibida qand va kislota necha foiz? **Qand 17 – 19 foiz, kislota 4 – 5 foiz.**

2385. Budeshuri tetri navli uzum qayerlarda tarqalgan? **O'rta Osiyo, Shimoliy Kavkaz va Ukrainada tarqalgan.**

2386. Budeshuri tetri navli uzum qachon pishadi? **Avgustda pishadi.**

2387. Budeshuri tetri navli uzumning bargi diametri necha sm? **14 – 16 sm.**

2388. Budeshuri tetri navli uzumning bargi necha bo'lmali? **Besh bo'lmali.**

2389. Budeshuri tetri navli uzumning boshi shakli qanday? **Silindr – konussimon.**

2390. Budeshuri tetri navli uzum boshining bo'yi necha sm? **11 – 17 sm.**

2391. Budeshuri tetri navli uzum boshining eni necha sm? **8 – 12 sm.**

2392. Budeshuri tetri navli uzum boshining og'irligi qancha g? **200 – 250 g.**

2393. Budeshuri tetri navli uzum g'ujumining o'rtacha diametri necha mm? **9 – 14 mm.**

2394. Budeshuri tetri navli uzumning g'ujumi qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

2395. Budeshuri tetri navli uzumning g'ujumi rangi qanday? **Sarg'ish – yashil.**

2396. Budeshuri tetri navli uzumning eti qanday (qalinmi yoki yupqami)? **Yupqa.**

2397. Budeshuri tetri navli uzumning eti qanday? **Shirali.**

2398. Budeshuri tetri navli uzum mevasi faol harorat yig'indisi qancha ° C bo'lganda, necha kunda pishadi? **3000° C – 3200° C bo'lganda 140 – 150 kunda pishadi (avgustda).**

2399. Budeshuri tetri navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida rayonlashtirilgan? **Hamma viloyatlarida rayonlashtirilgan.**

2400. Buzovbosh qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

2401. Buzovbosh o'tining bo'yi necha sm? **3 – 25 sm.**

2402. Buzovbosh o'tining bargi va mevasida necha foiz qanday moddalar bor? **Bargi va mevasida 10,6 foiz protein, 20 – 25 foiz kletchatka va 20 foizga yaqin kul moddalari bor.**

2403. Buzovbosh o't, asosan, qayerlarda o'sadi? **Asosan, cho'lda taqir, sho'r va sho'rxok yerlarda va tog' bag'ri tekisliklarilda o'sadi.**

2404. Buzovbosh o'tining pishgan urug'i qaysi hayvonlarni semirtiradi? **Qo'ylarni semirtiradi.**

2405. Buzoqchirg qaysi oilaga mansub ildizpoyali necha yillik o't? **Boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub ildizpoyali ko'p yillik o't.**

2406. Buzoqchirg o'tining qaysi turi O'zbekistonda keng tarqalgan? **Kavkaz chayiri turi keng tarqalgan.**

2407. Buzoqchirg o't, asosan, qayerlarda keng tarqalgan? **Asosan, Afrika savannalari va Shimoliy Amerika dashtlarida, O'rta Osiyoning adir va tog' etaklarida keng tarqalgan.**

2408. Bulduruqo't qaysi oilaga mansub botqoqlik hamda suvda o'suvchi necha yillik o't? **Alismadoshlar (alismagullilar) oilasiga yoki bulduruqdoshlarga mansub botqoqlik hamda suvda o'suvchi ko'p yillik o't.**

2409. Bulduruqo'tning kosachasi va tojbarglari nechtadan? **Uchtadan.**

2410. Bulduruqo't qayerlarda o'sadi? **Botqoqliklarda, daryo va ko'llar bo'yida, hatto sholipoyalarda ham o'sadi.**

2411. Bulduruqo'tning poyasi va barglarida nimani yallig'lantiruvchi zaharli suyuqlik bo'lib, u qachon yo'qoladi? **O'simlik quriganda zahari yo'qoladi.**

2412. Bulduruqo'tning bargidan tayyorlangan ekstrakt va poroshoklar qanday maqsadlarda ishlatiladi? **Surunkali nefritga; buyrak faoliyatining susayishi natijasida paydo bo'lgan shishlarga, bavosilni davolashda va bolalarni ko'krakdan ajratishda ona sutini kamaytirish maqsadida ishlatiladi.**

2413. Bulduruqo'tning bo'yi necha sm? **30 – 100 sm.**

2414. Bulduruqo'tning changchilari va urug'chilari qayerga joylashgan? **Poya uchidagi to'pgulga joylashgan.**

2415. Bulduruqo'tning ildizpoyasida qanday moddalar bor? **Kraxmal, shakar va efir moylari bor.**

2416. Bulduruqo'tning bir tupi nechtagacha urug' beradi? **21 mingtagacha urug' beradi.**

2417. Bulduruqo'tning ildizi va barglari quritilgan holda qayerda ishlatiladi? **Xalq tabobatida ishlatiladi.**

2418. Bulduruqo't qayerda, ayniqsa, kuchli rivojlanadi? **Siyrak chiqqan sholipoyada ishlatiladi.**

2419. Bulduruqo't qayerlarda ko'p o'sadi? **Sug'orish shoxobchalarida ko'p o'sadi.**

2420. Bulduruqo'tning ildiz bo'g'zi bargları qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

2421. Bulduruqo'tning gulları rangı qanday? **Oq yoki och pushti.**

2422. Bulduruqo'tning mevası qanday shakldagı urug'? **Ovalsimon shakldagi urug'.**

2423. Bulduruqo't qaysı oydan qaysı oygacha gullaydı va mevalaydi? **Iyun oyidan sentabr oyigacha gullaydi va mevalaydi.**

2424. Bulduruqo't nimalarıdan ko'payadi? **Urug'idan hamda ildizpoyalaridan ko'payadi.**

2425. Bulduruqo'tning o'sib turganı qanday hayvonlar uchun zaharli? **Mol va otlar uchun zaharli.**

2426. Burgan qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

2427. Burgan o'tining bo'yi necha sm? **60 – 100 sm.**

2428. Burgan o't qulay sharoitda necha m gacha o'sadi? **2 – 2,5 m gacha o'sadi.**

2429. Burgan o'tining poyasi va barglarida necha foiz qanday moddalar bor? **2,4 – 4,15 foiz oshlovchi modda, 1,42 – 2,1 foiz smola, 0,36 – 2,2 foiz shakar, 0,043 – 0,64 foiz efir moyi va 0,1 foiz alkaloidlar bor.**

2430. Burgan o't bargidan tayyorlangan qaynatma qanday kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Ishtahani ochish, ichakdagi bakteriya va gijjalarni o'ldirishda, qo'tir kabi ba'zi teri kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

2431. Burgan o'ti bargida qaysi vitamin ko'p? **C vitamini ko'p (73,9 mg foiz).**

2432. Burgan o'ti bargi qanday qirqilgan? **Ikki-uch karra patsimon qirqilgan.**

2433. Burgan o'tining guli qanday rangda? **Sariq.**

2434. Burgan supurgi, makka supurgi qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o't? **Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik begona o't.**

2435. Burgan supurgi, makka supurgining bo'yi necha sm? **30 – 150 sm.**

2436. Burgan supurgi, makka supurgining bir tupi necha donagacha urug' beradi? **10 ming donagacha urug' beradi.**

2437. Burgan supurgi, makka supurgi qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

2438. Burgan supurgining poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

2439. Burgan supurgining tanasi qanday tuklar bilan qoplangan? **Zangori tuklar bilan qoplangan.**

2440. Burgan supurgining bargları qanday shaklda? **Nashtarsimon shaklda.**

2441. Burgan supurgining bargları uchları qanday? **O'tkir.**

2442. Burgan supurgining gulları qayerga yig'ilgan? **Boshoqsimon to'pgulga yig'ilgan.**

2443. Burgan supurgining mevası qanday yong'oqcha? **Yumaloq yong'oqcha.**

2444. Burgan supurgining o'qildizı nima qilingan? **Tarmoqlangan.**

2445. Burgan supurgi qaysi oydan qaysı oygacha gullab, mevalaydi? **Iyul oyidan sentabr oyigacha gullab, mevalaydi.**

2446. Burmaqora qaysi oilaga mansub bir yoki bir necha poyali, tuganak ildizli ko'p yillik o't? **Ko'knordoshlar (ko'knorgullilar) oilasiga mansub bir yoki bir necha poyali, tuganak ildizli ko'p yillik o't.**

2447. Burmaqora o'simligining tuganagi qanday shaklda? **Sharsimon (1,5 – 3 sm) shaklda.**

2448. Burmaqora o'simligining bo'yi necha sm? **10 – 15 sm.**

2449. Burmaqora o'simligining poyasi va barglaridan, tuganagidan qanday moddalar olinadi? **Alkaloid moddalar olinadi.**

2450. Burmaqora o'simligi poyasi va barglarida, tuganagida alkaloidlarning umumiy miqdori necha foizni tashkil etadi? **Poyasi va barglarida 1,77 foiz, tuganagida esa 1,64 foizni tashkil etadi.**

2451. Burmaqora o'simligining bargi qanday (bandlimi yoki bandsizmi)? **Bandsiz.**

2452. Burmaqora o'simligining bargi poyaga nisbatan qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

2453. Burmaqora o'simligining guli qanday? **Pixli.**

2454. Burmaqora o'simligining guli rangi qanday? **To'q sariq.**
2455. Burmaqora o'simligi qachon gullaydi? **Aprel oyining boshida gullaydi.**
2456. Burmaqora o'simligining urug'i qachon pishadi? **May oyining oxirida pishadi.**
2457. Burmaqora o'simligi qayerlarda qanday bo'lib o'sadi? **Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi adir va tog' etaklarida to'p-to'p bo'lib o'sadi.**
2458. Burchoq qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Dukkakdoshlar (dukkaklilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**
2459. Burchoq o'simligining poyasi necha qirrali? **To'rt qirrali.**
2460. Burchoq o'simligining urug'ida oqsil modda necha foiz? **24 – 30 foiz.**
2461. Burchoq o'simligining bargi qanday patsimon? **Bargi juft patsimon.**
2462. Burchoq o'simligi nechta urug'li? **47 ta urug'li.**
2463. Burchoq o'simligi urug'ida necha foiz oqsil, moy, kraxmal, kletchatka, kul bor? **24 – 30 foiz oqsil, 0,8 – 1,5 foiz moy, 50 – 55 foiz kraxmal, 3 – 6 foiz kletchatka, 2,1 – 4 foiz kul bor.**
2464. Burchoq o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **35 – 50 s/ga don, 100 s/ga somon, 300 s/ga ko'k o't.**
2465. Burchoq o'simligi ko'pincha, qaysi yerlarga ekiladi? **Ko'pincha, tog'li yerlarga ekiladi.**
2466. Burchoqning O'zbekiston hududida yovvoyi holda ham o'sadigan nechta turi ko'p uchraydi? **12 ta turi ko'p uchraydi.**
2467. Burchoq o'simligi qayerlarda ekiladi? **G'arbiy Sibirda, Ukraina janubida, Qozog'istonda.**
2468. Burchoq o'simligi gektaridan qancha s don, to'pon (somon) beradi? **35 – 50 s don, 100 s to'pon (somon).**
2469. Burchoq o'simligining ko'k o't hosili qancha s/ga? **300 s/ga.**
2470. Burchoq loviya qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Dukkakdoshlar (dukkaklilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**
2471. Burchoq loviya o'simligining bo'yi necha m ga boradi? **3 m ga boradi.**

2472. Burchoq loviya o'simligining bargları necha bo'lak? **3 bo'lak.**
2473. Burchoq o'simligining vatani qayer? **Janubiy Amerika.**
2474. Burchoq loviya o'simligining ko'p navlaridan nima olinadi? **Don olinadi.**
2475. Burchoq loviya o'simligining urug'i nima qilinadi? **Iste'mol qilinadi.**
2476. Burchoq o'simligining dukkakları necha urug'li? **4 – 7 urug'li.**
2477. Burchoq o'simligining urug'ida oqsil modda necha foiz? **24 – 30 foiz.**
2478. Burchoq o'simligi nimaga ishlatiladi? **Ovqatga.**
2479. Burchoq undan nima yopish mumkin? **Non.**
2480. Burchoq o'simligi qanday ozuqa? **To'yimli.**
2481. Burchoq tuproqda qaysi kimyoviy element yig'uvchi o'simlik sifatida ekiladi? **Azot element yig'uvchi o'simlik sifatida ekiladi.**
2482. Burchoqdoshlar (dukkakdoshlar) necha urug' pallali o'simliklarning bir oilasi? **Ikki urug'pallali.**
2483. Burchoqdoshlar yer yuzining qayerlarida tarqalgan? **Yer yuzining hamma yerlarida tarqalgan.**
2484. Burchoqdoshlar necha kenja oilaga ajratiladi? **Uch oilaga ajratiladi.**
2485. Burchoqdoshlar uch oilaga ajratilgan bo'lib, ular qaysilar? **Ular: Mimozadoshlar (Mimosaceae), sezalpindoshlar (Caesalpiniaceae) va kapalakguldoshlar (Papilionaceae yoki Fabaceae)ga ajratiladi.**
2486. Burchoqdoshlarning nechta turini birlashgan nechta turkumi bor? **12 ming turni birlashtirgan 500 turkumi bor.**
2487. Burchoqdoshlarning O'zbekistonda nechta turini birlashtirgan nechta turkumi bor? **528 turni birlashtirgan 57 ta turkumi bor.**
2488. Burchoqdoshlar orasida texnikada ishlatiladigan qimmatbaho mahsulotlar olinadigan qanday daraxtlar bor? **Balzamli va qimmatbaho yog'och olinadigan daraxtlar bor.**
2489. Burchoqdoshlardan yeryong'oq, sano, qashqarbeda, shuruniya, shildirbosh, oqquray, afsonak kabi o'simliklardan qanday moddalar tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda ish-

latiladi? **Alkaloidlar, glyukozidlar, smolalar, vitaminlar va organik kislotalar tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda ishlatiladi.**

2490. Burchoqdoshlarning cho'llarda uchraydigan qaysi turlari zaharli hisoblanadi? **Qizboltir, oqmiya, achchiqmiya kabi turlari zaharli hisoblanadi.**

2491. Burchoqdoshlarning qaysi zaharli turlari insektitsid sifatida ishlatiladi? **Derris, lonxokarpus turlari insektitsid sifatida ishlatiladi.**

2492. Burchoqdoshlarga mansub ko'p o'simliklarning ildizida atmosfera azotini o'zlashtiradigan qaysi jonivor yashaydi? **Azotobakter yashaydi, shuning uchun burchoqdoshlar azot birikmalari kam bo'lgan tuproqda ham yaxshi o'sadi.**

2493. Burchoqdoshlarning barglari ko'pincha qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan, odatda, yon bargli va murakkab.**

2494. Burchoqdoshlarning gullari, asosan, qanday shaklda va qayerda o'rnashgan? **Boshoqsimon, shingilsimon yoki kallaksimon va to'pgullarda o'rnashgan.**

2495. Burchoqdoshlarning gullari, odatda, qanday? **Zigomorf.**

2496. Burchoqdoshlarning ayrimlarida gullari qanday? **Ayrimlarida aktinomorf.**

2497. Burchoqdoshlarning mevasi qanday? **Dukkak.**

2498. Burchoqdoshlardan oziq-ovqat uchun qanday moddaga boy bo'lgan va yem-xashak uchun to'yimli o'tloq o'simliklaridan nimalar ko'plab ekiladi? **Oqsil moddasiga boy bo'lgan mosh, no'xat, loviya, soya, yeryong'oq oziq-ovqat uchun, to'yimli o'tloq o'simliklaridan beda, sebarga, esparset yemxashak uchun ko'plab ekiladi.**

2499. Buta nimasi bilan daraxtdan farq qiladi? **Buta tagidan bir-biriga teng tanalarning o'sib chiqishi hamda past bo'yligi bilan daraxtdan farq qiladi.**

2500. Bug'doy qaysi oilaga mansub don ekini? **Boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub don ekini.**

2501. Bug'doy necha yillik o'tsimon o'simlik? **Bir yillik o'tsimon o'simlik.**

2502. Bug'doy eng qadimgi va hozirgi dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ekiladigan asosiy nima ekin? **Don ekini.**

2503. Bug'doy nechanchi asrdan boshlab Shimoliy Amerikada ekila boshlangan? **XVII asrdan boshlab Shimoliy Amerikada ekila boshlangan.**

2504. Bug'doy ekiladigan maydonlar jahon bo'yicha qancha mln ga? **250 mln ga.**

2505. Bug'doy eng qadimiy ekin bo'lib, qayerlarda necha ming yil ilgari ekila boshlangan? **Old Osiyoda miloddan 5 – 6 ming, Misr va Xitoyda taxminan 3 ming, Sharqiy Yevropada 2 – 3 ming, hozirgi Ukraina hududida 4 – 3 ming, Zakavkazyeda 3 ming, O'rta Osiyoda 5 – 4 ming yil ilgari ekila boshlangan.**

2506. Bug'doy donining tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **16 – 26 foiz oqsil, 77 – 78 foiz uglevod va 1,2 – 1,5 foiz yog' moddalar bor.**

2507. Bug'doy doni tarkibida qanday moy bor? **Efir moyi bor.**

2508. Bug'doy doni tarkibida necha xil vitamin bor? **O'ndan ortiq vitamin bor.**

2509. Bug'doy o'simligi tarkibida almashtirib bo'lmaydigan qanday kislotalar bo'ladi? **Aminokislotalar bo'ludi.**

2510. Bug'doy nonı mag'zidan xalq tabobatida qaynatma tayyorlab, qanday paytda ichiriladi? **Ichketar paytida ishlatiladi.**

2511. Bug'doy nonı mag'zini xalq tabobatida issiq suvga bo'ktirib qo'yib, qanday xastaliklarning ustiga malham qilib qo'yiladi? **Shishlarning ustiga malham qilib qo'yiladi.**

2512. Bug'doy doni qaynatmasini odamni ninaga kirgizadigan ichimlik o'rnida tavsiya qilinadi? **Quvvatga kirgizadigan ichimlik o'rnida tavsiya qilinadi.**

2513. Bug'doy kepagi qaynatmasini asalga aralashtirib qanday kasalliklarga ichiladi? **Yuqori nafas yo'llari yallig'langanda va odamni qattiq yo'tal tutib turadigan paytlarida ichiladi.**

2514. Bug'doy unidan holvaytar yoki atala tayyorlab kimlarga beriladi? **Yangi ko'zi yorigan, ya'ni farzand ko'rgan (tuqqan) ayollarga beriladi.**

2515. Bug'doy unidan ko'p kasalliklarning oldini oladigan shifobaxsh qaysi ovqat qaysi fasl kezlari pishiriladi? **Sumalak, bahor fasli kezlari pishiriladi.**

2516. Bug'doy (yetilmagan) donining sutini olib, ovqatdan 20 minut avval yarim stakandan 2 – 3 mahal qanday erkak va ayollarga davo qilish uchun tavsiya qilinadi? **Erkak va ayollar pushtsizligi (bepushtligi)ga tavsiya qilinadi.**

2517. Bug'doy uni, kraxmal va za'farondan sepkillarni yo'qotish uchun qaysi hakim malham tayyorlagan? **Abu Ali ibn Sino malham tayyorlagan.**

2518. Bug'doy unidan tayyorlangan har xil taomlarni qadimgi hakimlar qanday kasalliklarda parhez sifatida tavsiya etishgan? **Me'da, jigar va buyrakning turli kasalliklarida parhez sifatida tavsiya etishgan.**

2519. Bug'doy hind tabobatida qanday kasalliklarga davo bo'lishi rusum bo'lgan? **Shishlar, rak va boshqa o'sma kasalliklarga davo bo'lishi rusum bo'lgan.**

2520. Bo'g'imlar, paylar va tomirlar kasalliklariga davo qilish hamda ayollar sutini ko'paytirish uchun 5 xil o'simlikning donlaridan dori tayyorlangan bo'lib, bu qaysi o'simliklarning donlari? **Bug'doy, kunjut, guruch, arpa va no'xat o'simliklarining donlaridan dori tayyorlangan.**

2521. Bug'doy uni kepagidan nima uchun qabziyat, semizlik, gipertoniya, o't toshi kasalligi va ateroskleroza keng foydalaniladi? **Chunki bug'doy uni kepagi B guruh vitaminlariga, kletchatka, mineral moddalarga boy bo'lganligi uchun keng foydalaniladi.**

2522. Bug'doyiq qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

2523. Bug'doyiqning O'zbekistonda nechta turi bor? **9 ta.**

2524. Bug'doyiqning bo'yi necha sm? **60 – 100 sm.**

2525. Bug'doyiqning ildizpoyasi qaynatmasi qaysi kasalliklarni davolashda va nima sifatida ishlatiladi? **Siydik haydovchi dori sifatida, shuningdek, ko'krak qafasi va jigar kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

2526. Bug'doyiqning tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **7,03 foiz kul moddalari, 29 foiz kletchatka, 13,4 foiz protein, 3,84 foiz moy, 45,6 foiz azotsiz moddalar bor.**

2527. Bug'doyiqning qancha turi bor? **30 ga yaqin turi bor.**

2528. Bug'doyiqning O'zbekistonda necha turi chorva mollariga yaxshi ozuqa hisoblanadi? **2 ta turi, ya'ni: E. trichophora va E. repens turlari chorva mollariga yaxshi ozuqa hisoblanadi.**

2529. Bug'doyiq qaysi oylarda boshoq tortadi? **May – iyun oylarida boshoq tortadi.**

2530. Bug'doyiqzorlar (tabiiyining har gektaridan qancha s dan pichan olinadi? **18 – 20 s dan pichan olinadi.**

2531. Bug'doyiqning 100 kg pichanida qancha kg hazm bo'ladigan protein bor? **6,7 kg.**

2532. Bug'doyiqning ildizi ekinzorlarda tuproqqa necha m chuqurlikka kirib boradi? **1,5 – 2 m chuqurlikka kirib boradi.**

2533. Bug'doydoshlarning O'zbekistonda nechta turkumi o'sadi? **91 ta turkumi o'sadi.**

2534. Bug'doydoshlarning O'zbekistonda nechta turi o'sadi? **270 ta turi o'sadi.**

2535. Bug'doydoshlar ko'pincha nechta kenja oilachaga bo'linadi? **Uchta kenja oilachaga bo'linadi.**

2536. Bug'doydoshlar yer sharining qaysida keng tarqalgan? **Hamma qismida keng tarqalgan.**

2537. Bug'doydoshlarning ko'pchilik turi qaysi mamlakatlarda uchraydi? **Tropik mamlakatlarda uchraydi.**

2538. Bug'doydoshlarga muhim madaniy don o'simliklaridan qaysilari kiradi? **Bug'doy, sholi, makka, suli, arpa, javdar, tariq, oq jo'xori va boshq. hamda shakarqamish kiradi.**

2539. Bug'doydoshlarning qaysilari yovvoyi holda o'sadi? **Oqso'xta, raygras, bug'doyiq va boshq. o'sadi.**

2540. Bug'doydoshlarning ba'zi turlaridan texnik o'simlik sifatida foydalanib, ulardan qanday moddalar olinadi? **Kraxmal, spirt, qog'oz, xushbo'y va yeyiladigan moy olinadi.**

2541. Bug'doydoshlarning ba'zi turlaridan nimalar tayyorlashda foydalaniladi? **Qurilish materiallari, arqon, cho'tka va boshq. tayyorlashda foydalaniladi.**

2542. Bug'doydoshlarning ko'pchilik turlari qanday? **Dorivor.**

2543. Bug'doydoshlarning qanday turlari ham bor? **Ko'chma qumlarni mustahkamlash uchun ekiladigan turlari ham bor.**

2544. Bug'doydoshlar (g'alladoshlar) necha urug' pallali o'simliklar oilasi? **Bir urug' pallali o'simliklar oilasi.**

2545. Bug'doydoshlar necha yillik o't? **Bir, ikki yoki ko'p yillik o't.**

2546. Bug'doydoshlarning poyasi qanday shaklda? Qanday o'sadi? **Silindrsimon shaklda. Poyasi tik yoki yonboshlab ko'tarilib o'sadi.**

2547. Bug'doydoshlar nimalarga bo'lingan, ichi qanday? **Bo'g'imlarga bo'lingan, ichi kovak.**

2548. Bug'doydoshlarning bo'yi necha sm dan necha m gacha? **1 sm dan bir necha o'n m gacha.**

2549. Bug'doydoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli, ba'zan bir jinsli.**

2550. Bug'doydoshlarning boshoqchalari necha gulli? **Bitta yoki bir nechta, ba'zan ko'p gulli.**

2551. Bug'doydoshlarning mevasi qanday? **Mevasi don, ba'zan danaksimon, yong'oqsimon yoki rezavor.**

2552. Bug'doydoshlar urug'ining ko'p qismi nimadan iborat? **Kraxmalli endosperidan iborat.**

2553. Bug'doydoshlarning ko'pchiligi qanday ildizli? **Uzun ildiz poyali va popuk ildizli.**

2554. Bug'doydoshlarning nechta turkumi bor? **600 ta turkumi bor.**

2555. Bug'doydoshlarning nechta turi ma'lum? **10 mingta turi ma'lum.**

2556. Bo'znoch qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Qoqidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

2557. Bo'znochning bo'yi necha sm? **40 – 45 sm.**

2558. Bo'znochning guli qanday rangda? **Sariq rangda.**

2559. Bo'znoch o't qayerlarda o'sadi? **Tog' etaklaridagi qumloq tuproqli qirlarda va adirlarda o'sadi.**

2560. Bo'znochning gullaridan tayyorlangan qaynatma qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Jigar kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

2561. Bo'znoch o'ti nimani haydaydi? **Safroni haydaydi.**

2562. Bo'znoch o'ti qaysi a'zolarning funktsiyasini kuchaytiradi? **Me'da osti bezlarining funktsiyasini kuchaytiradi.**

2563. Bo'znoch o'tidan qanday bo'yoq olinadi? **Sariq bo'yoq olinadi.**

2564. Bo'znoch o'ti kiyim-kechaklarni nimadan saqlashda ham ishlatiladi? **Kuyadan saqlashda ham ishlatiladi.**

2565. Bo'znochning poyasi, bargi va gullarida necha foiz qaysi moddalar bor? **Efir moyi, oshlovchi moddalar, 15 – 16 mg foiz karotin, 1,6 mg foiz C vitamini, stearin va flavonoid, smola kabi moddalar bor.**

2566. Bo'znochning to'pgullaridan tayyorlangan qaynatma yoki damlamadan xalq tabobatida qanday kasalliklarda foy-

dlaniladi? **Gepatitlar, xoletsistitlar, nefrit, gastritlar, shuningdek, siydik-tosh va o't-tosh kasalligida o't haydaydigan, siydik haydaydigan va engil surgi sifatida foydalaniladi.**

2567. Bo'znoch o't nemis xalq tabobatida qanday kasalliklarda qo'llaniladi? **Buyrakda tosh to'planganda, surunkali yallig'lanish (nefrit)da, siydik qopi kasalligida, qiynalib og'riq bilan siyish hollarida, asab tolalari, ayniqsa, qo'ymich tolasi sho'amollashida, oyoq uvishib qolishida qo'llaniladi.**

2568. Bo'znoch o'tdan nemis xalq tabobatida qanday kasalliklarda, nimalarni tushurishda tavsiya qilinadi? **Me'da-ichak kasalliklarida, gijjalarni tushirishda tavsiya qilinadi.**

2569. Bo'znoch o'tida nima degan antibiotik bor? **Arenarin degan antibiotik bor.**

2570. Bo'ztikan qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub o't.**

2571. Bo'ztikan o't qayerlarda o'sadi? **Yevropa va Osiyoda o'sadi.**

2572. Bo'ztikan murakkabdoshlarga mansub necha yillik begona o'tlar turkumi? **Bir va ko'p yillik begona o'tlar turkumi.**

2573. Bo'ztikanning nechta turi ma'lum? **45 ta turi ma'lum.**

2574. Bo'ztikanning bargi qanday? **Bargi tikanli**

2575. Bo'ztikan urug'ida patsimon nimalar bor? **Tuklar bor.**

2576. Bo'ztikanning O'zbekistonda nechta turi tarqalgan? **5 ta turi tarqalgan.**

2577. Bo'ztikanning qaysi turlari g'o'za, sabzavot-poliz, sug'oriladigan ekinlar orasida, dalalar va boshqa yerlarda uchraydi? **Sabzavot bo'ztikani (S. oleracens), dag'al bo'ztikan (S. asper), dala bo'ztikani (S. arvenis) turlari.**

2578. Bo'ztikanning poyasi qanday? **Tik.**

2579. Bo'ztikanning gullari qanday shaklda? **Tilsimon shaklda.**

2580. Bo'ztikanning gullari nimaga yig'ilgan? **Savatcha to'pgulga yig'ilgan.**

2581. Bo'ztikan qaysi oylarda gullaydi? **Aprel-may oylarida.**

2582. Bo'ztikan qaysi oyda meva tugadi? **Iyun oyida meva tugadi.**

2583. Bo'ztikanning bir tupi qancha urug' beradi? **53 mingdan ortiq urug' beradi.**

2584. Bo'zchi qaysi oilaga mansub necha yillik dorivor o'simlik? **Zubturumdoshlar (zubturumgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik dorivor o'simlik. Badanning lat yegan, ko'kargan, kesilgan, yallig'langan joyiga bog'lanadi.**

2585. Bo'zchi o'simligi bargidan tayyorlangan dorilar qanday yaralarni davolashda ishlatiladi? **Ichak va me'da yaralarini davolashda ishlatiladi.**

2586. Bo'zsho'ra qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

2587. Bo'zsho'ra o'simligining bo'yi necha sm? **10 – 40 sm.**

2588. Bo'zsho'ra o'simligini yegan qo'ylar nima uchun zaharlanadi? **Chunki bo'zsho'ra bargida oksalat kislotaning kaliy va natriyli tuzlari ko'p bo'lganidan qo'ylar zaharlanadi.**

2589. Bo'zsho'ra o'simligi qachon, ayniqsa, xavfli? Nima uchun? **Bo'zsho'ra kech kuzda, qurigandan keyin yoki sovuq urgandan so'ng, ayniqsa, xavfli. Chunki bu vaqtda o'simlikdagi tuzlar ko'payib ketadi.**

2590. Bo'zsho'ra o'simligining bargi rangi qanday? **Kulrang-**

2591. Bo'zsho'ra o'simligining bargi qanday (uzunmi yoki kaltami)? **Kalta.**

2592. Bo'zsho'ra o'simligining bargi qanday (ozg'inmi yoki etdormi)? **Etdor.**

2593. Bo'zsho'ra o'simligining bargi uchi qanday tukli? **Dag'al tukli.**

2594. Bo'zsho'ra o'simligining gullari qanday bo'lib, qayerga joylashgan? **Mayda, to'p-to'p bo'lib, barg qo'ltig'iga joylashgan.**

2595. Bo'zsho'ra o'simligi qayerlarda qanday o'sadi? **Cho'lda, sho'rxok yerlarda zich o'sadi.**

2596. Bo'zsho'ra o'simligi qaysi oyda gullaydi? **May oyida gullaydi.**

2597. Bo'zsho'ra o'simligining mevasi qaysi oyda yetiladi? **Sentabr oyida yetiladi.**

2598. Bo'yoqli o'simliklarning bo'yoq hamma qismlarida bo'lgan o'simlik qaysi o'simlik? **Lishaynik o'simligi.**

2599. Bo'yoqli o'simliklarning qaysi a'zolaridan bo'yoq olinadi? **Ildizi, po'stlog'i, guli, bargi va h.k. dan olinadi.**

2600. Bo'yimodaron qaysi oilaga mansub patsimon bargli ko'p yillik o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub patsimon bargli ko'p yillik o't.**

2601. Bo'yimodaronning qancha turi bor? **1000 tacha turi bor.**

2602. Bo'yimodaronning nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **Beshta turi O'zbekistonda uchraydi.**

2603. Bo'yimodaronning bargları va gulları tarkibida qanday moddalar va vitaminlar bor? **Efir moyi, alkaloidlar, xomin, flavonoidlar, asparagin, karotin, K va C vitaminlari, achchiq va oshlovchi moddalar bor.**

2604. Bo'yimodaronning ekstrakti va damlaması qanday kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Ekstrakti va damlaması me'da-ichak yarasi kasalliklarini davolashda, ishtaha ochish hamda qon to'xtatishda ishlatiladi.**

2605. Bo'yimodaron qaysi oyda gullaydi? **Iyun oyida gullaydi.**

2606. Bo'yimodaronning mevasi qaysi oyda pishadi? **Avgust oyida pishadi.**

2607. Bo'yimodaron qayerlarda o'sadi? **Adir va qirlar, yo'l yoqalari va o'rmon chekkalarida o'sadi.**

2608. Bo'yimodaronning barglari va gulları tarkibida qanday kislotalar bor? **Akotinat va boshq. kislotalar bor.**

2609. Bo'yimodaron o'ti va gullaridan tayyorlangan qaynatmaları xalq tabobatida qanday kasalliklarda qo'llaniladi? **Qon to'xtatuvchi, jarohatlarni bitiruvchi, isitma tushiruvchi vosita sifatida, sil va me'da-ichak kasalliklarida qo'llaniladi.**

2610. Bo'yimodaronning gullaridan tayyorlangan qaynatma O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarda ishlatish, qanday kasalliklarda vosita sifatida tavsiya etiladi? **Gepatit, podagra, revmatizm, sil, astma kasalliklarida ishlatish; ishtaha ochadigan, siydik haydaydigan va qon to'xtatadigan vosita sifatida tavsiya etiladi.**

2611. Bo'yimodaron o'tidan tayyorlangan qaynatmalarni qaysi hakim nafas qisishi, astma, radikulit, siydik-tosh kasalliklarida ko'p ishlatgan? **Abu Ali ibn Sino ko'p ishlatgan.**

2612. Bo'yimodaron o'tidan tayyorlangan qaynatmalarni qaysi hakim hayzni o'rniga tushiradigan vosita sifatida qo'llagan? **Abu Ali ibn Sino qo'llagan.**

2613. Bo'yimodaron haqida Muhammad Husayn o'zining qaysi asarida quyidagilarni bayon qiladi: buyrakdagi toshlarni maydalab chiqaradi, a'zolardagi tiqinlarni ochadi, bachadondagi yaralarni tuzatadi, bosh og'rig'ida, tumovda, bezgakda, qiynalib siyishda, ko'krak kasalliklarida yaxshi yordam beradi? **"Mahzan-ul adviya" asarida.**

2614. Bo'yimodarondan tayyorlangan galen preparatlari zamonaviy tabobatda qaysi a'zolarning tortishib, qisqarib turishini bartaraf etishi aniqlangan? **Silliq muskullarning, shuning uchun og'riqlar kamayib, siydik (peshob) kuchayadi.**

2615. Bo'yimodaronda qanday moddalar borligi tufayli me'dadan shira ajralishi kuchayib, qorin dam bo'lishi kamayadi? **Achchiq moddalar borligi tufayli me'dadan shira ajralishi kuchayib, qorin dam bo'lishi kamayadi.**

2616. Bo'yimodaron o'tida qanday moddalar borligidan, u yallig'lanish, allergiya, bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi, jarohatlarning tezroq bitib ketishiga yordam beradi? **Oshlovchi moddalar, efir moylari va boshq. moddalar borligidan, u yallig'lanish, allergiya, bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi, jarohatlarning tezroq bitib ketishiga yordam beradi.**

2617. Bo'yimodaronning damlamasi hayvonlar ustida olib borilgan tajribalarda qaysi a'zo ishini sekinlashtirib, nima bosimini pasaytirishi aniqlangan? **Yurak ishini sekinlashtirib, qon bosimini pasaytirishi aniqlangan.**

2618. Bo'ribag'ir qaysi oilaga mansub buta yoki past bo'yli daraxt? **Jumurtdoshlar (itjumurtgullilar) oilasiga mansub buta yoki past bo'yli daraxt.**

2619. Bo'ribag'ir butasining pishgan mevasi va po'stlog'ining qaynatmasi xalq tabobatida qanday dori sifatida ishlatiladi? **Qustiruvchi va surgi dori sifatida ishlatiladi.**

2620. Bo'ribag'ir butasining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

2621. Bo'ribag'ir butasi O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi tog' qoyalarida o'sadi? **Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining tog' qoyalarida o'sadi.**

2622. Bo'ribag'ir butasi bargi qanday shaklda? **Bargi tuxumsimon yoki ellips shaklda.**

2623. Bo'rigul qaysi oilaga mansub yopiq ildizpoyali ko'p yillik o't? **Kendirdoshlar (kendirgullilar) oilasiga mansub yopiq ildizpoyali ko'p yillik o't.**

2624. Bo'rigul o'simligining bir ildizidan necha sm uzunlikda bir necha nima chiqadi? **15 – 40 sm uzunlikda bir necha poya chiqadi.**

2625. Bo'rigul o'simligidan qancha alkaloid ajratib olinadi? **40 ga yaqin alkaloid (vikkametrin, vinkanidin, ervinin, ervamin, varezernin va hokazo) ajratib olinadi.**

2626. Bo'rigul o'simligi qaysi vaqtida alkaloidlarga, ayniqsa boy bo'ladi? **Gullagan vaqtida alkaloidlarga, ayniqsa boy bo'ladi.**

2627. Bo'rigul o'simligining bargi qanday qirrali? **Tekis qirrali.**

2628. Bo'rigul o'simligining bargi qanday (bandlimi yoki bandsizmi)? **Bandsiz.**

2629. Bo'rigul o'simligining bargi qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

2630. Bo'rigul o'simligi qaysi oydan qaysi oygacha gullaydi? **Aprel oyidan iyul oyigacha gullaydi.**

2631. Bo'rigul o'simligining guli rangi qanday? **Oq yoki och binafsha.**

2632. Bo'rigul o'simligining har bir barg qo'ltig'ida nechtadan necha chanoqli yassi mevasi bo'ladi? **Bittadan bir chanoqli yassi mevali bo'ladi.**

2633. Bo'rigul o'simligining barg va poyalari tog' etaklarida qaysi oydayoq qovjirab qoladi? **Iyul oyidayoq qovjirab qoladi.**

2634. Bo'rigul o'simligi qayerlarda o'sadi? **Ugom, Farg'ona, Hisor tog'larining janubiy qiyaliklarida, qiyalar va chog'irtoshli tog' yon bag'irlarida o'sadi.**

2635. Bo'rikalla qaysi mevali poliz ekini navi? **Qovun navi.**

2636. Bo'rikalla navli qovunning necha xili bor? **Ikki xili bor.**

2637. Bo'rikalla navli qovunning nomlari nima? **Buxoro bo'rikallasi, Farg'ona bo'rikallasi.**

2638. Bo'rikalla navli qovunning gektaridan qancha s hosil olinadi? **230 – 360 s hosil olinadi.**

2639. Bo'rikalla navli qovunning og'irligi qancha kg? **2,5 – 3 kg.**

2640. Bo'rikalla navli qovun tarkibida qand necha foiz? **7,4 – 9,6 foiz.**

2641. Bo'rikalla navli qovun urug'i ekilgandan so'ng necha kunda pishadi? **57 – 80 kunda pishadi.**

2642. Bo'rikalla navli qovunning uzunligi necha sm? **20 – 23 sm.**

2643. Bo'rikalla navli qovun tarkibida saxaroza necha foiz? **3,8-8,2 foiz.**

2644. Bo'rikalla navli qovunning eng kattasi diametri necha sm dan ortiq? **20 sm dan ortiq.**

2645. Bo'rikalla navli qovunning sirti qanday? **Bir oz tilim-tilim.**

2646. Bo'rikalla navli qovunning sirti tekis nima bilan qoplangan? **To'r bilan qoplangan.**

2647. Bo'rikalla navli qovunning tusi qanday? **Och yashil-sariq.**

2648. Bo'rikalla navli qovun etining qalinligi necha sm? **4,5 – 6 sm.**

2649. Bo'rikalla navli qovun uzoq joylarga yuborishga qanday? **Yaroqsiz.**

2650. Bo'rikalla navli qovun urug'i rangi qanday? **Oq.**

2651. Bo'ritaroq, g'o'zarak – gulxayridoshlarga mansub necha yillik begona o't? **Bir yillik begona o't.**

2652. Bo'ritaroq begona o'ti qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

2653. Bo'ritaroq begona o'tning bo'yi necha sm? **10 – 70 sm.**

2654. Bo'ritaroq begona o'ti qaysi oylarda gullaydi? **Iyul – avgust oylarida gullaydi.**

2655. Bo'ritaroq begona o'ti qachon mevalaydi? **Iyuldan oktabrgacha mevalaydi.**

2656. Bo'ritaroq begona o't barglari necha bo'lakli? **Uch bo'lakli.**

2657. Bo'ritaroq begona o't barglari qanday shaklda? **Cho'ziq shaklda.**

2658. Bo'ritaroq begona o't barglari tubigacha patsimon nimalarga ajralgan? **Bo'lakchalarga ajralgan.**

2659. Bo'ritaroq begona o'tning gullari rangi qanday? **Sariq.**

2660. Bo'ritaroq begona o'tning gullari qayerlarda qanday joylashgan? **Uzun gulbandlarda yakka-yakka joylashgan.**

2661. Bo'ritaroq begona o't gullari asosida qanday rangli dog'lar bor? **Qirmizm rangli dog'lar bor.**

2662. Bo'ritaroq begona o't mevasi qanday? **Ko'sakcha.**

2663. Bo'ritaroq begona o't qanday o'simlik? **Issiq va namsevar o'simlik.**

2664. Bo'ritaroq begona o't nihollari qaysi oylarda ko'karadi? **Mart-may oylarida ko'karadi.**

2665. Bo'ritaroq begona o't nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

2666. Bo'ritaroq begona o't harorat qancha ^{0} C da unib chiqadi? **5^0 C – 6^0 C haroratda unib chiqadi.**

2667. Bo'ritaroq begona o'tning bir tupi qancha urug' beradi? **15 ming urug' beradi.**

2668. Bo'ritaroq begona o't urug'lari tuproqning 6 – 8 sm chuqurligida necha yilga qadar yashovchanligini saqlab qoladi? **57 yilga qadar yashovchanligini saqlab qoladi.**

2669. Bo'tako'z qaysi oilaga mansub necha yillik begona o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yillik begona o't.**

2670. Bo'tako'z begona o't qayerlarda o'sadi? **Adir va tog' etaklaridagi toshloq yerlarda o'sadi.**

2671. Bo'tako'z begona o't qaysi ekinlar orasida uchraydi? **Bug'doy, zig'ir kabi o'simliklar orasida uchraydi.**

2672. Bo'tako'z begona o't qaysi oylarda gullaydi? **May – iyun oylarida gullaydi.**

2673. Bo'tako'z begona o'tning rangi qanday? **Och ko'k, binafsha yoki havorang.**

2674. Bo'tako'z begona o't nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

2675. Bo'g'inak qaysi oilaga mansub chala buta? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub chala buta.**

2676. Bo'g'inak butasining bo'yi necha sm? **50 – 60 sm.**

2677. Bo'g'inak butasi qayerlarda o'sadi? **Cho'lda, sho'r yerlar atrofida o'sadi.**

2678. Bo'g'inak butasi poyasida, ildizida necha foiz alkaloidlar bor? **0,003 foiz, 0,02 foiz alkaloidlar bor.**

2679. Bo'g'inak butasi ba'zi tumanlarda nima deb ataladi? **Arxarbiyurg'un deb ataladi.**

2680. Bo'g'inak butasini qachon tuya, qo'y va echkilar xush ko'rib yeydi? **Qor va yomg'irdan so'ng xush ko'rib yeydi.**

2681. Davlatboy navli qovun urug'idan chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **64 – 68 kunda.**

2682. Davlatboy navli qovunning shakli qanday? **Uzunchoq.**

2683. Davlatboy navli qovunning uzunligi necha sm? **20 – 22 sm.**
2684. Davlatboy navli qovunning og'irligi qancha kg? **1,7 – 2,5 kg.**
2685. Davlatboy navli qovunning eti qalinligi o'rtacha necha sm? **3,5 – 4 sm.**
2686. Davlatboy navli qovunning tarkibida qand necha foiz? **3,4 – 7 foiz, ayrimlarida 9,1 foiz.**
2687. Davlatboy navli qovun tarkibida quruq modda necha foizgacha? **11,1 foizgacha.**
2688. Davlatboy navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **180-200 s/ga.**
2689. Davlatboy navli qovun sirti qanday? **Tekis.**
2690. Davlatboy navli qovun sirti nima bilan qoplangan? **To'r bilan qoplangan.**
2691. Davlatboy navli qovunning to'rlanishi qanday? **O'rtacha.**
2692. Davlatboy navli qovunning tusi qanday? **Och sarg'ish.**
2693. Davlatboy navli qovun qayerlarda ekiladi? **Toshkent atrofidagi tumanlarda ekiladi.**
2694. Davidson g'o'zasi qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**
2695. Davidson g'o'zasi nechanchi yilda topilgan? **1873-yilda topilgan.**
2696. Davidson g'o'zasini birinchi marta qaysi olim nechanchi yilda ta'riflab bergan? **Keller 1912-yilda ta'riflab bergan.**
2697. Davidson g'o'zasi qayerlarda tarqalgan? **Meksikaning Sokora shtatida, Quyi Kaliforniyada va Ravilya, Gigedo orolida tarqalgan.**
2698. Davidson g'o'zasi necha yillik, qanday buta? **Ko'p yillik, sertuk buta.**
2699. Davidson g'o'zasining bo'yi necha m gacha? **2 m gacha.**
2700. Davidson g'o'zasining hosil shoxlari necha bo'g'imli? **2 – 3 bo'g'imli.**
2701. Davidson g'o'zasining barglari qanday? **Mayda.**
2702. Davidson g'o'zasining barglari qanday yoki necha bo'lakchali? **Butun yoki 1 – 2 bo'lakchali.**
2703. Davidson g'o'zasining barglari shakli qanday? **Yuraksimon.**
2704. Davidson g'o'zasining barglari uchi qanday? **Cho'ziq va o'tkir.**

2705. Davidson g'o'zasining barglari rangi qanday? **Och yashil, baxmalsimon.**
2706. Davidson g'o'zasining barg shira bezi nechta? **Bitta.**
2707. Davidson g'o'zasining bargida tomir uchlari qanday? **Mayda, qizil.**
2708. Davidson g'o'zasining gullari qanday? **Mayda.**
2709. Davidson g'o'zasining gullari shakli qanday? **Kosachasimon.**
2710. Davidson g'o'zasining gullari qanday rangda? **Sariq rangda.**
2711. Davidson g'o'zasining gullarida qanday dog'lar bor? **To'q qizil dog'lar bor.**
2712. Davidson g'o'zasining gulyonbarglari qanday shaklda? **Yuraksimon shaklda.**
2713. Davidson g'o'zasining gulyonbarglarida necha uchli tishchalar bor? **6 – 8 uchli tishchalari bor.**
2714. Davidson g'o'zasining ko'saklari qanday? **Mayda, dumaloq.**
2715. Davidson g'o'zasining ko'saklari uchi qanday? **O'tkir.**
2716. Davidson g'o'zasining ko'saklari necha chanoqli? **3 – 5 chanoqli.**
2717. Davidson g'o'zasining ko'saklari ochilishi qanday? **To'liq ochilmaydi.**
2718. Davidson g'o'zasining chigiti qanday? **Mayda, toshdek qattiq.**
2719. Davidson g'o'zasining necha mm li qo'ng'ir tuklari nimaga yopishgan? **3 – 4 mm li qo'ng'ir tuklar chigitiga yopishgan.**
2720. Davidson g'o'zasi nimalarga chidamli? **Qurg'oqchilikka, shu'rga chidamli.**
2721. Davidson g'o'zasi qanday hosilli? **Serhosilli.**
2722. Davidson g'o'zasi qaysi jonivorlardan kam zararlanadi? **Bitlar va bakteriozadan kam zararlanadi.**
2723. Davidson g'o'zasi qaysi g'o'zalar bilan oson chatishadi? **Klotssh, Amur g'o'zalari bilan.**
2724. Dalachoy qaysi oilaga mansub o't yoki chala butalardan iborat o'simliklar turkumi? **Choyo'tdoshlar (choyo'tlar) oilasiga mansub o't yoki chala butalardan iborat o'simliklar turkumi.**

2725. Dalachoy o'simligining nechta turi bor? **200 ta turi bor.**
2726. Dalachoyningng O'zbekistonda nechta turi bor? **3 ta turi bor.**
2727. Dalachoy o'simliklari nima deb yuritiladi? **Choycho'p, choyo't, qizilpoycha deb yuritiladi.**
2728. Dalachoy o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**
2729. Dalachoy o'simligining tarkibida qanday moddalar va vitamin bor? **Oshlovchi modda, efir moylari va C vitamini bor.**
2730. Dalachoy o'simligi xalq tabobatida qanday kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Xalq tabobatida (me'da, ichak kasalliklarida va qon aralash ich ketganda) ishlatiladi.**
2731. Dalachoy qaysi dengiz hududlarida o'sadi? **O'rta dengiz hududlarida o'sadi.**
2732. Dalachoylarning bargları qanday? **Oddiy, yaxlit.**
2733. Dalachoylarning ko'pchiligi bargları qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**
2734. Dalachoy o'simligining guli qanday? **Ro'vaksimon to'pgul, sariq.**
2735. Dalachoy o'simligining changchilari qancha, qanday? **Ko'p, o'zaro tutashgan.**
2736. Dalachoy o'simligining urug'chisi nechta? **Bitta.**
2737. Dalachoy o'simligi guli necha uyali? **3 – 5 uyali.**
2738. Dalachoy o'simligining mevasi qanday? **Ko'sakcha.**
2739. Dalachoy o'simligining qaysi turi O'zbekistonning adir va tog'li hududlarida ko'p tarqalgan? **N. perforatum L. degan turi O'zbekistonning adir va tog'li hududlarida ko'p tarqalgan.**
2740. Dalachoy o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – sentabr oylarida gullaydi.**
2741. Dala kalendulasi o'simligi qanday holda uchraydi? **Yovvoyi holda uchraydi.**
2742. Dala kalendulasi o'simligining qaysinisi qadimdan ekib kelinadi? **Dorivor kalendula qadimdan ekib kelinadi.**
2743. Dala xrени qanday holda o'sadi? **Yovvoyi holda o'sadi.**
2744. Dala xrени ildizi nima qilishga yaroqli? **Iste'mol qilishga yaroqli.**
2745. Daraxtsimon aloening vatani qayer hisoblanadi? **Janubiy Afrikaning Karra sahrolari hisoblanadi.**

2746. Daraxt va butalarni o'rganadigan fanning nomi nima? **Dendrologiya.**
2747. Daraxt – tana va shoxlari yog'ochlangan necha yillik o'simlik? **Ko'p yillik o'simlik.**
2748. Daraxtlar bo'yiga qarab necha guruhga bo'linadi? Ular qaysi guruhlar? **Uch guruhga bo'linadi. Ular: 1) 35 m baland (chinor, terak, qora qayin, qarag'ay); 2) 25 – 35 m (qayrag'och, yong'oq, oq qayin, tol, qatrongg'i); 3) 25 m gacha (zarang, chetan, shumurt va boshq).**
2749. Darlingtoniya qaysi oilaga mansub ko'p yillik hasharotxo'r o't? **Sarratsensiyadoshlar (sarratsensiyagullilar) oilasiga mansub ko'p yillik hasharotxo'r o't.**
2750. Darlingtoniya o'simligi Kaliforniyaning qaysi botqoqlarida o'sadi? **Serra-Nevada botqoqlarida o'sadi.**
2751. Darlingtoniya o'simligining bargları nimaga o'xshaydi? **Barglari naysimon ko'zachaga o'xshaydi.**
2752. Darlingtoniya o'simligining barglari uchi nimaga o'xshaydi? **Baliq dumiga o'xshaydi.**
2753. Darlingtoniya o'simligining barglari orasida nimalar bor? **Shiradonlar bor.**
2754. Darlingtoniya hasharotxo'r o'ti shirasiga kelgan hasharot barg uchiga tushsa, nima bo'ladi? **Tashqariga chiqa olmay, nobud bo'ladi.**
2755. Darlingtoniya o'simligiga tushgan hasharot nimalar ta'sirida parchalanadi? **Chirituvchi bakteriyalar ta'sirida parchalanadi.**
2756. Darlingtoniya o'simligida parchalanishdan hosil bo'lgan mahsulotlarni nima so'rib oladi? **Barg so'rib oladi.**
2757. Darmona qaysi oilaga mansub o'qildizli chala buta? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub o'qildizli chala buta.**
2758. Darmona o'simligining bo'yi necha sm? **40 – 70 sm.**
2759. Darmona o'simligining to'pguli damlamasi hamda santonin nimalarni tushirishda foyda beradi? **Gijjalarni tushirishda foyda beradi.**
2760. Darmona o'simligining to'pgulida va barglarida qanday moddalar bor? **Efir moyi (1,5 – 3 foiz), betain, xomin, bo'yoq moddalar, olma va sirka kislotalar bor.**

2761. Darmona o'simligining bargları, yosh navları, gul savatchalarida qanday moddalar bor? **Santonin, efir moylari bor.**

2762. Darmona o'simligining bargları, yosh navları, gul savatchalaridagi efir moyları tarkibiga qanday moddalar kiradi? **Sinol, sipen, terpinen, terpeniol, kamfara, karvakrol, sekviartimizol kiradi.**

2763. Darmona o'simligining tarkibida qanday moddalar bor? **Betain, xolin, achchiq va bo'yoq moddalar bor.**

2764. Darmona o'simligining tarkibida qanday kislotalar bor? **Olma, sirka kislotalari bor.**

2765. Darmona o'simligidan olingan efir moyi (darmınol) qayerda ishlatiladi? **Har xil mikroblarni o'ldiruvchi antiseptik dori sifatida, revmatizm va asab kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

2766. Darmona o'simligidagi efir moyidan olinadigan gvayazulen qaysi kasalliklarni davolashda va qaysi nurlardan kuyganda qo'llaniladi? **Nafas qisish, revmatizm, ekzema kabi kasalliklarni davolashda va rentgen nuridan kuyganda qo'llaniladi.**

2767. Darmona o'simligi qaysi oyda gullaydi? **Sentabr oyida gullaydi.**

2768. Darmona o'simligi qaysi oyda urug' beradi? **Oktabr oyida urug' beradi.**

2769. Darmona o'simligining endigina ochila boshlagan to'pgulidan nima olinadi? **Santonin ($C_{15}N_{18}O_3$) olinadi.**

2770. Darmona o'simligining bargları necha karra patsimon qayrilgan? **Ikki karra patsimon qayrilgan.**

2771. Darmona butasi gullari nechtadan joylashgan? **36 tadan joylashgan.**

2772. Darmona o'simligi qayerda o'sadi? **Janubiy Qozog'iston Respublikasining daryo bo'ylarida, soylar, tekisliklar va tog' etaklarida o'sadi.**

2773. Daroyi, doroyi ertapishar jaydari qaysi mevali o'simlik navi? **Uzum navi.**

2774. Daroyi navli uzum tarkibida necha foiz qand bor? **15 – 19 foiz.**

2775. Daroyi navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **100 – 200 s/ga.**

2776. Daroyi navli uzum navları necha ko'z qoldirib kesiladi? **12 – 18 ko'z qoldirib kesiladi.**

2777. Daroyi navli uzum sovuqqa, zamburug' kasalliklariga qanday? **Chidamsiz.**

2778. Daroyi navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida o'stiriladi? **Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona viloyatlarida, shuningdek, qo'shni davlatlarda ham o'stiriladi.**

2779. Daroyi navli uzumning qanday xillari bor? **Oq va pushti (qizil) xillari bor.**

2780. Daroyi navli uzum tupi qanday o'sadi? **O'rtacha o'sadi.**

2781. Daroyi navli uzumning qaysi (otalikmi yoki onalikmi) guli rivojlangan? **Onalik guli rivojlangan.**

2782. Daroyi navli uzum bargining kattaligi qanday? **O'rtacha.**

2783. Daroyi navli uzum etdorligi va mazasi qanday? **O'rtacha.**

2784. Daroyi navli uzum po'sti qanday? **Qalin.**

2785. Daroyi navli uzum bargi necha bo'lakli? **Uch bo'lakli.**

2786. Daroyi navli uzum bargi qanday rangli? **To'q yashil rangli.**

2787. Daroyi navli uzum bargining sirti qanday? **Silliq.**

2788. Daroyi navli uzum qachon pishadi? **Iyul oxiri – avgust boshlarida pishadi.**

2789. Dastorgul qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Qoqidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

2790. Dastorgul o'simligi barglari poyaning qaysi qismida joylashgan? **Poyaning ostki qismida joylashgan.**

2791. Dastorgul o'simligi O'zbekistonning qaysi yerlarida o'sadi? **Sug'oriladigan yerlarida o'sadi.**

2792. Dastorgul o'simligi yovvoyi holda qayerlarda uchraydi? **Yevropada, Rossiyada, Kavkazda, Kichik Osiyo va Shimoliy Amerikada uchraydi.**

2793. Dastorgul qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

2794. Dastorgul o'simligi qachondan qachongacha gullab turadi? **Erta bahordan kuzgacha gullab turadi.**

2795. Dastorgul o'simligining tarkibida qanday moddalar va kislotalar bor? **Efir moyi, saponinlar, oshlovchi moddalar, antoksantin, shilimshiq moddalar va organik kislotalar bor.**

2796. Dastorgul o'simligi xalq tabobatida qaysi kasalliklarda qo'llaniladi? **O'pka kasalliklarida, qon ketganda va teriga toshmalar toshganda qo'llaniladi.**

2797. Dastorgul o'simligining poyasi necha sm? **10 – 15 sm.**

2798. Dastorbosh qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Qoqidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

2799. Dastorbosh o'simligining nechta turi O'zbekistonda uchraydi? Ular qaysilar? **2 turi uchraydi. Ular: oddiy dastarbosh (T. vulgare) va tog' dastarboshi (T. pseudoachillea).**

2800. Dastorbosh o'simligining to'pguli tarkibida qanday moddalar bor? **Efir moyi, alkaloidlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor.**

2801. Dastorbosh o'simligining to'pguli damlamasi va poroshogi qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Gijja haydash-da, genetik, angioxolit va ichak kasalliklarini.**

2802. Dastorbosh o'simligining bo'yi necha sm gacha? **15 sm gacha.**

2803. Dastorbosh o'simligining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

2804. Dastorbosh o'simligining barglari uzunligi necha sm gacha? **20 sm gacha.**

2805. Dastorbosh o'simligining barglari qanday shaklda? **Elips shaklda.**

2806. Dastorbosh o'simligining gullari qanday rang, qanday tusda? **Havorang, sariq tusda.**

2807. Dastorbosh o'simligining gullari diametri necha sm gacha boradigan savatchalar hosil qiladi? **12 sm gacha boradigan savatchalar hosil qiladi.**

2808. Dastorbosh o'simligining mevasi asosiga tomon nimaga o'xshab torayib kelgan cho'zinchoq urug'li? **Ponaga o'xshab.**

2809. Dastorbosh o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyul – sentabr oylarida gullaydi.**

2810. Dastorbosh o'simligining mevalari qaysi oylarda pishadi? **Avgust – oktabr oylarida pishadi.**

2811. Dastorbosh o'simligining to'pgullarini kukuni qilib yoki ulardan damlama tayyorlab, xalq tabobatida qaysi kasalliklarga ishlatiladi? **Me'da-ichak, gastritlar, enteritlar, kolitlarda yel va o't haydaydigan, shuningdek, gijjalarga qarshi vosita sifatida ishlatiladi.**

2812. Dastorbosh o'simligi qaysi kasalliklarda foydalaniladi? **Buyrak, podagra, revmatizm, bosh og'rig'i, shamollash kasalliklarida, jarohatlarga davo qilish uchun foydalaniladi.**

2813. Dastorbosh o'simligining to'pgullari kukun yoki damlama ko'rinishida zamonaviy tabobatda qaysi kasalliklarda ishlatiladi? **Me'da-ichak, askaridoz va enterobioz, lyambliozda, gepatitlar, xoletsistitlar, tosh kasalliklarida ishlatiladi.**

2814. Dastorbosh o'simligining to'pgullaridan olingan preparat – tannatsin nima haydaydigan vosita sifatida qo'llaniladi? **O't haydaydigan vosita sifatida qo'llaniladi.**

2815. Dastorbosh o'simligining tarkibidagi qaysi modda gijjalar, mikroblar va hasharotlar (kuya, burga, pashshalar)ga qarshi ta'sir ko'rsatadi? **Efir moyi moddasi gijjalar, mikroblar va hasharotlar (kuya, burga, pashshalar)ga qarshi ta'sir ko'rsatadi.**

2816. Dastorbosh o'simligining to'pgullaridan tayyorlangan damlama kuniga 2 – 3 marta 50 – 100 g dan ichib turilsa, qanday yara et olib, bitib ketishiga yordam beradi? **Me'da va o'n ikki barmoq yarasi et olib, bitib ketishiga yordam beradi.**

2817. Dastorbosh o'simligi va gullarida qanday moddalar borligi tufayli bu o'simlik yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi? **Oshlovchi moddalar borligi tufayli bu o'simlik yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi.**

2818. Dasturxoniy ertagi qaysi o'simlik navi? **Ertagi olma navi.**

2819. Dasturxoniy navli olma O'zbekistonning qaysi zonalarida ekish uchun tavsiya etilgan? **Barcha zonalarida ekish uchun tavsiya etilgan.**

2820. Dasturxoniy navli olma qayerda qaysi olma navini nav ichida changlatish yo'li bilan yaratilgan? **R. R. Shreder nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutida (Persik metniy) navini nav ichida changlatish yo'li bilan yaratilgan.**

2821. Dasturxoniy navli olma daraxti qanday kattalikda? **O'rtacha kattalikda.**

2822. Dasturxoniy navli olma daraxti qanday shox-shabbali? **Keng shox-shabbali.**

2823. Dasturxoniy navli olma ko'chati o'tqazilgandan so'ng nechanchi yili hosilga kiradi? **5 – 6-yili hosilga kiradi.**

2824. Dasturxoniy navli olma daraxti qachon gullaydi? **Aprel oyining o'rtalarida gullaydi.**

2825. Dasturxoniy navli olma daraxtining mevasi og'irligi qancha g? **120 – 200 g.**

2826. Dasturxoniy navli olma po'sti rangi qanday? **Och yashil, sarg'ish.**

2827. Dasturxoniy navli olma eti rangi qanday? **Och novvot rang.**

2828. Dasturxoniy navli olma qanday suvli? **O'rtacha suvli.**

2829. Dasturxoniy navli olma ta'mi qanday? **Shirin-nordonroq.**

2830. Dasturxoniy navli olmaning 20 yillik daraxtida qancha kg gacha hosil olinadi? **400 – 500 kg gacha hosil olinadi.**

2831. Dasturxoniy navli olma daraxti mevasi qachon pishadi? **Iyul oyining oxirlarida pishadi.**

2832. Dasturxoniy navli olma uzoq joylarga jo'natishga qanday (yaroqlimi yoki yaroqsizmi)? **Yaroqli.**

2833. Dasturxoniy navli olma O'zbekistonning qaysi zonalarida ekish uchun tavsiya etiladi? **Barcha zonalarida ekish uchun tavsiya etiladi.**

2834. Dafna, lavr qaysi oilaga mansub doim yashil daraxt yoki buta turkumi? **Lavrdoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt yoki buta turkumi.**

2835. Dafna, lavr daraxtining qaysi turlari bor? **Asl dafna va kanar dafna turi bor.**

2836. Dafna daraxtining qaysi turi ko'proq tarqalgan? **Asl dafna turi ko'proq tarqalgan.**

2837. Dafna daraxti qaysi dengiz atrofi va dengizdagi orollarda qanday holda o'sadi? **O'rta dengiz atrofi va dengizdagi orollarda yovvoyi holda o'sadi.**

2838. Dafna daraxti qayerlarda o'stiriladi? **O'zbekistonning Surxondaryo viloyatlarida, Ozarbayjonda o'stiriladi, Kavkaz va Qrimning Qora dengiz sohillarida.**

2839. Dafna daraxtining quritilgan bargi nima sifatida ishlatiladi? **Ziravor sifatida ishlatiladi.**

2840. Dafna daraxti yaprog'i tarkibida necha foizgacha efir moyi bor? **3 foizgacha efir moyi bor.**

2841. Dafna daraxtining yaprog'i tibbiyotda qaysi a'zolar shishlarida foydasi katta? **Jigar, taloq shishlarida foydasi katta.**

2842. Dafna daraxti yaprog'i qaysi a'zo qotishida ham iste'mol qilinadi? **Qulanj (ich qotishi)da ham iste'mol qilinadi.**

2843. Dag'alkanop, g'uzor – gulxayridoshlarga mansub necha yillik begona o't? **Bir yillik begona o't.**

2844. Dag'alkanop begona o'tining poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

2845. Dag'alkanop begona o'tining poyasi qanday? **Sershox, tukli.**

2846. Dag'alkanop begona o'tining bargları qanday? **Yirik, uzun bandli.**

2847. Dag'alkanop begona o'ti shakli qanday? **Keng tuxumsimon.**

2848. Dag'alkanop begona o'tining bargları qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

2849. Dag'alkanop begona o'tining gullari bandi qanday (kaltami yoki uzunmi)? **Uzun.**

2850. Dag'alkanop begona o'tining rangi qanday? **Sariq yoki to'q sariq.**

2851. Dag'alkanop begona o'tining gulları qanday, necha bo'lakli? **Yirik, besh bo'lakli.**

2852. Dag'alkanop begona o'tining mevasi qanday ko'sakcha? **Qobirg'ali qo'ng'ir–sariq ko'sakcha.**

2853. Dag'alkanop begona o'tining o'q ildizi necha m dan ko'proq chuqurlikka yetadi, qanday ildizları bor? **1 m dan ko'proq chuqurlikka etadi, yon ildizlari bor.**

2854. Dag'alkanop begona o'ti nimasevar o'simlik? **Yorug'sevar o'simlik.**

2855. Dag'alkanop begona o'ti maysalari qaysi oyda paydo bo'ladi? **Aprel oyida paydo bo'ladi.**

2856. Dag'alkanop begona o'ti O'rta Osiyoning qayerlarida tarqalgan? **Sug'orma dehqonchilik yerlarida tarqalgan.**

2857. Dag'alkanop begona o'ti qayerlarda o'sadi? **G'o'za va boshq. chopiq qilinadigan ekinzorlar, bedapoyalar, shuningdek, yo'l yoqalari va bog'larda o'sadi.**

2858. Dag'alkanop begona o'tining bo'yi nechasm? **40 – 250 sm.**

2859. Dag'alkanop begona o'tining bir tupi qancha urug' beradi? **1800 tagacha urug' beradi.**

2860. Dag'alkanop begona o'ti qaysi oylarda gullaydi? **Iyul-sentabr oylarida gullaydi.**

2861. Dag'alkanop begona o'ti qaysi oylarda mevalaydi? **Avgust – oktabr oylarida mevalaydi.**

2862. Dahbedi ertapishar qaysi mevali polizekin navi? **Qovun navi.**

2863. Dahbedi urug'idan chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **70 – 75 kunda pishadi.**

2864. Dahbedi navli qovunning tarkibida necha foiz qand bor? **8 – 10,5 foiz qand bor.**

2865. Dahbedi navli qovunning shakli, dum tomoni qanday? **Tuksimon, dum tomoni to'mtoq.**

2866. Dahbedi navli qovunning uzunligi necha sm? **15 – 25 sm.**

2867. Dahbedi navli qovunning og'irligi qancha kg? **1,7 – 3 kg.**

2868. Dahbedi navli qovunning sirti qanday? **Tekis, serto'r.**

2869. Dahbedi navli qovunning rangi qanday? **Och yashil.**

2870. Dahbedi navli qovunning eti qalinligi necha sm? **3,5 – 4,5 sm.**

2871. Dahbedi navli qovun qaysi viloyatlarda ekiladi? **Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ekiladi.**

2872. Delishes – kechpishar qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

2873. Delishes navli olma qaysi mamlakatlar bog'dorchiligida yetakchi navlardan hisoblanadi? **Amerika va Yevropa davlatlari (Fransiya, Italiya, Shveytsariya, Gollandiya, Avstriya, Bolgariya, Ruminiya va boshq.) bog'dorchiligida yetakchi navlardan hisoblanadi.**

2874. Delishes navli olma daraxtining balandligi necha m? **6,5 – 7 m.**

2875. Delishes navli olma daraxtining gullari rangi qanday? **Qirmizi.**

2876. Delishes navli olma daraxti qachon gullaydi? **Aprel oyining ikkinchi yarmida gullaydi.**

2877. Delishes navli olmaga qaysi olma navlar yaxshi changlatuvchi hisoblanadi? **Simerenko, Renet, Parmen kabi olma navlari yaxshi changlatuvchi hisoblanadi.**

2878. Delishes navli olmaning bir donasi og'irligi qancha g? **150 – 180 g.**

2879. Delishes navli olma tarkibida quruq modda necha foiz? **16,74 foiz.**

2880. Delishes navli olma tarkibida qand necha foiz? **12,7 foiz.**

2881. Delishes navli olma daraxti sovuqqa qanday? **Chidamli.**

2882. Delishes navli olma daraxti mevasi qachon terib olinadi? **Avgust oxiri – sentabr boshlarida terib olinadi.**

2883. Delishes navli olmani qaysi oygacha saqlash mumkin? **Yanvar oyigacha saqlash mumkin.**

2884. Delishes navli olma ko'chati ekilgandan so'ng yozma payvandtagda nechanchi yili hosilga kiradi? **3 – 4-yili hosilga kiradi.**

2885. Delishes navli olma ko'chati ekilgach, nechanchi yilda hosilga kiradi? **6 – 7-yili hosilga kiradi.**

2886. Delishes navli olma navining hosildorligi qancha s/ga? **100 – 120 s/ga.**

2887. Delishes navli olma uzoq joylarga jo'natishga qanday? **Yaroqli.**

2888. Delishes navli olma ko'chati O'zbekistonga qachon keltirilgan? **1950-yillarning oxirida keltirilgan.**

2889. Delishes navli olma O'zbekistonga qayerdan keltirilgan? **Amerikadan keltirilgan.**

2890. Delishes navli olma adabiyotda nima deb ham yuritiladi? **Prevosxodnoe deb ham yuritiladi.**

2891. Delishes navli olmadan nimalarning hidi keladi? **Kuvrak, asalning hidi keladi.**

2892. Delishes navli olma ko'chati qaysi viloyatlarning qaysi mintaqalarida o'stiriladi? **Toshkent, Samarqand, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarining tog' oldi va tog'li mintaqalarida o'stiriladi.**

2893. Dengiz karami qaysi oilaga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi? **Butguldoshlar (butgullilar) oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi.**

2894. Dengiz karami qaysi yarim shardagi sovuq va sovuqliq dengizlarda o'sadi? **Shimoliy yarim shardagi sovuq va sovuq-iliq dengizlarda o'sadi.**

2895. Dengiz karami qaysi davlatlarda ovqatga ishlatiladi? **Xitoy va Yaponiya davlatlarida ovqatga ishlatiladi.**

2896. Dengiz karamidan qaysi kimyoviy element olinadi? **Yod elementi olinadi.**

2897. Dengiz karami ko'pchiligi suv osti nimalarini hosil qiladi? **O'tloqlarini hosil qiladi.**

2898. Dengiz karami – Yaponiya laminariyasining bo'yi necha m? **5 m.**

2899. Dengiz karami – Yaponiya laminariyasining eni necha sm? **5 – 35 sm.**

2900. Dengiz salati o'simligi qaysi dengizda qirg'oqqa yaqin joylarda o'sadi? **O'rta dengizda qirg'oqqa yaqin joylarda o'sadi.**

2901. Dengiz salati o'simligi qaysi davlatlarda ovqatga ishlatiladi? **Yaponiya va Shotlandiya davlatlarida ovqatga ishlatiladi.**

2902. Dengiz salati o'simligi ildizining oq piyozli xili tarkibida qanday modda bor? **Stsilaren glyukozidi (yurak kasalliklariga davo bo'ladigan, siydik haydovchi modda) bor.**

2903. Dengiz piyozining qizil piyozli xili tarkibida nima bo'lib, undan qaysi hayvonlarga qarshi kurashda zaharlovchi modda sifatida foydalaniladi? **Stsitilin glyukozidi bo'lib, undan kemiruvchilarga qarshi kurashda foydalaniladi.**

2904. Dengiz piyozi qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Loladoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

2905. Dengiz piyozining piyozboshi yirik bo'lib, og'irligi qancha kg gacha? **2,5 kg gacha.**

2906. Dengiz piyozining gullari rangi qanday? **Oq-yashil.**

2907. Dengiz piyozining gullari shakli qanday? **Panjali.**

2908. Dengiz piyozining gullari poya uchida qanday bo'lib joylashgan? **G'uj bo'lib joylashgan.**

2909. Dengiz piyozining bargları qanday shaklda? **Nashtarsimon shaklda.**

2910. Dengiz piyozining mevasi qanday ko'sakcha? **Dumaloq ko'sakcha.**

2911. Dengiz piyozining qizil xilidan tayyorlangan preparatlardan qanday hayvonlarga qarshi kurashda zaharli modda sifatida foydalaniladi? **Kemiruvchilarga qarshi kurashda zaharli modda sifatida foydalaniladi.**

2912. Dengiz piyozi qayerlarda qanday holda o'sadi? **Janubiy Yevropa, G'arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikada tabiiy holda o'sadi.**

2913. Dengiz piyozi qaysi davlatlarda o'stiriladi? **Italiya, Janubiy Fransiya va Gruziyada o'stiriladi.**

2914. Dengiz o'ti necha pallalilar sinfiga mansub necha yillik suvo'tlar? **Bir pallalilar sinfiga mansub ko'p yillik suvo'tlar.**

2915. Dengiz o'tining bargi qanday o'simliklar bargiga o'xshash ingichka tasmasimon? **Boshoqli o'simliklar bargiga o'xshash ingichka tasmasimon.**

2916. Dengiz o'tining gullari qanday? **Ko'rimsiz.**

2917. Dengiz o'ti qirg'oqqa yaqin joylarda nimaga yopishib o'sadi? **Mayda tosh yoki qumga yopishib o'sadi.**

2918. Dengiz o'ti ko'pincha iqlimi qanday dengizlarda, asosan, necha m chuqurlikda o'sadi? **Iliq va o'rtacha iliq dengizlarda, asosan, 1 m dan 15 – 20 m chuqurlikda o'sadi.**

2919. Dengiz o'tining Rossiya dengizlarida nechta turkumi tarqalgan? Ular qaysilar? **2 ta turkumi tarqalgan. Ular: zostera yoki kamka va fillospaliks yoki dengiz zig'iri.**

2920. Dengiz o'tining eni necha mm? **3 – 9 mm.**

2921. Dengiz o'ti qanday xususiyatga ega? **Mayin va tovush o'tkazmaslik xususiyatiga ega.**

2922. Dengiz o'ti nima tayyorlashda yumshoq material sifatida ishlatiladi? **Mebel tayyorlashda.**

2923. Dehqonchilikda sabzavot rovoch (R. undulatum) turi qayerlarda ekiladi? **Yevropa mamlakatlari, AQSh, Xitoy, O'rta Osiyoda ekiladi.**

2924. Dili kabutar uzumining nomi qanday yuzaga kelgan? **Nav g'ujumining kaptar yuragiga o'xshaganligi asosida yuzaga kelgan.**

2925. Dili kabutar, kaptar yuragi kechpishar xo'raki uzumning vatani qaysi Respublika? **Tojikiston Respublikasi.**

2926. Dili kabutar uzumining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

2927. Dili kabutar uzumining bargi necha bo'lakli? **Besh bo'lakli.**

2928. Dili kabutar uzumining bargi qanday tishli? **Arra tishli.**

2929. Dili kabutar uzumining boshi uzunligi (bo'yi) necha sm gacha? **22 sm gacha.**

2930. Dili kabutar uzumining boshi shakli qanday? **Silindrsimon.**

2931. Dili kabutar uzumining boshi og'irligi qancha g? **280 – 300 g, ba'zilari 500 – 600 g.**

2932. Dili kabutar, kaptar yuragi uzumi tarkibida necha foiz qand, kislota bor? **20 – 24 foiz qand, 3,5 – 5 foiz kislota bor.**

2933. Dili kabutar uzumning hosildorligi qancha s/ga? **110 – 150 s/ga.**

2934. Dili kabutar uzumi sovuqqa qurg'oqchilikka qanday? **Chidamsiz.**

2935. Dili kabutar uzumi qayerlarda o'stiriladi? **Andijon, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida, Tojikiston Respublikasida o'stiriladi.**

2936. Dilnoz – ertapishar qaysi poliz ekini? **Tarvuz ekini.**

2937. Dilnoz – ertapishar tarvuz navi nechanchi yilda qaysi o'zbek olimlari tomonidan qayerda yaratilgan? **1990-yilda R. Hakimov, S. Qo'chqorov tomonidan O'zbekiston sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida Dnepropetrovskiy, Mramorniy va Ogonyok navlarini duragaylash yo'li bilan yaratilgan.**

2938. Dilnoz navli tarvuzning og'irligi qancha kg? **3,5 – 4 kg.**

2939. Dilnoz navli tarvuz tarkibida umumiy qand miqdori necha foiz? **7,6 foiz.**

2940. Dilnoz navli tarvuz tarkibida C vitamin qancha mg foizga teng? **7,3 mg foizga teng.**

2941. Dilnoz navli tarvuz necha kunda pishadi? **85 – 90 kunda pishadi.**

2942. Dilnoz navli tarvuz hosildorligi qancha s/ga? **300 s/ga.**

2943. Dilnoz navli tarvuz nechanchi yildan O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi? **1994-yildan ekiladi.**

2944. Diatom suvo'tlar qaysi tipga mansub? **Suv o'tlar tipiga mansub.**

2945. Diatom suvo'tlarning qancha turi bor? **20 mingga yaqin turi bor.**

2946. Diatom suvo'tlarning qanday shakllari mavjud? **Mikroskopik (0,75 – 1500 mkm), bir hujayrali, yakka yoki kolonial shakllari mavjud.**

2947. Diatom suv o'tlarning hujayralari necha pallali kremniyli qattiq qobiqdan iborat? Qobiq devorlarida tashqi muhit bilan moddalar almashinuvi sodir bo'lgan nimalar bor? **Ikki pallali. Tirqishlar bor.**

2948. Diatom suvo'tlar qanday ko'payadi? **Diatom suv o'tlari bo'linib ko'payadi.**

2949. Diatom suvo'tlar qayerlarda o'sadi? **Har bir qiz hujayra ona qobig'ining yarmisini oladi, boshqasi esa qaytadan**

o'sadi. Bunda eski yarim palla o'z chekkasi bilan yangi yarim pallani tutib turadi. Diatom suv o'tlari chuchuk suv va dengiz suvlarida, ayniqsa, dengiz tubidagi loyqada, suv o'simliklari va toshlarida, nam yerlarda o'sadi.

2950. Diatom suvo'tlardan nitsshiya, navikula, xaetsshiya, simbella va boshqalar O'rta Osiyodagi qaysi buloqda qancha °C haroratda yashaydi? **Tojikiston Respublikasidagi Xo'ja – obi – garm bulog'ida 65° C – 75° C haroratda yashaydi.**

2951. Dioskorid qaysi o'simlikning shirasini Antik davrda keng qo'llanganligi haqida shunday yozadi "U yaralarni qoritadi, burishtiradi, chandiqlarning bitishini tezlashtiradi, soch to'kilishining oldini oladi O't haydavdi, sariqlikni yo'qotadi, kuyganda va o'smalarda keng qo'llaniladi"? **Aloening shirasini.**

2952. Doim yashil o'simliklar qanday mamlakatlarda tarqalgan? **Tropik mamlakatlarda tarqalgan.**

2953. Doim yashil o'simliklar tipiga qaysi o'simliklar kiradi? **Dafna, sambitgul, zaytun, magnoliya kabi keng bargli; archa, qarag'ay singari igna bargli daraxtlar kiradi.**

2954. Dolchin, dorgin qaysi oilaga mansub daraxt? **Lavrdoshlar (lavrgullilar) oilasiga mansub daraxt.**

2955. Dolchin daraxti qayerlarda ekiladi? **Janubiy Xitoy, Vetnam, Laos, Shri Lanka, Indoneziya (Yava, Sumatra) va Lotin Amerikasida ekiladi.**

2956. Dolchin daraxti qanday holda ma'lum emas? **Yovvoyi holda ma'lum emas.**

2957. Dolchin qanday daraxt? **Doim yashil daraxt.**

2958. Dolchin daraxtning bargi qanday (siyrakmi yoki qalinmi)? **Qalin.**

2959. Dolchin daraxtning guli qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

2960. Dolchin daraxt tarkibida necha foiz dolchin aldegidi bor? **75 – 90 foiz dolchin aldegidi bor.**

2961. Dolchin daraxti tarkibida necha foiz efir moyi borligi aniqlangan? **1 – 2 foiz efir moyi borligi aniqlangan.**

2962. Dolchin daraxti tarkibida necha foiz oshlovchi moddalar borligi aniqlangan? **2 – 3 foiz oshlovchi moddalar borligi aniqlangan.**

2963. Dolchin daraxti tarkibida necha foiz kalsiy oksalat va sinnamanin borligi aniqlangan? **1,35 foiz kalsiy oksalat va sinnamanin borligi aniqlangan.**

2964. Dolchin qanday tayyorlanadi? **Yosh daraxtining po'stlog'ini quritib, dolchin tayyorlanadi.**

2965. Dolchin daraxti oziq-ovqat sanoatida nima sifatida ishlatiladi? **Ziravor sifatida ishlatiladi.**

2966. Dolchin daraxti qaysi ishlab chiqarishda ishlatiladi? **Farmatsevtikada va atir-upa ishlab chiqarishda (dolchin moyi) ishlatiladi.**

2967. Donasho'ra qaysi oilaga mansub bir yillik o't? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

2968. Donasho'ra qaysi oyda gullaydi? **May oyida gullaydi.**

2969. Donasho'ra qaysi oyda urug' beradi? **Avgust oyida urug' beradi.**

2970. Donasho'raning poyasi qanday? **Ingichka, sershox.**

2971. Donasho'raning barglari shakli qanday? **Silindrsimon.**

2972. Donasho'raning har bir barg qo'ltig'ida nechtadan gul yetishadi? **Bittadan gul yetishadi.**

2973. Donasho'ra asosan, qayerlarda o'sadi? **Asosan, tahir yerlarda, sho'rxok tuproqda, qumlarda va gil tuproqlarda o'sadi.**

2974. Donasho'ra qaysi fasllarda qaysi hayvonlar uchun yaxshi ozuqa? **Kuz va qishda qo'y hamda tuyalar uchun yaxshi ozuqa.**

2975. Doroyi ertapishar jaydari qaysi mevali o'simlik navi? **Uzum navi.**

2976. Doroyi navli uzumning qanday xillari bor? **Oq va qizil xillari bor.**

2977. Doroyi navli uzumi tupi qanday o'sadi? **O'rtacha o'sadi.**

2978. Doroyi navli uzumning qaysi (otalikmi yoki onalikmi) guli rivojlangan? **Onalik guli rivojlangan.**

2979. Doroyi navli uzum bargi necha bo'lmali? **Uch bo'lmali.**

2980. Doroyi navli uzum bargi rangi qanday? **To'q yashil.**

2981. Doroyi navli uzumning barg sirti qanday? **Silliq.**

2982. Doroyi navli uzumning tarkibida necha foiz qanday moddа va kislota bor? **15 – 19 foiz qand va 3 – 6 foiz kislota bor.**

2983. Doroyi navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **100 – 120 s/ga.**

2984. Dorivor valeriana (asorun, moun, mushuk ildizi) qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't o'simlik? **Valerianadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik.**

2985. Dorivor valeriana o'simligining bo'yi necha m gacha? **2 m gacha.**

2986. Dorivor valeriana o'simligining poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

2987. Dorivor valeriana o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May – avgust oylarida gullaydi.**

2988. Dorivor valeriana o'simligining mevasi qaysi oylarda yetiladi? **Iyun – sentabr oylarida yetiladi.**

2989. Dorivor texnika ekinlariga qaysilar kiradi? **Valeriana, sariqgul, bemadona kiradi.**

2990. Dorivor navro'zgul o'simligining bo'yi necha sm? **15 – 30 sm.**

2991. Dorivor va yirik gulli zaytundan qanday moy olinadi? **Efir moyi olinadi.**

2992. Dorivor sarsabil (A. offeinalis) o'simligi qayerlarda keng tarqalgan? **Yevropaning markaziy va janubiy qismida, Zakavkazye va Shimoliy Kavkazda keng tarqalgan.**

2993. Dorivor o'simliklarning O'zbekistonda qancha turi mavjud? **700 dan ortiq turi mavjud.**

2994. Dorivor o'simliklardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan qancha turidan O'zbekistonda ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi? **120 ga yaqin o'simlik turlaridan O'zbekistonda ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi.**

2995. Dog'voy qaysi oilaga mansub, qo'lansa hidli necha yillik o't? **Qo'ng'iroqguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

2996. Dog'voy o'tining bo'yi necha sm? **50 – 80 sm.**

2997. Dog'voy o'tining barglari, asosan, qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

2998. Dog'voy o'ti qaysi oyda gullab, qaysi oy oxirida meva beradi? **Iyunda gullab, avgust oxirida meva beradi.**

2999. Dog'voy o'ti qaysi viloyatlardagi tog'larning zah yerlarida va daralarning tubida o'sadi? **Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridagi tog'larning zah yerlarida va daralarning tubida o'sadi.**

3000. Dog'voy o'tidan qanday alkaloidlar olinadi? **Kodonopsin va kodonopsinin alkaloidlari olinadi.**

3001. Dog'voy o'tining poya va barglarida alkaloidlarining umumiy miqdori necha foiz? **0,04 – 0,08 foiz.**

3002. Dog'voy o'tining poyasi barglaridan (mahalliy xalq) tayyorlangan damlamani qaysi kasalliklarni davolashda ishlatishadi? **Bosh og'rig'i, oftob urishi, sariq kasalligi va turli teri kasalliklarini davolashda ishlatishadi.**

3003. Drok o'simligi qaysi oilaga mansub buta va chala butalar turkumi? **Dukkakdoshlar (dukkaklilar) oilasiga mansub buta va chala butalar turkumi.**

3004. Drok o'simligining bo'yi necha sm? **1 m cha.**

3005. Drok o'simligining nechta turi bor? **70 ta turi bor.**

3006. Drok o'simligining chetdan keltirilgan nechta turi sobiq Ittifoqda ekilgan? **14 ta turi sobiq Ittifoqda ekilgan.**

3007. Drok o'simligi nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

3008. Drok o'simligining bargi, poyasi va gullaridan qanday bo'yoq olinadi? **Sariq bo'yoq olinadi.**

3009. Drok o'simligi qayerlarda o'sadi? **G'arbiy Yevropa, G'arbiy Osiyo, Afrika va Kapar orollarida o'sadi.**

3010. Drok o'simligi qaynatmasi qanday dori sifatida ishlatiladi? **Surgi dori sifatida ishlatiladi.**

3011. Dukkak nima? **Dukkakli o'simliklarning mevasi.**

3012. Dukkak nimadan hosil bo'ladi? **Bitta urug'chibargdan hosil bo'ladi.**

3013. Dukkak ko'pincha yuqorisidan pastigacha nechta chok bilan ochiladi? **Ikkita, masalan: no'xat, loviya va boshqalar, ba'zi turlarida ochilmaydi. Masalan: qashqarbeda, sebarga, yeryong'oq.**

3014. Dukkakdoshlar, dukkaklilar necha pallali o'simliklarning nimasi? **Ikki pallali o'simliklarning bir oilasi.**

3015. Dukkakdoshlarni ba'zilar nechta kenja oilaga ajratadi? **Uch kenja oilaga ajratadi.**

3016. Dukkakdoshlarning uchta kenja oilasi bo'lib, ular qaysilar? **Mimozadoshlar (Mimosaclal), kapalakguldoshlar (Papilionaclas yoki Fabaclcal) va sezalpindoshlar (Calsalpiniaclal).**

3017. Dukkakdoshlarning nechta turi ma'lum? **12 mingta turi ma'lum.**

3018. Dukkakdoshlarning nechta turkumi bor? **500 ta turkumi bor.**

3019. Dukkakdoshlarning nechta turi sobiq Ittifoqda mavjud bo'lgan? **1800 ta turi mavjud bo'lgan.**

3020. Dukkakdoshlarning nechta turkumi sobiq Ittifoqda ma'lum bo'lgan? **60 ta turkumi ma'lum bo'lgan.**

3021. Dukkakdoshlarning bargları ko'pincha qanday? **Ketma-ket, odatda, yon bargli va murakkab.**

3022. Dukkakdoshlarning gulları, asosan, qanday? **Boshoqsimon, shingilsimon yoki kallaksimon to'pgul, odatda, zigomorf (masalan, kapalakgullilar), ayrimlarida aktinomorf.**

3023. Dukkakdoshlar orasida texnikada ishlatiladigan qimmatbaho mahsulotlar va qimmatbaho yog'och olinadigan qaysi daraxtlar bor? **Tragakantali va balzamli daraxtlar bor.**

3024. Dukkakdoshlardan yeryong'oq, sapo, qashqarbeda, shirikliya, shildirbosh, oqquray, afsonak kabilardan olinadigan nimalar tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Alkaloidlar, glyukozidlar, smolalar, vitaminlar va organik kislotalar tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda ishlatiladi.**

3025. Dukkakdoshlarning cho'llarda uchraydigan qaysi turlari zaharli hisoblanadi? **Qizboltir, oqmiya, achchiqmiyalar zaharli hisoblanadi.**

3026. Dukkakdoshlarning qaysi zaharli turlari insektitsid sifatida ishlatiladi? **Derris, lopxokarus insektitsid sifatida ishlatiladi.**

3027. Dukkakdoshlarning qaysi turlari manzarali o'simlik sifatida ekiladi? **Akatsiya, gledigiya, tuxumak manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

3028. Dukkakdoshlarga mansub ko'p o'simliklarning ildizida atmosfera azotini o'zlashtiradigan nima yashaydi? **Azotobakter yashaydi.**

3029. Dunyo fiziologlarining ustozi deb qaysi rus olimi e'tirof etilgan? **Rus fiziologi I. P. Pavlov e'tirof etilgan.**

3030. Dunyo bo'yicha yetishtiriladigan sholining necha foizini Osiyo mamlakatlari (Hindiston, Xitoy) beradi? **90 foizini Osiyo mamlakatlari (Hindiston, Xitoy) beradi.**

3031. Dunyo bo'yicha kovrakning nechta turi bor? **170 ta turi bor.**

3032. Dunyoga mashhur "Parma binafshasi" atiri qaysi davlatning qaysi shahrida ishlab chiqariladi? **Italiyaning Parma shahrida (Parma provinsiyasining ma'muriy markazi) ishlab chiqariladi.**

3033. Dumpalma qaysi oilaga mansub o'simliklar nimasi? **Palmadoshlar (palmagullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

3034. Dumpalma o'simligining qancha turi bor? **30 dan ortiq turi bor.**

3035. Dumpalma o'simligining mashhurlari qaysilar va ular qayerlarda o'sadi? **Asl dumpalma (H. thebaica) va dasht dumpalmasi (H. coriacla). Asl dumpalma Misrning daryo sohillaridagi o'rmonlarda, dasht dumpalmasi esa Sharqiy Afrika savannalarida, Madagaskar orollarida o'sadi.**

3036. Dumpalma o'simligining barglari shoxlari uchida qandaysimon joylashgan? **Elpig'ichsimon joylashgan.**

3037. Dumpalma o'smimligining to'pguli qandaysimon? **Kuchalasimon.**

3038. Dumpalma o'smimligining gullari qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

3039. Dumpalma o'smimligining guli rangi qanday? **Sarg'ish yoki qizil.**

3040. Dumpalma o'smimligining mevasi qanday? **Danakli, eti yumshoq, shirin.**

3041. Dumpalma o'smimligi qanday mamlakatlarda ko'plab ekiladi? **Tropik mamlakatlarda ko'plab ekiladi.**

3042. Dumpalma o'smimligining bargidan nima to'qiladi va nimalarga solinadi? **Savat, bo'yra va chpta to'qiladi va to'shaklarga solinadi.**

3043. Durra, maylo donli jo'xorining bir turi bo'lib, qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **G'alladoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

3044. Durra o'simligining vatani qayer? **Arabiston.**

3045. Durra o'simlining nechta turi mavjud? **16 ta turi mavjud.**

3046. Durra o'simligining bo'yi necha m? **2 – 3 m.**

3047. Durra o'simligining o'sish davri necha oy? **3 – 4 oy.**

3048. Durra o'simligi boshoqchasi va shakliga qarab qanday turlarga bo'linadi? **Efiopiya jo'xorisi (S. durra ssp. aethiopicum); nubiya jo'xorisi (S. durra ssp. nubicum); arabiston jo'xorisi (S. durra ssp. arabicum).**

3049. Durra o'simligining yashil maysasida qanday zaharli modda va kislota bo'ladi? **Zaharli durrin glikozidi, ba'zilarida sianid kislota bo'ladi.**

3050. Durra o'simligi qayerlarda ekiladi? **AQSh, Afrikaning tropik mintaqalarida, Afg'oniston, Janubiy Yevropa mamlakatlarida, Yaponiya va O'rta Osiyoda ekiladi.**

3051. Durra sug'oriladigan yerlarda qanday o'simlik sifatida ekiladi? **G'alla o'simligi sifatida ekiladi.**

3052. Durra o'simligining guli g'uj joylashib, qaysi o'simlikka o'xshash nima hosil qiladi? **Oq jo'xoriga o'xshash ro'vak hosil qiladi.**

3053. Durra o'simligi ro'vagining zichligi, tik o'sganligi, barmoqsimon to'pguli bilan qaysi o'simlikdan farq qiladi? **Oq jo'xoridan farq qiladi.**

3054. Duragaylarni ota-ona nusxalarning biri bilan qayta chatishtirishga nima deyiladi? **Bekkross deyiladi.**

3055. Dusen past bo'yli qaysi daraxtning bir turi? **Olma daraxtining bir turi.**

3056. Dusen olma daraxti qanday ko'paytiriladi? **Qalamcha va parxish bilan ko'paytiriladi.**

3057. Dusen olma daraxti necha yil umr ko'radi? **30 – 40 yil umr ko'radi.**

3058. Dusen olma daraxtining balandligi necha m ga boradi? **5-6 m ga boradi.**

3059. Dusen olma daraxtining qanday payvandtag tiplari keng tarqalgan? **EM-II, EM-III, EM-IV, EM-V payvandtag tiplari keng tarqalgan.**

3060. Dusen daraxtiga payvand qilingan daraxtlarning bo'yi necha m, ildiz tarmog'i qanday joylashadi? **5 – 7 m, birmuncha yuza joylashgan.**

3061. Dusen navli olma ko'chati o'tqizilgach, nechanchi yili hosil beradi? **3 – 4-yili hosil beradi.**

3062. Dusen o'simligi nimalarga chidamli? **Qurg'oqchilikka, shamolga chidamli.**

3063. Do'lana qaysi oilaga mansub daraxt yoki buta? **Ra'nodoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub daraxt yoki buta.**

3064. Do'lana o'simligining nechta turi bor? **890 ta turi bor.**

3065. Do'lana o'simligining balandligi necha m? **6 – 10 m.**

3066. Do'lana o'simligining tanasi yo'g'onligi necha sm? **40 – 50 sm.**

3067. Do'lana o'simligining mevasi necha danakli? **1 – 5 danakli.**

3068. Do'lana o'simligining mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **Qand 11,5 – 15,9 foiz, yog' 8 foiz, olma kislota 0,67 – 0,88 foiz bor.**

3069. Do'lana o'simligining nechta turi O'zbekistonda o'sadi? **10 ta turi o'sadi.**

3070. Do'lana o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Xitoy, Ispaniya, Italiya, Jazoir, Amerika va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.**

3071. Do'lana o'simligi xalq tabobatida qanday maqsadlarda ishlatiladi? **Ishtaha ochuvchi, ichni qotiruvchi dori sifatida qo'llaniladi.**

3072. Do'lana o'simligi bargi, po'stlog'i va ildizi qaynatmasi bilan matolarni qanday ranglarga bo'yash mumkin? **Matolarni sariq va qo'ng'ir ranglarga bo'yash mumkin.**

3073. Do'lana o'simligining qaysi turlari manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi? **Bo'riko'z, sariq, qizil degan do'lana turlari manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.**

3074. Do'lana o'simligi yovvoyi holda Respublikamizning qaysi tumanlarida dengiz sathidan necha m balandlikda, ko'pincha, qanday holda o'sadi? **Tog'li tumanlarda, 1000 – 1500 m balandlikda, ko'pincha, yakka holda o'sadi.**

3075. Do'lana o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May-iyun oylarida gullaydi.**

3076. Do'lana o'simligining mevasi qaysi oy oxirida pishadi? **Sentabr oyi oxirida pishadi.**

3077. Do'lana o'simligi qaysi daraxtlar uchun payvandtag bo'ladi? **Olma, nok, behi uchun payvandtag bo'ladi.**

3078. Do'lana o'simligining mevasi danagi qaysi kislotaga necha soat solinib, nam qanda bahorgacha saqlansa, nechanchi yili unib chiqadi? **Sulfat kislotaga 12 soat solinib, nam holda qumda bahorgacha saqlansa, 1-yili unib chiqadi.**

3079. Do'lana (O'zbekistonda o'sadigan) o'simligining mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar, kislotalar bor? **3 – 14 foiz qandlar (glyukoza, fruktoza, saxaroza), 4 foiz oqsil, 2,5 foiz flavonoidlar (bularning 40 – 50 foizini giperozid tashkil etadi), 0,6 – 1,6 foiz pektin, 0,3 – 0,9 foiz organik kislotalar, karotin, sorbit, xolin, flavon glikozidlar, saponinlar, fitosteridlar, moylar, oshlovchi moddalar, katexinlar, atsetilxolin moddalar bor.**

3080. Do'lana (O'zbekistonda o'sadigan) o'simligining mevasi tarkibida qanday vitaminlar qancha mg foiz bor? **C vitamini 370 mg foiz, P vitamini 250 – 500 mg foiz bor.**

3081. Do'lana o'simligining barglarida qanday moddalar bor? **Fitontsid moddalar bor.**

3082. Do'lana o'simligining ildizlarida qanday modda bor? **Akonitin moddasi bor.**

3083. Do'lana o'simligining gullarida qanday moddalar, kislotalar bor? **Flavonoidlar (kvertsetin, giperozid), efir moyi, atsetilxolin, kfeat va xlorogenat kislotalar bor.**

3084. Do'lana o'simligining urug'larida qanday moddalar bor? **Moy, amigdaliya glikozidi bor.**

3085. Do'lana o'simligining gullari, barglari, mevalaridan Tojikistonda qanday kasalliklarda foydalaniladi? **Gipertoniya, qandli diabet kasalliklarda foydalaniladi.**

3086. Do'lana o'simligining mevasidan qadimgi zamon tabobatida qanday kasalliklarda foydalanish tavsiya etilgan? **Ichketar, sistit paytida, bosh og'rig'i, ishtaha yo'qligida foydalanish tavsiya etilgan.**

3087. Do'lana o'simligining mevasidan Tibet va mo'g'ul tabobatida qanday kasalliklarda ishlatiladi? **Bosh, ko'krak og'rig'ida, jigar, qon kasalliklari, xoletsistit va gipertoniyada ishlatiladi.**

3088. Do'lana qadimgi tabiblarning yozishlaricha, qanday xastaliklarda foyda beradi? **Kishi asablarini tinchlantiradi, badandagi tirishlarni yo'qotadi, yurakka quvvat bo'ladi, qon aylanishini yaxshilaydi, tomirlarni kengaytiradi, uyqusizlikka, diqqinafaslikka barham beradi, miyaga qon quyilganda, aterosklerozda, asab xastaliklarida foyda beradi.**

3089. Do'lana o'simligining gullari bilan mevalari qaysi a'zolar qanday o'tkazuvchanligini kamaytiradi? **Qon tomirlar va kapillyar o'tkazuvchanligini kamaytiradi.**

3090. Do'lana o'simligining qaysi biri kuchliroq ta'sir qiladi (gullarimi yoki mevalarimi)? **Gullari kuchliroq ta'sir qiladi.**

3091. Ebenadoshlar, ebenagullilar qaysi sinfga mansub daraxt va yirik butalardan iborat o'simliklar oilasi? **Tutashtojbarglilar sinfiga mansub.**

3092. Ebenadoshlar o'simligining nechta turkumi va nechta turi bor? **7 ta turkumi va 450 ta turi bor.**

3093. Evenadoshlar o'simligining barglari qanday joylashgan? **Navbatlashib, ba'zan qarama-qarshi joylashgan.**

3094. Evenadoshlar o'simligining mevasi qanday? **Meva, odatda, sersuv va syeret rezavor.**

3095. Evenadoshlar o'simligining qaysi barglari yo'q? **Yon barglari yo'q.**

3096. Evenadoshlar o'simligining gullari qanday? **Aktinomorf.**

3097. Evenadoshlar o'simligining qaysi turkumi Afina va Osiyoning tropik, subtropik rayonlarida keng tarqalgan? **Diospiros turkumi keng tarqalgan.**

3098. Evenadoshlar o'simligining safsan turi yovvoyi holda qayerlarda o'sadi? **Kavkazda, O'zbekistonda va Tojikistonda o'sadi.**

3099. Evkalipt qaysi oilaga mansub, doim qanday daraxt yoki butalar nimasi? **Mirtadoshlar (mirtagullilar) oilasiga mansub, doim yashil daraxt yoki butalar turkumi.**

3100. Evkalipt daraxtining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3101. Evkalipt daraxtining qancha turi bor? **500 dan ortiq turi bor.**

3102. Evkalipt daraxtining tarkibida qanday moddalar? **Efir moylari, elim, oshlovchi moddalar bor.**

3103. Evkalipt qanday o'simlik? **Dorivor o'simlik.**

3104. Evkalipt o'simligi qayerlarda ko'p ekiladi? **Tropik va subtropiklarda ko'p ekiladi.**

3105. Evkaliptning G'arbiy Gruziya, Qrim va Ozarbayjonda qaysi turlari o'stiriladi? **Sharsimon (E. globulus), kulrang (E. cinerea) va xivchinsimon (E. viminalis) turlari o'stiriladi.**

3106. Evkalipt daraxtining balandligi necha m gacha? **80 – 100 m gacha.**

3107. Evkalipt qanday o'simlik? **Issiqsevar va namsevar o'simlik.**

3108. Evkalipt daraxti qanday yerlarda yaxshi o'sadi? **Unumdor yerlarda yaxshi o'sadi.**

3109. Evkalipt daraxti necha yilgacha yashaydi? **500 yilgacha yashaydi.**

3110. Evkalipt daraxtining kuzda barglari tarkibida tibbiyotda va parfyumeriyada ishlatiladigan qanday moy ko'p? **Efir moyi ko'p.**

3111. Evkalipt daraxtining quruq bargi tarkibidagi efir moti miqdori necha foiz? **1,5-3 foiz.**

3112. Evkalipt daraxtining qancha turi manzarali o'simlik sifatida hamda yog'ochi (qurilish va qog'oz sanoati) uchun o'stiriladi? **20 ga yaqin turi o'stiriladi.**

3113. Evkalipt daraxti bir-yilda necha m o'sadi? **4 – 5 m o'sadi.**

3114. Evkommiya qaysi oilaga mansub barg to'kadigan necha uyli daraxtlar nimasi? **Evkommiyadoshlar oilasiga mansub barg to'kadigan ikki uyli daraxtlar turkumi.**

3115. Evkommiya daraxti Xitoyda necha yildan beri o'stiriladi? **1000 yildan beri o'stiriladi.**

3116. Evkommiya daraxti qayerlarda o'stiriladi? **Xitoy, Vetnam, G'arbiy Yevropadagi ayrim mamlakatlar Shimoliy Afrika, AQSh, O'rta Osiyo va Zakavkazyeda (kichik maydonlarda) o'stiriladi.**

3117. Evkommiya daraxtining bo'yi necha m? **15 – 20 m.**

3118. Evkommiya daraxtining bargi qanday shaklda, qanday joylashgan? **Tuxumsimon yoki ellipssimon shaklda, ketma-ket joylashgan.**

3119. Evkommiya daraxtining yog'ochi va urug'idan tashqari hamma qismida qanday naychalar bo'ladi? **Guttapyerchali sut naychalari bo'ladi.**

3120. Evkommiya daraxtining bargida necha foiz, tana va shoxlari po'stlog'ida necha foiz guttapyercha bor? **2 – 4 foiz, 5 – 6 foiz guttapyercha bor.**

3121. Evkommiya daraxtining ildiz po'stlog'ida necha foiz guttapyercha bor? **9 – 12 foiz guttapyercha bor.**

3122. Evkommiya guttapyerchasi qanday? **Juda sifatli.**

3123. Evkommiya daraxtining necha foizini gutta, necha foizini smola tashkil qiladi? **74 foizini gutta, 20 foizini smola tashkil qiladi.**

3124. Evkommiya daraxtining po'stlog't qaynatmasi, damlamasi va ekstrakti qaysi kasallikni davolashda qo'laniladi? **Gipertoniya kasalligini davolashda qo'laniladi.**

3125. Evkommiya daraxti mmalaridan ko'paytiriladi? **Urug'idan, ildiz bachkisi va parxish qilib, shuningdek, yashil qalamchalaridan ko'paytiriladi.**

3126. Edelvays qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

3127. Edelvays o'simligi manzarali qayer guli? **Tog' guli.**

3128. Edelvays o'simligining vatani qayer? **Vatani - Yevropa, Sibir, Xitoy, Yaponiya.**

3129. Edelvays o'simligining qaysi turlari qayerlarda o'sadi? **Alp tog'larining ohaktoshli qoyalarda, dengiz sathidan 1700-2300 m balandlikda Alp edelveysi, Sibirda Sibir edelveysi (L. Sibiricum). Himolay tog'larida Himolay edelveysi (L. Himolacium) o'sadi.**

3130. Edelvays o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyul – avgust oylarida gullaydi.**

3131. Edelvays o'simligi gulining qaysi turlari sovuqqa chidamli? **Sibir va Himolay edelvayslari turlari sovuqqa chidamli.**

3132. Edelvays o'simligi guli poyasining hamma qismi oppoq nimalar bilan qoplangan? **Tuklar bilan qoplangan.**

3133. Edogoniysimonlar qanday suvo'tlar qabilasi yoki simfi? **Yashil suvo'tlar.**

3134. Edogoniysimonlar hujayralari necha yadroli? **Bir yadroli.**

3135. Edogoniysimonlarning nechta turi ma'lum? **470 ta turi ma'lum.**

3136. Egey dengizidagi qaysi orolda tanasi aylanasi 18 m bo'lgan necha yillik chinorlar bor? **Krit orolida 2300 yillik chinorlar bor.**

3137. Ekib o'stiriladigan mevali o'simliklarning nechta botanik oilaga mansub qancha turi ma'lum? **32 ta botanik oilaga mansub 200 ga yaqin turi ma'lum.**

3138. Ekiladigan oddiy yasmiq (E. I) nechta kenja turga bo'linadi? **Ikkita kenja turga bo'linadi.**

3139. Ekiladigan oddiy yasmiq qaysilar? **Yirik urug'li va mayda urug'li.**

3140. Ekiladigan zaytundoshlarning mevasi qanday holda nima qilinadi? **Tuzlangan va konservalangan holda iste'mol qilinadi.**

3141. Ekilgan chigitga etarli namlik, aeratsiya, yorug'lik bo'lganda harorat qancha ° C da murtak una boshlaydi? **13° C – 14° C haroratda murtak una boshlaydi.**

3142. Ekma to'ng'iztaroq (D. fillomumning qubbasi qaysi sanoatda ishlatiladi? **To'qimachilik sanoatida ishlatiladi.**

3143. Ekma latuk yoki latuk-salat necha yillik bo'lib, bargi nima qilinadi? **Bir yillik bo'lib, bargi iste'mol qilinadi.**

3144. Ekma lavlagi necha yillik o'simlik? **Ikki yillik o'simlik.**

3145. Ekma lavlagi o'simligining qanday xillari bor? **Qizilcha (burok), xomaki va qand lavlagi xillari bor.**

3146. Ekma suli (A. sativa) qanday iqlimli mamlakatlarda ekiladi? **Mo'tadil iqlimli mamlakatlarda ekiladi.**

3147. Ekkommiya daraxtining qayrag'ochsimon turi (E. ulmoides) qaysi mamlakatda o'sadi? **Xitoyda o'sadi.**

3148. Ekkommiya daraxtining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3149. Ekkommiya daraxtining mevasi qanday yong'oqcha? **Cho'ziq qanotchali.**

3150. Ekkommiya daraxti sovuqqa qanday? **Chidamli.**

3151. Ekstrazonal (lot. extra – o'ta va yunon. zone - mintaqa) o'simliklar qanday o'simliklar? **O'zi hosil qilgan o'simlik mintaqasidan, ya'ni o'zining asosiy arealidan tashqarida joylashgan tabiiy o'simliklar. Ekstrazonal o'simliklar o'zi uchun ekologik jihatdan eng qulay bo'lgan hududlarda alohida orollar holida uchraydi.**

3152. Elodiya qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Suvguldoshlar (suvgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

3153. Elodiya o'tning nechta turi ma'lum? **10 ta turi ma'lum.**

3154. Elodiya o'tning vatani qayer? **Vatani-Shimoliy va Janubiy Amerika.**

3155. Elbyerta o'rtapishar xo'raki nima navi? **Shaftoli navi.**

3156. Elbyerta navli shaftoli qaysi mamlakatda yaratilgan? **AQShda yaratilgan.**

3157. Elbyerta navli shaftoli qaysi navlar changlantirib yaratilgan, deb taxmin qilinadi? **Xitoy Chaynez King shaftoli navi urug'ko'chatini sariq etli shaftoli (Krauford chillakisi) navi bilan changlantirib yaratilgan, deb taxmin qilinadi.**

3158. Elbyerta navli shaftoli qayerlarda ekiladi? **Dog'iston, Ukraina, Qozog'iston, Gruziya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikistonda ekiladi.**

3159. Elbyerta navli shaftoli daraxtining bo'yi necha m gacha? **5 m gacha.**

3160. Elbyerta o'rtapishar shaftoli navi ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **3 yili hosilga kiradi.**

3161. Elbyerta mevasi qaysi oyda pishadi? Avgust oyida pishadi.

3162. Elbyerta navli shaftolining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3163. Elbyerta navli shaftolining tarkibidagi qand miqdori necha foiz? **12-13 foiz.**

3164. Elbyerta navli shaftolining nordonligi necha foiz? **0,75 foiz.**

3165. Elbyerta navli shaftoli daraxti tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

3166. Elbyerta navli shaftoli daraxti mevasi og'irligi o'rtacha qancha g? **150 g, ba'zan 350 - 400 g.**

3167. Elbyerta navli shaftolining shakli qanday? **Dumaloq-ovalsimon.**

3168. Elbyerta navli shaftolining po'sti qanday? **Qalin.**

3169. Elbyerta navli shaftolining eti rangi qanday? **Sariq.**

3170. Elbyerta navli shaftolining mazasi qanday? **Nordon-shirin, sersuv.**

3171. Elbyerta navli shaftoli tashishga qanday? **Chidamli.**

3172. Elbyerta navli shaftoli nechanchi yildan O'zbekistonning qaysi viloyatlari uchun rayonlashtirilgan? **1959-yildan hamma viloyatlari uchun rayonlashtirilgan.**

3173. Eman, dub, bolut qaysi oilaga mansub doimi qanday daraxt, ba'zan butalar nimasi? **Qoraqayindoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt, ba'zan butalar turkumi.**

3174. Eman daraxti Shimoliy yarim sharning qaysi mintaqalarida qancha turi bor? **Mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalarida 450 dan ortiq turi bor.**

3175. Eman daraxtining Shimoliy va Markaziy Amerikada qancha turi bor? **200 dan ortiq turi bor.**

3176. Eman daraxtining qaysi turi O'zbekistonda ekiladi? **Qizil eman (Q. rubra) turi ekiladi.**

3177. Eman daraxtining ildizi o'qildiz bo'lib, necha m chuqurlikka kirib boradi? **5 m chuqurlikka kirib boradi.**

3178. Eman daraxtining balandligi necha m? **20-25 m.**

3179. Eman daraxtining bargları qanday shaklda? **Teskari tuxumsimon shaklda.**

3180. Eman daraxti necha yoshidan boshlab gullay boshlaydi? **15-60 yoshidan gullay boshlaydi.**

3181. Eman qanday, nimaga chidamli daraxt? **Yorug'sevar, qurg'oqchilikka chidamli daraxt.**

3182. Eman daraxtining yog'ochi qayerlarda qimmatli xomashyo hisoblanadi? **Aviatsiya va kemasozlikda, qurilishda, mebel sanoatida, bochkasozlikda qimmatli xomashyo hisoblanadi.**

3183. Eman daraxtining po'stlog'idan qayerda foydalaniladi? **Teri oshlashda foydalaniladi.**

3184. Eman daraxti ihota o'rmonları tashkil qilishda nechanchi o'rinni egallaydi? **Birinchi o'rinni egallaydi.**

3185. Eman daraxtining mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **Oqsil moddalari, qand, 5 foiz yog', 40 foiz kraxmal bor.**

3186. Eman daraxtining mevasi undan hozirda ham qanday mahsulotlar tayyorlashda foydalaniladi? **Qandolat mahsulotları tayyorlashda foydalaniladi.**

3187. Eman daraxti necha yil yashaydi? **2000 yil yashaydi.**

3188. Eman daraxti umrining necha yilida yuqoriga, keyin esa yoniga o'sadi? **80 yilida yuqoriga, keyin esa yoniga qarab o'sadi.**

3189. Eman daraxti ildizining po'sti rus tabobatida qanday hollarda qo'llaniladi? **Ich ketishda, ichki va tashqi qon ketishda, tsinga, raxit hamda og'ir metall tuzlari va qo'ziqorinlardan zaharlanganda qo'llaniladi.**

3190. Eman daraxtining po'stidan qanday maqsadda foydalaniladi? **Teriga ishlov berishda, uni jigarrang, qizil rangа bo'yash uchun foydalaniladi.**

3191. Eman daraxtining asosiy biologik faol moddalari qanday moddalar hisoblanadi? **Oshlovchi moddalar hisoblanadi.**

3192. Eman, tol va boshqalarning po'stlog'idan qanday moddalar olinadi? **Oshlovchi moddalar olinadi.**

3193. Eng kichik daraxtning nomi nima? **Pakana qayin.**

3194. Eng kichik daraxt pakana qayinning balandligi necha m? **1 m.**

3195. Eng sodda suvo'tlar (ko'k yashil suvo't)ning hujayrasida nimalar yo'q? **Yadro va xromotoforalar yo'q.**

3196. Eng avval qayerda tarqalgan daraxtsimon g'o'zalar – gossi pidli arborsem madaniylashtirilgan? **Hindistonning shimoli-g'arbida tarqalgan.**

3197. Eng ko'p yashaydigan daraxtning nomi nima? **Sekvoyya.**

3198. Eng ko'p yashaydigan sekvoya daraxti qayerda? **Shimoliy Amerikada.**

3199. Eng ko'p yashaydigan sekvoya daraxti necha yil yashaydi? **5000 yil yashaydi.**

3200. Eng semiz daraxtning nomi nima? **Baobab.**

3201. Eng semiz baobab daraxti aylanmasining uzunligi necha m? **30 m.**

3202. Eng katta kaktus o'simligining nomi nima? **Saguaro.**

3203. Eng katta kaktus saguaroning uzunligi necha m? **24 m.**

3204. Eng katta nilufar qaysi? **Viktoriya regiyasi.**

3205. Eng zararli o'simlikning nomi nima? **Strixnos o'simligi.**

3206. Eng baland daraxt qaysi? **Avstraliya ekvalipti.**

3207. Eng baland Avstraliya ekvalipti daraxtining balandligi necha m? **155 m.**

3208. Eng qadimiy gulning nomi nima? **Xrizantema.**

3209. Eng qadimiy xrizantema guli necha ming yillik tarixga ega? **2,5 ming yillik tarixga ega.**

3210. Eng engil, aniqrog'i, eng kichik zichlikka ega bo'lgan daraxtning nomi nima? **Balsa daraxti.**

3211. Eng kichik zichlikka ega bo'lgan balsa daraxtining zichligi qancha g/sm³? **0,12 g/sm³.**

3212. Eng katta gulning nomi nima? **Rafflezіya Arnolrod.**

3213. Eng katta gul qaysi orolda o'sadi? **Sumatra orolida o'sadi.**

3214. Eng katta gulning bo'yi necha m? **1 m.**

3215. Eng katta gulning og'irligi qancha kg? **7 kg.**

3216. Eng baland gulning nomi nima? **Amarfoflauz.**

3217. Enotyeraning vatani qayer? **Vatani – Shimoliy Amerika.**

3218. Enotyera qayerlarda qanday o'simlik sifatida uchraydi? **Hamma yerlarda uchraydi.**

3219. Enotyera o'simligi qaysi vaqt ochiladi? **Kechqurun ochiladi.**

3220. Enotyera o'simligining bo'yi necha sm? **70 – 100 sm.**

3221. Enotyera o'simligining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3222. Enotyera o'simligi mevasi necha pallali changlaydigan tukli ko'sakcha? **4 pallali changlaydigan tukli ko'sakcha.**

3223. Enotyera o'simligi Shimoliy Amerikadan nechanchi yili Yevropaga keltirilgan? **1614-yili Yevropaga keltirilgan.**

3224. Enotyera o'simligi qaysi oilaga mansub ikki yillik o't? **Onagrdonlar (onagrgullilar) oilasiga mansub ikki yillik o't.**

3225. Enotyera o'simligi birinchi yili qanday barglar, ikkinchi yili nima chiqaradigan poya o'sadi? **Birinchi yili rozetka barglar, ikkinchi yili gul chiqaradigan poya o'sadi.**

3226. Entomofil o'simligi nimalar vositasida (chetdan) changlanuvchi o'simliklarni o'ziga jalb qiluvchi ma'lum nimalarga ega? **Hasharotlar vositasida. Belgi-xususiyatlarga ega. Masalan: moychechak, bo'tako'z kabi o'simliklarining guli ancha chiroyli yorqinligidan hasharotlarni o'ziga jalb etadi.**

3227. Epidyermis, kutikula bargida nimalarning bo'lishi yuksak o'simliklar uchun xos? **Og'izchalarining bo'lishi.**

3228. Erbaho qaysi oilaga mansub o'simlik? **Gazako'tdoshlar (erbahogullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

3229. Erikadoshlar, erikagullilar-daraxt va butalardan iborat doim yashil o'simliklar nimasi? **Oilasi.**

3230. Erikadoshlar o'simligi necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3231. Erikadoshlar o'simligining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3232. Erikadoshlar, erikagullilar qanday moddalardan iborat doim yashil o'simliklar oilasi? **Daraxt va butalardan iborat.**

3233. Erikadoshlarning ko'p turlaridan qanday moddalar olinadi? **Glikozidlar, oshlovchi moddalar, efir moylari va boshqalar olinadi.**

3234. Erikadoshlarning mevasi qanday? **Rezavor yoki ko'sakcha.**

3235. Erikadoshlar nimalar yordamida changlanadi? **Hasharotlar, qushlar va shamol yordamida changlanadi.**

3236. Erikadoshlarning ko'p turlari nima hosil qiladi? **Mikoriza hosil qiladi.**

3237. Erikadoshlarning nechta turkumi va turi mavjud? **80 ta turkumli va 1550 ta turi mavjud.**

3238. Erikadoshlar qaysi kenja oilalarga bo'linadi? **Rododendronlar, arbitusdoshlar, vaktsinodoshlar, erikadoshchalar kenja oilalariga bo'linadi.**

3239. Erkak qirqquloq o'simligining ildizpoyasi qanday (tingichkami yoki yo'g'onmi)? **Yo'g'on.**

3240. Erkak qirqquloq o'simligining ildizpoyasi nimalar bilan o'ralgan? **Eski barg bandlari bilan o'ralgan.**

3241. Erkak qirqquloq o'simligining bargları qanday bo'lib joylashgan? **To'p-to'p bo'lib joylashgan.**

3242. Erkak qirqquloq o'simligining barg plastinkasi shakli qanday? **Uzunchoq ellipssimon.**

3243. Erkak qirqquloq o'simligining bargi necha karra qanday qirqilgan? **Ikki karra patsimon qirqilgan.**

3244. Ermon, achchiq shuvoq murakkabguldoshlar oilasi qaysi turkumga mansub necha yillik o't turi? **Shuvoqlar turkumiga mansub ko'p yillik o't turi.**

3245. Ermon o't qayerlarda tarqalgan? **Kavkaz, Sibir va O'rta Osiyoda tarqalgan.**

3246. Ermon o't qayerlarda o'sadi? **Cho'l, adir va tog'yon bag'irlarda, yo'l yoqalarida o'sadi.**

3247. Ermon o'tning poyasi va barglarida qanday moddalar, vitaminlar bor? **Efir moyi, karotin, achchiq glikozidlar, oshlovchi va boshq. moddalar; S va K vitaminlari bor.**

3248. Ermon o't preparatlari qanday dori sifatida ishlatiladi? **Ovqat hazm qiluvchi, ishtaha ochuvchi, o't haydovchi dori sifatida ishlatiladi.**

3249. Ermon o'tning bo'yi necha sm? **60 – 120 sm.**

3250. Ermon o'tning gullari qanday rangli? **Sariq rangli.**

3251. Ermon o't qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – sentabr oylarida gullaydi.**

3252. Ermon o't qaysi oyda mevalaydi? **Oktabr oyida mevalaydi.**

3253. Ermon o't va barglaridagi efir moyining tarkibiga qanday moddalar kiradi? **To'yingan spirt, uglevodorodlar, sekvityerpen laktonlar va kekvityerpen gvayanandtinlar kiradi.**

3254. Ermon o'tning barglari va poyalarida bo'ladigan qanday moddalar bu o'tga xos qanday maza beradi? **Kosintin va anabseptin degan moddalar bu o'tga xos taxir maza beradi.**

3255. Ermon o'tning barglari va poyalarida bo'ladigan kosintin va anabseptin moddalarning ta'siri qanday kasalliklarni davolashda ta'siri katta? **Yallig'lanish va mikroblarga qarshi ta'siri katta.**

3256. Ermon o'tning qaynatmasi xalq tabobatida qanday kasalliklarga shifo? **Ovqat hazmi buzilganida, jigar, me'da, taloq, o't pufagi kasalliklari, bavosil, bezgakda shifo, shuningdek, ishtahani ochish, uyquni joyiga keltirish uchun ichiladi.**

3257. Ermon o'tning qaynatmasi xalq tabobatida nimani haydaydigan, qanday jarohatlarning bitishini tezlashtiradigan vosita sifatida ishlatiladi? **Gijja haydaydigan, yara jarohatlarning bitishini tezlashtiradigan vosita sifatida ishlatiladi.**

3258. Ermon o'tning qaynatmasini Abu Ali ibn Sino qanday kasalliklarga shifo bo'lishi, nimani asliga keltirish uchun ishlatgan? **Eski ko'z kasalliklariga shifo bo'lishi, hayzni asliga keltirish uchun ishlatgan.**

3259. Ermon o'tdan siqib olingan suvini Abu Ali ibn Sino qanday kasalliklarga tavsiya etgan? **Sariq istisqoda, ishtahani ochish kasalliklarga tavsiya etgan.**

3260. Ermon o'tdan tayyorlangan galen preparatlar qanday kasalliklarda tavsiya etilgan? **Yuqori nafas yo'llari katari, kamqonlik, revmatizm, gepatit, bronxial astma kabi kasalliklarda tavsiya etilgan.**

3261. Ermon o'tdan tayyorlangan qaysi preparatlar uyqusizlikda ishlatiladi, shuningdek, nimaga kirgizadigan dori sifatida tavsiya etiladi? **Galen degan preparatlar, quvvatga kirgizadigan dori sifatida tavsiya etiladi.**

3262. Ermon o'tning ildizlari va poya-barglaridan spirtda tayyorlangan ekstrakt qanday kasalliklarda qo'llaniladi? **Me'da, ichak, bachadon raki kasalliklarida qo'llaniladi.**

3263. Ermon o't iste'mol qilinsa, qaysi a'zo tiqilmalarini ochadi? **Jigar tiqilmalarini ochadi.**

3264. Ermon o't iste'mol qilinsa, qaysi kasalliklarga shifo bag'ishlaydi? **Sariq xastaligi va issiq istisqoga shifo bag'ishlaydi.**

3265. Ermon o't iste'mol qilinsa, qanday kasalliklarni davolaydi? **Qorin ichi, ko'krak a'zolari, ichaklar tiqilmalarini ochadi, jigarga kuch beradi, qon harorati va chanqashni bosadi, yurakning behuzur bo'lishi, safroning qaynashi va me'daning qizishi, safroli qusish, allergiya, safrolik qon qaynashi, chechak, qizamiq hamda safrolik ichketarni davolaydi.**

3266. Ertagi kartoshka etishtirishda urug'lik necha kun yarovizatsiya qilinadi (maxsus yorug' xonada nish chiqarishi ta'minlanadi)? **20-40 kun yarovizatsiya qilinadi.**

3267. Ertagi kartoshka O'zbekistonda qachon ekiladi? **Fevral oxiri – martda, janubiy rayonlarda hatto kech kuzda (oktabr-noyabrda), kechkisi may oxiri-iyunda ekiladi.**

3268. Espartset qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Dukkakdoshlar (dukkakgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

3269. Espartset o'simligining qancha yovvoyi turi bor? **130 dan ortiq yovvoyi turi bor.**

3270. Espartset o'simligi tarkibida qanday moddalar bor? **Protein, karotin, vitaminlar bor.**

3271. Espartset, bargak o'simligining qancha turi Rossiyaning Yevropa qismida, O'rta Osiyo, Kavkazda o'rmon, cho'l, tog' mintaqalarida ko'p o'sadi? **75 taga yaqin turi o'sadi.**

3272. Espartset o'simligining qaysi turi chorva mollari uchun yaxshi ozuqa? **Deyarli hamma turlari chorva mollari uchun yaxshi ozuqa.**

3273. Espartsetning oddiy esparset turi ildizi o'qildiz bo'lib, tuproqqa necha m chuqurlikkacha kirib boradi? **3-6 m chuqurlikkacha kirib boradi.**

3274. Espartset o'simligining bo'yi necha sm? **50-150 sm.**

3275. Espartset o'simligi necha bo'g'imli? **5-8 bo'g'imli.**

3276. Espartset o'simligi qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi.**

3277. Espartset o'simligining 1000 ta urug'i og'irligi qancha g? **12-15 g.**

3278. Espartset o'simligining 100 kg pichanida qancha kg protein mavjud? **11,9-12,6 kg protein mavjud.**

3279. Espartset o'simligi gulshiraga boyligi bois asalarilar qancha kg/ga asal yig'ishi mumkin? **120-170 kg/ga asal yig'ishi mumkin.**

3280. Espartset o'simligi ekilgan dalalarda tuproqni qaysi kimyoviy element bilan boyitadi? **Azot bilan (100 – 200 kg/ga azot to'playdi) boyitadi.**

3281. Espartset o'simligi (sug'oriladigan yerlarda)dan gektariga qancha s pichan olish mumkin? **150 s pichan olish mumkin.**

3282. Efedra qaysi oilaga mansub o'simlik? **Zog'ozadoshlar (efedragullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

3283. Efir moyli o'simliklardan qayerlarda foydalaniladi? **Parfyumeriya, pazandachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika va likyor-aroq ishlab chiqarish sifatida foydalaniladi.**

3284. Efir moyli texnika ekinlariga qaysi o'simliklar kiradi? **Atirgul, yorongul, kashnich, yalpiz va boshqalar kiradi.**

3285. Exinokaktus qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Kaktusdoshlar (kaktusgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

3286. Exinokaktus o'simligining qancha turi bor? **500 ga yaqin turi bor.**

3287. Exinokaktus o'simligining poyasi qanday? **Sersuv.**

3288. Exinokaktus o'simligining poyasi shakli qanday? **Sharsimon yoki qisqa silindrik, uzunasiga qirrali.**

3289. Exinokaktus o'simligining gullari rangi qanday? **Sariq, pushti,** oq **yoki qizil.**

3290. Exinokaktus o'simligining mevasi ko'pincha qanday? **Rezavor.**

3291. Exinokaktus o'simligi, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Meksikada, ba'zi turlari esa Janubiy va Markaziy Amerikada tarqalgan.**

3292. Exinokaktus o'simligining Rossiya va Yevropadagi mamlakatlarda qancha turi manzarali o'simlik sifatida xona oranjyereyalarda o'stiriladi? **40 dan ortiq turi o'stiriladi.**

3293. Echkiemar mahalliy o'rtapishar, xo'raki qaysi o'simlik navi? **Uzum navi.**

3294. Echkiemar navli uzumning tarkibida qand, kislota necha foiz? **Qand 18 – 21 foiz, kislota 4 – 6,5 foiz.**

3295. Echkiemar qayerda yaratilgan o'rtapishar xo'raki uzum navi? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**

3296. Echkiemar navli uzumning tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

3297. **Echkiemar navli uzumning bargi necha bo'lmali? Besh bo'lmali.**

3298. Echkiemar navli uzum barginng chetlari qanday tishli? **Arra tishli.**

3299. Echkiemar navli uzumning boshi yirik bo'lib, bo'yi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

3300. Echkiemar navli uzum boshining o'rtacha og'irligi qancha g? **450 g.**

3301. Echkiemar navli uzumning po'sti qanday? **Yupqa.**

3302. Echkiemar navli uzumning hosili faol harorat yig'indisi qancha ° C da necha kunda, ya'ni qachon pishadi? **3400° C – 3800° C haroratda 135 kunda, ya'ni avgustning 2-yarmida pishadi.**

3303. Echkiemar navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **100 – 120 s/ga.**

3304. Echkiemar navli uzum qanday kasalliklarga chidamli? **Antraknoz va rag'a kasalliklariga chidamli.**

3305. Echkiemar navli uzum qaysi viloyatlarda ko'proq ekiladi? **Toshkent, Sirdaryo, Namangan va Samarqand viloyatlarida ko'proq ekiladi.**

3306. Echkiemar navli uzumning g'ujumi shakli qanday? **Cho'zinchoq, oval.**

3307. Echkiemar navli uzumning g'ujumi rangi qanday? **To'q qizil.**

3308. Echkimiya qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar, ba'zan chala butalar turkumi? **Chinniguldoshlar (chinnigullilar) oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik.**

3309. Echkimiya o'simligining mevasi qanday? **Ko'sakcha.**

3310. Echkimiya o'simligining nechta turi bor? **400 ta turi bor.**

3311. Echkimiya o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy yarim sharning shimoliy va mo'tadil viloyatlarida, asosan, O'rta dengizda tarqalgan.**

3312. Echkisoqol qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Murakkabguldoshlar oilasiga bir yoki ko'p yillik o'tlar turkumi.**

3313. Echkisoqol o'tning O'zbekistonda necha yillik qanday turlari o'sadi? **Bir yillik krashennikov (T. krascheninnikovii S. nik.), ko'p yillik malik (T. malikus S. nik.), ikki yillik vvedenskiy (T. vvedenskiyi M. pop.), ikki yillik turkiston (T. turkestanicus S. nik.), ikki yillik kallakudor (T. capittus S. nik.) turlari o'sadi.**

3314. Echkisoqol o'tning eni necha sm? **5 – 15 sm.**

3315. Echkisoqol o't qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **Aprel – iyun oylarida gullab, urug'laydi.**

3316. Echkisoqol o'tning gullari rangi qanday? **Qizil.**

3317. Echkisoqol o't qayerlarda o'sadi? **Adir va tog' zonalarida o'sadi.**

3318. Echkisoqol o't begona o't tarzida qayerlarda uchraydi? **Ekinzorlarda uchraydi.**

3319. Eshakbodring, oddiy tentakbodring qaysi oilaga mansub necha yillik, necha uyli o't turi? **Qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik, bir uyli o't turi.**

3320. Eshakbodring o'simligining bo'yi necha sm? **50 – 150 sm.**

3321. Eshakbodring o'simligining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

3322. Eshakbodring o'simligi qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **Iyun – iyul oylarida gullab, urug'laydi.**

3323. Eshakbodring o'simligining barglari qanday shaklda? **Yuraksimon shaklda.**

3324. Eshakbodring o'simligining barglari uzunligi necha sm? **5-10 sm.**

3325. Eshakbodring o'simligining barglari eni necha sm? **4 – 8 sm.**

3326. Eshakbodring o'simligining gullari qanday rangli? **Och-sariq rangli.**

3327. Eshakbodring o'simligi qanday o'simlik? **Dorivor o'simlik.**

3328. Eshakbodring o'simligi qayerlarda o'sadi? **O'rta va Qora dengizlarning qurq ochiq qirg'oqlrida o'sadi.**

3329. Eshakbodring o'simligi Kavkaz va ba'zan O'rta Osiyoning qanday joylarida uchraydi? **Qumliklarida, tashlandiq joylarda uchraydi.**

3330. Eshakbodring o'simligi xalq tabobatida qanday vosita sifatida ishlatiladi? Ichni yumshatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.

3331. Eshaksho'ra, machin gultojixo'rozdoshlarga mansub necha yillik qanday o't turi? **Bir yillik begona o't turi.**

3332. Eshaksho'ra begona o'tning bo'yi necha sm? **20–75 sm.**

3333. Eshaksho'ra begona o'tning gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

3334. Eshaksho'ra begona o'tning gulqo'rg'oni necha bo'lakli? **5 bo'lakli.**

3335. Eshaksho'ra begona o'tning bir tupi qancha urug' beradi? **500 mingdan ortiqroq urug' beradi.**

3336. Eshaksho'ra begona o'tning urug'i qanday yaltiroq? **Qora yaltiroq.**

3337. Eshaksho'ra begona o't qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

3338. Eshaksho'ra begona o't qaysi oylarda urug'laydi? **Iyul – sentabr oylarida urug'laydi.**

3339. Eshakmiya qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Dukkakdoshlar (dukkaklilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

3340. Faqat suv bilan changlanadigan o'simlik nima deb ataladi? **Gidrofeniya deb ataladi.**

3341. Farmakologlarning ta'kidlashicha, kovul tomiridan tayyorlangan spirt nastoykasi qondagi nimalar sonini oshiradi? **Trombotsitlar sonini oshiradi.**

3342. Farmakologin qo'shilgan isiriqdan olingan dezoksipeganik gidroxlorid preparatni tibbiyot amaliyotida qaysi kasalliklarda keng qo'llash tavsiya etiladi? **Radikulit, shol kasalliklarida, bosh miyaga qon qo'yilganda keng qo'llash tavsiya etiladi.**

3343. Fazodagi olamlarning biologik ta'sirini va fazoni o'zlashtirish muammo (problema)larini o'rganadigan fanning nomi nima? **Kosmik biologiya.**

3344. Farg'ona bo'rikalla navli qovun qayerda tarqalgan? **Farg'ona vodiysida tarqalgan.**

3345. Farg'ona bo'rikalla navli qovun ko'karib chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **73 – 80 kunda pishadi.**

3346. Farg'ona bo'rikalla navli qovunning tarkibida necha foiz qand bor? **8 – 11 foiz.**

3347. Farg'ona bo'rikalla navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **200 – 250 s/ga.**

3348. Farg'ona bo'rikalla navli qovun qayerda iste'mol qilinadi? **Joyida iste'mol qilinadi.**

3349. "Farhod" – kechpishar qaysi mevali o'simlik navi? **Xo'raki shaftoli navi.**

3350. "Farhod" – kechpishar shaftoli navini qayerda qaysi navlarni chatishtirib qaysi olim yaratgan? **R. R. Shreder nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik institutining Samarqand filialida geografik uzoq Elberta va kechki Norunji navlarini chatishtirib A. S. Cherevatenko yaratgan.**

3351. "Farhod" navli shaftoli qayerdan changlanadi? **O'zidan changlanadi.**

3352. "Farhod" navli shaftoli mevasi qachon pishadi? **Sentabr oyining 1-yarmida pishadi.**

3353. "Farhod" navli shaftoli daraxtining balandligi necha m? **5 – 6 m.**

3354. "Farhod" navli shaftoli daraxtining ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **3 yili hosilga kiradi.**

3355. "Farhod" navli shaftolining bir donasi og'irligi qancha g? **150 – 170 g.**

3356. "Farhod" navli shaftolining shakli qanday? **Dumaloq, tuxumsimon.**

3357. "Farhod" navli shaftoli tarkibida qand necha foiz? **10 – 11 foiz.**

3358. "Farhod" navli shaftoli tarkibida organik kislota necha foiz? **0,68 foiz.**

3359. "Farhod" navli shaftoli po'sti danagidan qanday ajraladi? **Oson ajraladi.**

3360. "Farhod" navli shaftoli eti qanday? **Mayin.**

3361. "Farhod" navli shaftolining eti, danagi atrofi rangi qanday? **Sariq, danak atrofi qizg'ish.**

3362. "Farhod" navli shaftolining ta'mi, mazasi qanday? **Shirin va sal nordon, mazasi yaxshi.**

3363. "Farhod" navli shaftolining hosilga kirgan daraxti qancha kg meva beradi? **50 – 70 kg meva beradi.**

3364. "Farhod" navli shaftoli nechanchi yildan davlat reyestriga kiritilgan? **1959-yildan davlat reyestriga kiritilgan.**

3365. "Farhod" navli shaftoli O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Hamma viloyatlarida ekiladi.**

3366. "Farhod" – ertapishar olma navining qayerda qanday yo'l bilan qaysi olimlar yaratishgan? **O'zbekiston Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik institutida erkin changlangan madaniy navlar ko'chatlaridan tanlash yo'li bilan R. R. Shreder, A. R. Shreder, A. G. Shrederlar yaratishgan.**

3367. "Farhod" navli olma ko'chati o'tqazilgandan so'ng nechanchi yili hosilga kiradi? **5 – 6 yili hosilga kiradi.**

3368. "Farhod" navli olma daraxtining mevasi qachon pishadi? **Iyul oxiri – avgust boshida pishadi.**

3369. "Farhod" navli olmaning hosilga kirgan daraxti nechanchi yili 55 kg dan necha yoshida 350 kg gacha hosil beradi? **8 – 9-yili 55 kg dan 20 yoshida 350 kg gacha hosil beradi.**

3370. "Farhod" navli olmaning bir donasi og'irligi qancha g? **140 – 200 g.**

3371. "Farhod" navli olmaning shakli qanday? **Dumaloq.**

3372. "Farhod" navli olmaning po'sti qanday? **Silliq.**

3373. "Farhod" navli olma etining rangi qanday? **Och sariq.**

3374. "Farhod" navli olma eti, mazasi, hidi qanday? **Sersuv, shirin-nordon, xushbo'y.**

3375. "Farhod" navli olma yangiligida, so'ngra nimalar qilinadi? **Yangiligida yeyiladi, so'ngra qoqi, konserva qilinadi.**

3376. "Farhod" navli olma O'zbekistonning qaysi viloyatlari uchun rayonlashtirilgan? **Barcha viloyatlari uchun rayonlashtirilgan.**

3377. Feyxoa, akka mirtadoshlarga mansub doim yashil butalar va daraxtlar turkumi bo'lib, Janubiy Amerikaning subtropik hududlarida nechta turi o'sadi? **Ikkita turi o'sadi.**

3378. Feyxoa daraxti tarkibida qanday moddalar, qaysi kimyoviy element bor? **Qand, pektin, olma kislota, yod elementi bor.**

3379. Feyxoa daraxtining 1-turi – F. Sellova (F. sellowiana) qanday iqlimli mamlakatlarda, jumladan qayerlarda o'stiriladi? **Subtropik iqlimli mamlakatlarda, jumladan, Gruziya va Qrimning janubiy sohillarida o'stiriladi.**

3380. Feyxoa daraxtining bo'yi necha m? **3 m.**

3381. Feyxoa daraxtining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3382. Feyxoa daraxtining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3383. Feyxoa daraxti qaysi oyda gullaydi? **May oyida gullaydi.**

3384. Feyxoa daraxtining mevasi qaysi oylarda pishadi? **Oktabr – noyabr oylarida pishadi.**

3385. Feyxoa daraxtining hosildorligi qancha s/ga? **60 – 90 s/ga.**

3386. Fizalis, paq-paq qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Tomatdoshlar oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

3387. Fizalis o'simligining qancha turi qaysi mintaqalarda, ko'proq qaysi Amerikada tarqalgan? **Tropik va subtropik mintaqalarda, ko'proq Markaziy Amerikada tarqalgan.**

3388. Fizalis o'simligining tarkibida necha foiz qanday moddalar, qaysi vitamin bor? **8 – 9 foiz quriq modda, 33,1 – 33,6 foiz yog', 18,4 – 19,5 foiz oqsil, 17,6 – 18,1 foiz kletchatka, 4,4 – 8,3 foiz kul, 3 – 4 foiz qand, 5 – 10 foiz pektin, 20 – 30 mg foiz C vitamini hamda karotin, organik kislotalar, achchiq moddalardan fizalin va alkaloidlar (0,26 – 0,4 foiz) bor.**

3389. Fizalis o'simligi qaysi sanoatda nimalar tayyorlashda ishlatiladi? **Konserva sanoatida, souslar, murabbo, tuzlamalar tayyorlashda ishlatiladi.**

3390. Fizalis o'simligining pishgan mevalaridan qanday kislota olinadi? **Limon kislotasi olinadi.**

3391. Fizalis o'simligi qanday ekin? **Sabzavot ekini.**

3392. Fizalis o'simligining yovvoyi holda qancha turi qaysi mintaqalarda, ko'proq turi qayerda tarqalgan? **100 dan ortiq turi tropik va subtropik mintaqalarda, ko'proq turi Markaziy Amerikada tarqalgan.**

3393. Fizalis o'simligining ayrim turlari Afrikaning qaysi tomonlarida uchraydi? **Janubi-sharqiy tomonlarida uchraydi.**

3394. Fizalis o'simligi nechanchi asrda Yevropaga, keyinchalik Osiyoga keltirilgan? **XVIII asrda keltirilgan.**

3395. Fizalis o'simligining, asosan, qaysi turlari yetishtiriladi? **Asosan, meksika fizalisi yoki meksika pomidori (P. ixocarpa); tukli fizialis (P. pybescens) va peru fizalisi (peru olchasi) (P. penisiona) yetishtiriladi.**

3396. Fizalis o'simligining qaysi turi ko'p tarqalgan? Meksika fizalisi turi ko'p tarqalgan.

3397. Fizo daraxti qayerda o'sadi? Afrika **ekvatorial o'rmonlarida, shuningdek, Zair, Ogava va Iturі daryolari yaqinida o'sadi.**

3398. Fizo daraxtining po'stlog'idan mato uchun kerakli nima olinadi? **Tola olinadi.**

3399. Fikus qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Tutdoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

3400. Fikus o'simligi qaysi o'rmonlarda baland o'sadi? **Tropik o'rmonlarda baland o'sadi.**

3401. Fikus hosil qilgan havo ildizlari xo'jayin o'simlik tanasini o'rab olib, uni nima qilishi mumkin? **Nobud qilishi mumkin.**

3402. Fikus o'simligi nima ishlab chiqaradi? **Sut shira ishlab chiqaradi.**

3403. Fikus o'simligining guli necha jinsli? **Bir jinsli.**

3404. Fikus o'simligining qancha turi ma'lum? **1000 ga yaqin turi ma'lum.**

3405. Fikus o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Janubiy Osiyoning nam tropik o'rmonlarida tarqalgan.**

3406. Fikus o'simligi qanday hasharotlar yordamida changlanadi? **Pardaqanotli hasharotlar yordamida changlanadi.**

3407. Fikus o'simligining O'zbekistonda nechta qanday turi o'sadi? **Bitta yovvoyi turi o'sadi.**

3408. Fillofora qaysi oilaga mansub dengiz qizil suvo'tlari turkumi? **Filloforadoshlar (filloforagullilar) oilasiga mansub dengiz qizil suvo'tlari turkumi.**

3409. Fillofora suvo'tlari tepasining balandligi necha sm gacha? **50 sm gacha.**

3410. Fillofora suvo'tlarining qancha turi bor? **15 ga yaqin turi bor.**

3411. Fillofora suvo'tlari qanday suvli dengizlarda tarqalgan? **Sovuq va iliq suvli dengizlarda tarqalgan.**

3412. Fillofora suvo'tlaridan qanday modda olishda foydalaniladi? **Karraginin moddasi olishda foydalaniladi.**

3413. Finik palmasi, xurmo palmasi, teniks qaysi oilaga mansub ikki uyli daraxtsimon o'simliklar turkumi? **Palmadoshlar oilasiga mansub ikki uyli daraxtsimon o'simliklar turkumi.**

3414. Finik palmasi mil. avv. nechanchi ming yillikda qayerlarda ekilgani ma'lum? **4-ming yillikda Shumer, Ossuriya va Qadimgi Misrda ekilgani ma'lum.**

3415. Finik palmasining gullari necha jinsli? Bir jinsli.

3416. Finik palmasining balandligi necha m gacha? **15-20 m gacha.**

3417. Finik palmasining tarkibida necha foiz qand bor? **71 foiz.**

3418. Finik palmasining tarkibida necha foiz oqsil bor? **2,5 foiz.**

3419. Finik palmasi tarkibida necha foiz yog' moddalari bor? **2,5 foiz.**

3420. Finik palmasi Afrika va Osiyoning qaysi mintaqalarining qayerlarida nechta turi o'sadi? **Tropik va subtropik mintaqalarining daryolarga yaqin, yerosti suv manbalari bor qurg'oq joylarida, vodiylarda, botqoqliklarda 15 ta turi o'sadi.**

3421. Finik palmasining qanday turi ma'lum emas? **Yovvoyi turi ma'lum emas.**

3422. Finik palmasining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

3423. Finik palmasining gullari nima hosil qiladi? **Ro'vaksimon to'pgul hosil qiladi.**

3424. Finik palmasining mevasi qanday urug'li? **Qattiq urug'li.**

3425. Finik palmasining tanasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

3426. Finik palmasining balandligi necha m gacha? **15 – 20 m gacha.**

3427. Finik palmasining mevasi – finiki (xurmosi) shakli qanday? **Cho'zinchoq yoki oval shaklda.**

3428. Finik palmasi arab mamlakatlarida asosiy ovqat hisoblanib, undan kamida necha xil ovqat tayyorlanadi? **100 xil ovqat tayyorlanadi.**

3429. Finik palmasining daraxti po'stlog'ini tilib nimasi olinib, nimalar tayyorlanadi? **Sharbati olinib, shakar, finik vinosi tayyorlanadi.**

3430. Finik palmasi daraxtining bargidan tolasidan nimalar tayyorlanadi? **Arqon, savatlar tayyorlanadi.**

3431. Finik palmasi O'rta Osiyoda Turkmaniston janubida nechanchi yildan ekiladi? **1939-yildan** ekiladi.

3432. Fors tsiklamenining bo'yi necha sm? **40 – 50 sm.**

3433. Fors tsiklamenining bargi qancha? **Ko'p.**

3434. Fors tsiklamenining bargi qanday bandli? **Uzun bandli.**

3435. Fransiyaliklar qaysi sabzavotni "Muhabbat olmasi" deb atashgan? **Pomidorni atashgan.**

3436. Fukus suvo'tlar qaysi suvo'tlar qabilasi? **Qo'ng'ir suvo'tlar qabilasi.**

3437. Fukus suvo'tlarning uzunligi necha m? **0,1 – 2 m, ba'zan 10 m gacha.**

3438. Fukus suvo'tlar boshqa suvo'tlardan nimasi bilan farq qiladi? **Ko'payish sikli bilan farq qiladi.**

3439. Fukus suvo'tlarning nechta turi, turkumi ma'lum? **300 ta turi, 40 ta turkumi ma'lum.**

3440. Fukus suvo'tlar nechta oilaga birlashadi? Ular qaysilar? **3 ta oilaga birlashadi. Ular quyidagilar: funussimonlar (Fucaclal), tsistozirsimonlar (Cystoseiraclal) va sargasimonlar suvo'tlar (Sardassaclal).**

3441. Fukus suvo'tlar qaysi dengizlardan tashqari, barcha dengizlarda uchraydi? **Kaspiy va Orol dengizlaridan tashqari, barcha dengizlarda uchraydi.**

3442. Fukus suvo'tlardan qanday moddalar olinadi? **Alginit, yem uni va o'g'it olinadi.**

3443. Fukus suvo'tlarning ba'zi turlari nimaga ishlatiladi? **Ovqatga ishlatiladi.**

3444. Funduk, funduq qaysi oilaga mansub buta yoki daraxt? **Qayindoshlar (qayingullilar) oilasiga mansub.**

3445. Funduk daraxti qayerlarda tarqalgan? **Yevropa va Osiyoda tarqalgan.**

3446. Funduk daraxti qayerlarda o'stiriladi? **O'rta va Janubiy Yevropa, Turkiya, AQSh, Kavkaz va boshq. joylarda o'stiriladi.**

3447. Funduk daraxtining guli necha uyli? **Bir uyli.**

3448. Funduk daraxtining guli necha jinsli? **Ayrim jinsli.**

3449. Funduk mag'zi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **52 – 71 foiz yog', 12 – 18 foiz oqsil, 3 – 10 foiz uglevod bor.**

3450. Funduk daraxtining bo'yi necha m? **3 – 10 m.**

3451. Funduk daraxtining mevasi qaysi oylarda pishadi? **Sentabr – oktabr oylarida pishadi.**

3452. Funduk daraxtining mevasi qanday holida yeyiladi? **Qovurilgan yoki xom holida yeyiladi.**

3453. Funduk daraxtining mevasi qaysi sanoatda ishlatiladi? **Qandolatchilik sanoatida ishlatiladi.**

3454. Funduk daraxtining mevasidan nima olinadi? **Yog' olinadi.**

3455. Funduk nimalaridan ko'paytiriladi? **Urug'idan, parxish, bachki ildizlaridan ko'paytiriladi.**

3456. Funduk ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **4 – 6 yili hosilga kiradi.**

3457. Funduk daraxtining hosildorligi qancha s/ga? **10 – 30 s/ga.**

3458. Gazanda, qichitqi o't qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Gazandadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik yoki bir yillik o'tlar turkumi.**

3459. Gazanda, qichitqi o'tning bargi qanday tishli? **Arra tishli.**

3460. Gazanda, qichitqi o'tning bargi qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3461. Gazanda, qichitqi o't Shimoliy, kamroq Janubiy yarim sharda hamda tropiklarda qancha turi tarqalgan? **40 – 50 turi tarqalgan.**

3462. Gazanda, qichitqi o'tning O'zbekistonda nechta turi bor? **Bitta turi bor.**

3463. Gazanda, qichitqi o't qayerlarda o'sadi? **Soya, zah yerlar, dalalar, bog'lar va boshq. yerlarda o'sadi.**

3464. Gazanda, qichitqi o'tning O'zbekistonda o'sadigan turidan tibbiyotda nima to'xtatuvchi vosita sifatida foydalaniladi? **Qon to'xtatuvchi vosita sifatida foydalaniladi.**

3465. Gazanda o'tining yosh novdalari nima qilinadi? **Iste'mol qilinadi.**

3466. Gazanda o't poyasidan nimalar tayyorlanadi? **Arqon, dag'al mato to'qishda ishlatiladigan iplar tayyorlanadi.**

3467. Gazandadoshlar necha uyli o'tlar, yarim butalar va butalar, ba'zan, yog'ochi yumshoq, kichik daraxtlardan, kamdan-kam hanalardan iborat? **Bir uyli yoki ikki uyli.**

3468. Gazandadoshlarning bargları qanday? **Oddiy.**

3469. Gazandadoshlarning bargları qanday joylashgan? **Qarama-qarshi va ketma-ket joylashgan.**

3470. Gazandadoshlarning gulları qanday? **Mayda.**

3471. Gazandadoshlar, qichitqidoshlar necha urug' pallali o'simliklar sinfiga oid oila? **Ikki urug' pallali o'simliklar sinfiga oid oila.**

3472. Gazandadoshlar morfologik tuzilishiga ko'ra, qaysi oilaga yaqin turadi? **Tutdoshlar oilasiga yaqin turadi.**

3473. Gazandadoshlarning qancha turi bor? **700 ga yaqin turi bor.**

3474. Gazandadoshlarning O'zbekistonda nechta turkumga mansub nechta qanday va nechta turi o'sadi? **Ikkita turkumga mansub to'rtta yovvoyi va bitta madaniy turi o'sadi.**

3475. Gazandadoshlarning yana qanday turları ham bor? **Dorivor va tola beradigan turlari ham bor.**

3476. Gazako't qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Gazako'tdoshlar (erbahodoshlar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

3477. Gazako'tning O'zbekistonda nechta turi bor? **7 ta turi bor.**

3478. Gazako'tning qaysi turi O'zbekistonda keng tarqalgan? **G. olivieri griseb turi keng tarqalgan.**

3479. Gazako'tning bo'yi necha sm? **10 – 30 sm.**

3480. Gazako't qaysi oylarda urug'laydi? **May – iyun oylarida urug'laydi.**

3481. Gazako't o'simligi qayerlarda o'sadi? **Adir va tog'larda chag'ir toshli quruq yon bag'irlarda o'sadi.**

3482. Gazako't o'simligi xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo qilish hamda davolashda qo'llaniladi? **Bezgak, me'da kasalliklariga davo qilish hamda og'iz chayish, qon ketishni to'xtatish va yaralarni davolashda qo'llaniladi.**

3483. Gazako't o'simligi necha yillik o't? **Ko'p yillik o't.**

3484. Gazako't o'simligining bargları qanday? **Tuksiz.**

3485. Gazako't o'simligining bargları rangi qanday? **Ko'k-binafsha.**

3486. Gazako't o'simligining mevasi qanday ko'sakcha? **Cho'ziq ko'sakcha.**

3487. Gazako't o'simligining urug'lari qanday? **Mayda.**

3488. Gazako'tdoshlar, erbahogullilar oilasi qaysi sinfga mansub tutash tojli o'simliklar oilasi? **Ikki pallalilar sinfiga mansub tutash tojli o'simliklar oilasi.**

3489. Gazako'tdoshlarning nechta turi bor? **1000 ta turi bor.**

3490. Gazako'tdoshlar yer yuzida nechta turkumga mansub? **70 ta turkumga mansub.**

3491. Gazako'tdoshlarning nechta turini o'z ichiga olgan nechta turkumi O'zbekistonda o'sadi? **O'zbekistonda 15 ta turni o'z ichiga olgan 4 ta turkumi o'sadi.**

3492. Gazako'tdoshlarning ayrim turlaridan xalq tabobatidan qanday o'simlik sifatida foydalaniladi? **Dorivor o'simlik sifatida foydalaniladi.**

3493. Gamamelis qaysi oilaga mansub buta yoki daraxt? **Gamamelisdoshlar (Gamamelisgullilar) oilasiga mansub buta yoki daraxt.**

3494. Gamamelis daraxtining bo'yi necha m? **2 – 9 m.**

3495. Gamamelis daraxtining bargları qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

3496. Gamamelis daraxti gulları qanday rangda? **Sariq rangda.**

3497. Gamamelis daraxtining mevasi necha urug'li ko'sak? **Ikki urug'li.**

3498. Gamamelis daraxti qayerda o'sadi? **Zakavkazyeda o'sadi.**

3499. Gamamelis daraxtining tarkibida qanday moddalar bor? **Gamamelistanin glikozidi (6-11 foiz), kvartsetin, flobafen, efir moyi va boshqa moddalar bor.**

3500. Gamamelis daraxtining bargı va po'stlog'idan tayyorlangan preparatlar qanday maqsadda ishlatiladi? **Bavosil, bachadondan qon ketishini to'xtatish uchun ishlatiladi.**

3501. Gandamiya qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Dukkakdoshlarga mansub ko'p yillik o't.**

3502. Gandamiya o'tining bo'yi necha sm? **20 – 70 sm.**

3503. Gandamiya o'ti qaysi oylarda gullaydi va pishadi? **May oyida gullaydi, urug'i avgust oyida pishadi.**

3504. Gandamiya o'ti qaysi viloyatdagi tog'larda necha m balandlikda o'sadi? **O'zbekistonning faqat Surxondaryo viloyati tog'larida, 1500 – 2450 m balandlikda o'sadi.**

3505. Gandamiya o'tining tanasi nima bilan qoplangan? **Mayin tuk bilan qoplangan.**

3506. Gandamiya o'ti necha bargli? **Uch bargli.**

3507. Gandamiya o'tining poyasi va bargidan qanday alkaloidlar olinadi? **Termopsin, sitizin va taxikargin alkaloidlari olinadi.**

3508. Gandamiya o'tidagi alkaloidlarning umumiy miqdori yer ustki qismida (gullash davrida) necha foizga etadi? **2,5 foiz, ildizida 0,95 foiz, urug'ida 2,74 foizga etadi.**

3509. Gandamiya o'tining bargi va poyasida alkaloidlardan tashqari, yana nimalar bor? **4,57 foiz organik kislotalar, 2,94 foiz shakar va 3,65 foiz smolalar bor.**

3510. Gardeniya qaysi oilaga mansub doim qanday butalar turkumi? **Ro'yandoshlar oilasiga mansub doim yashil butalar turkumi.**

3511. Gardeniya butasining qancha turi bor? **250 tacha turi bor.**

3512. Gardeniya butasining bargları qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3513. Gardeniya butasining gultoji qanday shaklda? **Karnaysimon shaklda.**

3514. Gardeniya butasining gultoji necha bo'lakli? **5 – 9 bo'lakli.**

3515. Gardeniya butasining qaysi turları xushbo'y va manzarali o'simlik sifatida xonalarda o'stiriladi? **Qatma-qat gulli gardeniya (G. florida), sitriodora gardeniya (G. Citriodora) turlari.**

3516. Garniariya qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Chinniguldoshlar (chinnigullilar) oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o'tlar turkumi.**

3517. Garniariya o'tining nechta turi O'zbekistonda bor? **2 ta turi bor.**

3518. Garniariya o'tining tarkibida qanday moddalar bor? **Flavonoid, kumarin, trinterpensaponin va boshqa moddalar bor.**

3519. Garniariya o'ti tibbiyotda qanday maqsadda ishlatiladi? **Istisqo va buyrak kasalliklarida siydik haydash uchun ishlatiladi.**

3520. Gartenziya qaysi turkumga mansub bir necha tur xushmanzara o'simliklarga beriladigan umumiy nom? **Toshyorardoshlar (toshyorarlar-saxrfradacere oilasi)ning Hydrandea turkumiga mansub.**

3521. Gartenziya o'simligining bargları qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3522. Gartenziya o'simligining nechta turi bor? **75 ta turi bor.**

3523. Gartenziya o'simligi Rossiya Federatsiyasining qaysi viloyatida qanday holda o'sadi? **Saxalin viloyatida yovvoyi holda o'sadi.**

3524. Gartsiniya qaysi oilaga mansub doim qanday daraxt va butalar turkumi? **Qizilpoygadoshlar (qizilpoygagullilar) oilasiga mansub doim yashil daraxt va butalar turkumi.**

3525. Gartsiniya daraxtining nechta turi bor? **220 ta turi bor.**

3526. Gartsiniya daraxti, asosan, qayerlarda uchraydi? **Asosan, Osiyo va Afrikaning janubi, Amerikada uchraydi.**

3527. Gartsiniya daraxti mevasining qaysi turi yeviladi? **Mangoston turining mevasi yeyiladi.**

3528. Geveya qaysi oilaga mansub kauchukli daraxt? **Sutlamadoshlar (sutlamagullilar) oilasiga mansub (oqib chiqqan sut shira (lateks) quyuqlashib, kauchukka aylanadi) kauchukli daraxt.**

3529. Geveya daraxti qayerda, qanday holda o'sadi? **Braziliya o'rmonlarida yovvoyi holda o'sadi.**

3530. Geveya daraxti qaysi zonalarda o'sadi? **Savanna va siyrak o'rmonli zonalarda o'sadi.**

3531. Geveya daraxti qayerlarda ekiladi? **Malayya, Indoneziya, Seylon va qisman Afrika tropik tumanlarida hamda Janubiy Amerikada ekiladi.**

3532. Geveya daraxti necha yoshidan necha yoshgacha kauchuk beradi? **5 – 6 yoshidan 25 – 30 yoshgacha kauchuk beradi.**

3533. Geveya daraxtida gektaridan yiliga o'rtacha qancha kg kauchuk yig'iladi? **500 kg kauchuk yig'iladi.**

3534. Geveya daraxti tabiiy qanday manbalardan biri? **Kauchuk moddasi manbalardan biri.**
3535. Geveya daraxtining tanasi diametri necha sm? **50 sm.**
3536. Geveya daraxtining bargi qanday? **Etli, murakkab.**
3537. Geveya daraxtining gullari qanday (maydami yoki yirikmi)? **Mayda.**
3538. Geveya daraxtining gullari qanday? **Oqimtir-sarg'ish.**
3539. Geveya daraxtining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**
3540. Geveya daraxtining gullari necha uyli? **Bir uyli.**
3541. Geveya daraxtining gullari qandaysimon to'pgul hosil qiladi? **Ro'vaksimon to'pgul hosil qiladi.**
3542. Geveya daraxtining mevasi qanday? **Ko'sakcha.**
3543. Geveya daraxtining mevasi urug'i qanday po'stli? **Qattiq po'stli.**
3544. Geran, yorongul qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Gerandoshlar (gerangullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**
3545. Gerniariya qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Chinniguldoshlar (chinnigullilar) oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o'tlar turkumi.**
3546. Gerniariya o'tining bargi shakli qanday? **Teskari tuxumsimon.**
3547. Gerniariya o't O'zbekistonning qaysi tumanlarida o'sadi? **Tog'li tumanlarida o'sadi.**
3548. Gerniariya o'tining tarkibida qanday moddalar bor? **Flavonoid, kumarin, triterpensaponin va boshq. moddalar bor.**
3549. Gerniariya o't qayerda qanday kasalliklarda ishlatiladi? **Meditsinada istisqo va buyrak kasalliklaroida siydik haydash uchun ishlatiladi.**
3550. German mushkulasi mevasida qanday moddalar bor? **10 foizcha qand, 1,1 foizcha olma kislota, 1,6 – 15,8 mg foiz C vitamini bor.**
3551. Giatsint necha yillik o'simliklar turkumi? **Ko'p yillik o'simliklar turkumi.**
3552. Gidrofob o'simliklar qanday o'simliklar? **Suvga chidamsiz, suv yoqmas, sernam joyda o'sa olmaydigan o'simliklar: masalan, boyalich, kuyrauq, isiriq.**
3553. Gidrofitlarda nima bo'lmaydi? **Ildiz bo'lmaydi.**

3554. Gidrofitlarning bargida nima bo'lmaydi? **Kutikula va tuk bo'lmaydi.**
3555. Gidrofitlar qayerda o'sadigan o'simliklar? **Suvda o'sadigan o'simliklar.**
3556. Gidrofitlarning pastki qismi qayerda, ustki qismi qayerdan ko'tarilib o'sadi? **Suvda, suvdan ko'tarilib o'sadi, masalan, qamish.**
3557. Gidrofitlarning ba'zilari qanday yerlarda ham o'saveradi? **Daryo, dengiz, ko'l qirg'oqlarida va suvi qurib qolgan nam yerlarda ham o'saveradi.**
3558. Gidrofitlarning poyasi va barglari hatto havoda bo'shliqlari katta bo'lib, nimaga to'la bo'ladi? **Havoga to'la bo'ladi. Shu sababli gidrofitlar suvda qalqib turadi.**
3559. Gidrofitlarning ko'pchiligi nima hosil qiladi? **Torf hosil qiladi.**
3560. Gidrofitlarning ba'zilari, ayniqsa, bir yillikları qaysi hayvonlar uchun ozuqa? **Chorva mollari uchun ozuqa.**
3561. Gilos qaysi oilaga mansub qanday meva daraxti? **Ra'noguldoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub danakli meva daraxti.**
3562. Gilosning mevasi tarkibida qanday moddalar bor? **7 – 15 foizgacha qand, gelitsellyuloza, kletchatka, pektin, mineral moddalar, oshlovchi moddalar, efir moyi, flavonoidglikozidlar, karotin moddasi bor.**
3563. Gilos daraxtining qaysi navlari O'zbekistonda ko'p ekiladi? **Savri surxoni, qora gilos, fransis, sariq gilos navlari ko'p ekiladi.**
3564. Gilos daraxti qaysi turkumga mansub? **Olcha turkumiga mansub.**
3565. Gilos o'simligi yovvoyi holda qayerlarda uchraydi? **O'rta va Janubiy Yevropa, Eron, Kavkaz, Ukraina, Moldaviyada uchraydi.**
3566. Gilos o'simligi qayerlarda ekiladi? **Yevropa mamlakatlari, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Yaponiya, Ukrainaning janubida, Kavkaz, Boltiqbo'yi va O'rta Osiyoda ekiladi.**
3567. Gilos o'simligining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**
3568. Gilos daraxtining bo'yi necha m? **10 – 15 m (ba'zan 30 m gacha boradi).**

3569. Gilos daraxtining mevasi tarkibida necha foiz oshlovchi va pektin moddasi bor? **0,2 foiz oshlovchi va 0,7 pektin moddalari bor.**

3570. Gilos danagi mag'zida necha foizgacha parfyumeriya sanoatida ishlatiladigan moy bor? **30 foizgacha parfyumeriya sanoatida ishlatiladigan moy bor.**

3571. Gilos ko'chati ekilgandan keyin nechanchi yili hosilga kiradi? **4 – 5-yili hosilga kiradi.**

3572. Gilos daraxti necha yilgacha yashaydi? **100 yilgacha yashaydi.**

3573. Gilos daraxtining bir tupidan qancha kg hosil olinadi? **150 – 300 kg hosil olinadi.**

3574. Gilos daraxti, asosan, qaysi oylarda gullaydi? **Mart – aprel oylarida gullaydi.**

3575. Gilos daraxtining mevasi qaysi oylarda pishadi? **May – iyun oylarida pishadi.**

3576. Gilos daraxtining mevalari tarkibida qanday vitaminlar bor? **C, B_1, B_4 vitaminlari bor.**

3577. Gilos daraxtining mevalari ho'lligicha yoki xom holida iste'mol qilinsa, qaysi a'zoni yumshatadigan ta'sir ko'rsatadi? **Ichni yumshatadigan ta'sir ko'rsatadi.**

3578. Gilos daraxti yozi qanday iqlimli hududlarda yaxshi o'smaydi? **Yozi issiq iqlimli hududlarda yaxshi o'smaydi.**

3579. Gilos daraxtining qancha navi ma'lum? **100 ga yaqin navi ma'lum.**

3580. Gilos daraxtining gullari va barglaridan qo'shib tayyorlangan malham nimalarga qo'yiladi? **Yara-jarohatlar, chipqonlarga qo'yiladi.**

3581. Gilos daraxtining meva handlaridan tayyorlangan qaynatmani qaysi davlat xalq tabobatida buyrak-tosh kasalligi davosiga tavsiya etiladi? **Afg'oniston xalq tabobatida.**

3582. Gilos daraxtining mevalarida zamonaviy tabobatda, qanday kasalliklarda parhez vosita sifatida foydalaniladi? **Kamqonlik, giperotsid gastrit, me'da yara kasalligi, ichak atoniyasi, spastik kolitlarda parhez vosita sifatida foydalaniladi.**

3583. Gimenomitsetlar – bazidiyali zamburug'lar bir necha tartiblarining umumiy nomi bo'lib, uning qancha turi mavjud? **16 mingga yaqin turi mavjud.**

3584. Gimenomitsetlarning spora hosil qiladigan qavati ko'pincha zamburug' meva va tanasining sirtida qanday (ochiqmi yoki yopiqmi) joylashgan? **Ochiq joylashgan.**

3585. Gimenomitsetlarning ko'pchiligi qanday (yeyiladiganmi yoki yeyilmaydiganmi) zamburug'lar? **Yeyiladigan zamburug'lar.**

3586. Gimenomitsetlarning ayrim turlari qanday? **Zaharli.**

3587. Gimenomitsetlarning po'kak zamburug'lari qanday hayot kechiradi? **Parazit hayot kechiradi.**

3588. Ginkgo daraxti necha uyli? **Ikki uyli.**

3589. Ginkgo daraxtining bo'yi necha m gacha? **40 m gacha.**

3590. Ginkgo daraxtining diametri necha m gacha? **1 m gacha.**

3591. Ginkgo daraxtining erkak va urug'ochi gullari kechikroq nimalarga to'plangan? **Kuchalalarga to'plangan.**

3592. Ginkgo daraxtining urug'i qanday mevaga o'xshaydi? **Yumshoq, donali mevaga o'xshaydi.**

3593. Ginkgo daraxti hozir qayerning ba'zi joylaridagina qanday holda o'sadi? **Janubiy Xitoyning ba'zi joylaridagina yovvoyi holda o'sadi.**

3594. Ginkgo daraxti Ukraina Respublikasida, asosan, qayerning janubida va Kavkazning qaysi dengiz sohilida ekiladi? **Qrimning janubida va Kavkazning Qora dengiz sohilida ekiladi.**

3595. Ginkgo daraxtidan nechta turi janubiy O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalarida o'sganligi aniqlangan? Qolgan turlari (13 ta turi) O'rta Osiyoning qayerlarida, yer shari paliasidagi deyarli hamma davlatlar hududlarida yura, bo'r va uchlamchi qatlamlardan topilgan? **2 ta turi, Shimoliy O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalarida topilgan.**

3596. Ginkgo daraxtining yosh niholi ba'zi qaysi daraxtlarga o'xshab ketadi? Ammo bora-bora tashqi ko'rinishidan qaysi o'simlik tusini oladi? **Nina bargli daraxtlarga o'xshab ketadi. Terak tusini oladi.**

3597. Ginkgodoshlar qaysi davrdan boshlab uchlamchi davrning oxirgacha yashagan ochiq urug'li o'simliklar sinfi? **Karbon davridan boshlab uchlamchi davrning oxirgacha yashagan ochiq urug'li o'simliklar sinfi.**

3598. Ginkgodoshlarning hozir nechta turi (turkumi, oilasi) saqlanib qolgan? **Bitta turi (Ginkgo biloba) saqlanib qolgan.**

3599. Ginkgodoshlarning O'zbekiston va unga chegaradosh Respublikalar hududlarida qaysi turkumlarga mansub o'simliklarning bargi va generativ a'zolarining izi, yog'och qoldiqlari topilgan? **Ginkgo, Baiera, Ginkgodium, Sphenobaiera, Czekanowskia, Phaenicopsis turkumlariga mansub o'simliklarning bargi va generativ a'zolarining izi, yog'och qoldiqlari topilgan.**

3600. Gikori, kariya qaysi oilaga mansub daraxtlar turkumi? **Yong'oqdoshlar (yorongullilar) oilasiga mansub daraxtlar turkumi.**

3601. Gikori daraxtining bo'yi (balandligi) necha m gacha? **50 m gacha.**

3602. Gikori daraxtining bargi qanday? **Toq patsimon, murakkab xushbo'y.**

3603. Gikori daraxtining guli va mevasi qaysi mevali o'simlikniga o'xshaydi? **Yong'oqnikiga.**

3604. Gikori daraxti, asosan, qayerlarda o'sadi? **Shimoliy Amerika, qisman Osiyoning sharqi-janubida o'sadi.**

3605. Gikori daraxtining nechta turi bor? **18 ta turi bor.**

3606. Gikori daraxtining ba'zi turlari qayerda ekiladi? **Yevropada ekiladi.**

3607. Gikori daraxti mevasi mag'zida necha foizcha yog' bor? **80 foizcha.**

3608. Gikori daraxti yong'oq daraxtiga nisbatan sovuqqa qanday? **Chidamli.**

3609. Gikori daraxti nimasidan ko'paytiriladi? **Urug'idan ko'paytiriladi.**

3610. Gikori daraxtining yong'og'i nima qilinadi? **Yeyiladi.**

3611. Gladiolus qaysi oilaga mansub tuganak piyozli necha yillik o'simlik? **Savsarguldoshlar (savsargullilar) oilasiga mansub tuganak piyozli ko'p yillik o'simlik.**

3612. Gladiolus o'simligining qancha turi bor? **200 ga yaqin turi bor.**

3613. Gladiolus o'simligining O'rta Osiyoda nechta turi o'stiriladi? **Uchta turi o'stiriladi.**

3614. Gladiolus o'simligi (ekma)ning qancha navi bor? **8 minga yaqin navi bor.**

3615. Gladiolus o'simligining O'zbekistonda qaysi navlari o'stiriladi? **Kanada (Kanada), minevra (Minera), monsoer (Monsoner), pikardi (Picardi) navlari o'stiriladi.**

3616. Gladiolus o'simligining bo'yi necha sm? **40 – 200 sm.**

3617. Gladiolus o'simligining bargi qilichsimon bo'lib, poyada necha qator bo'lib joylashadi? **Ikki qator bo'lib joylashgan.**

3618. Gladiolus o'simligining guli qanday shaklda? **Karnay shaklida.**

3619. Gladiolus o'simligining guli necha sm? **20 sm.**

3620. Gladiolus o'simligining gul poyasida gullari soni nechtagacha bo'ladi? **25 tagacha bo'ladi.**

3621. Gladiolus o'simligi qaysi oylarda ekiladi? **Mart – aprel oylarida ekiladi.**

3622. Gladiolus o'simligining guli qaysi oydan qaysi oygacha ochiladi? **Iyundan avgustgacha ochiladi.**

3623. Gladiolus o'simligining yanvar-fevralda tuvaklarga o'tkazilgan ko'chati qaysi oylarda ochiladi? **Aprel – may oylarida ochiladi.**

3624. Gladiolus o'simligining ertagisining guli necha kunda ochiladi? **80 kunda ochiladi.**

3625. Gladiolus o'simligining kechkisining guli necha kunda ochiladi? **90 kunda ochiladi.**

3626. Gladiolus o'simligining O'zbekistonda qaysi navlari o'stiriladi? **Kanada, minerva, monsoer, pikardi navlari o'stiriladi.**

3627. Gledichiya, tikandaraxt qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

3628. Gledichiya o'simligining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

3629. Gledichiya o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy va Janubiy Amerikada, Janubiy Osiyoda va Afrika tropiklarida tarqalgan.**

3630. Gledichiya o'simligining nechta turi ma'lum? **12 ta turi ma'lum.**

3631. Gledichiya o'simligining guli nimaga boy? **Nektarga boy.**

3632. Gledichiya o'simligining G.triacanthos turining bo'yi necha m gacha bo'ladi? **40 m gacha bo'ladi.**

3633. Gledichiya o'simligining G tricanthos turi qaysi oylarda gullaydi? **May – iyun oylarida gullaydi.**

3634. Gledichiya o'simligi qurg'oqchilikka qanday? **Chidamli.**

3635. Gledichiya o'simligining Shimoliy Amerikadan kelib chiqqan tikoli G tricanthos turi qayerlarda ekiladi? **O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrimda ekiladi.**

3636. Gledichiya o'simligining G tricanthos turi qanday o'sadi? **Tez o'sadi.**

3637. Glitsiniya qaysi oilaga mansub? **Burchoqdoshlar oilasiga mansub.**

3638. Glitsiniya qanday o'suvchi buta yoki daraxt? **Ilashib o'suvchi buta yoki daraxt.**

3639. Glitsiniya daraxtining bo'yi necha m cha? **20 m cha.**

3640. Glitsiniya daraxtining to'pguli ba'zi turlarida necha sm ga boradi? **75 – 100 sm ga boradi.**

3641. Glitsiniya daraxtining urug'i qanday shaklda? **Buyraksimon shaklda.**

3642. Glitsiniya daraxti qaysi oydan boshlab, qaysi fasl bo'yi gullaydi? **Apreldan boshlab, yoz bo'yi gullaydi.**

3643. Glitsiniya daraxtining vatani qaysi davlat? **Xitoy.**

3644. Glitsiniya daraxti qayerlarda xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi? **Qrim va Kavkazda xushmanzara o'simlik sifatida ekiladi.**

3645. Glitsiniyalarning keksalari onda-sonda qaysi viloyatlarda uchraydi? **Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida uchraydi.**

3646. Gloksiniya qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Gesneriyadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

3647. Gloksiniya o'simligining vatani qayer? **Janubiy Amerika.**

3648. Gloksiniya o'simligining qaysi turi Yevropaga dastlab nechanchi yilda o'tgan? **Gloxinia hubrida turi 1817-yilda o'tgan.**

3649. Gloksiniya o'simligi qayerlarda o'stiriladi? **Oranjereya va xonalarda o'stiriladi.**

3650. Gloksiniya o'simligining bargi qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3651. Gloksiniya o'simligining mevasi qanday urug'li ko'sakcha? **Ko'p urug'li ko'sakcha.**

3652. Gloksiniya o'simligi necha oy gullaydi? **3 – 4 oy gullaydi.**

3653. Gnafalium qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o'tlar turkumi.**

3654. Gnafalium o'simligining nechta turi O'zbekistonda o'sadi? **Bitta turi o'sadi.**

3655. Gnafalium o'simligi tarkibida qanday moddalar bor? **Karotin (55 mg foizgacha), C vitamini va boshqa birikmalar bor.**

3656. Gnafalium o'simligining yer ustki qismidan tayyorlangan damlama, ekstrakt va maz qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Gipertoniya, me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi hamda boshqa yaralarni davolashda ishlatiladi.**

3657. Gnetum qaysi sinfning gnetdoshlar (gnetgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi? **Ochiq urug'lilar sinfining gnetdoshlar (gnetgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

3658. Gnetum o'simligining nechta turi bor? **34 ta turi bor.**

3659. Gnetum o'simligining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3660. Gnetum o'simligining urug'i qanday? **Danakli.**

3661. Gnetum o'simligining qayerlarda nechta turi o'sadi? **Janubiy Osiyo, Janubiy Amerika va Afrikaning sernam tropik o'rmonlarida 34 ta turi o'sadi.**

3662. Gnetum o'simligining ayrim turlari (G. gnemon) danagi va barglari nimaga ishlatiladi? **Ovqatga ishlatiladi.**

3663. Govzabon, ho'kiz tili qaysi oilaga mansub necha yillik begona o't? **Kampirchopondoshlar oilasiga mansub bir yillik o't.**

3664. Govzabon begona o'tining bo'yi necha sm? **40 – 100 sm.**

3665. Govzabon begona o'tining mevasi necha qurali yong'oqcha? **Uch qirrali.**

3666. Govzabon begona o'ti qaysi oylarda gullab, meva tugadi? **May-avgustda gullab, meva tugadi.**

3667. Govzabon begona o'ti nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

3668. Govzabon begona o'ti qurg'oqchilikka qanday? **Chidamli.**

3669. Govzabon begona o'ti qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

3670. Govzabon begona o'ti qayerlarda o'sadi? **G'o'za, bedag'alla ekinlari orasida, shuningdek, yo'l yoqalaridagi tashlandiq yerlar, bog'lar va ariq bo'ylarida o'sadi.**

3671. Govpechak, arxar o'ti – *pechakdoshlarga* mansub necha yillik ildizpoyali o'ti? **Ko'p yillik.**

3672. Govpechak o'tining uzunligi necha m ga etadi? **1,5 – 3 m ga etadi.**

3673. Govpechak o'tining barglari qanday? **Bandli, o'qsimon, uchi o'tkir, ikki bo'lmali.**

3674. Govpechak o'ti qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – avgust oylarida gullaydi.**

3675. Govpechak o'ti qaysi oylarda meva tugadi? **Iyul – sentabr oylarida meva tugadi.**

3676. Govpechak o'tining bir tupi nechta urug' beradi? **400 ta urug' beradi.**

3677. Govpechak o'ti nimalaridan ko'payadi? **Urug'i va ildizpoyasidan ko'payadi.**

3678. Govpechak o'tining ildizpoyasi qanday o'sadi? **Sudralib o'sadi.**

3679. Gollandiyada yaratilgan kartoshka navlari qaysilar? **Dinamit, Kondor, Kardinal.**

3680. Golden Delishes kechpisbar qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

3681. Golden Delishes navli olma nechanchi yilda AQSh ning qaysi shtatidan keltirilgan? **1890-yilda Sharqiy Virjiniya shtatidan keltirilgan.**

3682. Golden Delishes navli olma ko'chati nechanchi yili hosilga kiradi? **5 – 6-yili hosilga kiradi.**

3683. Golden Delishes navli olma adabiyotlarda nima deb ham yuritiladi? **Prevosxodnie deb ham yuritiladi.**

3684. Golden Delishes kechpishar olma navi qaysi viloyatlarning tog'li tumanlarida o'stiriladi? **Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining tog'li tumanlarida o'stiriladi.**

3685. Golden Delishes navli kechpishar olmaga qaysi navlar yaxshi changlatuvchi hisoblanadi? **Toshkent borovinkasi, Simirenko, Jonatan kabi navlari yaxshi changlatuvchi hisoblanadi.**

3686. Golden Delishes olma navi qaysi davlatlar bog'dorchiligida yetakchi navlardan hisoblanadi? **Amerika, Yevropa davlatlari (Fransiya, Italiya, Gollandiya, Avstriya, Bolgariya, Ruminiya va boshq.) bog'dorchiligida yetakchi navlardan hisoblanadi.**

3687. Golden Delishes navli kechpishar olma daraxti qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

3688. Golden Delishes navli kechpishar olma daraxti qaysi oyda gullaydi? **Aprel oyida gullaydi.**

3689. Golden Delishes navli kechpishar olma mevasining og'irligi qancha g? **130 – 150 g.**

3690. Golden Delishes navli kechpishar olma daraxti har necha yilda hosil beradi? **Har yili hosil beradi.**

3691. Golden Delishes navli kechpishar olma daraxti soyabopqa qanday? **Chidamli.**

3692. Golden Delishes olma navi daraxti novdalarining rangi qanday? **Sarg'imtir-ko'kish.**

3693. Golden Delishes olma navining barg bandidan uchiga tomon qanday bo'lib boradi? **O'tkirlashib boradi.**

3694. Golden Delishes olma navining gullari qanday rangda? **Qirmizi rangda.**

3695. Golden Delishes olma navi daraxti qaysi oyda necha kun gullaydi? **Aprel oyida 11 – 14 kun gullaydi.**

3696. Golden Delishes olma naviga qaysi olma navlari yaxshi changlatuvchi hisoblanadi? **Toshkent borovinkasi, Simirenko, Jonatan kabi navlari yaxshi changlatuvchi hisoblanadi.**

3697. Golden Delishes olma navining mevasi sirti qanday? **Silliq.**

3698. Golden Delishes olma navining mevasi rangi qanday? **Sariq-tillarang.**

3699. Golden Delishes olma navining mevabandi qanday (uzunmi yoki kaltami)? **Uzun.**

3700. Golden Delishes olma navining mevasi eti qanday? **Shirin, muloyim, sersuv va xushbo'y.**

3701. Golden Delishes olma navi mevasi qachon terib olinadi? **Sentabr oyining boshlarida terib olinadi.**

3702. Golden Delishes olma navi O'zbekistonda qanday iqlimli qanday hududlarda nimabop nav sifatida ko'plab ekiladi? **Iliq iqlimli tog'li hududlarda sanoatbop nav sifatida ko'plab ekiladi.**

3703. Goldspur – tez hosilga kiradigan qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

3704. Goldspur olma navi nechanchi yili qaysi davlatda Golden Delishes navi klonidan ajratib olingan? **1960-yili AQSh da Golden Delishes navi klonidan ajratib olingan.**

3705. Goldspur navli olma o'z xususiyatlariga ko'ra, qaysi olma naviga o'xshash? **Golden Delishes navli olmaga o'xshash.**

3706. Goldspur navli olma ko'chati ekilgandan so'ng nechanchi yili hosilga kiradi? **2 – 3-yili hosilga kiradi.**

3707. Goldspur navli olma daraxtining mevasi qachon uziladi? **Sentabr oyining boshida uziladi.**

3708. Goldspur olma navini O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekish tavsiya etilgan? **Barcha viloyatlarida ekish tavsiya etilgan.**

3709. Gordeniya, kajk jasmini qaysi oilaga mansub doim qanday buta o'simliklar turkumi? **Ro'yandoshlar (ro'yangullilar) oilasiga mansub doim yashil buta o'simliklar turkumi.**

3710. Gordeniya, kajk jasmining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3711. Gordeniya, kajk jasmining qancha turi bor? **250 tacha turi bor.**

3712. Gordeniya, kajk jasmini asosan, qaysi zonalarda o'simlik sifatida o'stiriladi? **Asosan, tropik zonalarda o'simlik sifatida o'stiriladi.**

3713. Gordeniya, kajk jasmining qanday turlari bor? **Qatqat gulli gordeniya (G. florida), sitriodora gordeniya (G. citriodora) turlari bor.**

3714. Gortenziya qaysi oilaning Hydrangea turkumiga mansub bir necha tur xushmanzara o'simliklarga berilgan umumiy nom? **Toshyorardoshlar (toshyorarlar-saxifragaclal seag) oilasining Hydrangea turkumiga mansub bir necha tur xushmanzara o'simliklarga berilgan umumiy nom.**

3715. Gortenziya o'simligining bargi qanday (murakkabmi yoki oddiymi)? **Oddiy.**

3716. Gortenziya o'simligining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3717. Gortenziya o'simligining qanday rangli gullari nimabop sil qiladi? **Oq, pushti va qizil gullari to'pgul hosil qiladi.**

3718. Gortenziya o'simligining urug'i qaysi a'zosida? **Ko'sagida.**

3719. Gortenziya o'simligining nechta turi bor? **76 ta turi bor.**

3720. Gortenziya o'simligining qaysi davlatlardan keltirilgan lari xushmanzara o'simlik sifatida parklarda o'stiriladi? **Xitoy va Yaponiyadan keltirilgan Gortenziya (H. macrophylla) va Shimoliy Amerikadan keltirilgan daraxtsimon Gortenziya (H. arlorescens) xushmanzara o'simlik sifatida parklarda o'stiriladi.**

3721. Gortenziya o'simligi nimalardan ko'paytiriladi? **Parxish va qalamchasidan ko'paytiriladi.**

3722. Greypfrut qaysi oilaga mansub doimiy yashil subtropik o'simlik? **Rutadoshlar oilasiga mansub doimiy yashil subtropik o'simlik.**

3723. Greypfrut o'simligining vatani qaysi davlat? **Hindiston.**

3724. Greypfrut o'simligi qayerlarda yetishtiriladi? **AQSh, Yaponiya, Hindiston, Gruziya, Kavkazning Qora dengiz bo'ylarida yetishtiriladi.**

3725. Greypfrut o'simligi qanday holda uchramaydi? **Yovvoyi holda uchramaydi.**

3726. Greypfrut o'simligi (daraxtining balandligi necha m? **15 m.**

3727. Greypfrut o'simligining novdalari qanday? **Tikanli.**

3728. Greypfrut o'simligining bargi qanday? **Yirik.**

3729. Greypfrut o'simligining bargi qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

3730. Greypfrut o'simligi nima sevar o'simlik? **Issiqsevar va namsevar o'simlik.**

3731. Greypfrut o'simligining rangi qanday? **Oq.**

3732. Greypfrut o'simligining mevasi yirik bo'lib, bir donasining og'irligi qancha g? **250 – 600 g.**

3733. Greypfrut o'simligi mevasi diametri necha sm gacha? **15 sm gacha.**

3734. Greypfrut o'simligi mevasi qanday holda yoki nechta donasi bir shingilda yetiladi? **Yakka holda yoki 2 – 15 ta donasi bir shingilda yetiladi.**

3735. Greypfrut o'simligining mevasi qanday shaklda? **Yassiroq, ba'zan dumaloq shaklda.**

3736. Greypfrut o'simligining mevasi tusi qanday? **Ko'kimtir-sarg'ish.**

3737. Greypfrut o'simligining mevasi eti qanday? **Shirali.**

3738. Greypfrut o'simligining mevasi po'sti qalinligi necha sm atrofida? **1 sm atrofida.**

3739. Greypfrut o'simligining mevasi mazasi qanday? **Nordon – chuchuk.**

3740. Greypfrut o'simligining mevasi qaysi oylarda pishadi? **Noyabr-dekabr oylarida pishadi.**

3741. Greypfrut o'simligining mevasi tarkibida suv necha foiz? **88 – 90 foiz.**

3742. Greypfrut o'simligining mevasi tarkibida qand necha foiz? **3,8 – 6,7 foiz.**

3743. Greypfrut o'simligining mevasi tarkibida organik kislotalar necha foiz? **1,4 – 2,4 foiz.**

3744. Greypfrut o'simligining mevasi po'stida necha foiz qanday moddalar bor? **9,2 – 19 foiz pektin moddalar bor.**

3745. Greypfrut o'simligi mevasining 100 g sharbatida qancha mg gacha qanday vitamin bor? **45 mg gacha C vitamini bor.**

3746. Greypfrut o'simligining mevasi nima qilinadi, nima olinadi, nima tayyorlanadi? **Yangiligida yeyiladi, sharbat olinadi, kampot, murabbo tayyorlanadi.**

3747. Greypfrut o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **150 s/ga.**

3748. Greypfrut o'simligining qaysi navlari mashhur? **Marsh sidlis, Dunkan, Foster, Shedrok, Gulripshskiy, Gibrid №1537 va boshq. navlari mashhur.**

3749. Greypfrut o'simligi [illegible]

3751. Gretsiyaliklar qaysi daraxtni yerda ilk paydo bo'lgan deb hisoblagan? **Eman daraxtini yerda ilk paydo bo'lgan deb hisoblagan.**

3752. Gulalvon qaysi oilaga mansub bir va ko'p yillik o'tlar turkumi? **Qoqidoshlar oilasiga mansub.**

3753. Gulalvon o'tining nechta turi O'zbekistonda o'stiriladi? **2 ta turi O'zbekistonda o'stiriladi.**

3754. Gulalvon o'tining poyasi necha sm? **20 – 100 sm.**

3755. Gulalvon o'tining guli qanday rangda? **Sariq rangda.**

3756. Gulalvon o'tning savatcha atrofidagi gultojbargları nechta? **8 ta.**

3757. Gulalvon o'tning barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

3758. Gulalvon o'tining O'zbekistonda nechta turi manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi? **Ikkita turi, ya'ni S. tinctoria, C. drandiflora.**

3759. Gulband qaysi oilaga mansub bir yillik o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

3760. Gulband o'tining bo'yi necha sm? **40 – 60 sm.**

3761. Gulband o'ti O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi ariq va soy bo'ylarida, to'qaylarda ko'p tarqalgan? **Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridagi ariq va soy bo'ylarida, to'qaylarda ko'p tarqalgan.**

3762. Gulband o'ti xalq tabobatida nimalarga qarshi ishlatiladi? **Dizenteriyaga va har xil zararli hasharotlarga qarshi ishlatiladi.**

3763. Gulbeor qaysi oilaga mansub bir yillik o't? **Semizo'tdoshlar (semizo'tgullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

3764. Gulbeor o'tining vatani qayer? **Janubiy Amerika.**

3765. Gulbeor o'tining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3766. Gulbeor o'tining O'zbekistonda nima deb atalgan bitta yovvoyi turi bor? **Semizo't deb atalgan.**

3767. Gulbeor o'tining bo'yi necha sm? **10 – 15 sm.**

3770. Gulbeor o'tining guli qanday ranglarda? **Oq, qizil, sariq, binafsha va boshq ranglarda.**

3771. Gulbeor o'ti qaysi oylarda gullaydi? **May – sentabr oylarida gullaydi.**

3772. Gulbeor deyilishiga sabab nima? **Gulbeor urug'idan yaxshi ko'payadi, shu sababli gulbeor deb nomlangan.**

3773. Gulbeor o'ti O'zbekistonda qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

3774. Gulja'far qaysi oilaga mansub bir yillik o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

3775. Gulja'far o'tining bo'yi necha sm? **30 – 70 sm.**

3776. Gulja'far o'tining vatani qaysi davlat? **Amerika.**

3777. Gulja'far o'tining bargları qanday bo'lingan? **Patsimon.**

3778. Gulja'far o'tining bargi uzunligi necha sm? **2 – 7 sm.**

3779. Gulja'far o'tining bargi eni necha sm? **1,5 – 3 sm.**

3780. Gulja'far o'tining gulbandi necha sm? **5 – 7 sm.**

3781. Gulja'far o'tining gulları qanday shaklda? **Tilsimon shaklda.**

3782. Gulja'far o'tining gulları qanday joylashgan? **Bir qator joylashgan.**

3783. Gulja'far o'tining urug'i qanday? **Tukli.**

3784. Gulja'far o'tining popugi qanday? **Qisqa.**

3785. Gulja'far o'ti qaysi oylarda gullaydi? **Iyul – sentabr oylarida gullaydi.**

3786. Gulja'far o'ti O'zbekistonda qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Manzarali va dorivor o'simlik sifatida ekiladi.**

3787. Gujumchiya qaysi oilaga mansub o'simlik? **Ra'nodoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

3788. Gul qanday urug'li o'simliklarga generativ (jinsiy urchish) a'zo? **Yopiq urug'li o'simliklarning generativ (jinsiy urchish) a'zo.**

3789. Gulları bir jinsli, lekin bar tunda ham changchili, ham urug'chili guli bo'ladigan o'simliklar, masalan: makkajo'xori, yong'oq, qovoq va boshq. necha uyli o'simliklar? **Bir uyli o'simliklar.**

3790. Gulli o'simlik nimalardan tashkil topgan? **Guli kosacha, toj, changchi va urug'chilardan tashkil topgan.**

3791. Gulli o'simliklar, yopiq urug'li o'simliklar, yopiq urug'lilar nima chiqaradigan yuksak o'simliklar guruhi? **Gul chiqaradigan yuksak o'simliklar guruhi.**

3792. Gulli o'simliklarga qaysi o'simliklar kiradi? **Odamlar uchun kerakli o'simliklar, jumladan, oziq-ovqat o'simliklari (bug'doy, javdar, sholi, kartoshka, dukkaklilar va boshq., tolali o'simliklar (g'o'za, zig'ir, kanop va h.k, efir moyli va dorivor o'simliklar, mevalilar va kauchukli o'simliklarning ko'pchiligi gulli o'simliklarga kiradi.**

3793. Gulli o'simliklarga nima xos xususiyat? **Urug'chi a'zolarining mavjudligi va qo'sh urug'lanish xos xususiyat.**

3794. Gulli o'simliklarning urug' kurtagi bir yoki bir nechta ho'rtgan meva barglardan iborat berk kamada bo'ladi? **Tuguncha bo'shlig'ida bo'ladi.**

3795. Gulli o'simliklarning urug'lari qayerda joylashgan? **Meva ichida joylashgan (yopiq urug'lilar degan nom shundan kelib chiqqan).**

3796. Gulli o'simliklar necha sinfga bo'linadi? Ularning nomlari nima? **Ikki sinfga bo'linadi. Ularning nomlari: bir pallali o'simliklar va ikki pallali o'simliklar.**

3797. Gulli o'simliklarda nechta oila bor? **400 ta oila bor.**

3798. Gulli o'simliklarda qancha turkum mavjud? **12 mingdan ortiq turkum mavjud.**

3799. Gulli o'simliklarda qancha tur mavjud? **250 mingga yaqin tur mavjud.**

3800. Guli sumbul, giatsint, xiatsint qaysi oilaga mansub bir yillik o'simlik? **Piyozguldoshlar (lolagullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

3801. Guli sumbul o'simligining qayerlarda nechta turi o'sadi? **Osiyo, Yevropa va Shimoliy Afrikada 30 ta turi o'sadi.**

3802. Guli sumbul o'simligining nechta turi O'rta Osiyo tog'larida uchraydi? **Uchta turi uchraydi.**

3803. Guli sumbul o'simligining uzunligi necha sm? **35 sm.**

3804. Guli sumbul o'simligining kengligi necha sm? **3 sm.**

3805. Guli sumbul o'simligining gul poyasi uzunligi necha sm? **35 – 40 sm.**

3806. Guli sumbul o'simligi qaysi oyda ekilib, qaysi oylarda gullaydi? **Oktabr oyida ekilib, mart – aprel oylarida gullaydi.**

3807. Guli sumbul guli tupining bo'yi necha sm? **10 – 25 sm.**

3808. Guli sumbul gullarining soni nechtagacha boradi? **25 – 35 tagacha boradi.**

3809. Guli salim o'simligi qaerlarda ko'p tarqalgan? **O'rta Osiyoda Torbog'atoy, Jung'oriya, Olatov, Tyan-shan, Pomir, Olay va G'arbiy Sibirda tarqalgan.**

3810. Guli salim qaysi oilaga mansub necha yillik manzarali o'simlik? **Ayiqtovondoshlar (ayiqtovongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik manzarali o'simlik.**

3811. Guli salim o'simligi dengiz sathidan necha m balandlikdagi qanday tuproqli tog' yonbag'irlarida daraxt va butalar orasida uchraydi? **1500 – 2500 balandlikdagi yumshoq tuproqli tog' yonbag'irlarida daraxt va butalar orasida uchraydi.**

3812. Guli salim o'simligining poyasi qaysi o'simliknikiga o'xshaydi? **Sallagulnikiga o'xshaydi.**

3813. Guli salim o'simligining bo'yi necha sm? **25 – 75 sm.**

3814. Guli salim o'simligining bargları qanday (soddami yoki murakkabmi)? **Murakkab.**

3815. Guli salim o'simligining guli rangi qanday? **Qo'ng'ir-pushti.**

3816. Guli salim o'simligining Osiyo, Yevropa va Shimoliy Afrikada nechta turi o'sadi? **30 ta turi o'sadi.**

3817. Guli salim o'simligining nechta turi O'rta Osiyo tog'larida uchraydi? **3 ta turi uchraydi.**

3818. Guli salim o'simligining guli xushbo'y bo'lib, qaysi turi ko'proq tarqalgan? **Oddiy qatqat turi ko'proq (*H. orientalis*) tarqalgan.**

3819. Guliston – ertapishar qaysi mevali o'simlik navi? ***O'rik*** **navi.**

3820. Guliston navli o'rik daraxti qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

3821. Guliston navli o'rik daraxti qanday shoxli? **Siyrak shoxli.**

3822. Guliston navli o'rik daraxti mevasining og'irligi o'rtacha qancha g? **33 g.**

3823. Guliston navli o'rik shakli qanday? **Dumaloq.**

3824. Guliston navli o'rik po'sti qanday? **Yupqa, etidan ajralmaydi.**

3825. Guliston navli o'rik eti qanday? **Sersuv, sershira.**

3826. Guliston navli o'rik daraxti qachon gullaydi? **Aprel oyining birinchi o'n kunligida gullaydi.**

3827. Guliston navli o'rik qachon pishadi? **Iyun oyining boshlarida pishadi.**

3828. Guliston navli o'rik tarkibida necha foiz qand, kislota bor? **17,17 foiz qand, 0,84 foiz kislota bor.**

3829. Guliston navli o'rik ko'chati ekilganidan keyin nechanchi yildan boshlab hosilga kiradi? **4-yildan boshlab hosilga kiradi.**

3830. Guliston navli o'rik daraxti har necha yilda hosil beradi? **Har yili hosil beradi.**

3831. Guliston navli o'rik daraxti O'zbekistonning qaysi zonalarida ekiladi? **Janubi-g'arbidagi adir va tog' oldi zonalarida ekiladi.**

3832. Gulkaram qaysi oilaga mansub bir yillik o'simlik? **Karamdoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

3833. Gulkaram o'simligining mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **3,3 foiz quruq modda, 1,2 – 4,4 foiz qand, 1,5 – 3,7 foiz oqsil, 0,7 – 0,8 foiz mineral moddalar bor.**

3834. Gulkaram o'simligining mevasida qaysi vitaminlar, qaysi kimyoviy elementlar va tuzlar oddiy karamdagidan ko'p? **C va A vitaminlari; kaliy, temir, fosfor tuzlari ko'p.**

3835. Gulkaram o'simligi sovuqqa (– 3° C – 5° C) chidamli bo'lib, ko'chati qaysi oylarda ekiladi? **Bahor (mart) va yoz (iyul)da ekiladi.**

3836. Gulkaram o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **100 – 180 s/ga.**

3837. Gulkaram o'simligining ko'chati o'tqazilgach, necha kunda karam boshchasi yetiladi? **50 – 60 kunda etiladi.**

3838. Gulkaram o'simligi necha barg chiqargandan keyin o'zagining yuqori qismida oqish (300 – 500 g kattalikda) boshcha hosil qiladi? **15 – 20 barg chiqargandan keyin o'zagining yuqori qismida oqish (300 – 500 g kattalikda) boshcha hosil qiladi.**

3839. Gulkaram o'simligining guli rangi qanday? **Oq yoki sariq.**

3840. Gulkaram o'simligi minus qancha °C haroratga chidamli? **– 3° C – 7° C haroratga chidamli.**

3841. Gulkaram o'simligining ko'chati qaysi fasllar (oylar) da qanday sxemada ekiladi? **Bahor (mart) va yoz (iyun)da 60x30 sm², 70x35 sm² sxemada ekiladi.**

3842. Gulkaram o'simligining baborgisi qaysi oylarda pishadi? **May – iyun oylarida pishadi.**

3843. Gulkaram o'simligining yozgisi qaysi oylarda pishadi? **Oktabr – noyabr oylarida pishadi.**

3844. Gulkaram o'simligi sifatli yetilishi uchun qanday qo'yiladi? **Barglari uchi boshcha ustiga to'da qilib bog'lanadi yoki boshchasi sindirilib, olingan barglari bilan soyalab qo'yiladi.**

3845. Gulnoz qanday bodring navi? **Ertagi va o'rtagi.**

3846. Gulnoz navli bodring nechanchi yili qaysi olim tomonidan qayerda qanday yaratilgan? **1991-yilda A. Abbosov tomonidan O'zbekiston sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida O'zbekiston 740 va Parad navlarini chatishtirib, keyinchalik tanlash yo'li bilan yaratilgan.**

3847. Gulnoz navli bodringning og'irligi qancha g? **112 g (bir donasi).**

3848. Gulnoz navli bodringning hosildorligi qancha s/ga? **40 s/ga.**

3849. Gulnoz navli bodring o'simligi necha palakli? **4 – 5 palakli.**

3850. Gulnoz navli bodring o'simligining barglari necha qirrali, qanday shaklda? **Besh qirrali, dumaloq shaklda.**

3851. Gulnoz navli bodring o'simligining sirti qanday? **Silliq.**

3852. Gulnoz navli bodring o'simligining barg yaprog'i uzunligi necha sm? **15 sm.**

3853. Gulnoz navli bodring o'simligining barg yaprog'i eni necha sm? **13 sm.**

3854. Gulnoz navli bodring o'simligining tuganagi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

3855. Gulnoz navli bodring o'simligining tuganagi uzunligi necha sm? **2,5 – 3 sm.**

3856. Gulnoz navli bodring o'simligining mevasi rangi qanday? **Yashil.**

3857. Gulnoz navli bodring o'simligining mevasi mazasi qanday va necha ball? **Mazali va 4,4 ball.**

3858. Gulnoz navli bodring o'simligi nechanchi yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida tayonlashtirilgan? **1994-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida rayonlashtirilgan.**

3859. Gulobi – qovunning kechpishar navlari bo'lib, uning qanday xillari bor? **Jo'jaburun gulobi, Qizil gulobi, Ko'k gulobi, Sariq gulobi, Qora gulobi xillari bor.**

3860. Gulobi navli kechpishar qovun urug'i chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **100 – 115 kunda pishadi.**

3861. Gulobi navli kechpishar qovunning uzunligi necha sm? **32 – 34 sm.**

3862. Gulobi navli kechpishar qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 6 kg.**

3863. Gulobi navli kechpishar qovunning tarkibida qand necha foiz? **8,1 foiz.**

3864. Gulobi navli kechpishar qovun, asosan, qaysi viloyatda ekiladi? **Buxoro viloyatida ekiladi.**

3865. Gulobi navli kechpishar qovunning hosildorligi qancha s/ga? **250 – 280 s/ga.**

3866. Gulobi navli kechpishar qovunning sirti qanday to'rlagan? **Burish to'rlagan.**

3867. Gulobi navli kechpishar qovunning tusi qanday, oftobga qaragan tomonining rangi qanday? **Sariq, yashilroq.**

3868. Gulobi navli kechpishar qovunning po'sti qanday? **Qattiq.**

3869. Gulobi navli kechpishar qovunning eti rangi qanday, qalinligi necha sm? Oq. **5 – 5,5 sm.**

3870. Gulsapsar qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Sapsardoshlar (sapsargullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

3871. Gulsapsar o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatlarida tarqalgan? **Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida tarqalgan.**

3872. Gulsapsar o'simligining bo'yi necha sm? **30 – 50 sm.**

3873. Gulsapsar o'simligining ko'sagi necha qirrali? **6 qirrali.**

3874. Gulsapsar o'simligining ko'sagi uzunligi necha sm? **2 – 4 sm.**

3875. Gulsapsar o'simligining qancha navi mavjud? **Bir necha yuzlab navi mavjud.**

3876. Gulsapsar o'simligining yuzlab navlari bir-biridan nimalari bo'yicha farqlanadi? **Gullarining rangi, hajmi va shakli bo'yicha farqlanadi.**

3877. Gulsapsar o'simligining bargları qanday? **Qilichsimon yoki keng-qalami.**

3878. Gulsapsar o'simligining bargları eni necha sm? **1,3 sm.**

3879. Gulsapsar o'simligining gulqo'rg'oni yirik bo'lib, diametri necha sm? **8 – 15 sm.**

3880. Gulsapsar o'simligining uzun bargsiz gulbandlarida nechta gul joylashadi? **5 – 9 ta.**

3881. Gulsapsar o'simligining nechta guli bir vaqtda ochiladi? **2 – 3 ta guli ochiladi.**

3882. Gulsapsar o'simligining guli qanday hidli? **Xushbo'y hidli.**

3883. Gulsapsar o'simligining guli rangi qanday tusda? **Oq, sariq, pushti, xira qizil, zangori, binafsha va boshq. tuslarda bo'ladi.**

3884. Gulsapsar o'simligi tarqalgan joyiga (dengiz sathidan qancha balandlikda joylashganiga qarab qaysi oydan qaysi oyning boshiga qadar gullaydi? **Aprel oyidan iyun oyining boshiga qadar gullaydi.**

3885. Gulsapsar o'simligi nechanchi yilda ildizpoyani bo'lib, ekish yo'li bilan hamda urug'idan ko'payadi (yovvoyi turlari)? **3 – 4-yilda ildizpoyani bo'lib, ekish yo'li bilan hamda urug'idan ko'payadi (yovvoyi turlari).**

3886. Gulsapsar o'simligi qaysi fasllarda ekiladi? **Bahorda – kuzda ekiladi.**

3887. Gulsapsar o'simligi qayerlarda o'sadi? **Adirlarda, tog'larda va sernam yerlarda o'sadi.**

3888. Gulsapsardoshlar necha pallali o'simliklar oilasi? **Bir pallali o'simliklar oilasi.**

3889. Gulsapsardoshlarning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3890. Gulsapsardoshlar gultojbarglarining nechtasi tashqi qavatni, nechtasi ichki qavatni tashkil etadi? **3 tasi, 3 tasi ichki qavatni tashkil etadi.**

3891. Gulsapsardoshlarning qancha turkumi va qancha turi tarqalgan? **60 ga yaqin turkumi va 1400 tacha turi tarqalgan.**

3892. Gulsapsardoshlarning O'zbekistonda nechta turkumga mansub qancha turi bor? **6 ta turkumga mansub 30 dan ziyod turi bor.**

3893. Gulsapsardoshlar qanday o'simliklardan iborat? **O'tlar, ba'zan yarim butalardan iborat.**

3894. Gulsapsardoshlarning ildizi qanday piyozli? **Tuganak piyozli yoki piyozli.**

3895. Gulsapsardoshlarning guli qanday rangli? **Binafsha, ko'k, oq yoki sariq rangli.**

3896. Gulsapsardoshlarning mevasi qanday? **Ko'sakcha.**

3897. Gulsapsardoshlar qanday hududlar va mintaqalarda tarqalgan? **Tropik va subtropik hududlar (ayniqsa, Janubiy Afrika hamda Amerikaning tropik va subtropik hududlari) da, ba'zan mo'tadil iqlimli mintaqalarda tarqalgan.**

3898. Gulsapsardoshlar orasida qaysilari manzarali navlar hisoblanadi? **Gulsapsar, za'faron, gladiolus va boshq. navlari.**

3899. Gultojixo'roz, tojrixo'roz qaysi oilaga mansub bir yillik o't? **Gultojxo'rozdoshlar oilasiga mansub bir yillik o't.**

3900. Gultojixo'roz o'simligining bo'yi necha sm? **10 – 70 sm.**

3901. Gultojixo'roz o'simligining gulları necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3902. Gultojixo'roz o'simligining changchisi nechta? **5 ta.**

3903. Gultojixo'roz o'simligining poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

3904. Gultojixo'roz o'simligining bargları qanday? **Yirik.**

3905. Gultojixo'roz o'simligining bargi uzunligi necha sm? **5 – 7 sm.**

3906. Gultojixo'roz o'simligining bargi eni necha sm? **2,5 sm.**

3907. Gultojixo'roz o'simligining to'pguli qanday shaklda? **Har xil shaklda.**

3908. Gultojixo'roz o'simligining to'pguli, asosan, qayerda joylashgan? **Barg qo'ltig'ida joylashgan.**

3909. Gultojixo'roz o'simligining rangi qanday? To'q qizil yoki sariq.

3910. Gultojixo'roz o'simligining mevasi qanday urug'li ko'sakcha? **Ko'p urug'li ko'sakcha.**

3911. Gultojixo'roz o'simligi nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

3912. Gultojixo'roz o'simligi O'zbekistonning qaysi joylarida qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Deyarli barcha joylarida manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

3913. Gultojixo'rozdoshlar, machindoshlar necha pallalilarga oid o't yoki butalardan iborat oila? **Ikki pallalilarga oid.**

3914. Gultojixo'rozdoshlar oilasining nechta turkumi va qancha turi bor? **64 ta turkumi va 850 ga yaqin turi bor.**

3915. Gultojixo'rozdoshlarning O'zbekistonda nechta turkumga mansub nechta turi o'sadi? **3 ta turkumga mansub 13 ta turi o'sadi.**

3916. Gultojixo'rozdoshlar, machindoshlarning barglari qanday? **Tekis, butun.**

3917. Gultojixo'rozdoshlarning gulları qanday? **To'p-to'p.**

3918. Gultojixo'rozdoshlarning mevasi qanday? **Yong'oqcha, ba'zan rezavor.**

3919. Gultojixo'rozdoshlarning ba'zi gulları nimaga aylangan? **Ilmoqcha yoki tukchaga aylangan.**

3920. Gultojixo'rozdoshlarning ko'pchiligi qanday mamlakatlarda ekiladi? **Issiq mamlakatlarda ekiladi.**

3921. Gultojixo'rozdoshlarning ba'zilari, masalan, mochinlar qayerda o'sadi? **Ekinlar orasida (begona o't) o'sadi.**

3922. Gultojixo'rozdoshlardan nechtasi madaniy manzarali tur hisoblanadi? **Ikkitasi.**

3923. Gulxayri qaysi oilaga mansub bir va ko'p yillik o'tlar turkumi? **G'o'zadoshlar (gulxayrilar) oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tlar turkumi.**

3924. Gulxayri o'simligining nechta ekma va nechta yovvoyi turi bor? **1 ta ekma va 7 ta yovvoyi turi bor.**

3925. Gulxayri o'simligining O'zbekistonda nechta turkumi va nechta turi o'sadi? **7 ta turkumi va 17 ta turi o'sadi.**

3926. Gulxayri o'simligidan qanday bo'yoqlar olinadi? **Ko'k va binafsha bo'yoq olinadi.**

3927. Gulxayri necha yillik ildizpoyali bo'ydor o'tsimon o'simlik? **Ko'p yillik ildizpoyali bo'ydor o'tsimon o'simlik.**

3928. Gulxayri o'simligining ildizlari qanday tusda? **Qo'ng'ir-sariq tusda.**

3929. Gulxayri o'simligining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

3930. Gulxayri o'simligi necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3931. Gulxayri o'simligining gullari necha bo'lakli? **Uch-besh bo'lakli.**

3932. Gulxayri o'simligining gullari diametri necha mm? **20 – 30 mm.**

3933. Gulxayri o'simligining gullari qanday kosachali? **Qo'sh kosachali.**

3934. Gulxayri o'simligining gullari changchilari (otaliqlari) qancha (ko'pmi yoki ozmi)? **Ko'p.**

3935. Gulxayri o'simligining bo'yi necha sm gacha? **120 – 160 sm gacha.**

3936. Gulxayri o'simligining poyasi necha m? **1,5 – 2 m.**

3937. Gulxayri o'simligi qaysi oydan qaysi oygacha gullaydi? **Iyul oyidan sentabr oyigacha gullaydi.**

3938. Gulxayri o'simligi qaysi oydan meva tuga boshlaydi? **Iyul oyidan meva tuga boshlaydi.**

3939. Gulxayri o'simligining ildizlari qachon kavlab olinadi? **Kuzda yoki erta bahorda kavlab olinadi.**

3940. Gulxayri o'simligining gullari bilan bargi qaysi oydan qaysi oygacha teriladi? **Iyul oyidan avgust oyigacha teriladi.**

3941. Gulxayri o'simligining ildizidan tayyorlangan suyuq ekstrakt qanday maqsadlarda ishlatiladi? **Nafas yo'llari kasalliklarida (ayniqsa, bolalarda) balg'am ko'chirish, ko'krakni yumshatish uchun va yallig'lanishga qarshi, me'da-ichak kasalliklarida esa o'rab oluvchi dori sifatida ishlatiladi.**

3942. Gulxayri o'simligining qaysi turlari dorivor o'simlik sifatida tibbiyotda qadrlanadi? **A. officnalis turi qadrlanadi.**

3943. Gulxayri o'simligining O'zbekistonda qaysi turi dorivor o'simlik sifatida ko'p ekiladi? **A. rosea turi ko'p ekiladi.**

3944. Gulxayri o'simligining ko'pidan nima olinadi? **Tola olinadi.**

3945. Gulxayri o'simligidan nima tayyorlanadi? **Dori tayyorlanadi.**

3946. Gulxayri o'simligi qaysi yerlarda uchraydi? **To'qaylarda, sug'oriladigan maydonlarda va boshqa yerlarda uchraydi.**

3947. Gulxayri o'simligining Yevropa va Osiyoning o'rta mintaqalarida nechta turi bor? **4 ta turi bor.**

3948. Gulxayri o'simligining ildizlarida necha foiz shilimshiq moddalar, necha foizgacha kraxmal, qand, betamlar, moy bor? **35 foiz shilimshiq moddalar, 37 foiz kraxmal, 10,2 foizgacha qand, 4 foiz betainlar, 17 foiz moy va boshq. moddalar bor.**

3949. Gulxayri o'simligining ildizlarida qanday kislota bor? **Asparaginat kislotasi bor.**

3950. Gulxayri o'simligining shifobaxsh ta'siri undagi qanday moddalarga bog'liq? **Shilimshiq va pektin moddalarga bog'liq.**

3951. Gulxayri o'simligining ildizlari, barglari va gullaridan tayyorlangan qaynatmasi O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarda ishlatiladi? **Qon tuflash, sil, bronxial astmada, yo'tal va ko'krak og'rig'i mahallarida yumshatuvchi dori sifatida, shuningdek, tomoqni chayqash uchun ishlatiladi.**

3952. Gulxayri o'simligining ba'zi ildizlarini qaynatib ichish qachon tavsiya etiladi? **Tug'ruqdan keyingi qonketar mahallarda tavsiya etiladi.**

3953. Gulxayri o'simligining ildizlari, barglari va gullaridan tayyorlangan malham qanday kasalliklarga shifo uchun qo'llaniladi? **Chipqon, xo'pnozlarga, quyuq yaralar, jarohatlarga shifo uchun qo'llaniladi.**

3954. Gulxayri o'simligining urug'lari va barglaridan tayyorlangan qaynatmani qaysi hakim balg'am ko'chiradigan dori sifatida ishlatgan? **Abu Ali ibn Sino ishlatgan.**

3955. Gulxayri o'simligining urug'lari va barglaridan tayyorlangan qaynatmani qaysi hakim qanday kasalliklarda dori sifatida tavsiya etgan? **Abu Ali ibn Sino yo'tal paytida, prostata bezi o'smalari, prostatitlar vaqtida, qon tuflash, plevrit, bronxlar va o'pka yallig'lanishi, qo'ymich asab yallig'lanishida yumshatuvchi dori sifatida tavsiya etgan.**

3956. Gulxayridoshlar, g'o'zadoshlar necha pallalilardan ayrimtojlilarga mansub o't va butalar oilasi? **Ikki pallalilardan.**

3957. Gulxayridoshlarning barglari qanday o'yma? **Panjasimon o'yma.**

3958. Gulxayridoshlar yer yuzida qancha turkumi va nechta turi bor? **80 ga yaqin turkumi va 1500 ta turi bor.**

3959. Gulxayridoshlardan qaysi turlari keng tarqalgan? **Gulxayri, g'o'za, kanop, tugmagul, paxtagul, gulhamisha bahor keng tarqalgan.**

3960. Gulxayridoshlarning urug'chisi nechta? **Bitta.**

3961. Gulxayridoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

3962. Gulxayridoshlarning kosachasi necha qavatli? **Ikki qavatli.**

3963. Gulungi luchchak xalq seleksiyasida yaratilgan erta-pishar qaysi mevali daraxt navi? **O'rik navi.**

3964. Gulungi luchchak o'rik navi qaysi o'rik navlaridan yaxshi changlanadi? **Ko'rsodiq, Subxoniy navlaridan yaxshi changlanadi.**

3965. Gulungi luchchak O'rta Osiyo o'rik navlarining qaysi guruhiga kiradi? **Zarafshon guruhiga kiradi.**

3966. Gulungi luchchak o'rik navi daraxti qanday o'sadi? **O'rtacha, yaxshi o'sadi.**

3967. Gulungi luchchak o'rik navi daraxti mevasi o'rtik bo'lib, bir donasi og'irligi qancha g? **40 g.**

3968. Gulungi luchchak o'rik navi mevasi shakli qanday? **Yumaloq.**

3969. Gulungi luchchak o'rik qanday rangli? **Och-sariq, qirmizi rangli.**

3970. Gulungi luchchak o'rik navi mevasi po'sti qanday? **Tuksiz.**

3971. Gulungi luchchak navli o'rikning po'sti qanday qalinlikda? **O'rtacha qalinlikda.**

3972. Gulungi luchchak navli o'rikning eti qalinligi necha mm? **9 – 10 mm.**

3973. Gulungi luchchak navli o'rikning mazasi, hidi qanday? **Shirin, xushbo'y.**

3974. Gulungi luchchak navli o'rikning danagi og'irligi qancha g? **2,3 g.**

3975. Gulungi luchchak navli o'rikning qishki va bahorgisi sovuqlarga chidami qanday? **O'rtacha.**

3976. Gulungi luchchak navli o'rik daraxtining mevasi nima qilmaydi? **To'kilmaydi.**

3977. Gulungi luchchak navli o'rik daraxtidagi hosili shoxida qancha saqlanadi? **Uzoq saqlanadi.**

3978. Gulungi luchchak navli o'rik, hatto qanday yillarda ham yaxshi o'sadi va meva beradi? **Qurg'oqchilik yillarida ham yaxshi o'sadi va meva beradi.**

3979. Gulungi luchchak navli o'rik ko'chati ekilgandan so'ng nechanchi yili hosilga kiradi? **6 – 7-yili hosilga kiradi.**

3980. Gulungi luchchak navli o'rik daraxti necha yilda to'liq hosil bera boshlaydi? **18 – 20 yilda to'liq hosil bera boshlaydi.**

3981. Gulungi luchchak navli o'rik daraxtining bir tupi qancha kg hosil beradi? **130 – 150 kg hosil beradi.**

3982. Gulungi luchchak navli o'rik daraxti qachon (har yilmi yoki yil oralabmi) hosil beradi? **Yil oralab hosil beradi.**

3983. Gulungi luchchak navli o'rik daraxti qaysi oy oxirida necha kun gullaydi? **Mart oyining oxirida, 5 – 6 kun gullaydi.**

3984. Gulungi luchchak navli o'rik daraxtining mevasi qachon pishadi? **Iyun oyininng o'rtalaridat pishadi.**

3985. Gulungi luchchak navli o'rik qandayligicha iste'mol qilinadi, nima tayyorlanadi? **Ho'lligicha iste'mol qilinadi, konserva tayyorlanadi.**

3986. Gulungi luchchak navli o'rikdan nima solinmaydi? **Turshak solinmaydi.**

3987. Gulungi luchchak navli o'rik tashishga chidami qanday? **Yaxshi.**

3988. Gulungi luchchak navli o'rik qaysi viloyatlarda keng tarqalgan? **Sarmarqand va Buxoro viloyatlarida keng tarqalgan.**

3989. Gulqand o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Pomidor navi.**

3990. Gulqand pomidori tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **3 – 3,2 foiz quruq modda, 1,6 – 1,7 foiz qand, 9,6 – 12 mg foiz askorbin kislotasi bor.**

3991. Gulqand navli pomidor qayerda nechanchi yilda yaratilgan? **O'zbekiston sabzavotchilik, pomidorchilik va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida "Vitaminli" navi namunasidan tanlash yo'li bilan 1986-yilda yaratilgan.**

3992. Gulqand navli pomidor nechanchi yildan qayerda kuzgi – qishki mavsumda yetishtirish uchun rayonlashtirilgan? **1990-yildan issiqxonalarda kuzgi – qishki mavsumda yetishtirish uchun rayonlashtirilgan.**

3993. Gulqand navli pomidorning nihollari to'liq unib chiqqandan keyin birinchi mevalari necha kunda pishadi? **95 – 120 kunda pishadi.**

3994. Gulqand navli pomidor o'simligining bo'yi necha sm ga boradi? **120 – 150 sm ga boradi.**

3995. Gulqand navli pomidorning bir donasi og'irligi qancha g? **120 g.**

3996. Gulqand navli pomidorning hosildorligi o'rtacha qancha kg/m²? **4,5 kg/m².**

3997. Gunafshadoshlar necha urug' pallali o'simliklar oilasi? **Ikki.**

3998. Gunafshadoshlar qaysi mintaqalarda keng tarqalgan? **Tropik va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan.**

3999. Gunafshadoshlarga nechta turkum, nechta tur kiradi? **16 ta turkum, 850 ta tur kiradi.**

4000. Gunafshadoshlarning kosachasi va tojbarglari nechta? **5 ta.**

4001. Gunafshadoshlarning urug'chisi nechta? **2 – 5 ta.**

4002. Gunafshadoshlar necha uyali? **Bir uyali.**

4003. Gunafshadoshlarning O'zbekistonda qaysi turkumiga mansub turlari o'sadi? **Binafsha turkumiga mansub.**

4004. Gulxayridoshlarning ko'pidan nima olinadi? **Tola olinadi.**

4005. Gulxayridoshlarning ko'pidan nima tayyorlanadi? **Dori tayyorlanadi.**

4006. Gurvak qaysi poliz ekinning serhosil, yozgi, o'rtapishar navi guruhi? **Qovunning serhosil, yozgi, o'rtapishar navi guruhi.**

4007. Gurvak (Ola) urug'dan chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **90 – 105 kunda pishadi.**

4008. Gurvak navli qovunning og'irligi qancha kg? **5 – 9 kg.**

4009. Gurvak navli qovun tarkibida qand necha foiz? **8,8 – 10,4 foiz.**

4010. Gurvak navli qovunning qanday turlari bor? **Oq Gurvak, qora Gurvak, ko'k Gurvak.**

4011. Guruchning qancha turi mavjud? **7 mingdan ortiq turi mavjud.**

4012. Guttaperchali texnika ekinlariga qaysilar kiradi? **Palakvius, normushk, evkoma kiradi.**

4013. Guttaperchali daraxtlar nimasi tarkibida guttapercha bo'ladigan o'simliklar? **Shirasi tarkibida guttapercha bo'ladigan o'simliklar.**

4014. Guttaperchali daraxtlarning mevasi qanday? **Rezavor.**

4015. Guttaperchali daraxtlar qayerlarda o'sadi? **Hindixitoy yarim oroli, Katta Zond, Filippin orollari, Yangi Gvineya va Afrikaning janubi-sharqiy qirg'oqlarida o'sadi.**

4016. Guttaperchali, asosan, qaysi orollarda va yarim orollarda o'sadigan daraxt (Palaguium gutta)dan po'stini tilib qo'yib, shirasini oqizish yo'li bilan olinadi? **Zond orollarida va Malakka yarim orolida o'sadigan daraxt (Palaguium gutta)dan po'stini tilib qo'yib, shirasini oqizish yo'li bilan olinadi.**

4017. Guttaperchali daraxtning bitta tupidan qancha kg guttapercha olinadi? **0,3 – 3,2 kg guttapercha olinadi.**

4018. Guttaperchali daraxtlar tropik mamlakatlardan Yevropaga dastlab nechanchi yilda keltirilgan? **1956-yilda keltirilgan.**

4019. Go'zal qora o'rtapishar jaydari qaysi mevali o'simlik navi? **Uzum navi.**

4020. Go'zal qora navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4021. Go'zal qora navli uzumning bargi bo'yi necha sm? **21 sm.**

4022. Go'zal qora navli uzumning eni necha sm? **22 sm.**

4023. Go'zal qora uzumi navi qaysi navlarni chatishtirib yetishtirilgan? **Kattaqo'rg'on va Dodrelyabi navlarini chatishtirib yetishtirilgan.**

4024. Go'zal qora navli uzum tarkibida qand, kislota necha foiz? **22 – 23 foiz qand, 4 – 4,5 foiz kislota bor.**

4025. Go'zal qora navli uzumning tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

4026. Go'zal qora navli uzumning boshi og'irligi o'rtacha qancha g? **500 – 600 g.**

4027. Go'zal qora navli uzumning mevasi qanday? **Yirik.**

4028. Go'zal qora navli uzum qanday rangda? **Ko'kish-qora rangda.**

4029. Go'zal qora navli uzumning tupi kurtak yozgandan boshlab, faol harorat yig'indisi qancha ° C da necha kunda qachon pishadi? **2800° C da 136 kunda – avgust oyi oxirlarida pishadi.**

4030. Go'zal qora navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **220 – 240 s/ga.**

4031. Go'zal qora navli uzum kasalliklar bilan qanday zararlanadi? **Kam zararlanadi.**

4032. Go'zal qora navli uzum, asosan, qachon iste'mol qilinadi? **Yangiligida iste'mol qilinadi.**

4033. Go'zal qora navli uzumdan nima olinadi? **Mayiz solinadi.**

4034. Go'zal qora navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida rayonlashtirilgan? **Barcha viloyatlarida rayonlashtirilgan.**

4035. Habbul-muluk qaysi oilaga mansub necha uyli buta yoki daraxtcha? **Sutlamadoshlar (sutlamagullilar) oilasiga mansub bir uyli buta yoki daraxtcha.**

4036. Habbul-muluk butasining qaysi yarim sharning qaysi o'rmonlarida, asosan, Amerikada qancha turi tarqalgan? **Ikkala yarim sharning tropik va subtropik o'rmonlarida, asosan, Amerikada 700 ga yaqin turi tarqalgan.**

4037. Habbul-muluk butasi yovvoyi holda qaverlarda tarqalgan? **Hindistonda, Osiyoning sharqi-janubida tarqalgan.**

4038. Habbul-muluk butasining urug'i qanday? **Zaharli.**

4039. Habbul-muluk butasining urug'ida qanday moddalar bor? **Toksalbulin va zaharli smolalar bor.**

4040. Habbul-muluk butasining tarkibida yog' necha foizcha? **50 foizcha.**

4041. Habbul-muluk butasining urug'idan qanday yog' olinadi? **Tiniq, qoramtir ko'laja hidli yog' olinadi.**

4042. Habbul-muluk butasining mevasi necha urug'li? **Uch urug'li.**

4043. Habbul-muluk butasining mevasi necha qirrali ko'sakcha? **Uch qirrali.**

4044. Habbul-muluk butasining urug'i qaysi o'simlikmikiga o'xshaydi? **Kanakunjutnikiga o'xshaydi.**

4045. Habbul-muluk butasining bo'yi necha m gacha? **4-6 m gacha.**

4046. Habbul-muluk butasining bargları qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

4047. Habbul-muluk butasining bargları qanday? **Tishli, egilgan.**

4048. Habbul-muluk butasining bargları rangi qanday? **Kul-rang – yashil yoki yaltiroq.**

4049. Habbul-muluk butasining gulları necha jinsli? **Bir yoki ikki jinsli.**

4050. Habbul-muluk butasining mevasi nimasimon? **Chanoqsimon.**

4051. Habbul-muluk butasi ko'pgina turlarining smolali sharbati qanday? **Zaharli.**

4052. Habbul-muluk butasi ayrim turlarining sharbatida qanday modda olimadi? **Lok moddasi olinadi.**

4053. Habbul-muluk butasining S. eluteria va C. cascarilla turlari po'stlog'ida xushbo'y, achchiq, dorivor qanday modda mavjud? **Kaskarilla moddasi mavjud.**

4054. Habbul-muluk butasi qayerlarda ekiladi? **Shri Lanka, Yava, Filippin orollarida, Amerikaning tropik qismida ekiladi.**

4055. Habbul-muluk butasi tibbiyotda nima sifatida ishlatiladi? **Surgi sifatida ishlatiladi.**

4056. Habbul-muluk butasi urug'i ko'proq iste'mol qilinsa, kishini nima qiladi? **Zaharlaydi.**

4057. Handalak turiga deyarli barcha ertapishar qovunning qaysi navlari kiradi? **Ko'kcha, handalak, sariq handalak, zamcha va boshq. navlari kiradi.**

4058. Handalak qaysi oilaga mansub eng ertapishar qovun navi? **Qovundoshlar oilasiga mansub.**

4059. Handalakning O'zbekistonda qaysi navlari ko'p ekiladi? **Ko'kcha handalak-14 (P. N. Dudko), sariq handalak, Zamcha, Ko'k, Kallapo't, Bosvoldi, Obi Navvot va boshq. navlari.**

4060. Handalakning Ko'kcha handalak – 14 navining og'irligi qancha kg? **0,7 -2,5 kg.**

4061. Handalak nechanchi yildan O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekish uchun davlat reyestriga kiritilgan? **1946-yildan kiritilgan.**

4062. Handalakning sariq handalak turi og'irligi qancha kg? **1,2 – 2,3 kg.**

4063. Handalakning tarkibida qand miqdori necha foiz? **4 – 5 foiz.**

4064. Handalakning tarkibida saxaroza miqdori necha foiz? **1,5 – 2,4 foiz.**

4065. Handalakning tarkibida quruq modda miqdori necha foiz? **6,1 – 7,8 foiz.**

4066. Handalakning niholi unib chiqqanidan so'ng mevasi necha kunda pishadi? **60 – 65 kunda pishadi.**

4067. Handalakning hosildorligi qancha s/ga? **200 – 230 s/ga.**

4068. Handalak O'zbekistonning qaysi rayonlarida, ayniqsa, qaysi viloyatida ko'p ekiladi? **Janubiy rayonlarida, ayniqsa, Samarqand viloyatida ko'p ekiladi.**

4069. Hasayni qayerda yaratilgan mahalliy xo'raki uzum navi? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**

4070. Hasayni navli uzum qaysi xususiyatlariga ko'ra Hasayni navli uzumdan ajralib turadi? **Morfologik va biologik xususiyatlariga ko'ra, ajralib turadi.**

4071. Hasayni navli uzum qaysi navlar guruhiga kiradi? **Sharqiy ekologik – geografik navlar guruhiga.**

4072. Hasayni navli uzumning barglari necha bo'lmali? **3-5 bo'lmali.**

4073. Hasayni navli uzumning guli necha uyli? **Ikki jinsli.**

4074. Hasayni navli uzumning tarkibida necha foiz qand bor? **22-25 foiz.**

4075. Hasayni navli uzumning hosili uchun faol haroratlar yig'indisi qancha °C? **3410° C.**

4076. Hasayni navli uzum qachon pishadi? **Avgust oxiri – sentabr boshlarida, 143 kunda pishadi.**

4077. Hasayni navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **90/100 s/ga.**

4078. Hasayni navli uzum qayerda ko'p ekiladi? **Farg'ona vodiysida ko'p ekiladi.**

4079. Hasayni navli uzumdan qanday sifatli nima tayyorlanadi? **Yuqori sifatli mayiz tayyorlanadi.**

4080. Hasharotxo'r o'simligining nomi nima? **Nepentes.**

4081. Hasharotxo'r o'simligi qayerda o'sadi? **Yangi Kaledoniyada o'sadi.**

4082. Hiyol qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simlik nima? **Tomatdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simlik turi.**

4083. Hiyol o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Farg'ona vodiysi, Olay tizma tog'ining shimoliy yon bag'irlari, So'x va Shohimardon daryolari havzalarida tarqalgan.**

4084. Hiyol o'simligining bo'yi necha sm? **50 sm.**

4085. Hiyol o'simligining ildizi necha sm gacha chuqurlikda joylashgan? **200 sm gacha chuqurlikda joylashgan.**

4086. Hiyol o'simligining bargları uzunligi necha sm? **6-10 sm, 4-7 sm.**

4087. Hiyol o'simligining mevasi qanday? **Ko'sakcha.**

4088. Hiyol o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Aprel – may oylarida gullaydi.**

4089. Hiyol o'simligi qaysi oyda urug'laydi? **Iyun oyida urug'laydi.**

4090. Hiyol o'simligi qayerlarda o'sadi? **2200 – 2500 m balandlikdagi archazorlarda, qoyalar tagidagi sernam joylarda, ba'zi ochiq yalangliklarda o'sadi.**

4091. Hiyol o'simligi qanday o'simlik? **Zaharli o'simlik.**

4092. Hiyol o'simligi tarkibida tibbiyotda qo'llaniladigan qanday alkaloidlar bor? **Giostsiamin, skopolalin, belladonin alkaloidlar bor.**

4093. Hilol – hiloldoshlarga mansub necha yillik o't turi? **Ko'p yillik o't turi.**

4094. Hilol o'tning bo'yi necha sm? **30-100 sm.**

4095. Hilol o'tning poyasi necha qirrali? **Uch qirrali.**

4096. Hilol o'tning keng guloldi barglari qayerida? **To'pgulining ostida.**

4097. Hilol o'tning barglari shakli qanday? **Yassi.**

4098. Hilol o'tning to'pguli shakli qanday? **Soyabonsimon.**

4099. Hilol o'tning to'pguli ostida keng guloldi qaysi a'zolari bor? **Barglari bor.**

4100. Hilol o't qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

4101. Hilol o't qaysi oyda urug'laydi? **Avgust oyida urug'laydi.**

4102. Hilol o't qayerlarda o'sadi? **Cho'l va adirlardagi nam va botqoq yerlar, daryo vodiylari, ariq bo'ylari, sholipoyalar va sug'oriladigan ekinlar orasida o'sadi.**

4103. Hiloldoshlar, bardidoshlar necha yillik bir urug'pallali o'simliklar oilasi, asosan, o'tlar? **Ko'p yillik, ba'zan bir yillik.**

4104. Hiloldoshlar nechta turkum qancha turni o'z ichiga oladi? **85 ta turkum 3500 dan ortiq turni o'z ichiga oladi.**

4105. Hiloldoshlar qaysi mintaqalarda uchraydi? **Yer sharining hamma mintaqalarida.**

4106. Hiloldoshlar ko'proq Shimoliy yarim sharning qaysi mintaqalarida tarqalgan? **Mo'tadil va sovuq mintaqalarida.**

4107. Hiloldoshlar, asosan, qayerlarda o'sadi? **Zax, botqoq yerlarda, ariqlar bo'yida, bir qancha turi cho'l, adir, tog' va yaylovlarda o'sadi.**

4108. Hiloldoshlarga qaysi o'simliklar kiradi? **Bardi, qamish, papirus, salomalaykum va boshq. kiradi.**

4109. Himolay kedrining ignabargi ingichka bo'lib uzunligi necha sm? **2,5-5 sm.**

4110. Himolay kedri qubbasi shakli qanday? **Tuxumsimon.**

4111. Himolay kedri qubbasi uzunligi necha sm? **7-10 sm.**

4112. Hind qora zirasi, zarat karmoniy ziradoshlar (soyabonguldoshlar)ning qaysi turkumiga mansub necha yillik qanday o'simlik? **Anegon turkumiga mansub bir yillik ziravor o'simlik.**

4113. Hind qora zirasining vatani qayer? **Vatani – Hindiston.**

4114. Hind qora zirasining vatani qayer? **Shimoliy va Sharqiy Afrika, Eron, Afg'oniston, Kichik Osiyoda shuningdek, O'rta Osiyoda o'stiriladi.**

4115. Hind qora zirasi qayerlarda o'stiriladi? **Shimoliy va Sharqiy Afrika, Eron, Afg'oniston, Kichik Osiyoda shuningdek, O'rta Osiyoda o'stiriladi.**

4116. Hind qora zirasi mevasidagi efir moyida necha foizgacha qanday modda bor? **50 foizgacha timol moddasi bor.**

4117. Hind xrizantemasi (C. indicum) qaysi mamlakatlar sanoat gulchiligida muhim ahamiyatga ega? **G'arbiy Yevropa, Yaponiya, AQSh, Rossiya va boshq. mamlakatlar sanoat gulchiligida muhim ahamiyatga ega.**

4118. Hindixitoy g'o'zasi, daraxt g'o'za qanday g'o'za turi? **Madaniy g'o'za turi.**

4119. Hindixitoy g'o'zasining yovvoyi shakllari qayerda tarqalgan? **Dekan (Hindiston yarim oroli)da tarqalgan.**

4120. Hindixitoy g'o'zasi, asosan, qaysi mamlakatlarda ekiladi? **Hindiston, qisman Afg'oniston, Bangladesh, Pokiston, Birma, Vetnam, Xitoy, Koreya, Yaponiyada ekiladi.**

4121. Hindixitoy g'o'zasi kichikroq daraxt yoki buta bo'lib, tuk (kamdan-kam tuksiz) va qora smolali qanday a'zolar bilan qoplangan? **Bezchalar bilan qoplangan.**

4122. Hindixitoy g'o'zasining poyasi rangi qanday? **Yashil, turli intensivlikda – to'q qizilgacha antotsian rang oladi.**

4123. Hindixitoy g'o'zasining madaniy navlari o'suv shoxlari qanday rivojlanadi? **Sust rivojlanadi.**

4124. Hindixitoy g'o'zasining barglari necha bo'lmali? **3-5-7 bo'lmali.**

4125. Hindixitoy g'o'zasining ko'saklari shakli qanday? **Dumaloq, tuxumsimon.**

4126. Hindixitoy g'o'zasining ko'saklari necha chanoqli? **4-5, ba'zan 3 chanoqli.**

4127. Hindixitoy g'o'zasining bitta ko'sagidagi paxta og'irligi qancha g dan qancha g gacha? **2 g dan 6 g gacha.**

4128. Hindixitoy g'o'zasining har bir chanog'ida nechta chigit bor? **3-8 ta chigit bor.**

4129. Hindixitoy g'o'zasining chigitli tuklari rangi qanday? **Oq, yashil yoki qo'ng'ir.**

4130. Hindixitoy g'o'zasi qanday geografik xillarga bo'linadi? **Hindiston, bengaliya, birma, nankin va boshq. bir qancha geografik xillarga bo'linadi.**

4131. Hozirgi kunda qancha o'simlik turlari ma'lum? **500 mingga yaqin o'simlik turlari ma'lum.**

4132. Hozirgi vaqtda ko'k-vashil suvo'tlarning azot o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan qancha turi bor? **80 dan ortiq turi bor.**

4133. Hozirgi vaqtda ko'k-yashil suvo'tlarining azot o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan qancha turi O'rta Osiyo tuproqlari va suv havzalarida tarqalgan? **45 ga yaqin turi tarqalgan.**

4134. Hozirgi vaqtda parpi o'simligi ildizidan qaysi kasalliklarni davolashda foydalaniladi? **Asab kasalliklarini, bosh og'rig'ini davolashda foydalaniladi.**

4135. Hozirgi organik olamni o'rganadigan fanning nomi nima? **Neotologiya.**

4136. Hujayrani nechanchi yilda qayerlik qaysi olim kashf etgan? **Angliyalik R. Guk 1667-yilda kashf etgan.**

4137. Hozirda yalang'och urug'larning qancha turi saqlangan? **600 ga yaqin turi saqlangan.**

4138. Hozir psilofitsimonlarning nechta oilasi, nechta turkumi aniqlangan? **7 ta oilasi, 18 ta turkumi aniqlangan.**

4139. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb necha foizi o'simlik xomashyolaridan olinadi? **40-47 foizi o'simlik xom ashyolaridan olinadi.**

4140. Hozirgi zamon tibbiyotida qora shuvoq o'simligi qaysi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Ginekologik kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.**

4141. Hozirgi ilmiy tabobatda qaysi o'simlikdan bachadondan qon ketishini to'xtatishda, siydik haydovchi sifatida ishlatiladi? **Qush tili o'simligidan.**

4142. Hozirgi vaqtda aloening ikkinchi vatani qaysi orollar? **Ikkinchi vatani – Barbodoss orollari.**

4143. Hozirgi vaqtda valyeriana (asorun)ning "sovuq" usulda tayyorlangan dorisi keng qo'llaniladi. Bu dori qanday tayyorlanadi? **Valyeriana asorun o'simligi ildizi yaxshilab yuviladi, quritilib maydalanadi. Maydalangan ildizdan bir osh qoshig'ida olib, ustiga qaynatib sovutilgan 1 stakan suv solinadi va 24 soat tindiriladi. So'ngra dokadan suzdirib, kuniga 3-4 marta bir osh qoshig'ida ichiladi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, valyeriananing ta'siri muntazam qabul qilinganda yaxshi bilinadi.**

4144. Hozirgi zamon tabobatida emanning yosh novdalari po'sti qaysi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Og'iz bo'shlig'i kasalliklarida, chayqash uchun va kuyishni davolashda qo'llaniladi. Buni tayyorlash quyidagicha. Buning uchun 2 osh qoshiq po'stloq ustiga 1 stakan qaynatgan suv solib, Yarim soat suv hammomida qaynatilib, damlama tayyorlanadi. Issiq xolda sizdiriladi.**

4145. Hozirgi zamon tabobatida jen-shen o'simligi qaysi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Uning damlamasi, qaynatma shakli organizm o'ta charchaganda, kamqonlikda, mehnat qobiliyati pasayganda, diabet, sil kabi kasalliklarda organizm kuchini oshirishda, tez charchash, toliqish kabi holatlarda, yurak-qontomir kasalliklarida keng qo'llaniladi, qon bosimini oshiradi.**

4146. Hozirgi zamon tibbiyotida piyozdan tayyorlangan dorilar qaysi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Oshqozon ichak kasalliklarida, ishtahani ochuvchi sifatida, gipertoniya va ateroskleroz kasalliklarida, ginekologik kasalliklarda qo'llaniladi.**

4147. "Hosildor" – ertapishar, mahalliy xo'raki qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

4148. "Hosildor" olma navi qanday yo'l bilan yaratilgan? **Xalq seleksiyasi yo'li bilan yaratilgan.**

4149. "Hosildor" navli olmaning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4150. "Hosildor" navli olma qanday changlanadi? **O'zidan changlanadi.**

4151. "Hosildor" navli olma daraxtining balandligi necha m? **4,9 m.**

4152. "Hosildor" navli olma daraxti mevasining bir donasi og'irligi qancha g? **130-160 g.**

4153. "Hosildor" navli olma po'sti qanday qalinlikda? **O'rtacha qalinlikda.**

4154. "Hosildor" navli olmaning rangi qanday? **Sarg'imtir och-yashil.**

4155. "Hosildor" navli olma sirtida qanday rangli yo'llar bor? **Qizg'ish yo'llari bor.**

4156. "Hosildor" navli olma eti rangi qanday? **Oq.**

4157. "Hosildor" navli olma eti qanday sersuv? **O'rtacha sersuv.**

4158. "Hosildor" navli olma eti ta'mi qanday? **Shirin – nordon.**

4159. "Hosildor" navli olma nima qilinadi? **Yangiligida eyiladi, qoqi solinadi, konserva qilinadi.**

4160. "Hosildor" navli olma uzoq joylarga yuborishga qanday? **Yaroqli.**

4161. "Hosildor" navli olma O'zbekistonning qaysi viloyatlari, MDH davlatlaridan qaysilari rayonlashtirilgan? **O'zbekistonning barcha viloyatlari, Turkmaniston va Janubiy Qozog'iston rayonlashtirilgan.**

4162. "Hosildor" navli olmaning 15 yoshli daraxti qancha kg gacha meva beradi? **260 kg gacha meva beradi.**

4163. "Hosildor" navli olma ko'chati o'tqazilgandan so'ng nechanchi yili hosilga kiradi? Nechanchi yili to'liq hosil bera boshlaydi? **2-3 yili. 5 – 6-yili hosilga kiradi.**

4164. Husayni qayerda etishtirilgan o'rtapishar xo'raki uzum navi? **Xalq seleksiyasida.**

4165. Husayni navli uzumning vatani qayer? **Vatani – O'rta Osiyo.**

4166. Husayni navli uzum qaysi joylarda tarqalgan? **O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Rossiyaning Stavropol o'lkasi va boshq. joylarda tarqalgan.**

4167. Husayni navli uzum g'ujumlarining shakliga qarab qanday xillarga bo'linadi? **Mo'rchamiyon, Husayni, kelinbarmoq Husayni, qizil Husayni, lo'nda Husayni (kadu Husayni xillari, ayniqsa, ko'p tarqalgan) xillarga bo'linadi.**

4168. Husayni navli uzumning bargi qanday shaklda? **To'garak shaklda.**

4169. Husayni navli uzum necha bo'lmali? **3-4 bo'lmali.**

4170. Husayni navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4171. Husayni navli uzumning tarkibida qand necha foiz? **18-20 foiz.**

4172. Husayni navli uzumning nordonligi qancha g/l? **3-4 g/l.**

4173. Husayni navli uzumning o'suv davri necha kun? **153 kun.**

4174. Husayni navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **170-180 s/ga.**

4175. Ibn Sino indov o'simligini nima sifatida ham qo'llagan? **Ibn Sino siydik haydovchi sifatida ham qo'llagan.**

4176. Igir o'simligi qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Kuchaladoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

4177. Igir o'simligining ildizpoyasi qanday o'sadi? **Sudralib o'sadi.**

4178. Igir o'simligining barglari qanday? **Barglari uzun nashtarsimon.**

4179. Igir o'simligi ildizpoyasidan qanday moy olinadi? **Efir moyi olinadi.**

4180. Igir o'simligi, asosan, Sharqiy Osiyoda uchraydigan boshqa bir turning ildizpoyasi qayerda ishlatiladi? **Qandolatchilikda ishlatiladi.**

4181. Igir o'simligining tarkibida qanday modda bor? **Oshlovchi modda bor.**

4182. Igir o'simligi yosh bolalardagi qaysi kasalliklarga qo'llaniladi? **Diatezni davolashda. Oshqozon shirasi pasayganda yara kasalligida qo'llaniladi.**

4183. Igir o'simligi damlamasi qanday tayyorlanadi? **Quyidagicha tayyorlanadi: 15 g maydalangan ildizpoya ustiga 200 ml qaynatib sovutilgan suv solib, 8 soat qo'yiladi. Vaqti-vaqti bilan aralashtirib turiladi. Sizdirilib, ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichish tavsiya etiladi.**

4184. Igir o'simligining ildizpoyalari tarkibida necha foizli qanday moddalar bor? **4 foizli efir moylari, burishtiruvchi moddalar, smola, kolidlar, askarbin kislota, akorin glikozidi, alkaloidlar, oshlovchi moddalar bor.**

4185. Ignabargli tol (S. acutifolia) qayerlarda o'sadi? **Daryo bo'ylarida, kichik-kichik suv havzalarida, ariqlar, xonadonlar atrofida o'sadi.**

4186. Ignabargli tol qurg'oqchilikka, sho'rxokka qanday? **Chidamli.**

4187. Ignabargli tol novdalari qanday? **Nozik va ingichka.**

4188. Ignabargli tol balandligi necha m? **2 – 4 m.**

4189. Ignabargli o'simliklar qaysi o'simliklar bo'limiga mansub, asosan, monopodial, ba'zan simpodial shoxlanuvchi daraxt yoki butalar? **Qarag'ay toifa (ochiq urug'li) o'simliklar bo'limiga mansub, asosan, monopodial, ba'zan simpodial shoxlanuvchi daraxt yoki butalar.**

4190. Ignabargli o'simliklar poyasida o'tkazuvchi naylar o'rnida serg'ovak hoshiyali nimalar bo'ladi? **Traxeidlar bo'ladi.**

4191. Ignabargli o'simliklar poyasi qanday xususiyatga ega? **Ikkilamchi yo'g'onlashish xususiyatiga ega.**

4192. Ignabargli o'simliklarning barglari qanday? **Tangacha yoki ignasimon (nomi shundan olingan).**

4193. Ignabargli o'simliklar poyasida necha yil turadi? **Bir necha yil turadi.**

4194. Ignabarglilarning guli necha jinsli? **Bir jinsli.**

4195. Ignabargli qarag'aydan qaysi vitamin olinadi? **C vitamini olinadi.**

4196. Ignabargli o'simliklar nima yordamida changlanadi? **Shamol yordamida.**

4197. Ignabarglilarning nechta oilaga mansub nechta tukrumi, turi bor? **7 – 8 ta oilaga mansub 55 ta turkumi, 600 ta turi bor.**

4198. Ignabargli o'simliklar, asosan, qaysi yarim sharda tarqalgan? **Shimoliy yarim sharda tarqalgan.**

4199. Ignabargli o'simliklarning qaysi turkumlari ko'proq uchraydi? **Qarag'ay, archa, qora qarag'ay, tiss, sarv turkumlari ko'proq uchraydi.**

4200. Ignabargli o'simliklarning O'zbekistonda qaysi turkumga mansub turlari o'sadi? **Archa turkumiga mansub turlari o'sadi.**

4201. Izen, koxiya qaysi oilaga mansub bir yillik yarimbutalardan iborat turkum? **Sho'radoshlar oilasiga mansub bir yillik yarimbutalardan iborat turkum.**

4202. Izen o'simligining nechta turi ma'lum? **80 ta turi ma'lum.**

4203. Izen o'simligi qayerlarda o'sadi? **Cho'l va adirlarda o'sadi.**

4204. Izen o'simligining ba'zilari qanday o'simlik? **Manzarali o'simlik.**

4205. Izen o'simligining O'zbekistonda nechta turi bo'lib, ular qayerlarda o'sadi? **4 ta turi bo'lib, ular toshloq, qumloq, gil tuproq, sho'rxok va taqir yerlarda o'sadi.**

4206. Izen o'simligining urug'i tarkibida qanday modda bor? **Saponin moddasi bor.**

4207. Izen qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Izen sifatli ozuqabop o'simlik sifatida o'tloqlarning hosildorligini oshirish uchun ekiladi.**

4208. Ikkala tomonidan og'izchalari bo'lgan barglar nimalar deyiladi? **Amfistomatiklar deyiladi.**

4209. Ikki yillik ildizmevalilarga qaysi mevali o'simliklar kiradi? **Sabzi, lavlagi, sholg'om, bryukva, petrushka, selderey, turp kiradi.**

4210. Ikki yillik ildizmevalilar urug'i sepilgan yili to'pbarg chiqarib, nima hosil qiladi? **Ildizmeva hosil qiladi.**

4211. Ikki yillik ildizmevalilar ikkinchi yili nima chiqarib urug' beradi? **Gulpoya chiqarib urug' beradi.**

4212. Ikki pallalilar qaysi o'simliklarning bir sinfi? **Yopiq urug'li o'simliklarning bir sinfi.**

4213. Ikki pallalilarning murtagi yonma-yon o'rnashgan nechta urug' pallaga ega? **Ikkita urug' pallaga ega.**

4214. Ikki pallalilar urug'idan nechta barg bilan unib chiqadi? **Ikkita, shu sababli ikki pallalilar deb nomlangan.**

4215. Ikki pallalilar urug'i o'simliklarning katta bir guruhi bo'lib, nechta tur va oilani o'z ichiga oladi? **175 mingta tur va 350 – 360 ta oilani o'z ichiga oladi.**

4216. Ikki pallalilar ikkita kenja sinfga bo'linadi, ular qaysilar? **Ayrimtojlilar (Archichlamydeae va ikkilamchi qoplamalar yoki tutash tojlilar (Metachlamydeae yoki Sympetalae)ga bo'linadi.**

4217. Ikki pallali o'simliklar gulli o'simliklarning nechta oilasiga mansub qancha turni o'z ichiga oladi? **360 – 370 ta oilasiga mansub 175000 dan ortiq turni o'z ichiga oladi.**

4218. Ikki pallali o'simliklar orasida muhim xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan qaysi o'simliklar bor? **Kartoshka, no'xat, lavlagi, qovun, tarvuz, uzum, olma, g'o'za, kungaboqar kabi o'simliklar bor.**

4219. Ikki uyli o'simliklar – gulları necha jinsli bo'lib, changchi (erkak) gulları bir tunda, urg'chi (onalik) gulları ikkinchi tunda yetishadigan o'simliklar? **Bir jinsli, masalan: tol, terak, nasha va boshq.**

4220. Ilmoqtumshuq uchma o'tning bo'yi necha sm? **3 – 10 sm.**

4221. Ilashuvchi o'simliklar qanday o'sadigan o'simliklar? **Novda ganjaklari bilan turli narsalarga ilashib o'sadigan o'simliklar.**

4222. Ilashuvchi o'simliklarga qaysi o'simliklar kiradi? **Yovvoyi tok, qovoq va boshq. o'simliklar kiradi.**

4223. Ilgari boshqa turkumlarga mansub deb hisoblangan nechta tur o'simlik ham ba'zan maklyuraga kiritiladi? **12 ta tur o'simlik ham ba'zan maklyuraga kiritiladi.**

4224. Ildizmevalilar, ildizmevalar nimasi ildizida bo'ladigan ekin (sabzavot)lar? **Iste'mol qilinadigan qismi (mevasi) ildizida bo'ladigan ekin.**

4225. Ildizmevalilarning nimasi g'oyat yirik bo'lishi bilan ajralib turadi? **Mevasi.**

4226. Ildizmevalilardan yapon turining og'irligi qancha kg ga boradi? **16 – 30 kg ga boradi.**

4227. Ildizmevalilardan yapon turining pastki bargları uzunligi necha m ga boradi? **1 m ga boradi.**

4228. Ildizmevalilarning ildizmevasida qanday moddalar to'planadi? **Shakar (qand lavlagi, bryukva), inulin (sachratqi), kraxmal (qatron), vitaminlar (sabzi, sholg'om, rediska) to'planadi.**

4229. Ildizmevalilar qanday yerlarda mo'l hosil beradi? **Yaxshi ishlov berilgan, unumdor, namgarchilik yetarli yerlarda mo'l hosil beradi.**

4230. Ilmiy tabobatda sallagul o'simligining ildizidan tayyorlangan eritma qaysi kasalliklarni davolashda tavsiya qilinadi? **Uyqusizlikka va har xil kelib chiqishiga ega bo'lgan asab kasalliklarini davolashda tavsiya qilinadi.**

4231. Iloncho'p qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Govzibondoshlar (govzibongullilar) oilasiga mansub bir yillik o'tlar turkumi.**

4232. Iloncho'p o'simligining qancha turi ma'lum? **100 ga yaqin turi ma'lum.**

4233. Iloncho'p o'simligining nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **1 ta turi – dorivor iloncho'p uchraydi.**

4234. Iloncho'p o'simligining bo'yi necha sm? **80 sm.**

4235. Iloncho'p o'simligi tarkibida nimalar bor? **Alkaloidlar, bo'yoq va boshqa moddalar, urug'ida yog' bor.**

4236. Iloncho'p o'simligi xalq tabobatida nimalarni davolash uchun ishlatiladi? **Xalq tabobatida quritilmagan bargi ezilib, yaralarni davolash uchun ishlatiladi.**

4237. Iloncho'p o'simligi O'zbekistonning qayerlarida o'sadi? **Adir, cho'l va tog' yonbag'irlarida o'sadi.**

4238. Iloq qaysi oilaga mansub ildizpoya, necha yillik o't? **Hiloldoshlar oilasiga mansub ildizpoya ko'p yillik o't.**

4239. Iloq o'simligining bo'yi necha sm? **15 – 20 sm.**

4240. Iloq o'simligi qaysi oyda ko'karadi? **Fevral oyida ko'karadi.**

4241. Iloq o'simligi qaysi oyda gullaydi? **Mart oyida.**

4242. Iloq o'simligi qaysi oyda pishadi? **May oyida pishadi.**

4243. Iloq o'simligi, asosan, qanday yo'l bilan ko'payadi? **Vegetativ yo'l bilan ko'payadi.**

4244. Iloq o'simligi to'yimli oziqa bo'lib, tarkibida (gullash davrida) necha foiz oqsil bo'ladi? **20 foiz oqsil bo'ladi.**

4245. Iloq o'simligining tarkibida necha foiz moy bor? **3,1 foiz moy bor.**

4246. Iloq o'simligining tarkibida necha foiz kletchatka bo'ladi? **24,4 foiz kletchatka bo'ladi.**

4247. Iloq o'simligi Qizilqum o'tloqlarida qo'ylar bahorgi ovqatining necha foizini tashkil qiladi? **85 foizini tashkil qiladi.**

4248. Iloq o'simligi Qizilqum o'tloqlarida qo'ylar yozgi ovqatining necha foizini tashkil qiladi? **70 foizini tashkil qiladi.**

4249. Iloq o'simligining poyasi necha qirrali? **Uch qirrali.**

4250. Iloq o'simligining barglari qanday? **Ensiz.**

4251. Iloq o'simligining gullari qanday? **Ko'rimsiz.**

4252. Iloq o'simligining mevasi rangi qanday? **Qo'ng'ir.**

4253. Iloq o'simligining ildizpoyasi necha sm chuqurlikka joylashib, har necha sm dan poya chiqaradi? **10 – 20 sm chuqurlikka joylashib, har 10 – 20 sm dan poya chiqaradi.**

4254. Iloq o'simligi nima uchun qumni ko'chmaydigan qiladi? **Chunki iloq o'ismligi qalin va chigal to'r hosil qilib, qumni ko'chmaydigan qiladi.**

4255. I. V. Michurin o'simliklarning yashash sharoitini o'zgartirish, parvarish qilish va chatishtirish yo'li bilan meva rezavor o'simliklarning nechtacha navini yetishtirgan? **300 tacha navini yetishtirgan.**

4256. Ingichka tolali g'o'za, uzun tolali g'o'za necha mm va undan uzun tola beradigan g'o'zalar? **37 – 42 mm va undan uzun.**

4257. Ingichka tolali g'o'zaga, asosan, qaysi turga mansub navlar kiradi? **Gossypium bardadense L. turiga mansub navlar kiradi.**

4258. Ingichka tolali g'o'zalar jahonda paxta tolasi ishlab chiqarishda qaysi tolali g'o'zalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi? **O'rta tolali g'o'zalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi.**

4259. Ingichka tolali g'o'za qaysi mamlakatlarda katta maydonlarga ekiladi? **O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Misr, Sudan, Peru, Shimoliy Braziliya, Nigeriya, AQSh da katta maydonlarga ekiladi.**

4260. Ingichka tolali g'o'za O'zbekiston Respublikasining qaysi viloyatlarida yetishtiriladi? **Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Andijon, Namangan viloyatlarida yetishtiriladi.**

4261. Ingichka tolali g'o'zaning asosiy tezpishar navlari qaysilar? **Quyidagilar Termiz 24, Termiz 31, 6249-V, 9883-I, 9871-I, S-6037, 6465-V va boshq. (2002).**

4262. Ingichka tolali g'o'za fenologik rivojlanish fazalarini o'tishi uchun qancha ° C dan ortiq samarali harorat yig'indisini talab qiladi? **2100° C – 2200° C dan ortiq harorat yig'indisini talab qiladi.**

4263. Ingichka tolali g'o'zada vegetatsiya davri necha kundan necha kungacha va undan ham ko'proqqa cho'ziladi? **110 – 120 kundan 180 – 200 kunga va undan ham ko'proqqa cho'ziladi.**

4264. Ingichka tolali g'o'za bo'yi necha sm? **60 – 130 sm.**

4265. Ingichka tolali g'o'zasi poyasi qanday va qanday o'sadi? **Mustahkam va tik o'sadi.**

4266. Ingichka tolali g'o'za poyasining rangi qanday? **Yashil, kuzga borib qizg'ish-jigarrang tusga kiradi.**

4267. Ingichka tolali g'o'za barglari qanday? **Yirik, qalin.**

4268. Ingichka tolali g'o'za barglarining rangi qanday? **To'q yashil.**

4269. Ingichka tolali g'o'za barglari bo'lmalari shakli qanday? **Uzunchoq uchburchakli.**

4270. Ingichka tolali g'o'za ko'saklari qanday? **Maydaroq.**

4271. Ingichka tolali g'o'za ko'saklarining ko'pchiligi qanday shaklda? **Cho'zinchoq tuxumsimon-konus shaklda.**

4272. Ingichka tolali g'o'zalari uchi qanday? **O'tmas yoki o'tkir.**

4273. Ingichka tolali g'o'za ko'saklari necha chanoqli? **3 – 5 chanoqli.**

4274. Ingichka tolali g'o'za ko'sagidan qancha g paxta chiqadi? **3 – 4,2 g, ba'zan 4,5 – 5 g paxta chiqadi.**

4275. Ingichka tolali g'o'za paxtasining chigitlari qanday? **Yirik, tuksiz, siyrak tukli yoki sertuk.**

4276. Ingichka tolali g'o'za chigitlari tuki rangi qanday? **Och yashil yoki kulrang.**

4277. Ingichka tolali g'o'zaning 1000 dona chigiti og'irligi qancha g? **110 – 140 g.**

4278. Ingichka tolali g'o'za tolasi rangi qanday? **Yaltiroq, och sariq yoki oq.**

4279. Ingichka tolali g'o'za paxtasidan necha foiz tola chiqadi? **28 – 36 foiz tola chiqadi.**

4280. Ingichka tola g'o'za paxtasi tolasidan (I, II, III tipli) yuqori sifatli nimalar tayyorlanadi? **Nafis gazlamalar, pishiq texnika buyumlari tayyorlanadi.**

4281. Ingichka tolali g'o'za seleksiyasi ho'yicha ishlar O'rta Osiyoda qachon boshlangan? **1920-yillar o'rtalarida boshlangan.**

4282. Ingichka tolali g'o'za navlarini yetishtirishga oid ishlar nechanchi yildan Vaxsh vodiysi (Tojikiston). keyinchalik hozirgi O'zbekiston g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutida, Farg'ona seleksiya stantsiyasi va boshq. tajriba stansiyalarida Misr g'o'zasidan olib borilgan? **1926-yildan, 1930-yildan.**

4283. Indikator o'simliklar qanday o'simliklar? **Muayyan ekologik sharoit bilan bevosita bog'liq o'simliklar (yoki ular guruhi). Indikator o'simliklarning biror joyda o'sishiga qarab o'sha joyda tavsif berish mumkin. Masalan, bug'doyboshlarning ayrim turlari (Festula ovina, Agrostis tennus va boshqalar) - tuproqda qo'rg'oshin borligi; gunafshadoshlar – rux; burchoqdoshlarning ayrim turlari-selen; ko'pchilik g'allasimon o'simliklar va yo'sinlar – mis va kobalt; yantoq – yer osti chuchuk suvlari; oqbosh, sho'rajriq va sho'radoshlar oilasining ko'pchilik turlari tuproq sho'rlanishining indikatori hisoblanadi.**

4284. Indov, eruka qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Buttguldoshlar (butsimonlar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

4285. Indov o'simligining qayerlarda nechta turi uchraydi? **Yevropaning janubi, Kavkaz, G'arbiy Sibir, Shimoliy va Sharqiy Afrikada 5 – 6 ta turi uchraydi.**

4286. Indov o'simligining qayerlarda moyli ekin sifatida qaysi turi ekma ekiladi? **Kichik Osiyo, Efiopiya, Hindsiton, O'rta Osiyoda E. sativa turi ekma ekiladi.**

4287. Indov o'simligi ayni paytda qayerlarda begona o't hisoblanadi? **O'rta Osiyo va Sibirda begona o't hisoblanadi.**

4288. Indov o'simligining urug'i tarkibida qanday moddalar bor? **26 – 35 foiz chala quriydigan moy, glyukoerutsin glikozidi, bargida flavoin glikozidi va boshq. bor.**

4289. Indov o'simligining bo'yi necha sm? **20 – 80 sm.**

4290. Indov, eruka o'simligi qanday ekin? **Moyli ekin.**

4291. Indov o'simligining mevasi qanday urug'li? **Ko'p urug'li.**

4292. Indov o'simligining mevasi uzunligi necha mm li qo'zoqcha? **20 – 25 mm li.**

4293. Indov o'simligining mevasi uchun uzun qaysi a'zosi bor? **Burunchasi bor.**

4294. Indov o'simligining mevasi necha qirrali? **To'rt qirrali.**

4295. Indov o'simligining urug'i qanday? **Mayda.**

4296. Indov o'simligining urug'i rangi qanday? **Yashil, kulrang.**

4297. Indov o'simligining urug'i uzunligi necha mm? **2 – 3 mm.**

4298. Indov o'simligining urug'i eni necha mm? **1,2 – 1,5 mm.**

4299. Indov o'simligining 1000 dona urug'i og'irligi qancha g? **2,5 – 3,5 g.**

4300. Indov o'simligi qachon ekiladi? **Erta bahorda ekiladi.**

4301. Indov o'simligi qachon gullaydi? **Aprel oxiri – mayda gullaydi.**

4302. Indov o'simligining mevasi qachon etiladi? **Iyul – avgust oylarida etiladi.**

4303. Indov o'simligi ilgari O'zbekistonda qanday yerlarda nima olish uchun ko'p ekilgan? **Lalmi yerlarda moy olish uchun ko'p ekilgan.**

4304. Indov o'simligining moyi qanday? **Qoramtir o'tkir hidli, taxir, suyuq.**

4305. Indov o'simligining moyi qaysi sanoatlarda ishlatiladi? **Indov moyi qoramtir, o'tkir hidli, taxir, suyuq bo'lib, ko'nchilik, oziq-ovqat, to'qimachilikda hamda lok-bo'yoq sanoatlarida ishlatiladi.**

4306. Indov o'simligining moyi nima ishlab chiqarishda ishlatiladi? **Sovun ishlab chiqarishda ishlatiladi.**

4307. Indov o'simligi tabobatda nima uchun qo'llaniladi? **Urug'i ishtaha ochish va yaralarni (moyi qo'tirni) davolash uchun qo'llaniladi.**

4308. Insonning bir kunlik ovqat ratsionida sabzavot qancha g ni tashkil etishi kerak? **600 g ni tashkil etishi kerak.**

4309. Introduktsiya nima? **O'simlik turlari yosh navlarini tabiiy sharoitda boshqa mamlakatlar va viloyatlarda ekib iqlimlashtirish Introduktsiya.**

4310. Ipak qaysi oilaga mansub ildizpoyali ko'p yillik o't? **Hiloldoshlar (hilolgullilar) oilasiga mansub ildizpoyali ko'p yillik o't.**

4311. Ipak o'simligining bo'yi necha sm? **15 – 20 sm.**

4312. Ipak o'simligining poyasi necha qirrali? **Poyasi uch qirrali.**

4313. Ipak o'simligining tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **20 foizgacha oqsil, 3,1 foiz moy, 24,4 foiz kletchatka bor.**

4314. Ipekakuana qaysi oilaga mansub doim yashil buta? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub doim yashil buta.**

4315. Ipekakuana butasi qayerlarda o'sadi? **Braziliya, Boliviya va Kolumbiyaning nam tropik o'rmonlarida o'sadi.**

4316. Ipekakuana butasining bo'yi necha sm? **15-60 sm.**

4317. Ipekakuana butasining poyasidan qanday alkaloidlar olinadi? **Emetin, psixotrik, tsefaelin va boshqa alkaloidlar olinadi.**

4318. Ipekakuana butasining tarkibida qanday moddalar bor? **Alkaloidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.**

4319. Ipekakuana butasining quritilgan ildizidan nima degan qustiruvchi dori tayyorlanadi? **Ipekakuana degan dori tayyorlanadi.**

4320. Ipekakuana butasining ildizi qanday hidli? **Ildizi ko'ngil aynatuvchi yoqimsiz hidli.**

4321. Ipekakuana degan dorining kichik dozasi qanday bezlar funksiyasini kuchaytiradi? **Bronxial bezlar.**

4322. Ipekakuana o'simligi nimani suyultiradi? **Balg'amni suyultiradi.**

4323. Ipekakuana o'simligining quritilgan ildizi qanday dori sifatida ko'proq ishlatiladi? **Balg'am ko'chiruvchi sifatida ko'proq ishlatiladi.**

4324. Ipekakuana o'simligi qaysi zonalarda ekiladi? **Tropik zonalarda ekiladi.**

4325. Ipor, ufor, muskus nima? **Ba'zi hayvonlarning bezlaridan va o'simliklardan olinadigan xushbo'y modda.**

4326. Ir qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Kuchaladoshlar (kuchalagullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

4327. Ir o'simligining ildizpoyasidan qanday moy olinadi? **Efir moyi olinadi.**

4328. Ir o'simligining ildizpoyasi qayerda ishlatiladi? **Qandolatchilikda ishlatiladi.**

4329. Irg'ay qaysi oilaga mansub butalar turkumi? **Ra'nogulldoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub butalar turkumi.**

4330. Irg'ay o'simligining O'zbekistonda nechta turi ma'lum? **6 ta turi ma'lum.**

4331. Irg'ay o'simligining mevasi necha danakli? **2 danakli.**

4332. Irg'ay o'simligining qaysi qit'alarda qancha turi bor? **Yevropa, Osiyo va Afrikada 100 dan ortiq turi bor.**

4333. Irg'ay o'simligining ko'pchilik turi qayerlardagi tog'larda o'sadi? **Kavkaz, O'rta Osiyo va Sibir tog'larida o'sadi.**

4334. Irg'ay o'simligi qayerlarda o'sadi? **Cho'l va adirlarda, toshloq yonbag'irlarida o'sadi.**

4335. Irg'ay o'simligining qaysi turi manzarali o'simlik sifatida ekiladi? **C. melanocarpa turi manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

4336. Isiriq qaysi oilaga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi? **Isiriqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

4337. Isiriq o'simligining nechta turi ma'lum? **6 ta turi** ma'lum.

4338. Isiriq o'simligining O'zbekistonda nechta turi o'sadi? **Bitta turi (P. harmala) o'sadi.**

4339. Isiriq necha yillik o'tsimon o'simlik? **Ko'p yillik o'tsimon o'simlik.**

4340. Isiriq o'simligining bo'yi necha sm? **60 – 70 sm.**

4341. Isiriq o'simligining o'qildizi necha m chuqurlikkacha ketadi? **3 m chuqurlikkacha ketadi.**

4342. Isiriq o'simligining poyasi nechta, qanday? **Bir nechta, sershox.**

4343. Isiriq o'simligining barglari qanday? **Kulrang yoki yashil.**

4344. Isiriq o'simligining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

4345. Isiriq o'simligining changchilari qancha (ko'pmi yoki kammi)? **Ko'p.**

4346. Isiriq o'simligining gullari qanday tusda? **Och sariq tusda.**

4347. Isiriq o'simligining gullari shoxining qayerida? **Uchida.**

4348. Isiriq o'simligining mevalari qanday shaklli chanoqcha? **Sharsimon shaklli chanoqcha.**

4349. Isiriq o'simligi qaysi hududlarda uchraydi? **Yevropa qismining janubiy mintaqasida, Kavkazda, O'rta Osiyoning barcha hududlarida uchraydi.**

4350. Isiriq o'simligi qaysi oylarda gullaydi va yig'ib olinadi? **May-iyun oylarida gullaydi va yig'ib olinadi.**

4351. Isiriq o'simligining urug'lari qaysi oydan to qaysi oygacha pishaveradi? **Iyul oyining oxiridan to avgust oyigacha pishaveradi.**

4352. Isiriq o'simligining qaysi a'zosi zaharli? **Hamma a'zolari zaharli.**

4353. Isiriq o'simligining qismlarida necha foizgacha, urug'larida necha foizgacha alkaloidlar, garmin, garmalin bo'ladi? **1,5 foizdan 6 foizgacha, 14,5 foizgacha alkaloidlar, garmin, garmalin bo'ladi.**

4354. Isiriq o'simligining tarkibida qanday moddalar bor? **Alkaloidlar (garmin, garmanin, peganin va boshqalar; yog', bo'yoq va boshqa moddalar) bor.**

4355. Isiriq o'simligi tarkibida qanday moddalar bor? **Yog', bo'yoq va boshq. moddalar bor.**

4356. Isiriq o'simligining gullarida qanday alkaloidlar bor? **Peganin garmol, garmonin alkaloidlari bor.**

4357. Isiriq o'simligi tarkibida qanday alkaloidlar bor? **Garmin, garmalin, peganin va boshq. alkaloidlar bor.**

4358. Isiriq o'simligidan qaysi alkaloid olinadi? **Garlin alkaloidi olinadi.**

4359. Isiriq o'simligining urug'larida qanday moddalar bor? **Moy, bo'yoq moddalari bor.**

4360. Isiriq o'simligining urug'idan jun gazlama va shoyilar uchun nima olinadi? **Bo'yoq olinadi.**

4361. Isiriq o'simligi tabobatda qanday kasallikni davolashda qanday dori sifatida ishlatiladi? **Tutqanoq, tomoq og'rig'i, zaxmni davolash; siydik haydovchi, terlatuvchi dori sifatida ishlatiladi.**

4362. Isiriq o'simligi tabobatda qanday vosita sifatida ishlatiladi? **Siydik haydovchi, terlatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.**

4363. Isiriq o'simligi shirasi qaysi kasalliklarni davolaydi? **Siydikni haydaydi, xayzni tezlatadi. Bundan tashqari, taloq, ichak, bavosil kasalliklarini davolaydi.**

4364. Isiriq o'simligining qaynatmasi O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarga tavsiya qilinadi? **Quyonchiq, nevrasteniya, zaxm, bezgakda, me'da-ichak yo'li kasalliklari, tish og'rig'i, astma, mastopatiyada, mijoz sustligida tavsiya etiladi.**

4365. Isiriq o'simligining qaynatmasidan O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarda va qaysi kasallikning oldini olishda foydalaniladi? **Terlatuvchi va gijja tushiruvchi vosita sifatida hamda gripp kasalligining oldini olish uchun foydalaniladi.**

4366. Isiriq o'simligi va urug'lari qaysi a'zo og'rig'iga qarshi tutatqi qilinadi? **Bosh og'rig'iga qarshi tutatqi qilinadi.**

4367. Isiriq o'simligining shirasi qaysi kasallikka davo bo'ladi? **Katarakta kasalligiga davo bo'ladi.**

4368. Isiriq o'simligining urug'i, zig'ir yoki kunjut urug'i qaynatmasi bilan qaysi kasalliklarni davolaydi? **Astmani, nafas qisishini va revmatizmni davolaydi.**

4369. Isiriq o'simligining urug'i qanday vosita sifatida qo'llaniladi? **Tinchlantiruvchi, safro haydovchi, siydik haydovchi va terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.**

4370. Isiriq o'simligining yer ustki qismidan tayyorlangan choy qaysi kasalliklarda ichiladi? **Nevrasteniyada, tutqanoqda, buyrak kasalliklarida ichiladi, og'iz va milklar shamollashida og'iz chayiladi.**

4371. Isiriq o'simligining qaynatmasi va dimlamasi qanday xususiyatga va xossalarga ega? **Bakteriyalarni qirish xususiyatiga, garminalkaloidi markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi xossalarga ega.**

4372. Isiriq o'simligi nima olishni yaxshilaydi va qaysi a'zolarni bo'shashtiradi? **Nafas olishni yaxshilaydi, ichak, bachadon, yurak muskullarini bo'shashtiradi.**

4373. Isiriq o'simligi xalq xo'jaligida zararli hasharotlarni qirishda nima sifatida qo'llaniladi? **Insektitsid sifatida qo'llaniladi.**

4374. Isiriq o'simligidan olingan deroksipechanik gidroxlorid preparati qaysi tizimi va a'zolar faoliyatini yaxshilaydi? **Markaziy asab tizimi hamda oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi.**

4375. Isiriq o'simligidan tayyorlangan vannalarni xalq tabobatida qanday kasalliklarga vosita sifatida tavsiya qilinadi? **Revmatik artritlar, qo'tirlash kasalliklari, bezgak, nevrasteniya, quyonchiq kasalligida, shuningdek, uxlatuvchi va og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida tavsiya qilinadi.**

4376. Isiriq o'simligining urug'laridan hind tabobatida qaysi a'zolarni tinchlantiruvchi, nimani haydovchi, nimani tushiruvchi, nimani kuchaytiruvchi vosita sifatida, shuningdek, qaysi kasallikka qarshi foydalaniladi? **Asablarni tinchlantiruvchi, siydik haydovchi, haroratni tushiruvchi, mijozni kuchaytiruvchi vosita sifatida, shuningdek, bronxial astmada foydalaniladi.**

4377. Isiriq o'simligi qanday maqsadda uy-joylarga tutatib qo'yiladi? **Dezinfektsiyalash maqsadida uy-joylarga tutatib qo'yiladi.**

4378. Isiriq o'simligidan qaysi hakim belangi va bod kasalliklariga davo qilishda og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida foydalangan? **Abu Ali ibn Sino foydalangan.**

4379. Isiriq o'simligidan tayyorlangan qaynatmasi qanday kasallikda vosita sifatida, shuningdek, qanday kasalliklar vaqtida ishlatiladi? **Jarohatlar bitishini tezlashtiruvchi vosita sifatida, shuningdek, muskul og'riqlari, falajlar vaqtida ishlatiladi.**

4380. Isiriq bilan zig'irning teng miqdorda olingan aralashmasidan tayyorlangan qaynatma qanday kasalliklarda ishlatiladi? **Nafas qisishida, astmada, qalampir bilan birgalikda zahmda, bod kasalligida ishlatiladi.**

4381. Isiriq o'simligidan tayyorlangan "peganin" degan preparat miasteniyada qanday vosita, shuningdek, qanday dori sifatida ishlatiladi? **Antixolinesteraz vosita, shuningdek, surgi dori sifatida.**

4382. Isiriq o'simligi tarkibidagi garmin alkaloidi qaysi a'zolarni tinchlantiruvchi va uxlatuvchi, shuningdek, qanday jonivorlarni o'ldiruvchi ta'sir ko'rsatadi? **Asablarni tinchlantiruvchi va uxlatuvchi, shuningdek, hasharotlarni o'ldiruvchi ta'sir ko'rsatadi.**

4383. Isiriq o'simligidan olingan garmin alkaloidlari tuzlari qaysi kasalliklarning asoratlarini tugatishda qo'llaniladi? **Paralich va parkinson kasalliklarining asoratlarini tugatishda qo'llaniladi.**

4384. Issiqxona (teplitsa) ekinlariga qaysi ekinlar kiradi? **Qovoqdoshlar, tomatdoshlar, butguldoshlar, soyabonguldoshlar, piyozguldoshlar, murakkabguldoshlar, sho'ragulldoshlar, dukkakdoshlar, toronguldoshlarga mansub o'simliklar, shuningdek, shampinon zamburug'i kiradi.**

4385. Ismaloq qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub bir yoki ikki yillik o'simliklar turkumi.**

4386. Ismaloq o'simligining qaysi turi qayerlarda sabzavot sifatida o'stiriladi? **S. oleracea L. turi AQSh, Kanada, Yevropada, jumladan, O'zbekistonda o'stiriladi.**

4387. Ismaloq o'simligining qaysi turi ekinzorlardan va tog' yonbag'irlaridagi o'tloqlarda begona o't tarzida uchraydi? **Cho'chqatikan (S. turkesnanica iljin) turi begona o't tarzida uchraydi.**

4388. Ismaloq necha jinsli o'simlik? **Ikki jinsli (aksariyat, ikki uyli) o'simlik.**

4389. Ismaloq o'simligining cho'chqatikan (S. turkestanica Iljin) turining bo'yi necha sm? **60 sm.**

4390. Ismaloq o'simligi dalaga qachon ekiladi? **Erta bahorda ekiladi.**

4391. Ismaloq o'simligi unib chiqqandan keyin necha kunda urug'i yetiladi? **90 – 100 kunda yetiladi.**

4392. Ismaloq o'simligi urug'i dalaga ekilgandan keyin necha kunda ko'karib chiqadi? **3 – 4 kunda ko'karib chiqadi.**

4393. Ismaloq o'simligi unib chiqqandan keyin necha kunda barglari iste'molga tayyor bo'ladi (ovqatga ishlatiladi)? **30 – 45 kunda tayyor bo'ladi (ovqatga ishlatiladi).**

4394. Ismaloq o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **150 – 300 s/ga.**

4395. Ismaloq o'simligi minus qancha ^{0} C haroratga chidamli? **Minus 8^0 C – 9^0 C haroratga chidamli.**

4396. Ismaloq o'simligi tarkibida qaysi modda bor? **Karotin moddasi bor.**

4397. Ismaloq o'simligining tarkibida qaysi vitaminlar bor? **B_1, B_2, C vitaminlari bor.**

4398. Ismaloq o'simligining tarkibida qanday moddalar bor? **Karotin, organik kislotalar bor.**

4399. Ismaloq o'simligi tarkibida qanday kislotalar bor? **Organik kislotalar bor.**

4400. Ismaloq o'simligi xalq tabobatida qanday dori sifatida hamda qaysi kasalliklarga qo'llaniladi? **Siydik haydovchi dori sifatida hamda kamqonlik, raxit kasalliklariga qo'llaniladi.**

4401. Ismaloq o'simligining bargidan gidrolizlab olingan maxsus oqsil modda tibbiyotda qaysi a'zo faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi? **Me'da osti bezi faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.**

4402. Ismaloq o'simligining qaysi a'zolari shifobaxsh hisoblanadi? **Barglari, urug'i va ildizlari shifobaxsh hisoblanadi.**

4403. Ismaloq o'simligining qaysi a'zosi qaynatmasi asab sistemasi buzilganda tinchlantiruvchi vosita sifatida ichib turiladi? **Bargi qaynatmasi asab sistemasi buzilganda tinchlantiruvchi vosita sifatida ichib turiladi.**

4404. Ismaloq o'simligining barglari bahorda vitaminlarga boy bo'lib, undan qanday taomlar tayyorlanadi? **Somsa, sho'rva va boshqa taomlar tayyorlanadi.**

4405. Ispaniyadagi Malorka oroli (Balear orollari)dagi qaysi shahar nomi bilan ataluvchi, tropik va qisman subtropiklarda o'sadigan bir pallali daraxtsimon o'simlikning nomi nima? **Palma shahri nomi bilan ataluvchi, tropik va qisman subtropiklarda o'sadigan bir pallali daraxtsimon o'simlikning nomi.**

4406. Isparak, isfarak qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Ayiqtovondoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

4407. Isparakning bo'yi necha sm? **35 – 70 sm.**

4408. Isparakning bo'g'iz barglari qanday bandli? **Uzun bandli.**

4409. Isparak bo'g'iz barglarining poyasidagilari qanday? **Bandsiz.**

4410. Isparakning bargi ustma-ust necha qismga, har bir qismi esa necha bo'lakka bo'lingan? **Besh qismga, har bir qismi esa uch bo'lakka bo'lingan.**

4411. Isparakning gullari rangi qanday? **To'q sariq.**

4412. Isparakning gullari qayerga yig'ilgan? **Ro'vaksimon to'pgulga yig'ilgan.**

4413. Isparak sirtqi tojbargining nechtasi pixli? **Bittasi pixli.**

4414. Isparakning mevasi nechta mevabargdan hosil bo'lgan? **Bitta mevabargdan hosil bo'lgan.**

4415. Isparak qachon gullaydi? **May oyining oxirlarida gullaydi.**

4416. Isparak mevasi qaysi oyda pishadi? **Iyul oyida pishadi.**

4417. Isparakning poyasi va barglari qaysi oyda quriydi? **Avgust oyida quriydi.**

4418. Isparakning qaysi a'zosidan aholi ipak, jun va ip gazlamalarni qanday rangga bo'yashda foydalanadi? **Gulidan sariq rangga bo'yashda foydalanadi.**

4419. Isparakning poyasi va barglarida necha foiz alkaloidlar bor? **Poyasi va barglarida 0,07 foiz bor.**

4420. Isparakning mevasi po'stida necha foiz delsemin va boshq. alkaloidlar bor? **0,56 foiz.**

4421. Isparakning urug'ida necha foiz delsemin va boshq. alkaloidlar bor? **0,11 foiz delsemin va boshq. alkaloidlar bor.**

4422. Isparakning ildizida necha foiz delsemin va boshq. alkaloidlar bor? **0,13 foiz delsemin va boshq. alkaloidlar bor.**

4423. Isparakdan qaysi hayvonlar zaharlanadi? **Qo'y, echki va otlar zaharlanadi.**

4424. Isparakning gulidan qaysi hayvon zaharlanadi? **Qoramol zaharlanadi.**

4425. Isparakning poya va barg qaynatmasi xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Turli shishlarni davolashda ishlatiladi.**

4426. Isparakning kulidan xalq tabobatida qanday kasalliklarni davolashda foydalaniladi? **Qo'tir va ekzemani davolashda foydalaniladi.**

4427. Isparak O'rta Osiyoning qayerlarida, asosan, qanday tuproqli yonbag'irlarida o'sadi? **Tog' etaklari va adirlarida, asosan, bo'z tuproqli yonbag'irlarida o'sadi.**

4428. Isparakning gulidan aholi qanday maqsadda foydalanadi? **Ipak, jun va gazlamalarni sariq ranga bo'yashda foydalaniladi.**

4429. Ispolin olxo'risi, Vengerka, Jaynet Pryun serhosil qaysi mevali o'simlik navi? **Olxo'ri navi.**

4430. Ispolin navli olxo'ri qayerda qaysi olim tomonidan yaratilgan (yetishtirilgan)? **L. Berbank tomonidan AQSh (Kaliforniya)da yaratilgan.**

4431. Ispolin navli olxo'ri O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Hamma viloyatlarida ekiladi.**

4432. Ispolin olxo'risi daraxti qanday? **Baland, sershox.**

4433. Ispolin olxo'risi daraxtining barglari qanday? **Yirik.**

4434. Ispolin olxo'ri daraxtining gullari qanday? **Yirik.**

4435. Ispolin olxo'risining gullari qanday rangli? **Oq rangli.**

4436. Ispolin olxo'risi daraxti mevasi qanday? **Yirik.**

4437. Ispolin olxo'risi daraxti mevasi bir donasining og'irligi qancha g? **40 – 50 g.**

4438. Ispolin navli olxo'ri qayerdan changlanadi? **O'zidan changlanadi.**

4439. Ispolin olxo'risi mevasi rangi qanday? **To'q qizil.**

4440. Ispolin navli olxo'ri tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **17,4 – 25,5 foiz quruq modda, 10,3 – 14,3 foiz qand kislota, karotin, C vitamini bor.**

4441. Ispolin olxo'ri qachon pishadi? **Avgust oyining oxirida pishadi.**

4442. Ispolin olxo'risi qanday maydonlarda yaxshi hosil beradi? **Sug'oriladigan maydonlarda yaxshi hosil beradi.**

4443. Ispolin olxo'risi ko'chati ekilgandan so'ng nechanchi yili hosilga kiradi? **4-yili hosilga kiradi.**

4444. Ispolin olxo'risining bir tup daraxti qancha kg gacha meva beradi? **100 kg gacha meva beradi.**

4445. Ispolin olxo'risi daraxti necha yilgacha yaxshi hosil beradi? **30 yilgacha yaxshi hosil beradi.**

4446. Ispolin olxo'ri daraxti nimalarga chidamli? **Sovuqqa, zararkunanda va kasalliklarga chidamli.**

4447. Ispolin olxo'risining mevasi yangiligida nima qilinadi, nima solinadi, nimalar tayyorlanadi? **Yeyiladi, qoqi solinadi, kompot, murabbo tayyorlanadi.**

4448. Istod qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Istoddoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

4449. Istod o'simligi O'zbekistonda ko'pincha qayerlarda o'sadi? **Tog' yon bag'irlarida, o'tloqlarda o'sadi.**

4450. Istod o'simligining O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **1 ta turi uchraydi.**

4451. Istod o'simligining ildizi tarkibida qanday moddalar bor? **Saponin, oshlovchi moddalar bor.**

4452. Istod o'simligining qaysi turlari dorivor hisoblanadi? **Sibir (P. sibirica) va ensiz bargli istod (P. tennifolia) turlari dorivor hisoblanadi.**

4453. Istod o'simligining ildizi preparatlari qanday maqsadda ishlatiladi? **Preparatlari balg'am ko'chiruvchi sifatida ishlatiladi.**

4454. Istod o'simligining bo'yi necha sm? **35 sm.**

4455. Istod o'simligining mevasi qanday? **Ko'sak.**

4456. Isfarak jaydari qaysi mevali o'simlik navi? **O'rik navi.**

4457. Isfarak navli o'rikning qanday xillari bor? **Qizil isfarak, Oq isfarak, Rodom isfarak, Chiroyli Isfarak va boshq. xillari bor.**

4458. Isfarak navli o'rik daraxti qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

4459. Isfarak navli o'rik daraxti shox-shabbasi qanday bargli? **Serbargli.**

4460. Isfarak navli o'rik daraxti mevasining o'rtacha og'irligi qancha g? **25 – 30 g.**

4461. Isfarak navli o'rikning shakli qanday? **Dumaloq.**

4462. Isfarak navli o'rik rangi qanday? **Sarg'ish.**

4463. Isfarak navli o'rik po'sti qanday? **Yupqa, sertuk, eti semiz.**

4464. Isfarak navli o'rik tarkibida qand necha foiz? **14 – 16 foiz.**

4465. Isfarak navli o'rik eti danagidan qanday ajraladi? **Oson ajraladi.**

4466. Isfarak navli o'rik daraxti qaysi oyda gullaydi? **Mart oyida gullaydi.**

4467. Isfarak navli o'rik daraxti qayerdan, shuningdek, qaysi navlar bilan yaxshi changlanadi? **O'zidan, shuningdek, Subxoni, Arzami, Xurmo navlari bilan yaxshi changlanadi.**

4468. Isfarak navli o'rik ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yilda hosilga kiradi? **3 – 4-yilda hosilga kiradi.**

4469. Isfarak navli o'rik daraxti mevasi qachon pishadi? **Iyul oyining 2-yarmida pishadi.**

4470. Isfarak navli o'rik daraxtining mevalari bir vaqtda yetilmasdan, necha kunga cho'ziladi? **15 – 20 kunga cho'ziladi.**

4471. Isfarak navli o'rik daraxtining 30 – 40 yoshida tupidan qancha kg hosil olinadi? **300 – 400 kg hosil olinadi.**

4472. Isfarak navli o'rik daraxti mevasi, asosan, nima qilinadi? **Quritiladi.**

4473. Isfarak navli o'rik daraxti mevasidan nimalar pishiriladi? **Kampot, murabbo pishiriladi.**

4474. Isfarak navli o'rik ko'chati qaysi viloyatlarning qaysi hududlarida ekiladi? **Farg'ona, Andijon, Toshkent viloyatlarining tog'oldi hududlarida ekiladi.**

4475. Italiya qarag'ayining nomi nima? **Sanobar.**

4476. Italiya qarag'ayining vatani qayer? **Shimoliy Amerika** va **Meksika.**

4477. Itbinafsha, itgunafsha qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Sigirquyruqdoshlar (sigirquyruqgullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

4478. Itbinafsha o'simligi qaysi oyda gullaydi? **Aprel oyida gullaydi.**

4479. Itbinafsha o'simligi qaysi oyda urug'laydi? **May oyida urug'laydi.**

4480. Itbinafsha o'simligi qayerlarda uchraydi? **Adirlarda, ekinlar orasida uchraydi.**

4481. Itbinafsha o'simligining poyasi necha sm? **5 – 10 sm.**

4482. Itbinafsha o'simligining bargları shakli qanday? **Yurak-simon, tuxumsimon.**

4483. Itbinafsha o'simligining barg bandi qanday? **Juda qisqa.**

4484. Itbinafsha o'simligining yondosh barglari qanday? **Bandsiz, tekis qirrali, nashtarsimon.**

4485. Itbinafsha o'simligining to'pguli qanday shaklda? **Boshoqsimon shaklda.**

4486. Itbinafsha o'simligining gulbandi qanday? **Qisqa.**

4487. Itbinafsha o'simligining gultoji rangi qanday? **Och havorang.**

4488. Itbinafsha o'simligining mevasi nima? **Ko'sak.**

4489. Itbinafsha o'simligining mevasi qanday bezlar bilan qoplangan? **Tukli bezlar bilan bilan qoplangan.**

4490. Itbinafsha o'simligining mevasi necha urug'li? **15 – 20 urug'li.**

4491. Itbinafsha o'simligining urug'i qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

4492. Itbinafsha o'simligi qayerlarda o'sadi? **O'rta Osiyo, Rossiyaning Yevropa qismi, Kavkaz, G'arbiy Sibir, G'arbiy Yevropa, O'rta dengiz atroflari va Shimoliy Amerikada o'sadi.**

4493. Itbinafsha o'simligining boshqa o'tlar bilan o'rilganini mollar qanday yeyishadi? **Yaxshi yeyishadi.**

4494. Itburun qaysi oilaga mansub o'simlik? **Ra'noguldoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

4495. Itburun na'matak o'simligi (R. canina) mevasida necha foiz qaysi vitaminlar, moddalar bor? **4 – 6 foiz, ba'zan 18 foizgacha C, P, K, P vitaminlari, 18 mg foizcha karotin, 18 foizcha qand, 2 foizcha limon kislota, oshlovchi va boshq. moddalar bor.**

4496. Itelchek qaysi oilaga mansub buta? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasi-**

4497. [illegible]

4500. Itelchek o'simligi qayerlarda o'sadi? **Cho'l, chala cho'l va sho'r tuproqli yerlarda o'sadi.**

4501. Itelchek o'simligidan olinadigan anabazin sulfat qayerlarda ishlatiladi? **Qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashda ishlatiladi.**

4502. Itelchek o'simligi tarkibidagi anabazindan olinadigan metilabazin qanday dori sifatida qo'llaniladi? **Nafas markazini qo'zg'atuvchi dori sifatida qo'llaniladi.**

4503. Itjumrut qaysi oilaga mansub buta va daraxtlar turkumi? **Chilonjiydadoshlar (jumrutdoshlar) oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi.**

4504. Itjumrut o'simligining bo'yi necha m cha? **3,5 m cha.**

4505. Itjumrut o'simligining barglari qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

4506. Itjumrut o'simligining bargları qanday uchli? **O'tkir uchli.**

4507. Itjumrut o'simligining barglari cheti qanday? **Tishli.**

4508. Itjumrut o'simligining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

4509. Itjumrut o'simligining gullari qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

4510. Itjumrut o'simligining mevasi qanday? **Rezuvor.**

4511. Itjumrut o'simligining qancha turi ma'lum? **150 dan ortiq turi ma'lum.**

4512. Itjumrut o'simligining nechta turi O'zbekistonda o'sadi? **4 ta turi o'sadi.**

4513. Itjumrut o'simligining qaysi turlari O'zbekistonda keng tarqalgan? **Surgi itjumrut yoki tog'jumrut turi keng tarqalgan.**

4514. Itjumrut o'simligining mevasi tarkibida qanday moddalar bor? **Antraglikozidlar, flavonoidlar, qand, bo'yoq va boshq. moddalar bor.**

4515. Itjumrut o'simligining mevasi qaynatmasi, damlamasi qanday dori sifatida ishlatiladi? **Surgi dori sifatida ishlatiladi.**

4516. [illegible]

4519. Itkuchala o'simligining bargları rangi qanday? **Och yashil.**

4520. Itkuchala o'simligining bargları necha bo'lakli? **Uch bo'lakli.**

4521. Itkuchala o'simligining bargları uchi qanday? **O'tkir.**

4522. Itkuchala o'simligining bargları shakli qanday? **Nashtarsimon.**

4523. Itkuchala o'simligining barglari uzunligi necha sm? **6 – 10 sm.**

4524. Itkuchala o'simligining to'pguli shakli qanday? **Ro'vaksimon.**

4525. Itkucha o'simligining to'pguli uzunligi necha sm? **15 sm.**

4526. Itkucha qanday o'simlik? **Efemer (vegetatsiya davri qisqa) o'simlik.**

4527. Itkuchala o'simligi qaysi oylarda urug'laydi? **Aprel – may oylarida urug'laydi.**

4528. Itkuchala o'simligining mevasi qanday? **Etli, sersuv.**

4529. Itkuchala o'simligining mevasi rangi qanday? **Oq.**

4530. Itkuchala o'simligi tarkibida qanday moddalar bor? **Bo'yoq moddalari, tuganagida saponinlar bor.**

4531. Itkuchala o'simligi qaysi viloyatda keng tarqalgan? **Buxoro viloyatida keng tarqalgan.**

4532. Itkuchala o'simligi qayerlarda o'sadi? **Adirlarda va tog' etaklarida o'sadi.**

4533. Itkuchala o'simligi qayerlarda uchraydi? **Janubiy Pomir-Olay va G'arbiy Kapetdog'da uchraydi.**

4534. Itkuchala o'simligining tuganaklari xalq tabobatida qaysi kasallikka qarshi ishlatiladi? **Bod kasalligiga qarshi ishlatiladi.**

4535. Itog'iz qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Sigirquyruqdoshlar (sigirquyruqgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

4536. Itsigek qaysi oilaning bir nuro'i turkumiga mansub qanday buta? **Sho'radoshlar oilasiga mansub qandim turkumi.**

4539. Itsigek o'simligining guli qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

4540. Itsigek o'simligining mevasi qanday? **Rezavor.**

4541. Itsigek o'simligining mevasi necha urug'li? **Bitta urug'li.**

4542. Itsigek o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May-sentabr oylarida gullaydi.**

4543. Itsigek o'simligi qaysi oylarda meva tugadi? **Avgust-oktabr oylarida meva tugadi.**

4544. Itsigek o'simligi qayerlarda o'sadi? **Cho'l, yarim cho'l va sho'r tuproqli yerlarda o'sadi.**

4545. Itsigek o'simligi O'zbekistonda qanday tarqalgan? **Keng tarqalgan.**

4546. Itsigek bo'yi necha sm ga boradigan yarim butasimon o'simlik? **20 – 80 sm ga boradigan.**

4547. Itsigek o'simligining poyasi qanday (kamshoxmi yoki syershoxmi)? **Sershox.**

4548. Itsigek o'simligi qayerlarda uchraydi? **O'rta Osiyoning hamma hududlarida, Volganing quyi oqimlarida, Shimoliy Kavkazda, Ozarbayjonning sharqiy qismlarida uchraydi.**

4549. Itsigek o'simligining qaysi qismi zaharli? **Hamma qismi zaharli.**

4550. Itsigek o'simligining qaysi a'zosida alkaloidlar bor? **Barcha a'zosida alkaloidlar bor.**

4551. Itsigek o'simligining bir yilligida qaysi a'zolarida alkaloidlar eng ko'p (5 foizdan 12 foizgacha)? **Yashil poyalarida alkaloidlar eng ko'p (5 foizdan 12 foizgacha).**

4552. Itsigek o'simligining bir yilligida qaysi a'zolarida alkaloidlar kam bo'ladi? **Gullari bilan mevalarida alkaloidlar kam bo'ladi.**

4553. Itsigek o'simligi tarkibida qanday moddalar bor? **Anabazin alkaloidi, organik kislotalar va boshq. moddalar bor.**

4554. Itsigek o'simligidan qanday alkaloidlar ajratib olinadi? **Anabazin alkaloidlari ajratib olinadi.**

4556. Itsigek o'simligining ildizlari va yer ustki qismlaridan tayyorlangan qaynatma O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo qilish uchun, shuningdek, qanday mahallarda ishlatiladi? **O'pka sili, astmaga davo qilish uchun, shuningdek, qon ketar mahallarida ishlatiladi.**

4557. Itsigek o'simligining ildizlari va yer ustki qismlaridan tayyorlangan qaynatma O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo qilish uchun foydalaniladi? **Gush, qo'tir va boshqa teri kasalliklariga davo qilish uchun foydalaniladi.**

4558. Itsigek o'simligidan olinadigan anabazinning zamonaviy tabobatda farmanologik xossalari jihatidan qanday moddalarga yaqin turishi, ya'ni asab tuguniga ta'sir ko'rsatadigan zahar ekanligi tajriba yo'li bilan aniqlangan? **Nikotin, sitizin, lobelinga yaqin turishi aniqlangan.**

4559. Itsigek o'simligidan olinadigan anabazin fizik-kimyoviy xossalari jihatidan ham, farmanologik va toksik xossalari jihatidan ham qanday moddaga o'xshab ketadi? **Ayakotin moddasiga o'xshab ketadi.**

4560. Itsigek o'simligidan olinadigan anabazin vegeativ asab sistemasi sipokarotit koptokchalar, buyrak usti bezlari, gipofiz, somatik muskullar va markaziy asab sistemasining N-xolinoreaktiv gangliyalariga xuddi qaysi modda singari necha fazada ta'sir ko'rsatadi (bularni oldin qo'zg'atadi, keyin esa susaytirib qo'yadi)? **Nikotin moddasi singari ikki fazada ta'sir ko'rsatadi.**

4561. Itsigek o'simligidan olinadigan qaysi alkaloidlar nafasni jonlantiruvchi dori sifatida qo'llaniladi? **Metil anabazin, lupinin va boshqa alkaloidlar qo'llaniladi.**

4562. Itsigek o'simligi tarkibidagi PP vitamin qanday maqsadda kasalga ishlatiladi? **Og'riqni qoldirish maqsadida kasalga ishlatiladi.**

4563. Itsigek o'simligining quritilgan ko'k qismlaridan tayyorlangan kukuni qaysi a'zolarning et olib bitishini tezlashtirish uchun teri jarohatlari va yaralariga sepiladi? **To'qimalarning et olib bitishini tezlashtirish uchun teri jarohatlari va yaralariga sepiladi.**

4564. Ittikanak qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Qoqidoshlar oilasiga mansub bir yillik o'tlar turkumi.**

4565. Ittikanak o'simligining bo'yi necha sm? **15 – 60 sm.**

4566. Ittikanak o'simligining barglari shakli qanday? **Qanotsimon.**

4567. Ittikanak o'simligining barglari qanday bandli? **Qisqa bandli.**

4568. Ittikanak o'simligining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

4569. Ittikanak o'simligining gullari qanday rangli? **Sariq rangli.**

4570. Ittikanak o'simligining gullari nimaga to'plangan? **Savatchaga to'plangan.**

4571. Ittikanak o'simligining mevasi nima? **Pistacha.**

4572. Ittikanak o'simligining O'zbekistonda nechta turi qayerlarda o'sadi? **Bitta turi o'tloqlarda, ariq bo'ylarida, ekinlar orasida o'sadi.**

4573. Ittikanak o'simligining tarkibida qanday moddalar bor? **Karotin, C vitamini, efir moyi, oshlovchi bo'yoq, shilimshiq va boshqa moddalar bor.**

4574. Ittikanak o'simligi xalq tabobatida bolalarning qaysi kasalligini davolashda ishlatiladi? **Diatez kasalligini davolashda ishlatiladi.**

4575. Ittikanak o'simligi tibbiyotda qaysi kasallikni davolashda qo'llaniladi? **Tibbiyotda ovqatni hazm qildiruvchi, siydik haydovchi va ter chiqaruvchi dori sifatida, ba'zi teri kasalliklari (ekzema)ni davolashda qo'llaniladi.**

4576. Ituzum qaysi oilaga mansub o'tsimon o'simliklar, chala butalar va butalar, ba'zan past bo'yli daraxtlar (tropiklarda) turkumi? **Ituzumdoshlar oilasiga mansub.**

4577. Ituzum qanday o'simlik? **Dorivor o'simlik.**

4578. Ituzum o'simligining qancha turi bor? **1700 ga yaqin turi bor.**

4579. Ituzum o'simligining aksariyat turi qayerda tarqalgan? **Janubiy Amerikada tarqalgan.**

4580. Ituzum o'simligining qaysi turi ayrim mamlakatlarda dorivor o'simlik sifatida ekiladi? Nima uchun? **S. lacinatum turi. Chunki bargi va poyasida solasonin va salamargin alkaloidlari ko'p.**

4581. Ituzum o'simligining bir tupi nechtagacha urug' beradi? **40 ming tagacha urug' beradi.**

4582. Ituzum o'simligi xalq tabobatida qanday xastaliklarni davolashda mevasidan foydalaniladi? **Tomoq-nafas yo'llari xastaliklarini davolashda mevasidan foydalaniladi.**

4583. Ituzumning bo'yi necha sm gacha? **100 sm gacha.**

4584. Ituzum necha yillik o'tsimon o'simlik? **Bir yillik o'simlik.**

4585. Ituzum o'simligi qaysi oydan qaysi faslgacha gullaydi? **Iyun oyidan kuzgacha gullaydi.**

4586. Ituzum tarkibida glikoalkaloidlardan qaysilar bor? **Solatsein, soleninlar bor.**

4587. Ituzum tarkibida qanday kislotalar bor? **Askorbinat kislotalar, limon kislota bor.**

4588. Ituzum tarkibida qanday moddalar bor? **Karotin, steroid saponinlar bor.**

4589. Ituzum barglari qanday kasalliklarga shifo bo'lishi uchun ishlatiladi? **Teri kasalliklari, gush, bronxial astma, shamollash kasalliklariga shifo bo'lishi uchun ishlatiladi.**

4590. Ituzumning pishgan mevalari qanday kasalliklar vaqtida qo'llaniladi? **Isitma, ichketar vaqtida qo'llaniladi.**

4591. Ituzum o'simligining suvi qanday kasalliklar vaqtida qo'llaniladi? **Surunkali jigar kasalliklari, sil, ichburug'da qo'llaniladi.**

4592. Ituzumdan qaysi hakim bosh og'rig'iga, quloq va miya pardalaridagi o'smalarga davo qilish uchun malham tayyorlagan? **Abu Ali ibn Sino tayyorlagan.**

4593. Ituzum o'simligining suvini qaysi hakim ko'z, tomoq kasalliklarida, shuningdek, uxlatadigan dori sifatida ishlatgan? **Abu Ali ibn Sino ishlatgan.**

4594. Ituzum o'simligining mevalaridan qaysi hakim hayz vaqtida, ko'p qon ketgan mahallarda, shuningdek, buyrak va qovuq kasalliklarida qon to'xtatadigan va siydik haydaydigan vosita sifatida foydalangan? **Abu Ali ibn Sino foydalangan.**

4595. Ituzum og'riqni qoldiradigan ta'sirga ega degan fikr qaysi hakimniki? **Abu Ali ibn Sinoniki.**

4596. Ituzumdan gomeopatiyada qanday kasalga qarshi va qaysi a'zodan zaharlanishda uning kuchini qirqadigan vosita sifatida

foydalaniladi? **Talvasalarga qarshi va tomirda zaharlanishda uning kuchini qirqadigan vosita sifatida foydalaniladi.**

4597. Ituzum o'simligi mevalaridan tayyorlangan ekstraktning zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarni bartaraf etadigan ta'sir ko'rstishi aniqlangan? **Qon bosimini tushiradigan va spazmalarni bartaraf etadigan ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.**

4598. Ituzum o'simligining yosh shoxlari va barglaridan qanday kasallarda foydalaniladi? **Nevrozlar, bosh og'rig'i, silliq muskulli a'zolar vaqtida foydalaniladi.**

4599. Ituzum o'simligining ba'zi turlari qanday kasalliklarga qanday ta'sir ko'rsatgan? **Yallig'lanishga qarshi, yurakni quvvatlaydigan, qon ishini sekinlashtiradigan ta'sir ko'rsatadi.**

4600. Ituzumni har kuni qanday kasalliklarda shifokor (vrach) nazorati ostida 5 – 6 g dan yeyishni ba'zi olimlar tavsiya etishadilar? **Gipertoniya kasalligi va aterosklerozda tavsiya etishadilar.**

4601. Ituzumning ohdon ezilgan yosh barglari va pishgan mevalarini asalga qorishtirib, qanday turgan yaralarga qo'yiladigan bo'lsa, ularning tozalanishi tezlashadi? **Yiringlab turgan yaralarga qo'yiladigan bo'lsa, ularning tozalanishi tezlashadi.**

4602. Ituzumdoshlar nimalardan iborat? **O't, butachalar, lianalar va kichik daraxtlardan iborat.**

4603. Ituzumdoshlar necha pallali sinfga mansub o'simliklar oilasi? **Ikki pallali.**

4604. Ituzumdoshlarning nechta turkumi bor? **90 ta turkumi bor.**

4605. Ituzumdoshlarning nechta turi bor? **2900 ta turi bor.**

4606. Ituzumdoshlarning barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

4607. Ituzumdoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4608. Ituzumdoshlarning gul kosachasi va gultoji necha bo'lakli? **5 bo'lakli.**

4609. Ituzumdoshlarning mevasi qanday? **Rezavor yoki ko'sakcha.**

4610. Ituzumdoshlarning qaysi turlari tarkibida alkaloidlar bor? **Skopoliya, mingdevona, bangidevona va boshq. turlari tarkibida alkaloidlar bor.**

4611. Ituzumdoshlar yer sharining qaysi mintaqalarida keng tarqalgan? **Janubiy va Markaziy Amerikada, yer sharining mo'tadil iqlimli, tropik, subtropik mintaqalarida keng tarqalgan.**

4612. Ituzumdoshlarning ba'zilari qanday o'simlik sifatida o'stiriladi? **Manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.**

4613. Ituzumdoshlarning qaysi turkumlari katta ahamiyatga ega? **Ituzum, pomidor, mandragora, oqching'il kabi turkumlari katta ahamiyatga ega.**

4614. Ituzumdoshlarga qaysi ekinlar kiradi? **Kartoshka, pomidor, tamakigul, tamaki va boshq. ekinlar kiradi.**

4615. Itqovun qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o't? **Qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik yovvoyi o't.**

4616. Itqovun o'simligining gullari qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

4617. Itqovun o'simligining mevasi ta'mi qanday? **Achchiq, rezavor.**

4618. Itqovun palagining uzunligi necha m cha? **1 m cha.**

4619. Itqovun o'simligining bargları qanday bandli? **Uzun bandli.**

4620. Itqovun o'simligining bargları necha bo'lakchali? **3 – 5 bo'lakchali.**

4621. Itqovun o'simligining barglari qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

4622. Itqovun o'simligining barglari bir oz nima qilingan? **O'yilgan.**

4623. Itqovun o'simligining bargları cheti qanday? **Kungurali.**

4624. Itqovun o'simligining gullari rangi qanday? **Sariq.**

4625. Itqovun o'simligi O'zbekistonning qaysi tumanlarida o'sadi? **O'zbekistonning hamma tumanlarida o'sadi.**

4626. Itqovun deb atalishiga sabab nima? **Mevasi achchiqligidan uni aholi itqovun deb atashgan.**

4627. Itqovun o'simligi qayerlarda keng tarqalgan? **O'rta Osiyoda, Zakavkazye, Eron, Afg'oniston va Hindistonda keng tarqalgan.**

4628. Itqovun o'simligining tarkibida qanday kislotalar va moddalar bor? **Organik kislotalar, qand, oshlovchi moddalar bor.**

4629. Itqovun o'simligining urug'ida qanday modda bor? **Yog' bor.**

4630. Itqovun o'simligining palagi qaynatmasi tabobatda nimalarni davolashda ishlatiladi? **Istisqo, sariq kasalliklarni, og'izdagi shishlarni davolashda ishlatiladi.**

4631. Itqo'noq boshoqdoshlarga mansub necha yillik o't o'simliklar turkumi? **Bir va ko'p yillik o't o'simliklar turkumi.**

4632. Itqo'noq o'simligining poyasi necha sm? **20 – 80 sm.**

4633. Itqo'noq o'simligining bargları qanday shaklda? **Nashtarsimon shaklda.**

4634. Itqo'noq o'simligining barglari usti va chetlari qanday? **G'adir-budir.**

4635. Itqo'noq o'simligining barg asosi uzun nimalar bilan qoplangan? **Tuklar bilan qoplangan.**

4636. Itqo'noq o'simligining to'pguli qanday shaklda? **Boshoqsimon shaklda.**

4637. Itqo'noq o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyul – sentabr oylarida gullaydi.**

4638. Itqo'noq o'simligining urug'lari qachon una boshlaydi? **Kelgusi yili bahorda una boshlaydi.**

4639. Itqo'noq o'simligining urug'lari qaysi oyda pishadi? **Sentabr oyida pishadi.**

4640. Itqo'noq o'simligining ildiz sistemasi juda kuchli rivojlanib, necha m gacha chuqurlikka o'sib kiradi? **1,5 m gacha chuqurlikka o'sib kiradi.**

4641. Itqo'noq o'simligining aksariyati qayerlarda tarqalgan? **Tropik va subtropiklarda tarqalgan.**

4642. Itqo'noq o'simligining qancha turi bor? **120 dan ortiq turi bor.**

4643. Itqo'noq o'simligining bir tupi nechtagacha urug' beradi? **5 – 10 mingtagacha urug' beradi.**

4644. Itqo'noq qachon o'rib olinsa, mollarga yaxshi nima bo'ladi? **Maysaligida o'rib olinsa, mollarga yaxshi ozuqa bo'ladi.**

4645. Itqo'noq o'simligining qaysi turlari uchraydi? **Oq (S. glanca) va ko'k (S. viridis) turlari uchraydi.**

4646. Ixroj qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Sutlamadoshlar (sutlamagullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

4647. Ixroj o'tining bo'yi necha sm cha? **40 sm cha.**

4648. Ixroj o'tining tarkibida qanday moddalar bor? **Smola, kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.**

4649. Ixroj o'ti O'zbekistonning qaysi tumanlarida qayerda o'sadi? **Tog'li tumanlarida toshlar orasida o'sadi.**

4650. Ixroj o'ti tabobatda qanday maqsadda ishlatiladi? **Tabobatda surgi, ishtaha ochuvchi dori sifatida hamda yaralarni davolashda ishlatiladi.**

4651. Ichkilikbozlikni davolash maqsadida qaysi o'simlikni 4:1 nisbatda gulrayhon o'simligi bilan damlab ichiladi? Shuvoq o'simligini **4:1 nisbatda gulrayhon o'simligi bilan damlab ichiladi.**

4652. Ishr qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Kuchaladoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

4653. Ishr o'ti tarkibida qanday modda bor? **Oshlovchi modda bor.**

4654. Ishr o'ti ildizpoyasidan qanday modda olinadi? **Efir moyi olinadi.**

4655. Ishr o'ti, asosan, qayerda uchraydigan boshqa bir turining ildizpoyasi qayerda ishlatiladi? **Asosan, Sharqiy Osiyoda uchraydigan boshqa bir turining ildizpoyasi qandolatchilikda ishlatiladi.**

4656. J. B. Lamarkdan keyin qaysi nemis olimlari ham tirik borliq haqidagi barcha asosiy fakt va umumlashtirilgan xulosalarni jamlab, ularni biologiya deb atashni taklif etgan? **Treviranus taklif etgan.**

4657. Javdar, qora bug'doy qaysi oilaga mansub, popuk ildizli bir yillik o'simlik? **G'alladoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub, popuk ildizli bir yillik o'simlik.**

4658. Javdar, qora bug'doy o'simligining bo'yi necha sm dan necha m gacha? **60 sm dan 2 – 2,5 m gacha.**

4659. Javdar o'simligining nechta turidan nechta turi yovvoyi bo'lib, qayerlarda o'sadi? **13 ta turdan 11 tasi yovvoyi bo'lib, Kichik va O'rta Osiyoda, Eron, Afg'oniston, Zakavkazye, Janubiy Afrikada o'sadi.**

4660. Javdar o'simligining vatani qaysi mintaqalar? **Kavkaz, Kichik va O'rta Osiyoning tog'oldi mintaqalari.**

4661. Javdar o'simligining poyasi necha sm? **70 – 200 sm.**

4662. Javdar o'simligi nechta guldan iborat to'pguli boshoqda necha qator joylashgan? **2 – 3 ta guldan iborat to'pguli boshoqda ikki qator joylashgan.**

4663. Javdar o'simligining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4664. Javdar o'simligi qayerdan changlanadigan o'simlik? **Chetdan changlanadigan o'simlik.**

4665. Javdar o'simligining qiltig'i qanday, rangi qanday? **Pishiq, oq.**

4666. Javdar o'simligining doni shakli qanday? **Cho'ziq.**

4667. Javdar o'simligining doni rangi qanday? **Sarg'ish, jigarrang.**

4668. Javdar o'simligining doni 1000 donasi og'irligi qancha? **18 – 35 g.**

4669. Javdar o'simligi hazm bo'lishi jihatidan qaysi o'simlikdan keyin turadi? **Bug'doy o'simligidan keyin turadi.**

4670. Javdar o'simligining nimalari chorva mollari uchun to'yimli ozuqa? **Doni, yormasi, kepagi chorva mollari uchun to'yimli ozuqa.**

4671. Javdar O'zbekistonda qanday yerlarda, asosan, qachon ekiladi? **Bahorikor va sug'oriladigan yerlarda, asosan, kuzda ekiladi.**

4672. Javdar urug'i ekilganda gektariga qancha s sarflanadi? **1 – 1,5 s sarflanadi.**

4673. Javdar o'simligidan sug'oriladigan yerlarda gektaridan qancha s ko'kat, qancha s don; bahorikor yerlarda qancha s ko'kat, qancha s don olinadi? **300 – 350 s ko'kat, 20 – 50 s don; bahorikor yerlarda 100 – 102 s ko'kat, 10 – 20 s don olinadi.**

4674. Javdar o'simligi sovuqqa qanday? **Chidamli.**

4675. Javdar o'simligi, asosan, qachon ko'p gullanadi? **Kuzda ko'p gullanadi.**

4676. Javdar o'simligi yarovizatsiya davrini qancha ^{0} C haroratda necha kunda o'tadi? **2^{0} C – 5^{0} C haroratda 50 – 60 kunda o'tadi.**

4677. Javdar o'simligi qaysi oylarda boshoq chiqaradi? **Aprel – may oylarida boshoq chiqaradi.**

4678. Javdar o'simligi qaysi oyda pishadi? **Iyun oyida pishadi.**

4679. Javdar o'simligi nima tanlamaydi? **Yer tanlamaydi.**

4680. Javdar o'simligi qanday yerlarda ham o'sib, hosil beradi? **Botqoqlangan, sho'rlangan yerlarda ham o'sib, hosil beradi.**

4681. Javdar o'simligining qanday navlari ekiladi? **Qirg'iziston-1, Pomir va mahalliy navlari ekiladi.**

4682. Javdar o'simligining jahon bo'yicha ekin maydoni qancha ga? **9,9 mln ga.**

4683. Javdar o'simligining o'rtacha hosildorligi qancha s/ga? **20,3 s/ga.**

4684. Javdar o'simligining yalpi hosili qancha t? **202,1 mln t (1999).**

4685. Javdar o'simligi, asosan, qaysi mamlakatlarda ko'p ekiladi? **Yevropa mamlakatlarida (Polshada – 2,2; Rossiyada – 3,5; Ukrainada – 0,6 mln ga) ko'p ekiladi.**

4686. Javdar o'simligi O'zbekistonda qancha ga yerga ekiladi? **8 ming ga (1999) yerga ekiladi.**

4687. Javdar o'simligi donidan qanday moddalar olinadi? **Aralash oziqa, spirt va kraxmal moddalar olinadi.**

4688. Javdar o'simligi donidan nima ishlab chiqariladi? **Patoka ishlab chiqariladi.**

4689. Javdar o'simligi somonidan nimalar olinadi? **Qog'oz, sellyulyuza, lignin va boshq. olinadi.**

4690. Jaydari g'o'za O'zbekistonda qachondan ekib kelingan? **Qadimdan ekib kelingan.**

4691. Jaydari g'o'za bargları necha bo'lakli? **5 – 7, ba'zan 3 bo'lakli.**

4692. Jaydari g'o'zaning ko'saklari qanday? **Mayda va o'rtacha.**

4693. Jaydari g'o'zaning ko'saklari shakli qanday? **Dumaloq.**

4694. Jaydari g'o'zaning ko'sagi uchi qanday shaklda? **Suyri shaklda.**

4695. Jaydari g'o'za ko'saklari yaxshi nima qilmaydi? **Ochilmaydi.**

4696. Jaydari g'o'za chigiti qanday? **Mayda, tukli.**

4697. Jaydari g'o'za tolasi qanday? **Dag'alroq, kalta (18 – 30 mm).**

4698. Jaydari g'o'za gultojisi qanday, rangi qanday? **Mayda, sarg'ish.**

4699. Jaydari g'o'za gul toji bargining ostki qismida qanday rangli dog'lar bor? **Qizil rangli dog'lar bor.**

4700. Jaydari g'o'za mahalliy sharoitlarga qanday moslashgan? **Yaxshi moslashgan.**

4701. Jaydari g'o'za o'stirilgan joyning nomi yoki biror xarakterli belgisi bilan atalgan. masalan, qaysilar? **Masalan: "Qo'qon g'o'zasi", "Xorazm g'o'zasi", "Xiva g'o'zasi", "Malla g'o'za", "Qizil g'o'za", "Farg'ona g'o'zasi" va boshq.**

4702. Jaydari g'o'za nechanchi yildan boshlab O'zbekistonda butunlay ekilmaydigan bo'lgan? **1929-yildan.**

4703. Jaydari g'o'za nima uchun O'zbekistonda butunlay ekilmaydigan bo'lgan? **Chunki keyinchalik serhosil yangi g'o'za navlari yaratilganligi sababli ekilmaydigan bo'lgan.**

4704. Jaydari g'o'zalar hozir qayerlarda saqlangan? **Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Eron, Livan va Kichik Osiyodagina saqlangan.**

4705. Jaydari g'o'za dunyo bo'yicha umumiy paxta maydonining necha foizini tashkil qiladi? **6 – 7 foizini tashkil qiladi.**

4706. Jayrono't qaysi oilaga mansub qanday buta? **Frankeniyadoshlar (frankeniyagullilar) oilasiga mansub chala buta.**

4707. Jayrono't chala butaning bo'yi necha sm? **8 – 20 sm.**

4708. Jayrono't chala butaning tojbargi nechta? **5 ta.**

4709. Jayrono't chala butaning kosachasi necha tishli? **5 tishli.**

4710. Jayrono't chala buta barglarining shakli qanday? **Nashtarsimon.**

4711. Jayrono't chala buta gulları rangi qanday? **Qo'ng'irpushti.**

4712. Jayrono't chala buta ko'sakchasining shakli qanday? **Tuxumsimon.**

4713. Jayrono't chala buta ko'sakchasining bo'yi necha mm? **3 mm.**

4714. Jayrono't chala buta ko'sakchasining eni necha mm cha? **1,3 mm cha.**

4715. Jayrono't chala buta qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **May – sentabr oylarida gullab, urug'laydi.**

4716. Jayrono't deyilishida sabab nima? **Chunki jayron o'tning erta bahori yosh novdalari va barglari jayronlar xush ko'rib yeydi, nomi shundan.**

4717. Jayrono't chala buta qayerlarda tarqalgan? **O'zbekistonning ko'pgina viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.**

4718. Jambil qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simlik? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansub bir yillik xushbo'y o'simlik.**

4719. Jambil o'simligi O'zbekistonda qanday yerlarda, qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Sug'oriladigan yerlarda ziravor o'simlik sifatida ekiladi.**

4720. Jambil o'simligining bo'yi necha sm? **20 – 30 sm.**

4721. Jambil o'simligi poyasining qaysi qismidan shoxlaydi? **Yuqori qismidan shoxlaydi.**

4722. Jambil o'simligining bargları chetları qanday? **Tekis.**

4723. Jambil o'simligining gullari rangi qanday? **Pushti.**

4724. Jambil o'simligining gulları qayerga yig'ilgan? **Boshqa-simon to'pgullarga yig'ilgan.**

4725. Jambil o'simligining gullari poya va shoxlarining qayeriga joylashgan? **Uchiga joylashgan.**

4726. Jambil o'simligi qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **Iyul – oktabr oylarida gullab, urug'laydi.**

4727. Jambil o'simligi qayerlarda ishlatiladi? **Tibbiyotda va atir-upa sanoatida ishlatiladi.**

4728. Jambil o'simligi qanday kasalliklarni davolashda va nimaga qarshi dori tayyorlashda qo'llaniladi? **Me'da - ichak kasalliklarini davolashda va yo'talga qarshi dori tayyorlashda qo'llaniladi.**

4729. Janubiy Amerikaning tub aholisi kuarem nima uchun ishlatgan? **Kamon uchini zaharlash uchun ishlatgan.**

4730. Janubiy Amerikada o'sadigan kopanfera va Osiyo tropiklarida o'sadadigan stiraks qanday balzam beradi? **Kopanfera kopay balzami, stiraks benzoy balzami beradi.**

4731. Jag'-jag' o'simligining nechta turi ma'lum? **6 ta turi ma'lum.**

4732. Jag'-jag', ochambiti qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Butguldoshlar (butgullilar) oilasiga mansub bir yillik o'tlar turkumi.**

4733. Jag'-jag' o'simligining O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **Bir turi uchraydi.**

4734. Jag'-jag' o'simligining qaysi turi O'zbekistonda uchraydi? **C. bursa pastoris turi uchraydi.**

4735. Jag'-jag' necha yillik yoki qishlab qoladigan qanday o'simlik? **Bir yillik yoki qishlab qoladigan o'tsimon o'simlik.**

4736. Jag'-jag' o'simligining bo'yi necha sm gacha? **60 sm gacha.**

4737. Jag'-jag' o'simligining poyalari qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

4738. Jag'-jag' o'simligining gulları qanday, qayerga to'plangan? **Mayda, siyrak shingilga to'plangan.**

4739. Jag'-jag' o'simligining tojbargi rangi qanday? **Oq.**

4740. Jag'-jag' o'simligining mevasi qanday shaklli yoki qanday qo'zoq? **Teskari yuraksimon – uchburchak shaklli yoki ponasimon qo'zoq.**

4741. Jag'-jag' o'simligining bir tupi nechtagacha yashovchan urug' beradi? **70 mingtagacha yashovchan urug' beradi.**

4742. Jag'-jag' o'simligi qachon una boshlaydi va qachongacha rivojlanishi davom etadi? **Erta bahorda una boshlaydi va kech kuzgacha rivojlanishi davom etadi.**

4743. Jag'-jag' o'simligining maysalari qayerda to'pbarg hosil qiladi? **Yer betida to'pbarg hosil qiladi.**

4744. Jag'-jag' o'simligi qayerda qishlab, erta bahorda yana rivojlanishini davom ettiradi? **Qor ostida qishlab, erta bahorda yana rivojlanishini davom ettiradi.**

4745. Jag'-jag' o'simligining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

4746. Jag'-jag' o'simligi qaysi oydan boshlab qaysi faslgacha gullaydi? **Apreldan boshlab, kuzgacha gullaydi.**

4747. Jag'-jag' o'simligining mevalari qaysi oydan boshlab pisha boshlaydi? **Iyun oyidan boshlab pisha boshlaydi.**

4748. Jag'-jag' o'simligining tarkibida qanday moddalar va birikmalar bor? **C va K vitaminlari, flavonoidlar, inozit, xolin, atsetilxomin, oshlovchi moddalar va boshqa birikmalar bor.**

4749. Jag'-jag' o'simligining urug'larida necha foizgacha moy bor? **28 foizgacha moy bor.**

4750. Jag'-jag' o'simligining tarkibida qanday kislotalar bor? **Fumarit, olma, moy kislotalari bor.**

4751. Jag'-jag' o'simligining damlamasi, suyuq ekstrakti qanday maqsadda ishlatiladi? **Bachadondan qon ketishini to'xtatishda ishlatiladi.**

4752. Jag'-jag' o'simligi xalq tabobatida qanday kasalliklar vaqtida ko'p ishlatiladi? **O'pka, bachadon, me'da-ichakdan qon ketganda, qon to'xtatuvchi vosita sifatida, shuningdek, badan jarohatlanganda, isitma vaqtida, ichketar vaqtida ko'p ishlatiladi.**

4753. Jag'-jag' o'simligining qaynatmasi yoki barg va poyalaridan yangi olingan suvi xalq tabobatida qanday kasalliklarga tavsiya etiladi? **Jigar, buyrak va qovuq kasalliklariga hamda moddalar almashinuvi buzilgan paytlarda tavsiya etiladi.**

4754. Jag'-jag' o'simligidan Hindiston tabobatida qanday kasalliklar mahallarida foydalaniladi? **Qusishga qarshi, burishtiradigan, siydik haydaydigan vosita sifatida, qonketar, istisqo, ichketar mahallarida foydalaniladi.**

4755. Jag'-jag' o'simligining preparatlari zamonaviy tabobatda sezilarli darajada qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlangan? **Qon to'xtatuvchi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.**

4756. Jag'-jag' o'simligining preparatlari qaysi a'zo silliq muskullarining qisqaruvchanligini kuchaytiradi? **Bachadon silliq muskullarining qisqaruvchanligini kuchaytiradi.**

4757. Jag'-jag' o'simligining bargları kuchli qanday xossalarga ega? **Fitontsid xossalarga ega.**

4758. Jag'-jag' o'simligining bargları qaysi a'zo harakatlarini kuchaytiradi? **Ichak harakatlarini kuchaytiradi.**

4759. Jag'-jag' o'simligining bargları ekstraktlari nimani pasaytiradi? **Qon bosimini pasaytiradi.**

4760. Jag'-jag' o'simligining damlamasi va suyuq ekstrakti qanday kasalliklarda vosita sifatida ishlatiladi? **Ayollar kasalliklarida, bachadon atoniyasida, qon to'xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.**

4761. Jahon dehqonchiligida, asosan, qanday bug'doy ekiladi? **Yumshoq bug'doy yoki oddiy bug'doy (T. Acstivum, T. vulgare) va qattiq bug'doy (T. durum) ekiladi.**

4762. Jahonda ishlab chiqariladigan paxta tolasining necha foizdan ko'prog'ini o'rta tolali g'o'zalar beradi? **80 foizdan ko'prog'ini o'rta tolali g'o'zalar beradi.**

4763. Jenshen qaysi oilaga mansub o'simlik? **Araleacae oilasiga mansub o'simlik.**

4764. Jenshen o'simligining tabiiy maydonlari faqat Rossiya Federatsiyasining qaysi o'lkasida saqlanib qolingan? **Ussuriy o'lkasidagina saqlanib qolingan.**

4765. Jenshen juda qadimdan qanday o'simlik sifatida ma'lum? **Dorivor o'simlik sifatida ma'lum.**

4766. Jenshen o'simligi odam salomatligiga qanday ta'sir etadi? **Jenshen ruhiy va jismoniy toliqishda, zaiflikda katta yordam beradi, balg'am yig'ilishining oldini oladi. Balg'amning ko'chishiga yordam beradi, ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi, xansirashni kamaytiradi, tan va ruhni baquvvat qiladi. Kayfiyatni va ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi. Keksalikning uzoq vaqt davom etishini ta'minlaydi.**

4767. Jenshen o'simligi ildizlaridan tayyorlangan nastoyka, poroshok, suyuq ekstrakt qanday maqsadda ishlatiladi? **Organizmni quvvatga kiritish uchun hamda diabet, jinsiy bezlar ginofunksiyasi va asab kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

4768. Jenshen qayerlarda qanday holda o'suvchi qadimgi o'simlik? **Sharqiy Osiyo, Xitoy va Koreyada tabiiy holda o'suvchi qadimgi o'simlik.**

4769. Jenshen o'simligi ildizidan olingan preparatlar organizmning nimasini oshiradi? **Quvvatini oshiradi.**

4770. Jenshen o'simligining bo'yi necha sm? **30 – 50 sm.**

4771. Jenshen o'simligining barglari qandaysimon qirqma? **Panjasimon qirqma.**

4772. Jenshen o'simligining gulları qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

4773. Jenshen o'simligining gulları rangi qanday? **Ko'kish.**

4774. Jenshen o'simligining mevasi qanday (qattiqmi yoki yumshoqmi)? **Yumshoq.**

4775. Jenshen o'simligining ildizi qanday shaklda? **Silindrsimon shaklda.**

4776. Jenshen o'simligining hidi qanday? **Xushbo'y.**

4777. Jenshen o'simligining mevasi ta'mi qanday? **Achchiqroq.**

4778. Jenshen o'simligi ildizining yuqori qismi qandayroq (ingichkaroqmi yoki yo'g'onroqmi)? **Yo'g'onroq.**

4779. Jenshen o'simligining ildizi qisman odam nimasini eslatadi? **Odam gavdasini.**

4780. "Jenshen" ildiziga xitoycha nima deb nom berilgan? **"Odam - ildiz" deb nom berilgan.**

4781. Jenshen o'simligi ildizining og'irligi qancha g? **20 – 25 g.**

4782. Jenshen o'simligining tabiiy zaxiralari nima bo'lib ketgan? **Juda kamayib ketgan.**

4783. Jenshen o'simligi nima uchun ko'p joylarda ekib o'stiriladi? **Chunki zaxiralari kamayib ketganligi uchun.**

4784. Jenshen o'simligi O'zbekistonning qayerida o'stiriladi? **Botanika bog'ida o'stiriladi.**

4785. Jizg'anak, jirg'anoq – jiydadoshlar (jiydagullilar) oilasiga mansub nima? **Buta yoki daraxtlar.**

4786. Jiyda o'simligining nechta turi ma'lum? **40 ta turi ma'lum.**

4787. Jiyda o'simligining bir tupidan qancha kg meva olinadi? **2 – 16 kg, ayrimlaridan 50 kg gacha meva olinadi.**

4788. Jiyda o'simligi necha yil yashaydi? **60 – 80 yil yashaydi.**

4789. Jiyda o'simligi tuproqni qaysi kimyoviy element bilan boyitadi? **Azot kimyoviy elementi bilan boyitadi.**

4790. Jiyda o'simligining nechta navi tanlangan? Bular qanday nomlar bilan ataladi? **8 navi tanlangan. Bular: Qizil jiyda, Toshkent deserti, Ra'no, Urganch, Xurmon, Gauqandak, Cho'li qandak, Qizil qandak va boshqa nomlar bilan ataladi.**

4791. Jiyda o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4792. Jiyda o'simligining bo'yi necha m gacha? **10 m gacha.**

4793. Jiyda o'simligining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

4794. Jiyda o'simligining gullari hidi qanday? **Xushbo'y.**

4795. Jiyda o'simligining barg qo'ltiqchalaridan necha dona gul chiqadi? **1 – 3 dona gul chiqadi.**

4796. Jiyda o'simligining mevasi qanday shaklda? **Dumaloq yoki ellipssimon shaklda.**

4797. Jiyda eti o'simligining mevasi necha foizni tashkil etadi? **31,2 – 88,7 foizni tashkil etadi.**

4798. Jiyda o'simligining tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **40 – 65 foiz qand bor.**

4799. Jiyda tarkibida qancha mg % C vitamini mavjud? **200 mg % C vitamini mavjud.**

4800. Jiyda o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May-iyun oylarida gullaydi.**

4801. Jiyda o'simligining mevalari qaysi oylarda pishadi? **Sentabr – oktabr oylarida pishadi.**

4802. Jiyda o'simligi qayerlarda o'sadi? **O'rta Osiyo, Qozog'istonning sahro, yarim sahro rayonlari, shuningdek, Kavkazorti va Shimoliy Kavkazning sharqiy qismida o'sadi.**

4803. Jiyda o'simligining tanasi va shoxlarining po'stlog'ida qanday moddalar bor? **Emagnin, tetragidrogarmol alkaloidlari, oshlovchi moddalar bilan bo'yoq moddalari bor.**

4804. Jiyda o'simligining gullarida necha foiz efir moylari bor? **0,3 foiz efir moylari bor.**

4805. Jiyda ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **3-5-yili hosilga kiradi.**

4806. Jiyda o'simligining barglarida qanday kislota bor? **Askorbinat kislota bor.**

4807. Jiyda o'simligining mevasi etida necha foizgacha uglevodlar, necha foizgacha fruktoza, necha foizgacha oqsil va qanday moddalar bor? **40 foizgacha uglevodlar, 20 foizgacha fruktoza, 10 foiz oqsil, oshlovchi va shilimshiq moddalar bor.**

4808. Jiyda o'simligining qaysi a'zolaridan tayyorlangan galen preparatlar xalq tabobatida yallig'lanishga qarshi, burshtiruvchi, gijjalarga qarshi vosita sifatida, shuningdek, o'smalar, bavosil mahalida keng ishlatiladi? **Barglari, mevalari, gullari, novdalaridan tayyorlangan.**

4809. Jiyda o'simligining barglari, mevalari, gullaridan tayyorlangan qaynatma qanday kasalliklarda foydalaniladi? **Ichketar, enterit, kolit, gastrit, isitma mahalida foydalaniladi.**

4810. Jiyda po'stlog'i qaysi davlat xalq tabobatida nima to'xtatadigan vosita sifatida qo'llaniladi? **Qozog'iston xalq tabobatida qon to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.**

4811. Jiyda barglari va mevalari (yangisi) O'zbekistonda qanday kasalliklarga ishlatiladi? **Yallig'lanishga qarshi, jarohatlarni bitiruvchi va qon to'xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.**

4812. Jiyda barglari va mevalari (yangisi) qaynatmalaridan O'zbekistonda qanday kasalliklarda foydalaniladi? **Shamollash kasalliklari, isitma, stomatitlar, anginada, shuningdek,**

og'riqni kamaytiruvchi maqsadda revmatizm, podagra, radikulitlarda foydalaniladi.

4813. Jiyda tabobatda qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

4814. Jiyda o'simligi tarkibidagi efir moyining hidi qaysi a'zo ishining yaxshilanishiga yordam beradi? **Yurak ishining yaxshilanishiga yordam beradi.**

4815. Jiyda o'simligining ildizlaridan tayyorlangan tinktura va ekstrakt tajriba sharoitlarida nimani pasaytirib, qaysi a'zo ishini jonlantirgan? **Qon bosimini pasaytirib, yurak ishini jonlantirgan.**

4816. Jiyda o'simligining mevalaridan nimalar degan preparatlar tayyorlangan? **"Loxtan", "Loxpektan", "Pshatin" degan preparatlar tayyorlangan.**

4817. Jiyda o'simligining mevalarida tayyorlangan "Loxtan", "Loxpektan", "Pshatin" degan preparatlar qanday kasalliklarga ishlatiladi? **Me'da-ichak yo'llarining yallig'lanish kasalliklariga shifo bo'lib, shuningdek, stomatitlar, gingivitlar og'iz va tomoqni chayish uchun ishlatiladi.**

4818. Jiyda o'simligining gullaridan chuvda, spirt va moyda tayyorlangan ekstraktlari qanday kasalliklarga foyda beradi? **Shamollash kasalliklari, gipertoniya, yurak ishi susayib qolgan paytlarda foyda beradi.**

4819. Jiyda mevasidan qanday alkagolli ichimliklar tayyorlanadi? **Spirt va kuchsiz alkogolli ichimliklar tayyorlanadi.**

4820. Jiyda o'simligidan qaysi sanoatda foydalaniladi? **Parfyumeriya sanoatida foydalaniladi.**

4821. Jing'il qaysi oilaga mansub butalar? **Yulg'undoshlar (yulg'ungullilar) oilasiga mansub butalar.**

4822. Jinchak qaysi oilaga mansub qanday buta? **Dukkakdosh (dukkaklilar) oilasiga mansub sershox va sertikan buta.**

4823. Jinchak butasi ildizida, po'stlog'ida, dukkagida tannin moddasi necha foiz bor? **Ildizida 8,11 foiz, po'stlog'ida 12,09 foiz, dukkagida 31,0 foiz tannin moddasi bor.**

4824. Jinchak butasining poyasi necha sm? **20 – 45 sm.**

4825. Jinchak butasi qayeridan shakllanadi? **Eng asosidan shakllanadi.**

4826. Jinchak butasining barglari qanday patsimon? **Juft patsimon.**

4827. Jinchak butasi qaysi oydan qaysi oygacha gullaydi va mevalaydi? **Iyundan sentabrgacha gullaydi va mevalaydi.**

4828. Jinchak butasining urug'lari, odatda, qancha ° C haroratda unib chiqadi? **20° C - 30° C haroratda unib chiqadi.**

4829. Jinchak butasi, asosan, nimalaridan ko'payadi? **Ildiz bachkilaridan ko'payadi.**

4830. Jinchak butasining ildizi necha m chuqurlikka kirib boradigan baquvvat yon ildizlar chiqaradi? **1 – 3 m chuqurlikka kirib boradigan baquvvat yon ildizlar chiqaradi.**

4831. Jinchak butasi O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi adirlar, tog' etaklaridagi sur tuproqlarda o'sadi? **Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi sur tuproqlarda o'sadi.**

4832. Jovqosin qaysi oilaga mansub necha yillik nima? **Loladoshlar (piyozdoshlar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

4833. Jovqosin o'tining poyasi necha sm? **20 – 25 sm.**

4834. Jovqosin o'ti qaysi oyda gullab, qaysi oyda urug' beradi? **Aprelda gullab, mayda urug' beradi.**

4835. Jovqosin o'ti O'zbekistonning qayerlarida tarqalgan? **Buxoro viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida tarqalgan.**

4836. Jovqosin o'tining piyozi shakli qanday? **Tuxumsimon.**

4837. Jovqosin o'tining piyozi yo'g'onligi necha sm? **1,5 – 4 sm.**

4838. Jovqosin o'tining gultojlari bo'yi necha sm? **2,5 – 7 sm.**

4839. Jovqosin o'tining bargi nechta? **4 ta.**

4840. Jovqosin o'tining bargi qanday? **Burulgan, tuksiz.**

4841. Jovqosin o'tining bargi uchiga qarab qandaylashib boradi? **Ingichkalashib boradi.**

4842. Jovqosin o'tining bargi eni necha sm? **1,5 – 2,5 sm.**

4843. Jovqosin o'tining changchi iplari qanday (tuklimi yoki tuksizmi)? **Tuksiz.**

4844. Jovqosin o'tining changchi iplari rangi qanday? **Sariq.**

4845. Jovqosin o'tining changchi iplarining yuqori qismi rangi qanday? **Qoramtir - binafsha.**

4846. Jovqosin o'tining ko'sagi eni necha sm? **1 – 1,5 sm.**

4847. Jovqosin o'tining ko'sagi bo'yi necha sm? **2,5 – 3 sm.**

4848. Jonatan kechpishar qaysi meva daraxt navi? Olma navi.
4849. Jonatan navli olma qayerdan keltirilgan? **Amerikadan keltirilgan.**
4850. Jonatan navli olmaning tarkibida necha foiz qanday moddalar va qaysi vitamin bor? **16,9 foiz quruq modda, 12,2 foiz qand, 0,5 foiz kislota, 6,8 mg foiz C vitamini bor.**
4851. Jonatan navli olma daraxti qanday bo'yli? **O'rta bo'yli.**
4852. Jonatan navli olma daraxti shox-shabbasi qanday (kengmi yoki tormi)? **Keng.**
4853. Jonatan navli olma ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **5-yili.**
4854. Jonatan navli olma daraxti qachon gullaydi? **Aprelning o'rtalarida gullaydi.**
4855. Jonatan navli olma daraxti mevasining bir donasi og'irligi qancha g? **100 – 120 g.**
4856. Jonatan navli olma shakli qanday? **Yumshoq-cho'ziq.**
4857. Jonatan navli olma sirti qanday? **Tekis.**
4858. Jonatan navli olmaning rangi qanday? **Och qizil.**
4859. Jonatan navli olma eti rangi qanday? **Sarg'ish.**
4860. Jonatan navli olma mazasi va hidi qanday? **Shirin, sershira va xushbo'y.**
4861. Jonatan navli olma daraxti mevasi qachon pishadi? **Avgust oxirida pishadi.**
4862. Jonatan navli olma daraxti qachondan qachongacha yaxshi saqlanadi? **Noyabr oyining oxiridan dekabr oyining boshlarigacha yaxshi saqlanadi.**
4863. Jonatan navli olma daraxti to'liq hosilga kirganda taxminan qancha kg hosil olinadi? **150 – 200 kg hosil olinadi.**
4864. Jonatan navli olma sovuqqa qanday? **Chidamli.**
4865. Jonatan navli olma qanday tuproqlarda va qanday parvarish qilinganda mo'l hosil beradi? **Unumdor tuproqlarda va yaxshi parvarish qilinganda mo'l hosil beradi.**
4866. Jonatan navli olma daraxti qanday kasallik bilan kasallanadi? **Unshudring bilan kasallanadi.**
4867. Juzg'un, qandim qaysi oilaning bir turkumi? **Toron-doshlar (torongullilar) oilasining.**
4868. Juzg'un o'simligining O'rta Osiyoda qancha turi bor? **45 ga yaqin turi bor.**

4869. Juzg'un o'simligi, asosan, qayerlarda o'sadi? **Asosan, cho'llarda o'sadi.**
4870. Juzg'un o'simligining bo'yi necha sm dan necha m gacha? **50 sm dan 3 m gacha.**
4871. Juzg'un o'simligining changchilari nechta? **12 – 18 ta.**
4872. Juzg'un, qandim o'simligi nechta qanotchali? **4 – 8 ta qanotchali.**
4873. Juzg'un o'simligining ayrim turlari tarkibida qanday moddalar bor? **Oshlovchi moddalar va alkaloidlar bor.**
4874. Juzg'un o'simligining qanday turlari O'zbekistonning qaerlarida o'sadi? **Qizilqum va Markaziy Farg'ona qumlarida qora juzg'un (C. aphyllum), Norjuzg'un (C. eriopodum), Oq juzg'un (C. junceum), Qizil juzg'un (C. saput-medusal) va boshq. turlari o'sadi.**
4875. Juzg'un o'simligi, asosan, nima uchun ekiladi? **Asosan, ko'chma qumlarni to'xtatish uchun.**
4876. Jumrut, bo'ribag'ir qaysi oilaga mansub qanday buta yoki qanday bo'yli daraxt? **Jumrutdoshlar (jumrutgullilar) oilasiga mansub yirik buta yoki past bo'yli daraxt.**
4877. Jumrut, bo'ribag'ir o'simligining mevasi va po'stlog'i qaynatmasi xalq tabobatida nima sifatida ishlatiladi? **Qustiruvchi dori, surgi sifatida ishlatiladi.**
4878. Jumrut daraxti qaysi oylarda gullaydi? **May – iyun oylarida gullaydi.**
4879. Jumrut daraxtining mevasi qaysi oylarda etiladi? **Iyul-avgust oylarida etiladi.**
4880. Jumrut daraxti qaysi viloyatlardagi tog'li tumanlarning sernam yerlarida o'sadi? **Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlaridagi tog'li tumanlarning sernam yerlarida o'sadi.**
4881. Jungor kavragi qanday nom bilan revmatizm, asab, yiringli yaralar davolari, uaborin tezlashtiradi? **"Skipidar ildiz" nomi bilan.**
4882. Juncho'p o't qaysi oilaga mansub necha yillik nima? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**
4883. Juncho'p o't qaysi oylarda gullaydi? **Aprel – may oylarida gullaydi.**

4884. Juncho'p o't O'zbekistonning qayerlarida ko'p o'sadi? **Tog' yon bag'irlarida ko'p o'sadi.**

4885. Juncho'p o't tarkibida qanday modda bor? **Kauchuk moddasi bor.**

4886. Jut qaysi oilaga mansub lub tolali necha yillik o'simlik? **Jo'kadoshlar (minagullilar) oilasiga mansub lub tolali bir yillik o'simlik.**

4887. Jut o'simligining vatani qayer? **Hindiston.**

4888. Jut o'simligi qayerlarda qancha turi bor? **Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Avstraliyaning tropik, subtropik mintaqalarida 40 ga yaqin turi bor.**

4889. Jut o'simligining, asosan, Osiyo mamlakatlarida tolasi uchun bir yillik nechta turi ekiladi? Ularning nomi nima? **2 ta turi ekiladi. Ularning nomi: cho'ziq mevali jut (C. olitarius) va yirik mevali jut (C. capsularus).**

4890. Jut o'simligining O'zbekistonda qachondan cho'ziq mevalisi o'stiriladi? **XX asrning 30-yillaridan.**

4891. Jut o'simligining rangi qanday? **To'q yashil, sarg'ish-jigarrang yoki to'q jigarrang.**

4892. Jut o'simligi qayerdan changlanadi? **O'zidan changlanadi.**

4893. Jut o'simligining barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

4894. Jut o'simligining barglari qanday bandli? **Uzun bandli.**

4895. Jut o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4896. Jut o'simligining guli qanday? **Mayda.**

4897. Jut o'simligining guli qanday rangda? **Sariq.**

4898. Jut o'simligining guli qayerda joylashgan? **Barg qo'ltig'i qarshisida joylashgan.**

4899. Jut o'simligining urug'ida moy necha foiz? **14 foiz.**

4900. Jut o'simligining poyasi qanday o'sadi? **To'g'ri o'sadi.**

4901. Jut o'simligining poyasidan necha foiz texnik tola chiqadi? **20 – 25 foiz texnik tola chiqadi.**

4902. Jut o'simligining tola uzunligi necha m bo'lib, necha mm li epemekatar tolacha (hujayra)dan tashkil topgan? **2 – 3 m bo'lib, 8 – 4,1 mm li epemekatar tolachadan tashkil topgan.**

4903. Jut o'simligining 1000 donasi og'irligi qancha g? **1,5 – 2 g.**

4904. Jut o'simligining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**

4905. Jut o'simligining o'qildizi yerga necha m gacha kirib boradi? **1 – 1,5 m gacha kirib boradi.**

4906. Jut o'simligining mevasi qanday ko'sakcha? **Qovurg'ali ko'sakcha.**

4907. Jut o'simligining mevasi shakli qanday? **Cho'ziq.**

4908. Jut o'simligining cho'ziq mevasi poyasi necha m? **3,5 – 4 m.**

4909. Jut o'simligining mevasi uzunligi necha sm? **1 – 2 sm.**

4910. Jut o'simligining urug'idan qanday moddalar olinadi? **Yurak-qon tomirlari kasalliklarini davolashda ishlatiladigan glikozidlar olinadi.**

4911. Jut o'simligining urug'i qanday? **Mayda.**

4912. Jut o'simligining urug'i necha qirrali? **Uch qirrali.**

4913. Jut o'simligining o'suv davri necha kun? **140 – 150 kun.**

4914. Jut qanday o'simlik? **Namsevar, yorug'sevar, issiqsevar, sovuqqa chidamsiz o'simlik.**

4915. Jut o'simligi kanop o'simligiga qaraganda, ayniqsa qaysi davrda suvga juda talabchan? **O'suv davrida.**

4916. Jut o'simligi qanday tuproqlarda yaxshi o'sadi? **Sur, o'tloqi-botqoqi tuproqlarda yaxshi o'sadi.**

4917. Jut o'simligi nimaga chidamsiz? **Sho'rga chidamsiz.**

4918. Jut tolasi yetishtirish hajmi dunyoda ishlab chiqariladigan o'simlik tolalari ichida nima tolasidan keyin 2-o'rinda turadi? **Paxta tolasidan keyin.**

4919. Jut o'simligi urug'i necha sm chuqurlikka ko'miladi? **3 – 4 sm chuqurlikka ko'miladi.**

4920. Jut o'simligining urug'i qancha ° C haroratda, necha kunda unib chiqadi? **16 – 18° C haroratda, 4 – 6 kunda unib chiqadi.**

4921. Jut o'simligidan gektariga tola olish uchun qancha kg urug'lik sarflanadi? **12 – 14 kg urug'lik sarflanadi.**

4922. Jut o'simligi vegetatsiya davomida necha marta sug'oriladi? **5 – 8 marta sug'oriladi.**

4923. Jut o'simligini sug'orish normasi qancha m^3/ga? **5000 – 7000 m^3/ga.**

4924. Jut o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **90 – 100 s/ga (quruq poya hisobida).**

4925. Jut o'simligining hosildorligi (tola) qancha s/ga? **10 – 14 s/ga.**

4926. Jut o'simligining hosildorligi (urug') qancha s/ga? **3 – 6 s/ga.**

4927. Jut o'simligining tolasidan nimalar tayyorlanadi? **Dasturxon, qop, arqon tayyorlanadi.**

4928. Juft o'simligining changlanishi qanday changlanish? **Yopiqurug'li o'simliklardagi jinsiy jarayon; bunda tuxumhujayra bilan bir qatorda murtak xaltaning markaziy hujayrasi ham otalanadi.**

4929. Juqa daraxti gullaganda gul oldi barglari bilan birga qirqib olinib soya yerda quritilib tayyorlangan damlama qaysi a'zo og'riganda ichilsa, davo bo'ladi? **Bosh og'riganda davo bo'ladi.**

4930. Jo'jaburun gulobi navli qovun urug'idan chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **100 – 115 kunda pishadi.**

4931. Jo'jaburun gulobi navli qovun tarkibida qand necha foiz? **8,1 foiz.**

4932. Jo'jaburun gulobi navli qovun, asosan, qaysi viloyatda ekiladi? **Buxoro viloyatida ekiladi.**

4933. Jo'ka qaysi oilaga mansub buta yoki daraxtlar turkumi? **Jo'kadoshlar (linagullilar) oilasiga mansub buta yoki daraxtlar turkumi.**

4934. Jo'ka daraxtining nechta turi O'zbekistonda o'stiriladi? **9 ta turi o'stiriladi.**

4935. Jo'ka daraxtining bo'yi necha m gacha keladigan daraxt? **25 m gacha keladigan daraxt.**

4936. Jo'ka necha yil yashaydi? **300 – 400 yil yashaydi.**

4937. Jo'ka daraxtining guli tarkibida qanday moy, vitamin, moddalar bor? **Efir moyi, C vitamini, karotin va boshqa moddalar bor.**

4938. Jo'ka daraxtining quritilgan bargi va preparatlari qanday maqsadda ishlatiladi? **Terlatuvchi dori sifatida, shuningdek, damlamasi og'izni chayqash uchun ishlatiladi.**

4939. Jo'ka daraxtining yog'ochi nimalar tayyorlashda ishlatiladi? **Yog'ochi oq, yumshoq bo'lib, mebel, faner va boshqalar tayyorlashda ishlatiladi.**

4940. Jo'ka daraxtining nechta turi dorivor hisoblanadi? **3 ta turi dorivor hisoblanadi.**

4941. Jo'ka daraxtining dorivor turlarining farqlari nimada? **3 ta: rik bargli jo'kalar, mayda bargli jo'ka va yurakbarg jo'ka doriver.**

4942. Jo'rauzum navli uzumning qaysi navi? **Kechpishar xo'raki navi.**

4943. Jo'rauzum navi qayerda qaysi uzum navlari chatishtirib yaratilgan? **O'zbekiston O'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida Nimrang va Pushti Toifi navlarini chatishtirib yaratilgan (A. M. Negrul va M. S. Juravel).**

4944. Jo'rauzum navli uzumning tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

4945. Jo'rauzum navli uzumning bargi qanday? **O'rtacha.**

4946. Jo'rauzum navli uzumning bargi necha bo'lakli? **Besh bo'lakli.**

4947. Jo'rauzum navli uzumning bargi qanday tishli? **Arra tishli.**

4948. Jo'rauzum navli uzumning boshi og'irligi qancha g? **500 – 550 g.**

4949. Jo'rauzum navli uzum g'ujumi qanday, qanday shaklli? **Yirik, tuxumsimon.**

4950. Jo'rauzum navli uzum qanday (serhosilmi yoki kamhosilmi)? **Serhosil.**

4951. Jo'rauzum navli uzum g'ujumi rangi qanday? **Ko'kish oq.**

4952. Jo'rauzum navli uzum po'sti qanday? **Qattiq, yupqa, seret, sersuv.**

4953. Jo'rauzum navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

4954. Jo'rauzum navli uzum tarkibida qand, kislota necha foiz? **23 – 25 foiz qand, 6,5 – 7,5 foiz kislota.**

4955. Jo'rauzum navli uzum qachon pishadi? **Sentabr oyining oxirida pishadi.**

4956. Jo'rauzum navli uzum qachon iste'mol qilinadi? **Yangiligida iste'mol qilinadi.**

4957. Jo'rauzum navli uzum mazasi qanday (yoqimlimi yoki yoqimsizmi)? **Yoqimli.**

4958. Jo'rauzum navli uzumdan qanday ichimliklar tayyorlanadi? **Vinolar tayyorlanadi.**

4959. Jo'rauzum navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **400 – 500 s/ga.**

4960. Jo'rauzum navli uzumning gektaridan qancha t gacha hosil bo'ladi? **25 – 30 t gacha hosil bo'ladi.**

4961. Jo'rauzum navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Toshkent, Samarqand viloyatlarida ekiladi.**

4962. Jo'raqand navli o'rta pishar qaysi mevali poliz ekini navi unib chiqqach, necha kunda pishadi? **Qovun navi, 78 – 90 kunda pishadi.**

4963. Jo'raqand navli qovun qayerda yaratilgan? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**

4964. Jo'raqand navli qovun shakli qanday? **Cho'ziq, ellipssimon yoki tuxumsimon.**

4965. Jo'raqand navli qovun po'sti qanday? **Silliq, bir oz g'adir-budur.**

4966. Jo'raqand navli qovun mayda bo'lib, uzunligi necha sm? **18 – 23 sm.**

4967. Jo'raqand navli qovunning og'irligi qancha kg? **2 – 3 kg.**

4968. Jo'raqand navli qovunning sirti yoppasiga nima bilan qoplangan va qanday? **To'r bilan, to'rlari yirik, dag'alroq.**

4969. Jo'raqand navli qovunning eti qalinligi necha sm? **4 – 4,5 sm.**

4970. Jo'raqand navli qovunning eti rangi qanday? **Oq, ba'zan yashil, muloyim.**

4971. Jo'raqand navli qovunning mazasi qanday? **Shirin.**

4972. Jo'raqand qovunning rangi qanday? **Xira, och yashil.**

4973. Jo'raqand navli qovun urug'i qanday? **O'rtacha sarg'ish.**

4974. Jo'raqand navli qovun yaqin yerlarga yuborishga qanday? **Yaroqli.**

4975. Jo'raqand navli qovun urug'i qaysi kasallikka chidamliroq? **Oqpalak kasalligiga.**

4976. Jo'raqand navli qovun fuzarioz kasalligiga qanday? **Chidamli.**

4977. Jo'raqand navli qovun tarkibida saxaroza necha foiz? **7,2 foiz.**

4978. Jo'raqand navli qovuni tarkibida qand, quruq modda necha foiz? **9,5 foiz qand, 12,1 foiz quruq modda bor.**

4979. Jo'raqand navli qovun navi gektaridan qancha s hosil olinadi? **200 – 280 s hosil olinadi.**

4980. Jo'raqand navli qovun, asosan, qaysi viloyatlarda ekiladi? **Toshkent, Farg'ona viloyatlarida ekiladi.**

4981. Jo'xori qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar nimasi? **G'alladoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simliklar urug'i.**

4982. Jo'xori o'simligi nechta guruhga bo'linadi? Ular qaysi guruhlar? **Uchta guruhga. Ular: don jo'xori, shirin jo'xori va supurgi jo'xori guruhlariga bo'linadi.**

4983. Jo'xori o'simligining qancha yovvoyi va madaniy turi bor? **50 ga yaqin turi bor.**

4984. Jo'xori o'simligining qaysi turlari ko'proq ekiladi? **Donli jo'xori (S. cernuum; oq jo'xori, qo'qon jo'xori, gaolyan va boshq.; shirin jo'xori (S. saccharatum), durra (S. durra); supurgi jo'xori (S. technicum), o'tsimon jo'xori (sudan o'ti – S. Sudanense, o'tsimon jo'xori – S. almum) kabi bir yillik turlari** ko'proq ekiladi.

4985. Jo'xori o'simligining vatani qayer? **Markaziy Afrika.**

4986. Jo'xori o'simligining qanday navlari bor? **Xitoy yantari – 813 (shirin), Kuban yantari, Qizil yantar, Saxarnoe 28/435 va boshq. navlari bor.**

4987. Jo'xori o'simligi mil. avv. nechanchi ming yillikdan beri ekib kelinadi? **4-3-ming yillikdan beri ekib kelinadi.**

4988. Jo'xori o'simligi qayerlarda ekiladi? **Eron, Hindiston, Xitoy, AQSh, Afrika, Okeaniya, Avstraliya, O'rta Osiyo, Ukraina janubida ekiladi.**

4989. Jo'xori o'simligining jahon bo'yicha ekin maydoni qancha ga dan ortiq? **43,6 mln ga dan ortiq.**

4990. Jo'xori o'simligining jahon bo'yicha yalpi hosili qancha mln t? **68,2 mln t (1999).**

4991. Jo'xori o'simligining ekin maydoni O'zbekistonda qancha ga? **9000 ga (1999).**

4992. Jo'xori o'simligining bo'yi necha m gacha? **0,5 – 7 m gacha.**

4993. Jo'xori o'simligining poyasi shirasida necha foiz qand bo'lib, qanday taom ishlab chiqariladi? **10 – 15 foiz qand bo'lib, shinni ishlab chiqariladi.**

4994. Jo'xori o'simligining ildizi necha m chuqurlikka kirib boradi? **2,5 m chuqurlikka kirib boradi.**

4995. Jo'xori o'simligining bargi qanday(kengmi yoki tormi)? **Keng.**

4996. Jo'xori o'simligining bargları nechta bo'ladi? **10 – 25 ta bo'ladi.**

4997. Jo'xori o'simligining to'pguli uzunligi necha sm? **15 – 60 sm.**

4998. Jo'xori o'simligining to'pguli yon shoxlari uchlarida nechta bushoqcha chiqaradi? **Ikkita.**

4999. Jo'xori o'simligining to'pguli yon shoxlari uchlari nechtasida meva hosil bo'ladi? **Bittasida.**

5000. Jo'xori qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi.**

5001. Jo'xori o'simligining doni qandjay (qobiqlimi yoki qobiqsizmi)? **Qobiqli va qobiqsiz.**

5002. Jo'xori o'simligining doni shakli qanday? **Dumaloq, tuxumsimon.**

5003. Jo'xori o'simligining doni rangi qanday? **Oq yoki sariq.**

5004. Jo'xori o'simligining 1000 ta doni og'irligi qancha g? **20 – 70 g.**

5005. Jo'xori muhim nima ekini? **Don ekini.**

5006. Jo'xori doni nimaga ishlatiladi? **Oziq-ovqatga ishlatiladi.**

5007. Jo'xori donidan qanday moddalar tayyorlanadi? **Yorma, un, spirt, kraxmal tayyorlanadi.**

5008. Jo'xori unidan nima yopiladi? **Non yopiladi.**

5009. Jo'xori uni qanday hayvonlarga nima sifatida beriladi? **Mol va parrandalarga to'yimli don sifatida beriladi.**

5010. Jo'xori o'simligining ko'k massasidan nima tayyorlanadi? **Silos tayyorlanadi.**

5011. Jo'xori o'simligining doni qanday? **To'yimli.**

5012. Jo'xori o'simligining tarkibida nimalar bor? **65 – 75 foiz kraxmal, 10 – 12 foiz oqsil va 3,5 foizgacha yog' bor.**

5013. Jo'xori o'simligining poya shirasida necha foiz qand bo'lib, nima ishlab chiqariladi? **10 – 15 foiz qand bo'lib, shinni ishlab chiqariladi.**

5014. Jo'xori o'simligining supurgibopidan nimalar tayyorlanadi? **Supurgilar va cho'tkalar tayyorlanadi.**

5015. Jo'xori qanday ekin sifatida ham ekiladi? **Takroriy ekin sifatida ham ekiladi.**

5016. Jo'xori o'simligi necha yillik o'simlik? **Bir yillik o'simlik.**

5017. Jo'xori qanday tuproqlarda yaxshi o'sadi? **G'ovak tuproqlarda yaxshi o'sadi.**

5018. Jo'xori o'simligi qurg'oqchilikka va issiqlikka qanday? **Chidamli.**

5019. Jo'xori o'simligi sho'rga qanday? **Chidamli**

5020. Jo'xori o'simligining maysasi minus qancha ° C haroratda nobud bo'ladi? **Minus 1° C haroratda nobud bo'ladi.**

5021. Jo'xori o'simligi qancha ° C haroratga chidaydi? **30° C – 40° C haroratga chidaydi.**

5022. Jo'xori o'simligi nimasevar, qanday o'simlik? **Yorug'sevar, qisqa kun o'simlik.**

5023. Jo'xori o'simligi o'suv davrining boshlanishida qanday o'sadi? **Sekin o'sadi.**

5024. Jo'xori o'simligining ekilgan urug'lari necha kunda maysalaydi? **10 – 15 kunda maysalaydi.**

5025. Jo'xori o'simligining ekilgan urug'lari necha kundan keyin tuplanadi? **25 – 30 kundan keyin tuplanadi.**

5026. Jo'xori o'simligining ekilgan urug'lari necha kunda nay o'rami davriga kiradi? **40 – 50 kunda.**

5027. Jo'xori o'simligining ekilgan urug'lari ro'vak chiqarish davri necha kunga boradi? **55 – 65 kunga boradi.**

5028. Jo'xori o'simligi ro'vak chiqarishdan necha kundan keyin gullash boshlanadi? **5 – 6 kundan keyin gullash boshlanadi.**

5029. Jo'xori o'simligining o'suv davri necha kun? **75 – 100 kun.**

5030. Jo'xori o'simligining ko'chat qalinligi har ga da necha tupga boradi? **70 – 100 ming tupga boradi.**

5031. Jo'xori o'simligining qator oralariga necha marta ishlov beriladi? **2 – 3 marta ishlov beriladi.**

5032. Jo'xori o'simligidan sug'oriladigan maydonlarda don qancha s/ga? **25 – 30 s/ga.**

5033. Jo'xori o'simligidan sug'oriladigan maydonlarda ko'k massa qancha s/ga? **300 – 400 s/ga.**

5034. Jo'xori o'simligidan sug'oriladigan maydonlarda intensiv texnologiya usullari qo'llanilganda qancha s/ga don olinadi? **100 – 115 s/ga don olinadi.**

5035. Jo'xori o'simligidan sug'oriladigan maydonlarda intensiv texnologiya usullari qo'llanilganda qancha s/ga ko'kpoya olinadi? **1000 – 1200 s/ga ko'kpoya olinadi.**

5036. Jo'xori o'simligining nechta turi O'zbekistonda bo'lib, ko'proq qayerlarda o'stiriladi? **7 ta turi bo'lib, ko'proq Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlari, Markaziy Farg'ona va Mirzacho'lning sug'oriladigan sho'r yerlarida o'stiriladi.**

5037. Jo'xori o'simligining O'zbekistonda qaysi navlari ekiladi? **Kattabosh, Chillaki, O'zbekiston 5, Sangzor, O'zbekiston 18, Karlik (Pastak) va boshq. navlari ekiladi.**

5038. Jo'xori o'simligining don jo'xori (S. vulgare pers) guruhiga eng issiqsevar o'simliklardan hisoblangan qaysilar kiradi? **Oq jo'hori, goolyan va boshq. kiradi.**

5039. Jo'xorining don jo'xori guruhining o'suv davri necha kun? **100 – 150 kun.**

5040. Jo'xori o'simligining don jo'xori guruhi nimasi chorva mollariga yem sifati beriladi? **Doni chorva mollariga yem sifatida beriladi.**

5041. Jo'xori o'simligining doni qanday moddalar tayyorlashda ishlatiladi? **Kraxmal va spirt tayyorlashda ishlatiladi.**

5042. Jo'xori o'simligining doni goho nima sifatida ishlatiladi? **G'alla sifatida ishlatiladi.**

5043. Jo'xori o'simligining shirin jo'xori (S. saccharatum Pers) issiqsevarligi don jo'xoriga nisbatan qanday? **Pastroq.**

5044. Jo'xori o'simligining shirin jo'xori guruhi o'suv davri necha kun? **100 – 140 kun.**

5045. Jo'xori o'simligining shirin jo'xori guruhi doni qanday, ta'mi qanday? **Pardali, sal achchiq.**

5046. Kabachka, qovoqcha qaysi guruhga mansub sabzavot ekin? **Qattiq po'stli qovoqlar guruhiga mansub sabzavot ekin.**

5047. Kabachka o'simligining qanday turlari bor? **Gretsiya va Italiya kabachkalari turlari bor.**

5048. Kabachka o'simligining mevasi necha kunda yetiladi? **40 – 45 kunda kunda yetiladi.**

5049. Kabachka necha yillik o'simlik? **Bir yillik o'simlik.**

5050. Kabachka o'simligi necha uyli? **Bir uyli o'simlik.**

5051. Kabachkaning palakpovasi qanday o'simlik? **Qisqa o'simlik.**

5052. Kabachka o'simligining mevasi shakli qanday? **Cho'zinchoq, silindrsimon.**

5053. Kabachka o'simligining mevasi og'irligi qancha g? **350 – 400 g.**

5054. Kabachka o'simligining mevasi sirti qanday? **Silliq.**

5055. Kabachka o'simligining mevasi rangi qanday? **Och yashil, toza pishganda novvotrang.**

5056. Kabachka o'simligining 2 – 4 kunlik yosh mevasi nima uchun ishlatiladi? **Sirkalash uchun ishlatiladi.**

5057. Kabachka o'simligining pishgan mevalari qayerda va qaysi sanoatda ishlatiladi? **Pazandachilikda va konserva sanoatida ishlatiladi.**

5058. Kabachka o'simligining yillik mevalari yangiligida qanday mollarga beriladi va nima qilinadi? **Chorva mollariga beriladi va silos qilinadi (1 kg = 0,07 ozuqa birligi).**

5059. Kabachka urug'lari tuproq harorati qancha ° C ga yetganda necha sm chuqurlikda ekiladi? **Harorat 12° C - 17° C ga yetganda 5 – 7 sm chuqurlikda ekiladi.**

5060. Kabachka o'simligining tarkibida qanday moddalar va kimyoviy elementlar bor? **4,9 foiz quruq modda, 2,55 foiz qand, 0,55 foiz oqsil, 0,13 foiz yog', kalsiy, fosfor va kletchatka bor.**

5061. Kabachka o'simligining O'zbekistonda qaysi navi ekiladi? **Grek 110 navi ekiladi.**

5062. Kabachka o'simligining tabobatda nimasi qaynatilib, suvi nimalarni muolaja qilishda qo'llaniladi? **Guli, yaralarni muolaja qilishda qo'llaniladi.**

5063. Kavkaz va Qrimda po'kakli emanning qaysi turlari ekiladi? **Chin va G'arb po'kakli eman turlari ekiladi.**

5064. Kavkaz savrinjoni (S. speciosum). kuzgi savrinjon (C. autumnale) va boshq. qanday o'simlik sifatida o'stiriladi? **Manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.**

5065. Kavsha, kafsha, qushqo'nmas qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

5066. Kavsha o'tining poyasi uzun nimalar bilan qoplangan? **Tuklar bilan qoplangan.**

5067. Kavsha o'tining bo'yi necha sm? **20 – 70 sm.**

5068. Kavsha o'tining yopirma barglari nechta? **6 – 8 ta.**

5069. Kavsha o'tining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

5070. Kavsha o'tining guli rangi qanday? **Sariq.**

5071. Kavsha o'ti qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

5072. Kavsha o'ti qaysi oylarda meva beradi? **Iyul – avgust oylarida meva beradi.**

5073. Kavsha o'ti qaysi viloyatlarda ko'p o'sadi? **Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida ko'p o'sadi.**

5074. Kazuarina qaysi oilaga mansub qaysi o'simliklar turkumi? **Kazuarinadoshlar (kazuarinagullilar) oilasiga mansub butalar va daraxtlar turkumi.**

5075. Kazuarina daraxtining nechtacha turi bor? **60 tacha turi bor.**

5076. Kazuarina daraxti, asosan, qayerlarda tarqalgan? **Asosan, Avstraliyada, shuningdek, Tasmaniyada hamda Fiji va Yangi Kaledoniyadan to Birmagacha tarqalgan.**

5077. Kazuarina daraxti Kavkazda qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

5078. Kakao, shokolad daraxti qaysi o'rmonlarda qanday holda o'sadi? **Markaziy va Janubiy Amerika o'rmonlarida yovvoyi holda o'sadi.**

5079. Kakao, shokolad daraxti – sterkuliyadoshlar oilasi Theobroma avlodiga mansub qanday daraxtlar turi? **Doim yashil daraxtlar turi.**

5080. Kakao daraxti nechanchi asrda Venesuelada, so'ngra qayerda ekila boshlagan? **XVII asrda Venesuelada, so'ngra Braziliyada ekila boshlagan.**

5081. Kakao nechanchi asr oxiri Afrikada ekila boshlagan? **XIX asr oxiri (1884-yildan).**

5082. Kakao qayerlarda ekiladi? **Janubiy Amerika, Osiyo (Filippin, Hindiston, Yaman, Indoneziya)da ekiladi.**

5083. Kakao daraxti qadimda qayerda ekilgan? **Meksikada ekilgan.**

5084. Kakao necha yillik doimiy qanday daraxt? **Ko'p yillik doimiy yashil daraxt.**

5085. Kakao daraxti Yevropaga (Ispaniya) nechanchi yili keltirilgan? **1520-yili keltirilgan.**

5086. Kakao daraxtining o'rtacha hosildorligi qancha s/ga? **6,16 s/ga.**

5087. Kakao daraxti qancha ga yerga ekiladi? **3,8 mln ga yerga ekiladi.**

5088. Kakao daraxti eng ko'p qayerda ekiladi? **Afrikada ekiladi.**

5089. Kakao urug'i tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **50 – 53 foiz moy, 14,5 foiz azotli moddalar, 1,3 – 1,7 foiz teobrolin alkaloidi, oshlovchi moddalar, oqsil, qand, kraxmal bor.**

5090. Kakao kukuni tarkibida necha foizgacha yog' bor? **15 foizgacha yog' bor.**

5091. Kakao daraxtining bo'yi necha m ga boradi? **4 – 8 m ga boradi.**

5092. Kakao o'stirish uchun yog'ingarchilik miqdori yiliga necha mm, doimiy qurg'oqchilik davri necha oydan oshmaydigan, o'rtacha havo harorati qancha ^{0} C dan kam bo'lmagan hududlar qulay hisoblanadi? **2 – 5 ming mm, 3 – 4 oydan oshmaydigan, 21^0 C dan kam bo'lmagan hududlar qulay hisoblanadi.**

5093. Kakaoning qanday turi yil davomida gullaydi, meva hosil qiladi? **Madaniy turi yil davomida gullaydi, meva hosil qiladi.**

5094. Kakaoning tinim davri qanday bo'lishi mumkin? **Juda qisqa bo'ladi yoki bo'lmasligi ham mumkin.**

5095. Kakao qanday yillarda kam hosil beradi va daraxtlari qurib qoladi? **Yog'ingarchilik kam bo'lgan yillarda qurib qoladi.**

5096. Kakao qanday qilib ko'paytiriladi? **Urug'idan, qalamchasidan payvand qilib ko'paytiriladi.**

5097. Kakao ko'chati o'tqazilgandan keyin nechanchi yildan hosil beradi? **4-5-yildan hosil beradi.**

5098. Kakao daraxti nechanchi yili to'liq hosilga kiradi? **10-yili hosilga kiradi.**

5099. Kakao daraxti mevasining og'irligi qancha g keladi? **300 – 600 g keladi.**

5100. Kakao daraxti mevasining uzunligi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

5101. Kakaoning daraxti har bir mevasi ichida nechta urug' (dukkak) bo'ladi? **25 – 60 ta.**

5102. Kakao daraxtining mevasi necha oyda pishadi? **4 – 5 oyda pishadi.**

5103. Kakaoning bir tup daraxtidan qancha kg urug' olinadi? **0,5 – 2 kg urug' olinadi.**

5104. Kakao daraxtining urug'i bo'yicha hosildorligi qancha s/ga? **12 – 15 s/ga.**

5105. Kakao dukkagi qayta ishlashdan oldin tozalanadi, fermentlanadi, quritiladi, qovuriladi, dukkak po'chog'idan ajratiladi, maydalanadi va press mashinalarda nimasi olinadi? **Moyi olinadi.**

5106. Kakao O'zbekistonning qayerida ekiladi? **Hech qayerida ekilmaydi, chunki tuproq-iqlim sharoiti kakao texnologiyasiga mos emas.**

5107. Kakao urug'i kunjarasidan olinadigan kukun (upa) va undan issiq va sovuq nima tayyorlanadi? **Ichimlik tayyorlanadi.**

5108. Kakao kukuni tarkibida necha foizgacha yog' mavjud? **15 foizgacha yog' mavjud.**

5109. Kakao kukuni nimalarga qo'shiladi? **Shirinlik (krem, muzqaymoq), qiyom va boshq.ga qo'shiladi.**

5110. Kakku yo'sini, kakku zig'iri qaysi yo'sinlarning bir nimasi? **Barg-poyali yo'sinlarning bir turi.**

5111. Kakku yo'sinining bo'yi necha sm cha? **40 sm cha.**

5112. Kakku yo'sini qayerlarda uchraydi? **Botqoq va zax yerlarda uchraydi.**

5113. Kakku yo'sini, kakku zig'iri deyilishiga nima sabab? **Chunki yo'sini poyasining uchida kakkuga o'xshash qalpoqchali spora qutichasi (sporangiy) bo'lganligi uchun.**

5114. Kakku yo'sini O'zbekistonda qayerlarda o'sadi? **Ariq chetlarida, tosh va qoyalarda, daraxt po'stloqlarida o'sadi.**

5115. Kaklik o't, tog'jambil, toshcho'p qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansuh ko'p yillik o'simlik.**

5116. Kaklik o'tining bo'yi necha sm cha? **15 sm cha.**

5117. Kaklik o'ti qayerlarda o'sadi? **Toshloq yerlarda, tog' yon bag'irlarida o'sadi.**

5118. Kaklik o'ti qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – avgust oylarida gullaydi.**

5119. Kaklik o'ti qaysi oyda urug'laydi? **Sentabr oyida urug'laydi.**

5120. Kaklik o'ti maysaligida nima sifatida ovqatga ishlatiladi? **Ziravor sifatida ovqatga ishlatiladi.**

5121. Kaklik o'tida qaysi davrda efir moyi ko'p to'planadi? **Gullagan davrida.**

5122. Kaklik o'tining yer ustki qismidan qaysi sanoatlarda ishlatiladigan efir moyi olinadi? **Farmatsevtika va upa-elik sanoatlarida.**

5123. Kakra qaysi oilaga mansub necha yillik nima? **Qoqidoshlar (qoqidoshlar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

5124. Kakra o'simligining bo'yi necha sm? **60 – 100 sm.**

5125. Kakra o'simligi qayerda ko'p tarqalgan? **O'rta Osiyoda, Qozog'istonda, Kavkazda ko'p tarqalgan.**

5126. Kakra o'simligining tarkibida qanday moddalar bor? **Alkaloidlar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.**

5127. Kakra o'simligining poyasi qanday (sershoxmi yoki kamshoxmi, serbargmi yoki kambargmi)? **Sershox, serbarg.**

5128. Kakra o'simligining barglari qanday? **Dag'al.**

5129. Kakra o'simligining barglari shakli qanday? **Nashtarsimon.**

5130. Kakra o'simligi barglarining pastkilari cheti qanday? **Arra tishli.**

5131. Kakra o'simligining gullari ranglari qanday? **Pushti, oq, havorang.**

5132. Kakra o'simligining urug'i qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

5133. Kakra o'simligi qachon gullab, urug'laydi? **Yoz o'rtalarida gullab, urug'laydi.**

5134. Kakra o'simligi qayerlarda o'sadi? **Toshloq va sho'rxok yerlarda, tog' yonbag'irlarida, yo'l yoqalarida, hamma ekinlar orasida o'sadi.**

5135. Kakra o'simli giqurg'oqchilikka qanday? **Chidamli.**

5136. Kakra o'simligi xashakka aralashsa (ayniqsa, gullagan vaqtida) nima uchun mollar zaharlanishi mumkin? **Chunki tarkibida alkaloidlar bor.**

5137. Kaktuslar – kaktusdoshlarga mansub necha yillik qanday poyali o'simliklar? **Ko'p yillik semiz poyali o'simliklar.**

5138. Kaktuslar orasida qanday shakllari bor? **Daraxtsimon, butasimon yoki liona shaklilari bor.**

5139. Kaktuslarning qancha turkumi bor? **80 ga yaqin turkumi bor.**

5140. Kaktuslarning qancha turi ma'lum? **2000 dan ortiq turi ma'lum.**

5141. Kaktuslarning deyarli hammasi qayerda tarqalgan? **Amerika (yarmi Meksika)da tarqalgan.**

5142. Kaktuslar yovvoyi holda qayerlarda o'sadi? **Tropik va subtropik cho'llarda, dengiz bo'ylarida, savannalarda o'sadi.**

5143. Kaktuslar qanday guruhlarga bo'linadi? **Opuntsiyalar, tsereuslar, mamillyariyalar, epifillyumlar, ripsalislarga bo'linadi.**

5144. Kaktuslarning Opuntsiya guruhi qanday shaklda, nimadan iborat? **Dumaloq yoki ovalsimon yassi, bir-biriga birikib o'sgan tanadan iborat.**

5145. Kaktuslarning ko'pgina turlari qanday gullaydi? **Chiroyli gullaydi.**

5146. Kaktuslarning maysalari urug'i ekilganidan keyin necha kunda paydo bo'ladi? **3 – 30 kunda paydo bo'ladi.**

5147. Kaktuslarni payvandlash qaysi oylarda o'tkaziladi? **May-avgust oylarida o'tkaziladi.**

5148. Kaktuslar qaysi fasldan qaysi faslgacha gullaydi? **Erta bahordan kuzgacha (ayrim turlari qishda ham) gullaydi.**

5149. Kaktuslar qishda tuyda qancha ° C haroratda saqlanadi? **8° C – 10° C haroratda saqlanadi.**

5150. Kaktusdoshlar, kaktusgullilar necha pallali necha yillik o'simliklar nimasi? **Ikki pallali ko'p yillik o'simliklar oilasi.**

5151. Kaktusdoshlarning ko'pi faqat qaysi vaqtda gullaydi? **Kechqurun yoki kechasi gullaydi.**

5152. Kaktuslarning ba'zi turlari o'z tanasida qancha kg suv to'play oladi? **1000 – 3000 kg suv to'play oladi.**

5153. Kaktusdoshlarning qancha turkumi, qancha turi bor? **80 ga yaqin turkumi, 2000 dan ortiq turi bor.**

5154. Kalla, oddiy karnaygul qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simlik? **Kuchaladoshlar oilasiga mansub ko'p yillik manzarali o'simlik.**

5155. Kalla o'simligi qayerdan keltirilgan? **Janubiy Afrikadan keltirilgan.**

5156. Kalla qanday o'simlik? **Botqoq o'simligi.**

5157. Kalla o'simligi qanday tuproqlarda yaxshi o'sadi? **Chirindili tuproqlarda yaxshi o'sadi.**

5158. Kalla o'simligining tupi balandligi necha sm? **80 – 120 sm.**

5159. Kalla o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Oktabr – dekabr oylarida gullaydi.**

5160. Kalla o'simligidan qaysi oylarda har bir katta yoshdagidan nechtagacha bachki ildiz olish mumkin? **3 – 10 tagacha bachki ildiz olish mumkin.**

5161. Kalla o'simligining bir tupidan yiliga nechta gul olinadi? **3 – 6 ta gul olinadi.**

5162. Kalla o'simligidan nechtacha 1 m^2 maydonga ekiladi? **12 tasi ekiladi.**

5163. Kalla o'simligining kesilgan gullari suvda necha kun saqlanadi? **12 – 14 kun saqlanadi.**

5164. Kallapo'sh, Ko'k kallapo'sh ertapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

5165. Kallapo'sh navli qovunning tarkibida qand necha foiz? **6,2 – 8,6 foiz.**

5166. Kallapo'sh navli qovun tarkibida saxaroza, quruq modda necha foiz? **Saxaroza 2,6 – 5,2 foiz; quruq modda 8,1 – 11,4 foiz.**

5167. Kallapo'sh navli qovun necha kunda pishadi? **70 – 75 kunda pishadi.**

5168. Kallapo'sh navli qovun shakli qanday? **Sal yalpoq.**

5169. Kallapo'sh navli qovunning uzunligi necha sm? **15 – 21 sm.**

5170. Kallapo'sh navli qovunning og'irligi qancha kg? **2,5 – 3,5 kg.**

5171. Kallapo'sh navli qovunning sirti qanday? **Tilim-tilim, tilimlari orasidagi yo'llari uncha botiq emas.**

5172. Kallapo'sh navli qovunning rangi qanday? **Oqish, yashil.**

5173. Kallapo'sh navli qovunning qanday xillari bor? **Yashil xillari bor.**

5174. Kallapo'sh navli qovunning eti qalinligi necha sm? **5 – 5,5 sm.**

5175. Kallapo'sh navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **180 – 250 s/ga.**

5176. Kallapo'sh navli qovun qaysi vodiyda keng tarqalgan? **Zarafshon vodiysida keng tarqalgan.**

5177. Kallapo'sh navli qovun qaysi viloyatlar uchun rayonlashtirilgan? **Xorazm, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari uchun rayonlashtirilgan.**

5178. Kallapo'sh navli qovun quritilganda ko'p nima tushadi? **Qoqi tushadi.**

5179. Kallapo'sh navli qovunning qoqisi qanday sifatli? **Yuqori sifatli.**

5180. Kalamit o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

5181. Kalamit navli qovun tarkibida necha foiz qand, saxaroza, quruq modda bor? **7 – 10,8 foiz qand, 3,8 – 6,1 foiz saxaroza, 8,6 – 12 foiz quruq modda bor.**

5182. Kalamit navli qovun ko'proq qaysi viloyatlarda ekiladi? **Andijon va Farg'ona viloyatlarida ekiladi.**

5183. Kalamit navli qovunning urug'i ko'karib chiqqach, necha kunda pishadi? **75 – 80 kunda pishadi.**

5184. Kalamitnamolar – qirilib bitgan bo'g'im tanali o'simliklar nimasi? **Qabilasi.**

5185. Kalamitnamolarning bo'yi necha m? **8 – 12 m.**

5186. Kalamitnamolarning diametri necha m bo'lgan? **0,5 – 1 m bo'lgan.**

5187. Kalamitnamolarning asosiy turkumi – Calamitesning nechta kenja turkumi bo'lgan? **3 ta kenja turkumi bo'lgan.**

5188. Kalamitnamolar qanday zonaning past va ko'pincha, botqoq yerlarida juda ko'p tarqalgan? **Tropik zonaning past va ko'pincha, botqoq yerlarida juda ko'p tarqalgan.**

5189. Kalamitnamolarning poyasi qanday a'zolarga ajralgan? **Bo'g'imlilar (tugunlar) bilan bo'g'im oraliqlariga ajralgan.**

5190. Kalendula qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? Murakkabguldoshlar **(murakkabgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

5191. Kalendula o'ti qayerlarda o'sadi? **Dengiz qirg'oqlarida o'sadi.**

5192. Kalendula o'ti, asosan, qayerlarda tarqalgan? **O'rta dengizda hamda Markaziy Yevropada tarqalgan.**

5193. Kalendula qanday bargli va poyali, necha yillik nima? **Yaxlit bargli, shoxlangan poyali, bir va ko'p yillik o't.**

5194. Kalendula o'tining qancha turi bor? **20 dan ortiq turi bor.**

5195. Kalendula (tirnoqgul) o'simligining bo'yi necha sm ga boradi? **50 sm ga boradi.**

5196. Kalendula necha yillik o'simlik? **Bir yillik o'simlik.**

5197. Kalendula o'simligining ildizi shoxlaydigan qanday ildizli? **O'qildizli.**

5198. Kalendula o'simligining bargları qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

5199. Kalendula o'simligi qaysi oydan qachongacha gullaydi? **Iyundan kech kuzgacha gullaydi.**

5200. Kalendula o'simligining mevaları qachondan boshlab pishib boradi? **Iyul oxiridan boshlab pishib boradi.**

5201. Kalendula o'simligining vatani qayer? **Janubiy va Markaziy Osiyo.**

5202. Kalendula o'simligi O'rta Osiyoning qaysi Respublikasida, jumladan, Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi qaysi o'rmon xo'jaligida dorivor o'simlik sifatida o'stiriladi? **Barcha Respublikalarida, jumladan, "Qo'shtol" o'rmon xo'jaligida o'stiriladi.**

5203. Kalendula o'simligining gullarida qanday moddalar, kislotalar bor? **Karotin, efir moylari, azotli va shilimshiq moddalar, katronlar, organik kislotalar bor.**

5204. Kalendula o'simligining yer ustki qismida nima degan achchiq modda, shuningdek, yana qanday moddalar bor? **Kalenden degan achchiq modda, shuningdek, oshlovchi moddalar, triterpendiallar va saponinlar bor.**

5205. Kalendula o'simligining urug'larida qanday moddalar bor? **Efir moylari va alkaloidlar bor.**

5206. Kalendula o'simligini Abu Ali ibn Sino qanday kasalliklarga davo qilish uchun ishlatgan? **"Kal" kasalligi, belangiga (belog'rig'iga) davo qilish uchun ishlatgan.**

5207. Kalendula o'simligini Abu Ali ibn Sino qanday jonivorlar chaqqan odamlarga tavsiya qilgan? **Ilon, chayon chaqqan odamlarga tavsiya qilgan.**

5208. Kalendula o'simligi qanday kasalliklarga davo sifatida ishlatiladi? **Dog' tushgan badanga, gush kasalligiga, mastit**

(sut bez yallig'lanishi)ga, gepatitga, xoletsistitga, yara kasalligiga, gipertoniyaga, siydik-tosh kasalliklariga davo sifatida ishlatiladi.

5209. Kalendula o'simligi gullaridan qaysi davlatda yara-jarohatlarni bitiradigan, odamni terlatadigan vosita sifatida keng foydalaniladi? **Farangistonda keng foydalaniladi.**

5210. Kalendula o'simligini hind tabobatida qanday dori sifatida tavsiya etiladi? **Odamni quvvatga kiritib, tetiklashtiradigan dori sifatida tavsiya etiladi.**

5211. Kalendula o'simligi preparatlarining zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarga davo qilishda foydalaniladi? **Markaziy asab sistemasini tinchlantirib, qon bosimini pasaytirish, yurak ishi maromini o'rniga keltirish, kasallik tug'diruvchi ko'pgina bakteriyalarga halokatli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan, shuningdek, jigar, taloq, buyrak, me'da, o't yo'llari kasalliklari, gipertoniya, ateroskleroz, yurak kasalliklari, klamaksga davo qilishda foydalaniladi.**

5212. Kaltsefil o'simliklar qanday tuproqda o'sadigan o'simliklar? **Serhak tuproqda o'sadigan o'simliklar,** masalan: **qora qayin, qishki dub,** rus **bo'tako'zi va boshq.**

5213. Kaltsefob o'simliklar qanday tuproqda o'solmaydigan o'simliklar? **Serohak tuproqda o'solmaydigan o'simliklar.**

5214. Kameliya qaysi oilaga mansub doim yashil past bo'yli daraxt va butalar nimasi? **Choydoshlar (choygullilar) oilasiga mansub doim qanday past bo'yli daraxt va butalar turkumi.**

5215. Kameliya daraxtining nechtacha turi bor? **60 tacha turi bor.**

5216. Kameliya daraxtining qaysi turi eng ko'p tarqalgan? **Yapon kameliyasi. (C. japonica) turi eng ko'p tarqalgan.**

5217. Kameliya daraxtining bargi qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

5218. Kameliya daraxtining bargi qanday rangli? **To'q qizil rangli.**

5219. Kameliya daraxtining bargi qanday bandli? **Qisqa bandli.**

5220. Kameliya daraxtining barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

5221. Kameliya daraxtining guli qanday? **Yirik, yakka.**

5222. Kameliya daraxtining gullari qanday ranglarda? **Oq, pushti, qizil ranglarda.**

5223. Kameliya daraxtining mevasi nechta yirik urug'li ko'sak? **Bir yoki bir nechta.**

5224. Kameliya daraxti qayerlarda ekiladi? **Kavkaz va Qrimning Qora dengiz qirg'og'ida, bog' va parklarda ekiladi.**

5225. Kameliya daraxtining bargida, urug'ida necha foiz qanday moddalar bor? **10 foizgacha saponin, 1 foizcha efir moyi, urug'ida 60 foizcha moy bor.**

5226. Kameliya daraxtining tarkibidagi efir moyining necha foizchasi evgenoldan iborat? **97 foizchasi evgenoldan iborat.**

5227. Kameliya daraxtining tarkibidagi evgenol qaysi kasallikni davolashda, efir moyi qaysi sanoatda ishlatiladi? **Tish kasalliklarini davolashda, efir moyi upa-elik sanoatida ishlatiladi.**

5228. Kamoliy o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

5229. Kamoliy o'rtapishar qovun navining uzunligi necha sm? **20 – 27 sm.**

5230. Kamoliy o'rtapishar qovun navining og'irligi qancha kg? **2 – 3 kg.**

5231. Kamoliy o'rtapishar qovun navi ko'proq qaysi viloyatlarda ekiladi? **Andijon va Farg'ona viloyatlarida ekiladi.**

5232. Kamoliy o'rtapishar qovun navining tarkibida qand, saxaroza, quruq modda necha foiz? **Qand – 7 – 10,8 foiz, saxaroza – 3,8 – 6,8 foiz, quruq modda – 8,6 – 12 foiz.**

5233. Kampirsoch qaysi oilaga mansub o'simlik? **Sapsardoshlar (sapsargullilar) oilasiga mansub o'simlik.**

5234. Kampirchopon qaysi oilaga mansub necha yillik sershox o't? **Govzabondoshlar (govzabongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik sershox o't.**

5235. Kampirchopon o'tining bo'yi necha sm? **50 – 80 sm.**

5236. Kampirchopon o'ti O'zbekistonning qayerlarida o'sadi? **Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidan boshqa hamma viloyatlaridagi adirlarda, tog' etaklarida va ekinlar orasida o'sadi.**

5237. Kampirchopon o'ti qaysi oylarda gullab, mevalaydi? **Aprel-oktabr oylarida gullab, mevalaydi.**

5238. Kampirchopon o'tning ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**

5239. Kampirchopon o'tining ildizi, poyasi, bargi va urug'ida necha foiz nimalar bor? **Trixodesmin, nikanin** va boshqa al-

kaloidlar (poyasi va bargida 1 foiz, pishmagan urug'ida 2,71 foiz, pishgan urug'ida 1,5 foiz gacha) bor.

5240. Kampirchopon o'tining bosh ildizi necha m chuqurlikkacha kiradi? **5 – 6 m chuqurlikkacha kiradi.**

5241. Kampirchopon o'tining urug'lari qanday? **Zaharli.**

5242. Kampirchopon o'tining poyasi qanday (sershoxmi yoki kamshoxmi)? **Sershox.**

5243. Kampirchopon o'ti qanday o'sadi? **Yer bag'irlab, ba'zan tikka o'sadi.**

5244. Kampirchopon o'tining hamma qismlari qanday tuklar bilan qoplangan? **Kumushsimon oq tuklar bilan qoplangan.**

5245. Kampirchopon o'ti barglarining hamma qismlari nimalar bilan qalin qoplangan? **Kumushsimon oq tuklar bilan qalin qoplangan.**

5246. Kampirchopon o'ti gullarining rangi qanday? **Zangori.**

5247. Kampirchopon o'tining mevasi qandaysimon yong'oqcha? **Tuxumsimon yong'oqcha.**

5248. Kampirchopon o'tining qishlab chiqqan urug'lari qancha °C haroratda unadi? **7° C – 10° C haroratda unadi.**

5249. Kampirchopon o'tining maysalari qachon ko'karadi? **Mart-aprel boshlarida ko'karadi.**

5250. Kampirchopon o'tining bir tupi nechtagacha urug' beradi? **1000 tagacha urug' beradi.**

5251. Kampirchopon o'ti otlarda qanday kasallikni qo'zg'atadi? **Otlarda so'yliq kasalligini qo'zg'atadi.**

5252. Kampirchopon o'ti xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Yara va chipqonlarni davolashda ishlatiladi.**

5253. Kampirqursoq qaysi toifaga mansub o'simlik? **Yo'sinlar toifasiga mansub o'simlik.**

5254. Kampirqursoq o'simligining bo'yi necha sm? **1 – 1,5 sm.**

5255. Kampirqursoq o'simligi qaysi turkumga mansub yo'sin? **Kampirqursoqlar turkumiga mansub yo'sin.**

5256. Kampirqursoq o'simligi qayerlarda o'sadi? **O'rta Osiyo cho'llarida, ko'pincha, boyalich va juzg'un kabi butalar tagida, qum tepaliklarining shimoliy yonbag'irlarida yoki tekisliklarda o'sadi.**

5257. Kampirqursoq o'simligi qachon qanday bo'lib o'sib chiqadi? **Qishning iliq kunlarida va erta bahorda yomg'irdan so'ng yam-yashil bo'lib, o'sib chiqadi.**

5258. Kampirqursoq o'simligi yog'ingarchilik tugab, kunlar isiy boshlashi bilan qanday tusga kirib, qaysi mavsumgacha yotadi? **Qora-qo'ng'ir tusga kirib, kelgusi mavsumgacha yotadi.**

5259. Kampirqursoq o'simligi juda zich o'sib, qayerda alohida qatlamlar hosil qiladi? **Tuproqda alohida qatlamlar hosil qiladi.**

5260. Kampirqursoq o'simligi paydo bo'lgan maydonlarda qaysi o'tlar kamayib ketadi? **Iloq, yaltirbosh va boshq. o'tlar kamayib ketadi.**

5261. Kampirquloq o'simligi O'rta Osiyoning qayerlarida o'sadi? **O'rta Osiyo cho'llarida o'sadi.**

5262. Kampirquloq o'simligi ko'pincha qayerlarda o'sadi? **Ko'pincha, boyalich va juzg'un kabi butalar tagida, qum tepalarining shimoliy yonbag'irlarida yoki chuqurliklarda o'sadi.**

5263. Kamfora daraxti, kamfora lavri qaysi oilaga mansub doim qanday daraxt? **Lavrdoshlar oilasiga oid doim yashil daraxt.**

5264. Kamfora daraxti qayerlarda o'sadi? **Janubiy Xitoy va Yaponiya orollarida o'sadi.**

5265. Kamfora daraxtining hamma qismida qanday modda bor? **Efir moyi bor.**

5266. Kamfora daraxtining tarkibidagi efir moyidan nima olinadi? **Kamfora olinadi.**

5267. Kamfora daraxtining bo'yi necha m? **20 – 25 m.**

5268. Kamfora daraxtining diametri necha m gacha? **2,5 m gacha.**

5269. Kamfora daraxtining bargi qanday? **Etli, xushbo'y.**

5270. Kamfora daraxtining guli qanday? **Ko'rimsiz, mayda.**

5271. Kamfora daraxtining guli rangi qanday? **Oqish.**

5272. Kamxastak, sassiq qayin qaysi oilaga mansub qanday shox-shabbali daraxt? **Ra'nodoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub keng shox-shabbali daraxt.**

5273. Kamxastak daraxtining tana diametri necha sm? **20 – 30 sm.**

5274. Kamxastak daraxtining bo'yi necha m? **10 – 12 m.**

5275. Kamxastak daraxtining rangi qanday? **Kulrang yoki to'q kulrang.**

5276. Kamxastak daraxtining bargi shakli qanday? **Dumaloq, tuxumsimon.**

5277. Kamxastak daraxtining bargi qanday? **Bandli, qalin.**

5278. Kamxastak daraxtining bargi uzunligi necha sm? **6 sm.**

5279. Kamxastak daraxtining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

5280. Kamxastak daraxtining guli qanday hidli? **Xushbo'y hidli.**

5281. Kamxastak daraxtining gultoji rangi qanday? **Yashil, oqish-qo'ng'ir.**

5282. Kamxastak daraxtining to'pguli qanday? **Shingilsimon.**

5283. Kamxastak daraxtining mevasi qanday? **Mayda.**

5284. Kamxastak daraxtining meva rangi qanday? **Qora, qizil, yashil, oqish-qo'ng'ir-sariq.**

5285. Kamxastak daraxtining mevasi ta'mi qanday? **Sershira, nordon.**

5286. Kamxastak daraxtining mevasi erta pishib, nimaga chidamli bo'ladi? **Qurg'oqchilikka chidamli bo'ladi.**

5287. Kamxastak, sassiq qayin daraxti qaysi oyda gullaydi? **Aprel oyida gullaydi.**

5288. Kamxastak, sassiq qayin qaysi oylarda meva beradi? **Iyul – avgust oylarida meva beradi.**

5289. Kamxastak daraxti O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi tog'larda va soy bo'ylarida o'sadi? **Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi tog'larda va soy bo'ylarida o'sadi.**

5290. Kamxastak daraxtiga payvand qilingan qaysi mevali daraxtlar tez o'sadi? **Gilos va olovlilar tez o'sadi.**

5291. Kanakunjut qaysi oilaga mansub ko'p yillik o'simlik? **Sutlamadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

5292. Kanakunjut o'simligi, asosan, nima olish uchun ekiladi? **Moy olish uchun ekiladi.**

5293. Kanakunjut o'simligining nechta turi uchraydi? Ular qaysilar? **Uch turi. Ular quyidagilar: mayda urug'i – Ricimus micracarpus G. pop; yirik urug'i – Picimus macrocarpus G. pop; zanzibar kanakunjut [Ricinus zanzibarinus G. pop (R. communis)].**

5294. Kanakunjut o'simligi qayerda qachondan boshlab ekilgan? **Misrda mil. avv. 2-ming yillikdan boshlab ekilgan.**

5295. Kanakunjut o'simligi jahondagi ko'pgina mamlakatlar dehqonchiligida necha yillik ekin tarzida o'stiriladi? **Bir, ikki va uch yillik ekin tarzida o'stiriladi.**

5296. Kanakunjut o'simligi O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqalarida necha yillik ekin? **Bir yillik ekin.**

5297. Kanakunjut o'simligining vatani qayer? **Shimoli-Sharqiy Afrika.**

5298. Kanakunjut o'simligining tarkibida necha foiz moy mavjud? **40 – 37 foiz moy mavjud.**

5299. Kanakunjut o'simligi ekilgan maydonlar jahon bo'yicha qancha ga? **1 mln 280 ming ga (1999).**

5300. Kanakunjut o'simligining jahon bo'yicha o'rtacha hosildorligi qancha s/ga ni tashkil qiladi? **10,49 s/ga ni tashkil etadi (1999).**

5301. Kanakunjut o'simligining o'qildizi tuproqqa necha m gacha kirib boradi? **2 – 4 m gacha kirib boradi.**

5302. Kanakunjut o'simligining poyasi ichi qanday, qanday o'sadi? **Kovak, tik o'sadi.**

5303. Kanakunjut o'simligining balandligi o'z vatanida (tropik mintaqalarda) necha m gacha? **6 – 10 m gacha.**

5304. Kanakunjut o'simligining balandligi O'zbekistonda necha m? **2 – 3 m.**

5305. Kanakunjut o'simligining rangli barglari qanday (yirikmi yoki maydami)? **Yirik.**

5306. Kanakunjut o'simligining barglari shakli qanday? **Qalqonsimon.**

5307. Kanakunjut o'simligining barglari qanday bandli? Uzunligi necha sm? **Uzun bandli. 25 – 60 sm.**

5308. Kanakunjut o'simligining barglari nimalarga bo'lingan? **Bo'laklarga bo'lingan.**

5309. Kanakunjut o'simligining guli qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

5310. Kanakunjut o'simligining guli rangi qanday? **Yashil.**

5311. Kanakunjut o'simligining guli shakli qanday? **Ponasimon.**

5312. Kanakunjut o'simligining guli nechta gultojbargdan iborat? **5 ta gultojbargdan iborat.**

5313. Kanakunjut o'simligi hosildorligi O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida qancha s/ga? **20 – 25 s/ga.**

5314. Kanakunjut o'simligining gul to'plami uchki qismida qanday gullari, pastki qismida qanday gullari joylashadi? **Uchki qismida urg'ochi gullari, pastki qismida erkak gullari joylashadi.**

5315. Kanakunjut o'simligining to'pguli uzunligi necha sm? **10 – 30 sm, ba'zan 70 sm ga boradi.**

5316. Kanakunjut o'simligining mevasi necha uyali ko'sakcha? **Uch uyali ko'sakcha.**

5317. Kanakunjut o'simligining ayrim poyalarda ko'sakchalar yetilganda nima qiladi? **Chatnaydi.**

5318. Kanakunjut o'simligining urug'i shakli qanday? **Tuxumsimon.**

5319. Kanakunjut o'simligining 1000 ta urug'i og'irligi qancha g? **150 – 500 g.**

5320. Kanakunjut nima sevar o'simlik? **Issiqsevar, yorug'sevar, namsevar o'simlik.**

5321. Kanakunjut o'simligi qanday yerlarda yaxshi o'sadi? **Unumdor yerlarda yaxshi o'sadi.**

5322. Kanakunjut o'simligining o'sish davri necha kun? **120-150 kun.**

5323. Kanakunjut o'simligining moyi minus qancha ° C dan qancha ° C da qotadi? **Minus 10° C dan minus 18° C da qotadi.**

5324. Kanakunjut o'simligining moyi qanday guruhga kiradi? **Quriydigan (yod soni 82 – 86) guruhiga kiradi.**

5325. Kanakunjut o'simligi qayerlarda ishlatiladi? **Tabobatda (kanakunjut moyi - kastorka), parfyumeriyada, lok-bo'yoq sanoatida, sovun tayyorlashda, teri va to'qimachilik sanoatlarida ishlatiladi.**

5326. Kanakunjut o'simligining kunjarasi qanday? **Zaharli.**

5327. Kanakunjut o'simligining kunjarasi tarkibida qaysi alkaloid bor? **Ritsinin alkaloidi bor.**

5328. Kanakunjut o'simligining kunjarasi nimalar ishlab chiqarishda ishlatiladi? **O'g'it hamda elim ishlab chiqarishda ishlatiladi.**

5329. Kandil, Kandil sinap kechpishar qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**

5330. Kandil navli olma qayerlarda ko'p ekiladi? **Yevropa mamlakatlari, Qrim, Gruziya, Ozarbayjonda ko'p ekiladi.**

5331. Kandil navli olma O'zbekistonga qachon qayerdan keltirilgan? **XIX asrning 90-yillarida Qrimdan keltirilgan.**

5332. Kandil navli olma nima sababdan XX asrning [illegible] dan O'zbekistonda kam ekiladi? **Kech hosilga kirishi sabab kam ekiladi.**

5333. Kandil navli olma [illegible] **12 m.**

5334. Kandil [illegible] **yil hosil beradi.**

5335. Kandil navli olma daraxti nechanchi yili to'liq hosilga kiradi? **18 – 20-yili to'liq hosilga kiradi.**

5336. Kandil navli olma daraxti qachon gullaydi? **Aprel oyining o'rtalarida gullaydi.**

5337. Kandil navli olma qanday va shakli qanday? **Chiroyli va tsilindrsimon.**

5338. Kandil navli olmaning bir donasi og'irligi qancha g? **100 – 120 g, ba'zan 200 – 250 g.**

5339. Kandil navli olma po'sti rangi qanday? **Och sariq.**

5340. Kandil navli olma eti rangi qanday? **Oq.**

5341. Kandil navli olma eti qanday? **Sersuv, nordon-shirin.**

5342. Kandil navli olma daraxtining hosili qachon teriladi? **Avgust oxiri – sentabr boshlarida teriladi.**

5343. Kandil navli olma qachongacha saqlanadi? **Fevral – martgacha saqlanadi.**

5344. Kandil navli olma daraxti qaysi hududlarda qanday o'sadi va qanday hosil beradi? **Namgarchilik yetarli va yozda kuchli shamollar bo'lmaydigan hududlarda yaxshi o'sadi va ko'p hosil beradi.**

5345. Kandil navli olmaning bir tupidan qancha kg gacha hosil olinadi? **500 – 600 kg gacha hosil olinadi.**

5346. Kandil navli olma daraxtining mevabandi uzunligi necha sm? **2,2 – 3 sm.**

5347. Kandil navli olma tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **11,5 foiz qand, 0,38 foiz kislota, 0,27 foiz kul moddalari bor.**

5348. Kandil navli olma daraxti sovuqqa qanday? **Chidamli.**

5349. Kandil navli olma qanday ahamiyatga ega bo'lgan, qanday bop eng yaxshi xo'raki navlardan biri? **Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan, eksportbop navlardan biri.**

5350. Kanop qaysi oilaga mansub lub tolali necha yillik o'simlik? **G'o'zadoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

5351. Kanop o'simligi yovvoyi holda qayerlarda uchraydi? **Janubiy Afrikada va Markaziy Hindistonda uchraydi.**

5352. Kanop o'simligining vatani qaysi davlat? **Hindiston.**

5353. Kanop o'simligi qayerlarda ekiladi? **Eron, Xitoy, Yava va Sumatre orollarida, Afrika, Amerika (AQSh, Britaniya, Kuba) Rossiyaning janubida ekiladi.**

5354. Kanop o'simligi O'zbekistonda qachondan boshlab ekiladi? **XX asrning 30-yillaridan boshlab ekiladi.**

5355. Kanop o'simligining o'qildizi tuproqqa necha m chuqurlikka kirib boradi? **1,5 – 2 m chuqurlikka kirib boradi.**

5356. Kanop o'simligi ildizining asosiy qismi sug'oriladigan yerlarda necha sm chuqurlikda taraladi? **30 – 50 sm chuqurlikda taraladi.**

5357. Kanop o'simligining poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

5358. Kanop o'simligining poyasi rangi qanday? **Yashil.**

5359. Kanop o'simligining poyasi qanday? **Tukli.**

5360. Kanop o'simligining bo'yi necha m gacha? **1,5 – 3,5 m gacha.**

5361. Kanop o'simligining poyasining qaysi tomoni shoxlanadi? **Uchki tomoni shoxlanadi.**

5362. Kanop o'simligining barglari bandlari qanday (uzunmi yoki kaltami)? **Uzun.**

5363. Kanop o'simligining gullari qanday (yirikmi yoki maydami)? **Yirik.**

5364. Kanop o'simligining gullari rangi qanday? **Och sariq (deyarli oq).**

5365. Kanop o'simligining gullari qanday bandli? **Qisqa bandli (uzunligi 5 – 7 mm).**

5366. Kanop o'simligining gullari qayerda joylashadi? **Barg qo'ltig'ida joylashadi.**

5367. Kanop o'simligining mevasi necha uyali? **5 uyali.**

5368. Kanop o'simligining mevasi shakli qanday ko'sakcha? **Tuxumsimon ko'sakcha.**

5369. Kanop o'simligining mevasi uzunligi necha sm? **2,5 sm.**

5370. Kanop o'simligining mevasi eni necha sm? **1 – 2 sm.**

5371. Kanop o'simligining mevasida har bir uyada nechta urug'i bor? **2 – 3 ta urug'i bor.**

5372. Kanop o'simligining mevasidagi urug'i necha qirrali? **3 qirrali.**

5373. Kanop o'simligining mevasi urug'i rangi qanday? **To'q kulrang.**

5374. Kanop o'simligining 1000 dona urug'i og'irligi qancha g? **18 – 24 g.**

5375. Kanop o'simligining urug'i uzunligi necha mm? **3 – 5 mm.**

5376. Kanop o'simligining urug'i eni necha mm? **2,5 – 4 mm.**

5377. Kanop o'simligining urug'i tarkibida necha foiz texnika moyi bor? **18 – 20 foiz texnika moyi bor.**

5378. Kanop o'simligi nimalarga talabchan? **Namga, haroratga va yorug'likka talabchan.**

5379. Kanop o'simligining o'sish davri necha kun? **124 – 145 kun.**

5380. Kanop o'simligini sug'orish normasi qancha m^3/ga? **800-1000 m^3/ga.**

5381. Kanop o'simligi o'rtacha 1 ga yerdan qancha s ko'k poya beradi? **100 – 120 s ko'k poya beradi.**

5382. Kanop o'simligi o'rtacha 1 ga yerdan qancha s urug' beradi? **4 – 5 s urug' beradi.**

5383. Kanop o'simligidan O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida yuqori agrotexnikani qo'llab qancha s/ga ko'k poya olish mumkin? **150-180 s/ga ko'k poya olish mumkin.**

5384. Kanop o'simligidan O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida yuqori agrotexnikani qo'llab qancha s/ga urug' olish mumkin? **8 – 9 s/ga urug' olish mumkin.**

5385. Kanopning O'zbekistonda qanday navlari ekiladi? **"O'zbekiston-3876", "O'zbekiston-2142", "Kuban-338" navlari ekiladi.**

5386. Kanop o'simligining moyi qayerlarda ishlatiladi? **Lok-bo'yoq sanoatida, sovun tayyorlashda ishlatiladi.**

5387. Kanop o'simligining quruq poyasida necha foiz to'qishga yaroqli tola olinadi? **16 – 20 foiz to'qishga yaroqli tola olinadi.**

5388. Kapalakgul qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simlik? **Binafshadoshlar (binafshagullilar) oilasiga mansub bir va ikki yillik manzarali o'simlik.**

5389. Kapalakgul o'simligi qayerlarda o'sadi? **Yevropa va Osiyoda o'sadi.**

5390. Kapalakgul o'simligining changchisi nechta? **5 ta.**

5391. Kapalakgul o'simligining kosachabarg va tojbarglari nechtadan? **5 tadan.**

5392. Kapra nima? **Kokos palmasi mevasi (yong'og'i)ning mag'zi.**

5393. Kapradan qanday moy olinadi? **Kokos moyi olinadi.**

5394. Karam qaysi oilaga mansub o'simliklar nimasi? **Butguldoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

5395. Karam o'simligining Yevrosiyo va Shimoliy Amerikada qancha turi bor? **35 ga yaqin turi bor.**

5396. Karam o'simligining mevasi tarkibida qanday moddalar, vitaminlar, kimyoviy elementlar bor? **Qandlar, organik kislotalar, karotin, kaptoten va folat kislotalar, yog', fermentlar, fitotsidlar: C, P, B, B_2, PP, K, E vitaminlari; kaliy, kalsiy, yod, marganets, temir va boshq. elementlar hamda ularning tuzlari bor.**

5397. Karam o'simligi xalq tabobatida turli kasalliklarga ishlatiladi, shuningdek, organizmdan nimaning chiqib ketishini tezlashtiradi? **Xolesterinning chiqib ketishini tezlashtiradi.**

5398. Karam o'simligining mevasida qanday modda ko'p? **Kletchatka moddasi ko'p.**

5399. Karam necha yillik o'tsimon o'simlik? **Bir yoki ikki yillik o'simlik.**

5400. Karam o'simligining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**

5401. Karam o'simligining poyasi birinchi yili qanday (kaltami yoki uzunmi)? Ikkinchi yili qanday o'sadi? **Kalta. Tik o'sadi.**

5402. Karam o'simligining birinchi yili juda yirik barg kurtak – nima hosil qiladi? **Karam boshi hosil qiladi.**

5403. Karam o'simligining gullari qanday rangli? **Oq yoki och sariq.**

5404. Karam o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **May – iyun oylarida gullaydi.**

5405. Karam o'simligining mevalari qaysi oylarda yetiladi? **Iyun-iyul oylarida yetiladi.**

5406. Karam suvi o'stiruvchi qanday moddalar va fermentlarga boy, unda qaysi a'zo yarasiga davo bo'ladigan modda (U vitamini) bor? **Gormonal moddalar, me'da yarasiga.**

5407. Karamdan xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo sifatida foydalaniladi? **Me'da, jigar, buyrak kasallikalri, podagraga kasalliklarga davo sifatida foydalaniladi.**

5408. Karam bargları (yangisi) qaysi a'zolarga qo'yiladi? **Badanning kesilgan, yara bo'lgan, lat yegan joylriga, mastitda ko'krakka qo'yiladi.**

5409. Karam suvi (yangisi) qanday kasalliklarga tavsiya qilinadi? **Sariq kasalligi, taloq kasalliklari, gastritlar va me'da yara kasalligi, o'pka sili, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi kasalliklarida tavsiya qilinadi.**

5410. Karam o'simligining ildizlari va o'zagi qanday kasalliklarga davo? **O'smalarga davo.**

5411. Karam o'simligining poyalari kuli qaysi hakim fikriga qaraganda, yara-chaqalarni qurtib, og'riqni qoldiradi? **Abu Ali ibn Sino fikriga ko'ra.**

5412. Karam suvi eskirib ketgan qanday kasallikning bitishini tezlashtiradi? **Yaralarning bitishini tezlashtiradi.**

5413. Karam qaynatmasi va urug'lari boshdagi nimani tushiradi? **Qasmoqni tushiradi.**

5414. Karam qaynatmasi va urug'lari nimani kuchaytiradi? **Siydik (peshob)ni kuchaytiradi.**

5415. Karam urug'larining qaynatmasi qanday kasalliklarda foyda bo'ladi? **Bo'g'im og'riqlari va podagra kasalliklarda foyda bo'ladi.**

5416. Karam urug'larining qaynatmasi nima haydaydigan vosita sifatida ham ishlatiladi? **Siydik haydaydigan vosita sifatida ham ishlatiladi.**

5417. Karam suvi zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarga yordam berishi isbotlangan? **Me'da yarasining oldini olishi, me'da yarasining bitib ketishiga yordam berishi isbotlangan.**

5418. Karam suvi tarkibidagi U vitamini zamonaviy tabobatda qanday xossalarga ega? **Gijjalarga, sklerozga qarshi fibrinolitik xossalarga ega.**

5419. Karam suvi tarkibida U vitamin ayollarning nima bo'lishdan ham saqlay oladi? **Bo'yida bo'lishdan, ya'ni homilador bo'lishdan ham saqlay oladi.**

5420. Karam suvi tarkibidagi U vitamin zamonaviy tabobatda qanday kasalliklarga davo sifatida tavsiya etiladi? **Me'da**

ning yara kasalligi, aterosklerozga, jigar kasalliklari, gush (ekzema), isoriaz, neyrodermit, qandli diabet, yurak, buyrak kasalliklariga va boshq. kasalliklarga davo sifatida tavsiya etiladi.

5421. Karafs (selderey) o'simligining tarkibidagi qaysi kimyoviy element odam yurak-qon tomir tizimlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi? **Kaliy elementi ijobiy ta'sir ko'rsatadi.**

5422. Karafs o'simligining tarkibidagi qaysi kimyoviy element odam asabiga foydali? **Magniy elementi odam asabiga foydali.**

5423. Karafs o'simligining tarkibidagi qaysi kimyoviy element qon to'ldiruvchi omil hisoblanadi? **Temir elementi qon to'ldiruvchi omil hisoblanadi.**

5424. Karafs yoshi ulug' kishilarning a'zolarida nimalar mutanosibligini yaxshilaydi? **Tuz va suv mutanosibligini yaxshilaydi.**

5425. Karafs o'simligi yoshi ulug' kishilarni nima qilishdan asraydi? **Semirishdan asraydi.**

5426. Kardamon qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Zanjabildoshlar (zanjabilgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

5427. Kardamon o'simligi qayerlarda uchraydi? **Janubiy Hindiston, asosan, Malabar qirg'og'ining tog'li nam o'rmonlarida uchraydi.**

5428. Kardamon o'simligi qaysi mamlakatlarda o'stiriladi? **Tropik mamlakatlarda o'stiriladi.**

5429. Kardamon o'simligining bargi qanday shaklda? **Tasma (lenta)simon shaklda.**

5430. Kardamon o'simligining uzunligi necha m? **2 – 4 m.**

5431. Kardamon o'simligining tarkibida efir moyi necha foiz? **3,5 – 7 foiz.**

5432. Kardamon o'simligi urug'i nima sifatida ovqatga ishlatiladi? **Ziravor sifatida ovqatga ishlatiladi.**

5433. Kardamon o'simligidan qaysi sanoatlarga kerakli qanday moyi olinadi? **Oziq-ovqat hamda tamaki sanoatlariga kerakli efir moyi olinadi.**

5434. Kardamon o'simligi qaysi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Nafas qisishi, bosh og'rig'i va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.**

5435. Kariota qaysi oilaga mansub daraxtlar turkumi? **Palmadoshlar (palmagullilar) oilasiga mansub daraxtlar turkumi.**

5436. Kariota daraxti mevalagandan keyin nima bo'ladigan palmalar? **Nobud bo'ladigan palmalar.**

5437. Kariota daraxti hayotida necha marta gullaydi? **Bir marta gullaydi.**

5438. Kariota daraxti gullashidan oldin uning uchi kesilib, undan nima tayyorlashda ishlatiladigan va ichiladigan nima olinadi? **Palma vinosi tayyorlashda ishlatiladigan va ichiladigan shira olinadi.**

5439. Kariota daraxtining ba'zi turlari (C. uznens, C. mitis) ning to'pguli shirasidan qanday modda olinadi? **Qand moddasi olinadi.**

5440. Kariota daraxtining poyalari o'zagidan qanday modda olinadi? **Kraxmal moddasi olinadi.**

5441. Kariota daraxtining qayerlarda nechta turi bor? **Hindiston yarim oroli, Malayya arxipelagi va Hind okeanining boshqa ba'zi orollarida, tropik Avstraliyada 12 tacha turi bor.**

5442. Kariota daraxtining guli uzunligi necha m? **3,5 m.**

5443. Kariota daraxtining mevasi qanday? **Rezavor.**

5444. Kariota palmasining bargi uzunligi necha m? **6 m.**

5445. Kariota palmasining barg tolalaridan nima to'qiladi va tayyorlanadi? **Savat to'qiladi va cho'tka tayyorlanadi.**

5446. Karmakdoshlar qaysi sinfga mansub necha yillik o'simliklar oilasi? **Ikki urug' pallalilar (magnoliyasimonlar) sinfiga mansub ko'p yillik o'simliklar oilasi.**

5447. Karmakdoshlarning O'zbekistonda nechta turkumi, turi o'sadi? **7 ta turkumi, 31 ta turi o'sadi.**

5448. Karmakdoshlarning nechta turkumi bor? **12 ta turkumi bor.**

5449. Karmakdoshlarning qancha turi ma'lum? **600 dan ziyod turi ma'lum.**

5450. Karmakdoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

5451. Karmakdoshlarning gullari qanday? **To'g'ri.**

5452. Karmakdoshlarning gullari rangi qanday? **Qizil, oq, to'q havo rang, sariq.**

5453. Karmakdoshlarning gullari qanday to'pgul hosil qiladi? **Boshoqsimon yoki ro'vaksimon.**

5454. Karmakdoshlarning gul kosachasi qandaysimon? **Pardasimon.**

5455. Karmakdoshlarning gulkosachasi qanday rangli? **Oq va och binafsha rangli.**

5456. Karmakdoshlarning tojbargları nechta? **5 ta.**

5457. Karmakdoshlarning changchısi nechta? **5 ta.**

5458. Karmakdoshlarning mevasi necha urug'li yong'oqcha? **Bir urug'li yong'oqcha.**

5459. Karmakdoshlarning bargı qanday? **Oddiy.**

5460. Karmakdoshlarning bargları chetı qanday? **Tekis.**

5461. Karmakdoshlarning barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

5462. Karmakdoshlar, asosan, qayerlarda o'sadi? **Cho'llarda, sho'rxok va sernam yerlarda, ekinlar orasida o'sadi.**

5463. Karmakdoshlardan mahalliy xalq qadimda qanday modda olishda foydalanishgan? **Bo'yoq moddasi olishda foydalanishgan.**

5464. Karmakdoshlarning tarkibida qanday modda bor? **Osblovchi modda bor.**

5465. Karnaygul, oddiy karnaygul qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Pechakguldoshlar (pechakgullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

5466. Karnaygul o'simligi necha uyali? **Uch uyali.**

5467. Karnaygul o'simligi qanday o'sadi? **Chirmashib o'sadi.**

5468. Karnaygul o'simligining uzunligi necha sm? **2 – 4 m.**

5469. Karnaygul o'simligining guli qanday shaklda? **Guli karnaysimon shaklda.**

5470. Kartoshka qaysi oilaga mansub tuganak mevali ko'p yillik o'tsimon o'simlik? **Tomatdoshlar oilasiga.**

5471. Kartoshka o'simligining vatani qayer? **Janubiy Amerika.**

5472. Kartoshka o'simligining qancha yovvoyi va madaniy turlarining aksariyati Janubiy va Markaziy Amerikada o'sadi? **150 ga yaqin turi o'sadi.**

5473. Kartoshka o'simligining dehqonchilikda nechta turi bir yillik ekin sifatida ekiladi? **Qaysi turlari? Ikki turi bir yillik ekin sifatida ekiladi.**

5474. Kartoshka o'simligini Amerikaning tubjoy aholisi bundan taxminan necha yil ilgari ekib kelgan? **1400 yil ilgari ekib kelgan.**

5475. Kartoshka o'simligi Amerikadan Yevropaga nechanchi yilda keltirilgan? **1565-yilda keltirilgan.**

5476. Kartoshka o'simligi Rossiyada qachondan boshlab ekila boshlangan? **XVIII asrning boshlaridan ekila boshlangan.**

5477. Kartoshka o'simligi ekilgan umumiy maydon jahon bo'yicha necha ga? **17,9 mln ga.**

5478. Kartoshka o'simligining tuganagi tarkibida necha foiz qanday moddalar, mineral tuzlar, vitaminlar bor? **75 – 80 foiz suv, 23,7 foiz quruq modda, shu jumladan, 17,5 foiz kraxmal, 1 – 2 foiz oqsil, 0,54 foiz qand, 1 foiz mineral tuzlar; B_1, B_2, B_6, C, PP, D vitaminlari va A provitamini bor.**

5479. Kartoshka o'simligining mevasi po'stida zaharli qanday modda bor? **Saponin moddasi bor.**

5480. Kartoshka hosildorligi jahon bo'yicha qancha t/ga? **16,3 t/ga.**

5481. Kartoshkaning jahon bo'yicha yalpi hosili qancha mln t? **294,3 mln t (1999).**

5482. Kartoshkaning O'zbekistonda ekin maydoni qancha ming ga? **52 ming ga.**

5483. Kartoshka hosildorligi O'zbekistonda qancha s/ga? **12,7 t/ga, yalpi hosili 729,8 ming t (2000).**

5484. Kartoshka ekiladigan maydon Xitoyda qancha mln ga? **3 mln ga.**

5485. Kartoshka ekiladigan maydon Polshada qancha mln ga? **1,2 mln ga.**

5486. Kartoshka ekiladigan yerning gektariga qancha kg azot (oziq modda hisobida), qancha kg fosfor va qancha kg kaliyli mineral o'g'it, qancha t go'ng solinadi? **60 – 150 kg azot, 100 – 120 kg fosfor va 30 – 60 kg kaliyli mineral o'g'it, 15 – 20 t go'ng solinadi.**

5487. Kartoshka ekish normasi qancha t/ga? **2,5 – 4 t/ga.**

5488. Kartoshka intensiv texnologiyada o'rtacha hosildorligi qancha t/ga? **42 – 44 t/ga.**

5489. Kartoshka O'zbekiston sharoitida faqat nima maqsadlarda yetishtiriladi? **Urug'lik maqsadlarida yetishtiriladi.**

5490. Kartoshkani sug'orish normasi qancha m^3/ga? **500 – 800 m^3/ga.**

5491. Kartoshka qanday mahsulotlar olishda xomashyo sifatida ishlatiladi? **Oziq-ovqat va yem-xashak sifatida, shuningdek, kraxmal, spirt, glyukoza, dekstrin va boshq. mahsulotlar olishda xomashyo sifatida ishlatiladi.**

5492. Kartoshka o'simligi nima sevar o'simlik? **Namsevar (ayniqsa, gullash va tuganak tugish davrida), yorug'sevar o'simlik.**

5493. Kartoshka o'simligi bir qadar sovuqqa qanday? **Chidamli.**

5494. Kartoshka tuproqda tuganagidagi kurtaklari qancha °C da una boshlaydi? **5° C – 8° C haroratda una boshlaydi.**

5495. Kartoshka nimalaridan ko'payadi? **Tuganaklari va urug'idan ko'payadi.**

5496. Kartoshka o'simligining bo'yi necha sm? **50 – 80 sm.**

5497. Kartoshka o'simligi necha poyali? **3 – 6 poyali.**

5498. Kartoshka o'simligi ildizi qanday ildiz tipida? **Popuk ildiz tipida.**

5499. Kartoshka o'simligining barglari qanday bo'lingan? **Juft patsimon bo'lingan.**

5500. Kartoshka o'simligining barglari rangi qanday? **Sarg'ish-yashildan to'q yashilgacha.**

5501. Kartoshka o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

5502. Kartoshka o'simligining guli rangi qanday? **Oq, och binafsha.**

5503. Kartoshka o'simligining guli nechtadan, ba'zan nechtadan joylashgan? **2 – 3 tadan, ba'zan 4 tadan joylashgan.**

5504. Kartoshka o'simligining mevasi necha chanoqli? **2 chanoqli.**

5505. Kartoshka o'simligining mevasi qancha urug'li? **Ko'p urug'li.**

5506. Kartoshka o'simligining mevasi qanday? **Sersuv rezavor.**

5507. Kartoshka o'simligining vegetatsiya davri necha kun? **60 – 150 kun.**

5509. Kartoshka o'simligi qayerdan changlanadi? **O'zidan, goho chetdan changlanadi.**

5510. Kartoshka o'simligi pishib yetilish muddatlariga qarab qanday navlarga bo'linadi? **Tezpishar (maysalashidan yetilishiga qadar 60 – 65 kun), o'rtacha tezpishar (70 – 80 kun), o'rtacha kechpishar (110 – 120 kun), kechpishar (130 – 150 kun) navlarga bo'linadi.**

5511. Kartoshka o'simligi nimalarini ekib ko'paytiriladi? **Tuganagini va urug'ini ekib ko'paytiriladi.**

5512. Kartoshka o'simligi qanday tuproqli yerlarda mo'l hosil beradi? **Qora yoki qumoloq tuproqli yerlarda mo'l hosil beradi.**

5513. Kartoshkani iste'mol qilish miqdori fiziologik tavsiya normalariga ko'ra, bir kishi uchun bir yilda qancha kg ni tashkil etadi? **45 kg ni tashkil etadi.**

5514. Kartoshkagul, georgina murakkabguldoshlarga mansub manzarali necha yillik o'simlik? **Ko'p yillik o'simlik.**

5515. Kartoshkagul o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Meksika va Gvatemalada tarqalgan.**

5516. Kartoshkagul o'simligining nechta yovvoyi turi ma'lum? **15 ta turi ma'lum.**

5517. Kartoshkagul o'simligi nechanchi asr oxirlarida o'stirila boshlangan? **XVIII asr oxirlarida o'stirila boshlangan.**

5518. Kartoshkagul o'simligining qancha navi bor? **8000 dan ortiq navi bor.**

5519. Kartoshkagul ekiladigan xilma-xil K. (D. variabilis) gulining barcha mavjud tur-xillari shartli ravishda necha guruhga bo'linadi? **3 guruhga (guli qat-qatmas, yarim qat-qat va qat-qat) bo'linadi.**

5520. Kartoshkagul to'pgulining tashqi necha qatori tilsimon gullardan, qolgan qismi esa qandaysimon gullardan iborat? **Bir qatori, qolgan qismi esa naychasimon gullardan iborat.**

5521. Kartoshkagulning to'pgullari necha sm kattalikda? **3 – 35 sm kattalikda.**

5522. Kartoshkagul nimalaridan ko'paytiriladi? **Qalamchalaridan, kartoshkasi bo'lakchalaridan va ahyonda urug'idan**

5524. Kartoshkagul qaysi oylarda gullaydi? **Iyul-sentabr oylarida gullaydi.**

5525. Kartoshkagul o'simligining kartoshkasi (tuganagi) qachon qazib olinadi? **Kuzgi qorasovuqlardan keyin qazib olinadi.**

5526. Kaspiy dengizda nechta turdan ortiq suv o'simliklari bor? **500 ta turdan ortiq suv o'simliklari bor.**

5527. Kassaba turiga qovunning qaysi turlari kiradi? **Bo'rikalla, Gurvak turlari kiradi.**

5528. Katalpa qaysi oilaga mansub qanday o'simliklar turkumi? **Bigoniyadoshlar (bigoniyagullilar) oilasiga mansub manzarali o'simliklar turkumi.**

5529. Katalpa o'simligining nechta turi bor? **14 ta turi.**

5530. Katalpa o'simligi necha pallali? **Ikki pallali.**

5531. Katalpa o'simligining bargi qanday? **Oddiy, uzun, yirik.**

5532. Katalpa o'simligining guli rangi qanday? **Oq.**

5533. Katalpa o'simligining guli shakli qanday? **Qo'ng'iroqsimon.**

5534. Katalpa o'simligining to'pguli qanday? **Shingil yoki ro'vaksimon.**

5535. Katalpa o'simligining mevasi qanday? **Uzun.**

5536. Katalpa o'simligining mevasi uzunligi necha sm? **20 – 40 sm.**

5537. Katalpa o'simligining mevasi qancha urug'li? **Ko'p urug'li.**

5538. Katalpa o'simligining urug'i qanday? **Yassi.**

5539. Katalpa o'simligining urug'i uchi nimali? **Kokilli.**

5540. Katalpa o'simligi nimalaridan ko'paytiriladi? **Urug'i, qalamchasi va ildiz bachkisidan ko'paytiriladi.**

5541. Katalpa o'simligining yog'ochi qanday? **Yengil, yumshoq, chirishga chidamli.**

5542. Kattaqo'rg'on kechpishar xo'raki nima navi? **Mayizbop uzum navi.**

5543. Kattaqo'rg'on navli uzum qaysi ekologik-geografik navlar guruhiga kiradi? **Sharqiy ekologik-geografik navlar guruhiga kiradi.**

5544. Kattaqo'rg'on navli uzumning vatani qayer? **O'rta Osiyo.**

5545. Kattaqo'rg'on navli uzum tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

5546. Kattaqo'rg'on navli uzum bargi qanday? **O'rtacha va yirik.**

5547. Kattaqo'rg'on navli uzum bargi necha bo'lakchali? **3 – 5 bo'lakchali.**

5548. Kattaqo'rg'on navli uzum bargining ustki sirti rangi qanday? **To'q yashil.**

5549. Kattaqo'rg'on navli uzum bargining ostki sirtida nimalar yo'q? **Tuklar yo'q.**

5550. Kattaqo'rg'on navli uzumning guli funksional nima? **Urg'ochi.**

5551. Kattaqo'rg'on navli uzum boshining bo'yi necha sm? **12 – 26 sm.**

5552. Kattaqo'rg'on navli uzum boshining eni necha sm? **14 – 25 sm.**

5553. Kattaqo'rg'on navli uzum boshi shakli qanday? **Ovalsimon yoki tuxumsimon.**

5554. Kattaqo'rg'on navli uzum boshi rangi qanday? **Och yashil.**

5555. Kattaqo'rg'on navli uzum eti qanday? **Etdor, sershira.**

5556. Kattaqo'rg'on navli uzum po'sti qanday? **Yupqa.**

5557. Kattaqo'rg'on navli uzumning urug'i qanday? **Yirik.**

5558. Kattaqo'rg'on navli uzum hosili faol harorat yig'indisi qancha ° C da necha kunda, qachon pishadi? **3400° C – 3800° C haroratda, 150 – 160 kunda, sentabrning 2-yarmida pishadi.**

5559. Kattaqo'rg'on navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **70 – 80 s/ga.**

5560. Kattaqo'rg'on navli uzum funksional nima gulli bo'lganligi sababli unga qaysi navlar eng yaxshi changlovchilar hisoblanadi? **Urg'ochi gulli bo'lganligi sababli unga Oq kishmish, Qora kishmish, Pushti Toifi, Saperavi, Sultoniy navlari eng yaxshi changlovchilar hisoblanadi.**

5561. Kattaqo'rg'on navli uzum sovuqqa va zamburug' kasalliklariga qanday? **Chidamsiz.**

5562. Kattaqo'rg'on navli uzum novdalarining necha ko'zlaridan eng ko'p miqdorda hosili novdalari shakllanadi va novdani qanday kesimi talab qilinadi? **6 – 14 ko'zlaridan uzun kesim talab qilinadi.**

5563. Kattaqo'rg'on navli uzum yangiligida nima qilinadi? **Yeyiladi, quritiladi.**

5564. Kattaqo'rg'on navli uzumdan nima tayyorlanadi? **Garmiyon mayizi tayyorlanadi.**

5565. Kattaqo'rg'on navli uzum uzoq yerlarga tashishga qanday? **Yaroqli.**

5566. Kattaqo'rg'on navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida rayonlashtirilgan? **Janubiy viloyatlarida rayonlashtirilgan.**

5567. Kaulerpa qaysi suvo'tlar turkumi? **Yashil suvo'tlar turkumi.**

5568. Kaulerpa o'simligining qaysi dengizlarda o'sadigan qancha turi bor? **Tropik va subtropik dengizlarda o'sadigan 60 ga yaqin turi bor.**

5569. Kaulerpa o'simligi qanday yo'l bilan ko'payadi? **Jinsiy (izogamiya) va vegativ yo'l bilan ko'payadi.**

5570. Kaulerpa o'simligining tallomi bitta yadroli diploid hujayra bo'lib, necha m cha keladigan shoxlangan qism, necha sm li rizoid va vertikal novdalardan iborat? 1 m **cha, 30 sm li.**

5571. Kauchuk olish uchun geveya daraxti po'stlog'i nima qilinadi? **Tilinadi, oqib chiqqan sutsimon shira (lateks) quyuqlashib, kauchukka aylanadi.**

5572. Kauchuk so'zi hindular tilida nima degani? **"Daraxtlarning ko'z yoshi" degani.**

5573. Kauchukning 95 foizi qaysi daraxtdan olinadi? **Braziliya geveya daraxtidan, boshqa lateksli daraxtlar va kauchukli o'tlardan olinadi.**

5574. Kauchukning dunyo bo'yicha 5 foizi tropiklardagi qaysi lateksli daraxtlardan olinadi? **Sapium, maniok, fikus, landolfiya daraxtlaridan olinadi.**

5575. Kauchuk daraxtlar qaysi to'qimalarida kauchuk to'planishiga qarab qanday xillarga bo'linadi? **Lateksli (kauchuk sutshira-lateks tarkibida bo'ladi), parenximali (kauchuk novda va ildiz parenximalida to'planadi), xlorenximali (kauchuk yosh novda va barglarning yashil to'qimalarida yig'iladi) xillarga bo'linadi.**

5576. Kauchukli daraxtlardan O'zbekistonda qaysi biri o'sadi? **Tog' saqich daraxti o'sadi.**

5577. Kashnich qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Soyabonguldoshlar (soyabongullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

5578. Kashnich o'simligi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **1,2 foiz efir moyi, 11 – 27 foiz yog' bor.**

5579. Kashnich o'simligi qayerda ishlatiladi? **Attorlikda ishlatiladi.**

5580. Kashnich o'simligining O'rta dengiz atroflarida nechta turi o'sadi? **2 ta turi o'sadi.**

5581. Kashnich o'simligining O'rta Osiyoda nechta turi ekma o'sadi? Qaysi turi? **1 ta turi ekma o'sadi. C. sativym turi.**

5582. Qashnich o'simligi qayerlarda xo'jalik maqsadlarda ekiladi? **Yevropa, Shimoliy Afrika, Shimoliy Amerika mamlakatlarida, Ukraina, Rossiyaning markaziy qoratuproq viloyatlarida ekiladi.**

5583. Kashnich o'simligi nimasidan yetishtiriladi? **Urug'idan yetishtiriladi.**

5584. Kashnich o'simligining mevasi qanday shaklda? **Yumaloq shaklda.**

5585. Kashnich o'simligi sovuqqa qanday? **Chidamli.**

5586. Kashnich o'simligini qachondan qachongacha ekish mumkin? **Erta bahordan kech kuzgacha ekish mumkin.**

5587. Kashnich o'simligining nihollari necha kunda ko'kat sabzavot holida foydalanishga yaroqli bo'ladi? **32 – 34 kunda foydalanishga yaroqli bo'ladi.**

5588. Kashnich o'simligining urug'i necha kunda pishadi? **90 – 95 kunda pishadi.**

5589. Kashnich o'simligining 1000 dona urug'i og'irligi qancha g? **5 – 8 g.**

5590. Kashnich o'simligining bargida qanday tuzlar mavjud? **Kaliy tuzlari mavjud.**

5591. Kashnich o'simligining barglarida qaysi vitaminlar va provitamin bor? **B_1, B_2, C, P vitaminlari va A provitamini bor.**

5592. Kashnich o'simligi qayerlarda ishlatiladi? **Parfyumeriya, qandolatchilik, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi.**

5593. Kashnich o'simligidan qayerlarda foydalaniladi? **Ko'kati sho'rva, go'shtli va sabzavotli ovqatlarga, urug'i va yosh maysalari ziravor sifatida go'sht sirkalashda foydalaniladi.**

5594. Kashnich o'simligi sousларga solinganda qanday hid beradi? **Xushbo'y hid beradi.**

5595. Kashnich qanday o'simliklar guruhiga kiradi? **Asalshirali o'simliklar guruhiga kiradi.**

5596. Kashnich o'simligining urug'i bo'yicha hosildorligi qancha s/ga? **8 – 15 s/ga.**

5597. Kashnich o'simligining O'zbekistonda qanday navlari nechanchi yillardan rayonlashtirilgan? **Yaxtar ("Qahrabo") navi 1953-yildan, Orzu navi 1999-yildan, Orom navi 2001-yildan rayonlashtirilgan.**

5598. Kashtan qaysi oilaga mansub daraxtsimon o'simliklar turkumi? **Qora qayindoshlar (qora qayingullilar) oilasiga mansub daraxtsimon o'simliklar turkumi.**

5599. Kashtan daraxti qayerlarda tarqalgan? **Shimoliy Amerika, Yaponiya, Xitoy, O'rta dengizda tarqalgan.**

5600. Kashtan o'simligining Kavkazning Qora dengiz sohillarida va Zakavkazyeda nechta turi uchraydi? **Bitta turi uchraydi.**

5601. Kashtan o'simlining nechta turi ma'lum? **14 ta turi ma'lum.**

5602. Kashtan o'simligining bo'yi necha m? **35 m.**

5603. Kashtan o'simligining diametri necha m? **2 m.**

5604. Kashtan o'simligining, asosan, nechta turi ekiladi? **4 ta turi ekiladi.**

5605. Kashtan o'simligi necha yilgacha yashaydi? **500 – 1000 yil, ba'zi mintaqalarda 3000 yilgacha yashaydi.**

5606. Kashtan o'simligining bargi qanday? **Oddiy, yirik.**

5607. Kashtan o'simligining bargi uzunligi necha sm? **12 – 25 sm.**

5608. Kashtan o'simligining bargi qanday bandli? **Kalta bandli.**

5609. Kashtan o'simligining bargi qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

5610. Kashtan o'simligi qachon gullaydi? **Barg chiqarganidan keyin.**

5611. Kashtan o'simligining gullari qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

5612. Kashtan o'simligining gulto'plami qanday shaklda? **Ziraksimon shaklda.**

5613. Kashtan o'simligi gulto'plamining yuqori qismida qanday gullar, pastki qismida qanday gullar joylashgan? **Yuqori qismida otalik gullari, pastki qismida onalik gullari joylashgan.**

5614. Kashtan o'simligi qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi.**

5615. Kashtan o'simligining mevasi nima? **Yong'oq.**

5616. Kashtan o'simligining mevasi rangi qanday? **To'q jigarrang.**

5617. Kashtan o'simligi mevasining har birida nechtadan urug' bo'ladi? **Bittadan urug' bo'ladi.**

5618. Kashtan o'simligining ko'chati o'tqazilgach necha yilda meva beradi? **5 – 10 yilda meva beradi.**

5619. Kashtan nima sevar o'simlik? **Yorug'sevar, namsevar o'simlik.**

5620. Kashtan o'simligi nimaga talabchan? **Issiqlikka talabchan.**

5621. Kashtan o'simligining mevasi qaysi oydan qaysi oygacha pishadi? **Sentabr oyidan noyabr oyigacha pishadi.**

5622. Kashtanning bir tup daraxtidan qancha kg hosil olinadi? **120 – 140 kg hosil olinadi.**

5623. Kashtan mevalari qanday qilib iste'mol qilinadi? **Qaynatilib, qovurilib, quritilib iste'mol qilinadi.**

5624. Kashtan daraxti yog'ochida, po'stlog'ida (qobig'ida), barglarida necha foiz qanday moddalar bor? **4 – 14 foiz tannid moddalari bor.**

5625. Kashtan daraxti qayerda ishlatiladi? **Qandolatchilikda ishlatiladi.**

5626. Kashtan o'simligining tupguli necha jinsli? **Bir yoki ikki jinsli.**

5627. Kashtan o'simligining mevasi mag'zida necha foiz qanday moddalar bor? **60 foizdan ortiq kraxmal, 17 foiz qand, 8 – 10 foiz azotli moddalar, 2 foiz moy bor.**

5628. Kashtan o'simligining yog'ochi, po'stlog'i va urug' kosachasida qanday moddalar ko'p? **Oshlovchi va bo'yoq moddalar ko'p.**

5629. Kashtan daraxti po'stlog'idan turli nimalar ishlab chiqariladi? **Bo'yoqlar ishlab chiqariladi.**

5630. Kashtan gullari o'ziga xos qanday hidga ega? **Xushbo'y hidga ega.**

5631. Kashtan daraxti yog'ochi qayerlarda ishlatiladi? **Vino bochkalari, faner, mebel ishlab chiqarishda, duradgorlikda, kemasozlikda, qurilishda ishlatiladi.**

5632. Kashtanning qancha navlari mavjud? **Bir necha navlari mavjud.**

5633. Kashtanning ko'proq mayda mevali qaysi navlari tarqalgan? **Lion va Neapolitan navlari tarqalgan.**

5634. Kashtanning O'zbekistonda nechta turi tarqalgan? **Faqat bitta turi tarqalgan.**

5635. Kashtan O'zbekistonda qanday nomi bilan ma'lum? **Ot kashtani (kashtan konskiy) nomi bilan ma'lum (yong'og'ini yeb bo'lmaydi).**

5636. Kashtanning O'zbekistondagi ot kashtani navi qanday daraxt sifatida ekiladi? **Manzarali daraxt sifatida ekiladi.**

5637. Kashtan daraxti nimasidan ko'paytiriladi? **Urug'idan ko'paytiriladi.**

5638. Kashtan daraxti ayrim navlari nima qilinadi? **Payvand qilinadi.**

5639. Kashtan urug'i nimalanadi? **Stratifikatsiyalanadi.**

5640. Kashtan urug'i nimaga ekiladi? **Potopnikka ekiladi.**

5641. Kedr qaysi oilaga mansub necha uyli doim qanday daraxtlar turkumi? **Qarag'aydoshlar (qarag'aygullilar) oilasiga mansub bir uyli doim yashil daraxtlar turkumi.**

5642. Kedr daraxtining bo'yi necha m gacha? **30 – 50 m gacha.**

5643. Kedr daraxtining nechta turi bor? Ular qaysilar? **To'rtta turi bor. Ular: Livan kediri (Kichik Osiyo tog'larida), kalta ignabargli kedr (Kipr orolida), Atlas kedri (Shimoliy Amerikada) va Himolay kedri (Markaziy Osiyoda) bor.**

5644. Kedr daraxtining ignabarglaridan qaysi kasallikka qarshi konsentrat tayyorlanadi? **Singa kasalligiga qarshi konsentrat tayyorlanadi.**

5645. Kedr ignabarglaridan lavshaga qarshi nima tayyorlanadi? **Konsentrat tayyorlanadi.**

5646. Kedr yong'og'idan, daraxti shirasidan qanday moddalar olinadi? **Yong'og'idan yog', daraxt shirasidan skipidar olinadi.**

5647. Kedr daraxti yog'och qismining shirasidan qanday modda olinadi? **Skipidar moddasi olinadi.**

5648. Kedr daraxti tanasining diametri necha sm gacha, ba'zan necha m gacha boradi? **40 – 50 sm gacha, ba'zan 1,5 m gacha boradi.**

5649. Kedr daraxti yog'ochi rangi qanday? **Qizg'ish yoki sarg'ish.**

5650. Kedr daraxti yog'ochi qanday? **Xushbo'y.**

5651. Kedr daraxti qayerlarda o'stiriladi? **Kavkaz, Qrim, O'rta Osiyoning janubiy qismida, Livan, Atlas va Himolay kedrlari o'stiriladi.**

5652. Kedr yong'og'idan qanday modda olinadi? **Yog' moddasi olinadi.**

5653. Kendir, qizilquralay qaysi oilaga mansub necha yillik tolali o'simlik? **Kendirdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik tolali o'simlik.**

5654. Kendir o'simligining ildizpoyasi necha yillik? **Ko'p yillik.**

5655. Kendir o'simligining yer ustki poyalari necha yillik? **Bir yillik.**

5656. Kendir o'simligining poyasi qanday? **Silliq.**

5657. Kendir o'simligining barglari, asosan, qandaysimon? **Nashtarsimon.**

5658. Kendir o'simligining guli qanday? **Mayda.**

5659. Kendir o'simligining guli rangi qanday? **Pushti.**

5660. Kendir o'simligining ildizpoyasi va ildizini bo'lib, qachon ekiladi? **Erta bahorda ekiladi.**

5661. Kendirdoshlarning O'zbekistonda qanday turkumlari uchraydi? **Bo'rigul va kendir turkumlari uchraydi.**

5662. Keleriya qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **G'alladoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

5663. Kelinsupurgi qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Kelinsupurgidoshlar (timeligullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

5664. Kelinsupurgi izen (K. Scoparia) necha yillik sershox o'simlik bo'lib, undan nima sifatida foydalaniladi? **Bir yillik, supurgi sifatida foydalaniladi.**

5665. Kelinsupurgi o'imligi, asosan, nima qilinadi? **Asosan, supurgi qilinadi (nomi ham shundan).**

5666. Kelinsupurgi o'simligining poyasi qanday? **Silliq.**

5667. Kelinsupurgi o'simligining bo'yi necha sm? **15 – 40 sm.**

5668. Kelinsupurgi o'simligi O'rta Osiyoning qayerlarida nisbatan ko'proq o'sadi? **Cho'l va adirlarda, bo'z tuproqlarda nisbatan ko'proq o'sadi.**

5632. Kashtanning qancha navlari mavjud? **Bir necha navlari mavjud.**

5633. Kashtanning ko'proq mayda mevali qaysi navlari tarqalgan? **Lion va Neapolitan navlari tarqalgan.**

5634. Kashtanning O'zbekistonda nechta turi tarqalgan? **Faqat bitta turi tarqalgan.**

5635. Kashtan O'zbekistonda qanday nomi bilan ma'lum? **Ot kashtani (kashtan konskiy) nomi bilan ma'lum (yong'og'ini yeb bo'lmaydi).**

5636. Kashtanning O'zbekistondagi ot kashtani navi qanday daraxt sifatida ekiladi? **Manzarali daraxt sifatida ekiladi.**

5637. Kashtan daraxti nimasidan ko'paytiriladi? **Urug'idan ko'paytiriladi.**

5638. Kashtan daraxti ayrim navlari nima qilinadi? **Payvand qilinadi.**

5639. Kashtan urug'i nimalanadi? **Stratifikatsiyalanadi.**

5640. Kashtan urug'i nimaga ekiladi? **Potopnikka ekiladi.**

5641. Kedr qaysi oilaga mansub necha uyli doim qanday daraxtlar turkumi? **Qarag'aydoshlar (qarag'aygullilar) oilasiga mansub bir uyli doim yashil daraxtlar turkumi.**

5642. Kedr daraxtining bo'yi necha m gacha? **30 – 50 m gacha.**

5643. Kedr daraxtining nechta turi bor? Ular qaysilar? **To'rtta turi bor. Ular: Livan kediri (Kichik Osiyo tog'larida), kaltaignabargli kedr (Kipr orolida), Atlas kedri (Shimoliy Amerikada) va Himolay kedri (Markaziy Osiyoda) bor.**

5644. Kedr daraxtining ignabarglaridan qaysi kasallikka qarshi konsentrat tayyorlanadi? **Singa kasalligiga qarshi konsentrat tayyorlanadi.**

5645. Kedr ignabarglaridan lavshaga qarshi nima tayyorlanadi? **Konsentrat tayyorlanadi.**

5646. Kedr yong'og'idan, daraxti shirasidan qanday moddalar olinadi? **Yong'og'idan yog', daraxt shirasidan skipidar olinadi.**

5647. Kedr daraxti yog'och qismining shirasidan qanday modda olinadi? **Skipidar moddasi olinadi.**

5648. Kedr daraxti tanasining diametri necha sm gacha, ba'zan necha m gacha boradi? **40 – 50 sm gacha, ba'zan 1,5 m gacha boradi.**

5649. Kedr daraxti yog'ochi rangi qanday? **Qizg'ish yoki sarg'ish.**

5650. Kedr daraxti yog'ochi qanday? **Xushbo'y.**

5651. Kedr daraxti qayerlarda o'stiriladi? **Kavkaz, Qrim, O'rta Osiyoning janubiy qismida, Livan, Atlas va Himolay kedrlari o'stiriladi.**

5652. Kedr yong'og'idan qanday modda olinadi? **Yog' moddasi olinadi.**

5653. Kendir, qizilqurabay qaysi oilaga mansub ko'p yillik [illegible] lali o'simlik? **Kendirdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

5654. Kendir o'simligining ildizpoyasi necha yillik? **Ko'p yillik.**

5655. Kendir o'simligining yer ustki poyalari necha yillik? **Bir yillik.**

5656. Kendir o'simligining poyasi qanday? **Silliq.**

5657. Kendir o'simligining barglari, asosan, qandaysimon? **Nashtarsimon.**

5658. Kendir o'simligining guli qanday? **Mayda.**

5659. Kendir o'simligining guli rangi qanday? **Pushti.**

5660. Kendir o'simligining ildizpoyasi va ildizini bo'lib, qachon ekiladi? **Erta bahorda ekiladi.**

5661. Kendirdoshlarning O'zbekistonda qanday turkumlari uchraydi? **Bo'rigul va kendir turkumlari uchraydi.**

5662. Keleriya qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **G'alladoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

5663. Kelinsupurgi qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Kelinsupurgidoshlar (timeligullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

5664. Kelinsupurgi izen (K. Scoparia) necha yillik sershox o'simlik bo'lib, undan nima sifatida foydalaniladi? **Bir yillik, supurgi sifatida foydalaniladi.**

5665. Kelinsupurgi o'imligi, asosan, nima qilinadi? **Asosan, supurgi qilinadi (nomi ham shundan).**

5666. Kelinsupurgi o'simligining poyasi qanday? **Silliq.**

5667. Kelinsupurgi o'simligining bo'yi necha sm? **15 – 40 sm.**

5668. Kelinsupurgi o'simligi O'rta Osiyoning qayerlarida nisbatan ko'proq o'sadi? **Cho'l va adirlarda, bo'z tuproqlarda nisbatan ko'proq o'sadi.**

5669. Kelintili qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Torondoshlar (torongullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

5670. Kelintili o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

5671. Kelintili o'simligi tarkibida qanday vitaminlar, birikmalar bor? **C va K vitaminlari, flavonoidlar va boshqa birikmalar bor.**

5672. Kelintili o'simligidan tayyorlanadigan preparatlari qanday dori sifatida ishlatiladi? **Surgi va qon oqishni to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi.**

5673. Kendir o'simligi qayerlarda o'sadi? **Janubiy Yevropa va Osiyoda o'sadi.**

5674. Kendir o'simligining nechta turi bor? **6 ta turi bor.**

5675. Kendir o'simligining tolali (T. Apocynum) turi qanday o'simlik? **Dorivor o'simlik.**

5676. Kendir o'simligining urug'ida necha foizgacha yurach glikozidlari (simarin) bor? **0,5 foizgacha.**

5677. Kendir o'simligining poyasi po'stlog'idan necha foizgacha tola chiqadi? **10 foizgacha tola chiqadi.**

5678. Kendirdoshlar, kendirgullilar necha yillik o'simliklar oilasi? **Ko'p yillik o'simliklar oilasi.**

5679. Kendirdoshlar nimalardan iborat? **Daraxt, buta, diana va o'tlardan iborat.**

5680. Kendirdoshlarning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

5681. Kendirdoshlarning changchisi nechta? **5 ta.**

5682. Kendirdoshlarning urug'chisi nechta mevabargli? **2 ta meva bargli.**

5683. Kendirdoshlarning urug'chisi necha uyali? **2 uyali.**

5684. Kendirdoshlarning nechta turkumi, qancha turi bor? **150 ta turkumi, 1100 dan ortiq turi bor.**

5685. Kendirdoshlarning, asosan, nechta turkumi qayerlarda, qanday iqlimli tumanlarda tarqalgan? **9 ta turkumi tropik va subtropiklarda, mo'tadil iqlimli tumanlarda tarqalgan.**

5686. Kermak, kermaksovun, bo'yoqcho'p qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Kermakdoshlar (kermakgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.**

5687. Kermak o'simligining bo'yi necha sm? **50 – 150 sm.**

5688. Kermak o'simligi ildizida necha foiz qanday modda bor? **14 – 18 foiz tannin moddasi** bor.

5689. Kermak o'simligidan mahalliy xalq qanday maqsadda foydalanib kelgan? **Teri oqlashda va bo'yoq modda olishda foydalanib kelgan.**

5690. Kermak o'simligi qaysi viloyatlarda uchraydi? **Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida uchraydi.**

5691. Kermakjusan qaysi oilaga mansub chala buta? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub chala buta.**

5692. Kermakjusan chala butasining poyasi va bargida necha foiz qanday moddalar bor? **5,8 – 8,8 foiz protein, 29,6 – 42,7 foiz kletchatka va 36,4 – 49,3 foiz azotsiz ekstrakt bor.**

5693. Kermakjusan o'simligi qaysi cho'llarda o'sadi? **Qizilqum, Qoraqum, Mo'yinqum va Ustyurt cho'llarida o'sadi.**

5694. Kermakjusan o'simligining bo'yi necha sm? **40 – 60 sm.**

5695. Kermakjusan o'simligi qaysi fasllarda mollarning asosiy nimasi? **Kuz va qishda ovqati.**

5696. Kechpishar (sentabrning ikkinchi yarmida pishadi) xo'raki varsang'a uzumi tarkibida necha foiz nimalar bor? **22 – 23 foiz qand, 4 – 6 foiz kislota bor.**

5697. Kefalsar o'simligining qancha urug'i, turi bor? **14 tacha urug'i, 100 dan ortiq turi bor.**

5698. Kefalsar o'simligining nechta turi Rossiya Federatsiyasida uchraydi? **8 ta turi uchraydi.**

5699. Kiyikpanja qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Dukkakdoshlar (dukkaklilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

5700. Kiyikpanja bargları qanday? **Murakkab.**

5701. Kiyikpanja o'simligining guli rangi qanday? **Sariq.**

5702. Kiyikpanja o'simligining dukkagi qanday shaklda? **Dumaloq shaklda.**

5703. Kiyikpanja o'simligining dukkagi qalin tuklar bilan qoplangan? **Tuklar bilan qoplangan.**

5704. Kiyikpanja o'simligi O'rta Osiyoning qayerlarida ko'p? **Tog' etaklarida ko'p.**

5705. Kiyikpanja o'simligining quritilgan poya va barglaridan tayyorlangan talqon xalq tabobatida turli xil qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Jarohatlarni davolashda ishlatiladi.**

5706. Kiyikpanja o'simligining bo'yi necha sm? **80 sm.**
5707. Kiyikpanja o'simligining har bir bargida necha juft yaproqcha bor? **10 – 28 juft yaproqcha bor.**
5708. Kiyikpanja o'simligining dukkagi necha xonali? **Dukkagi ikki xonali.**
5709. Kiyiko't qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tlar turkumi.**
5710. Kiyiko't o'simligining bargi va to'pgullaridan olinadigan efir moyi qaysi sanoatda ishlatiladi? **Atir-upa sanoatida ishlatiladi.**
5711. Kiyiko'tdan tibbiyotda qanday modda olinadi? **Mentol moddasi olinadi.**
5712. Kiyiko'tning bo'yi necha sm cha? **30 sm cha.**
5713. Kiyiko't poyalari qanday? **Ingichka.**
5714. Kiyiko't poyalari rangi qanday? **Kulrang.**
5715. Kiyiko't bargi shakli qanday? **Nashtarsimon.**
5716. Kiyiko't guli qanday ko'rinishdagi to'pgulda? **Yarim shar ko'rinishidagi to'pgulda.**
5717. Kiyiko't tojbargi necha labli? **Ikki labli.**
5718. Kiyiko't tojbargi rangi qanday? **Pushti.**
5719. Kiyiko't ustki tojbargi qanday? **Yaxlit, to'g'ri.**
5720. Kiyiko't urug'i qaysi oyda yetiladi? **Avgust oyida yetiladi.**
5721. Kiyiko'tning nechta turi qayerlarda o'sadi? **22 ta turi O'rta Osiyo, Oltoy va Zakavkaze cho'llarida, quruq, qurg'oqchil tog' yonbag'irlarida o'sadi.**
5722. Kiyiko'tning O'zbekistonda nechta turi bor? **7 ta turi bor.**
5723. Kiyiko't, asosan, qayerlarda o'sadi? **Asosan, adir va tog'larda o'sadi.**
5724. Kiyiko'tning faqat bir turi (cho'lyalpiz) qaysi zonada ko'p tarqalgan? **Cho'l zonasida ko'p tarqalgan.**
5725. Kimlarga oq tut ich qotishning oldini olish, bavosilni davolash uchun har kuni nahorda va kun davomida 3 – 4 marta ovqatdan oldin iste'mol qilish tavsiya etilgan? **Qariyalarga tavsiya etilgan.**

5726. Kinkan, kumkvat qaysi oilaga mansub mevali doim qanday daraxt va butalar nimasi? **Rutadoshlar (rutagullilar) oilasiga mansub mevali doim yashil daraxt va butalar turkumi.**
5727. Kinkan daraxtining vatani qayer? **Sharqiy Osiyo.**
5728. Kinkan daraxti qaysi mamlakatlarda ekiladi? **Tropik va subtropik mamlakatlarda ekiladi.**
5729. Kinkan daraxti Rossiyaga nechanchi asrda keltirilgan? **XIX asrda keltirilgan.**
5730. King Devid kuzgi qaysi mevali o'simlik navi? **Olma navi.**
5731. King Devid kuzgi olma navi qaysi navlarini chatishtirib chiqarilgan? **Jonatan va Arkanzas blok navlarini chatishtirib chiqarilgan.**
5732. Kitob surxagi, Surxak. Gov surxak qayerda yaratilgan eng ertapishar xo'raki uzum navi? **Xalq seleksiyasida yaratilgan.**
5733. Kitob surxagi navli uzumning vatani qayer? **Markaziy Osiyo.**
5734. Kitob surxagi navli uzum bargi o'rtacha bo'lib, uzunligi necha sm? **15 sm.**
5735. Kitob surxagi navli uzum bargi o'rtacha bo'lib, eni necha sm? **25 sm.**
5736. Kitob surxagi navli uzum shakli qanday? **Dumaloq.**
5737. Kitob surxagi navli uzum bargi necha bo'lakli? **5 bo'lakli.**
5738. Kitob surxagi navli uzum guli necha jinsli? **2 jinsli.**
5739. Kitob surxagi navli uzum boshi qanday? **Yirik.**
5740. Kitob surxagi navli uzum boshi og'irligi qancha g? **400 – 500 g.**
5741. Kitob surxagi navli uzum boshi shakli qanday? **Konussimon.**
5742. Kitob surxagi navli uzum g'ujumlari kattaligi necha mm gacha? **27 mm gacha.**
5743. Kitob surxagi navli uzum g'ujumlari rangi qanday? **To'q pushti.**
5744. Kitob surxagi navli uzum tarkibida qand necha foiz? **15,5 foiz.**
5745. Kitob surxagi navli uzum nordonligi qancha g/l? **3,3 g/l.**
5746. Kitob surxagi navli uzumning har g'ujumida necha dona urug'i bor? **3 dona urug'i bor.**

5747. Kitob surxagi navli uzum tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

5748. Kitob surxagi navli uzum sovuqqa qanday? **Chidamsiz bo'lganligi sababli qishda ko'mish kerak.**

5749. Kitob surxagi navli uzum qachon pishadi? **Iyun oxiri-iyul boshlarida pishadi.**

5750. Kitob surxagi navli uzum Toshkent viloyatida kurtak yozishidan boshlab g'ujumlari to'liq pishishi uchun necha kun talab qilinadi (faol harorat yig'indisi 2500° C da)? **100 kun talab qilinadi.**

5751. Kitob surxagi navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **160 – 220 s/ga.**

5752. Kitob surxagi navli uzum uzoq joylarga yuborishga qanday? **Chidamsiz.**

5753. Kitob surxagi navli uzum g'ujumlari to'liq pishgach, necha kunda hosil yig'ishtirib olinadi? **8 – 12 kunda hosil yig'ishtirib olinadi.**

5754. Kitob surxagi navli uzum qaysi viloyatlarda ekiladi? **Toshkent, Samarqand viloyatlarida ekiladi.**

5755. Kitob surxagi navli uzum qanday shakl berib o'stirilganda toklar yaxshi hosil beradi? **Ko'p zang qoldirib, elpig'ichsimon shakl berib o'stirilganda toklar yaxshi hosil beradi.**

5756. Kishmish-g'ujumi nimasiz qaysi mevali o'simlik navlari guruhi? **Urug'siz uzum navlari guruhi.**

5757. Kishmish guruhiga qaysi kishmishlar kiradi? **Bedona, Oq kishmish, Qora kishmish, Pushti kishmish, VIR kishmish va Xishruv kishmish, Zarafshon kishmishi, Turkmaniston qizil kishmishi, Marmar kishmishi, Tag'ob kishmishi, Astraxan kishmishi (dumaloq kishmish), Qora Korinka va boshq. kishmishlar kiradi.**

5758. Kishmishlar ko'proq qayerlarda o'stiriladi? **O'rta Osiyo, AQSh, Fransiya, Armaniston, Ozarbayjon, Rossiyaning janubiy mintaqalarida o'stiriladi.**

5759. Kishmishdan necha foiz mayiz tushadi? **24 – 30 foiz.**

5760. Kishmishdan qanday ichimliklar tayyorlanadi? **Markali vinolar tayyorlanadi.**

5761. Kladoniya qaysi lishayniklar turkumi? **Butasimon lishayniklar turkumi.**

5762. Kladoniya o'simligining yer sharida nechta turi bor? **300 ta turi bor.**

5763. Kladoniya o'simligining ba'zi turlarida qaysi kislota bor? **Usnin kislota bor.**

5764. Kladoniya o'simligi qayerda ishlatiladi? **Tibbiyotda ishlatiladi.**

5765. Kladofora qaysi suvo'tlar turkumi? **Ko'p hujayrali yashil suvo'tlar turkumi.**

5766. Kladofora o'simligining nechta turi bor? **300 ta turi bor.**

5767. Kladofora o'simligi qaysi havzalarda o'sadi? **Dengiz va chuchuk suv havzalarida o'sadi.**

5768. Kladofora o'simligi qanday ko'payadi? **Jinssiz va jinsiy ko'payadi.**

5769. Klatropteris qaysi oilaga mansub, urug'i qurib ketgan o'simliklar turkumi? **Qirqquloqdoshlar (qirqquloqlilar) oilasiga mansub, urug'i qurib ketgan o'simliklar turkumi.**

5770. Klatropteris o'simligining qancha turi bo'lgan? **10 ga yaqin turi bo'lgan.**

5771. Klatropteris o'simligi yer sharining qaysi qismida tarqalgan? **Yer sharining shimoliy qismida tarqalgan.**

5772. Klotssh g'o'zasi qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**

5773. Klotssh g'o'zasi nechanchi yilda kashf qilingan? **1853-yilda kashf qilingan.**

5774. Klotssh g'o'zasini birinchi marta qaysi olim ta'riflab bergan? **Anderson ta'riflab bergan.**

5775. Klotssh g'o'zasining vatani qayer? **Galapagos orollari.**

5776. Klotssh g'o'zasi qaysi orol qirg'oqlaridagi toshloq yerlarda o'sadi? **Galapagos orollari qirg'oqlaridagi toshloq yerlarda o'sadi.**

5777. Klotssh g'o'zasi qanday? **Yumshoq.**

5778. Klotssh g'o'zasi qanday tuklar bilan qoplangan necha yillik buta? **Kalta tuklar bilan qoplangan ko'p yillik buta.**

5779. Klotssh g'o'zasining bo'yi necha m cha? **4 m cha.**

5780. Klotssh g'o'zasining hosil shoxlari qanday? **Kalta.**

5781. Klotssh g'o'zasining ko'sagi necha chanoqli? **3 va 5 chanoqli.**

5782. Klotssh g'o'zasining ko'sagi qanday? **Mayda.**

5783. Klotssh g'o'zasining ko'sagi shakli qanday? **Uzunchoq sharsimon.**

5784. Klotssh g'o'zasining har bir chanog'ida nechtadan chigiti bor? **6 tadan chigiti bor.**

5785. Klotssh g'o'zasi chigiti qanday? **Mayda.**

5786. Klotssh g'o'zasi chigiti qanday tuklar bilan qoplangan? **Kalta qo'ng'ir tuklar bilan qoplangan.**

5787. Klotssh g'o'zasining chigiti qobig'i qanday? **Qattiq, toshchigit.**

5788. Klotssh g'o'zasi nimaga chidamli? **Qurg'oqchilikka chidamli.**

5789. Klotssh g'o'zasi qaysi g'o'za bilan chatishib, pushti, meksika g'o'zasi, peru g'o'zasi bilan puch chigitli, raymond g'o'zasi bilan bepusht duragay hosil qiladi? **Davidson g'o'zasi bilan chatishib, pushtli, meksika g'o'zasi, peru g'o'zasi bilan puch chigitli, raymond g'o'zasi bilan bepusht duragay hosil qiladi.**

5790. Klyukva qaysi oilaga mansub doim qanday butasimon o'simliklar turkumi? **Brusnikadoshlar (brusnikagullilar) oilasiga mansub doim yashil butasimon o'simliklar turkumi.**

5791. Klyukva o'simligining nechta turi bor? **4 ta turi bor.**

5792. Klyukva o'simligining gulbargi va kosachabarglari nechta? **4 ta.**

5793. Klyukva o'simligining mevasi qimmatbaho ovqat mahsuloti bo'lib, tarkibida qanday kislotalar, moddalar va vitaminlar bor? **Limon, benzoat va boshqa kislotalar; pektin moddalar, vaksinnin glikozidi; C va P vitaminlari bor.**

5794. Klyukva o'simligining mevasi va ekstrakti qayerlarda ishlatiladi? **Mevasi va ekstrakti issiqni pasaytirish, singaga qarshi, antibiotik va sulfatilamidlarning ta'sirini kuchaytirish uchun hamda sovuq ichimlik sifatida ishlatiladi.**

5795. Klyukva o'simligi qaysi sanoatlarda ko'p ishlatiladi? **Oziq-ovqat va likyor-aroq sanoatlarida ko'p ishlatiladi.**

5796. Klyukva o'simligidan tibbiyotda qaysi kasalliklarni davolashda foydalaniladi? **Gipertoniya kasalligida foydalaniladi.**

5798. Klyukva o'simligi qaysi bezlarning sekretini kuchaytiradi? **Me'da-ichak yo'li bezlarining sekretini kuchaytiradi.**

5799. Klyukva o'simligi qayerda ekiladi? **Shimoliy Amerikada ekiladi.**

5800. Kovrak qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Soyabonguldoshlar (soyabongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

5801. Kovrak qanday hidli necha yillik o'tsimon o'simlik? **Sassiq hidli ko'p yillik o'simlik.**

5802. Kovrak o'simligining O'zbekistonda nechta turi o'sadi? **45 ta turi o'sadi.**

5803. Kovrak o'simligining bo'yi necha sm gacha? **100 sm gacha.**

5804. Kovrak o'simligining ildizi yo'g'onligi necha sm gacha? **15 sm gacha.**

5805. Kovrak o'simligining poyasi yo'g'on bo'lib, diametri necha sm cha? **8 sm cha.**

5806. Kovrak o'simligining ildizida barglari qanday? **Bandli.**

5807. Kovrak o'simligining barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

5808. Kovrak o'simligining barglari necha bo'lakka bo'lingan? **Uch bo'lakka bo'lingan.**

5809. Kovrak o'simligining to'pguli qanday? **Yirik.**

5810. Kovrak o'simligining to'pguli shakli qanday? **Sharsimon.**

5811. Kovrak o'simligining to'pguli diametri necha sm? **20 sm.**

5812. Kovrak o'simligining yon to'pgullari qanday? **Maydaroq.**

5813. Kovrak o'simligining gullari qanday tusli? **Och sariq yoki malla rang tusli.**

5814. Kovrak o'simligining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

5815. Kovrak o'simligining mevasi necha urug'li? **Ikki urug'li.**

5816. Kovrak o'simligining urug'i somondek qanday rangda?

5818. Kovrak o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Mart-aprel oylarida gullaydi.**

5819. Kovrak o'simligining mevalari qaysi oylarda pishadi? **Aprel-may oylarida pishadi.**

5820. Kovrak o'simligi qayerlarda, qanday joylarda o'sadi? **O'rta Osiyo Respublikalarining qumloq joylarida, tog' tuproqli tekisliklardagi cho'llarda, tog'oldi joylarda o'sadi.**

5821. Kovrak o'simligining ildizlari havoda qotib qoladigan yelimi "asfetida" degan katronsimon moddasidan qanday kislota, spirtlar va bularning qanday efirlari hamda moddasi ajratib olingan? **Ferulat kislota, qatron spirtlar va bularning ferul efirlari hamda kumarin-umbellaferon moddasi ajratib olingan.**

5822. Kovrak o'simligi tarkibidagi smoladan qanday moddalar aniqlangan? **Umbelliferon, ferulla kislotasi, galban kislotasi, kumarinlar va organik sulfidlar, forneziferol, A, B, C vitaminlari va efir moylari aniqlangan.**

5823. Kovrak o'simligining tarkibida qanday moddalar mavjud? **Efir moylari (smolalar) uglevodlar, vitaminlar va boshqa moddalar mavjud.**

5824. Kovrak o'simligining ildizlarida anchagina qanday modda bor? **Kraxmal moddasi bor.**

5825. Kovrak o'simligining ildizlari havoda qotib qoladigan yelim xalq tabobatida ba'zi qanday kasalliklarda dori sifatida qadimdan ishlatib kelinadi? **Asab kasalliklarida, talvasaga qarshi vosita sifatida, shuningdek, gijja haydaydigan dori sifatida qadimdan ishlatib kelinadi.**

5826. Kovrak o'simligining ildizidan O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarda foydalaniladi? **Bronxial astma, sariq kasalligi, ko'kyo'tal, sil, zahm kasalliklarida foydalaniladi.**

5827. Kovrak o'simligining ildizi qanday kasalliklarga tavsiya etiladi? **[illegible] haydaydigan**

5829. Kovrak yelimini qaysi hakim bo'g'im og'riqlari davosiga ishlatish, ishtaha ochadigan va siydik haydaydigan vosita sifatida tavsiya yetgan, lekin u kovrak elimi qovuqqa zarar qiladi deb hisoblagan? **Abu Ali ibn Sino tavsiya etgan.**

5830. Kovrak o'simligini qaysi davlatda bosh miya aterosklerozi, bronxitlar, nafas yo'llari katarlari davosiga ishlatiladi? **Armanistonda ishlatiladi.**

5831. Kovrak o'simligining ildizi yelimidan tinktura, pilyula va emulsiyalar tayyorlab zamonaviy tabobatda qanday kasalliklar davosiga ishlatiladi? **Astma, isteriya va asab sistemasining boshqa kasalliklari davosiga ishlatiladi.**

5832. Kovrak o'simligi ildizi yelimidan tayyorlangan preparatlar qanday kasalliklarga vosita sifatida qo'llaniladi? **Talvasaga qarshi va muskullarning tortishib, qisqarib turishini bartaraf etadigan vosita sifatida qo'llaniladi.**

5833. Kovrak o'simligidan tayyorlangan galen preparatlari qanday kasalliklarni bartaraf etib, qanday jonivorlarning ko'payishiga yo'l qo'ymasligi qayerda aniqlangan? **Arterial bosimini pasaytirishi, qiltomirlarning mo'rtligini bartaraf etib, mikroblarning ko'payishiga yo'l qo'ymasligi tajribada aniqlangan.**

5834. Kovrak o'simligidan olingan moddalardan qaysi kasalliklarni davolashda foydalanilgan? **Astma, sil, diareya, vabo, qandli deabit, revmatizm, suzak, jigar kasalliklari, paralich, gastirit, ateriskleroz, xavfli o'sma, tish og'rig'i, yiringli yaralarni davolashda foydalanilgan.**

5835. Kovrak o'simligining ildizlari va mevalaridan ichish uchun qanday dori va nima tayyorlanadi? **Kukun dori va qaynatma tayyorlanadi (bir martali dozasi 1 – 3 g dan 5 – 10 g gacha).**

5836. Kovrak o'simligining ildizlari, bargları va mevalaridan tayyorlangan qaynatmalarni qaysi a'zoga qo'yiladigan bog'lamlarga ishlatiladi? **Badan terisiga qo'yiladigan bog'lamlarga**

5840. Kovulning guli qanday (yirikmi yoki maydami)? **Yirik.**

5841. Kovulning guli rangi qanday? **Oq yoki och pushti.**

5842. Kovulning mevasi qanday etli? **Qizil etli.**

5843. Kovulning mevasi qanday urug'li? **Ko'p urug'li.**

5844. Kovul o'simligi qayerlarda ko'p tarqalgan? **Qrim, Kavkaz, O'rta Osiyo, Shimoliy Amerika va O'rta dengizning toshloq yerlarida ko'p tarqalgan.**

5845. Kovulning nimalari sirkalab yoki tuzlab ovqatga ishlatiladi? **G'unchasi, mevasi.**

5846. Kovulning mevasida necha foiz oqsil moddalar bor? **18 foiz oqsil moddalar bor.**

5847. Kovulning mevasida necha foizcha moy bor? **36 foizcha moy bor.**

5848. Kovul qayerda ekiladi? **Janubiy Yevropada ekiladi.**

5849. Kovul, jayra bodringdan qaysi hakim o'tirgich asablarini shamollashda, xavfli yaralarda, shol kasalligida, tish og'rig'ida, taloq kasalligida, muskul tuzalishi kasalligini davolashda foydalangan? **Abu Ali ibn Sino foydalangan.**

5850. Kovuldan mahalliy tabiblar qaysi kasalliklarni davolashda foydalanganlar? **Jigar kasalliklarini, asab charchaganda, brutsellezda, sariq kasalliklarini davolashda foydalanganlar.**

5851. Kovulning kukuni qaysi yaralarda sinalgan? **Qiyin bitadigan yaralarda sinalgan.**

5852. Kovulning mevasi qanday xususiyatlarga ega? **Gijja haydash, ichini yumshatish xususiyatlarga ega.**

5853. Kovulning mevasi bilan qaysi kasalliklarni davolash mumkin? **Jigarni, yurakni, o'pka va taloqning ishini mustahkamlaydi, ulardan qandli diabet, buqoq va angenani davolash mumkin.**

5854. Kovulning gullari shirasi nimalarni davolaydi? **Yaralarni davolaydi.**

5855. Kovulning g'unchalaridan tayyorlangan kukun qanday kasalliklarga davo? **Jigar va taloq kasalliklariga davo.**

5856. Kovulning ildizidan tayyorlangan vanna qaysi kasalliklarga davo? **Paralich va revmatizmga davo.**

5857. Kovul o'simligining mevasidan tayyorlangan konserva yordamida qaysi kasallikni davolash mumkin? **Bazedov kasalligini davolash mumkin.**

5858. Kovul nimaga qarshi xususiyatlarga ega? **Allergiyaga qarshi xususiyatlarga ega.**

5859. Koka butasi, koka qaysi oilaga mansub? **Eritroksilondoshlar (eritroksilongullilar) oilasiga mansub.**

5860. Koka butasining bo'yi necha m? **1 – 5 m.**

5861. Koka butasining bargida necha foiz kokain va boshqa alkaloidlar bor? **0,5 – 1,3 foiz.**

5862. Koka butasidan mahalliy xalq nima maqsadda bargini damlab ichishadi? **Organizm quvvatini oshirish uchun.**

5863. Kokos palmasi qaysi oilaga mansub doim qanday daraxt? **Palmadoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt.**

5864. Kokos palmasining bo'yi necha m? **20 – 25 m.**

5865. Kokos palmasining diametri necha sm? **60 sm cha.**

5866. Kokos palmasining tanasi uchida bo'yi necha m keladigan patsimon barglari to'p bo'lib joylashgan? **3 – 6 m.**

5867. Kokos palmasining guli qandaysimon to'pgul? **Ro'vaksimon to'pgul.**

5868. Kokos palmasining mevasi qanday? **Yirik, danakli (kokos yong'og'i deb ham ataladi).**

5869. Kokos palmasining yog'ochi qanday material hisoblanadi? **Qurilish materiali hisoblanadi.**

5870. Kokos palmasiga o'xshash butiya palmasi qanday o'simlik sifatida o'stiriladi? **Manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.**

5871. Kokos palmasi qayerlarda tarqalgan? **Tropiklardagi okean sohillarida tarqalgan.**

5872. Kokos palmasi koprasi (eti)dan qanday moddalar olinadi? **Kokos moyi, xushta'm kokos suti olinadi.**

5873. Kokos palmasining yosh barglari, mevasining pishgani va dumbuli nimaga ishlatiladi? **Ovqatga ishlatiladi.**

5874. Kokos palmasining to'pguli kesilgan joydan oqib chiqadigan shiradan nimalar tayyorlanadi? **Vino, shirin lchimlik va qand tayyorlanadi.**

5875. Kolrabi, Kolrabi karami necha yillik sabzavot ekini? **Ikki yillik sabzavot ekini.**

5876. Koleus qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

5877. Koleus o'simligining nechta turi bor? **150 ga yaqin turi bor.**

5878. Koleus o'simligining ba'zi turlari tuganagida qanday modda bo'lib, Osiyoning qayerlarida o'stiriladi? **Kraxmal moddasi bo'lib, Afrika va Osiyoning tropiklarida o'stiriladi.**

5879. Kolokaziya qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Kuchaladoshlar (kuchalagullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

5880. Kolokaziya o'simligining bargi qanday shaklda? **Yurakchasimon yoki nayzasimon shaklda.**

5881. Kolokaziya o'simligining to'pguli nima? **So'ta.**

5882. Kolokaziya o'simligining mevasi qanday urug'li qanday meva? **Ko'p urug'li rezavor meva.**

5883. Kolokaziya o'simligining Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda nechta turi bor? **8 ta turi bor.**

5884. Kolokaziya o'simligining qaysi turida 4 kg cha keladigan kartoshkasi bor? **Toro turida bor.**

5885. Kolokaziya o'simligining toro turidagi kartoshkasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **18 – 20 foiz kraxmal, 0,5 foiz qand, 3 foizdan ortiq oqsil moddalari bor.**

5886. Kolrabi karamining nechta kenja turi bor? Ular qaysilar? **Ikkita kenja turi bor. Ular: osiyo kenja turi (ssp. Asiatica Lizg) va g'arbiy Yevropa kenja turi (ssp. occidental – Iuropala Lizg).**

5887. Kolrabi karamining ildiz tizimi qanday rivojlangan? **Kuchli rivojlangan.**

5888. Kolrabi karami birinchi yili nima beradi? **Poya – meva beradi.**

5889. Kolrabi karami ikkinchi yili nimalar chiqarib, nimalar hosil qiladi? **Gul novdalar chiqarib, gul va urug' hosil qiladi.**

5890. Kolrabi karamining tubbargi qanday (yirikmi yoki kichkinami)? **Kichkina.**

5891. Kolrabi karamining bargi qanday (bandlimi yoki bandsizmi)? **Bandli.**

5892. Kolrabi karamining shakli qanday? **Uchburchak yoki tuxumsimon.**

5893. Kolrabi karamining diametri necha sm yo'g'onlashgan? **10 – 15 sm yo'g'onlashgan.**

5894. Kolrabi karami poya-meva shakllanishida nechta chinbarg chiqaradi? **7 – 8 ta chinbarg chiqaradi.**

5895. Kolrabi karamining hosili necha kundan so'ng yig'ishtiriladi? **65 – 80 kundan so'ng yig'ishtiriladi.**

5896. Kolrabi karamining kechpishar navlarining o'suv davri necha kun? **120 – 150 kun.**

5897. Kolrabi karamining ertapishar navlarining hosildorligi qancha s/ga? **120 – 240 s/ga.**

5898. Kolrabi karamining kechpishar navlarining hosildorligi qancha s/ga? **500 – 600 s/ga.**

5899. Kolrabi karamining O'zbekistonda qaysi ertapishar navi ekiladi? Oq Vena **1350 ertapishar navi ekiladi.**

5900. Kolrabi karamining shakli qaysi mevali o'simlikni eslatadigan poya mevasi bilan qolgan barcha karamlardan ajralib turadi? **Sholg'omni eslatadigan.**

5901. Kolrabi karamining rangi qanday? **Och-ko'kimtir, binafsha yoki qizg'ish.**

5902. Kolrabi karamining poyamevasi tuproq nima bo'lsa, mayda, dag'al bo'ladi? **Quruq, namlik kam bo'lsa, mayda, dag'al bo'ladi.**

5903. Kolyuriya qaysi oilaga mansub ildizpoyali necha yillik o't? **Ra'nodoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub ildizpoyali ko'p yillik o't.**

5904. Kolyuriya o'tining ildizpoyasi va ildizidan qanday moy olinadi? **Evgenolli efir moyi olinadi.**

5905. Kolyuriya o'tining guli qanday rangli? **Sariq.**

5906. Kolyuriya o'tining nechta turi bor? **5 – 7 ta turi bor.**

5907. Kolyuriya o'ti qayerlarda o'sadi? **Janubiy Sibir, Shimoliy Mo'g'uliston va Xitoyda o'sadi.**

5908. Kolyuriya o'tining qayerlarda nechta turi uchraydi? **Oltoy, Sharqiy Qozog'iston, Krasnoyarsk o'lkasining janubida va Tuva Respublikasidagi dasht va toshloq tog' yon bag'irlarida bir turi uchraydi.**

5909. Kolyuriya o'tining nimalarini mahalliy xalq choy sifatida va tamakini xushbo'y qilish uchun ishlatadi? **Ildizpoyasi va ildizini ishlatadi.**

5910. Konfet daraxti qaysi oilaga mansub qanday daraxt? **Chilonjiydadoshlar (itjumrutdoshlar) oilasiga mansub mevali daraxt.**

5911. Konfet daraxti qayerlarda o'stiriladi? **Qrim, Kavkaz va O'rta Osiyoda o'stiriladi.**

5912. Konfet daraxti qayerlarda yovvoyi holda o'sadi va ekiladi? **Koreya, Xitoy, Yaponiyada yovvoyi holda o'sadi va ekiladi.**

5913. Konfet daraxtining meva bandida necha foiz, qurug'ida necha foizgacha qand bor? **Meva bandida 20 – 23 foiz, qurug'ida 47,8 foizgacha qand bor.**

5914. Konfet daraxtining guli qanday? **Guli serasal.**

5915. Konfet daraxtining yog'ochi qayerlarda ishlatiladi? **Yog'ochi mebel va musiqa asboblari tayyorlashda ishlatiladi.**

5916. Kon'yugatlar – yashil suvo'tlar sinfi bo'lib, qanday hujayradan tashkil topgan ipsimon tanacha? **Bir hujayradan yoki bir qator joylashgan ko'p hujayradan tashkil topgan.**

5917. Kon'yugatlar o'simligining qancha turi ma'lum? **4000 – 6000 ta turi ma'lum.**

5918. Kon'yugatlar o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Barcha qit'alarda, jumladan, Antraktidada ham tarqalgan.**

5919. Kon'yugatlar o'simligi qayerlarda uchraydi? **Chuchuk suvda, tuproq ustida, nam joylarda va baland tog'larda uchraydi.**

5920. Kon'yugatlar o'simligining asosiy tarkiblari qanday? **Petrium, spirogira, mujotsiya, klosterium.**

5921. Kordaitdoshlar qanday o'simliklar? **Hozir yo'q bo'lib ketgan ochiq urug'li o'simliklar.**

5922. Kordaitdoshlar o'simligining bo'yi balandligi necha metrcha? **30 m cha.**

5923. Kordaitdoshlar o'simligining nechta turi O'zbekiston hududidagi qaysi tog'lardan qazib olingan? **5 ta turi Qurama, Turkiston, Olay, Hisor, Qoramozor, Chatqol tog'laridan qazib olingan.**

5924. Kordaitdoshlar o'simligining bargi uzunligi necha sm? **15 – 100 sm.**

5925. Kordaitdoshlar o'simligining to'pguli necha jinsli? **Bir jinsli.**

5926. Kordaitdoshlar o'simligi hozir yo'q bo'lib ketgan, qazilma holda qaysi davr qatlamlarida uchraydi? **Karbon va perm davri qatlamlarida uchraydi.**

5927. Koritsa o'simligi bilan anjirdan tayyorlangan bog'lam nima chaqishidan saqlaydi? **Chayon chaqishidan saqlaydi.**

5928. Koreopsis qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simliklar nimasi? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi.**

5929. Koreopsis o'simligining nechta turi bor? **70 ta turi bor.**

5930. Koreopsis o'simligi, asosan, qayerda qanday holda o'sadi? **Asosan, Shimoliy Amerikaning sharqiy qismida yovvoyi holda o'sadi.**

5931. Koreopsis o'simligining nechta turi qanday o'simlik sifatida ekiladi? **4 ta turi manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

5932. Kofe, qahva daraxti qaysi oilaga mansub? **Ro'yandoshlar (ro'yangullilar) oilasiga mansub doim yashil daraxtlar turkumi.**

5933. Kofe daraxtining qancha turi bor? **40 ga yaqin turi bor.**

5934. Kofe daraxti qayerda tarqalgan? **Afrikada tarqalgan.**

5935. Kofe daraxtining 5 – 6 ta madaniy turi Arabiston yarim orolida nechanchi asrlardan, Braziliyada nechanchi asrdan ekiladi? **XIV – XV asrlardan, XVIII asrdan ekiladi.**

5936. Kofe daraxtining urug'i Yevropaga nechanchi yilda keltirilgan va kofe ichimligi ichish odatga aylangan? **1592-yilda.**

5937. Kofe daraxtining qaysi turlari ko'proq tarqalgan? **C. arabica (Arabiston kofesi) va C. liberia (Liberiya kofesi) turlari ko'proq tarqalgan.**

5938. Kofe daraxtlarining asosiy qismi qaysi davlatlarda joylashgan? **Braziliya (jahon bo'yicha yetishtiriladigan kofening yarmi), Efiopiya, Kolumbiya, Yaman davlatlarida joylashgan.**

5939. Kofe daraxti ekilgan maydonlar jahon bo'yicha qancha ga? **11,5 mln ga.**

5940. Kofe daraxtining jahon bo'yicha hosildorligi qancha s/ga? **6,16 s/ga.**

5941. Kofe daraxtini o'stirish uchun namlikning miqdori (yillik yog'in miqdori) necha mm va o'rtacha yillik harorat qancha °C dan kam bo'lmagan tabiiy-iqlim sharoit zarur? **2200 – 2300 mm va 18° C harorat zarur.**

5942. Kofe daraxti qachon gullaydi va meva tugadi? **Yil bo'yi gullaydi va meva tugadi.**

5943. Kofe daraxtining balandligi necha m? **8 – 20 m.**

5944. Kofe daraxtining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**
5945. Kofe daraxtining mevasi necha uyali rezavor? **Ikki uyali rezavor.**
5946. Kofe daraxtining mevasi necha oyda yetiladi? **9 oyda yetiladi.**
5947. Kofe daraxtining ko'chati o'tqazilgandan keyin nechanchi yili hosilga kiradi? **5-yili hosilga kiradi.**
5948. Kofe daraxti necha yil hosil beradi? **30 – 40 yil hosil beradi.**
5949. Kofe daraxtining 1 tupidan qancha kg ga yaqin urug' olinadi? **1 kg ga yaqin urug' olinadi.**
5950. Kofe daraxtining urug'i tarkibida necha foiz azot moddalari bor? **13 – 14 foiz azot moddalari bor.**
5951. Kofe daraxtining urug'i tarkibida necha foiz kofein moddasi bor? **0,65 – 2,7 foiz kofein moddasi bor.**
5952. Kofe daraxtiining urug'i tarkibida necha foiz saxarin mavjud? **2 – 3 foiz saxarin mavjud.**
5953. Krijovnik qaysi oilaga mansub buta? **Toshyorardoshlar (toshyorargullilar) oilasiga mansub buta.**
5954. Krijovnik butasining qancha turi bor? **50 dan ortiq turi bor.**
5955. Krijovnik butasining qancha navi ma'lum? **1,5 mingga yaqin navi ma'lum.**
5956. Krijovnik butasining mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **Mevasi tarkibida 8 – 11 foiz qand, 30 – 60 mg foiz C_1, B_1, P vitaminlari bor.**
5957. Krijovnik butasining Shimoliy Amerikada nechta turi uchraydi? **46 ta turi uchraydi.**
5958. Krijovnik butasining nechta turi qayerlarda o'stiriladi? **3 ta turi: madaniy yoki ekma krijovnik – Rossiyaning Yevropa qismi, Kavkazda, shuningdek, Yevropa mamlakatlari, O'rta Osiyoda** o'stiriladi.
5959. Krijovnik butasining qaysi turlari qayerlarda uchraydi? **Tikanli krijovnik O'rta Osiyo tog'larida, Oltoyda, Sayan tog'larida; bursin krijovnik Uzoq Sharqda uchraydi.**
5960. Krijovnik butasining bo'yi necha m? **1,5 – 2 m.**
5961. Krijovnik butasi qanday ildizli? **Popuk ildizli.**
5962. Krijovnik butasining barglari necha bo'lakchali? **3 – 5 bo'lakchali.**

5963. Krijovnik butasining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**
5964. Krijovnik butasining mevasi qachon yetiladi? **Iyun oyining 2-yarmida yetiladi.**
5965. Krijovnik butasining mevasi og'irligi qancha g? **3,6 – 6 g.**
5966. Krijovnik butasining bir tupi qancha kg hosil beradi? **2,5 – 4 kg hosil beradi.**
5967. Krijovnik butasining mevasi tarkibida qanday moddalar bor? **Karotin, pektin moddalar bor.**
5968. Krijovnik butasining mevasi tarkibida qanday kimyoviy elementlar bor? **Temir, fosfor, kaliy elementlari bor.**
5969. Krijovnik butasining mevasi tarkibida qanday kislotalar bor? **Organik kislotalar bor.**
5970. Krijovnik butasining O'zbekistonda qayerda yaratilgan qaysi navlari ko'proq tomorqa bog'larida yetishtiriladi? **AQSh da yaratilgan Qora Negus, Purman, Xauton, Rossiya navlaridan Rus krijovnik navlari yetishtiriladi.**
5971. Kraxmalli texnika ekinlariga qaysilar kiradi? **Kartoshka, baotot va boshqalar kiradi.**
5972. Kroton qaysi oilaga mansub buta yoki daraxtsimon o'simliklar turkumi? **Sutlamadoshlar(sutlamagullilar) oilasiga mansub buta yoki daraxtsimon o'simliklar turkumi.**
5973. Kuvshinka, nilfiya, nimfiya qaysi oilaga mansub nima o'simliklari nimasi? **Nilfiyadoshlar (nilfiyagullilar) oilasiga mansub suv o'simliklari turkumi.**
5974. Kuzgi bir yillik o'simliklarning urug'lari qaysi faslda darhol unib chiqib, qaysi bargları rivojlanadi va shu tarzda nima tagida qishlab chiqadi? **Kuzda darhol unib chiqib, tomirlari barglari rivojlanadi va shu tarzda qor tagida qishlab chiqadi.**
5975. Kuzgi bir yillik o'simliklar guruhiga qaysi o'simliklar kiradi? **Kuzgi javdar, bug'doy, shuningdek, ko'pchilik begona o'tlar, masalan: jag'-jag', bo'takuz va boshq. kiradi.**
5976. Kulrang g'o'za qanday g'o'za turi? **Yovvoyi g'o'za turi.**
5977. Kulrang g'o'zani nechanchi yilda qaysi olim ta'riflab bergan? **1935-yilda Shvarts ta'riflab bergan.**
5978. Kulrang g'o'za faqat qaysi davlatda tarqalgan? **Yaman davlatida tarqalgan.**
5979. Kulrang g'o'za qanday o'suvchi? **Tik o'suvchi.**
5980. Kulrang g'o'zaning bo'yicha necha m cha? **1 – 3 m cha.**

5981. Kulrang g'o'zaning poyasi qanday shoxlangan? **Kuchli.**
5982. Kulrang g'o'za poyasi qanday tuklar bilan qoplangan? **Kalta tuklar bilan qoplangan.**
5983. Kulrang g'o'zaning hosil shoxlari qanday shoxlangan? **Kuchsiz shoxlangan.**
5984. Kulrang g'o'zaning hosil shoxlari necha bo'g'imli? **1 – 3 bo'g'imli.**
5985. Kulrang g'o'zaning bargları necha bo'lmali? **3 bo'lmali.**
5986. Kulrang g'o'zaning bargları qanday kattalikda? **O'rtacha kattalikda.**
5987. Kulrang g'o'zaning bargları bo'lmalari qanday uchburchakli? **Keng uchburchakli.**
5988. Kulrang g'o'zaning gullari qanday? **Mayda.**
5989. Kulrang g'o'zaning gullari qanday shaklda? **Qo'ng'iroq shaklida.**
5990. Kulrang g'o'za gultojbargining rangi qanday? **Och sariq.**
5991. Kulrang g'o'za tojbargi asosida ensiz kichikroq qanday dog'lar bor? **Qizg'ish dog'lari bor.**
5992. Kulrang g'o'zaning gullaridagi kosachasi necha tishli? **5 tishli.**
5993. Kulrang g'o'zasining ko'saklari qanday? **Mayda.**
5994. Kulrang g'o'zasining paxtasi necha chanoqli? **3 chanoqli.**
5995. Kulrang g'o'za ko'saklari qandaysimon uchli? **Tuxumsimon uchli.**
5996. Kulrang g'o'za ko'saklari sirti qanday bezchalar bilan qoplangan? **Tiniq smolali bezchalar bilan.**
5997. Kulrang g'o'za ko'sagining har bir chanog'ida kulrang-yashil tuklar bilan qoplangan nechtadan chigiti bor? **2 tadan chigiti bor.**
5998. Kulrang g'o'za qaysi g'o'zalar bilan erkin chatishadi? **Stoks g'o'zasi, Somali g'o'zasi, Arabiston g'o'zasi va boshq. g'o'zalar bilan erkin chatishadi.**
5999. Kungaboqar qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**
6000. Kungaboqar o'simligining vatani qayer? **Shimoliy AQSh.**
6001. Kungaboqar o'simligining yovvoyi holda o'sadiganini ispanlar Yevropaga nechanchi yilda keltirganlar? **1510-yilda keltirganlar.**

6002. Kungaboqar o'simligi Rossiyaga nechanchi asrda keltirilgan? **XVIII asrda keltirilgan.**
6003. Kungaboqar o'simligining moy olinadigani Rossiyadan qaysi mamlakatlarda tarqalgan? **AQSh va Kanadada tarqalgan.**
6004. Kungaboqar o'simligi ekiladigan maydonlar yer yuzida qancha ga? **22,84 mln ga (1999).**
6005. Kungaboqar o'simligi eng ko'p ekiladigan mamlakat qaysi? **Rossiya mamlakati.**
6006. Kungaboqar o'simligi Rossiyada qancha ga da ekiladi? **3,9 mln ga da ekiladi.**
6007. Kungaboqar o'simligi O'zbekistonda qancha ga da ekiladi? **4 ming ga da ekiladi (1999).**
6008. Kungaboqar o'simligining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**
6009. Kungaboqar o'simligining bo'yi necha m ga boradi? **4 m ga boradi.**
6010. Kungaboqar o'simligi qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi.**
6011. Kungaboqar o'simligining mevasi necha qirrali? **4 qirrali.**
6012. Kungaboqar o'simligining tarkibida moy necha foiz? **38-47 foiz.**
6013. Kungaboqar o'simligining 1000 ta urug'i og'irligi qancha g? **100 – 150 g.**
6014. Kungaboqar o'simligining urug'i kattaligiga, moyining miqdoriga va mag'zining chiqishiga qarab necha guruhga bo'linadi? **3 guruhga bo'linadi.**
6015. Kungaboqar o'simligining urug'i qancha ° C haroratda, necha kunda unib chiqadi? **4° C – 6° C haroratda, 10 – 15 kunda unib chiqadi.**
6016. Kungaboqar o'simligining maysasi minus qancha ° C haroratga bardoshli? **Minus 6° C haroratga bardoshli.**
6017. Kungaboqar o'simligining o'suv davri necha kun? **80 – 140 kun.**
6018. Kungaboqardan, asosan, ovqatga ishlatiladigan qanday modda olinadi? **Kungaboqar moyi olinadi.**
6019. Kungaboqar o'simligidan nima bostiriladi? **Silos bostiriladi.**
6020. Kungaboqar o'simligining chiqindilaridan nimalar olinadi? **Shrot va kunjara olinadi.**

6021. Kungaboqar o'simligining sug'oriladigan maydonlarda ko'chat qalinligi qancha tup/ga bo'lishi lozim? **60 ming tup/ga.**

6022. Kungaboqar o'simligi vegetatsiya davrida necha marta sug'oriladi? **5 – 6 marta sug'oriladi.**

6023. Kungaboqar o'simligini sug'orish me'yori qancha m^3/ga? **600 – 800 m^3/ga.**

6024. Kungaboqar o'simligi qaysi davrda ko'p nima talab qiladi? **Gullash davrida ko'p suv talab qiladi.**

6025. Kungaboqar o'simligining yetilganligini qanday aniqlash mumkin? **Savatining sariq-jigarrangga kirganligiga qarab aniqlash mumkin.**

6026. Kunjut qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Kunjutdoshlar (kunjutgullilar) oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o'simlik.**

6027. Kunjut o'simligining nechta turi bor? **19 ta turi bor.**

6028. Kunjut o'simligining vatani qayer? **Afrika.**

6029. Kunjut o'simligi O'rta Osiyoga qaysi mamlakatdan olib kelingan? **Hindistondan olib kelingan.**

6030. Kunjut o'simligining Hindiston kunjuti (S. indicum L.) qaysi mamlakatlarda ekiladi? **Hindiston, Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika, Eron, O'rta Osiyo va boshq mamlakatlarda ekiladi.**

6031. Kunjut o'simligi ekiladigan maydonlar yer yuzida qancha ga? **6,1 mln ga (1999).**

6032. Kunjut o'simligi ekiladigan maydon O'zbekistonda qancha ga? **2,85 ming ga (1998).**

6033. Kunjut o'simligi hosildorligi sug'oriladigan yerlarda qancha s/ga? **8 – 10 s/ga.**

6034. Kunjut o'simligining o'qildizi tuproqqa necha m chuqurlikka kirib boradi? **1 m chuqurlikka kirib boradi.**

6035. Kunjut o'simligining guli barg qo'ltig'ida necha bo'lib joylashgan? **1 – 3 ta bo'lib joylashgan.**

6036. Kunjut o'simligi necha bargli? **5 bargli.**

6037. Kunjut o'simligining bir tupida qancha ko'sakcha bo'ladi? **20 – 300 ko'sakcha bo'ladi.**

6038. Kunjut o'simligining ko'sakchasi necha chanoqli? **2 yoki 4 chanoqli.**

6039. Kunjut o'simligining ko'sakchasi uzunligi necha sm? **3 – 5 sm.**

6040. Kunjut o'simligining ko'sakchasi pishganda qirralaridan chatnab, nimasi sochiladi? **Urug'i sochiladi.**

6041. Kunjut o'simligining bitta ko'sakchasida nechtagacha urug' bo'ladi? **80 tagacha urug' bo'ladi.**

6042. Kunjut o'simligining 1000 dona urug'i og'irligi qancha g? **2 – 5 g.**

6043. Kunjut o'simligi qanday o'simlik? **Issiqsevar, yorug'sevar, qisqa kun o'simligi.**

6044. Kunjut urug'i qancha ^{0} C haroratda unib chiqadi? **15^0 C – 16^0 C haroratda unib chiqadi.**

6045. Kunjut o'simligining maysasi minus qancha ^{0} C haroratda nobud bo'ladi? **Minus 1^0 C haroratda nobud bo'ladi.**

6046. Kunjut o'simligi o'suv davrida harorat qancha ^{0} C dan past bo'lsa, o'sishdan to'xtaydi? **15^0 C haroratdan past bo'lsa, o'sishdan to'xtaydi.**

6047. Kunjut o'simligining o'sish davri necha kun? **90 – 110 (120 – 150) kun.**

6048. Kunjut o'simligi eng qimmatli qanday ekinlardan? **Moyli ekinlardan.**

6049. Kunjut o'simligining urug'i tarkibida necha foiz moy, oqsil, azotsiz moddalar mavjud? **65 foiz moy, 16 – 19 foiz oqsil, 16 – 17 foiz azotsiz moddalar bor.**

6050. Kunjut o'simligining moyida yod soni nechaga teng? **103 – 112 ga teng.**

6051. Kunjut o'simligining moyi qaysi moydan ham ustun turadi? **Zaytun moyidan ham ustun turadi.**

6052. Kunjut o'simligining moyi qayerlarda ishlatiladi? **Iste'mol uchun, oziq-ovqat sanoatatida, konserva va qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, tubobat, parfyumeriyada ishlatiladi.**

6053. Kunjut o'simligining bargi qayerda ovqatga solib iste'mol qilinadi? **Afrikada ovqatga solib iste'mol qilinadi.**

6054. Kunjut o'simligining tozalangan va maydalangan urug'i yuqori navli nimalarga ishlatiladi? **Halvalar (taxin halvalar) tayyorlashda, non yopishda ishlatiladi.**

6055. Kunjut o'simligining kunjarasida necha foiz oqsil bo'ladi? 40 **foiz oqsil bo'ladi.**

6056. Kunjut o'simligining kunjarasida necha foiz moy bo'ladi? 8 **foiz moy bo'ladi.**

6057. Kunjut o'simligi qanday tuproqli, qanday ekiladigan bo'shagan yerlarda mo'l hosil beradi? **Sur tuproqli, unumdor, don-dukkakli ekinlardan bo'shagan yerlarda mo'l hosil beradi.**

6058. Kunjut o'simligining gullashiga qadar necha marta suv beriladi? **1 – 2 marta suv beriladi.**

6059. Kunjut o'simligining gullash davrida necha marta suv beriladi? **2 marta suv beriladi.**

6060. Kunjut o'simligining bargları qachon to'kiladi? **Pishganda sarg'ayib barglari to'kiladi.**

6061. Kunjut o'simligining qaysi navları O'zbekistonning barcha viloyatlaridagi tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklarida ekiladi? **Toshkent 122, Seraxs 470, Kubanets 55 navlari ekiladi.**

6062. Kurare qayerda o'sadigan Stsychnos turkumiga mansub o'simliklardan olinadigan zahar? **Janubiy Amerikada o'sadi.**

6063. Kurare o'simligi tarkibida qanday alkaloid bor? **Kurarin alkaloidi bor.**

6064. Kurare o'simligi fiziologik eksperimentlarda qanday maqsadda ishlatiladi? **Hayvonlarni harakatsizlantirish uchun ishlatiladi.**

6065. Kurare o'simligi tarkibidagi kurarin alkaloidlari qonga tushsa, qaysi a'zo falajlanadi? **Asab falajlanadi.**

6066. Kurare o'simligidan tibbiyotda, asosan, qanday olingan kurarsimon moddalar qo'llaniladi? **Sintez qilib olingan.**

6067. Kurmak, g'ov kurmak, dev kurmak qaysi oilaga mansub necha yillik begona o't? **Boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub bir yillik begona o't.**

6068. Kurmak o'simligining bo'yi necha sm? **50 – 150 sm.**

6069. Kurmak o'simligining nechta turi mavjud? **Ikki turi mavjud.**

6070. Kurmak o'simligining qanday turları bor? **Sholisimon kurmak (devkurmak, govkurmak – E. oryzoides) va qora kurmak (shamak – E. crusgallii) turlari bor.**

6071. Kurmak o'simligining gulqo'rg'oni nechta? **Yo'q.**

6072. Kurmak o'simligining devkurmak turi qayerlarda qaysi ekinzorlarda o'sadi? **Uzoq Sharqda, O'rta Osiyoda sholi ekinzorlarida o'sadi.**

6073. Kurmak o'simligining shamak turi qayerlarda uchraydi? **Cho'l, adir, tog' hududlarida qurg'oqchilikka chidamli ekinlar orasida, sernam yerlarda, asosan, ariq bo'ylarida, ekin orasida uchraydi.**

6074. Kurmak o'simligi qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **Iyun-sentabr oylarida gullab, urug'laydi.**

6075. Kurmakdoshlar, kurmakgullilar qaysi sinfga mansub necha yillik o'simliklar oilasi? **Ikki pallalilar sinfiga mansub ko'p yillik o'simliklar oilasi.**

6076. Kurmakdoshlarning nechta turkumi va turi bor? **15 ta turkumi va 500 ta turi bor.**

6077. Kurmakdoshlarning nechta turkumi va turi O'zbekistonda o'sadi? **7 ta turkumi, 31 ta turi o'sadi.**

6078. Kurmakdoshlarning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

6079. Kurmakdoshlarning tojbargi nechta? **50 ta.**

6080. Kurmakdoshlarning changchisi nechta? **5 ta.**

6081. Kurmakdoshlarning mevasi necha urug'li yong'oqcha? **Mevasi bir urug'li yong'oqcha.**

6082. Kurmakdoshlardan mahalliy xalq qadimdan qanday modda olishda foydalangan? **Bo'yoq moddasi olishda foydalangan.**

6083. Kurmakdoshlardan qanday modda olinadi? **Oshlovchi modda olinadi.**

6084. Kuchala, chayono't qaysi oilaga mansub tuganakli, ko'p yillik o't? **Kuchaladoshlar (kuchaladoshlilar) oilasiga mansub tuganakli, ko'p yillik o't.**

6085. Kuchala o'tning bo'yi necha sm? **40 – 50 sm.**

6086. Kuchala o'tning gullari qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

6087. Kuchala o'tning to'pguli qandaysimon? **So'tasimon.**

6088. Kuchala o'tning qaysi qismida changchi, qayerida urug'chi gullar joylashgan? **Yuqori qismida changchi, quyida urug'chi gullar joylashgan.**

6089. Kuchala o't O'zbekistonning qaysi viloyatlarining tog' o'rmonlaridagi zax yerlarida o'sadi? **Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining tog' o'rmonlaridagi zax yerlarida o'sadi.**

6090. Kuchala o't qaysi oyda gullaydi? **May oyida gullaydi.**

6091. Kuchala o'tning tuganagida qanday moddalar bor? **Saponin, kraxmal, mevasida karotinoid, likopin moddalari bor.**

6092. Kuchala o'tning tuganagidan qilinadigan talqon xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi? **Ilon**

va chayon chaqqanda, kunjut moyiga qorilgan talqonidan pishirilgan non bavosilni, asalga qorilgan kuchala talqoni esa pesni davolashda qo'llaniladi.

6093. Kuchala o'tning yanchilgan tuganagini unga qorib qaysi kemiruvchilarni zaharlaydigan xo'rak tayyorlanadi? **Sichqon, kalamush va boshqa kemiruvchilarni. zaharlaydigan xo'rak tayyorlanadi.**

6094. Ko'ztikan, iberiya bo'tako'zi qaysi oilaga mansub necha yillik begona o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub ikki yillik begona o't.**

6095. Ko'ztikan begona o'tining bo'yi necha sm? **20 – 70 sm.**

6096. Ko'ztikan begona o'tining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**

6097. Ko'ztikan begona o'tining o'qildizi necha m chuqurlikkacha kiradi? **1 m chuqurlikkacha kiradi.**

6098. Ko'ztikan begona o'ti qachongacha gullaydi va mevalaydi? **Iyun-avgustgacha gullaydi va mevalaydi.**

6099. Ko'ztikan begona o'ti nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

6100. Ko'ztikan begona o'tining bargları qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

6101. Ko'ztikan begona o'tining tarkibida qanday moddalar bor? **Flavonoidlar, saponinlar va boshqa birikmalar bor.**

6102. Ko'ztikan begona o'ti xalq tabobatida qaysi kasallikni davolashda ishlatiladi? **Damlamasi istisqo kasalligini davolashda ishlatiladi.**

6103. Ko'ztikan begona o'ti O'rta Osiyoning qayerida tarqalgan? **Hamma joyida tarqalgan.**

6104. Ko'ztikan begona o'ti qayerlarda uchraydi va o'sadi? **G'alla ekinlari va bedazorlarda uchraydi, shuningdek, ariq-kanal bo'ylari, yo'l yoqalari, tashlandiq yerlar, bog' va uzumzorlarda o'sadi.**

6105. Ko'k gulobi navli kechpishar qovun tashishga va saqlashga qanday? **Chidamli.**

6106. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning shakli qanday? **Cho'ziq, tuxumsimon.**

6107. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning uzunligi necha sm? **24 – 30 sm.**

6108. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 5 kg.**

6109. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning sirti qanday? **To'rlangan.**

6110. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning rangi qanday? **Xira sarg'ish-yashil.**

6111. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning eti qanday? **Qattiq.**

6112. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning eti rangi. Po'stiga yondosh joyi rangi qanday? **Oq, ko'kish.**

6113. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning eti qalinligi necha sm? **5 – 6 sm.**

6114. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning tarkibida qand necha foiz? **9,6 – 11,4 foiz.**

6115. Ko'k gulobi navli kechpishar qovunning urug'i, rangi qanday? **Yirik, sarg'ish-jigarrang.**

6116. Ko'k gulobi navli qovun urug'i chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **110 – 125 kunda pishadi.**

6117. Ko'k gulobi navli qovunning hosili qancha s/ga? **250 – 300 s/ga.**

6118. Ko'k gulobi navli qovun tarkibida necha foiz qand bor? **9,6 – 11,4 foiz.**

6119. Ko'k gulobi navli kechpishar qovun qayerlarda ekiladi? **Zarafshon vodiysi, Respublikaning janubiy tumanlari, Xorazm vohasida, Qoraqalpog'istonda ekiladi.**

6120. Ko'k gurvak navli qovunning og'irligi qancha kg? **5 – 8 kg.**

6121. Ko'k gurvak navli qovunning sirti qanday? **Tekis, yashil.**

6122. Ko'k gurvak navli qovunning po'sti qanday? **Qattiq.**

6123. Ko'k gurvak navli qovunning eti qalinligi necha sm? **6 – 8 sm.**

6124. Ko'k gurvak navli qovun tarkibida qand necha foiz bor? **7,6 – 10,4 foiz bor.**

6125. Ko'k gurvak navli qovun, asosan, O'zbekistonning qayerlarida ekiladi? **Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida ekiladi.**

6126. Ko'k choy qaysi o'simlikning pishib yetilmagan yosh barglaridan tayyorlanadi? **Choy o'simligining pishib yetilmagan yosh barglaridan tayyorlanadi.**

6127. Ko'k choy o'simligi qaysi kasallikka davo bo'ladi? **Qon bosimi oshganda davo bo'ladi.**

6128. Ko'k-yashil suvo'tlar – suvo'tlar bo'limi bo'lib, hujayrasi nimasiz? **Yadrosiz.**

6129. Ko'k-yashil suvo'tlar qanday xususiyatlarga ko'ra, prokariotlarga kiradi? **Tuzilishi, tarkibi va genetik xususiyatlariga ko'ra, prokariotlarga kiradi.**

6130. Ko'k-yashil suvo'tlar bakteriyalarga nisbatan qanday tuzilgan? **Ancha murakkab tuzilgan.**

6131. Ko'k-yashil suvo'tlar filogenetik jihatdan qanday tuzilgan o'simlik hisoblanadi? **Eng qadimgi sodda tuzilgan o'simlik hisoblanadi.**

6132. Ko'k-yashil suvo'tlarning uzunligi necha sm? **Ko'pincha 20 sm.**

6133. Ko'k-yashil suvo'tlar qanday ko'payadi? **Sporalar, akinetalar va iplarning bo'laklari orqali ko'payadi.**

6134. Ko'k-yashil suvo'tlarning nechta sinfi mavjud? Ular qaysilar? **Uchta sinfi mavjud. Ular: xrokokksimon suvo'tlar, xamesifonsimon suvo'tlar, gormogonsimon suvo'tlar.**

6135. Ko'k-yashil suvo'tlarning qancha turi ma'lum? **2000 dan ortiq turi ma'lum.**

6136. Ko'k-yashil suvo'tlarning O'rta Osiyo suv havzalarida qaysi turlarga mansub turlari uchraydi? **Ostsillatoriya, formidium, lingbiya turkumlariga mansub turlari uchraydi.**

6137. Ko'k-yashil suvo'tlarning ko'pchilik turlari havodagi erkin qaysi kimyoviy elementni o'zlashtirish xususiyatiga ega? **Erkin azotni o'zlashtirish xususiyatiga ega.**

6138. Ko'k-yashil suvo'tlar qayerlarda o'sadi? **Chuchuk suv va dengiz planktoni hamda bentosi tarkibiga kiradi, tuproq yuzasida, harorati 80° C gacha bo'lgan qaynoq suvli buloqlarda, bir qancha turlari ohaktosh konlarida o'sadi.**

6139. Ko'k-yashil suvo'tlar ko'pincha suv havzalarining nimasiga sabab bo'ladi? **"Gullashi"ga sabab bo'ladi.**

6140. Ko'k-yashil suvo'tlarning qaysi turlari iste'mol qilinadi? **Nostok, spiruka turlari iste'mol qilinadi.**

6141. Ko'k-yashil suvo'tlarni qanday maqsadda sanoat miqyosida ko'paytirish ustida ish olib borilmoqda? **Yem-xashak va oziq-ovqat oqsili olish maqsadida sanoat miqyosida ko'paytirish ustida ish olib borilmoqda.**

6142. Ko'ka o'simligi qayerda o'sadi? **Tog' bag'rida o'sadi.**

6143. Ko'ka o'simligining bo'yi necha sm? **5 – 25 sm.**

6144. Ko'ka o'simligining ildizpoyasidan nima hosil qiluvchi bir nechta shoxlamagan poyalar o'sib chiqadi? **Gul hosil qiluvchi.**

6145. Ko'ka o'simligining guli qanday rangli? **Sariq tilla rangli.**

6146. Ko'ka o'simligining guli tarkibida qanday moddalar, kislotalar, vitamin bor? **Achchiq glyukozidlar, saponinlar, karotin, S vitamini, efir moyi, organik kislotalar va boshqa moddalar bor.**

6147. Ko'kamaron qaysi oilaga mansub qanday buta? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansub sertuk chala buta.**

6148. Ko'kamaronning bir yillik poyalari necha sm? **5 – 10 sm.**

6149. Ko'kamaron qaysi oylarda gullaydi? **Iyun-iyul oylarida gullaydi.**

6150. Ko'kamaron mevasi qaysi oylarda pishadi? **Avgust – sentabrda pishadi.**

6151. Ko'kamaron qaysi viloyatlardagi tog'larda o'sadi? **Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi tog'larda o'sadi.**

6152. Ko'kamaronni qachon mol yeydi? **Yangiligida mol yeydi.**

6153. Ko'kboshchitir qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Ayiqtovondoshlar (ayiqtovongullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

6154. Ko'kboshchitir o'tining bo'yi necha sm? **15 – 30 sm.**

6155. Ko'kboshchitir o'tining barglari qanday? **Bandli.**

6156. Ko'kboshchitir o'tining barglari necha bo'lakka ajralgan? **3 bo'lakka ajrulgan.**

6157. Ko'kboshchitir o'tining guli qanday (to'g'rimi yoki qiyshiqmi)? **Qiyshiq.**

6158. Ko'kboshchitir o'tining gulqo'rg'oni rangi qanday? **Och pushti.**

6159. Ko'kboshchitir o'tining gulyonbarglari qanday? **Mayda.**

6160. Ko'kboshchitir o'tining guli shakli qanday? **Bigizsimon.**

6161. Ko'kboshchitir o'tining guli qanday (tuksizmi yoki tuklimi)? **Tukli.**

6162. Ko'kboshchitir o'tining gulbandi qanday (sertukmi yoki kamtukmi)? **Sertuk.**

6163. Ko'kboshchitir o'tining bargi sal nima qilgan? **Egilgan.**

6164. Ko'kboshchitir o'tining bargi uzunligi necha sm? **1 – 1,5 sm.**

6165. Ko'kboshchitir o'ti qaysi oylar gullab, urug' tugadi? **May-iyul oylarida gullab, urug' tugadi.**

6166. Ko'kboshchitir o'ti qaysi viloyatlardagi qanday yerlarda ko'p o'sadi? **Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlaridagi qumli yerlarda ko'p o'sadi.**

6167. Ko'kmaraz qaysi oilaga mansub qanday buta? **Sutlamadoshlar (sutlamagullilar) oilasiga mansub chala buta.**

6168. Ko'kmaraz o'simligining bo'yi necha sm gacha? **30 sm gacha.**

6169. Ko'kmaraz o'simligining gullari qanday jinsli? **Ayrim jinsli.**

6170. Ko'kmaraz o'simligining bargi qavnatmasi xalq tabobatida nimaga qarshi ishlatiladi? **Ich burug'ga qarshi ishlatiladi.**

6171. Ko'kmaraz o'simligidan molga oziqa sifatida foydalanilsa bo'ladimi? **Yo'q.**

6172. Ko'kmaraz o'simligidan nima uchun molga oziqa sifatida foydalanilsa bo'lmaydi? **Chunki mol emaydi.**

6173. Ko'kmaraz chala butasining mevasi necha chanoqli ko'sak? **Uch chanoqli ko'sak.**

6174. Ko'kmaraz chala butasining har chanog'ida nechtadan urug' bor? **Ikkitadan urug' bor.**

6175. Ko'knor sutining tarkibida qancha alkaloid bor? **20 dan ortiq alkaloid bor.**

6176. Ko'knor o'simligining ko'sagi po'chog'idan tibbiyot va veterinariyada qo'llaniladigan qaysi alkaloidlar olinadi? **Morfin, kodein, papaverin kabi alkaloidlar olinadi.**

6177. Ko'knor o'simligining urug'idan olingan moy (yog') sanoatda nima sifatida qo'llaniladi? **Bo'yoq erituvchi sifatida qo'llaniladi.**

6178. Ko'knor qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Ko'knordoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

6179. Ko'knor o'simligining urug'idan nima olinadi? **O'simlik moyi olinadi.**

6180. Ko'knor o'simligining nechta turi ma'lum? **1000 ta turi ma'lum.**

6181. Ko'knor o'simligi qanday mintaqalarda o'sadi? **Mo'tadil, subtropik, ba'zan sovuq mintaqalarda o'sadi.**

6182. Ko'knor o'simligining Kavkaz, O'rta Osiyo va Arktikada qancha turi uchraydi? **75 ga yaqin turi uchraydi.**

6183. Ko'knor o'simligining vatani qayer, so'ngra qayerlarga tarqalgan? **O'rta dengiz atroflari (Gretsiyada mil. avv. ekilgan), so'ngra Kichik Osiyo, Yevropaga tarqalgan.**

6184. Ko'knor o'simligining afyunli ko'knor turi qaysi mamlakatlarda qadimdan ekib kelingan? **O'rta Osiyo, Old Osiyo, Eron, Hindiston, Xitoy va boshq. mamlakatlarda qadimdan ekib kelingan.**

6185. Ko'knor o'simligining moyli ko'knor turi qaysi mamlakatlarda ekiladi? **Yevropada Avstriya, Polsha, Vengriya, Gollandiya, Chexiya, Slovakiya, Ukraina, Rossiya, Fransiyada ekiladi.**

6186. Ko'knor o'simligining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**

6187. Ko'knor o'simligining o'qildizi tuproqqa necha sm gacha kirib boradi? **70 – 120 sm gacha kirib boradi.**

6188. Ko'knor o'simligining bargi uzunligi necha sm? **20 – 30 sm.**

6189. Ko'knor o'simligining mevasi qanday? **Ko'sakcha.**

6190. Ko'knor o'simligining 1000 ta urug'i og'irligi qancha g? **0,24 – 0,45 g.**

6191. Ko'knor o'simligining bir ko'sakchasida qancha g urug' bo'ladi? **3 – 5 g.**

6192. Ko'knor o'simligining urug'i qancha ° C haroratda unib chiqadi? **2° C – 3° C haroratda unib chiqadi.**

6193. Ko'knor o'simligining urug'i ekilganidan so'ng qancha ° C haroratda, necha kunda maysalaydi? **10° C haroratda, 5 – 6 kunda.**

6194. Ko'knor o'simligi uchun maqbul harorat qancha ° C? **Harorat 20° C – 25° C.**

6195. Ko'knor o'simligining o'suv davri necha kun? **85 – 132 kun.**

6196. Ko'knor o'simligi qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi.**

6197. Ko'knor nimasevar, qanday kun o'simlik? **Yorug'sevar, uzun kun o'simligi.**

6198. Ko'knor o'simligining moyli ko'knor turi urug'i tarkibida necha foiz oziq-ovqatga ishlatiladigan moy, necha foiz oqsil mavjud? **45 – 56 foiz moy, 20 foiz oqsil mavjud.**

6199. Ko'knor o'simligining moyi, asosan, qayerlarda ishlatiladi? **Qandolat, konserva, parfyumeriya, lok-bo'yoq sanoatida, rassomlik bo'yoqlari tayyorlashda, urug'i non pishirish va qandolatchilikda ishlatiladi.**

6200. Ko'knor o'simligining kunjarasi tarkibida necha foiz moy, oqsil mavjud? **10 foiz moy, 32,5 foiz oqsil.**

6201. Ko'knor o'simligining shirasi tarkibida necha xil alkaloidlar bor? **20 xil alkaloidlar, ayniqsa, morfin, shuningdek, narkotik, kodein, papaverin, oqsil, uglevodlar, smola, mum, pigmentlar mavjud.**

6202. Ko'knor o'simligi nimalar ishlab chiqarishda qimmatli xomashyo hisoblanadi? **Tibbiyotda dori-darmonlar ishlab chiqarishda qimmatli xomashyo hisoblanadi.**

6203. Ko'knor o'simligining urug'i bo'yicha hosildorligi qancha s/ga? **4 – 8 s/ga.**

6204. Ko'knor o'simligining quruq ko'sagi (urug'siz) bo'yicha hosildorligi qancha s/ga? **3 – 8 s/ga.**

6205. Ko'knordoshlar necha pallali ayrim tojbargli o'simliklar oilasi? **Ikki pallali ayrim tojbargli o'simliklar oilasi.**

6206. Ko'knordoshlarning kosachabargları nechta? **2 ta.**

6207. Ko'knordoshlarning tojbarglari nechta? **4 ta.**

6208. Ko'knordoshlarning urug'chisi nechta? **2 – 4 ta yoki cheksiz.**

6209. Ko'knordoshlarning changchisi nechta? **2 ta.**

6210. Ko'knordoshlarning nechta turi bor? **600 tacha turi bor.**

6211. Ko'knordoshlarning O'zbekistonda nechta turkumi, turi o'sadi? **9 ta turkumi, 31 ta turi o'sadi.**

6212. Ko'knordoshlarning qanday turlari mavjud? **Moyli, opiyli (ko'knor), manzarali va boshq. turlari mavjud.**

6213. Ko'knordoshlarning bargları qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

6214. Ko'kno'xat, o'risno'xat qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi, dukkakli don va sabzavot ekini? **Dukkaklilar oilasiga mansub ko'p yillik.**

6215. Ko'kno'xat o'simligining nechta turi bor? **7 ta turi bor.**

6216. Ko'kno'xat o'simligi qayerlarda uchraydi? **Yevropa, G'arbiy Osiyo, Shimoliy Afrikada uchraydi.**

6217. Ko'kno'xat o'simligining jahondagi ko'pgina mamlakatlarda qaysi turi ko'proq yetishtiriladi? **Madaniy (P. sativum) turi (uning ekma, dala, osiyo, kavkaz kenja turlari bor) ko'proq yetishtiriladi.**

6218. Ko'kno'xat o'simligi dehqonchilikda mil. avv. nechanchi asrdan ekiladi? **IV asrdan.**

6219. Ko'kno'xat o'simligi qaysi davlatda ko'p ekiladi? **AQSh, Xitoy, Hindiston, Ukraina, Rossiyada ko'p ekiladi.**

6220. Ko'kno'xat o'simligi O'zbekistonda qanday ekin va o'g'it sifatida yetishtiriladi? **Oraliq ekin va ko'kat o'g'it sifatida yetishtiriladi.**

6221. Ko'kno'xat o'simligi qanday ekin? **Namsevar, sovuqqa chidamli ekin.**

6222. Ko'kno'xat o'simligining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**

6223. Ko'kno'xat o'simligining ildizida nimalar hosil bo'ladi? **Tuganaklar hosil bo'ladi.**

6224. Ko'kno'xat o'simligi bir mavsum davomida qancha kg/ga sof biologik azot to'playdi? **50 – 80 kg/ga.**

6225. Ko'kno'xat o'simligining poyasi o'tsimon, chirmashib o'sadi, novlariga qarab uzunligi necha sm dan necha sm gacha boradi? **70 – 120 sm dan 300 sm gacha boradi.**

6226. Ko'kno'xat o'simligining guli qandaysimon? **Kapalaksimon.**

6227. Ko'kno'xat o'simligi dukkagida nechta don bo'ladi? **4 – 10 ta don bo'ladi.**

6228. Ko'kno'xat o'simligi donining 1000 tasi og'irligi qancha g? **100 – 250 g.**

6229. Ko'kno'xat o'simligining urug'i qancha ° C haroratda unib chiqadi? **1° C – 5° C haroratda unib chiqadi.**

6230. Ko'kno'xat o'simligining maysasi minus qancha ° C haroratga chidamli? **Minus 3° C – 8° C haroratga chidamli.**

6231. Ko'kno'xat o'simligining o'sishi va rivojlanishi uchun eng qulay harorat qancha ° C? **17° C – 20° C.**

6232. Ko'kno'xat o'simligining vegetatsiya davri necha kun? **75 – 100 (45 – 120) kun va undan ortiq kun.**

6233. Ko'kno'xat o'simligi qayerdan changlanadi? **O'zidan changlanadi.**

6234. Ko'kno'xat o'simligining doni qanday moddaga boy? **Oqsil moddasiga boy.**

6235. Ko'kno'xat o'simligining donidan nimalar tayyorlanadi? **Oziq-ovqat (yorma, un, ko'k dumbul ko'kno'xatdan konser-**

valar) va poyasidan xashak (ko'k massa, pichan, senaj, somon) tayyorlanadi.

6236. Ko'kno'xat o'simligining tarkibida necha foiz qanday moddalar, vitaminlar, mikroelementlar bor? **6,5 foiz oqsil, 11 foiz uglevodlar, 4,2 foiz qand, 1 foiz kletchatka, vitaminlar, mikroelementlar bor.**

6237. Ko'kno'xat o'simligining hosildorligi qancha s/ga? **20 – 40 s/ga.**

6238. Ko'kno'xat o'simligi O'zbekistond yetishtiriladi? **Shirin va nim shirin navlar doni uchun yetishtiriladi.**

6239. Ko'kno'xat o'simligining qay O'zbekistonda ekiladi? **Vostok 84, Vost ekiladi.**

6240. Ko'kpek qaysi oilaga mansub qan **doshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub chala bo'ta.**

6241. Ko'kpek o'simligining bo'yi necha sm? **20 – 50 sm.**

6242. Ko'kpek o'simligi, asosan, qayerlarda o'sadi? **Sho'r yerlarda o'sadi.**

6243. Ko'kpek o'simligining gullari necha jinsli? **Bir jinsli.**

6244. Ko'kpek o'simligining changchi gullari necha bo'lakli? **5 bo'lakli.**

6245. Ko'kcha o'rtapishar qaysi o'simlik navi? **Qovun navi.**

6246. Ko'kcha navli qovun urug'dan chiqqach, necha kunda pishadi? **88 – 90 kunda pishadi.**

6247. Ko'kcha navli qovun tarkibida qand necha foiz bor? **7,5 – 14,8 foiz.**

6248. Ko'ksaqich, ko'ksag'iz qaysi oilaga mansub ko'p yillik o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

6249. Ko'ksaqich o'simligi qayerlarda o'stiriladi? **Ukraina, Belorussiya Respublikalari va Rossiyaning Yevropa qismidagi ba'zi markaziy tumanlarda o'stiriladi.**

6250. Ko'ksaqich o'simligining ildizida necha foiz qanday moddalar bor? **10 – 27 foiz kauchuk, 30 – 40 foiz inulin bor.**

6251. Ko'ksaqich o'simligining ildizida dastlabki 7 yilda qaysi modda ko'p to'planadi? **Kauchuk moddasi ko'p to'planadi.**

6252. Ko'ksaqich o'simligi qaysi oyda gullab, mevalaydi? **Iyun oyida gullab, mevalaydi.**

6253. Ko'ksaqich o'simligining barglari qanday o'yiq? **Yaxlit yoki bir oz patsimon o'yiq.**

6254. Ko'ksaqich o'simligining to'pguli rangi qanday? **Och sariq.**

6255. Ko'ksaqich Sharqiy Tyanshanning necha m balandlikdagi yerlarida katta-katta maydonni egallaydi? **1800 – 2100 m balandlikdagi yerlarida katta-katta maydonni egallaydi.**

6256. Ko'ksaqich o'simligidan qanday moddalar olish uchun o'stiriladi? **Kauchuk va spirt moddalari olish uchun o'stiriladi.**

6257. Ko'ksulton daraxti qaysi oilaga mansub? **Ra'noguldoshlar (atirgullilar) oilasiga mansub.**

6258. Ko'ksulton daraxti qanday yo'l bilan yetishtirilgan ertapishar olxo'ri navlaridan biri? **Xalq seleksiyasi yo'li bilan yetishtirilgan ertapishar olxo'ri navlaridan biri.**

6259. Ko'ksulton daraxtining ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosilga kiradi? **4-yili hosilga kiradi.**

6260. Ko'ksulton daraxtining balandligi necha m cha? **5 m cha.**

6261. Ko'ksulton daraxti qaysi oy boshlarida gullaydi? **Aprel oylari boshlarida gullaydi.**

6262. Ko'ksulton daraxtining mevasi qaysi oyda pishadi? **Iyun oyida pishadi.**

6263. Ko'ksulton daraxtining mevasi og'irligi qancha g? **22 – 26 g.**

6264. Ko'ksultonning 10 yillik daraxti qancha kg gacha hosil beradi? **100 kg gacha hosil beradi.**

6265. Ko'ksulton o'simligining mevasidagi danak etidan yaxshi nima qilmaydi? **Ajralmaydi.**

6266. Ko'ksulton o'simligining mevasi yaxshi nima qilmaydi? **Saqlanmaydi.**

6267. Ko'ksulton o'simligi O'zbekistonning qaysi hududlarida o'stiriladi? **Hamma hududlarida o'stiriladi.**

6268. Ko'ksulton etining rangi qanday? **Sarg'ish.**

6269. Ko'ksultonning ta'mi qanday? **Nordon-chuchuk.**

6270. Ko'ktikan qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Soyabonguldoshlar (soyabongullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'tlar turkumi.**

6271. Ko'ktikan o'simligining nechta turi bor? **250 ta turi bor.**

6272. Ko'ktikan o'simligining nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **5 ta turi uchraydi.**

6273. Ko'ktikan o'simligining qaysisi O'zbekistonning tog'li tumanlarida ko'p? **Yirik gul kosachali ko'k tikan va Bibyersh-teyn ko'k tikani ko'p.**

6274. Ko'ktikan o'simligi tarkibida qanday moddalar bor? **Saponinlar, flavonoidlar, efir moylari va boshqa moddalar bor.**

6275. Ko'ktikan o'simligining ildizi damlamasi xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda, yer ustki qismi nima maqsadda ishlatiladi? **Istisqo kasalligi, bavosil, turli shish va boshqa kasalliklarni davolashda, yer ustki qismi kamqonlikda ishlatiladi.**

6276. Ko'kterak, sho'rterak, chinnıterak qaysi oilaga mansub nima? **Toldoshlar (tolgullilar) oilasiga mansub daraxt.**

6277. Ko'kterak daraxtining bo'yi necha m? **35 – 40 m.**

6278. Ko'kterak daraxtining bargları necha burchakli? **Uch, besh burchakli.**

6279. Ko'kterak daraxtining bargları qanday? **Yirik.**

6280. Ko'kterak daraxtining barglari cheti qanday? **Kungura.**

6281. Ko'kterak daraxtining bargları orqasi qanday (qattiqmi yoki mayinmi)? **Mayin.**

6282. Ko'kterak daraxtining barglari qanday tukli? **Oq tukli.**

6283. Ko'kterak daraxtining bargları usti rangi qanday? **Kumushrang-yashil, yaltiroq.**

6284. Ko'kterak daraxti barg yozishidan oldin to'pguli nima chiqaradi? **Kuchala chiqaradi.**

6285. Ko'kterak daraxti nimalaridan ko'paytiriladi? **Qalamcha va ildiz bachkisidan ko'paytiriladi.**

6286. Ko'kterak daraxti qanday (sekinmi yoki tezmi) o'sadi? **Tez o'sadi.**

6287. Ko'kterak daraxti qanday o'simlik sifatida ekiladi? **Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.**

6288. Ko'kterak daraxtining yog'ochi qayerlarda ishlatiladi? **Imoratlar qurish va duradgorlikda ishlatiladi.**

6289. Ko'kterak daraxti qayerlarda keng tarqalgan? **O'rta Osiyo, G'arbiy Yevropa, O'rta dengiz sohillari va Erunda keng tarqalgan.**

6290. Ko'ktol qaysi oilaga mansub daraxt yoki buta? **Toldoshlar (tolgullilar) oilasiga mansub daraxt yoki buta.**

6291. Ko'ktol daraxtining guli necha jinsli? **Bir jinsli.**

6292. Ko'ktol daraxtining novdalari va kurtagi rangi qanday? **To'q qo'ng'ir.**

6293. Ko'ktol daraxtining novdalari va kurtagi nimasiz? **Tuksiz.**

6294. Ko'ktol daraxtining bargi qanday (enli va ensizmi)? **Ensiz.**

6295. Ko'ktol daraxtining bargi shakli qanday? **Nashtarsimon.**

6296. Ko'ktol daraxtining bargi nimali? **Tukli.**

6297. Ko'ktol daraxtining yon barglari qandaysimon? **Ipsimon.**

6298. Ko'ktol daraxtining guli nimasiz? **Gulqo'rg'onsiz.**

6299. Ko'ktol daraxtining to'pguli nima? **Kuchala.**

6300. Ko'ktol daraxti bargi chiqishi bilan bir vaqtda nima qiladi? **Gullaydi.**

6301. Ko'ktol daraxtining urug'i qanday? **Mayda.**

6302. Ko'ktol daraxtining urug'i qanday tuklar bilan qoplangan? **Uzun tuklar bilan qoplangan.**

6303. Ko'ktol daraxti qaysi oylarda gullab, urug' tugadi? **Aprel-may oylarida gullab, urug' tugadi.**

6304. Ko'ktol daraxti qayerlarda o'sadi? **Tog'lardagi soylik va jilg'alar yoqalarida o'sadi.**

6305. Ko'ktol daraxti qaysi viloyatlarda ko'p tarqalgan? **Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ko'p tarqalgan.**

6306. Ko'ktinna o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

6307. Ko'ktinna navli qovunning uzunligi necha sm? **32 – 40 sm.**

6308. Ko'ktinna navli qovunning og'irligi qancha kg ga boradi? **2,5 – 5 kg ga boradi.**

6309. Ko'ktinna navli qovunning tarkibida necha foiz qand, saxaroza, quruq modda bor? **8 – 11,1 foiz qand, 4,2 – 6,9 foiz saxaroza, 10,5 – 12,5 foiz quruq modda bor.**

6310. Ko'ktinna navli qovun urug'idan unib chiqqanidan keyin hosili necha kunda pishadi? **80 – 85 kunda pishadi.**

6311. Ko'ktinna navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **220 – 260 s/ga.**

6312. Ko'ktinna navli qovun shakli qanday? **Tuxumsimon.**

6313. Ko'ktinna navli qovun sirtida qanday to'rlar bor? **Tekis, yirik to'rlar bor.**

6314. Ko'ktinna navli qovun rangi qanday? **Och yashil.**

6315. Ko'ktinna navli qovun po'sti qanday? **Qattiq.**

6316. Ko'ktinna navli qovun eti rangi qanday? **Oq.**

6317. Ko'ktinna navli qovunning eti qalinligi necha sm? **4 – 5 sm.**

6318. Ko'ktinna navli qovun O'zbekistonning qaysi viloyatlarida ekiladi? **Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Andijon va Farg'ona viloyatlarida ekiladi.**

6319. Ko'ktinna navli qovunning qaysi viloyatda kuz va qishga saqlash uchun yaroqli bo'lgan, mevasi yirik, kechpishar xili ham uchraydi? **Farg'ona viloyatida uchraydi.**

6320. Ko'kcha navli qovun shakli qanday? **Tuxumsimon.**

6321. Ko'kcha navli qovunning dumi va uch tomonlari qanday? **Ingichkaroq.**

6322. Ko'kcha navli qovunning sirti qanday? **Tekis.**

6323. Ko'kcha navli qovunning sirti yoppasiga nima bilan qoplangan? **To'r bilan qoplangan.**

6324. Ko'kcha navli qovunning sirtidagi to'rlar qanday (kattami yoki maydami)? **Mayda, gulsiz.**

6325. Ko'kcha navli qovunning rangi qanday? **Yashil, to'ri qalin bo'lganidan kulrangga o'xshaydi.**

6326. Ko'kcha navli qovunning po'sti qanday? **Qattiq.**

6327. Ko'kcha navli qovunning uzunligi necha sm? **33 – 40 sm.**

6328. Ko'kcha navli qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 6 kg.**

6329. Ko'kcha navli qovun etining qalinligi necha sm? **4 – 4,5 sm.**

6330. Ko'kcha navli qovunning eti rangi qanday? **Oq.**

6331. Ko'kcha navli qovun etining po'stiga yaqin joyi rangi qanday? **Yashil.**

6332. Ko'kcha navli qovun qanday? **Sershira, shirin.**

6333. Ko'kcha navli qovun tarkibida qand necha foiz? **7,5 – 14,8 foiz.**

6334. Ko'kcha navli qovun tarkibida necha foiz saxaroza, quruq modda bor? **5 – 10 foiz saxaroza, 5 – 15 foiz quruq modda bor.**

6335. Ko'kcha navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **250 – 320 s/ga.**

6336. Ko'kcha navli qovun qaysi vodiyda ko'p ekiladi? **Farg'ona vodiysida ko'p ekiladi.**

6337. Ko'kcha navli qovun qaysi viloyatlar uchun rayonlashtirilgan? **Andijon, Farg'ona, Toshkent va Buxoro viloyatlari uchun rayonlashtirilgan.**

6338. Ko'li xushtarin o'rtapishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

6339. Ko'li xushtarin navli qovunning uzunligi necha sm? **27 – 30 sm.**

6340. Ko'li xushtarin navli qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 6 kg.**

6341. Ko'li xushtarin navli qovun sirti sal nima? **Bo'g'im-bo'g'im.**

6342. Ko'li xushtarin navli qovunning qaysi tomonida to'ri bor? **Dumi va uchi tomonida to'ri bor.**

6343. Ko'li xushtarin navli qovunning rangi qanday? **Och yashil.**

6344. Ko'li xushtarin navli qovun sirtidagi gullari qanday? **Qo'shaloq.**

6345. Ko'li xushtarin navli qovun sirtida qanday rangli yo'llar bor? **Qoramtir-yashil yo'llari bor.**

6346. Ko'li xushtarin navli qovun po'sti qanday? **Qattiq.**

6347. Ko'li xushtarin navli qovunning eti rangi qanday? **Yashil yoki oq.**

6348. Ko'li xushtarin navli qovunning eti qalinligi necha sm? **4 – 5 sm.**

6349. Ko'li xushtarin navli qovun urug'idan unib chiqqanidan keyin necha kunda hosili pishadi? **88 – 95 kunda hosili pishadi.**

6350. Ko'li xushtarin navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **220 – 250 s/ga.**

6351. Ko'li xushtarin navli qovun qaysi viloyatda ekiladi? **Buxoro viloyatida ekiladi.**

6352. Ko'pgina bug'doy turlari, masalan: ararat, maxa, timofeev bug'doyi, urartu, fors bug'doyi va boshq. larning vatani qayer? **Zakavkazye.**

6353. Ko'pchilik xalqlarda qaysi daraxt (o'simlik) abadiy hayot, o'limni yengish timsoli hisoblanadi? **Archa.**

6354. Ko'pchilik suvo'tlarda (yuksak suvo'tlardan tashqari) qanday tanachalar mavjud? **Parsnoidlar va pirsnoidsimon tanachalar mavjud.**

6355. Ko'pchilik suvo'tlar necha hujayrali? **Bir hujayrali.**

6356. Ko'pchilik moyli ekinlarning qayerida moy to'planadi? **Urug'i va mevasida moy to'planadi.**

6357. Ko'p yil yashaydigan ekma (mag'zi yeyiladigan chin kashtan (C. sativa) qayerlarda o'sadi? **Qora dengiz bo'ylari va Zakavkazyeda, tog'larning quyi va o'rta mintaqalarida o'sadi.**

6358. Ko'p yillik texnika ekinlariga qaysi o'simliklar kiradi? **Atirgul, zaytun, qulmoq va boshqalar kiradi.**

6359. Ko'p yillik echkisoqolning bo'yi necha sm? **30 – 60 sm.**

6360. Ko'p smolali o'simliklardan qimmatbaho qaysi smolalar olinadi? **Sandark, kopal, mastiks va boshqa smolalar olinadi.**

6361. Ko'pincha yuksak o'simliklarda o'tkazuv to'qimada nima rivojlangan? **Ksilema va floema rivojlangan.**

6362. Ko'rinishidan sigirga o'xshaydigan daraxtning nomi nima? **Sorveyra o'simligi.**

6363. Ko'rinishidan sigirga o'xshaydigan sorveyra daraxti qayerda o'sadi? **Kosta-Rika Respublikasida o'sadi.**

6364. Ko'rinishidan kompasga o'xshaydigan daraxtning nomi nima? **Alipta.**

6365. Ko'rinishidan kompasga o'xshaydigan daraxt doim qaysi tomonga qarab qiyshayib turadi? **Doim janubga qarab qiyshayib turadi.**

6366. Ko'rsodiq mahalliy mevali o'simlik nima navi? **O'rik navi.**

6367. Ko'rsodiq navli o'rik ko'chati o'tkazilgach, nechanchi yili hosil beradi? **7 – 8-yili hosil beradi.**

6368. Ko'rsodiq navli o'rik qaysi oylarda gullaydi? **Mart-aprel oylarida gullaydi.**

6369. Ko'rsodiq navli o'rik mevasi qaysi oylarda pishadi? **Iyun-iyul oylarida pishadi.**

6370. Ko'rsodiq navli o'rik tarkibida necha foiz qand bor? **14 – 16 foiz qand bor.**

6371. Ko'rsodiq navli o'rik mevasi tarkibida necha foiz organik kislota bor? **0,6 – 1,09 foiz organik kislota bor.**

6372. Ko'rsodiq navli o'rik mevasi tarkibida qancha mg foiz C vitamin bor? **23,8 mg foiz.**

6373. Ko'rsodiq navli o'rikdan necha foiz turshak tushadi? **32 – 33 foiz turshak tushadi.**

6374. Ko'rsodiq navli o'rikning to'liq hosilga kirgan daraxti qancha kg gacha hosil beradi? **300 kg gacha hosil beradi.**

6375. Ko'rsodiq navli o'rik daraxti 30 – 40 yoshida tukidan qancha kg hosil olinadi? **200 – 300 kg hosil olinadi.**

6376. Labguldoshlar, labgullilar, mavrakdoshlar, mavrakgullilar necha pallali o'simliklar oilasi? **Qaysi daraxtlardan iborat? Ikki pallali o'simliklar oilasi. O't, chala buta, ba'zan limonlar va uncha katta bo'lmagan daraxtlardan iborat.**

6377. Labguldoshlarning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

6378. Labguldoshlarning gullari necha bo'lakli va necha tishli? **5 bo'lakli va 5 tishli.**

6379. Labguldoshlarning changchisi nechta, ba'zan nechta? **Changchisi 4 ta, ba'zan 2 ta.**

6380. Labguldoshlarning urug'chisi necha meva bargli? **2 meva bargli.**

6381. Labguldoshlarning nechta turkumi va turi bor? **200 ta turkumi va 3500 ta turi bor.**

6382. Labguldoshlarning nechta turkumi va turi O'zbekistonda bor? **40 ta turkumi va 210 ta turi bor.**

6383. Labguldoshlarning ko'pchiligi qaysi moylarga boy bo'lib, qayerlarda ishlatiladi? **Efir moylariga boy bo'lib, parfyumeriya sanoatida (lavanda, rozmarin), tibbiyotda (arslonquyruq, yalpiz, rayhon, lagoxilus, movrak), ba'zan ziravor sifatida ovqatga (jambil, rayhon) ishlatiladi.**

6384. Labguldoshlarning qaysi turlari texnika moyi olish uchun o'stiriladi? **Perulla, lyalleshantsiya kabi turlari texnika moyi olish uchun o'stiriladi.**

6385. Labguldoshlarning yana qanday turlari ham ko'p? **Asalli turlari ham ko'p.**

6386. Lavanda qaysi oilaga mansub buta yoki doimiy yashil chala butalar turkumi? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansub.**

6387. Lavanda butasining nechtacha turi bor? **30 tacha turi bor.**

6388. Lavanda butasining qaysi turi, asosan, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Vengriya, Moldaviya, Qrim, Rossiyaning Krasnodar o'lkasida yetishtiriladi? **Ensiz bargli lavanda (L. angustifolia) turi yetishtiriladi.**

6389. Lavanda butasining bo'yi necha sm? **40 – 75 sm.**

6390. Lavanda butasining yangi to'pgulida necha foiz efir moyi mavjud? **1,2 – 2,3 foiz efir moyi mavjud.**

6391. Lavanda butasi qaysi sanoatda ishlatiladi? **Parfyumeriya sanoatida ishlatiladi.**

6392. Lavanda butasi qanday ekin? **Efir moyli ekin.**

6393. Lavanda butasining O'rta dengiz sohillarida qancha turi uchraydi? **25 dan ortiq turi uchraydi.**

6394. Lavanda butasi qayerlarda qo'llaniladi? **Oziq-ovqat sanoati, tibbiyotda qo'llaniladi.**

6395. Lavanda butasi qanday o'simlik? **Yorug'sevar, qurg'oqchilikka chidamli, issiqsevar o'simlik.**

6396. Lavanda butasi minus necha ° C haroratga chidaydi? **Minus 30° C haroratga chidaydi.**

6397. Lavanda butasi nimasidan ko'paytiriladi? **Qalamchasidan ko'paytiriladi.**

6398. Lavanda butasi sershox, bir tupida nechta poya hosil qiladi? **400 – 800 ta poya hosil qiladi.**

6399. Lavanda butasining ildizi tuproqqa necha m chuqur kirib boradi? **2 m chuqur kirib boradi.**

6400. Lavanda butasining ildizi nechta uzun ninasimon ildizchalardan iborat? **40 – 50 ta uzun ninasimon ildizchalardan iborat.**

6401. Lavanda butasining mevasi qanday? **Qo'shaloq.**

6402. Lavanda butasining mevasi nechta yong'oqchadan iborat? **4 ta yong'oqchadan iborat.**

6403. Lavanda butasining ekilgan ko'chatlaridan nechanchi yildan boshlab, necha yilgacha hosil olinadi? **2-yildan boshlab, 20 – 25 yilgacha hosil olinadi.**

6404. Lavandazorlar butasi har necha yilda yoshartiriladi? **6 – 7 yilda yoshartiriladi.**

6405. Lavlagi qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub bir, ikki va ko'p yillik o'simlik.**

6406. Lavlagi o'simligining nechta turi ma'lum? **16 ta turi ma'lum.**

6407. Lavlagi o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

6408. Lavlagi o'sunligi qaysi mamlakatlarda tarqalgan? **O'rta dengiz atroflarida, Osiyo, Zakavkazye, Hindiston, Fransiya, shuningdek, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlarida tarqalgan.**

6409. Lavlagi o'simligining dehqonchilikda qanday turlari ekiladi? **Osh lavlagi, xashaki lavlagi, qand lavlagiga bo'linadigan oddiy lavlagi (B. Vulgaris) turi va qand lavlagining tur xili bo'lgan bargli lavlagi (yoki mangold lavlagi - Betacica - ovqatga bargi yoki barg bandi ishlatiladi) ekiladi.**

6410. Lavlagi o'simligining yovvoyi lavlagi turi qachondan ovqatga ishlatib kelingan? **Qadimdan ovqatga ishlatib kelingan.**

6411. Lavlagi o'simligining qaysi turi mil. avv. nechanchi ming yillikda madaniylashtirilgan? **mil. avv. 2 – 1-ming yillikda bargli lavlagi turi madaniylashtirilgan.**

6412. Lavlagi o'simligining madaniy ildizmevali shakllari qachon ekila boshlagan? **Mil. boshlarida ekila boshlagan.**

6413. Lavlagining xashaki lavlagi turining duragaylaridan qand lavlagi nechanchi asrda yaratilgan? **XVIII asrda yaratilgan.**

6414. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi qachondan barcha qit'alarga tarqalgan? **XIX asr oxiri va XX asrda tarqalgan.**

6415. Lavlagi o'simligining osh lavlagi turi ekilgandan so'ng birinchi yili qancha kg kattalikda ildizmeva va barg to'plami hosil qiladi? **0,4 – 0,9 kg hosil qiladi.**

6416. Lavlagi o'simligining osh lavlagi turi qanday o'simlik? **Namsevar, yoruqsevar o'simlik, sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli.**

6417. Lavlagi o'simligining osh lavlagi turi dehqonchilikning qaysi mintaqalarida ekiladi? **Barcha dehqonchilik mintaqalarida ekiladi.**

6418. Lavlagi o'simligining osh lavlagi turining O'zbekistonda qaysi navlari rayonlashtirilgan? **Bordo-237, Bikoress (2002-yildan), Ros va boshq. navlari rayonlashtirilgan.**

6419. Lavlagi o'simligining osh lavlagi turining hosildorligi qancha s/ga? **300 – 400 s/ga.**

6420. Lavlagi o'simligining xashaki lavlagi turi birinchi yili qancha kg ildizmeva va barg to'plami hosil qiladi? **10 – 12 kg hosil qiladi.**

6421. Lavlagi o'simligining xashaki lavlagi turi qanday ozuqa sifatida qanday mollarga beriladi? **Shirali oziqa sifatida chorva mollariga beriladi.**

6422. Lavlagi o'simligining xashaki lavlagi turining 100 kg ildizmevasida qancha kg hazm bo'luvchi protein bor? **0,9 kg hazm bo'luvchi protein bor.**

6423. Lavlagi o'simligining xashaki lavlagi turining 100 kg bargida qancha kg hazm bo'luvchi protein mavjud? **1,8 kg hazm bo'luvchi protein mavjud.**

6424. Lavlagi o'simligining xashaki lavlagi turi nimaga talabchan, nimaga chidamli? **Namga talabchan, yorug'sevar, sovuqqa chidamli.**

6425. Lavlagi o'simligining xashaki lavlagi turi qayerlarda ko'p ekiladi? **Amerika (AQSh, Kanada, Braziliya), Yangi Zelandiya, Afrika (Jazoir, Tunis), Yevropa, shu jumladan, Belorussiya, Ukraina, Boltiqbo'yi mamlakatlarida ko'p ekiladi.**

6426. Lavlagi o'simligining xashaki lavlagi turining hosildorligi qancha s/ga? **300 – 400 s/ga.**

6427. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi qaysi sanoat xomashyosi? **Qand-shakar sanoati xom ashyosi.**

6428. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi chiqindilari nima sifatida ishlatiladi? **Chorva mollariga yem (melassa va o'g'it) sifatida ishlatiladi.**

6429. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi ekilgan yili tarkibida necha foiz qand bo'lgan qancha ildizmeva beradi? **14 – 20 foiz, ba'zida 24 foizgacha, 300 – 600 g beradi.**

6430. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi urug'i unib chiqishi uchun harorat qancha °C, yaxshi rivojlanishi uchun harorat qancha °C bo'lishi lozim? **10°C – 12° C, 20°C – 22° C bo'lishi lozim.**

6431. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi qaysi davlatlarda qachondan yetishtiriladi? **AQSh, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, O'zbekistonda XX asrning 40-yillaridan yetishtiriladi.**

6432. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi jahon bo'yicha qancha ga da ekiladi? **6,7 mln ga da (1999) ekiladi.**

6433. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi hosildorligi intensiv texnologiyada parvarish qilinganda qancha s/ga? **350 – 400 s/ga.**

6434. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turidan qaysi navlari O'zbekistonda ekiladi? **Astro, Sado, Romeo, Eldena va boshq. navlari ekiladi.**

6435. Lavlagi o'simligining qand lavlagi turi bo'yicha yalpi hosil jahon bo'yicha qancha t? **263 mln t (1999).**

6436. Lavr qaysi oilaga mansub doim qanday daraxt yoki butalar nimasi? **Lavrdoshlar (lavrgullilar) oilasiga mansub doim yashil daraxt yoki butalar turkumi.**

6437. Lavr daraxtining mevasi necha urug'li? **Bir urug'li.**

6438. Lavr daraxtining bo'yi necha m gacha? **2 – 20 m gacha.**

6439. Lavr daraxtining bargi qaysi sanoatda ishlatiladi? **Konservalash va qandolatchilik sanoatida ishlatiladi.**

6440. Lavr daraxtining bargidan yasalgan lavr chambari va lavr shoxlari nima belgisi hisoblanadi? **Shuhrat, g'alaba belgisi hisoblanadi.**

6441. Lavr daraxtining qanday turlari bor? **Asl lavr va konar lavr turlari bor.**

6442. Lavr daraxtining mevasida ba'zi mamlakatlarda qanday maqsadlarda ishlatiladi? **Tibbiyotda, veterinariyada va sovun pishirishda ishlatiladigan yog'-efir moylari olinadi, qurutilgan barglari taomlarni xushta'm qilish uchun ishlatiladi.**

6443. Lavrdoshlar, lavrgullilar necha pallali o'simliklar oilasi? **Ikki pallali o'simliklar oilasi.**

6444. Lavrdoshlarning guli necha jinsli? **Ikki, ba'zan bir jinsli.**

6445. Lavrdoshlar o'z ichiga nimalarni oladi? **Daraxt va butalarni, ba'zan korozit o'tlarni o'z ichiga oladi.**

6446. Lavrdoshlar nechta turkum va qancha turdan iborat? **40 – 50 ta turkum va 2000 dan ortiq turdan iborat.**

6447. Lavrdoshlarning ayrim turlari qanday? **Parazit.**

6448. Lavrdoshlarning bargi qanday? **Oddiy, etli, doim yashil.**

6449. Lavrdoshlarning barglari poyada qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

6450. Lavrdoshlarning guli qanday? **To'g'ri, mayda.**

6451. Lavrdoshlarning mevasi necha urug'li? **Bir urug'li.**

6452. Lavrdoshlarning mevasi qanday? **Rezavorsimon yoki danakli.**

6453. Lavrdoshlarning bargi, po'stlog'i va boshq. qismlarida efir moylari ishlab chiqaradigan qanday a'zolari bor? **Bezchalari bor.**

6454. Lavrdoshlar ko'pchiligining yog'ochi mebel ishlab chiqarish uchun nima hisoblanadi? **Xomashyo hisoblanadi.**

6455. Lavrdoshlarga foydali daraxtlardan qaysilari kiradi? **Dolgin, lavr, kamfora daraxtlari va boshqalar kiradi.**

6456. Lavrdoshlarning ko'p turlaridan qaysi moddalar olinadi? **Ziravorlar, komfora, efir moylari, dorivor moddalar olinadi.**

6457. Lagoxilus qaysi oilaga mansub qanday ko'p yillik o'simliklar nimasi? **Labguldoshlar (labgullilar) oilasiga mansub tikanli ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

6458. Lagoxilus o'simligining nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **13 ta turi uchraydi.**

6459. Lagoxilus o'simligi O'rta Osiyoning qaysi Respublikalari qayerlarida ko'p o'sadi? **O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarining chala va shag'alli tog' yon bag'irlarida ko'p o'sadi.**

6460. Lagoxilus o'simligining yer ustki qismi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **1,98 foizcha lagoxilin spirti, 0,67 foizcha flavonoin glikozidi, 0,21 foizcha efir moyi, 77 foizcha C vitamini, 8 mg foizcha karotin va boshqalar bor.**

6461. Lagoxilus o'simligining tabobatda nimasi ishlatiladi? **Damlamasi va nastoykasi ishlatiladi.**

6462. Laylaktumshuq, qoramashoq qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Yoronguldoshlar (yorongullilar) oilasiga mansub bir yillik o't.**

6463. Laylaktumshuq o'ti qayerlarda o'sadi? **Rossiyaning Yevropa qismi, O'rta Osiyo, G'arbiy Sibir dengizlari, yaylovlari, tog'yon bag'irlarida va ekinlar orasida o'sadi.**

6464. Laylaktumshuq o'tining bargi shakli qanday? **Cho'ziq.**

6465. Laylaktumshuq o'tining guli rangi qanday? **Qizg'ish pushti.**

6466. Laylaktumshuq o'ti qachondan qachongacha gullaydi? **Bahordan kech kuzgacha gullaydi.**

6467. Laylaktumshuq o'tining mevasi qaysi qushning qaysi a'zosiga o'xshash? **Laylak tumshug'iga o'xshash uzun (nomi shundan olingan).**

6468. Laylaktumshuq o'ti tarkibida qanday moddalar bor? **Oshlovchi moddalar bor.**

6469. Laylaktumshuq o'ti tabobatda nima maqsadda ishlatiladi? **Tabobatda ichki a'zolardan qon ketishini to'xtatish uchun ishlatiladi.**

6470. Laym, lyaym qaysi oilaga mansub doim yashil buta yoki pakana daraxt? **Rutadoshlar (rutagullilar) oilasiga mansub doim yashil buta yoki pakana daraxt.**

6471. Laym daraxtining mevasi qanday po'stli? **Yupqa po'stli.**

6472. Laym daraxtining mevasi mazasi qanday? **Achchiqroq, eti nordon.**

6473. Laym daraxtining vatani qayer? **Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyo.**

6474. Laym daraxti qaysi rayonlarda qaysi o'simlik o'rnida ekiladi? **Tropik va ba'zi subtropik rayonlarda limon o'rnida ekiladi.**

6475. Laym daraxtining mevasidan qanday moddalar tayyorlanadi? **Laym suvi, limon kislota va efir moyi tayyorlanadi.**

6476. Lallemantsiya, lyallemantsiya qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simliklar nimasi? **Labguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simliklar turkumi.**

6477. Lallemantsiya o'simligi qanday ekin? **Moyli ekin.**

6478. Lallemantsiya o'simligining Osiyoda nechta turi ma'lum? **6 ta turi ma'lum.**

6479. Lallemantsiya o'simligining Hindiston va Pokistonda nechta turi bor? **5 ta turi bor.**

6480. Lallemantsiya o'simligining dehqonchilikda qaysi turi, asosan, Eron, Qrim, Shimoliy Kavkaz, Armanistonda ekiladi? **Iberiy (L. iberiia) turi ekiladi.**

6481. Lallemantsiya o'simligining bo'yi necha sm? **20 – 90 sm.**

6482. Lallemantsiya o'simligining barglari qanday joylashgan? **Qarama-qarshi joylashgan.**

6483. Lallemantsiya o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

6484. Lallemantsiya o'simligi urug'ining 1000 donasi og'irligi qancha g? **4 – 6 g.**

6485. Lallemantsiya o'simligining tarkibida necha foiz tez quriydigan, asosan, qayerlarda ishlatiladigan moy bor? **35 – 38 foiz, asosan, lok-bo'yoq sanoatida va oziq-ovqatda ishlatiladigan moy bor.**

6486. Lallemantsiya o'simligining nimasi mollarga beriladi? **Kunjarasi beriladi.**

6487. Lallemantsiya o'simligining o'suv davri necha kun? **70 – 90 kun.**

6488. Lallemantsiya o'simligining hosildorligi urug'i bo'yicha qancha s/ga? **8 – 10 s/ga.**

6489. Lalmi yerlarda har gektarga qancha kg, tog'li mintaqalarda qancha kg urug' sarflanadi? **20 – 22 kg (moyli zig'ir 50 – 60 kg/ga), tog'li mintaqalarda 25 – 30 kg (yoki 4 – 6 mln dona urug') sarflanadi.**

6490. Laminariyasimon suvo'tlarning tanasi oddiy yoki shoxlangan, asosan bir yoki bir nechta nimadan iborat? **Plastinkadan iborat.**

6491. Laminariyasimon suvo'tlarning o'tkazuvchi to'qimalari – elaksimon naychalar qanday mahsulotlarni tashiydi? **Fotosintez mahsulotlarini tashiydi.**

6492. Laminariyasimon suvo'tlar qanday o'sadi? **Interkalyar o'sadi.**

6493. Laminariyasimon suvo'tlarning o'sish zonasi qayerdan boshlab qaysi qismgacha joylashgan? **Plastinkaning asosidan boshlab poyaning uchki qismigacha joylashgan.**

6494. Laminariyasimon suvo'tlar yiliga necha marta zoosporalar hosil qiladi? **Bir marta hosil beradi.**

6495. Laminariyasimon suvo'tlar, asosan, qanday iqlimli va qanday suvli dengizlarda o'sadi? **Mo'tadil iqlimli va sovuq suvli dengizlarda o'sadi.**

6496. Laminariyasimon suvo'tlar qaysi dengizlarda tarqalgan? **Uzoq Sharq va shimoldagi hamma dengizlarda tarqalgan.**

6497. Laminariyasimonlar qanday suvo'tlar tarkibi? **Qo'ng'ir suvo'tlari tarkibi.**

6498. Laminariyasimon suvo'tlarining uzunligi necha m gacha? **1 – 15 m, ba'zan 60 m gacha.**

6499. Laminariyasimon suvo'tlarining tarkibida qanday moddalar bor? **B_2, B_{12}, C vitaminlari, karotin, alginet kislota va boshqalar bor.**

6500. Laminariyasimon suvo'tlarining nechta turkumi va turi bor? **30 ta turkumi va 1000 ta turi bor.**

6501. Laminariyasimon suvo'tlardan tayyorlangan preparatlar qanday dori sifatida hamda qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Surgi dori sifatida hamda buqoq, arternoskleroz kasalliklarini davolashda ishlatiladi.**

6502. Landolfiya qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Kendirdoshlar (kendirgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

6503. Landolfiyani qancha turi Afrikaning tropik qismida bor? **30 dan ortiq turi bor.**

6504. Landolfiya o'simligining ko'pchiligi qanday o'sadi? **Daraxtlarga chirmashib o'sadi.**

6505. Landolfiya o'simligining ba'zi turlaridan nima olinadi? **Kauchuk smolasi olinadi.**

6506. Landolfiya o'simligining barglari shakli qanday? **Tuxumsimon.**

6507. Landolfiya o'simligining gullari rangi, hidi qanday? **Oqish, xushbo'y.**

6508. Landolfiya o'simligining mevasi qanday, nima qilinadi? **Sersuv, iste'mol qilinadi.**

6509. Lataniya o'simligining bargi qandaysimon? **Elpig'ichsimon.**

6510. Lataniya o'simligi qanday o'simlik sifatida o'stiriladi? **Manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.**

6511. Lataniya qaysi oilaga mansub doim qanday o'simliklar turkumi? **Palmadoshlar (palmagullilar) oilasiga mansub doim yashil o'simliklar turkumi.**

6512. Lataniya o'simligining nechta turi qaysi orollarda bor? **3 turi Maskaren orollarida bor.**

6513. Lataniya o'simligining poyasi uzunligi necha m? **10 – 12 m.**

6514. Latuk qaysi oilaga mansub necha yillik o'tlar turkumi? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir, ikki, ba'zan ko'p yillik o'tlar turkumi.**

6515. Latuk o'tining guli rangi qanday? **Sariq yoki binafsha.**

6516. Latuk o'tining mevasi qanday? **Popukli pistacha.**

6517. Latuk o'tining qancha turi bor? **100 dan ortiq turi bor.**

6518. Latuk o'tining Rossiyada nechta turi o'sadi? **20 ta turi.**

6519. Latuk o'simligi qaysi tomondan qaysi tomonga o'giriladi? **Shimoldan janubga tomon o'giriladi.**

6520. Lateks o'simliklarning nimasi? **Sut – shirasi.**

6521. Lateks o'simligining sut naylaridagi nima? **Suyuqlik.**

6522. Lateks o'simligida uglevodlar, oqsillar, glikozidlar, tuzlar, efir moylari va shunga o'xshashlar qanday holda bo'ladi? **Erigan va suspenziyalangan holda bo'ladi.**

6523. Lateks o'simligining tarkibi nimalarga bog'liq? **Daraxt yoshi, iqlim sharoiti va yil fasliga bog'liq.**

6524. Lateks o'simligida kauchuk qanday shaklda bo'ladi? **Manfiy zaryadlangan sharsimon, ba'zan noksimon donalar (globulalar) shaklida bo'ladi. Ularning kattaligi 0,1 – 0,6 mk.**

6525. Latekshi daraxtlar qanday ahamiyatga ega bo'lib, ulardan oson yo'l bilan ko'p miqdorda kauchuk olinadi? **Sanoat ahamiyatiga ega bo'lib, ulardan oson yo'l bilan ko'p miqdorda kauchuk olinadi.**

6526. Lattatikan qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub ikki yillik o'simlik.**

6527. Lattatikan o'simligining poyasi qanday? **Tik.**

6528. Lattatikan o'simligining bo'yi necha sm? **60 – 150 sm.**

6529. Lattatikan o'simligining barglari shakli qanday? **Patsimon.**

6530. Lattatikan o'simligining guli rangi qanday? **Och binafsha.**

6531. Lattatikan o'simligining urug'i shakli qanday? **Tuxumsimon.**

6532. Lattatikan o'simligining urug'i uzunligi necha mm? **3,5 – 4 mm.**

6533. Lattatikan o'simligi qaysi oylarda gullaydi? **Iyul – avgust oylarida gullaydi.**

6534. Lattatikan o'simligi qaysi oylarda meva beradi? **Avgust – sentabr oylarida meva beradi.**

6535. Lattatikan o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatlaridagi voxalarda, ko'proq qayerlarda o'sadi? **Hamma viloyatlardagi vohalarda, ko'proq ariq yoqalarida o'sadi.**

6536. Lattaxor qaysi oilaga mansub o'simliklar turkumi? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub o'simliklar turkumi.**

6537. Lattaxor o'simligi, asosan, necha yillik? **Ko'p yillik.**

6538. Lattaxor o'simligi nimali? **Tikanli.**

6539. Lattaxor o'simligining guli shakli qanday? **Naysimon.**

8590. Osiyo g'ozpanjasi yoki beshbarg o'simligining bargları qanday tishli? **Arra tishli.**

8591. Osiyo g'ozpanjasi o'simligi necha bargchali? **5 – 7 bargchali.**

8592. Osiyoning tropiklarida o'sadigan A. toxicaria degan yirik daraxt zaqqumning bir turi bo'lib, zaharli sut shirasi tarkibida qanday moddalar bor? **Antiarin va antiozidin glikozidi bor.**

8593. Osiyoning sharqi-janubida Qizil daraxtning qaysi turi o'sadi? **Gunafsha qizil sappon turi o'sadi.**

8594. Osmunda, chistoust qaysi o'simliklar turkumi? **Osmundadoshlarga mansub teng sporali o'simliklar turkumi.**

8595. Osmunda o'simligining nechta turi ma'lum? **9 ta turi ma'lum.**

8596. Otquloq qaysi oilaga mansub bir va ko'p yillik o'simliklar turkumi? **Torondoshlar (torongullilar) oilasiga mansub bir va ko'p yillik o'simliklar turkumi.**

8597. Otquloq o'simligining O'zbekistonda nechta turi uchraydi? **16 ta turi uchraydi.**

8598. Otquloq o'simligining ildiz va mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **4,2 foizcha antraglikozidlar, K vitamin, flavonoidlar, 17,3 foizcha oshlovchi moddalar bor.**

8599. Otquloq o'simligining ildizi qayerda qo'llaniladi? **Teri oshlashda qo'llaniladi.**

8600. Otquloq o'simligining qaysi turlari nima uchun ovqatga ishlatiladi? **Nordon otquloq yoki shovul va oddiy otquloq, chunki C, B va boshqa vitaminlarga boy bo'lganligidan ovqatga ishlatiladi.**

8601. Oshiqo't qaysi oilaga mansub bir yillik o't? **Sutlamadoshlar (sutlamagullilar) oilasiga mansub.**

8602. Oshiqo't o'simligidan qanday modda olinadi? **Bo'yoq modda olinadi.**

8603. Otquloq o'simligining qaysi a'zolarini yaxshilab ezib yangiligicha ari chaqqan joyga surtganda og'riqni qoldiradi, shishning oldini oladi? **Barglarini yaxshilab ezib yangiligicha ari chaqqan joyga surtganda og'riqni qoldiradi, shishning oldini oladi.**

8604. Oshiqo't o'simligining O'zbekistonda qaysi turlari uchraydi? **Olmagul oshiqo't (Ch. hierocolymitana Spreng), qiyshiq oshiqo't (Ch. obliqua (vahc) A. juss.) turlari uchraydi.**

8605. Oshiqo't o'simligi necha uyli? **Bir uyli.**

8606. Oshiqo't qanday jinsli o'simlik? **Ayrim jinsli.**

8607. Oshiqo't o'simligining bargi uzunligi necha sm? **2,5 – 6 sm.**

8608. Oshiqo't o'simligining bargi eni necha sm? **1,8 – 5 sm.**

8609. Oshiqo't o'simligining tojbarglari qancha? **Ko'p.**

8610. Oshiqo't o'simligining changchi gullari nechta? **5 – 8 ta.**

8611. Oshiqo't o'simligining gulkosa va gultojibarglari necha bo'lakli? **5 bo'lakli.**

8612. Oshiqo't o'simligining urug'chi gullari nechta? **2 – 6 ta.**

8613. Oshiqo't o'simligi qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **May – sentabr oylarida gullab, urug'laydi.**

8614. Oshiqo't o'simligining ko'sakchasi nimalar bilan qoplangan? **Tuklar bilan qoplangan.**

8615. Oshlovchi texnika ekinlariga qaysilar kiradi? **Skumniya, banan, emaning ba'zi turlari va boshqalar kiradi.**

8616. Oq akatsiya yoki soxta akatsiya (Robinia pseudoacacia) qaysi oilaga mansub daraxt? **Kapalakguldoshlar kenja oilasiga mansub daraxt.**

8617. Oq akatsiya daraxtining bargi uzunligi necha sm? **10 – 25 sm.**

8618. Oq akatsiya daraxtining har bir bargi necha juftgacha yaproqchali? **5 – 12 juftgacha yaproqchali.**

8619. Oq akatsiya daraxtining gullari qanday? Oq, hidli, shirali, to'pguli shingilsimon.

8620. Oq akatsiya daraxti qachon gullaydi? **Aprelning oxiri – mayning boshida gullaydi.**

8621. Oq akatsiya daraxti qaysi oyda meva tugadi? **Oktabr oyida meva tugadi.**

8622. Oq akatsiya daraxtining bo'yi necha m? **20 – 30 m.**

8623. Oq akatsiya daraxtining yog'ochi qanday? **Yog'ochi pishiq.**

8624. Oq akatsiya daraxti qayerda ishlatiladi? **Duradgorlikda ishlatiladi.**

8625. Oqbosh tikanli begona o't qaysi oilaga mansub necha yillik begona o't? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik begona o't.**

8626. Oqbosh tikanli begona o'tning bo'yi necha sm? **50 – 120 sm.**

8627. Oqbosh tikanli begona o't qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

8628. Oqbosh tikanli begona o'tning poyasi qanday? **Yo'g'on, sershox.**

8629. Oqbosh tikanli begona o'tning qaysi qismidan shoxlangan? **Yuqori qismidan.**

8630. Oqbosh tikanli begona o't barglari usti, orqasi qanday? **Usti tuksiz, orqasi sertuk.**

8631. Oqbosh tikanli begona o'tning barglari qanday? **Butun, uzunchoq, handsiz, bir oz etli.**

8632. Oqbosh tikanli begona o'tning bargları savatchasi shakli qanday? **Silindrsimon.**

8633. Oqbosh tikanli begona o'tning barglari uzunligi necha mm? **10 – 15 mm.**

8634. Oqbosh tikanli begona o'tning barglari eni necha mm? **4 – 8 mm.**

8635. Oqbosh tikanli begona o'tning gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

8636. Oqbosh tikanli begona o'tning gullari shakli qanday? **Naysimon.**

8637. Oqbosh tikanli begona o'tning gullari rangi qanday? **Pushti-gunafsharang.**

8638. Oqbosh tikanli begona o'tning changchiqlari qanday? **Tutashmagan.**

8639. Oqbosh tikanli begona o'tning to'pguli qanday? **Savatcha.**

8640. Oqbosh tikanli begona o't changdonining pastki qismida patsimon nimasi bor? **O'simtasi bor.**

8641. Oqbosh tikanli begona o'tning urug'i shakli qanday? **Urug'i teskari tuxumsimon.**

8642. Oqbosh tikanli begona o'tning urug'i uzunligi necha mm? **6 mm.**

8643. Oqbosh tikanli begona o'tning urug'i eni necha mm? **3 mm.**

8644. Oqbosh tikanli begona o't qaysi oylarda gullaydi? **Iyun – iyul oylarida gullaydi.**

8645. Oqbosh tikanli begona o't qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **Iyun – sentabr oylarida gullab, urug'laydi.**

8646. Oqbosh tikanli begona o't nihollari qaysi oylarda unib chiqadi? **Aprel – may oylarida unib chiqadi.**

8647. Oqbosh tikanli begona o't nimalaridan ko'payadi? **Bachkisi va urug'idan ko'payadi.**

8648. Oqbosh tikanli begona o't qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

8649. Oqbosh tikanli begona o't qayerlarda uchraydi? **Dalalarda, gulzor va bedapoyalarda uchraydi.**

8650. Oqbosh tikanli begona o't O'zbekistonning qaysi viloyatlarida, asosan, qayerlarda o'sadi? **Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida, asosan, adirlarda, tog' etaklarida va ekinlar orasida o'sadi.**

8651. Oq boyalish o'simligi O'zbekistonning qaysi viloyatlarida tarqalgan? **O'zbekistonning ko'pchilik viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida keng tarqalgan.**

8652. Oq boyalish o'simligi ko'proq qayerlarda o'sadi? **Ko'proq sho'r va qumli yerlarda o'sadi.**

8653. Oq boyalish o'simligidan qanday maqsadlarda foydalaniladi? **Oq boyalishdan yoqilg'i sifatida va qum ko'chishining oldini olish hamda chorva mollariga, ayniqsa, qo'ylarga yaxshi oziqa sifatida foydalaniladi.**

8654. Oq boyalish o'simligi qaysi oilaga mansub buta? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub buta.**

8655. Oq boyalish o'simligining bo'yi necha m? **1,5 m cha.**

8656. Oq boyalish o'simligining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

8657. Oq brioniya o'simligining (B. alba) turi qayerlarda o'sadi? **Kavkaz va O'rta Osiyoda o'sadi.**

8658. Oq brioniya o'simligining tarkibida qaysi moddalar bor? **Brionin degan zaharli glikozid va boshqa moddalar bor.**

8659. Oq brioniya o'simligi xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda ishlatiladi? **Og'riq qoldiruvchi, qon to'xtatuvchi, surgi dori sifatida, yo'tal va yaralarni davolashda ishlatiladi.**

8660. Oq vassarg'a navli uzum qaysi viloyatlarda ko'p ekiladi? **Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida ko'p ekiladi.**

8661. Oq vassarg'a navli uzum boshlarining o'rtacha bo'yi necha sm? **13 – 20 sm.**

8662. Oq vassarg'a navli uzum boshlarining o'rtacha eni necha sm? **6 – 10 sm.**

8663. Oq vassarg'a navli uzum boshlari shakli qanday? **Silindr – konussimon.**

8664. Oq vassarg'a navli uzum boshining og'irligi qancha g? **250 g.**

8665. Oq vassarg'a navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **100 – 120 s/ga.**

8666. Oq doroyi navli uzum boshining o'rtacha og'irligi qancha? **200 – 250 g.**

8667. Oq doroyi navli uzum boshining shakli qanday? **Keng konussimon.**

8668. Oq doroyi navli uzum shingilları qanday? **Zich.**

8669. Oq doroyi navli uzum g'ujumi qanday? **O'rtacha.**

8670. Oq doroyi navli uzum po'sti qanday? **Qalin.**

8671. Oq doroyi navli uzum g'ujumi qanday shaklda? **Tuxumsimon shaklda.**

8672. Oq doroyi navli uzum g'ujumining rangi qanday? **Oq-ko'kish.**

8673. Oq doroyi navli uzum qachon pishadi? **Iyul oyining oxiri, avgust oyining boshlarida pishadi.**

8674. Oq obaki navli uzum kurtaklari bo'rta boshlagandan keyin necha kunda (Toshkent atrofida) pishib yetiladi? **173 kunda pishib yetiladi.**

8675. Oq obaki navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **150 – 180 s/ga.**

8676. Oq obaki navli uzum sovuqqa qanday? **Ancha chidamli.**

8677. Oq obaki navli uzumdan qanday ichimlik tayyorlanadi? **Vino tayyorlanadi.**

8678. Oq obaki navli uzum qaysi viloyatlarda ko'p ekiladi? **Toshkent, Sirdaryo, Namangan viloyatlarida ko'p ekiladi.**

8679. Oqjusan qaysi oilaga mansub qanday buta? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub yarim buta.**

8680. Oqjusan butasining bo'yi necha sm? **10 – 40 sm.**

8681. Oqjusan butasining gullari necha jinsli? **Ikki jinsli.**

8682. Oqjusan butasining gullari rangi qanday? **Sariq.**

8683. Oq jo'xori, qo'qon jo'xori o'simligi qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

8684. Oq jo'xori qanday o'simlik? **Issiqsevar o'simlik.**

8685. Oq jo'xori o'simligining gektaridan qancha s ko'k poya, qancha s don olish mumkin? **Gektaridan 500 – 600 s ko'k poya, 40 – 50 s don olish mumkin.**

8686. Oq jo'xori o'simligining vatani qayer? **Afrika.**

8687. Oq jo'xori o'simligi qayerlarda tarqalgan? **Hindiston, Xitoy va O'rta Osiyoda ham tarqalgan.**

8688. Oq jo'xori o'simligining qaysi navlari O'zbekistonda ekiladi? **O'zbekistonda oq jo'xorining Katta bosh, Xo'raki, CHillaki, Xitoy qahrabosi – 813, Oranjevoe – 160 va boshqa navlari ekiladi.**

8689. Oqkarrak qaysi oilaga mansub necha yillik o'simliklar turkumi? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub ikki va ko'p yillik.**

8690. Oqkarrak begona o'tining nechta turi bor? **50 ta turi bor.**

8691. Oqkarrak begona o'tining urug'i va bargi tarkibida qanday moddalar bor? **35 foizcha moy, bargida 0,05 foizcha alkaloid va boshqa birikmalar bor.**

8692. Oqkarrak begona o'ti xalq tabobatida qanday maqsadda qo'llaniladi? **Qaynatmasi yiringli yaralarni, bachadon raki va yomon (xavfli) shishlarni davolashda hamda qon oqishini to'xtatuvchi sifatida qo'llaniladi.**

8693. Oqkarrak begona o'tining nechta turi O'zbekistonda uchraydi? **Ikkita turi uchraydi.**

8694. Oqkarrak begona o'ti O'zbekistonda uchraydigan turlarining nomlari nima? **Oddiy oqkarrakning (O. acanthium L.), olga oqkarragi (O. olgai Rgl.).**

8695. Oqkarrak begona o'tining bo'yi necha sm? **80 – 120 sm.**

8696. Oqkarrak begona o'tining ildizi qanday ildiz? **O'qildiz.**

8697. Oqkarrak begona o'ti qaysi oylarda gullab, mevalaydi? **Iyun – sentabr oylarida gullab, mevalaydi.**

8698. Oqkarrak begona o't nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

8699. Oqkarrak begona o'tining urug'i qancha ° C haroratda unib chiqadi? **20° C – 25° C haroratda unib chiqadi.**

8700. Oqkarrak begona o't qayerda keng tarqalgan? **O'rta Osiyoda keng tarqalgan.**

8701. Oqkarrak begona o'ti, asosan, qayerlarda uchraydi? **Lalmi sug'oriladigan ekinlar orasida, tashlandiq yerlar, yo'l yoqalari, ariq-kanal bo'ylari, bog' va tokzorlarda uchraydi.**

8702. Oq kishmish navli uzumning vatani qayer? **Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq.**

8703. Oq kishmish navli uzumning qanday nomlari bor? **Kishmishi Safed, Bedona mayiz, Kishmish, Sultonina (Fransiya), Tompsson Sidlesse (AQSh) nomlari bor.**

8704. Oq kishmish navli uzumning tarkibida necha foiz, g/l qanday modda bor? **25 – 26 foiz qand, 4 – 4,5 g/l kislota bor.**

8705. Oq kishmish navli uzumning bargi necha bo'lakchali? **3 – 5 bo'lakchali.**

8706. Oq kishmish navli uzumning guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

8707. Oq kishmish navli uzumning hosildorligi qancha s/ga? **200 – 250 s/ga.**

8708. Oq kishmish navli uzum qaysi viloyatda ko'p ekiladi? **Samarqand viloyatida ko'p ekiladi.**

8709. Oq kishmish uzumi tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

8710. Oq kishmish uzumining bargi qanday kattalikda? **O'rtacha kattalikda.**

8711. Oq kishmish uzumi boshi bo'yi necha sm? **17 sm.**

8712. Oq kishmish uzumi boshi eni necha sm? **10 sm.**

8713. Oq kishmish uzumi boshi shakli qanday? **Konussimon.**

8714. Oq kishmish uzumi g'ujumi qanday? **Mayda, urug'siz.**

8715. Oq kishmish uzumi g'ujumi rangi qanday? **Och sariq.**

8716. Oq kishmish uzumi po'sti qanday? **Yupqa.**

8717. Oq kishmish uzumi qachon to'liq pishadi? **Sentabr oyining boshlarida to'liq pishadi.**

8718. Oq kishmish uzumi qurg'oqchilikka qanday? **Chidamsiz.**

8719. Oq kishmish uzumi sovuqqa qanday? **Chidamsiz.**

8720. Oq rami o'simligining pastki tomoni qanday tuklar bilan qoplangan? **Oq tuklar bilan qoplangan.**

8721. Oqko'l kechpishar qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

8722. Oqko'l navli qovunning uzunligi necha sm? **35 – 40 sm.**

8723. Oqko'l navli qovunning og'irligi qancha kg? **3 – 6 kg.**

8724. Oqko'l navli qovunning qaysi tomoni sal burishgan? **Dum tomoni.**

8725. Oqko'l navli qovun necha kunda pishadi? **95 – 105 kunda.**

8726. Oqko'l navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **220 – 250 s/ga.**

8727. Oqko'l navli qovun qaysi oygacha saqlanadi? **Aprel oyigacha saqlanadi.**

8728. Oqko'l navli qovun, asosan, qaysi viloyatda yetishtiriladi? **Farg'ona viloyatida yetishtiriladi.**

8729. Oq mum qayerlarda qo'llaniladi? **Parfyumeriya-kosmetikada, lok-bo'yoq ishlab chiqarish va boshqalarda qo'llaniladi.**

8730. Oq momiq qaysi oilaga mansub necha yillik o'simlik? **Murakkabguldoshlar (murakkabgullilar) oilasiga mansub bir yillik o'simlik.**

8731. Oqmiya qaysi oilaga mansub ildiz bachkili, necha yillik karantin begona o't? **Dukkakdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik karantin begona o't.**

8732. Oqmiya begona o'tining bo'yi necha sm? **40 – 80 sm.**

8733. Oqmiya begona o'tining bir tupi qancha urug' beradi? **600 – 800 ga yaqin urug' beradi.**

8734. Oqmiya begona o'tining urug'i qanday? **Zaharli.**

8735. Oqmiya begona o'tining urug'i qancha ° C haroratda unib chiqadi? **15° C – 20° C haroratda unib chiqadi.**

8736. Oqmiya begona o'ti poyasi qanday o'sadi? **Tik o'sadi.**

8737. Oqmiya begona o'ti bargları shakli qanday? **Cho'zinchoq.**

8738. Oqmiya begona o'ti bargları chetlari qanday? **Yaxlit.**

8739. Oqmiya begona o'ti bargları rangi qanday? **Kumush-ipaksimon.**

8740. Oqmiya begona o'ti gullari rangi qanday, qayerga yig'ilgan? **Sarg'ish, shoda to'pgulga yig'ilgan.**

8741. Oqmiya begona o'ti rizomalaridan ko'payadi? **Urug'i va ildizpoyalaridan ko'payadi.**

8742. Oqmiya begona o'tining qayerida ildizpoyalar o'sib chiqib, necha sm dan ko'proq chuqurlikka kirib boradi? **Ildiz bo'g'izidan ildizpoyalar o'sib chiqib, 50 – 60 sm dan ko'proq chuqurlikka kirib boradi.**

8743. Oqmiya begona o'tining qaysi a'zosidan ko'plab kurtaklar hosil bo'ladi? **Ildizpoyasidan.**

8744. Oqmiya begona o'ti O'rta Osiyoda qanday tarqalgan? **Keng tarqalgan.**

8745. Oqmiya begona o'ti qanday ekinlar orasida uchraydi? **Beda, g'o'za, g'alla ekinlari orasida uchraydi.**

8746. Oqmiya begona o'ti qayerlarda o'sadi? **Sug'orish shoxobchalari bo'ylari, dala, yo'l yoqalari, bog', tokzorlar, quriq yerlarda o'sadi.**

8747. Oq nuqul mahalliy qaysi meva navi? **O'rik navi.**

8748. Oq nuqul navli o'rik tarkibida necha foiz nimalar bor? **16 foiz qand, 0,5 foiz kislota bor.**

8749. Oq nuqul navli o'rik, asosan, qayerlarda o'stiriladi? **Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida o'stiriladi.**

8750. Oq nuqul navli mahalliy o'rik daraxti to'liq hosilga kirganda qancha kg gacha hosil beradi? **200 – 300 kg gacha mo'l hosil beradi.**

8751. Oq nuqul navli o'rikdan necha foiz bargak, turshak tushadi? **24 – 26 foiz bargak, 33 foiz turshak tushadi.**

8752. Oqpechak qaysi oilaga mansub serpoya va sershox necha yillik o't? **Pechakdoshlar (pechakgullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

8753. Oqpechak o'tining bo'yi necha sm? **30 – 40 sm.**

8754. Oqpechak o'tining tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **5,4 foiz kul va 12,6 foiz protenin hamda ekstrakt moddalar bor.**

8755. Oq saksovul qaysi oilaga mansub daraxt? **Sho'radoshlar (sho'ragullilar) oilasiga mansub daraxt.**

8756. Oq saksovul daraxtining bo'yi necha m cha? **5 m cha.**

8757. Oq saksovul daraxtining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

8758. Oq saksovul daraxtining changchilari nechta? **5 ta.**

8759. Oqso'xta o't qaysi oilaga mansub necha yillik o't? **Boshoqdoshlar (g'allagullilar) oilasiga mansub ko'p yillik o't.**

8760. Oqso'xta o'tining bo'yi necha sm? **100 – 150 sm.**

8761. Oqso'xta o'tining tarkibida protein necha foiz? **6,2 – 24,3 foiz.**

8762. Oqso'xta o'tining ildizi sershox bo'lib, uzunligi necha sm gacha? **100 sm gacha.**

8763. Oqso'xta o'ti qor ostidayoq nima qila boshlaydi? **Ko'kara boshlaydi.**

8764. Oqso'xta o'ti qaysi oyda gullaydi? **Iyunda gullaydi.**

8765. Oqso'xta o'tining urug'i qaysi oyda pishadi? **Avgust oyida pishadi.**

8766. Oqso'xta o'ti qachon lalmikor va sug'oriladigan yerlarda ekila boshlagan? **XIX asr boshlarida ekila boshlagan.**

8767. Oqso'xta o'tining poyasi qanday? **Ko'p, havol, serbarg.**

8768. Oqso'xta o'tining ildiz oldi barglari qanday? **Juda ko'p.**

8769. Oqso'xta o'ti O'zbekistonning qayerlarida ko'p o'sadi? **Tog'larining shimoliy yon bag'irlariida, ayniqsa, daraxt va butalar ostida ko'p o'sadi.**

8770. Oqso'xta o'ti eng yaxshi nimabop o'simliklardan biri? **Ozuqabop o'simliklardan biri.**

8771. Oqso'xta o'ti mollarga qanday holda beriladi? **Ko'k holida beriladi.**

8772. Oq tol qaysi oilaga mansub manzarali daraxt? **Toldoshlar (tolgullilar) oilasiga mansub.**

8773. Oq tolning (S. alba) balandligi necha m? **10 – 15 m.**

8774. Oq tolning cheti qanday tishli? **Arra tishli.**

8775. Oq tolning changchi gullari qanday rangda? **Sariq rangda.**

8776. Oq tolning novdalari qanday? **To'g'ri, egiluvchan.**

8777. Oq tolning bargi qanday? **Ingichka.**

8778. Oq tol yog'ochi tanasi po'stlog'i rangi qanday? **To'q kulrang, sur.**

8779. Oq tol qayerlarga ekiladi? **Kanallar, ariqlar va hovuzlar bo'yiga ekiladi.**

8780. Oq tol nimasidan ko'paytiriladi? **Novdasidan qalamcha qilib ko'paytiriladi.**

8781. Oq tolning bir yillik novdalaridan nimalar to'qiladi? **Savat va boshq. anjomlar to'qiladi.**

8782. Oq tut qaysi kasalliklarda parhez ozuqa va shifobahsh modda sifatida foydalaniladi? **Oq tut surunkali gepatitda, xoletsistitda, bezgakda, oshqozon-ichak kasalliklarida foydalaniladi.**

8783. Oq tut qaysi oilaga mansub ko'p yillik daraxt? **Tutdoshlar oilasiga mansub.**
Moraceae – tutdoshlar oilasiga mansub.

8784. Oq tut daraxtining balandligi necha m? **20 m va undan ham yuqori.**

8785. Oq tutning dunyo bo'yicha nechta turi mavjud? **24 ta turi mavjud.**

8786. Oq tut (Balxi tut) va shotut mevasi ta'mi qanday? Qanday vitaminlarga boy? **Shirin, shifobaxsh. Har xil vitaminlarga boy.**

8787. Oqurug' – o'rtapishar mahalliy qaysi poliz ekini navi? **Qovun navi.**

8788. Oqurug' navli qovunning uzunligi necha sm? **38 – 48 sm.**

8789. Oqurug' navli qovunning og'irligi qancha kg? **4 – 7 kg.**

8790. Oqurug' navli qovunning po'sti qanday? **Qattiq.**

8791. Oqurug' navli qovunning eti qalinligi necha sm? **5,5 – 6,7 sm.**

8792. Oqurug' navli qovunning urug'lari kattaligi shakli, rangi qanday? **Yirik, tuxumsimon, sariq.**

8793. Oqurug' navli qovun tarkibida necha foiz qand, saxaroza, quruq modda bor? **Qand 7,6 – 11,7 foiz, saxaroza 5,5 – 8,7 foiz, quruq modda 8,6 – 11,9 foiz bor.**

8794. Oqurug' navli qovunning urug'i ko'karib chiqqandan keyin necha kunda pishadi? **80 – 88 kunda pishadi.**

8795. Oqurug' navli qovunning hosildorligi qancha s/ga? **250 – 300 s/ga.**

8796. Oqurug' navli qovun uzoq joylarga tashishga qanday? **Yaroqsiz.**

8797. Oqurug' navli qovun, asosan, qaysi viloyatlarda ekiladi? **Asosan, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida ekiladi.**

8798. Oq xaliliy navli uzumning vatani qayer? **Eron.**

8799. Oq xaliliy navli uzum qayerlarda ekiladi? **O'zbekiston, Turkmaniston, Rossiyaning Stavropol o'lkasi, Marokash va Kaliforniyada ekiladi.**

8800. Oq xaliliy navli uzum tupi qanday o'sadi? **Kuchli o'sadi.**

8801. Oq xaliliy navli uzumning bargi qanday? **O'rtacha, sal cho'ziqroq, sal burishgan yoki silliq.**

8802. Oq xaliliy navli uzumning guli qanday jinsli? **Guli qo'sh jinsli.**

8803. Oq xaliliy navli uzum boshi o'rtacha qanday? **Tig'iz.**

8804. Oq xaliliy navli uzum g'ujumlari rangi qanday? **Oqish yoki ko'kish-sariq.**

8805. Oq xaliliy navli uzum po'sti qanday? **Yupqa.**

8806. Oq xaliliy navli uzum tarkibida qand miqdori necha foiz? **18 – 19 foiz.**

8807. Oq xaliliy navli uzum nordonligi necha foiz? **4 – 4,5 foiz.**

8808. Oq xaliliy navli uzum hosildorligi qancha s/ga? **120 – 160 s/ga.**

8809. Oq Xaliliy navli uzum O'zbekistonning qaysi viloyatlarida rayonlashtirilgan? **Hamma viloyatlarida rayonlashtirilgan.**

8810. Oq qarag'ay qaysi oilaga mansub doim qanday daraxt? **Qarag'aydoshlar (qarag'aygullilar) oilasiga mansub doim yashil daraxt.**

8811. Oq qarag'ay daraxtidagi efir moyi, asosan, necha foiz qaysi birikmalardan iborat? **Bornilatsetat (30 – 60 foiz), borneol kamfen (10 – 20 foiz), pinen (10 foiz) va boshqa birikmalardan iborat.**

8812. Oq qarag'ay daraxtining bargi va yosh novdalaridan tayyorlangan qaynatma qaysi vitaminga boy bo'lib, qaysi kasallikni davolash hamda oldini olish uchun qo'llaniladi? **C vitaminiga boy bo'lib, lavsha kasalligini davolash oldini olish uchun qo'llaniladi.**

8813. Oq qarag'ay daraxtining bo'yi necha m cha? **30 m cha.**

8814. Oq qarag'ay daraxtining bargi va yosh navdalarida necha foiz qanday moddalar bor? **3,27 foiz efir moyi, 0,32 foizcha C vitamini va boshqa moddalar bor.**

8815. Oq qarag'ay daraxtining tanasi rangi qanday? **To'q kulrang.**

8816. Oq qarag'ay daraxtining tanasi qanday po'stloqli? **Silliq po'stloqli.**

8817. Oq qarag'ay daraxtining igna barglari qanday (qattiqmi yoki yumshoqmi)? **Yumshoq.**

8818. Oq qarag'ay daraxtining igna barglari uchi qanday? **Tumtoq.**

8819. Oq qarag'ay daraxtining bargi va yosh novdalaridagi bornilatsetat va borneoldan qaysi modda sintez qilinadi? **Kamfora moddasi sintez qilinadi.**

8820. Oq qarag'ay daraxti, asosan, qayerda o'rmon hosil qiladi? **Asosan, Sibirda, ayniqsa, Sayan va Oltoyda, shuningdek, Rossiya Yevropa qismining shimoli-sharqida o'rmon hosil qiladi.**

8821. Oq qarag'aydan qanday moddalar olinadi? **Balzam, sutlamagullilarga mansub doredan ammiak smolasi, feruladan galban, asant va boshq. smolalar olinadi.**

8822. Oq qarag'ay daraxtining smolasidan qanday modda olinadi? **Skipidar moddasi olinadi.**

8823. Oqquray qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simlik? **Dukkakdoshlar (dukkaklilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simlik.**

8824. Oqquray o'tining ildizi va mevasida qanday moddalar bor? **Furokumarinlar (psoralen, izopsoralen va boshqalar), efir moyi bor.**

8825. Oqquray o'ti O'rta Osiyoning qayerlarida o'sadi? **Adir va tog' etaklarida o'sadi.**

8826. Oqquray o'tning ildizi va mevasidan olinadigan psoralen preparati qaysi kasallikni davolashda ishlatiladi? **Pes (vitiligo) kasalligini davolashda ishlatiladi.**

8827. Oqquray o'ti qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **Iyun – sentabr oylarida gullab, urug'laydi.**

8828. Oqquray o'tining O'zbekistonda qaysi turi uchraydi? **(P. drupaceae) dukkakli oquray turi uchraydi.**

8829. Oqquray o'tining poyasi uzunligi necha sm cha? **130 sm cha.**

8830. Oqquray o'tining bargları yumaloq yoki necha bo'lakli? **Uch bo'lakli.**

8831. Oqquray o'tining bargları qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

8832. Oqquray o'tining gultojisi qanday rangli? **Binafsha rangli.**

8833. Oqquray o'tining gulkosalari qo'ng'iroqsimon bo'lib, necha tishli? **5 tishli.**

8834. Oqquray o'tining mevasi necha urug'li dukkak? **Bir urug'li dukkak.**

8835. Oqquray o'tining ildizlarida qanday moddalar bor? **Oshlovchi moddalar bo.**

8836. Oqquray o'tining mevalaridan esterogen xossaga ega bo'lgan qanday modda olinadi? **Drupatein modda olinadi.**

8837. Oqquray o'tining yer ustki qismidan grammusbat bakteriyalar va antibiotiklarga chidamli stafilokokklar hamda dermatofitlarning o'sishini to'xtatib qo'yadigan nima degan antibiotik modda olinadi? **Bakuchiol degan antibiotik modda olinadi.**

8838. Oqquray o'tining barglarini kukun qilib, O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo qilish uchun, shuningdek, nima to'kilishiga qarshi ishlatiladi? **Xo'pposlar, pes, gush kasalliklariga davo qilish uchun, shuningdek, soch to'kilishiga qarshi ishlatiladi.**

8839. Oqquray o'tidan olinadigan psoralen preparati qaysi kasallikka davo qilishda ichish va sirtga ishlatish uchun tavsiya qilinadi? **Pes kasalligiga tavsiya qilinadi.**

8840. Oqquray o'ti qanday o'simlik? **Dorivor o'simlik.**

8841. Oqqurt o'simligi qaysi oilaga mansub serpoya nima? **Pechakdoshlar (pechakgullilar) oilasiga mansub serpoya chala buta.**

8842. Oqqurt o'simligining bo'yi necha sm? **40 – 50 sm.**

8843. Oqqurt o'simligi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **9,2 foiz kul moddalari, 13,7 foiz protesin, 12,7 foiz oqsil, 2,9 foiz moy, 40,3 foiz kletchatka va 33,2 foiz azotsiz ekstrakt moddalar bor.**

8844. Oq ching'il qaysi oilaga mansub qanday buta? **Tomatdoshlar (tomatgullilar) oilasiga mansub sershox buta.**

8845. Oq ching'il butasining bo'yi necha sm? **60 – 150 sm.**

8846. Oq ching'il butasining bargida necha foizcha alkaloid bor? **0,36 foizcha alkaloid bor.**

8847. Oq chitir, qarg'atirnoq-butguldoshlarga mansub necha yillik begona o't? **Bir yillik.**

8848. Oq chitir begona o'ti nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

8849. Oq chitir begona o'tining bo'yi necha sm? **10 – 30 sm.**

8850. Oq chitir begona o'tining barglari qanday? **Bandli, cho'zinchoq.**

8851. Oq chitir begona o'tining barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

8852. Oq chitir begona o'tining barglari chetlari qanday tishli? **Siyrak tishli, tukli.**

8821. Oq qarag'aydan qanday moddalar olinadi? **Balzam, sutlamagullilarga mansub doredan ammiak smolasi, feruladan galban, asant va boshq. smolalar olinadi.**

8822. Oq qarag'ay daraxtining smolasidan qanday modda olinadi? **Skipidar moddasi olinadi.**

8823. Oqquray qaysi oilaga mansub necha yillik qanday o'simlik? **Dukkakdoshlar (dukkaklilar) oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simlik.**

8824. Oqquray o'tining ildizi va mevasida qanday moddalar bor? **Furokumarinlar (psoralen, izopsoralen va boshqalar), efir moyi bor.**

8825. Oqquray o'ti O'rta Osiyoning qayerlarida o'sadi? **Adir va tog' etaklarida o'sadi.**

8826. Oqquray o'tning ildizi va mevasidan olinadigan psoralen preparati qaysi kasallikni davolashda ishlatiladi? **Pes (vitiligo) kasalligini davolashda ishlatiladi.**

8827. Oqquray o'ti qaysi oylarda gullab, urug'laydi? **Iyun – sentabr oylarida gullab, urug'laydi.**

8828. Oqquray o'tining O'zbekistonda qaysi turi uchraydi? **(P. drupaceae) dukkakli oquray turi uchraydi.**

8829. Oqquray o'tining poyasi uzunligi necha sm cha? **130 sm cha.**

8830. Oqquray o'tining barglari yumaloq yoki necha bo'lakli? **Uch bo'lakli.**

8831. Oqquray o'tining barglari qanday joylashgan? **Navbatma-navbat joylashgan.**

8832. Oqquray o'tining gultojisi qanday rangli? **Binafsha rangli.**

8833. Oqquray o'tining gulkosalari qo'ng'iroqsimon bo'lib, necha tishli? **5 tishli.**

8834. Oqquray o'tining mevasi necha urug'li dukkak? **Bir urug'li dukkak.**

8835. Oqquray o'tining ildizlarida qanday moddalar bor? **Oshlovchi moddalar bo.**

8836. Oqquray o'tining mevalaridan esterogen xossaga ega bo'lgan qanday modda olinadi? **Drupatsin modda olinadi.**

8837. Oqquray o'tining yer ustki qismidan grammusbat bakteriyalar va antibiotiklarga chidamli stafilokokklar hamda dermatofitlarning o'sishini to'xtatib qo'yadigan nima degan antibiotik modda olinadi? **Bakuchiol degan antibiotik modda olinadi.**

8838. Oqquray o'tining barglarini kukun qilib, O'rta Osiyo xalq tabobatida qanday kasalliklarga davo qilish uchun, shuningdek, nima to'kilishiga qarshi ishlatiladi? **Xo'pposlar, pes, gush kasalliklariga davo qilish uchun, shuningdek, soch to'kilishiga qarshi ishlatiladi.**

8839. Oqquray o'tidan olinadigan psoralen preparati qaysi kasallikka davo qilishda ichish va sirtga ishlatish uchun tavsiya qilinadi? **Pes kasalligiga tavsiya qilinadi.**

8840. Oqquray o'ti qanday o'simlik? **Dorivor o'simlik.**

8841. Oqqurt o'simligi qaysi oilaga mansub serpoya nima? **Pechakdoshlar (pechakgullilar) oilasiga mansub serpoya chala buta.**

8842. Oqqurt o'simligining bo'yi necha sm? **40 – 50 sm.**

8843. Oqqurt o'simligi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **9,2 foiz kul moddalari, 13,7 foiz protesin, 12,7 foiz oqsil, 2,9 foiz moy, 40,3 foiz kletchatka va 33,2 foiz azotsiz ekstrakt moddalar bor.**

8844. Oq ching'il qaysi oilaga mansub qanday buta? **Tomatdoshlar (tomatgullilar) oilasiga mansub sershox buta.**

8845. Oq ching'il butasining bo'yi necha sm? **60 – 150 sm.**

8846. Oq ching'il butasining bargida necha foizcha alkaloid bor? **0,36 foizcha alkaloid bor.**

8847. Oq chitir, qarg'atirnoq-butguldoshlarga mansub necha yillik begona o't? **Bir yillik.**

8848. Oq chitir begona o'ti nimasidan ko'payadi? **Urug'idan ko'payadi.**

8849. Oq chitir begona o'tining bo'yi necha sm? **10 – 30 sm.**

8850. Oq chitir begona o'tining barglari qanday? **Bandli, cho'zinchoq.**

8851. Oq chitir begona o'tining barglari qanday joylashgan? **Ketma-ket joylashgan.**

8852. Oq chitir begona o'tining barglari chetlari qanday tishli? **Siyrak tishli, tukli.**

8853. Oq chitir begona o'tining gullari rangi qanday? **Oq yoki oqish-sariq.**

8854. Oq chitir begona o'tining mevabandi qanday? **Yo'g'on.**

8855. Oq chitir begona o'tining mevasi qanday? **Qo'zoq.**

8856. Oq chitir begona o'tining ildizi qanday ildiz? **O'q ildiz.**

8857. Oq chitir begona o'ti qaysi oylarda gullaydi va mevalaydi? **May – iyulda gullaydi va mevalaydi.**

8858. Oq chitir begona o'tning bir tupi qancha urug' tug'adi? **3 mingdan ortiq urug' tug'adi.**

8859. Oq chitir begona o'tining urug'lari qancha ° C haroratda ko'karadi? **4° C – 18° C haroratda ko'karadi.**

8860. Oq chitir begona o't qayerda tarqalgan? **O'rta Osiyoda tarqalgan.**

8861. Oq chitir qaysi ekinlar orasida uchraydi? **Beda, sug'oriladigan va lalmi don ekinlari orasida uchraydi.**

8862. Oq shaftoli navini nechanchi yilda qaysi olim tanlash usulda yaratgan? **1936-yilda A. S. Chyerevatenko yaratgan.**

8863. Oq shaftoli navining ko'chati o'tqazilgach, nechanchi yili hosil beradi? **2 – 3 yili hosil beradi.**

8864. Oq shaftoli navining tarkibida necha foiz nimalar bor? **13,5 foiz qand, 0,39 foiz kislota bor.**

8865. Oq shaftoli navi necha yoshida eng ko'p hosil beradi? **7 – 9 yoshida eng ko'p hosil beradi.**

8866. Oq shaftoli navining bir tupi hosili qancha kg? **70 – 90 kg.**

8867. Oq shaftoli navining hosildorlik davri necha yil? **12 – 15 yil.**

8868. Oq shaftoli navi qachon pishib yetiladi? **Avgustning 2 – 3-o'n kunligida pishib yetiladi.**

8869. Oq shaftoli daraxtining guli necha jinsli? **Ikki jinsli.**

8870. Oq shaftoli daraxtining guli qanday rangda? **Pushti, oq rangda.**

8871. Oq shaftoli daraxti qayerdan changlanadi? **O'zidan changlanadi.**

8872. Oq shaftoli daraxtining mevasi og'irligi o'rtacha qancha g? **100 – 10 g.**

8873. Oq shaftoli daraxtining mevasi rangi qanday? **Oqish-ko'kimtir, yaltiroq.**

8874. Oq shaftolining po'sti qanday tukli? **Mayin tukli.**

8875. Oq shaftoli etidan qanday ajraladi? **Oson ajraladi.**

8876. Oq o'rik uchun O'zbekistonning qaysi viloyatlarida rayonlashtirilgan? **Toshkent, Farg'ona viloyatlarida rayonlashtirilgan.**

8877. Oq o'rik daraxti necha m balandlikkacha o'sadi? **7,5 m balandlikkacha o'sadi.**

8878. Oq o'rik ko'chati o'tqazilgandan keyin nechanchi yili hosil beradi? **5 – 6 yili hosil beradi.**

8879. Oq o'rik daraxtining mevasi qachon pishadi? **Iyun oyining 2-o'n kunligida pishadi.**

8880. Oq o'rik daraxtining mevasi tarkibida necha foiz qanday moddalar bor? **11 – 16 foiz qand, 0,6 – 0,7 foiz kislota, 16 – 20 foiz quruq moddalar bor.**

8881. Oq o'rik daraxtining bir tupidan qancha kg meva olinadi? **80 – 100 kg meva olinadi.**

8882. Oq o'rik daraxti qayerdan changlanadi? **Chetdan changlanadi (Arzami, Ko'rsodiq navlari yaxshi changlovchi hisoblanadi).**

8883. Oq o'rik daraxtining mevasi o'rta kattalikda bo'lib, bir donasi og'irligi qancha g? **30 – 40 g.**

8884. Oq o'rik daraxtining mevasi rangi qanday? **Sariq.**

8885. Oq o'rik daraxtining mevasi eti qanday? **Tig'iz, mayin, sersuv, shirali.**

8886. Oq o'rikdan nima olinadi, nima tayyorlanadi? **Qoqi olinadi, murabbo tayyorlanadi.**

8887. Oq o'rik daraxti sovuqqa qanday? **Chidamli.**

8888. Oqqovun, Oq qovun – 557-o'rtapishar, serhosil nav bo'lib, uzunligi necha sm gacha? **50 – 60 sm gacha.**

8889. Oqqovun, Oq qovun – 557-o'rtapishar, serhosil nav bo'lib, og'irligi qancha kg? **6 – 10 kg.**

8890. Oqqovun tarkibida qand moddasi necha foiz? **Qand 6,27 – 10 foiz.**

8891. Oqqovun tarkibida saxoraza moddasi necha foiz? **Saxaroza 5,3 – 6,5 foiz.**

8892. Oqqovun tarkibida quruq moddasi necha foiz? **Quruq modda 11,6 – 14 foiz.**

8893. Oqqovunning urug'i unib chiqqach, necha kunda pishadi? **85 – 100 kunda pishadi.**

8894. Oqqovunning hosildorligi qancha s/ga? **250 – 280 s/ga.**

8895. Oqqovunning shakli qanday? **Cho'ziq-tuxumsimon.**

8896. Oqqovunning sirti qanday? **Bir oz g'adir-budur, yirik to'rli.**

8897. Oqqovunning rangi qanday? **Ko'kish-oq.**

8898. Oqqovunning po'sti qanday? **Qattiq.**

8899. Oqqovunning eti qalinligi o'rtacha necha sm? **5 – 6 sm.**

8900. Oqqovunning eti rangi qanday? **Oq.**

8901. Oqqovun ta'mi va hidi qanday? **Shirin, sershira, xushbo'y.**

8902. Oqqovun uzoq joylarga yuborishga, qoqi qilishga qanday? **Yaroqli.**

8903. Oqqovun qaysi viloyat va vodiy uchun rayonlashtirlgan? **Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysi uchun rayonlashtirlgan.**

8904. Oq qunduz (Mordovnik obuknovennuy) o'simligi bo'yi necha sm gacha boradigan necha yillik o'tsimon o'simlik? **80 sm gacha boradigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik.**

8905. Oq qunduz o'simligining bargları qandaysimon kesilgan? **Patsimon kesilgan.**

8906. Oq qunduz o'simligi barglarining pastki tomoni qanday? **Tukli.**

8907. Oq qunduz o'simligining gullari qanday rangli? **Oq yoki ko'k.**

8908. Oq qunduz o'simligi nechta gulbargdan iborat? **5 ta gulbargdan iborat.**

8909. Oq qunduz o'simligi qayerlarda uchraydi? **O'rta Osiyo, Ukraina, Kavkaz va g'arbiy Sibirda uchraydi.**

8910. Oq qunduz o'simligi qaysi viloyatning Qamashi tumanidagi Langar, Qiziltepa qishloqlariga ketuvchi yo'l yoqasida juda ko'p tarqalgan? **Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Langar, Qiziltepa qishloqlariga ketuvchi yo'l yoqasida juda ko'p tarqalgan.**

8911. Oq qunduz o'simligining mevalari tarkibida necha foizgacha har xil moylar bor? **28 foizgacha har xil moylar bor.**

8912. Oq qunduz o'simligining mevalari tarkibida qaysi alkaloid bor? **Exinopsin alkaloidi bor.**

8913. Oq qunduz o'simligi xalq tabobatida ichilsa, qanday kasalliklarga yordam beradi? **Toliqish holatlariga, nevrit,**

mushaklar atrofiyasiga, jinsiy zaiflik, shol kasalliklariga yordam beradi.

8914. Og'irligi 600 g keladigan eng og'ir jenshen ildizi nechanchi yilda Manchjuriyada temir yo'l qurilishi vaqtida topilgan bo'lib, bu ildizning yoshi 200 yil deb hisoblangan? **Bu ildiz necha dollarga sotilgan? 1905-yilda. 5000 dollarga sotilgan.**

8915. Oqqovunning hidi qanday? **Xushbo'y.**

8916. Oqqovunning urug'xonasi qanday (kattami yoki o'rtachami)? **O'rtacha.**

8917. Oqqovunning urug'i qanday (maydami yoki yirikmi)? **Yirik.**

8918. Oqqovun qanday tuproqli erlarda, ayniqsa, yaxshi hosil beradi? **Bo'z tuproqli yerlarda, ayniqsa, yaxshi hosil beradi.**

8919. Oqquray ildizi qanday? **Yo'g'on va uzun.**

8920. Oqqurayning barglari qanday? **Oddiy, yaxlit, yumshoq, bandli.**

8921. Oqqurayning cheti qandaysimon? **Arrasimon.**

8922. Oqqurayning guli qanday (yirikmi yoki maydami)? **Mayda.**

8923. Oqqurayning to'pguli qandaysimon? **Shingilsimon.**

8924. Oqqurayning gulkossasi qandaysimon? **Qo'ng'iroqsimon.**

8925. Oqquray mevasining dukkagi qanday tukli? **Paxmoq tukli.**

8926. Oqquray poyasi, bargi hamda mevasi qanday bezchalar bilan qoplangan? Tuk va mayda bezchalar bilan qoplangan.

8927. Oqquray ildizi va mevasida qaysi moddalar bor? **Furokumarinlar (psoralen, izopsoralen va boshq.) bor.**

8928. Oqquray mevasida qaysi moy mavjud? **Efir moyi mavjud.**

8929. Oqquray qayerlarda qanday o't sifatida o'sadi? **Tog' yon bag'irlarida, baharikor erlarda begona o't sifatida o'sadi.**

8930. Oqquray qaysi mintaqalarda keng tarqalgan? **Cho'l va adir mintaqalarida keng tarqalgan.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Айала Ф., Кайгар Ж.* Современная генетика. Т. 1 – 2. – М., 1988.

2. *Акапова Н. Э.* Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применения. – Т.: Медицина, 1986.

3. *Благовещенский А. Н.* Лекарственные растения пастбищ Узбекистана. – Т.: Мехнат, 1989.

4. *Вавилова Н. И.* Происхождение и география культурных растений. – Л., 1987.

5. *Вавилов П. П.* Растениеводство. – М., 1986.

6. Генефонд технических культур – резерв развития агрокомплекса Среднеазиатского региона. – Т., 1986.

7. *Инге-Вечтомов С. Г.* Генетика с основами селекции. – М., 1989.

8. Казаков Е. Д. Зерноведение с основами растениеводства. 3-изд. – М., 1983.

9. *Кьосев П. А.* Полный справочник лекарственных растений. – М.: ЭКСМО, 2004.

10. *Mavlonov O.* Biologiya. – T., 2003.

11. *Madrahimov A. S.* Abu Ali ibn Sino shifobaxsh o'simliklar haqida. – T.: Mehnat, 1990.

12. *Маланов С. И., Покровский А. А.* Прямоароматические растения. – М.: Агропромиздат, 1991.

13. *Мурдохаев Ю. М.* Культура лекарственных растений в Узбекистане. – Т., 1988.

14. *Muxtorov M.* Shifobaxsh o'simliklar bilan davolash. – Qarshi: Nasaf, 2009.

15. *Nabiev M.* Shifobaxsh giyohlar. – T., 1980.

16. *Нуриллаев Ю.* Лекарственные растения. – Душанбе: Маориф, 1989.

17. *Пасинанов Г. С.* Растениеводство. – М., 1997.

18. *Pratov O'., To'xtaev A., Azimova F.* Botanika. 5-sinf. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2011.

19. Пшеница мира. 2-изд. – Л., 1987.

20. *Рахманкулов У. и др.* Psoralea костянковая лекарственное растение. – Т.: Фан, 1948.

21. *Ribakov A. A., Ostroumova S. A.* O'zbekiston mevachiligi. – T., 1967.

22. *Sahobiddinov S. S.* O'simliklar sistematikasi. – T.: O'qituvchi, 1966.

23. Сорта плодовых, субтропических, орехоплодных культур и ягод. – Т., 1986.

24. *Sobirov O.* Vitaminlar va ularning hayot uchun ahamiyati. – T., 1991.

25. *Тавлинова Г. К.* Цветы в комнате и на балконе. – Л., 1985.

26. *Turaqulov Y. H.* Molekulyar biologiya. – T., 1994.

27. *Удачин Р. А., Шахмедов Н. Ш. Пшеница в Средней Азии.* – *Т., 1984.*

28. *Ходжаев К., Холматов Х. Х. Культура лекарственных растений в Узбекистане.* – *Т.: Фан, 1965.*

29. *Ходжиметов М.* Дикорастущие лекарственные растения Таджикистана. – *Душанбе, 1988.*

30. *Xoliqov P. X.* va boshq. Biologiya. – T., 1996.

31. *Xolmatov X. X., Xabibov Z. X.* O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari. – T.: Meditsina, 1976.

32. *Холматов Х. Х. и др.* Основные лекарственные растения Средней Азии. – Т.: Медицина, 1984.

33. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. I jild. – XII jild. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000 – 2005.

45. *Hojimatov Q. H., Olloyorov M.* O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza qilish. – T., 1988.

46. *Hojimatov Q. H.* va boshq. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham (Fitoterapiya). – T., 1995.

47. *Holiqov K.* O'zbekistonning janubidagi dorivor o'sim-

liklar – T., 1992.

48. *Ницер А. В.* Занимательная ботаника. – Москва: Наука, 1951.

49. *Lunkevich V. V.* Qiziqarli biologiya. – T.: O'zbekiston, 1967.

50. *Максимов Н. А.* Как живет растение. – *Москва: Колос, 1966.*

MUNDARIJA

	Savollar-javoblar	Betlar
So'zboshi		3-7
A	1-1313	8-84
B	1314-2680	84-163
D	2681-3090	163-188
E	3091-3399	188-202
F	3340-3457	202-209
G	3458-4034	209-243
H	4035-4174	243-251
I	4175-4655	251-280
J	4656-5045	280-302
K	5046-6375	302-377
L	6376-6888	377-406
M	6889-7892	406-464
N	7893-8357	464-492
O	8358-8930	492-523
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati		524

YUSUF MAHMUDOV

BOTANIKADAN 8930 SAVOLGA JAVOB

Birinchi kitob

Muharrir *A. Radjabov*
Badiiy muharrir *B. Muhammedov*
Texnik muharrir *B. Irisbayev*
Musahhih *D. Ismoilova*
Sahifalovchi *D. Akramov*

Lits. AI № 111. Bosishga 25.02.2017 yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1/32. Hajmi 32,0 b. t. Adadi 2000 nusxa.
Shartnoma № 49. Buyurtma № 119/5.

«YANGI NASHR» nashriyoti,
100115, Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1-uy.

Original maket «Bilik-Print» MChJ matbaa korxonasi.
100115, Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1-uy.

«ADAD PI YUS» MChJ matbaa bosmaxonasi
Toshkent sh., Bunyodkor ko'chasi, 28-uy